

TAFAKKUR ZIYOSI

Tafakkur ziyosi 1/2023
ilmiy uslubiy jurnal



Biz bugun mamlakatimizda erkin fuqarolik jamiyati, huquqiy demokratik davlat barpo etar ekanmiz, jadid bobolarimizning gumanistik qarashlariga tayanamiz, ularning merosidan ma'naviy kuch-quvvat olamiz.

Farzandlarimizni har tomonlama barkamol, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq insonlar etib tarbiyalashda taraqqiyparvar ajdodlarimizning aql-zakovati, iroda va matonati barchamiz uchun ibrat maktabi bo'lib xizmat qiladi.

Shavkat Mirziyoyevning "Jadidlar merosini o'rganishga bag'ishlangan xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo'llagan tabrigi"dan

BOSH MUHARRIR

Shavkat Safarovich Sharipov –
pedagogika f.d., professor

MAS'UL KOTIB

Farrux Aqchayev – tarix f.f.d., dotsent

TARJIMONLAR:

Zubayda Jumayeva-
filologiya.f.b.f.d.,(PhD)
(rus tili bo'yicha)

Eldar Hasanov-filologiya.f.b.f.d., (PhD)
(rus tili bo'yicha)

Anora Jabborova -filologiya.f.b.f.d.,(PhD)
(ingliz tili bo'yicha)

Dildora Baxriddinova - katta o'qituvchi
(ingliz tili bo'yicha)

TEXNIK MUHARRIR:

Feruz Jumayeva – filologiya
f.b.f.d., dotsent

NAVATCHI MUHARRIR:

Murodulla Jo'rayev – filologiya
f.f.d., (PhD)

SAHIFALOVCHILAR **Zuxra Salkinova**

**Jurnal andozasi Raqamli ta'lim
texnologiyalari markazida**
Zarina Abdusattorova
tomonidan tayyorlandi

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Anatoliy Sagdullayev – tarix f. d., akademik

Komiljon Tojiboyev, biologiya f.d., akademik

Andrey Zuyev, Novosibir DU Gumanitar instituti professori, tarix f.d.
(Rossiya)

Stiven Korbet –Portsmud universiteti, Tillar va amaliy tilshunoslik
yo'nalishi professori (Buyuk Britaniya)

Seyko Wazake, Chibu universiteti doktori (Yaponiya)

Donina Lyudmila, Sank-Peterburg DU dotsenti, filologiya f.n.
(Rossiya)

Jakelin Duglas – Norwich tillar o'qitish instituti peofessori (Buyuk
Britaniya)

Himmat Karadal – Izzet Baysal universiteti professori (Turkiya)

Tuba Yilmaz – Nejmiddin Erbakan universiteti professori (Turkiya)

G'ayrat Qodirov – biologiya f.n., dotsent

Botir To'xtamishev, texnika f.n., dotsent

Sarvar Nazarqosimov, sotsiologiya f.b.f.d.dotsent

Qozqoboy Yo'ldoshev, pedagogika f.d., professor

Usmonjon Qosimov - filologiya f.d.

Abdug'afur Mamatov- filologiya f.d., professor

Umrzoq Jumanazarov, filologiya f.d., professor

Faniya Axmedshina, tarix f.d., professor

Baxti Ochilova - falsafa f.d., professor

Hamid Meliyev – pedagogika f.n., professor

Xudoybergan Mavlonov – biologiya f.d., dotsent

Qo'chqor Hakimov – geografiya f.n., professor v.b.

Mo'min Hoshimxonov, falsafa va filologiya f.d.

Furqat Axmedov - pedagogika f.n., professor

Akbar Saitqosimov – falsafa f.d., professor

Zuhra Yaxshiyeva, kimyo f.d., professor

Abdunazar Nurmonov, pedagogika f.d., professor

Rustam Abdurasulov, psixologiya f.d., dotsent

Marat Sultonov, kimyo f.d., professor

Raximboy Yarmatov, pedagogika f.d., dotsent

Ilyos Islamov, tarix f.d., dotsent

Muxtorqul Pardayev, tarix f.n., dotsent

Rabbim Yusupov, texnika f.n., dotsent

Oleg Kim, filologiya f.n., dotsent

Abduvali Shamshiyev, iqtisod f.n., dotsent

Yulduz Karimova, filologiya f.n., dotsent

Kamoliddin Zoyirov, pedagogika f.n., dotsent

Sherali Abduraimov, pedagogika f.b.f.d., dotsent

Feruz Jumayeva – filologiya f.b.f.d., dotsent

Bobomurot Toshboyev – falsafa f.b.f.d., dotsent

Muassis - Jizzax davlat

pedagogika universiteti

Jurnal yilda 4 marta

(har chorakda) chop etiladi.

Matnlarda foydalanilgan ko'chirma
va ma'lumotlar aniqligi uchun
mualliflar mas'uldirlar.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda,
manba qayd etilishi shart.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasining filologiya, falsafa va pedagogika fanlari bo'yicha ekspert kengashi (2018-yil 29-dekabrda 260/6-son bayonnomasi) tavsiyasi bilan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal Jizzax viloyati Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasidan 2020-yil 25-aprelda 06-042 raqam bilan qayta ro'yxatga olingan. Jurnalning xalqaro ISSN raqami: 2181- 6131

MANZIL: 130100, Jizzax shahri,
Sh. Rashidov ko'chasi, 4-uy, bosh bino
TELEFON: (99872) 226 02 93,
(99897) 644 84 44
FAKS: (99872) 226 46 56

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
MATBAA BO'LIMI

Jizzax shahri, Sharof Rashidov ko'chasi, 4-uy
2023-yil 25-mart kuni bosmaxonaga topshirildi.

Qog'oz bichimi A4 Buyurtma: _____
Nashr adadi: 100

MUNDARIJA

TAQVIM

U. Qosimov, A. Jumanov Navoiy ijodida umuminsoniy qadriyatlar talqini 3
 S. Ne'matova Bobur g'azallarida inson ruhiyati aks etishi 6

PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA INNOVATSION TA'LIM

Sh. Abduraimov, J. Xolmatov Ta'lim turlararo integratsiya holati va rivojlanish bosqichlari 9
 D.U. Jumanazarova Ma'naviy-axloqiy fazilatlarining ijtimoiy-tarixiy asoslari 12
 Z. Y. Xamraqulov Innovatsion texnologiyalarning bo'lajak huquqshunos-pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishdagi o'rni 17
 D. A. Muminova Talabalarni ijtimoiy faolligini rivojlantirishda kitobdan foydalanishning pedagogik mexanizmlari 21
 B. F. Botirov O'zbekistonda turizm xizmatlarining yangi turlarini ko'paytirish orqali ish o'rinlarini yaratishning nazariy asoslari 25
 N. Y. Qurbonov O'qituvchining kasbiy pedagogik madaniyati va ijodiy kompetensiyasi 29
 P. Q. Xolmatov, B. A. Pardayev Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishni samarali tashkil etish va takomillashtirish 32

D. R. Shabbazova Sharq mutafakkirlarining qarashlarida shaxsiy qadriyatlarining aks etishi 36
 D. R. Sodiqova Talabalarida ijodiy munosabatlar tafakkurini shakllantirishda innovatsion yondoshuvlarning o'rni va ahamiyati 40
 M. A. Tillyashayeva Masofaviy ta'lim texnologiyasidan foydalanish: asosiy omillar va samaradorligi mezonlari 43
 Sh. A. Donayeva Ta'lim subyektlarida refleksiyaning namoyon bo'lish shart-sharoitlari va shakllanish bosqichlari 46
 Sh. Buranova Профессиональная деятельность воспитателя и специально-организованные формы работы в период адаптации ребёнка 50

AMALIY FANLAR

L. X. Rustamov Jismoniy madaniyat yo'nalishi talabalarini uzluksiz pedagogik amaliyoti jarayonini modellashtirish 53
 T. Xoldarov, A. R. Kazakov Kekska ayollarga moslashtirilgan sayr-sayohatlarining sog'lomlashtiruvchi xususiyatlari 57
 D. K. Ismagilov Методика подготовки компетентных специалистов в области футбола в условиях образовательного процесса 59
 A. I. Olimov Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha bo'lajak mutaxassislariga ta'lim berishning pedagogik jihatlari 61
 E. I. Qudratova Milliy musiqlik meros namunalaridan axloqiy-estetik tarbiyada foydalanish imkoniyatlari 64
 N. X. Xasanova Shaxs kamolotini shakllanishida musiqqa va tarbiyaning uzviy bog'liqligi 66
 K. T. Muxamedzhanov O'zbekistonda an'anaviy musiqasiga bir nazar 69
 S. Sh. Urinova Musiqqa o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning ahamiyati 73
 A. R. To'xtasinov Bo'lajak musiqa o'qituvchisining etnopedagogik madaniyatini takomillashtirishning mazmuni va pedagogik shart-sharoitlari 77
 M. G. Muminjonova "Texnologiya va uni o'qitish metodikasi" fanini o'qitish modullari-kreativ o'quv materiallaridan foydalanish texnologiyasi 84

IJTIMOIY FANLAR

R. R. Nurqulova Jizzax vohasi tarixida Amir Temurning o'rni 88
 B. E. Toshboyev Shaxs tushunchasi va uning shakllanishiga doir ayrim mulohazalar 91
 X. X. Eshov, O. X. Ravshanov Yoshlarni faolligini oshirishda siyosiy-huquqiy ta'lim va innovatsion texnologiyalari 96
 Y. O. Xoliqov Jamiyatda millatlararo bog'rikenglik madaniyatini rivojlantirishning axloqiy asoslari 101
 M. P. Ergasheva O'zbekistonda xotin-qizlar faolligini yuksaltirishning ijtimoiy-siyosiy jihatlari 106
 A. E. Dolanov Yoshlar ongida milliy mentalitetni shakllantirish zaruriyati 110
 A. Boltayev, D. Abduazimov, D. Ibrohimov Turkiston general gubernatorligi davrida Mirzacho'lning o'zlashtirishi 113
 H. X. Eshova Ma'naviy tahdidlarning mazmun-mohiyati 116
 Sh. B. Sadiyeva Adolat fenomenining ijtimoiy-falsafiy tahlili 120
 U. I. Nazarov Samarqandda jadidchilik harakati va unda Said Rizo Alizodaning o'rni 124
 J. Anarbayev Yangi O'zbekistonda ijtimoiy davlat tamoyilining inson huquq va manfaatlarini ta'minlashdagi ahamiyati 128

FILOLOGIYA FANLARI

A. T. Nurmanov, Z. O. Karimova Языковая картина мира как центральное научное понятие в современной лингвокультурологии 131
 E. J. Nasrullayev Adabiyotshunos Najmiddin Komilov tadqiqotlari tahlili 135
 J. A. Jo'rayev Alisher Navoiy asarlari uchun yozilgan lug'atlarda "Gulshanul-asror" baytlarining illyustrativ material sifatida foydalanilishi 139
 Z. Sh. Jumayeva Kiyim komponentli frazeologik birliklar tadqiqoti 143
 M. R. Xidirova Tog'ay Murod hikoyalarida realistlik tasvir 146
 Y. A. Artikova Realiti-shoularda o'zaro muloqotli janrlar uyg'unligi 149
 A. X. Jo'rayev Turizm kollejari o'quvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish nazariyasining ba'zi tahlillari 152
 N. I. G'aybullayeva Salomatlik konseptining aktual kognitiv xususiyatlari 156
 X. Xolmurodov, D. A. Xidirova Alisher Navoiy she'riyatida obrazlar transformatsiyasi funksiyalari 161
 Sh. A. Kenjaboiev Профессиональная направленность при обучении иностранным языкам 163
 O. R. Anarbayev Inlgizcha gazeta matnlarini o'zbek tiliga tarjima qilish usullari va muammolari 166
 Sh. A. Jo'rayev, A. R. Muhammadov Erkin Vohidov badiiy publitsistikasi xususida ba'zi mulohazalar 170

TABIIY VA ANIQ FANLAR

K. X. Rashidova, O. J. Akbarova, K. M. Anorboyeva Umumta'lim maktablarida "Metallar korroziyasi" mavzusini o'qitishda zamonaviy metodlardan foydalanish 172
 A. A. Sharipova Elektron, avtomatik va avtomatlashtirilgan lug'at tushunchalarining o'zaro nisbati 175
 D. B. Abduraximov Zamonaviy ta'limda virtual texnologiyalar va uning dasturiy ta'minotidan foydalanish 178
 Sh. B. Ochilov Aylanma harakatlanuvchi mexanizmlarni o'qitishda fanlararo bog'lanishdan foydalanish 182
 M. U. Sulطانov, Z. K. Botirov Экспериментальные данные по образованию зеркальных ядер ²H и ³He в ¹⁶ор-соударениях при 3,25 а·гэв/с 185

YOSH TADQIQOTCHILAR

Sh. B. Formanova Kimyo fanidan mustaqil ishlarni tashkil etish usullari 190
 U. S. Xonimkulov "Keys-stady" metodidan foydalanib talabalarida kompyuterning texnik ta'minotiga oid kompetensiyalarni rivojlantirish 193
 U. J. Hasanov "Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari" fanini o'qitishda virtual ta'lim texnologiyalaridan foydalanish 197
 H. T. To'rayeva Kredit-modul tizimidagi mustaqil ta'limni klaster usulida olib borish jarayoni 202
 J. A. Xotamov Problems in classification of stars 206
 M. Aliyev Raqamli ta'lim muhitida ta'limiy va baholashga asoslangan platformalar 208

YOSH TADQIQOTCHILAR

R. D. Norqobilova Boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyatini indikatorlar asosida diagnostika qilish 212
 I. D. Babamuratov Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq kompetensiyalarini shakllantirishda shaxsga yo'naltirilgan ta'limning ahamiyati 216
 M. A. Rasulova The concept of discourse and its linguistic and cultural interpretation 219
 Y. A. Annapulovala Саломат Вафо и её герои в фольклорном аспекте 222
 F. M. Vakhidova Inlgiz va o'zbek tillarida yuridik terminlar tarjimasida me'yorlar (fonetik, grammatik, leksik, frazeologik) 228
 Y. X. Jabbarova Lingvomadaniyatshunoslikda konsept tushunchasi 231
 N. Umirkazova Televidion obrazlar evolutsiyasi 234
 A. B. Musoyeva Chet tilini o'qitish muammolari va yechimlari 238
 B. M. Xamidova Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning o'quvchilar oilalari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatishda kompetensiyasini shakllantirish modeli 241

N. Omonova Muloqot motivatsiyasini rivojlantirishda talabalar hamkorligining roli 247
 N. Y. Mirzoyakubova The significance of new innovative methods of teaching english for esp students 253
 M. Sh. Yunusova Pragmatlingvistika tilshunoslikning obyekt sifatida 256
 G. B. Nafasova Creative approach to developing the logical competence of future physics teachers 261
 N. Z. Kiryigitova Erkin Vohidov she'riyatida falsafiy tafakkur va yumor 264
 R. O. Ashurbayeva Ona tili ta'limida innovatsion pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslari 267
 S. D. Narziyeva Nasriy asarda nazm namunalarini («Muhokamat ul-lug'atayn» misolida) 270
 Q. T. Isroilov Kasbiy tayyorgarlik jarayonida o'qituvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish 273
 M. Latipov Is'hoqxon ibrat asarlarida qo'llangan uzual va okkazonal yasalmalarning derivatsion xususiyatlari 277
 Sh. A. Qarshiyeva "O'g'uznoma"ning o'rganilishi va undagi shomonlik mifologiyasi motivlari 281
 G. X. Suyunova Talabalarining kasbiy mobiligini rivojlantirish jarayonida xorijiy tiling pedagogik imkoniyatlari 285
 S. O. Absobirov Raqamlashtirish - yangi O'zbekiston taraqqiyotining muhim omili sifatida 289
 Sh. A. Yodgorov Eng ko'p murojaat qilinadigan Qur'on terminlariga nisbatan beriladigan tarjimaviy muqobilarning teolingvistik adekvatligi tahlili 291
 M. O. Xoldarova Bo'lajak ekologik muhandislarida "Hayot faoliyati xavfsizligi va mehnat muhofazasi" faoliyatiga oid barqaror qiziqishni shakllantirish 295

NAVOIY IJODIDA UMUMINSONIY QADRIYATLAR TALQINI

Usmonjon Qosimov - f.f.d.

Akbar Jumanov - o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Maqolada buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy ijodining umuminsoniy mazmuni va jahonshumul ahamiyati hamda yuksak poetik mahorati qiyosiy tahlillar misolida yoritiladi, barhayot an'analari ko'rsatiladi.

Аннотация: В статье на примере сопоставительного анализа рассматриваются общечеловеческий смысл и мировое значение творчества великого поэта и мыслителя Алишера Навои, а также показаны его живые традиции и высокое поэтическое мастерство.

Abstract: The article highlights the universal meaning and global significance of the work of the great poet and thinker Alisher Navoi, as well as his high poetic skill, using the example of comparative analysis, and shows his living traditions.

Kalit so'zlar: shoir va mutafakkir, nodir iste'dod, ko'p va xo'b, insoniy siymosi, ijodiyoti, hayratangiz, davr va adabiy avlod, milliy adabiyot, tarannum, o'lmas so'z san'atkori, turkiy va forsiy til.

Ключевые слова: поэт и мыслитель, талант, много и вдоволь, образ человека, творчество, восхищение, эпоха и литературное поколение, национальная литература, тараннум, бессмертный художник слова, тюркские и персидский языки.

Keywords: poet and thinker, rare talent, many and good, human figure, creativity, admiration, era and literary generation, national literature, tarannum, immortal word artist, Turkish and Persian language.

Alisher Navoiyning favqulodda nodir iste'dodi, Jomiy va Bobur so'zlar bilan aytganda, ko'p va xo'b yozganligi uni beqiyos ulug'lik martabasiga ko'tardi. Navoiyning insoniy siymosi qanchalar buyuk bo'lsa, ijodiyoti ham shu qadar hayratangizki, har bir davr va adabiy avlod o'z saviyasi darajasida bu ulug'likni yangidan "kashf etadi" va unga baho beradi. Jumladan, birinchi Prezidentimizning "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida xalqimizning Navoiy dahosi va ulkan ijodiga nisbatan yuksak ehtiromi va cheksiz faxr tuyg'ulari chuqur ifodalangan: "Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namo-yandasi, millatimizning g'ururi, sha'nu sharafini dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z san'atkoridir. ...olamda turkiy va forsiy tilda so'zlovchi biron-bir inson yo'qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e'tiqod bilan qaramasa. Agar bu ulug' zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir

desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir"¹. Chindan ham, Alisher Navoiyning nodir shaxsi va ijodiyotining ulug'vorligi endilikda olamshumul ahamiyat kasb etmoqda. Bu jihatdan O'zbekiston Qahramoni, yirik navoiyshunoslarimizdan biri Suyima G'aniyeva tomonidan keltirilgan quyidagi muhim bir e'tirof diqqatga molikdir. Pokistondan Islomobod universiteti olimi Sug'rabonu Shegufta Navoiyning favquloda buyuk shaxs va ijodkor ekanligi ko'plab tarixiy manbalarda, shuningdek, shoir vafotiga bag'ishlangan marsiyalarda ham chuqur aks etganligini alohida hurmat-ehtirom bilan tilga oladi. Ularda hazrat Navoiy "shijoatda Alidek, maqsad yo'lida Muhammaddek, insoniylikda Yusufdek, adolatda Bahman, Jamshid, Quboddek edi"², deb ta'riflangan. Darhaqiqat, chuqur insonparvarlik g'oyalari va beqiyos badiiyati bilan jahon ilmu fazl ahlini hayratga solib kelayotgan Navoiy ijodi, ayni paytda, adabiy an'anaviylik va novatorlikning yuksak bir namunasi sifatida ham alohida o'rganishga munosib.

1 Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T.2016, 47-b.
 2 Abadiyat gulshani. T. 2016, 11-b

Ani nazm etki, tarxing toza bo'lg'ay,
Ulusqa, mayli, beandoza bo'lg'ay³.

Bu – Alisher Navoiy butun hayoti va ijodi davomida qat'iy amal qilgan yuksak a'moli, ijodiy-estetik dasturi edi. Navoiy qanday murakkab mavzuni yoritmasin, qanday an'anaviy janr yo she'riy san'atga qo'l urmasin, ustozlarini takrorlamagan holda, hamisha "tarxi toza nazm" yaratganligiga guvoh bo'lamiz. Chunonchi, zamonasining mashhur shoirlaridan biri Xoja Kalimiddin Salmon she'riy san'atlarga boyligi bilan barchani hayratga soladi. Navoiy Salmonning yuksak so'z san'atini e'tirof etgan holda, uning quyidagi eng mashhur forsiy baytiga teng keladigan misralarni hech kim yoza olmaganini ham ta'kidlaydi:

Safoi safvati ro'yat birext obi bahor,
Havo jannati ko'yat bibext mushki totor.

Navoiy esa unga javoban she'r bitib, undan-da yuksak poetik mahorat namunasini ko'rsatadi:

Chunon vazid ba bo'ston nasimi fasli bahor

Kaz on rasid ba yoron shamimi vasli nigor. (Muhokamat ul-lug'atayn, 103-b.)

Mazmuni: Bahor faslining nasimi boqqa shunday esdiki, undan oshiq'larga mahbub alari vaslining xush hidi etishdi. Ko'rinadiki, Navoiyning bayti ham mazmunan, ham shaklan mukammaldir. Ayniqsa, fasli bahor va vasli nigor so'zlarining qofiya sifatida tanlangani ham Navoiyning ijodiy tafakkuri va poetik mahorati qanchalar yuksakligidan guvohlik berib turadi. Salmonning satrlarida esa nuqson, ya'ni obi va mushki so'zlarining notugal qofiyalangan va bu holat she'rning ohangdorligini ham pasaytirganligidan kitobxonning ko'ngli to'lmaydi. Navoiyning dostonlari va boshqa ash'ori ham ulkan forsiyo'y shoirlarning asarlari bilan qiyoslansa, Navoiyning barcha janrlarda yaratilgan durdona asarlarida ma'no va shakl go'zalligiga erisha olganligiga tan beramiz. Bunga ishonch hosil qilish uchun fors-tojik adabiyotining mashhur namoyandalardan biri – Sa'diy Sheroziy bilan Navoiy ijodining mushtarak g'oyaviy-

badiiy jihatlariga hamda ularning Konfutsiy kabi buyuk mutafakkirlarning ta'limotiga hamohangligiga qiyosiy bir nazar solish kifoya. Zero, ularning "hikmatlari na zamonu zamin, na mazhabu din va na ijtimoiy tuzumu siyosiy turkum jihatidan cheklangan. Ular istisnosiz inson xizmatiga qaratilgan" (A.Rustamov). Ularning ko'plab ezgu g'oya va hikmatlari bugun ham barcha xalqlar uchun odamiylikning yuksak axloqiy mezoni bo'lib jaranglaydi:

Tugar mehnati digaron beg'ami
Nashoyadki nomat nihand odami.
O'zgalar haqida chekmaguchi g'am,
Nechuk sanaladi qatori odam.⁴

Ya'ni agar sen o'zgalar mehnati, dard-tashvishiga beg'am bo'lsang, sening nomingni odam deb atab bo'lmaydi. Shu o'rinda hazrat Navoiyning millionlab komil insonlarning hayotiy maqsad va dasturi ifodalangan da'vatkorona o'gitlaridan birini yodga olaylik:

Odami ersang, demagil odami,
Oniki, yo'q xalq g'amidin g'ami ("Hayrat ul-abror", 24-b.)

Jahon she'riyatining porloq sahifalariga aylangan bu hikmatlardagi ma'no va shakl mukammalligi (vazni va hijolariyu qofiyalarigacha bir-biriga monand) va hamohangligi tasodifiy emas. Ular Sa'diy va Navoiyning yuksak odamiylik va xalqparvarlik g'oyalariga asoslangan maslak va orzularining mushtarakligidan dalolat berishi bilan birga, ayni vaqtda, insoniyatning mangu muammolarini yoritishda ularning yakdil-hamfikir ekanligini ko'rsatib turishi bilan ham e'tiborli. Ular insonlarning o'zaro hamdard va g'amxo'r bo'lishini nafaqat ezgulik va muruvvatning oliy bir namunasi deb, balki kishilik jamiyatining ma'naviy tayanch ustunlari sifatida beqiyos qadrlagan. Navoiy satrlarida ma'noning yanada kengligiga diqqat qilaylik: o'zgalarning odamiylik darajasiga baho beruvchining o'zi, avvalo, o'zligini anglab, yuksak insoniy fazilatlar egasi bo'lishi lozimligi zaruriy shart, talab sifatida ta'kidlangan. Navoiy va Sa'diy ijodi va dunyoqarashining javhari bo'lgan bu yuksak g'oyalarning hayotiy va tarixiy ildizlari qanchalar chuqur va qadimiyligini

³ Alisher Navoiy. Xamsa. T. 1960, 34-b.

⁴ Sa'diy. Guliston. T. 1968. 36-b. G'afur G'ulom va Shoislom Shomuhamedov tarjimai.

va ularning bashariyatga daxldormushtarak umuminsoniy qadriyatlar ekanligini bundan 2,5 ming yillar avval yashab o'tgan va "kishilarni ezgulikka o'rgatuvchi ulug' ta'limot" yaratib, "dono odamlarning eng donosi", deya ta'riflangan buyuk xitoy mutafakkiri Konfutsiy hikmatlari bilan muqoyasada yanada kengroq tasavvur etish mumkin. Binobarin, Konfutsiy ta'limotining mag'zi va uning umrboqiyiligini ta'minlagan markaziy g'oya – bu, eng avvalo, "rahmdillik" va insonparvarlik kabi oliyanob fazilatlar bo'lganligi ayni haqiqatdir. Konfutsiy ta'limotining gultoji – "rahmdil" kishi – insoniy komillikning yorqin namunasi bo'lib, unda barcha ezgu xislatlar: mehr-shafqat, o'zgalarga hamdardlik, xokisorlik, sabr-qanoat va mustahkam e'tiqod va sadoqat, oqko'ngillik, to'g'riso'zlik, ilmga ishtiyoq va so'zu amal birligi kabi fazilatlar mujassam bo'lmog'i nazarda tutilgan. (Konfutsiy. Muhokama va bayon. T.2013. Ilhom Qosimov tarjimai) Shubhasiz, mazkur hikmatlarda tajassum topgan mavzu-mazmun birligi va g'oyaviy-ruhiy yaqinlik, avvalo, bu ulug' mutafakkirlarning mustahkam e'tiqodi va gumanistik dunyoqarashidagi teranlik

bilan, ular ijodida insondek zoti sharifning asl mohiyati g'oyat chuqur, orifona talqin etilganligi bilan izohlansa, to'g'ri bo'ladi. Bu mushtarak ezgu g'oyalar va oliyanob insoniy fazilatlar bizning kunlarimizda ham mashhur adiblar tomonidan mahorat bilan kuylanib, muqaddas qadriyatlar sifatida e'zozlanmoqda. Binobarin, turli davrlarda yashagan Konfutsiy, Sa'diy va Navoiy bashoratgo'y mutafakkirlar sifatida hamisha kishilik jamiyatini mukammallashtiruvchi, zamonni odillashtiruvchi ilg'or umuminsoniy g'oyalarni kuylaganlar va bani basharning dardu-tashvishi va og'riqli haqiqatlarini teran idrok etib, ularni hayotiy, ta'sirchan obrazlar va g'aroyib tashbehlar orqali san'atkorona ifodalaganlar. Mana shunday fazilatlar ularni ma'naviy-ruhiy va g'oyaviy-badiiy jihatdan birodarlashtirib, ular ijodining umumbashariy mazmun-mohiyatini yanada chuqurlashtiradi. Bu ijodiy yakdillik va g'oyaviy mushtaraklik keyingi avlod namoyandalari o'rtasida ham adabiy vorislik va bezavol an'anaviylikni yuzaga keltirib, badiiy ijod taraqqiyotining qudratli bir omili – hayotbaxsh tamoyili bo'lib xizmat qilmoqda. Bu ham Navoiy ijodining barhayotligidan dalolatdir.

BOBUR G'AZALLARIDA INSON RUHIYATI AKS ETISHI

Sapura Ne'matova - o'qituvchi, Jizzax davlat pedagoqika universiteti

Annotatsiya: Maqolada o'zbek tilimizning va adabiyotimizning yaxlit bir ma'naviy-ruhiy olamligi, har bir so'zning mazmundorligi va rang-barang xususiyatlarini buyuk so'z san'atkor Z.M. Boburning teran fikrlari misolida ko'rsatib beriladi. Shoirning yor va diyor mavzusidagi go'zal misralari yoritilgan va tahlil etilgan.

Аннотация: В статье показан духовный мир нашего узбекского языка и литературы, осмысленность и красочные особенности каждого слова на примере глубоких мыслей великого художника слова З.М.Бабура, освещены и проанализированы прекрасные стихи на эту тему.

Abstract: The article shows the whole spiritual world of our Uzbek language and literature, the meaningfulness of each word and the deep information of the colorful and bright great word of artist Z.M. Babur. The land and land of the poet beautiful verses on the subject are highlighted analyzed.

Kalit so'zlar: badiiy ijod qonuniyati, an'ana va tadrijiy rivojlanish, so'z san'ati, tasvir imkoniyati, muqobil istiloh, islomiy ma'rifat, millat, tafakkur, til boyligi va ravnaqi, mumtoz adabiyot.

Ключевые слова: законность художественного творчества, традиция и постепенное развитие, искусство слова, возможность изображения, альтернативная революция, исламское просвещение, нация, мысль, богатство и развитие языка, классическая литература.

Keywords: legality of artistic creation, tradition and gradual development, word art, possibility of image, alternative revolution, Islamic enlightenment, nation, thought, richness and development of language classical literature.

“Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz, ulug' ajdodlarimiz, beqiyos boyliklarimiz bor. Havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san'atimiz ham” bo'lishi shubhasiz. Darhaqiqat, xalqimiz hayoti va shonli tarixining badiiy in'ikosi bo'lgan adabiyoti ham boy va rang-barangligi bilan dunyo tamaddunida alohida o'ringa ega.

Mustabid sho'ro davrida boy tariximiz va adabiyotimiz xolisona o'rganilmasdan aksincha, bunday harakatlar “o'tmishni ideallashtirish” va “millatchilik” degantamg'alar bilan qoralanib, taqiqlab kelingan. 1917-yil Oktyabr “inqilobigacha bo'lgan davr o'zbek adabiyoti xonlar va beklar uchun yozilgan saroy she'riyatidan yoki diniy mazmundagi asarlardan iborat”, – deb butunlay inkor ham etilgan edi. Mumtoz adabiy merosimizga nisbatan bunday nigilizm oqibatlar Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, So'fi Olloyor, shoh va shoir Muhammad Rahimxon II – Feruz va Abdulla Qodiriy singari ulug' siymolar shaxsi va ijodiga nisbatan qilingan johilona munosabat va taqiqlarda yaqqol ko'rinadi.

Turkiston ahlining eng ulug' shayxulmashoyixi” bo'lgan (Navoiy) Yassaviy hikmatlari hukmron mafkura tazyiqi tufayli xolis baholanmadi. “O'zbek adabiyoti tarixi” va “Adabiyot nazariyasi” (1978) darsliklarida ham bunday achinarli hol aks etgan edi: “Yassaviy “Hikmat”laridagi diniy-mistik traditsiya, tarkidunyochilik falsafasi Sulaymon Boqirg'oniy, So'fi Olloyor, Xazinii tomonidan davom ettirilgan. Diniy-mistik adabiyot hamma vaqt va hamma joyda reaksiya rol o'ynagan”. Bunday adolatsizliklar keyingi davr¹ adabiyoti rivojiga ham to'siq bo'lganligi tariximizning g'oyat malomatli faktlari hamda qora sahifalari bo'lib sanaladi. Hatto Alisher Navoiydek buyuk shoir va mutafakklarimiz ijodi ham sobiq sho'ro davrida “fisqu fujur adabiyoti” deb e'lon qilinganini bugungi kitobxonlar aqliga ham sig'dirolmasligi mumkin².

Bunday nohaqlik buyuk shoir va mutafakkir Boburning ulkan ijtimoiy-siyosiy faoliyati va beqiyos ijodiga nisbatan ham bo'lgani ma'lum. 80-yillar sobiq kommunistik partiyaning tazyiq-taqiqlari va zahmatkash yozuvchimiz Pirimqul Qodirovning Boburiylar

¹ Ш.М.Мирзиёев. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш халқимиз маънавий олами юксалтиришининг мустақкам пойдеворидир. Ўзбекистон Республикаси Президентининг мамакатимиз ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувидаги маърузаси. “Жаҳон адабиёти”. №8. 2017, 8-б.

² Икрамов А. Избран. соч. в 3т.-х. т. 2, Т.: 1973. с. 515

sulolasiga bag'ishlangan yangi “Avlodlar dovoni” nomli romani nashrdan to'xtatib qo'yilganligi ham manfur mafkuraning yana bir siyosiy “nayrang” edi³.

Qattol tuzum va mustamlakachilik siyosatining tuban maqsadi-xalqimizni shonli tarixi va milliy, islomiy va umuminsoniy qadriyatlarimizdan ham mosuvo qilib, ularni butunlay unutishga va alaloqibat o'zligimizdan voz kechishga majbur qilishga uringan. Hazrat Alisher Navoiy singari buyuk ajdodimiz Bobur ijodi va shaxsining jahonshumul ahamiyat kasb etib borayotganligi xalqimiz va yurtimiz uchun ham ulkan bir sharafdir⁴.

Bu maqolada Bobur g'azallarida an'analarga munosabat, mumtoz adabiyotning mo'jizakorligi, maftunkorligi, kishini o'ziga jalb etishi, lirik qahramon ruhiyatini juda aniq, tabiiy ifoda eta olishini ajoyib o'xshatishlar, tashbehtar orqali ifoda etib berilishiga asosiy e'tibor berildi. Chunki bu juda muhimdir.

G'azallarda lirik qahramon holati va kayfiyatlarini ifoda etib berishda sevgi qissalari, dostonlardagi qahramonlar kayfiyatiga, qismatiga ishora qilish ular holati bilan o'xshashligi, mushtarak taqdirlar muqoyasa tarzida⁵ ifoda etilgan. Bu fonda inson qalb olamining, ruhiy tovlanishlarining ko'rinishlari, namoyon etilishidagi rang-barangligini talqin etilishga harakat qilindi.

Shoh va shoir, sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining noyob iste'dodi, iqtidori, salohiyati, shijoati, javonmardligi bilan sharqu g'arbni o'ziga maftun etgan shaxs hisoblanadi. Bobur g'azallarida inson ruhiyati zarshunoslik bilan ochib beriladi.

*Ulki yillar-o'ylar o'tkargay g'amu motam bila,
Shodu xurram bo'lmag'ay Navro'z tega, bayram bila.*

*Ulki davronning ayog'idin damodam qon yutar,
Nash'a topmas, gar ichar har davr jomi Jam bila.*

*Dema, ey hamdam, diyoru yor so'zinkim,
mening*

Ulfatim yo'q olam ahli birla, bal olam bila.

*Sendin ayru naylagaymen iyd ila Navro'zni,
Oyu yil xushtur sening birla aga bo'lsam bila.*

*Tortib afg'on, oh urub hijronda, Bobur,
yig'lasang,*

Navha tuzgay bazmi g'am ahli bu zeru bam bila.

Birinchi baytda g'amu motamzoda bo'lgan ko'ngilga har qanday shodlik, bayram, hatto Navro'z sig'masligi juda to'g'ri tavsif

etilgan. Keyingi baytda davron (zamon) ayog'idan (qadahidan) ichilgan boda boda emas, qon ekanligi sababli Jomi jam (Jamshid jomi) bilan ichsa ham na'sha topmasligi tasviri ham chinakam hayotiy voqelik bilan, inson ruhiyati bilan chambarchas bog'liqdir. Navbatdagi baytda diyor va yor haqida so'z yuritmaslikni o'tinib, buning hojati yo'q ekanligini uqtirar ekan, olam ahli bilan hech biri bilan ulfat emasligi, balki butun olamdan ham ko'ngli qolganligi ifoda etilgan. Keyingi baytda har qanday bayram va Navro'z oshiq uchun ma'shuqasiz, sevgilisiz tatimasligi, behojat ekanligi, ma'shuqa bilan birga bo'ladigan oyu yillarning barchasi bayram va Navro'z ekanligi ta'kidlangan. Ma'shuqa jamolini ko'rib turish unga shodlik bayrami, jashmi oliy ekanligi ifoda etilgan. G'azal so'nggidagi baytda hijron tufayli oh urib yig'lagan lirik qahramonga jo'r bo'lib, barcha oshiqlar g'am ahli yig'lashi ifoda etilgan. Bu o'rinda g'am ahli – ishq ahlidir.

Zahiriddin Muhammad Bobur Vatan qadri oliy darajada tushunadigan imonli shaxs bo'lganligi har g'azal va ruboiylarida o'z ifodasini topgan. Ma'lumki, Hindiston zabt etilgach, Boburning ba'zi beklari Hindiston badhavolidan, tabiiy sharoitining noqulayligidan ranjib orqaga, o'z vatanlariga qaytishni xohlaydilar, Boburdan ruxsat so'raydilar. Bu hol Boburga juda yomon holatni ro'baro keltiradi. Bu voqealar bir g'azalda shunday ifoda etiladi:

*Ey alarkim, bu Hind kishvaridin
Bordingiz anglab o'zga ranju alam.*

Kobulu xush havosini sog'inib,

Hinddin garm bordingiz ul dam.

Ko'rdingiz – toptingiz ekin anda

Ishratu aysh birla nozu niam?

Biz dog'i o'lmaduq, bihamdilloh,

Garchi ko'p ranj edi-yu, behad g'am.

Hazzi nafsiy, mashaqqati badaniy,

Sizdin o'tti-yu, o'tti bizdin ham.

G'azalda alarni (o'sha chidamsiz odamlar) Hindiston mamlakatini ko'rib, ranju alam chekib qaytib ketishini, Kobul xush havosini sog'inib Hindiston issiqqligiga chidamsizlik qilganini ulardan maishatparastlik qusuri kabi baholanadi. Inson biror narsaga ahd qilgach, bu yo'lda uchraydigan qiyinchiliklarga bardosh berib, o'z maqsadi va ahida sobitqadam bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Har qanday qiyinchilikni yengib o'tib, har qanday sharoitga moslashish ham mumkin ekanligi aytilib, o'zining bu ranju alamlarga chidagani, garchi

³ Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. Т.: Уқитувчи. 1976. 157-б.

⁴ Адабиёт назарияси. Т.: Фан. 1-т. 1978. 29-б. Қосимов У. Адабий-эстетик тафаккур тадрижи. Фил. ф. д. д. Автореф. Тошкент. 2020. 76 б.

⁵ И. Султон. Адабиёт назарияси. Т.: Уқитувчи. 1986. 51-б.

ko'p g'am, koyishlar chekkan bo'lsa-da, yashab kelayotganini, o'lmaganini aytib inson, ya'ni Navoiy tomonidan lutf etilgan "sharif qilib yaratilgan" inson juda ko'p fazilatlariga ega ekanligi, shulardan biri sabr ekanligiga ham ishora qilinadi. G'azalda dini Islomning yirik bilimdoni bo'lgan Boburning Alloh taqdir etgan hayot tarziga sabr qilish, chidamoq va shukrona aytmoqni ham, Allohning ismlaridan biri Sobir (sabr qiluvchi) ekanligini ham ta'kidlab ko'rsatmoqda.

Zahiriddin Muhammad Boburning ba'zi g'azallari o'zi boshidan kechirgan voqealar asosida voqeaband tarzida yaratilgan. Masalan, Bobur Samarqandni ikkinchi bor solib chiqishi (tashlab chiqishi, 1500-yil)dan keyin taxtsiz, mamlakatsiz sargardon bo'lib qolgan edi. Endi tokay bunday sargardonlikda yurmak kerak, bir tomonga azm etayin deb Badaxshon tomonga chiqib ketadi. Ana shu Vatanni tark etishning boshlanishi edi. Bu shoir ruhiga juda katta ta'sir etadi va qalbidagi g'am-koyishni g'azallarida, ruboiylarida ifoda etadi. Quyida ana shunday g'azal va ruboiylaridan ayrimlarini ko'rib o'taylik:

*Keldi ul vaqtiki, boshimni olib ketgaymen,
Olam ichra ayog'im yetganicha yetgaymen.
Istaram o'zni aziz elga ko'runmasliktin,
Necha o'zumni ulus ko'zida xor etgaymen?
Xalq yuz javr ila ishlar buyurur, kosh elning
Ne yuzin ko'rgamenu ne so'zin eshitgaymen!
Har sori borsa bu devona ko'ngul, ayb etma,
O'yla devona emaskim, ani berkitgaymen.
Dema Boburga netarsen, bosh olib ketmak ne?
Tengrining xosti mundoq esa, men netgaymen?*

Ma'lumki, Vatanni tark etish har bir imonli inson uchun juda achchiq qismatdir. Lirik qahramon (shoir) o'zining boshiga bu qismat tushgani uchun boshini olib oyoq yetgancha ketishiga to'g'ri kelganini, vaziyat shuni taqozo etayotgani, bunday holatda o'zini aziz elga (odamlarga) ko'rsatilmalikni afzal deb biladi. Qachongacha ulus (el) ko'zida bu qadar xor holatda ko'rinish kerak deb endi bunga chek qo'yimoqni istaydi. Devonalar kabi har xil xayol surish, har soriga ketishni o'ylash, qalbidagi beqarorlikni yuzaga chiqarish xayolga kelgan tadbirni amalga oshirish aslida devonalik, aqlsizlik emaski, uni xalqdan yashirsam (berkitsam) deb o'zining xayolidagi tadbirni oshkora amalga oshirish, boshni olib oyoq yetgancha ketmakni ma'qul ko'radi va buni amalga oshiradi. G'azal so'nggidagi baytda Boburga "netarsen bosh olib ketmakni", deb aytib o'tirma, Tangrining xosti (xohishi) shunday bo'lgach men nima qilay,-deb o'zining ilojsizligini ta'kidlaydi. Jondan aziz, sevimli

diyori tark etishga majbur bo'lishi ba'zi ruboiylarida yanada dardli tarzda tasvir etiladi:

*Ko'ngli tilagan murodig'a yetsa kishi,
Yo barcha murodlarni tark etsa kishi.
Bu ikkisi muyassar bo'lmasa olamda,
Boshini olib bir sorig'a ketsa kishi.*

Ma'lumki, har bir inson bu olamda biror maqsad bilan yashaydi. Agar inson hayotda o'z oldiga qo'yilgan maqsadi, matlabi bo'lmasa hayotning ham ma'nosi bo'lmaydi. Maqsad, matlab inson kamolotini ham bildiradi. Maqsadga yetishmoq yo'lidagi kurash jarayonida inson kamolga yetadi. Maqsadga yetgan insonni kamolga yetgan inson deb ta'rif etish zamirida uning qalbidagi iftixor tuyg'usidan tashqari hayotiy mas'uliyat hissi ham paydo bo'ladi, bu inson hayotining kelajak dasturini shakllantiradi. Agar inson o'z oldiga qo'ygan murodiga yetmasa, boshqa barcha murodlarni tark etishi esa butunlay ruhiy tushkunlik, faoliyatsizlikka yuz tutishni emas, endi lirik qahramon o'z hayotida yangi bir yo'lni tutishini, yangicha intilishni, endi baxtini o'zga maskandan topishi uchun boshini olib bir sorig'a ketish zarurligi ta'kidlanadi. Bobur g'azallarida, ruboiylarida inson ruhiyatining barcha holatlari juda tabiiy, ta'sirli qilib tasvirlangan. Ularda sevgi-muhabbatning zavqi va shavqi, visol onlarining orombaxshligi, shuningdek, muhabbat ozorlari, hijron, g'am-tashvishlari, ma'shuqa istig'olari tufayli oshiqning tushkun ruhi insonlararo muomalalardagi soxtalik, notabiiylik, firibgarlik, hayotning turli-tuman qonuniyatlari suiistemollik, buqalamunlik va hokozolar shu darajada hayotiy, inson ruhiyatiga mos holda tasvirlanadiki, bu tasvirlar o'quvchini o'ziga jalb etadi, lirik qahramonga sherik qilib qo'yadi. Ya'ni lirik qahramon aziyat cheksa, aziyat chekadi, shod bo'lsa, shod bo'ladi, yig'lasa, yig'laydi, kulsa, kuladi.

Bobur g'azal va ruboiylarida, ayniqsa, vatanga muhabbat mavzusi, uni hech narsaga almashtirib bo'lmaslik, vatan o'rniga hech narsa o'tmasligi, vatandan ayro tushish g'urbat insonning eng og'ir qismati ekanligi haqqoniy ifoda etilgan. Bobur g'azal va ruboiylarida inson ruhiy olamining murakkabligi mohir bir sinchkovlik bilan tasvir etib berilgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsi, iste'dodi, qobiliyati, salohiyati, insoniy xislatlari, javonmardligi, sevgi-muhabbat bobida ham sevgi tarixini obdon yaxshi his etishi, uning hijron va visol damlaridagi lirik qahramon holati, kayfiyati, ruhiy olami juda tabiiy ifoda etishga asosiy e'tibor qaratildi.

TA'LIM TURLARARO INTEGRATSIYA HOLATI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Sherali Abduraimov - p.f.f.d (PhD), dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti
Javoxir Xolmatov - tayanch doktorant, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim turlararo integratsiyaning mavjud holati, muammolar va rivojlanish bosqichlari haqida so'z boragan.

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассказывается о современном состоянии, проблемах и этапах развития интеграции разных видов образования.

Abstract: This article describes the current state, problems and stages of development of the integration of different types of education.

Kalit so'zlar: integratsiya, metod, subyektiv, kreativ, metod

Ключевые слова: интеграция, метод, субъективный, творческий, метод.

Keywords: integration, method, subjective, creative, method.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari yangi bosqichga o'tish jarayonida ta'lim turlararo integratsiyani ta'minlash uni amalga oshirish dolzarb vazifa sifatida qaralmoqda. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quv dasturlarining integrativ bog'liqliklari kam tatbiq etilgan, hamda bir-biriga zid bo'lgan jarayonlar ham uchrab turadi. Bu bog'liqliklarning ahamiyati to'g'risida tadqiqotchilar o'rtasida turli xil qarashlar mavjud. Integratsiya atamasi (lotincha integratio-tiklash, to'ldirish, integer-butun so'zidan) 1) tizim yoki organizmning ayrim qismlari va funksiyalarining o'zaro bog'liqlik holatini hamda shunday holatga olib boruvchi jarayonni ifodalaydigan tushuncha; 2) fanlarning bir-biriga yaqinlashishi va o'zaro aloqa jarayoni; differentsiatsiya bilan birga yuz beradi; 3) bir necha mamlakatlarning iqtisodiyotini o'zaro muvofiqlashtirish va birlashtirish degan ma'nolarda keladi¹. Hozirgi davrga kelib, «Integratsiya» tushunchasining ta'rifi ko'plab ilmiy adabiyotlarda, shu muammo ustida tadqiqot olib borayotgan olimlar tomonidan bir-biriga yaqin ta'riflar keltirilgan. Pedagogik integratsiyaning tushunchaviy-terminologik ta'minoti tavsifi integrativ-pedagogik hodisalarga chuqur kirib borish imkonini beradigan vositalarni aniqlashga imkon yaratadi. Ushbu hodisa dastlab «pedagogik integratsiya» tushunchasining o'zi, ya'ni «tushunchaning nazariy izohi mavjud emasligi, amaliy integratsiyaning keyingi

rivojlanishi, konkret pedagogik tadqiqotlarni tutib turadi»². Pedagogik integratsiya ta'rifi faqat «mohiyat darajasida»³ taklif qilingan bo'lsa-da, u pedagogik integratsiyani bilish va izohlashning boshlang'ich vositasi sifatida xizmat qilishi uchun yetarlicha evristik ahamiyatga ega.

Ma'lumki, har bir uzluksiz ta'lim turi o'z oldiga har tomonlama bilimni, kreativ fikrlovchi, kuchli va yetuk shaxslarni shakllantirishni maqsad qilib qo'yadi. Shundan kelib chiqqan holda, ta'lim oluvchilarni integratsiyalashgan bilimlar asosida kompetensiyalarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Jumladan, 2022-yil 29-dekabr kuni "Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir!" mavzusidagi zamonaviy darsliklar ko'rgazmasida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev – «Dunyo pedagoglari tajribasidan foydalangan yaxshi. Shu bilan birga, darsliklarda milliy g'oya, ajdodlarimiz merosi ham bo'lishi kerak. Masalan, jadid bobolarimiz ta'lim bo'yicha qancha ishlar qilgan. Yaqinda Elbek domlani o'qidim. «Qiz bolani o'qitgan davlat butun jamiyatni o'qitgan bo'ladi» deb yozgan ekan. Bizning darsliklarimizda bunday gaplar yo'q-ku. Nima demoqchiman? Yangi darsliklarni shunday mukammal tayyorlash kerakki, keyinchalik bunga yana qaytmaylik. Bugungi ta'lim qirq yildan keyin biz haqimizda so'zlaydi», - deb ta'kidlab o'tdilar⁴. Prezidentimiz

1 O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 4-tom. – Toshkent. -2002. 179 b

2 Махмутов М.И., Артемева Л.А. Вопросы интегративного потенциала дидактики // Проблемы интегративного процесса обучения в СПТУ / Под ред. Махмутова М.И. М.: Изд. АПН СССР 1989. - С. 4 - 44.

3 Краевский В.В. Содержание образования: вперед к прошлому // Преподаватель. 2000. - №1. - С.2 - 10.

4 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti (www.president.uz);

tomonidan qo'yilgan bunday talab barcha ta'lim turlarida faoliyat olib borayotgan pedagog xodimlarga ulkan mas'uliyat yuklaydi.

Respublikamizdagi ta'lim turlararo (maktabgacha ta'lim va tarbiya; umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim; professional ta'lim; oliy ta'lim; oliy ta'limdan keyingi ta'lim; kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish; maktabdan tashqari ta'lim)⁵ ta'lim mazmunini takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish, ta'lim integratsiyasini ta'minlash borasida Hukumat darajasida alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-289-sonli qarori 4-ilovasida keltirilgan ya'ni, "Pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari fakultetlarini maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim muassasalariga birlashtirish jadvali"ni o'zi ham ta'lim turlararo integratsiyani amalga oshirish muhim dolzarb muammolardan ekanligini ko'rsatib turibdi⁶. Ilovaga muvofiq Jizzax davlat pedagogika universitetiga 12 ta umumta'lim maktabi va 1 ta davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti birlashtirilgan. Bundan tashqari Qaror bilan pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari kunduzgi ta'lim shaklida tahsil olayotgan 2-4 bosqich talabalari uchun haftalik o'quv mashg'ulotlari «4+2» tartibida, shu jumladan darslarning 4 kuni oliy ta'lim muassasasida, 2 kuni maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida amaliyot o'tash tartibida olib borilishi ham bevosita ta'lim turlararo ta'lim mazmunini integratsiyalash imkonini beradi.

Ta'lim turlararo va ta'lim mazmunini integratsiyalash yo'nalishida soha olimlari tomonidan keng miqyosda tadqiqot ishlari olib borilgan. Integratsiyaning falsafiy, psixologik-pedagogik, metodik asoslari nazariy jihatdan G.Spenser, S.L.Rubinshteyn, I.D.Zverev, N.V.Maksimova, N.S.Svetlovskaya, Y.M.Kolyagin, L.V.Tarasov tomonidan, shuningdek respublikamiz pedagog olimlari R.G'.Safarova, U.Q.Musayev, B.Mirzahmedov, A.R.Xodjaboyev, U.Nishonaliyev, R.K.Choriyev, M.M.Mamadazimov, Y.G'.Maxmudov, O.Quvondiqov, M.G'.Nishonbayeva, R.A.Mavlonova, A.I.Avazboyev, O.A.Abduquddusov, U.Sh.Begimqulov,

M.H.Lutfullayev, E.A.Turdiqulov, Sh.T.Xalilova, M.Jumaniyozova kabi ko'plab olimlarning ilmiy-nazariy, ilmiy-amaliy, pedagogik ahamiyatga molik ishlarida yoritilgan⁷.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim turlarini integratsiyalashning muhim maqsadlaridan biri bolalarning maktabgacha davridayoq maktab, jamiyat to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lishi va bolalarning rivojlanish-takomillashtirish qonuniyatlariga o'z munosabat va dunyoqarashini shakllantirishdan iborat. Bolalar bog'chasida kichik yoshli bolalarni o'qish va tarbiya berishga, ularni odob-axloq, estetik-did, etik, jismonan kuchli va albatta, intellektual sifatlarini rivojlanishiga, bolalarni umumiy o'rta ta'lim maktabiga tayyorlashga yordam berishi lozim. Ma'naviy, hayotiy va ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda muhim aloqa va bog'liklarni topa olish, ta'lim turlararo bog'liqlik, ya'ni ta'limning uzviyligini ta'minlay olish bugungi kunning eng muhim vazifalaridandir. Chunki ta'lim turlararo bog'liqlikni ta'minlash, bolalarning ta'lim olish va uni egallash samaradorligini oshiradi.

Hozirgi kunga kelib ta'lim turlararo integratsiyani ta'minlashga yetarlicha e'tibor berilmasdan kelinmoqda. Hattoki, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, professional ta'lim, oliy ta'lim o'quv dasturlari ham bir-biri bilan o'zaro bog'lanmagan sharoitda bilim berilmoqda. Muammoni yechishga oid say'i-harakatlar natijasida, ma'lum o'quv dasturlarini davr jihatdan moslashtirish yo o'quv dasturi mazmuni uyg'unlashishiga doir harakatlar bilan cheklanilmoqda. Ushbu muammoni alohida hal qilish uchun esa, o'quvchi-talabalar egallashi mumkin bo'lgan bilimlarning yuqori sifatli darajasini ta'minlaydigan fan dasturlari integratsiyasi muhim talablari, mazmunan bog'liqligi, shakli va bir-birini to'ldiruvchi aloqalarini tashkil etish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Juda ko'plab pedagogika sohasidagi olimlar ta'lim turlari orasidagi integratsiyalashgan bog'liqliklarni tatqiq qilish davomida asosiy o'quv dasturlarini bir-biriga bog'lash, to'ldirishdagi fikr va mulohazalarni tahlil qilganlar. Ushbu vaziyat integratsion jarayonning, avvalo, boshqa sohalarida qo'llanilib, undan keyin esa pedagogik sohalarga qo'llanilganligi e'tirof etiladi. Muhim jihati shundaki, o'quv dasturlari ilmiy fanlar

5 O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi 637-son Qonuni;

6 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-289-son Qarori.

7 Abduraimov Sh. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash sifatini ta'minlashda tarmoqlararo integratsiyaning pedagogik imkoniyatlarini takomillashtirish: Ped. fan. bo'yicha falsafa doktori. ... dis. - Toshkent, 2017. - 143 b.

dasturidan farqlanadi. Farq ulardagi mazmun jihatdan emas, aksincha o'quv fanining o'tilishi, o'zaro bog'liqligi va bilimlar izchilligining yetkazib berilishi natijasida namoyon bo'ladi. O'quv dasturini o'rganishning muhimligi, o'quvchi-talabaga qo'yiladigan talablarning mos holda tuzilishi hamda ta'lim mazmunini va uni o'zlashtirishni tashkil etish usullarini o'zida ifoda etadi⁸.

O'quv dasturlarida integratsion jarayon ilm-u fan orasidagi ushbu hodisalardan farqlanadi. Shu o'rinda integratsiya - o'quv dasturlarining farqlanishi orqali ilgari shakllangan o'quv dasturlariga bo'lgan holda o'rgatish-o'qitish tizimidagi kamchilik va yetishmovchiliklarni bartaraf etishga yo'naltirilgan, shuningdek ular bir-biri bilan bog'liq ekanligini ta'minlovchi vosita sifatida ko'rilishi mumkin. O'quv dasturlarini integratsiyalashning bilim berish jihatdan ahamiyati boshqa o'quv dasturlari bo'yicha yangi bilimlarni takomillashtirishning tizimli tarkibi va usullarini aniqlashga yordam beradigan pedagogik harakatlar ketma-ketligi va prinsiplarini yaratish muhimligi orqali izohlanadi. Boshqa tomondan esa, o'quv dasturlari integratsiyasi o'quv fan tarmoqlarining va ilmiy bilimlarning bir-biri bilan birlashuvining uzviyligi ham hisoblanadi. O'quv dasturlari integratsiyasi muhim maqsadlaridan biri: keng miqyosli bilimlarni bir butun qilib birlashtirish, bog'lashdan iborat bo'lib, integratsion hodisalarning muhim vazifasidan biri - ma'lum yangi bilimlarni sintezlashga mo'ljallangan pedagogik texnologiyalar yaratishdan iboratdir⁹. O'quv dasturlarini bir-biri bilan bog'langan, bir-birini to'ldirgan holatda o'rganish orqali subyektiv yangi bilimlarning bir butun bo'lib birlashish, bog'lanish jarayoni qanday kechishi mumkin? - kabi ba'zi savollar paydo bo'lishi mumkin. Ta'lim nazariyasida bir necha ta'lim turlariga mansub bo'lgan o'quv dasturlarini umumiy qilib birlashtirish orqali ta'limdagi integratsion jarayonning turlicha ko'rinishlari tavsiya qilinishi mumkin. Lekin, pedagogik tajriba va jarayonlar shu tarzda tavsiyalarning yetarlicha samarador emasligini namoyish qilmoqda. Ta'lim turlari tizimidagi oldindan tashkil etilgan alohida o'quv dasturlariga bo'lib o'qitish-o'rgatish tizimi saqlanishi lozim. Ta'lim turlarida o'quv dasturlari mustaqil

bo'lmog'i kerak, sababi ularda ifoda etiladigan o'zining bog'liqligi, tushunchalari, metod va metodologiyasi, tadqiqot predmetlari va alohida tuzilmasiga ega o'quv dasturlarini mujassamlashtiradi. Shuningdek, ulardagi bir-biri bilan bog'liqlikni o'rganuvchi taklif va tavsiyalar amalga oshirilishi kerak. Xuddi shunday taklif o'quv dasturlararo munosabat zahirida amalga oshiriladi. Buni fan dasturlarini integratsiya qilish vositasi kabi hamda, keng miqyosdagi yangi bilimlarni bir butun qilib birlashtirish, bog'lash usuli sifatida ham tushunish mumkin. Olib borilgan tadqiqot ishlarimizga ko'ra o'quv dasturlararo yondashuvni ta'lim turlararo integratsiyalashda pedagogika sohasi uchun eng muhim yo'nalish sifatida hamda o'quv dasturlarini bir-biri bilan bog'lash, aloqa o'rnatish samarasini, ta'lim turlari bir-biri bilan bog'lanmagan sharoitda olib borilganda, ma'lum sohaga doir yangi bilim, ko'nikmalarning o'zlashtirib olinishini takomillashtirish lozim degan xulosaga keldik. Chunki, bunday sharoitda ya'ni fan mavzulari bir-biri bilan bog'liqlikda bo'lmasa, o'quvchilarda mavzuni tushunishida ba'zi muammolar paydo bo'ladi. Bir mavzu ikkinchisini to'ldirmasligi oqibatida fan hayotga ham bog'lanmay qolishi shu bilan birga o'quvchi-talabalarning vaqti ham samarasiz ketishi mumkin¹⁰.

Ta'limni tashkil etish muhitida o'quv dasturlarining ta'lim turlararo bir butun bo'lib bog'lanish jarayoni asta-sekinlik bilan kechadi, hamda u bir qancha muddat ichida amalga oshirilishi mumkin. Ta'lim berish jarayonida o'qituvchilar o'quv-mashg'ulot davomida o'quvchi-talabani oldingi ta'lim turlarida berilgan, ularda o'zlashtirilgan bilimlarga tayanuvchi o'sha mashg'ulotga oid yangi bilimlarga olib borishi muhim hisoblanadi. Umuman olganda, o'rganiladigan narsalarni tayyor holatida emas, aksincha ularning tahlili, o'rganilishi uchun shart va sharoitlar yaratilgan holda berish, oldingi va yangi bilimlarni bir-biriga bog'lash maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu vazifani amalga oshirishda bir ta'lim turiga doir dasturlarni boshqa ta'lim turi bilan bog'lash natijasida ta'lim turlararo integratsiyaning muhim jarayoni yuzaga keladi. Bunda ta'lim turlararo har bir faning o'quv dasturlari bir-birini to'ldirgan holda takomillashtirilib borilishi lozim.

8 Xolmatov J. Ta'lim jarayonini integratsiyalash pedagogik muammo sifatida. - Recent issues of modern science, 26-27 June 2021.

9 Azizxo'jayeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. TDPU - 2003

10 Xolmatov J. Ta'limda integratsiyalashgan intellektual faoliyatni tashkil etishga tayyorlashning hozirgi ahvoli va uni takomillashtirish yo'llari. - New York, USA. /xalqaro konferensiya/-2022 y.

MA'NAVİY-AXLOQIY FAZILATLARNING IJTIMOIY-TARIXIY ASOSLARI

Dilnoza Umirzaqovna Jumanazarova - p.f.n., dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ma'naviy-axloqiy fazilatlar, xislatlar va sifatlar hamda ularning aksi bo'lgan ma'naviy-axloqiy noqisliklar, qusurlar va ayblar, ularning inson faoliyatida va axloqida namoyon bo'lib borishi to'g'risidagi fikrlar tahlilga tortilgan. Shuningdek, ma'naviy-axloqiy fazilatlarining ijtimoiy-tarixiy va pedagogik-psixologik asoslari xususida fikr yuritilgan.

Аннотация: В данной статье анализируются мнения о духовно-нравственных добродетелях, свойствах и качествах и их противоположностях, морально-нравственных недостатках, недостатках и пороках, их проявление в человеческой деятельности и нравственности. Также обсуждались социально-исторические и педагогико-психологические основы духовно-нравственных качеств.

Abstract: In this article, the ideas about spiritual and moral virtues, characteristics and qualities and their reflection, spiritual and moral defects, defects and faults, and their manifestation in human activity and morality, are analyzed. Also, the socio-historical and pedagogical-psychological foundations of spiritual and moral qualities were discussed.

Kalit so'zlar: Ma'naviy-axloqiy fazilat, ma'naviy-axloqiy noqislik, ibratlilik, oriyatlilik, xislatlar va sifatlar, qusurlar va ayblar.

Ключевые слова: Духовно-нравственная добродетель, духовно-нравственная неполноценность, образцовость, нравственный характер, черты и качества, недостатки и пороки.

Keywords: Spiritual and moral virtue, spiritual and moral deficiency, exemplary, moral character, traits and qualities, defects and faults.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida o'zining dolzarbligi bilan ijtimoiy taraqqiyotning yangilanish, yangi bir pog'onaga ko'tarilish davrida, sifat o'zgarishlari ro'y berayotgan davrda yanada ham kuchayadi. Chunki jamiyatning sifat jihatidan yangi pog'onaga ko'tarilishi ma'naviyatning, axloqiylikning yanada yuksalishini talab etadi, faqat tarbiya orqaligina har bir jamiyat a'zosiga yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar singdiriladi. Ana shular evaziga insonning ijtimoiy faolligi oshadi, ma'naviy-axloqiy tarbiyasi o'zgaradi. Bu esa jamiyatning navbatdagi taraqqiyotini yanada tezlashtiradi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya yuksak ma'naviyatning asosi, yuksak ma'naviyat esa har qanday davlatning negizi ekanligini hisobga olsak, hozirgi yangi O'zbekistonda milliy qadriyatlarimizni yanada yuksaltirish, yoshlarda yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani ham bejiz emas albatta. Darhaqiqat, Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek,

– "...jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi – ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishda ana shu ikkita mustahkam ustunga, ya'ni, bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga hamda ajdodlarimizning boy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyatga tayanamiz"¹.

Mazkur strategik g'oyaning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda xalqimiz, ayniqsa, o'nib-o'sib kelayotgan yoshlarimizga, umuman keng jamoatchilikka qadimdan shakllanib kelgan milliy an'analarimiz, urf-odat va marosimlarimizni betakror tariximizning ajralmas qismi, moddiy va ma'naviy qadriyatlarimizning asosi sifatidagi o'rnini ko'rsatmog'imiz lozim.

Insoniyatning tarixiy-hayotiy tajribalari shuni tasdiqlaydiki, insonlarda faqatgina ijobiy, balki, anchayin salbiy fazilatlar ham azaldan mavjud bo'lgan. Shuning uchun ham xalq orasida inson fazilatlarini azaldan ikki ma'noda: ijobiy va salbiy ma'noda keng qo'llangan. Bularning birinchisi ma'naviy-axloqiy fazilatlar,

¹ Мирзиёев Ш.М. Инсонпарварлик, эзгулик ва бунёдкорлик - миллий ғоямизнинг пойдеворидир. «Tasvir» нашриёт уйи. - Тошкент - 2021.-Б. 4

xislatlar va sifatlar bo'lsa, ikkinchisi – ma'naviy-axloqiy noqisliklar, qusurlar va ayblardir. Har ikkalasi ham butunlay boshqa-boshqa tushunchalar bo'lsa-da, ular inson faoliyatida va axloqida muntazam ravishda alohida namoyon bo'lib boradi. Quyida biz jamiyatimizda tan olingan, xalq orasida inson fazilatlarining ijobiy ma'noda keng qo'llaniladigan ma'naviy-axloqiy fazilatlar, xislatlar va sifatlar to'g'risida fikr yuritamiz.

Ibratlilik fazilati. Bu fazilat ham ma'naviy-axloqiylik mezonlarining yetakchisi va insoniy fazilatlarining eng sarasi hisoblanadi. Bu tushunchada el-yurt ehtiromiga sazovor bo'lgan biror insonning xatti-harakati, havas qilsa arzigulik jasorati, undan boshqalarning o'rnak olishi, orqasidan ergashishi kabi ma'nolar ifodalanadi. Keksa tarixda, qadimgi ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz va momolarimiz faoliyatidagi ibratlilik fazilatiga juda ko'plab misollar topiladi. Faqatgina, bu o'rinda Bobur hayotidan olingan va boshqalarga ibrat-namuna bo'la olgan uchta misolni keltirish bilan chegaralanamiz: Bobur faoliyatidagi ibratlilik fazilatining birinchi namunasi 1526-yildagi hind rojasi Rano Sango Sinkx bilan bo'lgan jang oldidagi mashhur nutqi² bo'lsa, Boburdagi ibratlilik fazilatining ikkinchi namunasi ichimlik ichishni yo'qotish bilan bog'liq voqeadir³.

Boburning ma'naviy-axloqidagi hammaga ibrat-namuna bo'ladigan fazilatning tarbiyaviy jihati shundaki, uning bu otashin nutqidan qattiq ta'sirlangan, ruhlangan beklar va askarlar qo'lga Qur'onni olib g'alabagacha jang qilishga qasam ichganlar. Oxir-oqibatda ular g'alabaga ham erishganlar. Yoki Boburning amri bilan sindirilgan oltin kumush idishlar kambag'al va darveshlarga ehson etilgan, G'aznadan keltirilgan chag'irning hammasiga tuz solib, sirka qilib, keyin chuqur qazdirib, unga to'ktilishi va ustiga katta harsang tosh qo'yilishi, shu harsang tosh yonida buqa so'ydirib, uni xalqqa va askarlarga ehson qilishi hammaga ibrat bo'lgan. Bu safargi ehsoni uning eng katta g'alabalaridan biri – o'z nafi ustidan qozongan g'alabasining sharafiga qilingan edi. Bobur faoliyatidagi ana shu ikkinchi ibrat faqat dushman bilan jang qilishdagina emas, nafs bilan jang qilishda ham barcha askarlari va beklariga namuna bo'lgan. Natijada, sarkardaning bu ishini ko'rgan uch yuzga yaqin

askarlar ham tavba-tazarru qilishib, ichimlikni qayta ichmaslikka, iste'mol qilmaslikka qasam ichganlar. Buyuk bobomiz faoliyatidagi bu ibratlilik va o'zgalarga namunalilik fazilati ham tarix sahifalarida, xususan, "Boburnoma"⁴ da muhrlanib qolgan.

Bobur hayotidagi hammani qoyil qoldiradigan va havas qilsa arziydigan eng mashhur uchinchi ibratlilik fazilat – o'g'li Humoyunning qattiq kasallikka chalingan paytdagi unga umr tilashi, zarur bo'lsa o'zining jonini fido qilishi bilan bog'liq Oллоhdan so'ragan iltijolaridir.

Ko'ramizki, ibratlilik fazilatidagi ibrat – namuna tushunchasining ma'nosi esa ibrat tushunchasining qaraganda qamrovi biroz kengroq. Bu atama-tushuncha xalqimizning mehrini qozongan, el-yurt e'tiboriga loyiq, havas qilsa arzigulik, hatti-harakatlaridan o'rnak olib, hayot davomida ularga doimo rioya qilish ma'nolarini aks ettiradi, insondagi ibratlilik fazilatining o'zak asosini tashkil qiladi.

Oriyatlilik fazilati ham ma'naviy-axloqiylik mezonlaridan biri, insoniy fazilatlarining eng go'zali sanaladi. Insondagi bu ma'naviy fazilat u tug'ilgan paytdayoq ko'zga tashlanmaydi. Balki, inson faoliyatining barcha bosqichlarida oriyat his-tuyg'usi, ko'nikmasi, qarash va xislatlari sifatida shakllanadi. Oriyatning shakllanishida insonning individual holati, uning biologik-ijtimoiy betakror botiniy jihatlari, ota-onalarining, ajdodlarining qadriyatlari va inson ijtimoiy-siyosiy faoliyati atrofida kechadigan jarayonlar yetakchi omillar sanaladi.

Xalqimiz orasida biror kishiga nisbatan "falonchi nihoyatda oriyatli-da", "oriyatli odam edi" kabi iboralar tez-tez qo'llanib turadiki, uning zamirida bir qator ijtimoiy-tarixiy, hayotiy-ruhiy asoslar bor. Masalan, oriyatli insonlar eng avvalo, iymoni butun, Oллоhdan xabari bor bo'lganlari uchun ham xalqning nazariga tezda tushadi, chunki bunday insonlar tabiatan o'zining ajdodlari, eldoshlari, xalq va millatning or-nomusini, shon-shuhratini doimo dilida saqlovchi, qadr-qimmatini, izzat-hurmatini o'z joyiga qo'ya oladigan mard insonlar bo'lishadi. Ular vatandoshlarining or-nomusi uchun, tarixi, qadriyatlari, tili, dini va ijtimoiy qiyofasini har qanday tajovuzkorlarning hiyla-nayranglari, xurujlaridan himoya qila oladigan kishilar toifasiga kiradi. Bunday insonlar, hayotda

² Захриддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. - Т.:Фан,1990.-Б.289.

³ Қамар Амон. Маънавият назарияси ва тарихи. - Т.: Шарқ, 2002. –Б.114.

⁴ Имомназаров М. Миллий тараққиётнинг маънавий-ахлоқий асослари. - Т., 2007.-Б.290.

oriyatlilik fazilatiga ega bo'lgan, ma'naviy-axloqiylik mezonlari talablariga to'lig'icha javob bera oladigan, kerak bo'lsa, shu yo'lda jonini fido qilishga tayyor turadigan mard o'g'lonlar hisoblanadi.

Keksa tarix sahifalariga nazar solsak, ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz orasida nihoyatda or-nomusli, oriyatli va elparvar, himmatli bunday insonlar ko'plab uchraydi. Bu o'rinda birgina tarixiy misolni – sohibqiron bobomiz Amir Temurning faoliyatidagi oriyatlilik fazilatining yorqin namunasini keltirish bilan chegaralanamiz:

1359-yilda To'qlug' Temur lashkarlari Kesh viloyati tomon harbiy yurishni boshlaydi. Bu paytda Shahrisabzga bir yildan buyon hukmdorlik qilib kelayotgan Hoji Borlos (sohibqiron bobomizning amakisi – D.J.) To'qlug' Temurga qarshi bora olmasligini bilib, Keshni tashlagancha, Xurosonga qochishga harakat qiladi. Hoji Borlos o'ziga sodiq kishilari bilan Amudaryo bo'yiga yetib kelganda, ularning orasidagi Temur Shahrisabzga qaytish maqsadini bildiradi. Ikki amaki o'rtasidagi qisqa muloqotda Temur unga qarata: "Siz boravering, men bundan qiyin kunlarda el-yurt ichida bo'lishim kerak", - deydi va Keshni To'g'luq Temurdan himoya qilishga bel bog'laydi.

Amur Temur hayotida sodir bo'lgan ana shu tarixiy suhbatning o'ziyoq sohibqiron bobomizning nihoyatda oriyatli, himmatli shaxs, elparvar farzand ekanligidan dalolat bera oladi. Yana shu suhbatdan kelib chiqadigan yakuniy fikr shuki, bunday kishilar tabiatan o'ta oriyatli insonlar sanalgan. Ular hamma vaqt "avvalombor o'z-o'zini, o'z oilasini, qavmu-qarindoshini e'zozlaydi, hurmat qiladi, sevadi, boshiga ko'taradi. Shuningdek, vatan, el-yurtning yuksalishi, rivoji va taraqqiyotidan mamnunlik, qoniqish his-tuyg'ularini sezadi, har qanday holatda el-yurt, millat, vatani haqida soxta, yolg'on-uydirmalardan orlanadi, xazar qiladi"⁵.

Ko'ramizki, oriyatli kishilarning bunday yuksak insoniy fazilatlarini ma'naviy-axloqiy odob mezonlarining tarkibida alohida o'rin egallaydi. Agarda, ularni hozirgi yoshlar ongiga bus-butunicha singdirilsa, el-yurt, xalq, millat manfaatlari taraqqiyoti, obro'-e'tibori, shon-shavkati, or-nomusi uchun astoydil xizmat

qilish, kerak bo'lsa, jon fido qilish his-tuyg'usini shakllantirish imkoniyatini beradi.

Ma'naviy jasoratlilik fazilati ibratlilik va fidoyilik fazilatlarining mazmun-mohiyatiga birmuncha yaqin turadi. Birinchi prezident I.A.Karimov bildirgan fikrlari bilan ifodalasak, "har qanday murakkab vaziyatda ham adolat va haqiqat yo'lida o'zini ayamay, el-yurt uchun, Vatan uchun ibratli ishlarni amalga oshiradigan va yuragida jasorat hissi nihoyatda kuchli bo'lgan" kishilarning, ya'ni ma'naviy jasoratli insonlarning fazilatlarini sanaladi. "Aynan mana shunday odamlarning ma'naviy fazilatlarini tufayli ezgu his-tuyg'ular, muqaddas va ulug' tushunchalar dunyoda hanzuz barqaror bo'lib kelmoqda"⁶.

Agarda tariximiz sahifalariga nazar solsak, ma'naviy jasoratli kishilarning fazilatlarini xilma-xil ko'rinishlarda namoyon bo'lganligini kuzatamiz. Ularni shartli ravishda bir nechta guruhlarga ajratib, yoshlar ongiga singdirishda va ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy tarbiya berishda samarali foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi:

Ilm-fan sohasida tengsiz kashfiyotlarni amalga oshirgan va tarix sahifalaridan o'chmas iz qoldirgan buyuk mutaffakir ajdodlarimizning faoliyatlaridagi ma'naviy jasoratlilik fazilatlarini. Abu Nasr ibn Iroq, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Xo'jandiy, Ahmad ibn Muhammad Xorazmiy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy va boshqalarning shu sohadagi faoliyatlari millat tarixida alohida o'rin tutadi.

Fikrimizni dalillashga harakat qilamiz: bu o'rinda birgina Mirzo Ulug'bek va Alisher Navoiy faoliyatiga nazar solaylik. Amir Temurning nabirasi, benazir alloma Mirzo Ulug'bek bir tomondan qariyb qirq yil mobaynida Movarounnahrda donishmand hukmdor sifatida tinchlik va totuvlik uchun katta shijoat va matonat ko'rsatishi, ikkinchi tomondan esa, o'zida minglab yulduzlar harakatini jamlagan mukammal astronomik jadvalni yaratishi - ilm-fan sohasidagi ulkan faoliyati ma'naviy jasoratning haqiqiy namunasi bo'la oladi.

Yoki milliy adabiyotimizning buyuk sardori va g'ururi, milliy tilimizning asoschisi Alisher Navoiyning hayotdagi xayrli ishlari, bunyodkorlik faoliyati va ijoddagi muvaffaqiyatlari ham shu sohadagi ma'naviy jasoratga misol bo'la oladi. Chunki, "agar

bu ulug' zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir. Inson qalbining quvonchu qayg'usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdankam topiladi. Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg'usi ham bizning ongu shuurimiz, yuragimizga avvalo Navoiy asarlari bilan kirib keladi. Biz bu bebaho merosdan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik ko'p bahramand etsak, milliy ma'naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarini kamol toptirishda shunchalik qudratli ma'rifiy qurolga ega bo'lamiz"⁷.

Ilm-fan sohasida tengsiz kashfiyotlarni amalga oshirgan, yuksak ma'naviy jasorati bilan yaqindagi tarix sahifalaridan o'chmas iz qoldirgan buyuk bobolarimiz va momolarimizning fazilatlarini ham hozirgi davr uchun ma'naviy jasorat namunasi bo'la oladi. Yurtboshimiz tomonidan alohida ta'kidlangan buyuk insonlar, masalan, "o'zining mustaqil fikriga ega, kerak bo'lsa, yuqori lavozim egalari yoqmaydigan, to'g'ri gaplarni ham dadil ayta oladigan ulkan olim" Yahyo G'ulomov, "nafaqat o'z she'rlari, balki butun hayoti bilan o'zbek ayolining ma'naviy qiyofasini namoyon etgan atoqli shoirimiz Zulfiyaxonim", "ma'naviy jasorat sohiblaridan yana biri atoqli olim va jamoat arbobi Ozod Sharafiddinov"⁸ va boshqalarning faoliyatini misol qilib ko'rsatish mumkin.

- El-yurt deb, Vatan birligi, ozodligi va obodligi uchun hammaga ibrat – namuna bo'la olgan, katta fidoyilik ko'rsata olgan buyuk ajdodlarimizning faoliyatlaridagi ma'naviy jasoratlilik fazilatlarini. Bunday fazilatlariga ega bo'lgan insonlar tarixda ham, ajdodlarimiz va ota-bobolarimiz orasida ham ko'plab uchraydi. Masalan, Urganchni Vatan bosqinchilaridan himoya qilishda tug' (bayroq) ko'tarib jon fido qilgan buyuk bobolonimiz, shayx Najmiddin Kubroning hayotdagi qahramonlik faoliyati, Chingizxon qo'shiniga qarshi qariyb o'n bir yil uzluksiz ravishda mardona kurash olib borgan Jaloliddin Manguberdining jangovorlik faoliyati ham ana shu sohada ma'naviy jasoratning eng oliy namunasi bo'la oladi. Yoki muqaddas yurtimizni bosqinchi dushmanlardan ozod qilib,

buyuk davlat barpo etgan sohibqiron bobomiz Amir Temurning jangovarlik va bunyodkorlik faoliyati ham ma'naviy jasoratning eng yaxshi namunasi bo'la oladi. Yoki o'tgan asrning boshlarida Samarqand atrofidagi Namoz Pirmul o'g'lining o'z eldoshlari uchun mahalliy hukmron doiralari va chorizm mustamlakasi vakillariga qarshi olib borgan fidoyilik va adolatli xatti-harakatlari ham bunga yorqin misol bo'la oladi. Tariximiz sahifalaridan bunday misollarni ko'plab keltirish mumkinki, ularning hammasi millatimiz faxri, ko'rki va yuzi sanaladi. Shonli tariximizdan o'chmas iz qoldirgan ajdodlarimizning bunday faoliyatlari har bir insonda, yoshlar avlodlarida faxr va g'urur tuyg'usini shakllantiradi.

Yana bir fikr: yangi davr – mustaqillik davrida o'zbek xalqining baxt vataqdir prezident Islom Karimov nomi bilan bog'langanligi uchun u kishining faoliyatini ham ma'naviy jasorat namunasiga misol qilish mumkin. Chunki, mamlakatimiz rahbarining "mustaqil milliy siyosat, Ota yurt mavqeyini olam uzra yuksaklarga ko'tarish, mamlakatda barqarorlik va ijtimoiy uyg'unlikni ta'minlash, demokratik huquqiy davlat tizimini shakllantirish, ijtimoiy kafolatlarni mukammallashtirish yo'lidagi va boshqa qator xizmatlari"⁹ milliy mustaqilligimiz sohasidagi ma'naviy jasoratning, fidoyilikning, boshqalarga esa ibrat-namunaning kundalik hayotdagi eng yorqin ifodasi bo'la oladi.

-Islom madaniyatiga betakror hissalarini qo'shgan vatandosh bobolarimizning, ko'pgina aziz-avliyolarning serqirra faoliyatlaridagi ma'naviy jasoratlilik fazilatlarini. Agarda millatimiz tarixi sahifalariga nazar solsak, bunday fazilatlariga ega bo'lgan insonlar juda ko'plab topiladi. Musulmon olamida "muhaddislar sultoni" deb shuhrat qozongan Imom Buxoriy, Abu Iso Muhammad ibn Iso Termiziy kabi bobolarimiz, Burhoniddin Marg'ioniy, Bahouddin Naqshbandiy, Abdulxoliq G'ijduvoni kabi aziz-avliyolarning olib borgan faoliyatlari ham shu sohadagi ma'naviy jasoratning yaxshi namunalari bo'la oladi. Bunday buyuk zotlarning asarlaridagi ilgari surilgan g'oyalar va islomiy ko'rsatmalar dinimizning asosini tashkil qiladi, hayotni to'g'rilik, ezgulik va insoniylikdan iborat, deb biladigan jamiki mo'min-musulmonlarning qarash va intilishlari bilan hamohanglikda

5 Асадов Б. Ёшлар ва қадриятлар. – Т.: Истиқлол, 2000. 68-69 бетлар.

6 Каримов И. Юксак маънавият – энгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. -Б.159

7 Каримов И. Юксак маънавият – энгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. 47-48 бетлар.

8 Ўша асар. 166-167 бетлар.

9 Имомназаров М. Миллий тараққиётнинг маънавий-ахлоқий асослари. - Т., 2007. -Б.49.

bo'ladi. Shuning uchun ham ular yozib qoldirgan katta va kichik kitoblar millionlab insonlar qalbini haqiqiy imon nuri bilan munavvar etish uchun xizmat qilib kelmoqda.

El-yurt, millatning ma'naviy mustaqilligiga erishish uchun astoydil jon kuydirib xizmat qilgan, chorizm mustamlakasi davridayoq ma'rifat g'oyalarini baland bayroq qilib millat nomidan ko'tarib chiqqan jadidchi bobolarimizning muborak faoliyatlari ham ma'naviy jasoratning eng yaxshi namunalari bo'la oladi. Chunki, "Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Is'hoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy Abdulhamid Cho'lpon, Usmon Nosir kabi yuzlab ma'rifatparvar, fidoiy insonlarning o'z shaxsiy manfaati, huzur-halovatidan kechib, el-ulus manfaati, yurtimizni taraqqiy toptirish maqsadida amalga oshirgan ezgu ishlari avlodlar xotirasidan aslo uchmaydi"¹⁰. "O'tgan asr boshlarida, tariximizning og'ir va murakkab avrida maydonga chiqqan jadid bobolarimizning fidoyiligi zamirida ham ana shunday jasorat namunasi mujassam edi, desak hech qanday mubolag'a bo'lmaydi"¹¹.

Yuqoridagi fikr-mulohazalar asosida quyidagi xulosalarni berish imkoniyati tug'iladi:

Birinchi yangi O'zbekistonning siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy vazifalarini amalga oshirish, eng avvalo, jamiyatning va uning har bir a'zosi – insonning yuksak ma'naviy-axloqiy madaniyatiga bog'liq. Aslida axloq inson - shaxs ma'naviyatini rivojlantirishning asosi hisoblanadi. Insonning umri davomiylikni taqozo qilganligi, ya'ni umri farzandlarida

davom etgani kabi ulardagi mehr-oqibatlilik, vatanga e'tiqodlilik, samimiylik, xushmuomilalilik, halollik, odamiylik, lafzida sobitlik, andishalilik, ota-onaga hurmat, ishbilarmonlik, ilmlilik, zukkolilik kabi eng yaxshi fazilatlarni kelgusi avlod vakillari davom ettiradilar. Shuning uchun ham bu xislatlarni farzandlarga va o'quvchi-yoshlarga singdirishni oilada, maktabda shakllantirish hamda kamol toptirish muhim ahamiyatga ega. Bunday ma'suliyatli vazifani bajarish esa jamiyatda eng avvalo ota-ona va murabbiy-pedagog zimmasiga yuklatilgan.

Ikkinchidan yuqorida keltirib o'tganimizdek, inson faoliyatidagi yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlari majmui ma'naviy-axloqiy tarbiyaning asosini va mazmun-mohiyatini tashkil etadi. Ular orasida zukkolik va idroklilik, ishbilarmonlik, sobitlik, imonlilik, e'tiqodlilik, madaniyatlilik, ma'rifatlilik, axloqlilik va odoblilikka doir insoniy fazilatlar, xislat va sifatlardagi kichik guruhlar yetakchi o'rinlarni egallaydi.

Uchinchi ta'kidlangan fazilatlar, xislat va sifatning yosh avlodni tarbiyalashdagi alohida-alohida o'z o'rnini va salohiyati bor, mazmun-mohiyati bilan bog'liq amalga oshirilishi zarur bo'lgan pedagogik-didaktik vazifalari ham mavjud. Jamiyatda ham, kundalik hayotda ham ana shu ma'suliyatli vazifa eng avvalo, murabbiy-pedagoglar va ota-onalar zimmasiga tushishini unutmashimiz zarur.

INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING BO'LAJAK HUQUQSHUNOS- PEDAGOGLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI

Zafarjon Yigitaliyevich Xamraqulov - PhD v.b., dotsent, Qo'qon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Maqolada innovatsion texnologiyalarning bo'lajak huquqchi-pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishdagi o'rnini masalalari tahlil qilingan. Innovatsion texnologiyalarni qo'llash borasida tavsiyalar bildirilgan.

Аннотация: В статье анализируется роль инновационных технологий в развитии профессиональной компетентности будущих педагогов-правоведов. Даны рекомендации по использованию инновационных технологий.

Abstract: The article analyzes the role of innovative technologies in the development of professional competence of future law teachers. Recommendations on the use of innovative technologies are given.

Kalit so'zlar: pedagogik ta'lim, zamonaviy ta'lim, innovatsion texnologiya, talaba, kasbiy kompetentlik, faollik, ta'lim tizimi.

Ключевые слова: педагогическое образование, современное образование, инновационные технологии, студент, профессиональная компетентность, деятельность, образовательная система.

Keywords: pedagogical education, modern education, innovative technologies, student, professional competence, activity, educational system.

Dunyo mamlakatlari zamonaviy ta'limda an'anaviy usullardan voz kechib, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanayotganligi kompetentiv yondashuvning ahamiyati ortib borayotganligidan dalolat beradi. Ilg'or oliy ta'lim muassasalari talabalarga nazariy bilimlar berish bilan birga, ularning o'zlari tanlagan yo'nalishlari bo'yicha kasbiy kompetentligini oshirish ustida faoliyat olib borishmoqdalar. Bunda ta'lim oluvchining kelgusi faoliyati uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lishiga katta e'tibor qaratilyapti. Bunday harakatlar O'zbekistonning oliy ta'lim tizimida ham alohida o'rin egallab boryapti. Innovatsion texnologiyalar huquqshunoslik fani bo'yicha bo'lajak pedagog kadrlar tayyorlash jarayonida muhim element bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son Farmoni asosida qabul qilingan "Jamiyatda huquqiy madaniyatni rivojlantirish Konsepsiyasi"da davlat organlari, oila, mahalla instituti bilan

birga, ta'lim muassasalarining ham sohaga doir dolzarb vazifalari belgilab berilgan. Maktabgacha, umumiy, professional va oliy ta'lim muassasalarining har birining funktsiyalari doirasiga muayyan vazifalar kiritilgan. Mazkur vazifalarni bajarish ta'lim muassasalarining pedagogik jamoasidan fidoyilikni talab qiladi. Zero Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev bu haqda: "Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz"¹, deyishganlar. Ta'lim oluvchilarga huquqshunoslikdan saboq berish, ularning huquqiy savodxonliklarini oshirish pedagog kadrlardan ko'nikma, malaka va puxta tayyorgarlik bilan birga, huquqshunoslik fanlari bo'yicha yetarlicha bilimlar bazaga ega bo'lishni zaruratga aylantiradi.

XX asrning 90-yillaridan boshlab MDH mamlakatlari qatori O'zbekistonga ham "ta'lim texnologiyalari", "yangi pedagogik texnologiyalar", "innovatsiya" singari

¹⁰ Каримов И. Юксак маънавият – энгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008.-Б.49.

¹¹ Уша асар.-Б.163.

¹ Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustovorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: O'zbekiston, 2017. – B.54.

tushunchalar kirib keldi. Sobiq sotsialistik tizimdan meros qolgan o'qitish tartiblaridan voz kechish boshlandi. Rossiyada B.P.Bespalko, N.Nikondova, N.F.Kostenko, B.I.Bulin, Y.G.Molokova, P.K.Selevko va boshqa olimlar yangi innovatsion pedagogik texnologiyalar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishdilar.

O'zbekistonda N.Saidahmedov, M.Mamatqulov, Z.Akromov, A.Ochilov, L.Golish, R.Qurboniyozov, F.Jumaboyev, Sh.Abdullayev, A.Nizomov, J.Tolipova, N.Alimqulov, A.G'ofurov singari olimlar yangi innovatsion texnologiyalar yuzasidan olib borgan tadqiqotlari natijasida yaxshi tajriba to'plandi. Zamonaviy o'qituvchining asosiy vazifasi yosh avlodni kelajakda mehnat faoliyatiga tayyorlashi, yuqori malakali kadr bo'lib yetishishiga ko'maklashish hisoblanadi².

Hozirgi davrda "kompetentlik" va "kompetensiya" tushunchalarining mazmun-mohiyati, ularning muayyan sohalaridagi ahamiyati va kasbiy kompetentlikning rivojlanish mexanizmlarini o'rganish bo'yicha ilmiy-pedagogik tadqiqotlar olib borilmoqda. Bugungi kunda pedagog olimlar ta'limda muhim ahamiyatga ega bo'lgan kasbiy, fanga oid, tayanch, shaxsiy, kommunikativ, madaniyatlararo, umummadaniy, metodik, akseologik, lingvistik, akmeologik, maxsus, kognitiv, kreativ, psixologik, auto, intellektual, ekstremal, ijtimoiy-madaniy, kross-madaniy, etnomadaniy, ijtimoiy-kasbiy, ijtimoiy-psixologik (shaxslararo), huquqiy, partsial (alohida bo'laklarga ajratilgan) singari kompetensiyalarning ko'plab turlarining ilmiy asoslari bo'yicha tadqiqotlar olib bormoqda³. Bularning barchasi O'zbekistonning zamonaviy ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv ko'proq o'rin egallab borayotganligini anglatadi.

Tadqiqotlarda AQSHda o'tgan asrning 30-yillarida keng yoyilgan "ixtisoslik" atamasi "kompetentlik" tushunchasining vujudga kelishida asos vazifasini bajargani tilga olinadi. XX asrning 60-70-yillarigacha bo'lgan davrda kompetentlikning ilmiy asoslari bo'yicha izlanishlar olib borilgan va

muayyan yutuqlarga erishilgan. Shundan so'ng bugungi kunga qadar mazkur tushunchalarning turli sohalaridagi ahamiyati tadqiq etib kelinmoqda.

O'zbekistonning ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv bo'yicha bir qator tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ularda ta'lim oluvchilarni har tomonlama rivojlantirish pedagogik maqsad qilib belgilangan. Bunda ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini ijtimoiy hayot talablari asosida takomillashtirib borish ko'zda tutilgan. Ta'lim jarayonini takomillashtirishning muhim omili oliy ta'lim tizimida pedagoglarning kasbiy kompetentligini shakllantirish bilan uzviy bog'liq... kasbiy kompetentlik tushunchasiga nisbatan aniq faoliyat talablari yoki aynan, subyektning aniq faoliyatning o'ziga xos jihatlari nisbatan munosabatini tavsiflovchi xususiyat sifatida qo'llaniladi⁴. Ijtimoiy hayotning ta'lim bilan bevosita bog'liqligi buning asosiy sababi hisoblanadi. An'anaviy ta'limdan farqli ravishda, kompetensiyaviy ta'lim ta'lim oluvchilarni muayyan soha bo'yicha amaliy faoliyatga tezroq kirishishiga yordam beradi. Shularni inobatga olgan holda, talabalarning kasbiy kompetentligining rivojlanish imkoniyatlarini huquqshunoslik fani doirasida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Kundan kunga rivojlanib borayotgan zamonaviy jamiyatdagi eng katta qadriyat bu I.L.Bimning ta'kidiga ko'ra, "o'zgaruvchan jahonda yashashga yaratuvchan bo'lishga, jahon hamjamiyatida o'z o'rnini egallashida o'z hissasini qo'sha oladigan bilimli, ilmiy, erkin va sog'lom avloddir"⁵.

Rossiyalik professor I.A.Zimnyaya zamonaviy ta'limning yangi paradigmasi – tayanch kompetensiyalar deb hisoblagan holda, unda kasbiy kompetentlikning o'rnini alohida ta'kidlagan. Shuningdek, ijtimoiy-kasbiy kompetentlikka integrativ yondashish kerakligini tavsiya etgan⁶.

Talabalarga oliy ta'lim berishda tizimga turli omillar ta'sir ko'rsatadi. Bo'lajak pedagog kadrlarni tayyorlashda ularni inobatga olish talab etiladi:

- davlat siyosati sifatli ta'limni

shakllantirishni zamon talabiga aylantirganligi;

- axborot hajmi va ta'lim olish imkoniyatlarining kengayib borayotganligi;

- ta'limda xorij tajribalariga asoslangan yangiliklarni kirib kelayotganligi (ta'lim tashkilotlariga mustaqillik berilayotganligi, HEMIS o'qitish tizimiga o'tilayotganligi, xususiy OTMLar sonining ortayotganligi va boshq.).

Ta'limga xos omillar, tizimdagi yangilanishlar har bir pedagogdan "ta'lim va ilm-fan sohasidagi eng so'nggi ijobiy yangiliklarni o'quv jarayoniga tatbiq eta oladigan, chuqur bilim va dunyoqarash egasi"⁷ bo'lishni talab etmoqda. Zamonaviy ta'lim professor-o'qituvchilar oldiga katta va mas'uliyatli vazifalarni qo'ymoqda. Bugungi kun pedagoglari oliy ta'lim talabalarining ijtimoiy kompetentligini shakllantirishda bir qator jihatlarga e'tibor berishlari zarur. Ularga talabalardagi kreativ va tashabbuskorlikni qo'llab-quvvatlash, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, kognitiv xususiyatlarni yuksalishiga erishish, mustaqil qarorlar qabul qilishga o'rgatish va boshqalarni kiritish mumkin.

Pedagogik tizim taraqqiyoti globallashtirish davrida bilimlarning muttasil ortib borishi fonida yangi kompetensiyalarni tadqiq etish va o'zlashtirishni taqozo etmoqda. 2023-yilning "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb e'lon qilinishi ham pedagoglar zimmasiga qo'shimcha mas'uliyat yuklamogda. Oliy ta'limning zamonaviy pedagogi darslik va qo'llanmalardan tashqari, yangi axborot oqimi bilan ishlay olishi, innovatsion texnologiyalardan unumli foydalangan holda talabalarni amaliy faoliyatga muvaffaqiyatli tayyorlay olishi talab etilmoqda.

Pedagog kadrlarning huquqiy bilimlar bazasini mustahkamlash oliy ta'lim muassasalari, qolaversa, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash markazlarining ish faoliyatiga yangi innovatsion metodologiyani joriy etish, yangi pedagogik texnologiyalardan unumli

foydalanish va pedagogik jarayonga malakali mutaxassislarni jalb etishni talab qiladi⁸. Bunda xorij tajribasi va chet ellik mutaxassislarning jalb etilishi hamda tajriba o'rganish uchun mutaxassislarni dunyoning nufuzli ta'lim dargohlariga yuborish samarali usul sanaladi.

Ta'limning ahamiyati iqtisodiyot va jamiyat zamonaviy xususiyatlarini shakllanishining muhim omili ekanligi shubhasiz. Barcha mamlakatlarda uning ta'siri inson kapitalining o'sishi bilan ko'tarilib bormoqda⁹. Oliy ta'limning bo'lajak huquqshunoslik fani o'qituvchilarini tayyorlash, ularning huquqiy bilimlarini mustahkamlash ijtimoiy xarakterga ega hisoblanadi. Xususan, talabalarning huquqiy bilimlarini oshirish ularning qonunlarga hurmat bilan qarash, o'rnatilgan huquqiy tartibga itoat qilish, huquqbuzarliklarni murosasiz bo'lish, huquqiy munosabatlarda faol va tashabbuskor bo'lish madaniyatining rivojlanishiga olib keladi¹⁰. Shuningdek, talabalarda o'zlari yashayotgan mamlakatda huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyati rivojlanishiga o'z hissalarini qo'shish ko'nikmalarining shakllanishi hamda xalqning bir bo'lagi sifatida o'z o'rnini tushunib yetishlarini yuzaga keltiradi.

Globalashuv jarayonlarida axborot oqimining ortib borayotganligi talabalar egallashi lozim bo'lgan ma'lumotlar hajmining ko'payib borishiga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Talabalar kasbiy kompetentligini innovatsion texnologiyalar vositasida rivojlantirish uchun quyidagi jihatlarga e'tiborni qaratish zarur:

- huquq fanlarining o'qitilishida talabalar qiziqish doiralarini inobatga olish;

- pedagogik ta'limda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishni amalga oshirish;

- malaka oshirish markazlarida huquqshunoslikdan dars beruvchi o'qituvchilarga mazkur fanni o'qitishni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalarni muntazam berib borish;

- oliy ta'limda huquqshunoslik fanlari

2 Tolipov H. Pedagogik texnologiyalar. –T.: O'qituvchi, 2011. – B.33.

3 Kurbaniyazova Z. Bo'lajak pedagoglarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish. // Pedagogik mahorat, 2020, №5, - B. 43.

4 Yo'Ichiyev M.E. Oliy ta'lim tizimida texnika yo'nalishidagi talabalarni o'qitishda kompetentlik ta'lim jarayoni rivojlanishining muhim omili. / NamDU ilmiy axborotnomasi. Namangan, 2021 y. №12, - B. 701.

5 Бим И.Л. Модернизация структуры и содержания школьного образования иностранным языком // Иностранные языки в школе. - 2005. - №8. - С. 6.

6 Имняня И.А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования. <http://сибирянинка.ru/article/n/>

7 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 8-oktyabrda "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019-y., 06/19/5847/3887-son.

8 Xamraqulov, Z. Y. Jinoyat huquqi fani o'qituvchisiga qo'yiladigan zamonaviy talablar // O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 2022, №1(12), - B. 426-430.

9 Холмұминов Ш.Р. О концепции модернизации образования // Образование и социально-экономическое развитие в начале третьего тысячелетия. Тезис докладов конференции «XIX-Международные Плехановские чтения». 16-17 февраля 2012 года. – Ташкент, 2012. – С. 55

10 Xamraqulov, Z.Y. Huquqshunoslik fanlarini o'qitishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish // Pedagog, 2022, №1(3), - B. 314-318.

bo'yicha pedagogik ta'lim uchun mos bo'lgan darslik va o'quv qo'llanmalarni yaratish;

- huquqshunoslik bo'yicha pedagogik ta'limdagi innovatsion texnologiyalardan foydalanishga doir tadqiqotlarni rivojlantirish;
- huquqshunoslik fanlaridan dars berishda auditoriyada tashkil etiladigan ma'ruza, seminar va laboratoriya mashg'ulotlari bilan cheklanib qolmaslik;
- talabalar faolligini oshirishning yangi mexanizmlarini amaliyotda qo'llash hamda o'qitish metodikasini takomillashtirish.

Bilim egasi bo'lish istagi bilimlilikni ta'minlay olmaydi. Zotan maqsad bo'lgani bilan unga yetishish uchun harakat bo'lmaganday keyin ijobiy natijani kutish befoyda holat sanaladi. Xususan, bolaga "odobli bo'lgin" degan bilan odob asli nima ekanligi, qanday namoyon bo'lishi, odobli bo'lish uchun nimalarga e'tibor berish kerakligi haqida zaruriy bilim berilmasa, aytilgan gaplarning hammasi havoga uchib ketadi.

Innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda, bo'lajak huquqchi-pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda quyidagi vazifalarni bajarish lozimligi aniqlandi:

- o'qitilayotgan fanning aniq maqsadini talabalar tomonidan o'zlashtirilishini ta'minlash;
- har bir dars (ma'ruza, seminar, laboratoriya) uchun samarali bo'lgan innovatsion texnologiyani tanlash va amalda qo'llash;
- darslarda qonunchilik asoslari, huquqiy normalardan unumli foydalanish;
- muammoli o'qitish metodlaridan foydalanib, talabalarda mantiqiy fikrlash

ko'nikmalarini yuksaltirish;

- darsda talabalarning faolligini ta'minlashga erishish;
- dars va mustaqil ta'lim mashg'ulotlari orqali talabalarning o'z ustilarida ishlash malakalarini rivojlantirish va boshqa imkoniyatlardan foydalanish.

Talabalarining huquqiy bilimlarga ega bo'lishi "o'qituvchi – talaba" munosabatlari doirasidagi yangicha yondashuvlarni talab qiladi. Bunda innovatsion texnologiyalarning quyidagi shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

- o'yinli texnologiyalar;
- muammoli ta'lim;
- modulli o'qitish;
- keys-stadi texnologiyalari va boshqalar.

Mazkur texnologiyalar an'anaviy ta'limdan farqli ravishda talabalarni dars paytidagi faollashuvini talab qiladi. Innovatsion texnologiyalardan foydalanish bo'lajak huquqchi-pedagoglarni mustaqil izlanishga, kasbiy kompetentligining rivojlanishiga zamin tayyorlaydi. Pedagog sifatida ta'lim tizimida yosh avlodga huquqiy bilimlarni berish bilan birga ularning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga o'z hissasini qo'shadi. Xulosa o'rnida aytganda, talabalar kasbiy kompetentligini innovatsion texnologiyalar vositasida rivojlantirish uchun zarur jihatlarga e'tiborni qaratish, bo'lajak huquqchi-pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda muayyan vazifalarni bajarish, innovatsion texnologiyalarning samarali shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi.

TALABALARNI IJTIMOY FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHDA KITOB DAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Dilafro'z Akbaraliyevna Muminova -p.f.b.f.d (PhD), dotsent, Namangan davlat universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada mutolaa madaniyati, shaxs kitobxonligi, kitobning ta'lim va tarbiya olish jarayonidagi o'rnini, yoshlar ma'naviyatini yuksalishida kitobning ahamiyati, bolalarni kitobga oshno qilish, ularni o'qishga muhabbat ruhida tarbiyalash, o'smirlar va yoshlar ongiga kitob mutolaasini o'z maqsadiga erishish hamda jamiyatga ijtimoiy moslashishda ta'sirchan va nufuzli vosita ekanligini singdirishga doir pedagogik-psixologik ma'lumotlar keltirilgan.

Аннотация: В данной статье культура чтения, личное чтение, роль книги в процессе обучения и воспитания, значение книги в духовном росте молодежи, приобщении детей к книгам, воспитании их в духе любви к чтению, вводя в сознание подростков и молодежи чтение книг. Преподносится педагогико-психологическая информация о том, как достичь своей цели и привить, что оно является действенным и действенным средством социальной адаптации в обществе.

Abstract: In this article, information about the culture of reading, personal reading, the role of books in the process of education and upbringing, the importance of books in the spiritual growth of young people, familiarizing children with books, raising them in the spirit of love for reading, introducing book reading to the minds of teenagers and young people is given. Pedagogical-psychological information is presented on how to achieve one's goal and to instill that it is an effective and influential tool in social adaptation to society.

Kalit so'zlar: tafakkur, kitob mutolaasi, jamiyat, rivojlanish, dunyoqarash, jahon adabiyoti, shaxs, kitob, o'quvchilar, qalb chirogi, kitobxonlik, badiiy adabiyot, tadqiqot, bilim bulogi, intellektual, ilg'or, psixologik, rivojlanish, nashr.

Ключевые слова: мышление, чтение книг, общество, развитие, мировоззрение, мировая литература, человек, книга, читатели, свет сердца, чтение, художественная литература, исследование, источник знаний, интеллектуальный, прогрессивный, психологический, развивающий, публикация.

Keywords: thinking, book reading, society, development, worldview, world literature, person, book, readers, light of the heart, reading, fiction, research, source of knowledge, intellectual, progressive, psychological, developmental, publication.

Kitob o'qish – inson tafakkurining ozuqasidir. Bu haqda Prezident Shavkat Mirziyoyev ham o'z nutqlarida bir necha ta'kidlagan.

"Kitob o'qigan, o'zini ustida ishlagan odamda qanot bo'ladi. U befarq bo'lmaydi. Uning kuchi bilimida bo'ladi. Shuning uchun hech kimni pisand qilmaydi. "Kattalar"ga xushomad qilmaydi. Uning bilimi bor, ilmi bor. Mana nima uchun kitob o'qinglar deymiz. Kitob o'qisangiz savol berishni bilasiz", degan edi davlat rahbari.

Prezident tomonidan kitob mutolasi muhimligi, yoshlar, rahbarlar orasida buni targ'ib qilish lozimligi haqida ko'p bora aytili, aytilmoqda. Davlat rahbari tomonidan Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh

vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusning bittasi aynan kitobxonlikka qaratilgan bo'lib, u yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan.

Mutolaaga qiziqish susayishi, o'z navbatida, aholi savodxonligi darajasi pasayishi jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishi uchun katta tahdidlardan sanaladi. Shuning uchun ham ko'plab rivojlangan mamlakatlarda bu salbiy holatning oldini olishga qarshi qat'iy chora-tadbirlar ko'rilmogda. Umummilliy kompleks dasturlar ishlab chiqilayotir. Ularda davlat hokimiyati hamda boshqaruvi organlari, kutubxonalar, ta'lim muassasalari, ta'lim, ilm-fan va tadbirkorlik subyektlari,

sohadagi fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari sa'y-harakatlarini birlashtirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni ko'rish ko'zda tutiladi. Bunda kitobxonlikning qadri va ahamiyati haqida ijtimoiy ongning shakllantirish, aholi turli qatlami o'rtasida mutolaa madaniyatini manzilli qo'llab-quvvatlash hamda rivojlantirish, noshirlik faoliyatini takomillashtirish, jamiyatning intellektual, ma'naviy va madaniy ehtiyojlariga to'liq javob beradigan kitob bozorini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Dunyo tajribasiga ko'ra, bunday maqsadli dasturlar hamda konsepsiyalar qabul qilinishi ijobiy natija beradi.

Shu ma'noda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-yanvardagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"¹gi farmoyishi bu borada yuzaga kelgan muammolarni kompleks hal qilishga qaratilgan bilan ahamiyatlidir. Hozirgi kunda maxsus ishchi guruh Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi loyahasini ishlab chiqmoqda. Bu jarayonda kitobxonlikni ommalashtirish, unga bolalar va yoshlarni kitobga oshno qilish, respublikamiz kutubxonalarida mutolaani rag'batlantirish, kitobxonlik va kitob savdosini rivojlantirish, soha uchun kadrlar tayyorlash hamda malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, kitob o'qish holatini monitoring qilish bo'yicha chora-tadbirlarga alohida urg'u berilmoqda.

Kitobxonlikni ommalashtirish maqsadida keng aholi qatlamini kitob mutolaasiga jalb qilish va ularni kitob bilan ta'minlash bo'yicha ommaviy tadbirlar, xayriya aksiyalarini tashkil etish, ijtimoiy reklamalardan unumli foydalanish, o'zbek hamda jahon adabiyotining, taniqli mualliflarning mumtoz va zamonaviy badiiy asarlarini targ'ib qilish, ushbu sohada jamoatchilik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ko'ngillilar (volontyorlik) harakatini rivojlantirish, kitobxonlik muammosining keng jamoatchilik muhokamasini, shu jumladan, ijtimoiy tarmoqlar hamda internet

imkoniyatlaridan keng foydalangan holda tashkil etish bo'yicha aniq ishlar olib borilishi ko'zda tutilayotir.

Shuni qayd etish kerakki, bolalarni kitobga oshno qilish, ularni o'qishga muhabbat ruhida tarbiyalash, o'smirlar va yoshlar ongiga kitob mutolaasi o'z maqsadiga erishish hamda jamiyatga ijtimoiy moslashishda ta'sirchan va nufuzli vosita ekanligini singdirish bugungi kundagi dolzarb vazifalardan sanaladi. Shularni hisobga olgan holda, dasturga bolalar hamda o'smirlar uchun kitob nashr qilinishi, shu jumladan, maxsus elektron kitoblar ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash, bolalar va maktab kutubxonalari fondlarini modernizatsiyalash hamda yanada yaxshilash, bolalar va o'smirlarning kutubxonalar, maktabdantashqari hamda yozgi mutolaalarini rag'batlantirish, oilaviy kitobxonlik an'alarini tiklash va ommalashtirish, bolalar hamda o'smirlar adabiyotining eng yaxshi namunalarini targ'ib qilish, o'z ona tilida kitob o'qishni rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlar kiritilmoqda.

Kitob maslahatchi, sadoqatli hamroh, eng yaqin do'st va bebaho boylik hisoblanadi. Bola tarbiyasida uning o'rne muhim. Millatning ma'naviy-ruhiy dunyosini kitobga munosabati, kitobxonlik darajasiga qarab ham aniqlash mumkin. Jahon madaniyatiga munosib hissa qo'shgan ajdodlarimiz erishgan betakror yutuqlarning sababi ham kitob mutolaasidir. Shu bois yurtimizda aholining kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish masalasiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Har bir inson dastlabki tarbiyani, ya'ni ma'naviy ozuqani oilada ota-onadan oladi. Keyin esa maktabga boradi. Jamoada o'zini qanday tutishni o'rganadi. Ma'naviy ozuqa olishning, chin inson bo'lib yetishishning birdan bir yo'li bu kitob mutolaasi hisoblanadi. Inson kamoloti va bilimining manbai kitob bilan bog'liq. U insonni komillik sari yetaklaydi. Darhaqiqat, bu ma'naviy sarchashma farzandlarimizning dunyoqarashini boyitadi, nutqini o'stirib, xotirasini mustahkamlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish

to'g'risida"²gi farmoyishida belgilab berilgan vazifalar o'zining dolzarbligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish, kitob sotishga ixtisoslashgan korxonalar tomonidan ta'lim muassasalari, kutubxonalar va mahallalarda yangi kitoblar taqdimotini o'tkazish, mutolaa madaniyatini oshirish, shu jumladan, ommaviy-axborot vositalari orqali targ'ibot-tashviqot qilishga qaratilgan ta'sirchan faoliyat olib borish orqali aholining kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish bo'yicha tegishli vazifalar va yo'nalishtirish belgilab berildi.

Bugungi kunda farzandlarimizga chetdan singdirishga harakat qilinayotgan "ommaviy madaniyat" niqobi ostidagi mantiqsizlik, madaniyatsizlik va boshqa turli ma'naviy xurujlardan faqatgina ma'naviyatimizni mustahkamlabgina himoyalashimiz mumkin. Ma'naviyatning tayanchi esa, albatta, kitoblardir. Kitoblar biz uchun eng katta ma'naviy meros, porloq kelajak sari eltuvchi yo'lchi yulduzdir. Kitob o'qishdan to'xtagan odam fikrlashdan to'xtaydi.

Mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning beshta tamoyilidan biri kuchli huquqiy demokratik davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari yuzlanishdir. Unda xalqimizning irodasi, adolatli jamiyat barpo etishdagi intilishlari, ezgu-istaklari mujassamlashgan. Siyosiy partiyalar esa ana shu tamoyilni o'zida ifoda qiladigan siyosiy tashkilotdir. Har qanday islohotlarning muvaffaqiyati, mamlakatimizni yanada demokratlashtirish va liberallashtirish yo'lidagi sa'y-harakatlar sur'ati fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligi, ularning siyosiy va huquqiy madaniyatining kitobxonlikni zaruratga aylantirish kerak. Agar farzandlarimizda kitob o'qishga havas bo'lmasa, uning kitob o'qishga bo'lgan e'tiborini o'zgartirish mushkul bo'lib qoladi. Ularni o'qishga majburlash emas, balki kitob o'qishga havas uyg'otish lozim. Bu borada ota-ona, ustozu murabbiylar va kutubxona xodimlari bevosita yordam berishlari lozim bo'ladi. Bunda bolalarning yosh xususiyati, qiziqishi hisobga olinishi kerak. Italiya yozuvchisi Seneka: «Kitoblarning soni emas,

ularning yaxshisi foyda keltiradi», - deb aytgan edi.

"Mutolaa" ("kitob o'qish") tushunchasi arab tilidan tarjima qilinganda "diqqat bilan o'qish", "o'rganish" ma'nolarini anglatadi. Nazariy jihatdan ushbu tushuncha "diqqat bilan o'qish, o'qib tushunib olish"³ni anglatadi. Shuni unutmaslik zarurki, kitob o'qish – boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mashaqqatli mehnat sanaladi. V.A.Suxomlinskiyning fikricha, "kitob o'qish aqlli, fikrlovchi tarbiyachi uchun bolaning yuragiga yo'l topishga yordam beradigan so'qmoq yo'lga o'xshaydi"⁴. So'qmoq yo'ldan yurish esa har doim ham oson kechmaydi. Shu sababli bu jarayonni asta-sekin, biroq, izchil tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

O'rganilayotgan muammoning yana bir o'ziga xos jihati borki, jamiyat siyosiy tizimida yoshlar ideosferasiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan illatlar borki, yurtimizdagi barcha davlat va nodavlat tashkilotlarning asosiy vazifalari yoshlarimizni turli ko'rinish, shakldagi tahdidlardan himoya qilishdir.

Yuqoridagi fikrlarni tahlil qilgan holda aytish mumkinki, zamonaviy yoshlarning xatti-harakatlarining va ma'naviy-axloqiy odatlari yoshlar sotsiumining umumiy sotsiosferasini tarkibiy qismini tashkil etadi va aynan ular sotsiosferaning kelajakdagi rivojlanish istiqbolini belgilab beradi⁵.

Kitob o'qish madaniyatiga kitob xarid etish va kutubxonani muntazam boyitib borishga alohida e'tibor bilan qarash, kitob saqlash odobi, o'qish jarayoni, o'qiganni o'ziga va hayotga tatbiq eta bilish kabi yana o'nlab masalalar kiradi. Kitobni tanlab, aniq maqsadni o'ylagan holda o'qish zarur. Bundan tashqari bola faqatgina kitob o'qish bilan chegaralanib qolmasdan, balki kitobdagi asosiy ma'no-mazmunga tushunishi ham lozim.

Kitobga bo'lgan havas o'quvchilarimizni kerak bo'lsa ayrim asarlarni takror va takror o'qishga olib keladi. Nemis shoiri F.Gebblep aytganiday: «O'qilgan kitoblarni takror o'qish savodxonlikning eng ishonchli tarozisidir» deb aytgan edi.

Umumta'lim maktablarining kutubxonalari har chorakda bir marta «Kitoblar

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"¹gi F-4789-son Farmoyishi, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-yil, 38-son, 1029-modda.

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"²gi (2017-yil 13-sentabr) Qarori PQ-3271-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-yil, 38-son, 1029-modda.

3 O'zbek tilining izohli lug'ati. N – Tartibli / 5 jildli. Uchinchi jild. A.Madvallyev tahriri ostida. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. – 416 B.

4 Сухомлинский В.А. Сердце отдаю детям. – Минск: Народная светла, 2001. – 287 с.

5 Gajrnozardov Raxmatulla Raximboyevich. Ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasida uyg'unlik. («Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati misolida) 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi va tarixi Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. 2011-y. B- 26.

mo'jizasi» yoki «Kitoblar olamiga sayohat» mavzusida ko'rgazma tashkil etishlari maqsadga muvofiq. U faqat ko'rgazma bo'lib qolmay balki eng kitobxon o'quvchilar taklif etilib, kitob haqidagi fikri va eng sevimli asari qahramonlari ramziy tasvirini ifoda etib berishi ko'rgazma ishtirokchilari tasavvurida chuqur iz qoldiradi. O'quvchilar o'zlari sevib o'qigan asarlari yuzasidan taqrizlar yozishni o'rgansalar yanada yaxshiroq bo'ladi. Yoki o'qigan asarlari taassurotlari asosida o'quvchining ijod namunalari (kichik hikoya, she'r, hajviya) ko'rgazmaga qo'yiladi. Eng faol qatnashgan ishtirokchilar rag'batlantiriladi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, yoshlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishga, ularni kitob bilan do'st bo'lishga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Buning uchun, avvalo, milliy adabiyotimiz va jahon adabiyotining eng sara namunalari ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish va ularni keng targ'ib qilishga alohida e'tibor berishimiz muhim ahamiyat kasb etadi.

Sohaning rivojlanishiga va yuqoridagi huquqiy me'yoriy hujjatlarda belgilab berilgan vazifalarini ijrosiga qaratilgan axborot-kutubxona markazida maxsus reja ishlab chiqilgan holda faoliyat olib borilmoqda. Aholi, ayniqsa yoshlar dunyoqarashini kengaytirish, intellektual saviyasini o'stirish, ma'naviy olamini boyitishga oid ilmiy-ma'rifiy, badiiy adabiyotlar, jumladan, elektron shaklda o'zbek

mumtoz va zamonaviy adabiyoti hamda jahon adabiyotining buyuk badiiy namunalari audio va video variantini yaratish va ijtimoiy tarmoqlarga ya'ni "Bilim" AKMning bilim.natlib.uz saytiga, instagramga, bilim akm telegramga va feysbukdagi Toshkent shahar "Bilim" axborot-kutubxona markazi sahifalariga joylashtirish ishlari muntazam amalga oshirilishi kitob o'qishga, mutolaa madaniyatini oshirishda mustahkam zamin yaratmoqda.

Darhaqiqat, kitob – tafakkur qanoti. Bu qanot mustahkam bo'lsa, yuksak kengliklar sari intilishdan tolmaydi. Kitobga bo'lgan qiziqish o'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy dunyosini boyitishga xizmat qiladi. Har bir inson kitoblar orqali uning ma'naviy xazinasidan, cheksiz imkoniyatidan iloji boricha ko'proq foydalanib, o'zining, o'zgalarning hayotini mazmunan boyitishi mumkin. Kitob-ruhiyatimiz ozuqasi, u bilan do'stlashish nafaqat bizni ma'nan yuksaltiradi, balki jahonga tanitadi, ezgulikka yetaklaydi.

Xulosa qilib aytganda, komil inson bo'lib yetishish uchun kitobning o'rne beqiyosdir. O'quvchilarni kitob bilan ishlagan odatlantirish ham tarbiyaviy ahamiyatga ega. Kitobxonlik yoshlarning ma'naviy boyligini oshiradi, ularni mehnat va ijodiy yo'lga boshlaydi. Kitob hayotning ulug'vorligini anglab olishga, u haqida mustaqil fikr yuritishga yordam beradi.

O'ZBEKISTONDA TURIZM XIZMATLARINIG YANGI TURLARINI KO'PAYTIRISH ORQALI ISH O'RINLARINI YARATISHNING NAZARIY ASOSLARI

Baxtiyor Fayzullayevich Botirov - i.f.n., dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda dolzarb bo'lgan turizm industriyasida innovatsion faoliyatni jadal rivojlantirish va u bilan bog'liq bo'lgan infratuzilmani innovatsiyalar nuqtayi nazaridan tadqiq qilish hamda shu asosda mamlakatimizda turizm xizmatlari va turistik infratuzilmaning innovatsion rivojlanish, yangi ish o'rinlari yaratish imkoniyatlarini ilmiy asosda rivojlantirish uchun zarur bo'lgan amaliy tavsiyalarni bayon qilishga bag'ishlangan.

Аннотация: Статья посвящена стремительному развитию инновационной деятельности в индустрии туризма, актуальной в Узбекистане, и исследованию связанной с ней инфраструктуры с точки зрения инновационности, и на этой основе практические рекомендации, необходимые для научных разработки инновационного развития туристических услуг и туристской инфраструктуры в нашей стране, возможности создания новых рабочих мест.

Abstract: The article is devoted to the rapid development of innovative activities in the tourism industry, which is relevant in Uzbekistan, and the research of the infrastructure related to it from the point of view of innovation, and on this basis, the practical recommendations necessary for the scientific development of the innovative development of tourism services and tourist infrastructure in our country, and the opportunities for creating new jobs.

Kalit so'zlar: innovatsiya, turizm, innovatsion loyihalar, avtouy, sayyohlik, ziyorat turizmi, gastronomik turizm, ishsizlik, kambag'allik, tadbirkorlik, fermerlik uyi.

Ключевые слова: инновация, туризм, инновационные проекты, дом на колесах, туризм, паломнический туризм, гастрономический туризм, безработица, бедность, предпринимательство, фермерский дом.

Keywords: Innovation, tourism, innovative projects, motorhome, tourism, pilgrimage tourism, gastronomic tourism, unemployment, poverty, entrepreneurship, farm house.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan turizm jahon iqtisodiyotidagi eng daromadli biznes turlaridan biri ekanligini takidlab, mamlakatimizda turizmni rivojlantirishning bir – qator muammolari belgilab berilgan, bu muammolarning asosiysi "Turistlarga xizmat qiluvchi transport turlarini ichki va tashqi imkoniyatlar orqali ko'paytirish, yaxshilash belgilangan". Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tamonidan qabul qilingan "Taraqqiyot strategiyasi"ga asosan mamlakatimizga keladigan xorijiy turistlar sonini 12 millionga, mahalliy turistlar sonini 11 millionga yetkazish vazifasi belgilangan¹.

Hozirgi vaqtda «Innovatsiya» tushunchasi barcha tarmoqlarda keng qo'llanilmoqda. Innovatsiya so'zi inglizcha so'z bo'lib – «innovatsion» yangilik kiritish degan ma'noni bildiradi, ya'ni tizim ichki tuzilishini o'zgartirishi, deb ta'riflanadi. Innovatsiya amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo'lib, ijtimoiy – madaniy obyektlar sifatini yaxshilashga

yo'naltirilgan ijtimoiy subyektlarning harakat tizimidir. Innovatsiyalar dolzarb, muhim ahamiyatga ega bo'lib, bir tizimda shakllangan yangicha yondashuvlardir. Ular tashabbuslar va yangiliklar asosida tug'ilib, iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish uchun istiqbolli bo'ladi. Shuningdek, umuman iqtisodiy tizim rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Innovatsiya – ma'lum bir faoliyat maydonidagi yoki ishlab chiqarishdagi texnologiya, shakl va metodlar, muammoni yechish uchun yangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo'llash, oldingidan ancha muvaffaqiyatga erishishiga olib kelishi ma'lum bo'lgan oxirgi natijadir.

Innovatsiya loyihalari – bunday loyihalarning asosiy maqsadi yangi texnologiyalar, nou-xau va korxonalarining rivojlanishini ta'minlab beruvchi boshqa yangiliklarni ishlab chiqish va qo'llashdan iborat.

O'zbekiston xalqaro turizm sohasida imkoniyatlarining kattaligi bilan dunyoning

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018 yil, dekabr.

ko'plab mamlakatlaridan tubdan farq qiladi. Mamlakatning turistik potentsiali haqida fikr yuritganda, eng avvalo, ko'hna madaniy va me'morchilik yodgorliklariga boy bo'lgan Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva va Qo'qon kabi tarixiy shaharlari alohida o'rin tutadi. Bundan tashqari O'zbekistonning tabiiy – geografik o'rni nihoyatda qulay, ajoyib tabiiy iqlim sharoitiga ega, jumladan, baland tog' va tog' oldi mintaqalari, dasht va cho'l mintaqalari, o'rmon va to'qayzorlar, daryolar, tabiiy va sun'iy ko'l havzalari, yirik qishloq xo'jaligi hududlari bilan zamonaviy shaharsozlik namunalari o'zida ifoda etgan antropogen landshaftlar qiyofasi insoniyat madaniy taraqqiyotida ham katta o'rin tutadi. Mamlakatimizning betakror tabiati, milliy qo'riqxonalari, tog'li hududlarida turizmni rivojlantirish uchun katta salohiyat mavjud. Ayniqsa, tibbiyot turizmi, ziyorat, avto turizmni va ekoturizmni rivojlantirish nafaqat iqtisodiyot balki ijtimoiy soha rivojiga ham katta turtki beradi².

Jizzax viloyatga 2023-yilda 1,700 ming nafar shundan 100 nafar xorijiy va 1,600 ming nafar mahalliy sayyohlar tashrifi rejalashtirilgan bo'lib, turizm eksport hajmini 25 mln dollarga yetkazish rejalashtirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-apreldagi "Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi" PQ-232-son qarori ijrosini ta'minash uchun Jizzax viloyatining Zomin tumanida "Duoba", Forish tumanida "Uxum", "Sayyod", "Do'stlik" va "Uchquloq", Arnasoy tumanida "Zarafshon" va "Baxtli" mahallalari hududida turizmni rivojlantirish bo'yicha "Yo'l xaritalari" ishlab chiqildi.

Ushbu mahallalarida infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha respublika budjetidan 12,9 mlrd so'm mablag' yo'naltirishiga viloyat hokimining manzilli dasturi tasdiqlandi³.

Respublikamizda turizmni rivojlantirish bo'yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda, jumladan turistlarga yuksak darajada xizmat ko'rsata oladigan to'rt, besh yulduzli mexmonxonalar qurilib, ziyorat, ekologik, agrar, gastronomik, sport va mahalliy turizm yo'nalishlarida sayyohlarni ko'prok jalb qilishga harakat qilinmoqda.

Turizm faoliyati rivojiga sabab bo'luvchi muhim jihatlardan biri turoperatorlar faoliyatida avtomatlashtirish va ortiqcha sarf – xarajatlarning tejalishiga imkon beradigan zamonaviy kompyuter dasturlarini hamda lokal servislarning yara-tilishi O'zbekistonning turistik jozi-badorligi oshishiga xizmat qiluvchi muhim omildir. Buning natijasida yurtimizning tabiati, tarixi, allomalari va mutafakkirlari,

diqqatga sazovor joylari, milliy taomlari, urf – odat va an'analari haqida ijtimoiy va reklama roliklari, hujjatli filmlar, hamda teleko'rsatuvlar yaratish, ularni keng ommaga havola qilish turizm va sayyohlikning rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra dunyo bo'ylab faol turistlar orasida yoshlar salmog'i ortib bormoqda. Agar 2018-yilda butun dunyo bo'ylab turistlar soni 1,4 mlrd. kishini tashkil qilgan bo'lsa, shundan 25 foizi 30 yoshgacha bo'lgan turistlarni tashkil etgan. O'zbekistonda esa 2018-yil yakunlari bo'yicha 5,3 million xorijiy turist tashrif buyurgan va shundan 1,5 mln. dan ortig'ini yoshlar tashkil etgan. Mamlakatimizga tashrif buyuruvchi sayyohlarning o'rtacha yoshi 2010-yilda 60 yoshni tashkil etgan bo'lsa, bugungi kunga kelib 45 yoshni tashkil etmoqda. Bu esa mamlakatimizga tashrif buyuruvchi turistlar orasida yoshlar ko'payib borayotganligini ko'rsatadi.⁴

2019-yil 15-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoniga asosan mamlakatimizga yosh sayyohlarni jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, yoshlarni jalb etuvchi madaniy – ko'ngilochar tadbirlar tashkil etish, yosh sayyohlar uchun imtiyozlar berish tizimini yaratish hamda tegishli infratuzilmani barpo etish kabilarni o'zida aks ettiruvchi yoshlar turizmni rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Yosh turistlarga ham "Turistlar uylari" qishloqlarda ekzotik hayot shu nuqtayi nazardan, davlatimiz rahbarining ushbu Farmoni bilan O'zbekistonda yoshlar turizmni rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaralib, masalaning dolzarbligidan kelib chiqqan holda, bu borada amalga oshirilishi lozim bo'lgan birinchi navbatdagi chora – tadbirlarni aniq belgilab olish hamda ularni izchil amalga oshirish vazifasi belgilab berildi. O'zbekistonda yoshlar turizmni rivojlantirish Konsepsiyasining ishlab chiqilishi mamlakatimizda turizm turlarini yanada rivojlantiradi⁵.

Mamlakatimizga kelayotgan sayyohlar va respublikamiz aholisi betakror vatanimizning so'lim oromgohlari Chimyon, Bo'stonliq, Zomin, Baxmal, Orol bo'yi, Aydarko'l, Sirdaryo, Qashqadaryo, Norin va boshqa daryolar yonlarida, Qizilqum, Mirzacho'l sahrolarida (qo'riqxonalarining ruxsat etilgan joylarida) dam olib, tabiatimiz ajoyibotlaridan bahramand bo'lishlarini tashkil qilish uchun ko'plab oromgohlar qurishga katta mablag' talab qilinadi. Respublikamizda mehmonxona

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018 yil, dekabr.

3 O'zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi rasmiy sayti- <https://uzbektourism.uz/>

4 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018-yil, dekabr.

5 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018-yil, dekabr.

fondi 29.2 ming o'rinni tashkil qilib bahor, yoz, kuz fasllarida oromgohlarda joy yetishmasligi sababli dam oluvchilar noqulay sharoitlarda tunashlari, yoki shu kunning o'zida qaytib ketishlariga majbur bo'lishadi, bu muammoni yechishning qulay usuli, bu sayyohlarga va dam oluvchilarga Avtouy mashinalari, tirkamalarini mamlakatimizda milliy uslubda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va ularni ijaraga berishni tashkil qilishdir⁶.

O'zbekistonda Avtouy tirkamalari, Tadbirkorlik uylarini ishlab chiqarishni tashkil qilish, hamma sharoitlari bor ko'chma, avtouy tirkamalarda turizm xizmatlarini ko'rsatish, ularni ijaraga berish bilan shug'ullanish turizmni yangi yo'nalishi Avtoturizm, Ekoturizmni mamlakatimizda keng rivojlanishiga ko'maklashib, turizm maskanlarini, tashqi va ichki turistlar sonini oshiradi.

Turistlariga xizmat qiluvchi transport turlarini ichki imkoniyatlar orqali ko'paytirish, hamda xizmat sifatini yaxshilash uchun zamonaviy turistlar, ziyoratchilar, fermerlar, fuqarolarga "Avtouy tirkamalar", hamda Tadbirkorlik, turizm, fermerlik faoliyatida yangi ish o'rinlari barpo qilishiga "Tadbirkorlik uylari" ishlab chiqarishni tashkil qilish zarur⁷.

Ushbu loyihani amalga oshirish, mamlakatimiz turizm xizmati bozorini, yuqori sifatli, narxi arzon, mahalliy yangi turizm xizmati maxsulotlari bilan to'ldirish imkonini beradi. Arzon transport, mahalliy materiallar, ishchi kuchi va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali, boshqa raqobatchilarga nisbatan arzonroq bo'lgan xizmat ko'rsatish, hamda qo'shimcha ishchi o'rinlari yaratish imkoniyati paydo bo'ladi.

Biz tomondan taklif qilingan turistlar, ziyoratchilar, fermerlarga va dam oluvchilarga qulay transport, turar joyi "Avtouy, tirkamalarini milliy uslubda ishlab chiqarishni" sanoat namunamizga O'zbekiston Respublikasi Intelektual MulK agentligi tomonidan (29.12.18y) № SAP 01861 patenti berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 18-iyuldagi "Ilmiy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish to'g'risidagi" PQ – 3855 – sonli qarorlariga asoslanib Jizzax Davlat pedagogika universiteti rahbariyati tomonidan "Milliy uslubdagi" avtomobil tirkamasi namunasi ishlab chiqarishga 37 mln. so'm ajratilib milliy uslubdagi Avtouy tirkama tayyorlandi. Unda ikki, uch kishilik joy, quyosh paneli orqali uzluksiz elektr, 300 litr suv zahirasi, televizor, yig'ma divan, gaz plita, dush va sanuzel mavjud.



Turistlariga mehmonxonalarda joy tayyorlash uchun har bir xonaga 60 mln. so'm sarflanmoqda, biz ishlab chiqarishni taklif etgan avtouy tirkamasining bahosi ancha arzon va uni turistlar xohlagan tabiat manzaralari, daryolar, ko'llar cho'llarda joylashtirish mumkin.

Mamlakatimizga tashrif buyurayotgan turistlar, fuqarolarimiz uchun Avtouy tirkamalarini ijaraga berishni tashkil qilinishi, ularda sayohat qilishlari, ziyorat, ov qilish, dam olish qulayliklari paydo bo'lishiga imkon yaratib,

6 R.X. Ayupov, G.R. Boltaboyeva «Kichik biznes va tadbirkorlikda innovatsion rivojlanish yo'nalishlari» T: TMI, 2018 y.

7 Usmanov A. (2020). O'zbekiston betakror turistik mamlakat: tarixiy dalillar, imkoniyat va istiqbol 27-32 bet.

Архив Научных Публикаций JSPI, 1(13), 1-143. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/3415

bu ichki va tashqi turistlar sonini oshishiga va qo'shimcha ishchi o'rinlari yaratilishiga imkon yaratadi.

Bugungi kunda mana shunday avtouy tirkamalarini jahon bozorida sotilish bahosi 10-40 ming AQSh dollarini tashkil qiladi. Avtouy tirkamalarini qo'shni davlatlariga eksport qilish mumkin, chunki bu davlatlarda bunday avtouy tirkamalar ishlab chiqarilmaydi.

Tadbirkor, turistlar, fermerlarga ko'chma Tadbirkorlik uylari loyihasi namunasini taklif qilamiz.



Tadbirkor, turistlar, fermerlarga ko'chma, arzon Tadbirkorlik uylarini ish o'rinlari yaratish uchun ishlab chiqarib, Mamlakatimizda mavjud 9225 ta mahallaning har biriga mana shunday "Tadbirkorlik uylari" dan 1 donadan o'rnatilsa, bu respublikamiz bo'yicha qo'shimcha 9225 ta ish o'rnini yaratish, agar ularda 2 tadan ishchi ishlasa, respublikamiz bo'yicha qo'shimcha 18450 ta ish o'rnini yaratilib, mana shuncha fuqarolarimizni kambag'allik ro'yxatidan chiqarish, o'z-o'zini ish bilan ta'minlash imkonini paydo bo'ladi⁸.

Bu innovatsion g'oyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish natijasida yangi "O'zavtoturist", "Ekoturizm" turizm yo'nalishlari rivojlanib, turistlar, ziyoratchilar va dam oluvchilar sonining ancha oshishiga va ko'plab yangi sayyohlik, turistik manzillarining paydo bo'lishiga, hamda Avtouy tirkamalarini, Tadbirkorlik uylarini ishlab chiqaruvchi, ularda turizm, maishiy xizmatlar ko'rsatish va ijaraga berish kabi faoliyatlar bilan shug'ullanuvchi ko'plab yangi ish o'rinlarini yaratish imkonini yaratiladi.

⁸ Usmanov A. (2020). O'zbekiston betakror turistik mamlakat: tarixiy dalillar, imkoniyat va istiqbol 27-32 bet. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(13), 1-143. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/3415

O'QITUVCHINING KASBIY PEDAGOGIK MADANIYATI VA IJODIY KOMPETENSIYASI

Nuriddin Yahoqulovich Qurbonov - p.f.f.d.(PhD), Jizzax viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi

Annotatsiya: Maqolada o'qituvchining kasbiy pedagogik madaniyati va uning tarkibidagi kasbiy – ijodiy kompetensiya ko'rib chiqilgan. Pedagogik faoliyatning xususiyatlari va qadriyatlarini tahlil qilish, zamonaviy pedagogik tizimni takomillashtirish zarurligini hisobga olgan holda, ta'lim jarayonini shunday tashkil etish maqsadga muvofiq degan xulosaga kelingan. O'qituvchining kasbiy va ijodiy kompetensiyasi: ichki motivlar va qadriyatlar tizimi, kasbiy bilim va psixologik pedagogik mahoratga bog'liqligi asoslangan.

Аннотация: В статье исследуется профессиональная педагогическая культура учителя и профессионально-творческая компетентность в ее рамках. Учитывая необходимость анализа особенностей и ценностей педагогической деятельности и совершенствования современной педагогической системы, сделан вывод о целесообразности организации образовательного процесса именно таким образом. Профессионально-творческая компетентность педагога базируется на внутренних мотивах и системе ценностей, профессиональных знаниях и психолого-педагогических умениях.

Abstract: The article examines the teacher's professional pedagogical culture and professional-creative competence within it. Considering the need to analyze the characteristics and values of pedagogical activity and improve the modern pedagogical system, it was concluded that it is appropriate to organize the educational process in this way. The teacher's professional and creative competence is based on internal motives and value system, professional knowledge and psychological pedagogical skills.

Калит so'zlar: ijodkorlik, pedagogik madaniyat, o'qituvchining kasbiy mahorati, kasbiy va ijodiy kompetensiya, ijodiy faoliyat.

Ключевые слова: творчество, педагогическая культура, профессиональное мастерство педагога, профессионально-творческая компетентность, творческая активность.

Keywords: creativity, pedagogical culture, teacher's professional skills, professional and creative competence, creative activity.

Yurtimizda olib borilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlar bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda o'qituvchining pedagogik madaniyati va kasbiy-ijodiy kompetensiyasini shakllantirishga alohida e'tibor qaratmoqda.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi¹ mazkur sohadagi islohotlar uchun deochocha vazifasini yuklaydi.

Jamiyatning eng muhim resursi – bu o'zining ijodiy, kasbiy, intellektual va tashkilotchilik qobiliyatlarini ro'yobga chiqaradigan insonlar tomonidan ifodalangan intellektual salohiyatdir. Zamonaviy maktab oldida turgan asosiy vazifa – shaxsning salohiyatini maksimal darajada yoritish va rivojlantirish, uni ijtimoiy va kasbiy hayotning subyekt sifatida shakllantirish, o'zini o'zi anglash va o'zini o'zi takomillashtirishga tayyorlashdir. Zamonaviy maktab insonning qobiliyat va iste'dodidan kelib chiqib, har tomonlama kamol topishini ta'minlashga qaratilgan. Bir qator davlat hujjatlarida ta'lim mazmuni – shaxsning o'zini o'zi rivojlantirishni ta'minlashga yo'naltirish, mamlakatimiz har bir fuqarosining ijodiy qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, o'qitish kabi strategik vazifalar belgilab berilgan. Shu munosabat bilan pedagog kadrlar tayyorlash muammolariga davlat va jamiyatning jiddiy e'tibori qaratilmoqda. Professional o'qituvchiga bo'lgan talab uning kasbiy pedagogik madaniyati va kasbiy-ijodiy kompetensiyasini rivojlantirish masalasi dolzarbligini asoslaydi.

Tadqiqotchi V.A.Slasteninning ta'kidlaganidek, pedagogik madaniyatning tarkibiy qismlari o'qituvchi shaxsining kasbiy mahorati va dialektik birlikda bo'lgan pedagogik faoliyatning professionaligidir².

¹ "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.10.2019 yildagi PF-5847-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-4545884>

² Слостенин В. А. Профессионализм учителя как явление педагогической культуры [Текст] // Педагогическое образование и наука. – 2008. – № 12. – С. 4–15.

Shaxsning kasbiy mahorati kasbiy muhim va shaxsiy-ishbilarmonlik fazilatlarini, ijodkorlik, shuningdek, mutaxassisning progressiv rivojlanishi uchun motivatsion munosabatlar va qiymat yo'nalishlarining yuqori darajada rivojlanishini aks ettiradi. Faoliyatning professionalligi yuqori kasbiy malakani, faoliyatni samarali amalga oshirishga imkon beradigan turli xil samarali kasbiy mahorat va ko'nikmalarni anglatadi. Jumladan kasbiy mahoratning shakllanishi shaxsiy va kasbiy fazilatlarining rivojlanishiga bog'liq.

O'qituvchi shaxsining kasbiy fazilatlarini aniqlash uchun pedagogik faoliyatning xususiyatlariga e'tibor qaratamiz. O'qituvchilik kasbi haykaltarosh, yozuvchi, musiqachi va rassom kasblari sinfiga kiradi, ya'ni u atrofdagi voqelikni ijodiy tushunishni va ijodkor bo'lishni talab etadi.

Pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyati – o'qituvchi shaxsiyatini amalga oshirishning eng muhim shartidir. O'qituvchi ta'lim mazmunining faol hammuallifiga aylanadi, bu esa undan o'zining qadriyat yo'nalishlari va ijodiy fikrlash uslubini rivojlantirishga bo'lgan munosabatlarini tizimga faol kiritishni talab qiladi. O'qituvchining ijodiy rivojlanishi, u o'z kasbiy rivojlanishining subyekti sifatida harakat qilsa, uning kasbiy rivojlanishining eng yuqori darajasi hisoblanadi. O'qituvchi o'z faoliyatini o'zicha boshqaradi va tartibga soladi, pedagogik muammolarni hal qilishda ijodiy yondashadi. Yangi bilim va ko'nikmalarni egallash, o'z navbatida, yangi psixologik qobiliyatlarning rivojlanishiga olib keladi. O'zining ortib borayotgan tajribalari yangi, murakkab vaziyatlarni va ularni hal qilishning nostandart usullarini topishning asosiy motiviga aylanadi. Shunday qilib, o'z-o'zini ijodiy rivojlantirish jarayonida o'qituvchining shakllanishi nafaqat kasbiy faoliyat subyekti, balki shaxsiy sifatida ham amalga oshiriladi.

Pedagogik faoliyatning yana bir o'ziga xos xususiyati shundaki, u o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga asoslanadi. O'qituvchi faoliyatining maqsadlari, tashkil etilishi va muvaffaqiyatini baholash o'quvchining faolligini aks ettiradi. O'qituvchi o'z faoliyatida shaxsni shakllantirishning uzviy jarayoni sifatida qabul qilishi, shaxsning rivojlanishi va shakllanishini ta'minlaydigan ijtimoiy-pedagogik sharoitlarning tashkilotchisi sifatida harakat qilishi kerak, bu esa o'qituvchidan kasbiy ijodiy faoliyatni tashkil etishga tayyor bo'lishni talab qiladi.

Tayyorlik deganda o'zini ijodiy individuallik sifatida anglash, ijodiy faoliyat, bilim, ko'nikma, malaka, mehnat va muloqot jarayonini tashkil etish tajribasining mavjudligi tushuniladi.

V.A.Kan-Kalika pedagogik faoliyatning kasbiy xususiyatlari ijodiy muammolarni hal qilish jarayoni sifatida quyidagilarni taklif etadi:

1. Pedagogik ijodning o'ziga xosligi shakllangan faoliyat ko'nikmalari va pedagogik jarayonning rivojlanayotgan strukturasi o'zaro ta'sirida bo'lib, bu metodlarni o'zgartirishni taqozo etadi, chunki o'quv jarayonida o'zlashtirilgan usul va uslublar doimo o'zgarib turadi.

2. O'qituvchi va o'quvchining birgalikda ijod qilishi, o'qituvchining ijodiy sa'y-harakatlarini butun pedagoglar jamoasi ijodi bilan muvofiqlashtirish pedagogik ijodning zarur shartidir.

3. Jamoatchilik faoliyati muhitida o'qituvchining ijodiy jarayonini amalga oshirish o'qituvchidan o'z ruhiy holatlarini boshqara bilishni, o'zida va o'quvchilarda ijodiy farovonlikni yuzaga keltirishni talab qiladi³.

Yuqorida aytib o'tilgan pedagogik faoliyat muammolarini ijodiy hal qilishga tayyorlik – o'qituvchi professionalligining hal qiluvchi belgisidir. Ushbu tayyorlikning shakllanishi shaxsning individual fazilatlarini asosida, faoliyat motivlari, maqsadlari va shartlaridan kelib chiqib, ularni qayta tashkil etish orqali amalga oshiriladi. Shakllangan tayyorlik - motivlar, munosabatlar, shaxsiy xususiyatlar tizimini shakllantirish, ular faollashganda mutaxassisga o'z funktsiyalarini samarali bajarish imkoniyatini beradi.

Motivatsion-qiymat komponenti, o'qituvchining shaxsiy ta'limi sifatidagi kasbiy mahoratining tarkibiy elementidir. U o'qituvchining ijodkorlikka bo'lgan ehtiyojini ta'minlaydi, bu esa o'z-o'zini anglashni anglatadi. Kasbiy va ijodiy faoliyat maqsadlarini munosib belgilash va ularga erishish, ushbu maqsadlarga erishishda ixtiyoriy harakat, o'zini professional sifatida tasavvur qilish. O'qituvchilik kasbini egallashga subyektning motivatsion e'tiborisiz, rivojlangan intellekt va ijodiy faoliyatga moyillik yuqori samarali pedagogik faoliyatni tashkil etish uchun yetarli emas.

Shunday qilib, o'qituvchining kasbiy mahorati pedagogik madaniyatning muhim xususiyatlaridan biridir. O'qituvchi shaxs sifatida, kasbiy faoliyat subyekti sifatida rivojlanadi. Pedagogik faoliyat kasbiy mahoratining operativ-faoliyat

komponentining xususiyatlari o'qituvchining kasbiy - ijodiy kompetensiyasida namoyon bo'ladi. Kompetensiya ma'lum faoliyat sohasidagi bilimlar, ko'nikmalar, malakalar, qobiliyatlar va shaxsiy fazilatlarining majmui sifatida, kompetentlik esa faoliyatdagi kompetensiyaning namoyon bo'lishi sifatida talqin qilinadi. Bunda shaxs bilim, ko'nikma, malaka va tajribaga ega bo'ladi.

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv bo'yicha psixologik-pedagogik adabiyotlarni ko'rib chiqish shuni ko'rsatadiki, kasbiy kompetensiyaning turli xil ta'riflari mavjud. Masalan, chet ellik tadqiqotchilar ushbu tushunchani ko'pincha "chuqur bilim", "vazifalarning adekvat bajarilishi holati", "faoliyatni amalga bajarish qobiliyati", "harakat samaradorligi" deb hisoblashadi.

O'zbek olimasi B.Nazarova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda pedagogning kasbiy kompetentligi, uning o'ziga xos jihatlari o'rganilgan bo'lib, o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchining fikriga ko'ra pedagogga xos kasbiy kompetentlik negizida quyidagi tarkibiy asoslar tashkil etadi:

- maxsus yoki kasbiy kompetentlik (kasbiy faoliyatni yuqori darajada tashkil etish);
- ijtimoiy kompetentlik (kasbiy faoliyatni hamkorlikda tashkil etish, ijtimoiy ma'suliyat);
- autokompetentlik (o'zini ijtimoiy-kasbiy rivojlantira olish);
- ekstremal kasbiy kompetentlik (kutilmagan vaziyatlarda ishlay olish)⁴.

Shunday qilib, mutaxassisning kompetensiyasi – bu o'z kasbiy faoliyati davomida ishlab chiqilgan ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan vakolatlar tizimidir.

O'qituvchining kasbiy kompetensiyasi uning pedagogik faoliyatni amalga oshirishda nazariy va amaliy tayyorgarligining birligidir.

Kompetensiya pedagogik faoliyatga tayyorlik darajasini belgilaydi⁵.

A.V.Tutolmin "Integral jihat", "integral kasbiy kompetensiyaning quyi tizimi"ni kasbiy-ijodiy kompetensiya deb ataydi va uzluksiz pedagogik ta'lim tizimida uni shakllantirish jarayonining samaradorligiga erishish uchun bir qator shartlarga rioya qilish zarur, deb hisoblaydi:

1. Kasbiy va ijodiy kompetensiya kasbiy va shaxsiy komponentlarning ustunligi va birligi bilan ta'minlanadi.

2. Kasbiy va ijodiy kompetensiyaning tizimlashtiruvchi omili ijodiy yondashuvni amalga oshirishga tayyorlikdir.

3. Kasbiy va ijodiy kompetensiyani shakllantirish ta'lim sohasida mutaxassislar tayyorlashning ustuvor yo'nalishi deb hisoblanishi lozim.

4. Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlashda ularning ijodiy rivojlantirishini belgilab beruvchi predmet-faollik integrativ-rivojlantiruvchi yondashuvdan foydalanish zarur⁵.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, pedagogik kadrlar kasbiy tayyorgarligining oshishi o'qituvchi kasbiy kompetensiyasi va pedagogik madaniyatning muhim xususiyatini rivojlanishiga xizmat qiladi. Zamonaviy pedagogik tizimni takomillashtirish o'quv jarayonini shunday tashkil qilishni nazarda tutadiki, bu o'qituvchining ichki motivlar va qadriyatlar tizimini, kasbiy bilimlari va psixologik-pedagogik ko'nikmalarini, o'qituvchining kasbiy va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishni o'z ichiga oladi. Zamonaviy o'qituvchining ijodkorligi o'quvchilar ijodiy tafakkuri sakillanishiga sabab bo'ladi.

3 Kan-Kalika V.A. Учителю о педагогическом общении (Текст). – М.: Просвеще-ние, 1987. - 190 с.

4 Muslimov N. va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – T.: «Fan va texnologiyalar», 2013. – 128 b.

5 Tutolmin A.V. Формирование профессионально-творческой компетентности педагога начального образования: методика и анализ эксперимента [Текст]. – Глазов: Изд-во Глаз. гос. пед. ин-та, 2006. – 256 с.

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISHNI SAMARALI TASHKIL ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH

Pardaboy Qoraboyevich Xolmatov - p.f.n., dotsent, JVPYAMO'MM
Baxtiyor Abdujabborovich Pardayev - o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishni takomillashtirishga oid mulohazalar keltirilgan.

Аннотация: В данной статье рассматривается вопрос совершенствования профессиональной ориентации учащихся общеобразовательных школ.

Abstract: This article discusses the issue of improving the professional orientation of students in secondary schools.

Kalit so'zlar: kasb-hunar, o'quvchi o'z qiziqishi, qobiliyat, bilim, amalda tatbiq.

Ключевые слова: профессия, ученический интерес, способности, знания, практическое применение.

Keywords: profession, student's interest, ability, knowledge, practical application.

Hurmatli Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz", deb nomlangan asarida farzandlarimiz uchun zamonaviy ish joylari yaratish, ularning hayotda munosib o'rin egallashini ta'minlashga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarishni davrning o'zi taqozo etmoqda. "Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz" deb ta'kidladilar¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-may PQ-241 son "Xalq ta'limini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida 2022-2023 o'quv yilidan boshlab boshlang'ich sinf o'quv rejasiga kiritilgan fanlar doirasida mehnat bozorida mavjud bo'lgan turli kasblar to'g'risida tushunchalar berish nazarda tutilgan. Bu qarorda kasb egalarining mehnat faoliyati bilan tanishtirish maqsadida 5-7 sinf o'quvchilari uchun turli uchrashuv va sayyor darslarni tashkil etish, 7-9 sinf o'quvchilarining kasbga moyilligini aniqlash bo'yicha tashxislar o'tkazib borish hamda natijalaridan kelib chiqib,

ishlab chiqarish korxonalarini, hunarmandchilik markazlari va boshqa tashkilotlarga ekskursiyalar tashkil etish masalarini o'z ichiga olgan. Shu bilan birga ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati va o'sish nuqtalariga muvofiq maktab o'quvchilari uchun ustuvor kasblarni belgilash hamda 10 va 11-sinf o'quvchilarini ushbu kasblarga, shu jumladan kasb-hunarga o'qitish markazlari, mahalla aholisini kasb-hunarga o'qitish maskanlari qisqa muddatli kurslar ochilgan ta'lim muassasalarida o'qitish choralari ko'rish belgilab berilgan. Undan tashqari 2022-2023 o'quv yilidan boshlab tasdiqlangan namunaviy loyihalar asosida umumiy o'rta ta'lim muassasalarining texnologiya fani ustaxonalarini hamda kasb-hunar amaliyoti xonalarini bosqichma-bosqich tashkil etish va jihozlash choralari belgilangan.

Respublikamiz iqtisodiyotida hozirgi kunda mehnat bozorida kasb tanlash o'ta dolzarb muammolardan biri yangi ish o'rinlarini tashkil etish, yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirishda norasmiy sektor ko'lamini kamaytirish, aholining ijtimoiy muhtoj qatlamlari uchun ish joylari zahirasi belgilash, ishsizlik darajasini pasaytirish hamda aholiga munosib mehnat sharoitini tashkil etishdan iborat. Mehnat bozorining eng muhim

muammolaridan biri bu – aholining kasb-hunar va ish bilan bandligidir. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchi yoshlarni barkamol avlod sifatida tayyorlash, xalq xo'jaligining muayyan tarmog'idagi istiqbolli kasblarga yonaltirish mehnat bozorida o'zini o'rnini topishda to'g'ri kasb egallashida ham yanada katta rol o'ynaydi.

Respublikamizda ta'lim tizimi rivojlanishining hozirgi bosqichi ta'lim mazmuni va metodikasiga, uning samaradorligini oshirishga sifat jihatdan yangi talablar qo'ymoqda. Hozirgi adabiyotlarda "Kasb tanlashga yo'llash" termini-yo'naltirish, ajrata bilish, belgilash, hayotda to'g'ri yo'lni tanlash degan ma'noni bildiradi. "Kasb tanlashga yo'llash" tushunchasi umumiy o'rta ta'lim maktablari amaliyotda o'quvchi yoshlarni ongli ravishda kasb tanlashga, mehnat yo'lini to'g'ri belgilashga qaratilgan muayyan pedagogika jarayonini ifoda etadi. Murakkab yuqori unumli ishlab chiqarish texnikasi raqamli texnologiyalar va ilg'or texnologiya bilan qurollangan hozirgi zamon sanoati va qishloq xo'jalik korxonalarini uchun maxsus bilimlarga ega bolgan umumiy texnika hamda fan asoslari bo'yicha nazariy jihatdan chuqur tayyorgarlikka ega bo'lgan yoshlar bilan birga amaliy mehnat turi bo'yicha amaliy tayyorgarlikka ega bo'lgan ishchilar ham kerak. Maktabdagi kasb tanlashga yo'llash ishlari quyidagi maqsadlarini ko'zda tutadi:

1. O'quvchilarni boshlang'ich sinflardan boshlab xalq xo'jaligining turli tarmoqlari bilan tanishtirib borish istiqbolli kasblar bilan tanishtirish zarur. Bunda axborot ma'lumotlarining mazmuniga, ham uni tushuntirishda foydalaniladigan metodlarga qo'yiladigan muayyan didaktik talablariga rioya qilish, o'quvchilarning aqliy va jismoniy rivojlanishini hisobga olish muhimdir.

2. O'quvchilarni xalq xo'jaligining turli tarmoqlari bilan tanishtirish jarayonida ancha keng tarqalgan yangi kasblarning mazmuni va xususiyatini yoritib berishi zarur. Kasb tanlashga yo'llash ishining bu turi umumiy o'rta ta'lim fanini o'qitish metodikasi ham, sinfdan tashqari o'tkaziladigan tadbirlariga ham amalga oshirilishi zarurdir.

3. Kasb tanlashga yo'llash ishlarini olib borishda o'qituvchi o'quvchilarni xalqaro

dunyo talabi ehtiyoji uchun zarur bo'lgan kasb va mutaxassisliklarga yo'llash kerak bo'ladi.

4. Har bir o'quvchining bo'lajak kasbini tanlashda ongli munosabatlarga ega bo'lishi o'zi mustaqil tanlash imkoniyati mavjuddir².

Insoniyat jamoalari rivojlangan sari asta-sekin mehnat qilishni o'rganish amalga osha boshladi – oldin dehqonchilik va chorvachilikda, keyinchalik hunarmandchilik va savdo-sotiq sohalari paydo bo'ldi. Moddiy va ma'naviy hayotni rivojlanishi bilan odamlarni faoliyat olib borishlarida qiyinchiliklar kelib chiqa boshladi. Shu tariqa kasb tushunchasi paydo bo'ldi.

"Kasb" yoki "kasb qilmoq" kabi so'z va tushunchalar arab tilidan kirib kelgan bo'lib, (kasaba) fe'lining o'zagi hisoblanadi. Arab tilidagi "Kasaba" so'zi qo'lga kiritmoq, ishlab topmoq, qozonmoq, biror ishni bajarmoq, qandaydir foyda-manfaatga erishmoq, yutuqqa ega bo'lmoq kabi ma'nolarni anglatadi.

O'zbek tilida kasb deb kishining rizq talabida muayyan ish, faoliyat turi bilan davomli tarzda shug'ullanishga aytiladi.

Lug'at kitoblarda "Kasb – (lot. professio – rasmiy ko'rsatilgan mashg'ulot, ixtisoslik) – maxsus nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar majmuiga ega tajribali shaxsning mehnat faoliyati turi hisoblanadi" deb keltiriladi.

Hozirda 70 mingdan ortiq kasb-hunar va mutaxassislik turlari mavjud. Kasb va mutaxassislik degan tushunchalarni bir-biridan farqini anglash zarur.

Kasb – bu ma'lum bir maxsus bilim, malakalarga ega bo'lishni talab etuvchi va insonning yashash sharoitlarini ta'minlovchi faoliyat turidir.

Mutaxassislik – inson o'zini jismoniy va ma'naviy kuchlaridan kelib chiqib o'sha sohani bir muncha tor doirasida o'zini namoyon etishi tushuniladi.

Kasb bir biriga yaqin bo'lgan mutaxassislik guruhlarini o'zida birlashtiradi. Masalan, o'qituvchilik kasbi o'ziga tarix fani o'qituvchisi, texnologiya fani o'qituvchisi matematika fani o'qituvchisi, texnologiya fani o'qituvchisi, biologiya fani o'qituvchisi kabi mutaxassisliklarni qamrab oladi³.

Kasb tanlashda inson salomatligining o'zni muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Kishining salomatligi ma'lum bir kasb

¹ Mirziyoyev Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. - T.: "O'zbekiston", 2016. -56 b.

² Xolmatov P.Q. va boshq. O'quv qo'llanma. Kasb tanlash xususiyatlari. Poytaxt-inksklyuziv.-T.2022.

³ Sharipov Sh.S., Vorobyov A.I., Muslimov N.A., Ismoilova M. Kasb ta'limi pedagogikasi. - Toshkent., 2005. - 58 b.

talablariga muvofiq kelish yoki kelmasligini aniqlash – vrachning vazifasidir. Shuning uchun ham ishga yoki o'qishga kirayotgan har bir kishi, albatta, tibbiy ko'rikdan o'tadi. Lekin ko'pincha shunday bo'ladiki, kishi o'zining nazarida kasb tanlab bo'lganidan keyin bunday tibbiy ko'rik amalga oshiriladi. Keyin afsuslanib yoki iztirob chekib yurmaslik uchun o'z vaqtida vrach bilan maslahatlashib olish muhim ahamiyatga egadir.

Kasb to'g'ri tanlash nafaqat kelajakdagi muvaffaqiyatlarni asosiy garovi, balki uni to'liq o'zlashtirish, kelgusidagi faoliyatga garmonik singib ketish, sohaga xos yangi izlanishlarni boshlash, oilaviy muvaffaqiyat demakdir.

Texnologiya fani mazmuniga asosan 1-7-sinflar o'quv dasturiga kiritilgan barcha mavzular mazmuniga oid kasb-hunarlar haqidagi bilimlar o'quvchilarga o'rgatilsa, 8-9-sinflarda asosan quyi sinflarda o'rganilgan kasblar tasnifi va bo'lajak kasbni to'g'ri tanlash uchun kerakli tavsiyalarga oid kompetensiyalar o'rgatiladi⁴.

Davlat tomonidan ta'limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar mavjud bo'lib, ularni Davlat ta'lim standarti deb ataladi. Shunga ko'ra, yo'nalishlar va mutaxassisliklarning klassifikatori ham mavjud.

Klassifikator – oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash yo'nalishlarida mutaxassisliklarining tizimlashtirilgan ro'yxatidir. Unda quyidagi o'nta bilim sohasi nazarda tutiladi. Shu bilimlar sohasini Texnologiya fani darslarida o'rgatiladigan kasblarni hisobga olgan holda tahlil qilinadigan bo'lsa, natija 70% bilim sohaslarini (bilim sohalari turli ranglarda ajratib ko'rsatilgan) qamrab olganligini ko'rish mumkin (1-shakl).

Shuningdek, bilim sohaslaridan kelib chiqqan holda o'quvchilarni kasblarni o'rgatishda amaldagi kasblar va yangi kirib kelayotgan XXI asr kasblari va ularni o'quvchilarga o'rgatishning normativ-huquqiy va metodik hamda moddiy-texnik ta'minoti modeli keltirilgan. Ushbu model asosida o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llashning majmuaviy mazmuni ochib berilgan⁵.

1-shakl



Bilim sohalari bo'yicha o'quvchilarni kasb tanlashga o'rgatish modeli

Kasb tanlash – har bir inson hayotidagi eng muhim tanlovlardan biridir.

Kasb tanlash uchun quyidagi mashqlarni bajarish tavsiya etiladi

1-mashq. Quyidagi so'zlar ro'yxatidan mutaxassisliklarni belgilaydiganlarni tanlang:

o'qituvchi, duradgor, montajchi, sinovchi uchuvchi, hakam, jarroh, maktab direktori, adabiy tanqidchi, pianinochi, nazariy kimyogar, rassom, dizayner, to'quvchi.

2-mashq. Quyidagi so'zlar ro'yxatidan kasbni belgilaydiganlarni tanlang:

veterinariya shifokori, o'qituvchi, tosh kesuvchi, kitob sotuvchisi, buldozer, fermer xo'jaligi direktori, muhandis, dizayner rassom, sartarosh, haydovchi, tikuvchi, oshpaz, rasm o'qituvchisi.

3-mashq. Quyidagi barcha kasblarni va ixtisoslikni ularni aqliy yoki jismoniy mehnatning ustunligiga nisbatan taqsimlang:

konstruktor muhandis, mashinist, duradgor, bolalar bog'chasi tarbiyachisi, hamshira, agronom, tikuvchi, poyezd mashinisti, suvoqchi, hisobchi, kitob sotuvchisi, elektromontajchi, mashina operatori va boshqalar.

4-mashq. Xalq xo'jaligi sohasi asosida quyidagi kasblarni, mutaxassisliklarni taqsimlang:

mikrosxemalar, agronom, stansiya vagonlari, inspektor, tosh kesuvchi, qandolatchi, bog'bon, hamshira, tergovchi, traktor haydovchisi–keng yo'nalishli mashinist, po'lat ishlab chiqaruvchi, tikuvchi-motorist, kitob sotuvchisi, rassom, iqtisodchi va boshqalar

4 Xolmatov P.Q. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishni takomillashtirish. Maktab va hayot. 8.2022

5 Ne'matov Sh.E., Tohirov O'.O. va b. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish orqali umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi uzviyligini ta'minlashning nazariy-metodologik asoslari. Monografiya. – T.: O'zPFI, 2015. - 152 b

5-mashq. Quyidagi kasblar ro'yxatidan ishlab chiqarish sohasiga kiradiganlarni tanlang:

sabzavot ishlab chiqaruvchisi, oshpaz, o'qituvchi, duradgor, hamshira, chizmach, qurilish muhandisi, trolleybus haydovchisi, trikotajchi, traktor haydovchisi, keng profilli sartarosh.

6-mashq. Ko'rsatilgan ish kasblarining har biriga mos keladigan malaka darajasini aniqlang:

muhandis, moda uslubchisi, texnologik uskunalar sozlagichi, tikuvchi, taksi haydovchisi, duradgor, dasturiy ta'minot bilan ishlaydigan dastgohlar operatori, bolalar bog'chasida yordamchi, o'qituvchi, kotiba, avtomobil mexanigi, temir yo'l vagonlarini tekshiruvchi, o't o'chiruvchi.

7-mashq. Quyidagi mutaxassisliklarning har biri qaysi turdagi kasblarga tegishli ekanligini aniqlang:

bolalar bog'chasi tarbiyachisi, veterinariya shifokori, farmatsevt, rassom, badiiy bezakchi, o't o'chiruvchi, fotosuratchi, hamshira, tosh kesuvchi, kitob sotuvchisi, poyezd mashinisti, radio asboblarini yig'uvchi mexanik.

8-mashq. Quyidagi mutaxassisliklarning har biri qaysi kasb sinfiga tegishli ekanligini aniqlang:

pazandalik, avtomobil mexanigi, moda dizayneri, taksi haydovchisi, sifat nazoratchisi, kompyuter uchun berilgan tayyorlash operatori, operator, chilangar-kollektor, radio uskunalar, tergovchi, agronom, yozuvchi, sartarosh.

9-mashq. Quyidagi vositalarni uning bo'limlari bo'yicha taqsimlang:

traktor, belkurak, telefon, razm, tarozi, kir yuvish mashinasi, kamera, rulet, mikrokalkulyator (elektron hisoblovchi ruler), yig'ilish raisi, avtomobil, oyna, shprits, kompyuter.

10-mashq. Mehnat sharoitlarining o'ziga xos xususiyatlariga asoslanadi:

o'qituvchi, hisobchi, geolog, avtobus haydovchisi, chilangar-kollektor, dala qo'riqchisi, sanoat mahsulotlari sotuvchisi, yuqori balandlikdagi montajchi, rassom, tergovchi, chorva mollarini yetishtirish va oziqlantirish bo'yicha operator, chizmach.

11-mashq. Quyidagi kasblarning har bir jufti uchun qanday farqlovchi xususiyatlar keng tarqalgan:

a) hamshira-trener;
b) ofitsiant-taksi haydovchisi;
c) matematika o'qituvchisi - sport murabbiyi;

d) hisobchi-chilangar;
e) dala ekinlari-agronom;
e) muhandis-dizayner – bastakor.

12-mashq. Quyidagi kasblarning umumiy belgilari, mutaxassisligi-yangiliklar:

a) chorvachilik, bog'bon;
b) muhandis-konstruktor, bastakor, nazariy kimyogar;
s) hamshira, trener, hisobchi;

d) trener, minora krani haydovchisi, buldozer, haydovchi;

e) sotuvchi, sut mashinasi, minora krani haydovchisi, chilangar;

f) sotuvchi, ofitsiant, kutubxonachi, hamshira, sport murabbiyi⁶.

Xulosa nuqtayi nazardan ayganda, kasb tanlashda xatoliklarga yo'l qo'ymaslik uchun o'quvchining kasbiy imkoniyatlari darajasi yana ham keng va rang-barang bo'lishini taqozo etadi. Bundan tashqari, umumiy o'rta ta'lim maktablarini bitirib chiquvchilarga ijtimoiy ishlab chiqarish tashkilotlariga malakali ishchi kuchlariga bo'lgan aniq ehtiyoj haqida ma'lumot berish zarur bo'ladi.

6 Xolmatov P.Q. va boshq. O'quv qo'llanma. Kasb tanlash hususiyatlari. Poytaht-isklyuziv.-T.2022.

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING QARASHLARIDA SHAXSIY QADRIYATLARNING AKS ETISHI

Dilfuza Ruzikulovna Shabbazova - PhD, Termiz davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqola sharq mutafakkirlarining boshlang'ich sinf o'quvchilari kamolotida shaxsiy qadriyatlarining o'rnini haqidagi qarashlari haqida yozilgan. Bugun barcha soha mutaxassislari kabi pedagoglar ham hayotning barcha jabhalarida ro'y berayotgan ta'lim sohasini ham chetlab o'tmaydigan inqilobiy o'zgarishlar va ularning ta'siridan tashvishda. Bugun o'quvchilarni asrlar davomida sinalgan ta'lim-tarbiya usullari asosida yangicha o'qitish zarurligi haqidagi fikrlarga tayanish, bitiruvchilarning zamonaviy jamiyatga muvaffaqiyatli moslashishiga yetarli darajada imkon bermasligini barchamiz anglab yetmoqdamiz.

Аннотация: В данной статье написано о взглядах восточных мыслителей на роль личностных ценностей в развитии учащихся начальной школы. Сегодня педагоги, как и все специалисты в данной области, озабочены революционными изменениями и их последствиями, происходящими во всех сферах жизни, не исключая и сферу образования. Сегодня все мы осознаем, что опора на идеи о необходимости перевоспитания учащихся на основе проверенных веками методов воспитания не позволяет выпускникам успешно адаптироваться в современном обществе.

Abstract: This article is written about the views of Eastern thinkers about the role of personal values in the development of elementary school students. Today, pedagogues, like all experts in the field, are concerned about the revolutionary changes and their effects that are happening in all aspects of life, which do not exclude the field of education. Today, we all realize that relying on the ideas of the need to re-educate students based on the methods of education that have been tested for centuries does not allow graduates to successfully adapt to modern society.

Kalit so'zlar: qadriyat, tarbiya, xulq-atvor, shaxs, ziddiyat, o'quv faoliyat, psixologik-pedagogik.

Ключевые слова: ценность, воспитание, поведение, личность, конфликт, воспитательная деятельность, психолого-педагогический.

Keywords: value, upbringing, behavior, personality, conflict, educational activity, psychological-pedagogical.

Maktabda faoliyat yuritayotgan har bir pedagog, o'quv faoliyatini takomillashtirishning samarali usullarini topishga intilmoqda. Shuning uchun har bir pedagog oldida "O'qituvchining oldida o'quvchida fanga qiziqish uyg'otish uchun nima qilish kerak? (albatta gap o'zlashtirmovchi o'quvchilar haqida bormoqda), ularning ijodiy imkoniyatlarini o'stirish, o'rta va yuqori imkoniyatli o'quvchining joyida to'xtab qolmasligi uchun nima qilish kerak?" kabi bir qator pedagogik muammolar turibdi.

Tajribali pedagoglarning tajribasi bilan tanishib, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'rgangan holda, barcha pedagoglarni bezovta qilayotgan bu kabi savollarga bir qator pedagogik texnologiyalar qatorida biz tomonimizdan boshlang'ich ta'limning maqsadi faqatgina aniq bilimlarni berish (ularni o'zlashtirish, esga tushirish) emas, balki, o'quvchilarda shakllangan o'quv faoliyati usullariga tayanib, mustaqil bilim olish va o'qishga asoslangan shaxsga qadriyatli yondashuvni qo'llash lozim degan

xulosaga keldik. Turli yoshda bo'lgani kabi boshlang'ich sinf o'quvchilarida ham o'ziga xos qadriyatlar tizimi shakllangan bo'ladi. Ana shu qadriyatlarni o'rganish, ta'lim faoliyati samarasi uchun ularga qanday munosabatda bo'lishni bilish muhimdir.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning individual ehtiyojlari va qiziqishlarini bilish ularning o'quv faoliyatiga to'g'ri yo'naltirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ota-onalar bilan o'tkaziladiga uchrashuvlar davomida o'quvchilar nima bilan shug'ullanishni xush ko'rishi, ularda qanday qobiliyatlar mavjudligi, ularda qaysi ko'nikmalar ustunligi, oilaviy munosabatlarini aniqlab olish maqsadga muvofiqdir.

Ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining qiziqishlari, intilishlari va ularning hayotidagi muhim voqea, hodisa va munosabatlar tizimini chuqur o'rganmay turib ta'lim sifatini ta'minlab bo'lmaydi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning individualligi, ular uchun muhim va qiziqarli bo'lgan narsa,

voqea, hodisalarni, o'z shaxsiy qadr-qimmatini anglashga xizmat qiluvchi munosabatlarni tashkil etish va har tomonlama uyg'un rivojlanishga yo'naltirib borish shaxsiy qadriyatli yondashuvning asosini tashkil etadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, modernizatsiyalash jarayoni talablari asosida ta'lim-tarbiya mazmunining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, moddiy-texnika bazasi hamda raqobatbardosh kadrlarni tarbiyaviy qadriyatlardan foydalanib tayyorlashga shart-sharoitlari yaratildi. Shu bilan birga, Sharq mutafakkirlari yaratgan qadriyatlardan oliy pedagogik ta'lim jarayonida foydalanish texnologiyalarini takomillashtirish bo'yicha maqsadli tadqiqotlarni amalga oshirish zarurligi ham mavjud. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947 sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmonida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ilmiy va amaliy natijalari amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish ta'lim sohasidagi ustuvor yo'nalish sifatida belgilandi². Bu esa o'z navbatida, oliy ta'lim muassasalarida Sharq mutafakkirlari merosini ommalashtirish imkoniyatini kengaytiradi.

IX-XII asrlarda yashab ijod etgan allomalarimizning tarbiyaviy qadriyatlar mazmuni aks etgan asarlari sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin. Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri", "Buyuk aql haqida so'z" ("Kalom fi-l aql al-kabir"), "Quy y aql darajasi haqida so'z" ("Kalom fi-l aql as-sag'ir"), "Ilmlarning kelib chiqishi va ta'rifi" ("Kitob fi ixso al-ulum va at-tarifi", qisqacha nomi "Ixso al-ulum"), "Musiqqa haqida katta kitob" ("Kitob ul-musiqo al-kabir"), "Baxt-saodatga erishuv yo'llari haqida risola" ("Risola fi-t tanbih ala asbob as-saodat") asarlari; Abu Ali ibn Sinoning "Kitob ash-shifo", "Tib qonunlari", "Donishnoma", An-Najot, Xay ibn Yakzon, Salomon va Ibsol, "Risolai fil-ishq" asarlari; Imom Buxoriyning "Al-Jome' as-Sahih", "Adab ul-mufrad", "Tarix ul-kabir", "Musnad ul-kabir", "Kitobu asmoi sahoba", "Tafsir ul-kabir", "Sulosiyatul Buxoriy", "Hadis un-Nabaviy", "Tarix us-sag'ir", "Zuafo us-sag'ir" asarlari; Imom G'azzoliyning "Ey farzand", "Kimyo saodat", "Ihyo-ul-ulum id-din", "Oxiratnoma" kabi asarlari shular jumlasidandir.

Respublikamizda boshlang'ich sinf o'quvchilariga qadriyatli yondashuvga oid muammolar M.Abdullayeva, X.Axmedova,

M.Inomova, Q.Nazarov, O.Musurmonova, U.Mahkamov, S.Nishonova, D.X.Kosimova, S.U.Kistaubayev, Z.B.Jalilov, G.Mamatova, G.A.Xolboyeva, X.S.Bakiyeva, E.G'.G'oziyev, M.G.Davletshin, Sh.A.Do'stmuhammedova, Z.T.Nishanova, S.X.Jalilova, Sh.T.Karimova, Sh.T.Alimbayevlar tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) va rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta'lim tizimini takomillashtirish sohasida qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, ta'lim jarayoniga shaxsiy qadriyatli yondashuv masalasiga V.G.Aseyeva, L.A.Bloxina, A.N.Leontyeva, V.N.Myasishev, A.N.Piyanzina, S.L.Rubinshteyn, V.A.Slastenin, A.A.Gritsanov, V.A.Yadov, Y.A.Rudenko, J.A.Bototov, G.I.Vergeles, L.N.Gabeyeva, Sh.A.Amonashvili, A.V.Molokova, N.S.Rojdestvenskiy, L.V.Abakumova, V.D.Shadrikov, I.S.Yakimanskaya, Y.A.Nikolayeva, L.S.Slavina, L.Y.Savinovalar tadqiqotlarida e'tibor qaratilgan.

Dunyoda ta'lim sohasini Sharq mutafakkirlari yaratgan tarbiyaviy qadriyatlar asosida takomillashtirish istiqbolli omil bo'lib, yoshlarning barkamol shaxs bo'lib shakllanishlarida bunday qadriyatlardan ta'lim tizimida foydalanish ustuvorlik qilmoqda. YNESKO Bosh Assambleyasida o'rta asrlar Sharq allomalarining dunyo tamaddunida tutgan o'rnini, Sharq mutafakkirlarining boy ilmiy merosi, ularning asarlarini muntazam o'rganish, erishilgan natijalarni monitoringini olib borish, shu orqali fan va ta'lim tizimini rivojlantirishga oid ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Jahonning nufuzli oliy ta'lim muassasalar va ilmiy-tadqiqot markazlarida olib borilayotgan izlanishlar, Sharq mutafakkirlari asarlarida xalqlarning kelib chiqishi va etnopedagogik xususiyatlari IX-XII asrlar Sharq mutafakkirlari asarlaridagi shaxsning ma'naviy-ma'rifiy fazilatlar haqidagi qarashlari, allomalarning ilmiy merosi mazmuni, jahon ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan hissasini o'rganish asosida ta'lim tizimini takomillashtirish vazifalari qo'yilmoqda. Sharq mutafakkirlarining iqtisodiy, fazoviy, matematik qarashlari, shaxs kamoloti va odob-axloq masalalari ilmiy amaliy ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotlarning istiqbolli yo'nalishlari sifatida shaxs ma'naviyati, oila va nikoh, farzand tarbiyasiga oid yondashuvlari, ajdodlar merosiga nisbatan yoshlarda hurmat hissini shakllantirish deb hisoblash mumkin³.

Ilmiy nazariy adabiyotlar tahlili, Sharq mutafakkirlari qoldirgan qadriyatlar, ularning

1 Jalilov Z.B. IX-XII asrlarda Sharq mutafakkirlari yaratgan tarbiyaviy qadriyatlardan oliy pedagogik ta'lim jarayonida foydalanish texnologiyalarini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI, Namangan, 2018, 52 bet.

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni. - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjati, 2017-yil, 6-son, 70-modda.

3 Jalilov Z.B. IX-XII asrlarda Sharq mutafakkirlari yaratgan tarbiyaviy qadriyatlardan oliy pedagogik ta'lim jarayonida foydalanish texnologiyalarini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI, Namangan, 2018, 52 bet.

qarashlari vositasida o'quvchi-yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda bir qator pedagogik yondashuvlarga amal qilish lozimligini korsatdi. Ular quyidagilar: tarbiya jarayonida o'quvchi-yoshlar ma'naviyatini Sharq mutafakkirlari tomonidan yaratilgan qadriyatlar asosida shakllantirishga qaratish; tarbiyaviy jarayonlarni ijtimoiy hayot va kasbiy mehnat sirlarini egallash bilan uyg'unlashtirish; hurmat qilish; o'quvchilarni ma'naviy-madaniy yuksaltirish jarayoniga nisbatan talabchanlik, hushyorlik bilan yondashish; o'quvchi-yoshlarda Sharq mutafakkirlari tomonidan yaratilgan qadriyatlar asosida shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiyaviy ishlarning izchilligi, muntazamligi, yaxlitligiga erishish; o'quvchilarda o'zini-o'zi tarbiyalash, sezgirlik, ogohlik ko'nikmalarini tarkib toptirish va hokazo⁴.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "...buyuk zotlarning qoldirgan bebaho merosini chuqur o'rganish, ularning qadamjolarini obod qilish va xotirasini abadiylashtirish bo'yicha birgalikda qilgan ishlarimiz ham barchamizga mamnuniyat yetkazadi"⁵.

Xalqimizning ming yillik tarixi, madaniyati, adabiyoti, san'ati mavjud bo'lib, u insonlarni ezgulikka, mehr-oqibatga, rahm-shafqatga, imyon-e'tiqodga o'rgatib kelgan. Bu esa yaxshi urf-odatlarimiz, rasm-rusumlarimiz va qadriyatlarimizga asoslangan. Zotan, har bir urf-odat va an'analar negizida milliy ruh, madaniyat, milliy ma'naviyat va qadr-qimmat kabi ulug' insoniy fazilatlar yotadi.

Ta'kidlash joizki, ta'lim-tarbiya jarayonida ajdodlarimiz yaratgan bebaho ma'naviy-pedagogik merosdan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Sharq mutafakkirlari tomonidan yaratilgan tarbiyaviy qadriyatlar, yosh avlodni axloqiy jihatdan tarbiyalashda hamon dolzarb bo'lib turibdi. Bu meros yosh avlodni har tomonlama yetuk, barkamol shaxs sifatida shakllantirish, ularga to'g'ri ta'lim-tarbiya berishga xizmat qiladi, chunki, ular ta'limotida inson odobi, axloqi, imyon-e'tiqodi, vijdoni, erkinligi, oila, farzand tarbiyasi masalalari nazariy va amaliy ahamiyatini yo'qotmagan. Ularning tarbiyaviy qadriyatlari, didaktik asarlari bugungi kunda ham yoshlar ta'lim-tarbiyasiga ulkan hissa qo'shib kelmoqda.

Buyuk ajdodlarimizdan meros bo'lib qolgan bebaho ma'naviy boylik – asl qadriyatlarimizning sarchashmalaridir.

Asrlar mobaynida xalqimizning yuksak ma'naviyat, adolatparvarlik, ma'rifatsevarlik kabi ezgu fazilatlar bugungi davr yoshlari uchun o'ziga xos hayot maktabiga aylangan. Zardo'shtiylarning muqaddas kitobi – "Avesto"da hamda buyuk ajdodlarimiz – Abu Nasr Forobiy, Xoja Ahmad Yassaviy, Xoja Bahovuddin Naqshband, Imom al Buxoriy, Imom at Termiziy, Amir Temur, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo asarlarida insonda yuksak axloqiy fazilatlarini kamol toptirishda milliy qadriyatlar masalasi asosiy o'rinni egallagan, mutafakkirlarning o'lmas asarlari bizni, avvalo, boy o'tmishimiz, asl qadriyatlar va boshqa milliy-ma'naviy boyliklarimiz bilan oshno qiladi. Bugungi yoshlar, zamondoshlar ana shu ma'naviy xazinalardan istalgancha bahramand bo'lishi mumkin⁶.

Sharq mutafakkirlarining tarbiyaviy qadriyatlari, boy pedagogik merosi, yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga oid qarashlari, ayniqsa, odob-axloq, insof, diyonat, imyon, e'tiqod, vijdon, mehnatsevarlik, ilmsevarlik, insoniylik xususidagi g'oyalari barkamol shaxsni har tomonlama va uyg'un rivojlantirishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, ularning ta'limiy-axloqiy qarashlarida asosiy o'rin tutgan ilmsevarlik, vatanparvarlik, erkinlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, imyon-e'tiqodlilik, halollik, axloqiy poklik, odillik, birodarlik, hurfiylik kabi barkamol inson tarbiyasiga xos g'oyalarni yosh avlod ongiga singdirish muhim didaktik qimmatga ega.

Kaykovusning "Qobusnoma" asarida inson o'z tanasini toza va pokiza tutishi uning uzoq va sog'lom hayot kechirishi uchun muhim ahamiyatga ega ekanligi bayon qilingan. Mazkur asar yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularni har tomonlama barkamol shaxs sifatida shakllanishlariga yo'naltirilgan nazariy yondashuvlar va amaliy tavsiyalarni taqdim etgan, uning uchun Kaykovusning ushbu asari barcha davrlarda ham o'z qimmatini yo'qotmagan. Shuningdek bu asar har bir o'qituvchi-murabbiylar uchun dasturulamal bo'lib xizmat qiladi⁷.

Kaykovus asarlarida yoshlarda mujassam bo'lishi lozim bo'lgan to'g'riso'zlik, insonparvarlik, muruvvatlilik, saxovatlilik, rostgo'ylik, vatanparvarlik, adolatparvarlik, sabr-qanoatlilik kabi shaxsiy sifatlar bo'lsagina unday kishilar barkamol shaxs darajasiga yetishlari ta'kidlangan.

Shuningdek, "Qobusnoma"da – "... agar

4 Kosimova D.X. O'quvchilarda ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojini shakllantirish texnologiyasi. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI, Namangan, 2019, 48 bet.

5 Mirziyoyev Sh.M. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni // Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. – T.: G'afur G'ulom, 2017. – 92 b.

6 Kosimova D.X. O'quvchilarda ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojini shakllantirish texnologiyasi. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI, Namangan, 2019, 48 bet.

7 Kosimova D.X. O'quvchilarda ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojini shakllantirish texnologiyasi. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI, Namangan, 2019, 48 bet.

biror kishi kajlikka (qing'irlik, yolg'onchilik) odat qilgan bo'lsa, uning yoniga bormagilki, u hargiz rost so'zlamas. Nedin kim, bir daraxt egri bo'lsa, to uni chopib yonmaguncha u to'g'ri bo'lmas." Mazkur fikrlar tarbiyaviy xarakterga ega bo'lib, o'quvchining nima yaxshiyu, nima yomonligini anglashiga, ijobiy individual qadriyatlar tizimining shakllantirishga o'z vaqtida ahamiyat qaratilishi zarurligini uqtiradi.

Abu Ali ibn Sinoning yoshlar tarbiyasiga oid ta'limotini o'rganish jarayonida o'quvchilarni kichik guruhlariga bo'lgan holda dars o'tish maqsadga muvofiq. Bunda quyidagi afzalliklar kuzatiladi: o'quvchilar hamkorlikda ishlash, ulardagi bilish jarayonini faollashtirish, kirishimlilik, boshqalarning fikrini sabr bilan tinglashga o'rgatiladilar; berilgan topshiriqlarni hamjihatlikda bajarish jarayonida ularda guruhdoshlari tomonidan bildirilgan fikrlarni muhokama qilishga moyillik paydo bo'ladi; savollarni to'g'ri va aniq shakllantirish, beradigan javoblarini esa asoslab berishni o'rganadilar; ularning yashirin, ammo yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan imkoniyatlari, qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishga yordam beradi; o'quvchilarda ochiqlik, bilmaganlarini o'z tengqurlari yoki o'qituvchilardan so'rab o'rganish imkoniyati yaratiladi; o'zaro hamkorlik, hamjihatlikda o'quvchilarning bilim doiralari, mahoratlarini boyitish imkoniyati vujudga keltiriladi; tortinchoq o'quvchilar o'z bilimlari, mahoratlarini namoyon qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar; iqtidorli o'quvchilar o'z qobiliyatlarini, layoqatlarini namoyish qiladilar, do'stlariga ko'maklashish ko'nikmasiga ega bo'ladilar; har bir o'quvchiga o'zini guruhning bir bo'laki sifatida his qilish, bir-birlarining muvaffaqiyatlarini ko'rsatishga o'rganadilar⁸.

Shu bilan birga, ta'lim jarayonida o'quvchilarni kichik guruhlariga bo'lib dars o'tishda quyidagi qoidalarga amal qilish zarur:

1) dars materiallarini egallash, berilgan topshiriqlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchilar jamoa bo'lib ishlashga odatlanib boradilar. Bunda o'qituvchilar kuzatuvchi, ekspert rolini bajarishlari kerak;

2) kichik guruhlarini tuzishda hech bir narsa e'tibordan chetda qolmasligi zarur. Masalan, guruhlarda turlicha bilim darajasiga ega bo'lgan o'quvchilar, bir xil taqsimlanishi, kichik guruhning tarkibi (qizlar, yigitlar) aralash bo'lishi hisobga olinishi kabilar;

3) guruhli va alohida o'quvchini rag'batlantirishga e'tibor qaratilishi lozim.

Bunda kichik bir muvaffaqiyatni qo'lga kiritgan o'quvchini ham taqdirlash zarur.

Xoja Abduxoliq G'ijduvoni ma'naviy ta'limotida umuminsoniy ma'naviy-axloqiy qadriyatlar haqida fikr yuritarkan ekanmiz, qadriyatlar – faqato'tmishdavrlar uchun muhim ahamiyat kasb etib qolmasdan, hozirgi kun va kelajakdagi taraqqiyotga ham katta nufuzli ijobiy ta'sir ko'rsatadigan, kishilar ongiga singib ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan madaniy, ma'naviy-axloqiy, falsafiy va boshqa boyliklar majmui ekanligini tushunamiz⁹. Bugun Sharq olamida bo'lganidek, Xojai Jahon Abduxoliq G'ijduvoni ta'limotida insonparvarlik g'oyalari muhim o'rin tutadi. "Vasiyatnoma", "O'dobi tariqat", "Maqsad as solikin" va boshqa risola, asarlarida ulug' mutafakkir orif bu boradagi fikrlarini bayon etgan. Uvaysiy asrorshunos Xojai Jahon deyarli hamma risolalarida barcha musulmonlarning vazifasi barcha insonlarga, ayniqsa beva-bechoraga mehribonlik qilish, muhtojlarga har tomonlama ko'maklashish o'ziga zaiflarga shavqatli bo'lishga chaqirganlar. G'ijduvoni fikricha, haqiqiy taqvodor pok shaxs o'z hayotida aqlli bo'lishni, yashashida yaxshilik qilishni, xayrli a'molni sodir etishni o'z oldiga asosiy ma'naviy-axloqiy maqsad qilib qo'ymog'i lozim.

Ayniqsa, Abduxoliq G'ijduvoni ta'limotining insonparvarlikka oid o'g'itlari shaxs qadriyatli yondashuvga dahldor juda chuqur ma'noli, ahamiyatlidir¹⁰. Bu har bir kishi dunyoda do'st birodarsiz yashay olmasligi, do'st birodari, atrofidagi kishilar unga ma'naviy ruhiy axloqiy jihatdan doimo ta'sir qilishi, har bir inson ham odatda ma'naviy sharoitda moslashib borishi, jamiyatga moslashishda esa kishiga atrofidagilarning munosabati alohida ahamiyatga egaligi kabi mazmunga ega. G'ijduvoni ta'limotining insonparvarlik g'oyalari jamiyatimizda insonlar o'rtasidagi mehr-muhabbatni, xolis munosabatni paydo qilishga xizmat qiluvchi buyuk merosdir. Shuning uchun unga asoslanib ta'lim tarbiya ishlarini olib borish yaxshi natija beradi.

Sharq mutafakkirlari asarlaridagi fikrlar teranligi, ma'nosining chuqurligi, farzand ta'lim-tarbiyasi, inson hayoti manfaatlariga yaqinligi bilan barcha davr va jamiyat uchun muhim didaktik qimmatga ega. Ular inson hayoti, ta'lim-tarbiyasidagi fikrlari hayotiyiligi bilan pedagogika va ilm-fan taraqqiyotiga chuqur ta'sir ko'rsatadi.

8 Kosimova D.X. O'quvchilarda ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojini shakllantirish texnologiyasi. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI, Namangan, 2019, 48 bet.

9 Shabbazova D. (2022). CONTENT OF FACTORS DETERMINING THE EFFICIENCY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(5), 630-636.

10 Ruzikulovna S.D. THE IMPORTANCE OF PERSONAL VALUE APPROACH METHODOLOGY IN PRIMARY SCHOOL LITERACY CLASSES.

TALABALARDA IJODIY MUNOSABATLAR TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION YONDOSHVUHLARNING O'RNINI VA AHAMIYATI

Dilfuza Ropijonovna Sodiqova - katta o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarda ijodiy munosabatlar tafakkurini shakllantirishda innovatsion yondashuvlarning muhim ahamiyat kasb etishi yuzasidan fikrlar bayon qilingan.

Аннотация: В данной статье высказываются мнения о важности инновационных подходов в формировании мышления творческих отношений у студентов.

Abstract: This article expresses opinions on the importance of innovative approaches in shaping the thinking of creative relationships among students.

Kalit so'zlar: talaba, ijod, munosabat, tafakkur, innovatsiya, faoliyat, jarayon, produktiv, reproduktiv, texnologiya, yondashuv.

Ключевые слова: студент, творчество, отношение, мышление, инновация, деятельность, процесс, продуктивная, репродуктивная, технология, подход.

Keywords: student, creativity, attitude, thinking, innovation, activity, process, productive, technology, approach.

Keyingi vaqtlarda ilmiy tadqiqotlarda «ijodiy munosabatlar tafakkuri» tushunchasi ham tobora keng o'rganilayotganligini ta'kidlash lozim. Ijodiy munosabatlar tafakkurini shakllantirish ta'lim oluvchilarning axborotlarning shiddatli oqimida o'z o'rnini topish, intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, o'quv jarayonida kerakli bilimlarni egallash hamda ularni amaliy faoliyatda qo'llay olishni ifodalaydi. Talabalarda ijodiy munosabatlar tafakkurini shakllantirishda ta'lim jarayoni ishtirokchilarining samarali o'zaro ta'siri ahamiyatli hisoblanadi.

Talabalarda ijodiy munosabatlar tafakkurini shakllantirish hamda rivojlantirishga qaratilgan didaktik va tarbiyaviy asoslarini ishlab chiqishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorining ham o'rnini beqiyosdir.

Xalqaro amaliyotda ham talabalarda ijodiy munosabatlar tafakkurini shakllantirishning innovatsion metodikalarini ishlab chiqish va takomillashtirish muhim vazifalardan biri

sifatida qayd qilinmoqda. Shu ma'noda, ta'lim-tarbiya jarayonini zamonaviy vositalari orqali kasbiy bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan vazifalar doirasida talabalarda ijodiy munosabatlar tafakkurini shakllantirish masalasiga katta e'tibor qaratilganligini alohida ta'kidlab o'tish mumkin.

Tafakkurning mohiyati va o'ziga xosligi haqidagi qoidalarni keng umumlashtirish masalalarini S.L.Rubinshteyn amalga oshirgan¹. Talabalarda ijodiy munosabatlar tafakkurini tahlil qilish asosida biz ijodiy fikrlash jarayonini aks ettiruvchi holat – bu faoliyatning alohida turi ekanligini aniqladik.

Faoliyat tushunchasi faqat shaxsga nisbatan qo'llaniladigan tushuncha. Ijod qilish, ijodkorlik esa faqatgina faoliyatga bog'liq bo'ladi. Biz uchun eng muhimi talabalarda ijodiy munosabatlar tafakkurini rivojlantirishdir. Bu jarayonda aqliy faoliyatning algoritmik va evristik usularidan keng foydalanish shart deb hisoblaymiz. Tadqiqot jarayonida tafakkurning produktiv (samarali) va reproduktiv turlarini ajratib ko'rsatish ham muhim bo'ladi. Ijodiy tafakkurning belgilarini hisobga olgan holda, biz o'z oldimizga bilimlarni o'zlashtirishning qulayligi, rivojlanish tezligi bilan bog'liq bo'lgan xususiyatlarni ajratib ko'rsatish vazifasini maqsad qildik. Bunda umumiy qobiliyatlar

bilan bog'liq tushunchalarni o'zaro bir-biriga bog'liqligi g'oyasini ilgari surdik.

Tafakkurning boshqa psixik jarayonlardan ajratib turadigan eng muhim xususiyati bu yangi bilimlarni kashf etishga yo'naltirilganligidir. Yangi bilimlarning talabalar tomonidan mustaqil ravishda kashf etish qobiliyati ijodiy fikrlashini rivojlanish darajasi bilan bog'liq bo'ladi. Bunday fikrlash bo'lajak o'qituvchilarda ijodiy munosabatlar tafakkurini shakllantirish mumkin bo'lgan yangi modelning yaratilishi bilan bog'liq. Bu eng avvalo, bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion texnologiyalarni qay darajada o'zlashtirganligi va undan foydalana olishi bilan bevosita bog'liq².

Bo'lajak o'qituvchilarni ta'lim jarayoniga tayyorlashda zamonaviy axborot texnologiyalaridan va noan'anaviy axborot manbalaridan (gipermatn va multimedia tizimlari, konstruktiv muhitlar) foydalanishni ta'minlaydigan zamonaviy axborotlarni o'zlashtirish ko'nikmasini talab qiladi. Zero, o'quvchilarning tafakkuri va ijodiy fikrlashini rivojlantirishda yordam beradigan kompyuter texnologiyalaridan foydalanish katta qiziqish uyg'otadi.

Axborot texnologiyalaridan samarali foydalana olish imkoniyatini egallagan talabalar o'zlariga ta'lim jarayonida ijodiy munosabatlar tafakkurini shakllantirib boradi. Masalan, informatika yo'nalishida o'qiydigan talabalar kompyuterda muammolarni tezda hal qila olishlari va hamkorlikda bu muammo yechimiga qaratilgan masalalarni birgalikda bartaraf etishi, bilimlarini rivojlantirishi, kompyuter dasturlari orqali biron-bir narsani yaratishda, modellashtirishda undan didaktik vosita sifatida foydalanishda, ta'lim manbalarini o'quvchilarga taqdim etishda ijodiy yondashuv va boshqalar³.

Ilmiy ishlarda aqliy faoliyatning psixologik mexanizmlari ko'pgina olimlar tomonidan tadqiq qilinib kelinmoqda. Psixolog, B.B.Biblura aqliy dialog mantig'iga ijodkorlik sifatida fikrlash muammosiga o'z e'tiborini qaratgan bo'lsa; A.B.Brushlinskiy fikrlash, mahorat va tasavvur jarayonlari o'rtasidagi subyektiv bog'liqlikni; V.P.Zinchenko esa shaxsning ta'lim, ijod va madaniyat kontekstida fikrlashni rivojlantirish kabi muammolarni tadqiq etishgan.

Mantiqiy savodxonlikni rivojlantirish pedagog-psixologlar o'z masalasi bilan ham

ko'pgina tadqiqot ishlarini olib borishgan. Masalan ushbu muammoni tarix fani doirasida A.V.Yefimov, o'quvchilarning mantiqiy fikrlashni shakllantirish masalasini muhokama qilishgan. Yuqori sinf matematika darslarida o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini shakllantirish masalasi bilan K.O.Ananchenko, N.D.Masko, A.A.Stolyar kabi olimlar tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Yuqorida qayd etilgan olimlarning ishlariga tayangan holda aynan bugungi kunda talabalar faoliyatida ijodiy munosabatlar tafakkurini shakllantirishga zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llash muhim ekanligi ilmiy asoslaniladi. Bu borada talabalarda ijodiy munosabatlar tafakkurini shakllantirishga qaratilgan innovatsion texnologiyalar quyidagilar bilan belgilanadi.

Lug'aviy jihatdan innovatsiya tushunchasi ingliz tilida (ingl. «innovation») – kiritilgan yangilik ixtiro ma'nosini – 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar; 2) ilmiy-texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalaridagi yangiliklar, shuningdek ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo'llanilishi⁴.

A.I.Prigojinning fikriga ko'ra, innovatsiya maqsadga muvofiq ravishda muayyan ijtimoiy birlik – tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga nisbatan munosabatga yangicha yondashishdir. Bu munosabatlarni amalga oshirishda o'ziga xos tarzda qarshiliklarga duch keladi. Ammo qo'yilgan maqsadga erishish har bir shaxs fuqaro, mutaxassis, rahbar, xodim, qolaversa, turli ijtimoiy munosabatlar jarayonining ishtirokchisi innovatorlik kompetensiyasini ko'rsatish kerak⁵.

Amerikalik psixolog E.Rodgers o'z tadqiqotlarida innovatsion xarakterga ega ijtimoiy munosabatlarning ijtimoiy-psixologik jihatlari, ijtimoiy munosabatlarga yangilik kiritish, bu jarayonda ishtirok etuvchi shaxslarning toifalari, ularning yangilikka bo'lgan munosabatlari, yangilikni qabul qilish, mohiyatini anglashga bo'lgan tayyorlik darajasi hamda muayyan shaxslar toifalari o'rtasidagi innovatsion xarakterga ega ijtimoiy munosabatlarning tasnifi masalalarini o'rgangan⁶.

«Innovatsion ta'lim» tushunchasi birinchi bor 1979-yilda «Rim klubi»da qo'llanilgan.

² Qo'ysinov O.A. Kompetentli yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari. Ped. fan. dok. ... diss. – T.: 2019. – 332 b

³ Sodiqova D.R. Talabalarda ijodiy munosabatlar tafakkurini shakllantirishning nazariy asoslari. // "Ta'lim muassasalarida boshqaruv jarayoni va o'quv sifatini takomillashtirish muammolari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Jizzax - 2022-yil


⁴ Стернберг Р. Мудрость, интеллект и творчество синтезированы. Нью-Йорк: Cambridge University Press. Википедия site: wiki5.ru. 2007

⁵ Пригожин А.И. Нововведение: стимулы и перспективы. - М.: Политиздат, 1998. - 436 с

⁶ Роджерс Н. Творческая связь: Исцеляющая сила экспрессивных искусств – МИФ, 2015

¹ Рубинштейн С.Л. О мышлении и путях его исследования. М.: Изд-во Академии наук, 1998

Ta'lim innovatsiyalari bir necha turga ajratiladi. Tahlil natijasida innovatsiya tushunchasi negizidagi innovatsion ta'lim tushunchasiga ham to'xtalish muhim hisoblanadi. Innovatsion ta'lim – ta'lim oluvchida yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, me'yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'lim⁷. Innovatsion ta'lim jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta'lim texnologiyalari yoki ta'lim innovatsiyalari deb nomlanadi. Ta'lim innovatsiyalari – ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida hal qilish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar. Ta'lim innovatsiyalari «innovatsion ta'lim» deb ham nomlanadi.



Ta'lim innovatsiyalarining asosiy turlari Innovatsiyalar turli ko'rinishga ega. Quyidagilar innovatsiyalarning asosiy ko'rinishlari sanaladi:

- yangi g'oyalar;
- tizim yoki faoliyat yo'nalishini o'zgartirishga qaratilgan aniq maqsadlar;
- noan'anaviy yondashuvlar;
- odatiy bo'lmagan tashabbuslar;
- ilg'or ish uslublari.

Ta'lim tizimida yoki o'quv faoliyatida innovatsiyalarni qo'llashda sarflangan mablag' va kuchdan imkon qadar eng yuqori natijani olish maqsadi ko'zlanadi. Innovatsiyalarning har qanday yangilikdan farqi shundaki, u boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan o'zgaruvchan mexanizmga ega bo'lishi zarur. Shuning uchun ham ta'lim – tarbiya jarayonida talabalarda ijodiy munosabatlar tafakkurini shakllantirishda innovatsion yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi⁸.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, yangi bilimlarning talabalar tomonidan mustaqil ravishda kashf etish qobiliyati ijodiy fikrlashini rivojlanish darajasi bilan bog'liq bo'ladi. Bunday fikrlash bo'lajak o'qituvchilarda ijodiy munosabatlar tafakkurini shakllantirish mumkin bo'lgan yangi modelning yaratilishi bilan bog'liq. Bu eng avvalo, bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion texnologiyalarni qay darajada o'zlashtirganligi va undan foydalana olishi bilan bevosita bog'liq. Shuning uchun ham ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion yondashuvlardan o'z o'rnida unumli foydalanilsagina talabalarda ijodiy munosabatlar tafakkurini shakllantirishda ancha qo'l kelishini ko'rishimiz mumkin.

MASOFAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH: ASOSIY OMILLAR VA SAMARADORLIGI MEZONLARI

Maxsuda Abdusattarovna Tillyashayxova - katta o'qituvchi, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Annotatsiya: Maqolada internet texnologiyalari asosida o'qitishning zamonaviy yondashuvlari ko'rib chiqildi, ta'lim tizimida masofaviy ta'lim texnologiyasidan foydalanish zaruriyatini belgilovchi asosiy omillar ko'rsatilgan, ta'limning innovatsion shakli sifatida masofaviy ta'limning afzalliklari va kamchiliklari ko'rsatilgan. Maqolada muallif masofaviy ta'limning iqtisodiy samaradorligi hamda uni oshirish yo'llari, uni keltirib chiqargan turli sabablar, ta'sir etuvchi omillar, masofaviy ta'limning iqtisodiy samaradorligini turli mezonlarini ochib berishga qaratdi.

Аннотация: В статье рассматриваются современные подходы к обучению на основе интернет – технологий, показаны основные факторы, определяющие необходимость использования технологии дистанционного обучения в системе образования, показаны преимущества и недостатки дистанционного образования как инновационной формы обучения. В статье автор акцентировал внимание на выявлении экономической эффективности дистанционного образования и путей ее повышения, различных причин, вызвавших ее, влияющих факторов и различных критериев экономической эффективности дистанционного образования.

Abstract: The article examines modern approaches to teaching based on Internet technologies, shows the main factors determining the need to use distance education technology in the educational system, shows the advantages and disadvantages of distance education as an innovative form of education. In the article, the author focused on revealing the economic efficiency of distance education and the ways to increase it, the various reasons that caused it, the influencing factors, and the various criteria of the economic efficiency of distance education.

Kalit so'zlar: masofaviy ta'lim, samaradorlik mezonlari, ta'lim sifati, ta'lim.

Ключевые слова: дистанционное образование, критерии эффективности, качество образования, образование.

Keywords: distance education, efficiency criteria, quality of education, education.

Sifatli mutaxassislar tayyorlash va aholi bilim darajasini oshirish mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun zamin yaratadi. Hozirgi kunda mamlakat istiqboli ko'p jihatdan ishlab chiqarish salohiyatining kuchaytirilishi hamda mahsulot importi hajmining oshirilishiga bog'liqdir. Dunyo bozorida yuqori foyda olish yangi fan va texnika yutuqlari negizida yaratilgan texnologiyalar asosida tayyorlanuvchi yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni doimiy zamonaviylashtirib, rivojlantirib borishni taqozo etadi. Shu sababli kadrlar sifati va malakasi yuqori bo'lgan, zamonaviy texnologiyalarga asoslangan hamda doimiy rivojlanishda bo'lgan mamlakatlarda ko'proq ichki va tashqi sarmoyalar jalb qilish imkoniyatlari mavjuddir¹.

Rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitida sarmoyadorlar ishlab chiqarish kuchlarining malakaviy saviyasiga faqat ishchi kuchi sifatida emas, balki yangi mahsulot va xizmatlar ustida ilmiy izlanishlar olib boruvchi, yangiliklar yaratuvchi ijodkorlar sifatida qaraydilar. Shu sababli kadrlar salohiyati rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy yuksalishining asosidir. Bunday mamlakatlar siyosatida ta'lim tizimiga innovatsion texnologiyalarni qo'llash doimo ustuvor vazifa deb qaraladi. Har bir mamlakatda mutaxassislarining bilimi va malakasining darajasi iqtisodiy rivojlanishning asosidir. Shu sabab O'zbekistonda ham takomillashgan maxsus ta'lim dasturlari ishlab chiqilib, ta'limni moliyalashtirish manbalari kengaytirilmoqda hamda ular rivojlantirilmoqda. Respublikamizda

7 Nishonaliyev U. Ta'lim standarti va pedagogik innovatsiyalar // Xalq ta'limi. – Toshkent, 1999. – № 6. – 28-31 b

8 Sodiqova D.R. Talabalarda ijodiy munosabatlar tafakkurini rivojlantirishning o'ziga xos afzalliklari. // Xalq ta'limi jurnali Toshkent – 2021 3-maxsus son

1 Тилляшайхова М. Интернет – технологии в образовании // Материалы XII Международной научно-практической интернет-конференции "Проблемы и перспективы развития современной науки в странах Европы и Азии" // Сборник научных трудов. – Переяслав-Хмельницкий, 2019. – p. 119-120.

tayorlashga davlat tomonidan katta hajmdagi mablag'larning sarflanayotganligini va bu masala respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatida asosiy o'rin tutayotganligi chiqayotgan hukumat qarorlarida ham yaqqol ko'rinib turibdi².

Ko'p davlatlarda ta'lim tizimida masofaviy o'qitishni joriy qilish va uni rivojlantirishning asosiy maqsadlaridan biri – ta'lim sifatini ta'minlagan holda, o'quv yurti hamda talabani ta'lim xarajatlarini qisqartirishdir. Aslida, har qanday mamlakatda aholiga ta'lim berishdan asosiy maqsad – insonlarning iqtidorlarini, shaxsning ijodiy potensialini va umuman jamiyat rivojini ta'minlashdir. Bu maqsadga esa ta'lim xizmatlarini amalga oshirish bilan erishiladi. Ya'ni, zarurat hisoblangan va ehtiyojlar asosida shakllangan zamonaviy ta'lim xizmatlarini ko'rsatish bilan amalga oshiriladi. Shu joyda ta'kidlash kerakki, bozor munosabatlari hukm surayotgan sharoitda zamonaviy ta'lim xizmatlarini ko'rsatish bilan shug'ullanayotgan subyektlar (universitet, institut, malaka oshirish instituti, turli kurslar va shu kabilar) iqtisodiyotdagi qonunlar va qoidalar asosida o'z faoliyatlarini amalga oshirishlari zarur bo'ladi. Ya'ni, o'z faoliyati bilan mablag' topadi, xarajatlarini qoplaydi hamda muayyan foydaga erishadi. Aynan mana shu masofaviy ta'limdagi iqtisodiy jarayon natijalari imkon qadar boshqa ta'lim shakllarining iqtisodiy natijalaridan o'z samarasini yuqoriligi bilan farq qilishi kerak³.

Agar keng qamrovda masofaviy ta'limdagi samarasiga e'tibor berilsa, u faqat iqtisodiy jihatdan o'lchanmaydi. Hatto, uning iqtisodiy samaradorligi jihatidan ham ustun turuvchi hamda ahamiyati jihatdan o'ta zarur hisoblanuvchi tomonlari mavjud. Misol uchun, masofaviy ta'limning ijtimoiy samaradorligi. Mazkur jihat natijalari pirovardida bu boradagi davlatning maqomini belgilaydi. Albatta, bu haqida juda ko'plab fikrlarni bildirib o'tsa bo'ladi. Yana, masofaviy ta'lim sifati hamda uni tashkil etuvchi ko'rsatkichlar to'g'risida fikr bildirish mumkin. Lekin, maqola hajmini cheklanganligidan kelib

chiqib, biz bu boradagi mulohazalarimizni qisqacha bayon qildik. Ishning maqsadi, unda belgilangan vazifalar masofaviy ta'limning iqtisodiy samaradorligi va uning oshirish yo'llarini ochib berishga o'z fikrimizni qaratdik. Demak, masofaviy ta'limning iqtisodiy samaradorligi hamda uni oshirish yo'llari, uni keltirib chiqargan turli sabablar, ta'sir etuvchi omillar, tavsiflovchi ko'rsatkichlarni o'rganish aynan mazkur muammoni hamda u bilan bog'liq masalalarni hal qilishda muhim ahamiyatga egadir. Biz masofaviy ta'limning iqtisodiy samaradorligini turli mezonlar asosida o'lchash mumkin degan xulosaga keldik va fikrimizni quyidagi 1-jadval vositasida ifodalab beramiz⁴.

1 – jadval

№	Mezonlar	Mezonlar tafsiloti	Ta'lim subyektida namoyon bo'lishiga ko'ra	Amalga oshirish mumkin bo'lgan vaqt
1.	Shaxslarning professional – malakaviy darajalarini oshirish natijasi	Shaxslarning professional – malakaviy darajalarini oshirish natijasida jamiyatda, xususan iqtisodiyotda moddiy hamda nomoddiy mahsulotlarning tarqalishi ko'payishi, hajmi hamda sifatini oshirishi	Tashqarida	Uzoq muddat talab qiladi
2.	Ta'lim sohasi mutaxassislari tomonidan amalga oshirilgan yangi ilmiy-texnik ishlanmalar natijasi	Ta'lim sohasi mutaxassislari tomonidan amalga oshirilgan yangi ilmiy – texnik ishlanmalar natijasida iqtisodiyot tarmoqlarida, subyektlari faoliyatida muloqot va nisbiy xarajatlarning kamayishi	Tashqarida	Uzoq muddatda
3.	Ta'lim sohasi, uning har bir bo'g'ini, ta'lim xizmatini ko'rsatuvchi subyektlarni yaxshi va yanada ratsional ishlashi pozitsiyasidan	Ta'lim sohasi, uning har bir bo'g'ini, ta'lim xizmatini ko'rsatuvchi subyektlarni yaxshi va yanada ratsional ishlashi tegishli vazirlardan ta'lim xizmatini amalga oshiruvchi subyektlargacha o'z funktsiyalarini natijalarini sifatini oshirgan holda xarajatlarni maqsadga muvofiq sarflashni nazarda tutadi.	Tashqarida hamda subyekt ichida	Uzoq yoki o'rta muddatda
4.	Ta'lim xizmatini amalga oshiruvchi xodimlarning ta'lim xizmatlari sifatini oshirishdagi bevosita hissalari muqoyasi nazaridan	Zamon talabi darajasidagi professor o'qituvchilarni, o'quv uslubiy qo'llanma tayyorlagan o'qituvchilarni, yangi pedagogik texnologiyalar ishlab chiqqan yoki joriy qilgan o'qituvchilarni hamda ta'lim jarayoniga yaxshi sharoit yaratgan boshqa xodimlarni ijodiy mehnatlarini natijalari uchun mehnatga haq to'lash va uni rag'batlantirishni oshirib borishi nazarda tutiladi.	Subyekt ichida	O'rta yoki qisqa muddatda
5.	Ta'lim xizmatini ko'rsatuvchi subyektni o'z-o'zini mablag' bilan ta'minlab iqtisodiy jihatdan rivojlantirish muqoyasi nazaridan	Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir oliy o'quv yurti pullik ta'lim xizmatlarini ko'rsatib imkon qadar o'z-o'zini moliyaviy mablag' bilan ta'minlab iqtisodiy jihatdan rivojlantirishni amalga oshirishi zarur. Ya'ni, ta'lim xizmatlaridan erishilgan mablag', ularni amalga oshirishga ketgan xarajatlardan ko'p bo'lib, rivojlantirishga yetarli bo'lgan foyda hajmini berishi kerak.	Subyekt ichida	O'rta yoki qisqa muddatda

6.	Ta'lim xizmatini narxini maqbul belgilanishi muqoyasi nazaridan	Bir talabaga to'g'ri keluvchi ta'lim uchun to'lov qiymati ta'lim xizmatini narxidir. Aynan raqobat sharoitida ta'lim narxini maqbul tartibda belgilanishi, avvalo yetarlicha miqdorda talabalar jalb qilinishini ta'minlaydi, qolaversa talaba uchun to'lov imkoniyati mavjud bo'lgan arzon ta'lim xizmatidir. Shuningdek, yetarli miqdordagi mablag'larini jalb qilish imkoniyati ta'lim xizmatini ko'rsatuvchi subyektda iqtisodiy jihatdan rivojlantirish imkonini beradigan foyda hajmini ta'minlashi kerak.	Subyekt ichida	O'rta yoki qisqa muddatda
7.	Bir talabaga to'g'ri keluvchi ta'lim xizmatlari maqbul shakllantirish muqoyasi nazaridan	Bir talabaga to'g'ri keluvchi xarajat imkon qadar maqbul asosda shakllantirish kerak. Bu esa, domo xarajatlarni kamaytirish imkoniyatlarini topishni talab qiladi. Lekin, ta'lim xizmatini uchun sarflanadigan sarflarni kamaytirish hech qachon ta'lim sifatini pasaytirmasligi kerak.	Subyekt ichida	Qisqa muddatda

Masofaviy ta'lim iqtisodiy samaradorligining mezonlari

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, masofaviy ta'limning iqtisodiy samaradorligini turli mezonlar asosida o'lchash mumkin ekan. Lekin mezonlarni yuzaga chiqishi ta'lim xizmatini amalga oshiruvchi subyektga nisbatan tashqarida, subyekt ichida yoki aralash ko'rinishda sodir bo'ladi.

Fikrimizga misol qilib quyidagilarni keltirib o'tamiz, xalqaro tajribalardan ma'lum bo'ldiki, rivojlangan mamlakatlarda oliy ta'lim tizimiga sarflangan bir AQSH dollaridan pirovard natijada mamlakat olti AQSH dollari miqdorida foyda oladi. Ekspertlarning fikricha, bu davlatlar yalpi ichki mahsulotning 0 foizini oliy ta'lim hisobiga oladilar. Yana bir misol keltiramiz:

Chet el olimlari tomonidan umumiy olgan ta'limlari 10,5, 12,5 va 14,5 yil davom etgan xizmatchilar uch guruhga bo'lib, yalpi ichki mahsulotning qancha qismini

yaratishda ishtirok etishlari o'rganilgan. Natijada, uchinchi guruh vakillari yalpi ichki mahsulotning 50 foizini yaratishi aniqlangan. Shu kabi tadqiqotlar Rossiyada ham o'tkazilganda, mehnatga layoqatli aholining 24 foizini tashkil etuvchi 14,5 yil ta'lim olgan xizmatchilar qo'shilgan qiymatning 56% ni ishlab chiqarishi aniqlangan. Demak, ta'lim xizmatiga sarflangan mablag' pirovard natijada mamlakat uchun o'z samarasini keltirar ekan.

Jadvalda ko'rsatilgan 1; 2; 3 mezonlarning natijalariga erishish uchun uzoq muddat vaqt (kamida besh yildan ko'proq) vaqt talab qilinadi. 4; 5; 6; 7 mezon natijalarini esa o'rta yoki qisqa muddatda (bir yildan uch yilgacha bo'lgan davrda yoki besh yilgacha) amalga oshirish mumkin.

Yana bir jihat shundaki, mazkur 3; 6 – jadvaldagi bir talabaga to'g'ri keluvchi ta'lim xarajatlarni maqbul shakllantirish mezoni (7) qolgan boshqa mezonlarga taqqoslaganda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu fikr bilan biz qolgan mezonlarni ahamiyati kamroq demoqchi emasmiz. Balki, o'zni, roli, yuzaga chiqishi, muddati, o'z-o'zini moliyalashtirish maqsadi va shu kabi jihatlari bilan boshqa mezonlarga faol ta'sir etib ularga dastlabki manba bo'lishi bilan mazkur mezon alohida e'tiborga ega. Eng asosiysi boshqa mezonlarga erishish ta'lim xizmatiga sarflanadigan xarajatlarni kamaytirish asosida amalga oshiriladi. Demak, ta'lim xizmatini xarajatini maqbul belgilash, ham iste'molchilarga, ham xizmat ko'rsatuvchilarga ma'qul bo'lib, pirovard natijada esa jamiyatga ijtimoiy-iqtisodiy samara keltirar ekan.

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori "Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida". <http://www.lex.uz/docs/973539/>.

³ Tillyashaykhova M.A., Samigova G.A. Stages of opening and introducing online stores // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities Vol. 12, Issue 01, January 2022. – p. 354-357.

⁴ Tillyashaykhova M.A. Distance education as an innovative technology // Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). Volume 10, Issue 4, April, 2021. – p. 242-247p.

TA'LIM SUBYEKTLARIDA REFLEKSIYANING NAMOYON BO'LIH SHART-SHAROITLARI VA SHAKLLANISH BOSQICHLARI

Shaxnoza Abduraimovna Donayeva - o'qituvchi, Termiz davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqola ta'lim subyektlarida refleksiyaning namoyon bo'lish shart-sharoitlari va uning shakllanish bosqichlari haqida yozilgan. Refleksiv muhitda o'tgan dars o'quvchida tugallanmay qolgan qiziqarli film, o'qilmasdan qolgan kitob kabi o'ziga tortuvchi bo'lishi va undagi keyingi mavzuda o'rganiladigan tushunchalar bolada qiziqish uyg'otishi ta'minlanishi lozim.

Izlanishlarimiz davomida refleksiyaning shakllanishi va ta'lim tizimi talablariga javob beradigan darajada namoyon bo'lish shart-sharoitlarini mufassal bayon qilishdan oldin, bu pedagogik fazilatning asosiy funksiyalariga to'xtalib o'tmoqchimiz.

Аннотация: В данной статье написано об условиях проявления рефлексии в учебных предметах и этапах ее формирования. Следует добиться, чтобы урок, пройденный в рефлексивной среде, был так же привлекателен для ученика, как незаконченный интересный фильм или непрочитанная книга, а усвоенные понятия по очередной теме вызывали у ребенка интерес. В ходе нашего исследования, прежде чем детализировать условия формирования рефлексии и ее проявления в той мере, в какой она соответствует требованиям системы образования, хотелось бы остановиться на основных функциях этого педагогического качества.

Abstract: This article is written about the conditions of manifestation of reflection in educational subjects and the stages of its formation. It should be ensured that the lesson passed in a reflective environment is as attractive to the student as an unfinished interesting movie or an unread book, and the concepts learned in the next topic arouse interest in the child. In the course of our research, before detailing the conditions for the formation of reflection and its manifestation to the extent that it meets the requirements of the educational system, we would like to dwell on the main functions of this pedagogical quality.

Kalit so'zlar: ta'lim, subyekt, refleksiya, refleksiyaning shakllanishi, shakllanish bosqichlari.

Ключевые слова: воспитание, предмет, рефлексия, формирование рефлексии, этапы формирования.

Keywords: education, subject, reflection, formation of reflection, stages of formation.

Refleksiyaning zarur darajada tatbiq etilishi natijasida o'quvchilarda quyidagi ko'nikma va o'quv mahorati shakllanadi:

-bilgan va bilmagan mavzularini aniqlashtirib olish;

-o'z oldiga aniq o'quv vazifasi qo'yib, uni bajarish uchun qisqa muddatli dastur yaratish;

-qabul qilgan qaror va ishlab chiqqan rejalarini ta'lim jarayoniga tatbiq eta olish (masalan, o'qituvchining tavsiyasidan tashqari kerakli adabiyotlarni axtarib topish);

-o'zining o'zlashtirish faolligini tengdoshlari bilan taqqoslash va sodir etayotgan harakatlarining samaradorlik darajasini belgilab borish;

-erishgan yutuqlarini o'z oldiga qo'yan maqsadlari bilan taqqoslash;

-o'z ustida ishlashning keyingi yo'nalishlarini aniqlab olish va o'zi uchun uzoq muddatli strategiya belgilash.

O'quv jarayonida refleksiv darsni tashkil qilishning oddiy ko'rinishi "o'tgan darsda nima o'rganilgani"ni so'rashdan iboratdir. Mazkur refleksiv so'roqning an'anaviy savollardan farqli jihati shundaki, o'qituvchi "o'tgan mavzuni o'zlashtirish natijasida nimani o'rganish lozim edi, haqiqatda nima o'rganildi va yana nimalar o'rganilmay qoldi" mazmunidagi qiyosiy savollar ustida mulohaza yuritishga o'rgatadi. Mavzuda tushunarsiz so'zlar, notanish tushunchalar, ta'riflarni o'rganish davomida duch kelgan qiyinchiliklar har bir o'quvchi uchun alohidalik tamoyili bo'yicha tahlil etiladi¹.

Ta'lim jarayonida refleksiya quyidagi funksiyalarni bajarish uchun zarur bo'ladi:

-diagnostik – o'quv jarayoni ishtirokchilari o'rtasida o'zaro bog'liqlik darajasini ko'rsatib berish va bu bog'liqlikning samarasi haqida aniq ma'lumot olish;

-loyihalashtirish – ko'zda tutilgan o'quv

jarayonini loyihalashtirish, modellashtirish, o'quv jarayoni ishtirokchilarining barcha ishtirokchilari uchun maqbul keladigan dars turi, shakli, ulubi va usulini ishlab chiqish;

-konstruktiv – mahsuldor o'quv jarayoni va o'quv jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarini samarali tarzda tashkil etish uchun shart-sharoit yaratish;

-kommunikativ – pedagog va ta'lim oluvchilar o'rtasida xolis va shaffof muhit yaratish;

-o'zaro munosabatlarning mazmundorligini ta'minlash – o'quv jarayoni ishtirokchilari ongida o'zaro munosabatlarning yetarlicha ta'lim olish uchun juda zarurligini his qilish, o'zaro tahlillarining samaradorligiga ongli ravishda ishonish;

-qiziqitiruvchilik vazifasi – dars jarayonining maqsadli aniq yo'nalishga qaratilganligini ta'minlash;

-korreksion – o'quv jarayoni ishtirokchilarida o'z xatti-harakatlarini, his-tuyg'ularini, ta'lim olishdagi faolliklarini umumiy muhit talablari asosida qayta ko'rib chiqishga zamin yaratadi.

Yuksak darajada rivojlangan refleksiya natijasidamosil bo'lgan pedagogik madaniyatga ega bo'lgan o'qituvchi-pedagog norasmiy tarzda "donishmand-pedagog" maqomiga ega bo'ladi. Mutaxassislarining (P.Y.Galperin, V.L.Danilov, B.D.Elkonin va boshqalar) qayd etishlaricha, "donishmand-pedagog" norasmiy maqomiga ega bo'lish uchun refleksiv muhitda o'z tajribasini oshirib borgan o'qituvchi-pedagog kuzata bilish va o'z vaqtida anglab olish, narsa-hodisalarning tub mohiyatini tez idrok etish va tegishli qaror chiqarish, har qanday ma'lumot hamda axborotni tez qabul qilib, tahlil eta bilish, har qanday nuqtayi nazar yoki farazni ma'lumot o'rnida qabul qila olish, xizmat o'rnida sarishtali va xushmuomalada namunali bo'lish va shu kabi shaxsiy hamda professional fazilatlar egasi bo'lishi kerak.

"Donishmandlikning asosiy alomatlaridan biri savol-javob ko'rinishidagi suhbatlarni tashkil qilish va tashabbuskorona olib borishda namoyon bo'ladiki, bunday suhbatlarda muloqotda qatnashayotgan shaxslarning savol va javoblarida o'zaro shubha hissi yetarlicha bo'ladi (ya'ni har qanday savol o'rinli yoki har qanday javob to'g'ri deb qaralmasligi lozim – Sh.D. ta'kid). Modomiki, o'zaro savol-javobga kirishgan shaxslar bir-biriga mutlaqo shubha bildirmas ekan, u yerda refleksiya bo'lmaydi²."

Refleksiv dars mashg'ulotlari to'rt xil tartibda o'tkazish tavsiya qilinadi:

1. Muayyan mavzuning yakuniga bag'ishlangan refleksiv dars.

2. O'quv dasturida ko'zda tutilgan muayyan bob yakuniga bag'ishlangan dars.

3. O'quv yili choragi yakuniga bag'ishlangan dars.

4. O'quv yili yakuniga bag'ishlangan dars.

Yuqorida qayd etilganidek, refleksivlik qobiliyat sanaladi. Modomiki, u qobiliyat, o'qituvchi-pedagogning fazilati sanalar ekan, uni rivojlantirib borish maqsadga muvofiqdir³. Refleksiyaning shakllantirishdan oldin refleksivlikka o'rganish tavsiya etiladi. A.Karpov refleksiya o'rganishni to'rtta bosqichni o'z ichiga olgan reja bo'yicha tashkil etishni tavsiya qiladi⁴.

1-bosqich. O'z kayfiyatini tahlil qilish va muayyan rejaviy muddat (misol uchun bir hafta) davomida erishgan yutuqlarni sarhisob qilish. Yana nimalarga erishish mumkin ekanligini mulohaza qilish.

2-bosqich. Har kunlik o'z-o'zini tahlil (bu maxsus kundalik yuritish orqali amalga oshirilishi mumkin. Muhimi, kundalik yuritishda izchillik, davomiylik, shaxsning o'z-o'ziga nisbatan xolisligi va talabchanligi namoyon bo'lishi maqsadga muvofiqdir).

3-bosqich. Hamkasblar (kursdoshlar, sindoshlar) erishgan yutuqlarni, yo'l qo'yan kamchiliklarni tahlil etib borish.

4-bosqich. Mehnat jamoasi (sinf yoki guruh)dagi o'rtacha natijani qayd etib borish va o'z natijasini unga nisbatan qiyosiy tahlil etib borish.

Refleksiyaning ta'min etuvchi muhit yaratish uchun o'quv jarayonlarida har ikki tomonlama ochiqlik, mulohazalarda erkinlik talab etiladi. Shunisi ham borki, dars mashg'ulotlarini tashkil qilishda, mavzularni o'rganishda o'quvchilar (bizning tadqiqotlarda – talabalar) muayyan qiyinchilikka duch kelmasa yoki o'qituvchida bolalar bilan muomalada muammo paydo bo'lmasa, refleksiya zarurat qolmaydi⁵.

Demak, aytish mumkinki, dars jarayonida refleksiv muhit hosil qilish uchun birinchi galda o'quv mashg'uloti ishtirokchilari faoliyatida qiyinchiliklar paydo bo'lishi lozim. Ya'ni "o'quv jarayoni ishtirokchilarining faoliyatida muayyan muammolarning paydo bo'lishi refleksiyaning muhim va birinchi shartidir". Paydo bo'lgan qiyinchilik yoki muammo hal qilish davomida o'quv jarayoni ishtirokchilari o'z-o'zini tahlil etish, sodir etgan xatti-harakatlaridan xatolar, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni izlashga kirishadilar. Mazkur qiyinchiliklar va muammolarni, asosan, ikki

2 Шедровицкий Г.П. Коммуникация, деятельность, рефлексия // Исследование речи и мыслительной деятельности. - Алма-ата, 1974. 12-28 стр.

3 Рефлексия – как высшая способность самооценки, А.В. Карпов, стр-б, Вестник КГУ.

4 Йўлдошев С. Бошлангич таълим талабаларини креатив ёндашув асосида технологик таълимга тайёрлаш методикаси. Пед.фан.бўйича фал.докт. диссертация. Қарши-2021. 88-б. 144 б.)

5 Плескач Л.Е. Обучение учителей самоанализу педагогической деятельности как составная часть системы внутришкольного управления: Автореф. канд. пед. наук. - М. 1983. 19-стр.

guruhga bo'lish mumkin: Birinchi guruh: tabiiy hosil bo'lgan qiyinchiliklar va muammolar⁶. Ikkinchisi: o'qituvchi dars mashg'ulotlarida mulohazakorlik muhitini yaratish uchun atay keltirib chiqaradigan muammoli vaziyatlar. Tabiiy tarzda hosil bo'ladigan muammo va qiyinchiliklar sirasiga o'qituvchi-pedagog tashkil etayotgan dars jarayoniga ta'lim oluvchilarning tayyor emasligi, o'qituvchi-pedagog dars jarayonini tashkil etish uchun joriy etgan usul, uslub va shaklning nisbatan yangiligi, binobarin, zaruriy manbalar bilan ta'min etilmaganligi, ta'lim jarayoni ishtirokchilari orasida o'zaro muomalalarning shaffof va erkin emasligi kabi omillarni kiritish mumkin. Sharq falsafiy maktablarida murabbiy (ya'ni ustoz – Sh.D. ta'kidi) va donishmand o'zaro ma'nodosh so'zlar sifatida talqin etiladi. O'qituvchiga pedagoglikdan donishmandlik maqomiga erishish uchun zarur bo'ladigan fazilarlar qatoriga birinchi galda refleksiv mahoratni kiritish to'g'ri bo'lgan bo'lur edi. Mazkur fikrning amaliy professional isboti shundan iboratki, har bir o'qituvchi o'z oldiga mukammallikka (ya'ni tom ma'nodagi donishmandlikka – Sh.D.ta'kidi) erishish shaklidagi maqsad qo'yadi. Bu maqsadga erishishning eng oson yo'li o'zida professional va shaxsiy fazilatlarini shakllantirib borгани holda o'z faoliyatini shartli ravishda muayyan qismlarga taqsimlangan holda muntazam va izchil ravishda tanqidiy tahlil etib borish, o'z shaxsiga boshqalar nigohi bilan qarash xususiyatiga ega bo'lishi talab etiladi.

Mazkur muammolar va qiyinchiliklarni bartaraf etish aynan refleksiv muhit yordamida amalga oshiriladi.

O'qituvchi-pedagog dars mashg'ulotlarida bahs-munozarali muhitni yaratish uchun o'rganilayotgan mavzu yuzasidan muammoli masalalarni o'rtaga tashlaydi va shu yo'l bilan o'quv jarayonida refleksiv muhitni shakllantira boradi. Dars jarayonini bunday shakl va usulda tashkil etish uchun o'qituvchi-pedagogdan kompetentlik talab etiladi. Demak, aytish mumkinki, refleksiv muhitni shakllanishi uchun zarur bo'lgan ikkinchi shart o'qituvchining kompetentligidir⁷. Kompetentlik faqatgina o'qituvchining o'z fanini yetarlicha bilishinigina anglatmaydi. "Kompetentlik – mutaxassisning o'z bilimlarini tartibga solish va ulardan o'rinli foydalanishni tashkil etishning shunday shakli, qaysiki, o'qituvchi-pedagog dars jarayonida eng kerakli qarorlarni chiqarish uchun minimum qisqa vaqt sarflaydi va ta'lim oluvchilarning e'tiborini eng muhim mulohazalarga qaratadi" Tadqiqotchilarning

fikricha, o'qituvchi-pedagogning kompetentligini ko'rsatuvchi ma'lum bir komponentlar mavjud⁸. Ular quyidagilardir:

-erkin qiziqtiruvchi komponent: o'rganilayotgan mavzuning hayotiy ahamiyati, maqsadlari, ta'lim oluvchining istiqboli uchun ahamiyatli jihatlarini ochib berishdan iborat bo'lib, o'quv jarayoni ishtirokchilarida ijodiy faoliyat shakllanishiga zamin yaratiladi;

-vazifadorlik komponenti: mazkur komponent o'qituvchining u yoki bu loyihasini ishlab chiqish va amaliy faoliyatga joriy etish uchun zarur bo'lgan pedagogik faoliyatning turi, shakli sifatida namoyon bo'ladi;

-kommunikativ komponent: ta'lim oluvchilar bilan o'zaro muloqotda namoyon bo'ladi va o'qituvchi-pedagogdan o'z fikrini ravon ifodalay bilish, ta'lim oluvchilarning e'tiborini muhim masalalarga qaratish, fikrini asoslovchi dalillar topa olish, mulohaza yuritish, munozara uchun mavzular havola etish, hal etuvchi ma'lumotlar ustida qizg'in bahs-munozaralar tashkil etish, sinfda (bizning tadqiqotlarda – guruhda) izlanuvchan muhit yaratish va dars davomida innovatsiyalarni joriy etish kabi fazilatlarini o'z ichiga oladi;

-refleksivlik komponenti: kompetentlikning mazkur komponenti o'qituvchi-pedagogdan o'z faoliyatining muayyan mavzu oxiridagi qisqa muddatli qismini ongli ravishda nazorat qilish, tahlil etib borish, shaxsiy fazilatlarini takomillashtirish, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlash, muammoli vaziyatni keltirib chiqargan sabablarni izlab topish va bartaraf etish uchun chora-tadbirlar qabul qilishdan iborat bo'ladi;

-orttirib boriladigan komponentlar: mazkur komponent refleksiv komponentning hosilasi hisoblanadi va o'qituvchi-pedagog o'z faoliyatining muayyan dars jarayonini o'z ichiga olgan qismida to'laqonli dars jarayonini tashkil etish uchun zarur bo'lgan, ammo yetishmagan sifat hamda professional fazilatlarini egallay boradi⁹.

Yuqoridagi komponentlarni umumlashtirib, xulosa qilish mumkinki, o'z dars jarayonlarida refleksiv muhitni yaratishga kirishgan o'qituvchi-pedagog o'z sohasining yetuk mutaxassisi bo'lish bilan bir qatorda yetarli darajada notiq, mulohazakor, tashabbuskor, ta'lim oluvchilarning intilish va qiziqishlari yo'nalishini anglay oladigan, butun psixologik xatti-harakatlarini o'zaro hamkorlikka yo'naltirgan va nihoyat o'z-o'zini tahlil etishni doimiy odatga aylantirishi lozim bo'ladi¹⁰.

Shuningdek, kompetentlikning asosiy komponentlarini bir yoqlamalik xususiyatiga ega bo'lishi ularning ahamiyatini yo'qqa chiqaradi. Qolaversa, o'qituvchi-pedagogda uning faoliyati davomida shakllanib boradigan xususiyatlar, fazilatlar yaxlit holda o'zaro munosabatlarning hosilasi deb qaralmog'i kerak. O'qituvchi-pedagog o'zida kompetentlikni shakllantirishi va rivojlantirib borishi uchun kommunikativlik eng katta ahamiyatga ega bo'lgan komponentlardan biri hisoblanadi. Ko'rib turganimizdek, o'qituvchi-pedagog kompetentligining alohida olingan tarkibiy qismlari (ya'ni komponentlari) o'zaro bir-birini to'ldiradi va o'quv jarayonlarida refleksiv muhit yaratish uchun asosiy shart-sharoitni yaratish uchun xizmat qiladi¹¹.

O'qituvchi-pedagogning psixologik va pedagogik ma'nolarda o'z-o'zini anglashi, jamiyat hayotida va o'quv jarayonlarida, jamoadagi hamda o'quv jarayonlari ishtirokchilari bilan bo'ladigan kommunikativ aloqalarda refleksiv muhit yaratish uchun asosiy shart-sharoitlarini yaratish uchun zarur bo'ladigan shart-sharoitlar qatoriga o'qituvchi-pedagogning kompetentligini alohida ta'kidlab o'tdik¹². Shuni alohida ta'kidlash muhimki, kompetentlik faqat refleksiv muhitda namoyon bo'lsagina, u kasbiy takomillashuvni ta'min etishi mumkin. Sodda qilib aytganda, kompetentlik va refleksiv muhit bir-biridan alohida holda kutilgan natijani bermaydi. Aytish mumkinki, kompetentlik refleksiv muhitda tahlil etilib, rivojlantirib borilsagina, aniq natijaga erishish mumkin. A.Karpov fikriga ko'ra, "kasbiy takomillashuvning formulasi oddiy: "tajriba" + "refleksiya" = "kasbiy rivojlanish".

Unutmaslik kerakki, o'qituvchi-pedagog ta'lim oluvchi timsolidagi "Men" fenomeni bilan muomala qilish bilan bir qatorda eng muhim masalani hal etib boradi. Yuqorida isbotlab berilgandek, "Men" fenomeni bilan o'quv-ta'limiy va ijodiy muomala o'qituvchida muammo tug'dirmasligi mumkin, ammo ta'lim oluvchilarning intellektual jihatlarini rivojlantirishni asosiy vazifa hisoblash o'qituvchidan yuksak darajadagi refleksiv mahorat talab etadi. Bunda o'qituvchining shaxs sifatidagi afzalliklari, mutaxassis sifatidagi mavqei, orttirgan tajribasi ham psixologik faktor sifatida ta'lim oluvchiga birinchi ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchi-pedagog ta'lim oluvchilarda shakllangan birlamchi taassurotni saqlab turishi, nainki saqlab turishi, uni ijobiy tomonga o'zgartirishi lozim. Buning uchun esa refleksiv mahorat

o'qituvchining doimiy fazilatlaridan biriga aylanishi lozim.

N.Bizyukova quyidagi misolni keltiradi: "Sinfxonaga favqulodda mashhur o'qituvchi kirib keladi. Uning dars o'tish uslubi, notiqlik mahorati, inson sifatidagi salobati maktab o'quvchilari o'rtasida afsonaga aylangan. Tasavvur qilaylik: uning qarshisida bola qanday tutadi o'zini? Mohir pedagog bola tasavvuridagi avtoritet va mavqeni saqlab qolsa, ular o'rtasida hech qanaqa ijodiy va o'quv-bilish mazmunidagi muloqot bo'lmaydi. Dars to'liq bir yoqlama kechadi" ("Рефлексия в начальных школах", стр-3) Turgan gapki, bu vaziyatda hech qanday refleksiv muhit bo'lmaydi. O'qituvchi-pedagog refleksiv muhit yaratishi uchun "ta'lim oluvchi darajasida muloqotga kirishishi lozim bo'ladi. Bu dars mashg'ulotining ko'rinishi, shakli, uslubi va usuliga muvofiq ravishda turlicha ko'rinishda namoyon bo'ladi.

O'z kasbiy faoliyatida refleksiv muhitni rivojlantirib borgan o'qituvchi-pedagogda pedagogik va psixologik xususiyatlardan tashqari oddiy shaxs his-tuyg'ulari ko'rinishida namoyon bo'ladigan fazilatlar ham shakllanib, rivojlanib boradi¹³.

Birinchi, o'qituvchi-pedagogning pedagogik voqelikka nisbatan ta'sirchanligi ortadi va buning natijasida o'zi tomonidan yo'l qo'yilgan har qanday kamchilik, dars jarayonida sodir etilgan xatolarini tez ilg'aydi va ularni bartaraf etish chorasini ko'rish ko'nikmasi shakllanib boradi¹⁴.

Ikkinchidan, o'z faoliyatiga baho berishda xolisligi ortadi. Refleksiv muhitda o'qituvchi-pedagog o'z faoliyatiga ta'lim jarayoni ishtirokchilari hamda kasbdoshlari nazari bilan qarashi natijasida baholash mezonlari son va talab jihatdan ortadi. Ya'ni o'qituvchining o'z faoliyati haqidagi shaxs sifatida tasavvurlari boyiydi.

Uchinchi, kamchiliklarga muvohabasizlik fazilati shakllanadi. O'qituvchi-pedagog refleksiv muhit sharoitida o'z faoliyatini tashkil qilganda o'zining mutaxassis sifatidagi shaxsini hosil qilgan professional va shaxsiy fazilatlaridan har birining ahamiyatini tushunib yetadi. Mavjud fazilatlarini shakllantirish, nuqsonlarini o'z vaqtida bartaraf qilish evaziga dars jarayonlarini tashkil qilish eng yuksak samara berishiga ishonch hosil qiladi.

To'rtinchidan, refleksiv muhit vositasida o'qituvchi-pedagog pedagogik madaniyatga ham erisha boradi. Pedagogik mahorat o'qituvchining refleksiv muhitda shakllangan tajribasi, shaxsiy fazilatlarini va professional mahoratining in'ikosi sifatida qaraladi.

6 Холиков А. Педагогик маҳорат. - Т.: «Иктисод-Молия», 2011. 298-бет.

7 Пьянкова Г.С. Развитие профессиональной рефлексии: учебное пособие. Краснояр. гос. пед. ун-т им. В.П.Астафьева. - Красноярск, 2014. - С. 276.

8 Гузалия Робертовна, "Приёмы рефлексии". "Бюллетень МГУ", стр-17

9 Шедровицкий Г.П. Коммуникация, деятельность, рефлексия // Исследование речи и мыслительной деятельности. - Алма-ата, 1974. 12-28 стр.

10 Кенжабоев Абдусалим Эржабоевич, Саидова Парвина Мирзо кизи, Уқитувчининг касбий маҳорати ва педагогик рефлексия, "Замонавий таълим / Современное образование", 2021, 8 (105)

11 Кенжабоев Абдусалим Эржабоевич, Саидова Парвина Мирзо кизи, Уқитувчининг касбий маҳорати ва педагогик рефлексия, "Замонавий таълим / Современное образование", 2021, 8 (105).

12 Анисимов О.С. Субъектная рефлексия в игромоделировании и ее понятийное обеспечение. - М.: Угрешская типография, 2012. - С. 382.

13 Гузалия Робертовна, "Приёмы рефлексии". "Бюллетень МГУ", стр-17

14 Давыдов В.В. Теория развивающего обучения. - М.: «Интор», 1996. - С. 544.

ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ВОСПИТАТЕЛЯ И СПЕЦИАЛЬНО- ОРГАНИЗОВАННЫЕ ФОРМЫ РАБОТЫ В ПЕРИОД АДАПТАЦИИ РЕБЁНКА

Шахноза Буранова - старший преподаватель, Джизакский государственный педагогический университет

Аннотация: Статья посвящена вопросам взаимодействия ДОО и семьи период адаптации ребёнка. В этой статье рассматриваются функции, основная профессиональная деятельность воспитателя и специально-организованные формы образовательно-воспитательного процесса в период адаптации ребёнка.

Annotatsiya: Maqola bolaning moslashuvi davrida maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasidagi o'zaro munosabatlar masalalariga bag'ishlangan. Ushbu maqolada tarbiyachining vazifalari, asosiy kasbiy faoliyati va bolaning moslashish davridagi o'quv jarayonining maxsus tashkil etilgan shakllari ko'rib chiqiladi.

Abstract: The article is devoted to the issues of interaction between the preschool educational institution and the family, the period of adaptation of the child. This article examines the functions, the main professional activities of the educator and specially organized forms of the educational process in the adaptation of the child.

Ключевые слова: специально-организованные формы, период адаптации, развитие органов пяти чувств, становление человека, семейная среда, предметно-пространственная среда.

Kalit so'zlar: maxsus tashkil etilgan shakllar, moslashish davri, beshta hissiyotning rivojlanishi, shaxsning shakllanishi, oila muhiti, obyekt-fazoviy muhit.

Keywords: specially-organized forms, period of adaptation, development of the organs of the five senses, the formation of a person, family environment, subject-spatial environment.

По указу Президента Республики Узбекистан, от 30 сентября 2017 года № УП-5198 «О мерах по коренному совершенствованию управления системой дошкольного образования» определены основные задачи и направления деятельности Министерства дошкольного образования Республики Узбекистан. Основная задача указа: переподготовка и повышение квалификации директоров, педагогических кадров системы дошкольного образования на базе современных педагогических технологий и методов, способных на высоком профессиональном уровне решать вопросы воспитания и всестороннего развития детей¹.

Дошкольный возраст – уникальный, самоценный и важнейший период становления человека и его здоровья. Первые годы жизни ребёнка - важный этап в его формировании. Каким

будет взрослый человек по своим физическим и умственным способностям, нравственным качествам, в большей степени зависит от этого периода. Педагоги должны стремиться к тому, чтобы система воспитания маленьких детей была ориентирована в первую очередь на личностные, индивидуальные, возрастные особенности ребёнка. Это значит, что взрослые в процессе общения с ребёнком обеспечивают ему: чувство психологической защищённости; доверие к миру; эмоциональное благополучие; формирование базиса личностной культуры; развитие его индивидуальности. Нужно обеспечить ребёнку широкие возможности пользоваться каждым из пяти чувств: он должен видеть, слышать, трогать руками, пробовать на вкус, обонять различные предметы окружающего мира – как можно шире и разнообразнее. Дошкольная образовательная организация

- это новое окружение, новая обстановка, новые люди². Адаптацией принято называть процесс вхождения ребёнка в новую для него среду и болезненное привыкание к её условиям.

Период адаптации – тяжёлое время для малыша, его родителей и персонала группы. В среднем длительность адаптации у детей раннего возраста три-четыре недели. Но даже такой относительно короткий срок для ребёнка далеко не безобиден. Чтобы облегчить течение адаптационных процессов у детей раннего возраста, поступающих в дошкольную образовательную организацию, систему взаимосвязанных мероприятий семьи и педагога в процессе подготовки и адаптации ребёнка к ДОО. Для обеспечения комфортно-эмоционального развития и саморазвития детей создаём развивающую предметно-пространственную среду для сохранения и укрепления здоровья детей как важного фактора успешной жизнедеятельности. Проблема адаптации детей в дошкольной образовательной организации занимает умы работников. Адаптацию в условиях дошкольного образования нужно рассматривать как процесс или приспособление функций организма ребёнка к условиям существования в группе. Общая задача педагогов и родителей - помочь ребёнку по возможности безболезненно войти в жизнь дошкольной образовательной организации³. На пути реализации возникают различные трудности.

Все эти затруднения массовой педагогической практики позволяют сделать вывод, что организованная деятельность по адаптации в раннем возрасте должна представлять собой целостную модель. Выстраивая её, необходимо включать всех участников процесса: и педагогов, и родителей, и детей.

С поступлением ребёнка двух-летнего возраста в дошкольную образовательную организацию в его жизни происходит множество изменений: строгий режим дня, отсутствие родителей в течение восьми и более часов, новые требования к поведению, постоянный контакт со сверстниками, новое помещение, таящее в себе много неизвестного, а значит, и опасного, другой стиль общения.

Все эти изменения обрушиваются на ребенка одновременно, создавая для него стрессовую ситуацию, которая без специальной организации может привести к невротическим реакциям, таким, как капризы, страхи, отказ от еды, частые болезни и т.д. Эти трудности возникают в связи с тем, что малыш переходит из знакомой и обычной для него семейной среды в среде дошкольной образовательной организации.

Ребёнок должен приспособиться к новым условиям, адаптироваться. Как известно, адаптация – это приспособительная реакция, основанная на инстинкте самосохранения предполагает избегания опасных, неблагоприятных для индивидуума ситуаций. Отрыв от семьи, помещение в изолированную детскую среду с одним взрослым, выполняющим функции и воспитателя, и надзирателя, да ещё в совершенно незнакомой обстановке, оказывается для ребёнка именно такой неблагоприятной ситуацией, наверное, главное, что можем сделать мы, взрослые, - это создать такие условия в дошкольной образовательной организации, которые воспринимались бы ребёнком как безопасные. Только чувство защищённости может помочь ребёнку выработать саморегулирующиеся механизмы, позволяющие ему приспособиться к новым условиям.

Сложность приспособления организма к новым условиям и новой деятельности и высокая цена, которую платит организм ребенка за достигнутые успехи, определяют необходимость учета всех факторов, способствующих адаптации ребенка к дошкольной образовательной организации или, наоборот, замедляющих ее, мешающих адекватно приспособиться.

Как правило, ослабленные дети труднее адаптируются к новым условиям. Они чаще болевают, труднее переживают разлуку с близкими людьми. Случается, что ребенок не плачет, не выражает внешне негативных проявлений, но теряет в весе, не играет, подавлен. Его состояние должно беспокоить воспитателей не меньше, чем тех детей, которые плачут, зовут родителей.

Также, особое внимание требуют дети с ослабленным типом нервной системы. Эти дети болезненно переносят любые перемены в их жизни. При малейших неприятностях

¹ Указ Президента Республики Узбекистан «О мерах по коренному совершенствованию управления системой дошкольного образования» УП-5198 от 30 сентября 2017 года.

² Кирюхина Н. В. Организация и содержание работы по адаптации детей в доу/ Н.В. Кирюхина. – М.: Айрис-пресс, 2006. – 112 с.

³ Костяк Т.В. Психологическая адаптация ребенка в детском саду/ Т.В. Костяк. – М.: Академия, 2008. – 170с.

их эмоциональное состояние нарушается, хотя свои чувства они бурно не выражают. Их пугает все новое и дается оно с большим трудом. В своих движениях и действиях с предметами они не уверенны, медлительны. Таких детей к дошкольной образовательной организации следует приучать постепенно, привлекать к этому близких им людей. Воспитатель должен поощрять, подбадривать и помогать им⁴.

Игнорирование воспитателем особенностей типов нервной системы ребёнка в период адаптации к дошкольной образовательной организации может привести к осложнению в его поведении. Например, строгость к детям неуверенным, малообщительным вызывает у них слёзы, нежелание находиться в дошкольной образовательной организации. Резкий тон обращения вызывает у легко возбудимых детей излишнее возбуждение, непослушание.

В разных ситуациях один и тот же малыш может вести себя по-разному, особенно в период адаптации. Даже спокойный и общительный ребёнок при расставании с близкими людьми начинает плакать и проситься домой, нелегко привыкает к новым требованиям.

Поведение ребёнка под влиянием сложившихся привычек также приобретает индивидуальный характер. Если он не умеет, есть самостоятельно, то в дошкольной образовательной организации отказывается от еды, ждёт, чтобы его накормили. Так же, если не знает, как мыть руки в новой обстановке – сразу плачет; если не знает, где взять игрушку – тоже плачет; не привык спать без укачивания – плачет, поэтому очень важно знать привычки ребёнка, считаться с ними.

Незнание привычек ребёнка значительно осложняет работу воспитателя. Его педагогические воздействия становятся стихийными, нецеленаправленными и часто не дают необходимого результата. Все привычки и навыки каждого вновь поступившего ребенка сразу узнать трудно, да они и не всегда проявляются в новых условиях. Воспитателю необходимо помнить, что ребенок раннего возраста, имеющий необходимые навыки, не всегда может перенести их в новую обстановку, ему

необходима помощь взрослого.

В домашних условиях ребёнок привыкает к характеру применяемых педагогических воздействий, выраженных не только спокойным ровным тоном, но и в тоне строгой требовательности. Тем не менее, строгий тон воспитателя или няни может вызвать испуг.

И наоборот, ребёнок, привыкший к громким раздраженным указаниям, не всегда выполнит тихие спокойные указания воспитателя.

Как уже говорилось, особое значение в период адаптации имеют индивидуальные особенности детей в сфере общения. Есть дети, которые уверенно и с достоинством вступают в новое для них окружение детского сада: они обращаются к воспитателю, к помощнику воспитателя, чтобы узнать о чем-нибудь. Другие сторонятся чужих взрослых, стесняются, опускают глаза. А есть и такие дети, которых общение с воспитателем пугает. Такой ребёнок старается уединиться, отворачивается лицом к стене, чтобы только не видеть незнакомых людей, с которыми он не умеет вступить в контакт.

Опыт общения ребёнка с окружающими, полученный им до прихода в детский сад, определяет характер его адаптации к условиям детского сада. Поэтому именно знание содержания потребностей ребенка в общении является тем ключиком, с помощью которого можно определить характер педагогических воздействий на него в адаптационный период.

Правильно поступают те родители, которые уже на первом году жизни ребенка не ограничивают его общение в узком кругу семьи.

Соблюдая необходимые гигиенические требования, целесообразно уже в этом возрасте расширять круг общения ребенка. Например, можно на некоторое время разрешить новому для него человеку подержать его на руках или даже оставить их одних⁵.

Воспитатель должен установить контакт с ребенком в первый же день. Но если у ребенка не сформирован опыт общения с незнакомыми людьми, на все действия воспитателя он реагирует негативно: плачет, вырывается из рук, стремится отдалиться, а не приблизиться к

воспитателю. Ему нужно более длительное время, чтобы привыкнуть, перестать испытывать страх перед воспитателем. Нервозность, слезы мешают ему правильно и быстро воспринять заинтересованное, доброе отношение воспитателя.

В таком случае целесообразно разрешить маме побыть в группе. В ее присутствии ребёнок успокаивается, страх перед незнакомым взрослым исчезает, ребёнок начинает проявлять интерес к игрушкам. Мать должна побуждать его обратиться к воспитателю, попросить игрушку, сказать, какая тетя хорошая, добрая, как она любит детей, играет с ними, кормит.

Обязанности воспитателя велики и многогранны. Чуткость, отзывчивость и любовь к детям подсказывают, что нужно делать, как помочь родителям в

трудном процессе воспитания, как важно понимать и родителей, и детей учитывая сложные взаимоотношения членов семьи. Использование разнообразных форм работы дало определённые результаты: родители и махалля стали активными участниками встреч, создана атмосфера взаимоуважения. Опыт работы показал: позиция родителей как воспитателей стала более гибкой. Теперь они ощущают себя более компетентными в воспитании детей. Родители стали проявлять искренний интерес к жизни дошкольной образовательной организации, научились выражать восхищение результатами и продуктами детской деятельности, эмоционально поддерживать своего ребёнка.

JISMONIY MADANIYAT YO'NALISHI TALABALARINI UZLUKSIZ PEDAGOGIK AMALIYOTI JARAYONINI MODELLASHTIRISH

Lazizbek Xusanboyevich Rustamov - professor, v.b., Toshkent davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada uzluksiz pedagogik amaliyot tizimini modellashtirishning nazariy jihatlari bosqichma-bosqich holati jadvallar yordamida ifodalangan jismoniy madaniyat sohasida qator masalalarga oydinlik kiritilgan va kelgusida barkamol, sog'lom avlod tarbiyalashda shu soha mutaxassislariga nazariy va amaliy asoslari ochib berilgan.

Аннотация: В данной статье по этапно разъяснены теоретические аспекты моделирования системы непрерывной педагогической практики в области физической культуры, а также раскрыта теоретическая и практическая база для специалистов в этой области в будущем.

Abstract: This article explains in stages the theoretical aspects of modeling the system of continuous pedagogical practice in the field of physical culture, and also discloses the theoretical and practical base for specialists in this field in the future.

Kalit so'zlar: uzluksiz pedagogik amaliyot, jismoniy tarbiya, sport, mutaxassis, tashxislash, vositalar, metod.

Ключевые слова: непрерывная педагогическая практика, физическое воспитание, спорт, специалист, диагностика, инструментарий, метод.

Keywords: continuous pedagogical practice, physical education, sports, specialist, diagnostics, tools, method.

Pedagogik amaliyot o'qishning oxirgi yilida ya'ni yettinchi va sakkizinchi semestrda o'tilishi sababli talabalarining pedagogik amaliyotni o'tishda kasbiy yo'nalishi bo'yicha nazariy bilimlarni amaliyotda yetarlicha yakunlay olmas edilar. Natijada, hujjatlarning tuzilishi, mustaqil darslarni olib borilishi o'quv darsdan tashqari o'tkaziladigan tadbirlar, sport musobaqalari va bayramlar tashkil qilish hamda o'tkazish bo'yicha ta'lim olish ko'nikmalari shakllanmay qolmoqda edi. Shuning uchun yuqori darajali jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashda ma'lum muammolar kelib chiqmoqda edi. 2022-2023 o'quv yilidan boshlab, Toshkent davlat pedagogika universitetining kunduzgi ta'lim shaklida tahsil olayotgan 2-4-bosqich talabalarini uchun haftalik o'quv mashg'ulotlari 4+2 tartibida, shu jumladan, darslarning 4 kuni oliy ta'lim muassasasida,

⁴ Buranova S. (2020). The continuity of neighborhood, family and preschool educational organization as a condition of successful adaptation to school life. Архив Научных Публикаций JSPi.

⁵ Штолс Х. Каким должен быть твой ребёнок /Штолс. Дети и семейный конфликт, Анзорг: Кн. для учителя: Пер. с нем. -М., 1997. - 144 с./

2 kuni umumiy o'rta ta'lim muassasalarida amaliyot o'tash tartibida olib borish yo'lga qo'yilgan¹.

Talabani kasbiy tayyorlash muammosi hal qilinishida muhim bo'lgan ko'plab masalalar orasida uzluksiz pedagogik amaliyotda ta'lim jarayoni mazmuni eng muhim hisoblanadi. Kasbiy-pedagogik tayyorgarlik nazariy bilimlarini amaliyotda tashkil qilish jismoniy tarbiya mutaxassisi tayyorlashning asosini tashkil qiladi.

Bu mutaxassislarni kasbiy tayyorlash jarayoni nazariyot va amaliyotning o'zaro birlashishi mexanizmi asosida qurilishi demakdir. Ya'ni nazariy bilimlarni o'zlashtirish pedagogik amaliyot bilan uzviy bog'liqdir. Bunda nazariyani o'zlashtirish, pedagogik amaliyotni egallash zarur shart-sharoiti hisoblanadi, u o'z navbatida dastlabki nazariy bilimlarni mustahkamlash uchun balki, bir vaqtda pedagogik nazariyani keyingi o'zlashtirishda boshlang'ich asos bo'lib xizmat qiladi².

Bugungi kunda A.K.Atayev, Sh.X.Xonkeldiyev, T.Usmonxodjayev, D.D.Sharipova, X.Hamidov va boshqalarning tadqiqotlarida respublikamizdagi jismoniy tarbiya sohasi mutaxassislari tayyorlashdagi kamchiliklar, maktab jismoniy tarbiya darslarining metodik ta'minoti yetarli emasligi o'quvchilar jismoniy tarbiya jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillar sifatida ko'rsatib berilgan.

T.S.Usmonxodjayev, F.Xo'jayev, L.Setlina, I.A.Koshbaxtiyev, M.B.Saparbayev, A.Abdiyev, J.E.Yusupovlar o'quvchilar jismoniy tarbiyasining pedagogik asoslarini ishlab chiqish, ularning jismoniy tayyorgarlik darajasini nazorat qilish masalalarini ishlab chiqishga o'z hissalarini qo'shganlar. O.A.Abdulina, V.A.Vorabyov, B.K.Karashanov, V.P.Filin kabi tadqiqotchilarning ishlari o'quvchilarning alohida sport turlari bo'yicha harakat malakalarini tarbiyalash masalalariga bag'ishlangan³.

Darsdan tashqari vaqtda olib boriladigan jismoniy tarbiyaning xususiyatlari D.B.Bidanov, B.D.Matukeyevlarning ilmiy tadqiqot ishlarida ochib berilgan.

Milliy sport o'yinlarining tarbiyaviy ahamiyati X.F.Anorqulov, Y.S.Sog'indiqov, I.Qirg'izov, S.M.Axmetov, M.B.Tursunovlarning tadqiqotlarida ko'rsatib o'tilgan⁴.

Y.A.Afanasev, N.Sh.Fazleyev, V.B.Chemadanovlarning ishlarida

o'quvchilarning morfofunksional statusini aniqlash, shuningdek, ularning psixologik ijtimoiy maqsadni belgilashi motivatsion va boshqa xususiyatlariga tabaqalashgan yondashish zarurati qayd etilgan.

Bizning fikrimizcha, mutaxassislarni tayyorlash bugungi kunda oliy ta'lim muassasasining bakalavriat, bosqichida bosqichlilik shaklida amalga oshiriladi.

Ushbu tizimni jismoniy tarbiya mutaxassisini uzluksiz kasbiy tayyorlash bir qismi sifatida qarash mumkin. Bu yerda ko'nikma va malakalarda namoyon bo'lib, har bir bosqichda nazariy bilimlarni o'zlashtirish va ulardan amaliy faoliyatda foydalanish darajasi ko'rsatkichi hisoblanib pedagogik amaliyot muhim o'rin egallaydi. Bizning vazifamiz oliy ta'lim muassasasi sharoitlarida mana shu jarayonni o'rganishdan iborat.

Bugungi kunda jismoniy tarbiya ta'lim muassasalarida ijtimoiy sharoitlarning o'zgarishi, uning yangi talablari, ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarni, ijtimoiy-madaniy va psixologik muhitni hisobga olib mutaxassislarni tayyorlash kerakligi ko'pchilik uchun ayondir. Buning uchun esa moslashuvchanlik, erkin harakatlar va maksimal darajada, jamiyatning ijtimoiy talablarini o'qilona to'ldirish kerak, ya'ni uzluksiz pedagogik amaliyoti ko'p bosqichli tuzilishini muvofiqlashtirish g'oyasining o'zida qabul qilingan sharoitlar zarur⁵.

Uzluksiz pedagogik amaliyotni takomillashtirish muammosi bilan ko'plab tadqiqotchilar shug'ullanmoqdalar. Pedagogik amaliyot masalalari bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqot ishlari mavjud. Ular orasida pedagogik oliy ta'lim muassasalari va universitetlari tajribalarini umumlashtirish bo'yicha ishlar hamda talabalarga yordamchi instruktiv-metodik materiallar katta o'rin egallaydi. Ammo pedagogik amaliyot bo'yicha ishlar nisbatan kam.

Tadqiqot ishlarining ko'plari asosan metodik xususiyatga ega, tadqiqotchilik ishlari kam.

Tadqiqotimizda jismoniy madaniyat yo'nalishi talabalarining tayyorgarlik bosqichlarini izchilligining nazariy va amaliy jarayonini bir maqsad tomon yo'naltiradi. Bunda talaba amaliyot jarayonida nazariy bilimlarga tayangan holda maktab o'quvchilari, kollej talabalarini bilan ishlash imkoniyatiga ega bo'lish lozim, shunda uning kasbiy malakasi mustahkamlashadi va sifat darajasi shakllanadi⁶.

1 2022-2026-yillarda Xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni.
 2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y, 6-son.
 3 Абдулина О.А. Общепедагогическая подготовки учителя системе высшего педагогического образования. М. 1990. С.7. 27.
 4 Ахметов С.М. теоретико-методологическая концепция преобразования подготовки специалистов по физической культуре в сфере среднего профессионального образования //Теория и практика физической культуре. – Москва, 2003. -№12. -С23-26.
 5 Захаров А.А. Проблемы и перспективы развития университетского образования в области физической культуры и спорта // Теория и практика физ.культуры. – Москва, 2003. -И5. -С.50-52.
 6 Курбанов Ш.Э. Социально-педагогическое особенности национальной модели и программы подготовки кадров: Автроферат. Дис... док. Пед. Наук –Т: Уз НИИПН.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, uzluksiz pedagogik amaliyot tizimini modellashtirishning nazariy aspektini bosqichma-bosqich holatini quyidagi jadvallar (A,V,S) yordamida ifodalash mumkin va bu o'z navbatida jismoniy madaniyat sohasida qator masalalarga oydinlik kiritadi va kelgusida barkamol, sog'lom avlod tarbiyalashda shu soha mutaxassislarga nazariy asos sifatida xizmat qiladi⁷.

Uzluksiz pedagogik amaliyot jarayonining vazifalari:

- bo'lajak mutaxassisga o'z vazifalarini bajarish uchun zarur bilimlarni chuqurlashtirish, ko'nikma va malakalarni shakllantirish;
- ta'lim oluvchilar, hamkasblar, ota-onalar bilan shaxsga yo'naltirilgan hamkorlikni ta'minlaydigan muloqot usullari va taktikasini egallash;
- muassasa ta'lim jarayonida ijodiy kasbiy pozitsiyani shakllantirish;
- ma'lum yosh davrida pedagogning ustuvor vazifalariga va o'quvchining individual xususiyatlariga pedagogik texnologiyalarni tanlash qobiliyati;
- bo'lajak pedagogning Men-konsepsiyasini shakllantirish;
- talabalarda pedagogik refleksiya va o'z-o'zini anglash amalda o'z-o'zini takomillashtirish ehtiyojini rivojlantirish;
- o'quvchilar shaxsi va faoliyatini tashxislash vositalari va metodlarini egallash⁸.

A) Mutaxassis tayyorlash




2000. Абдулина О.А. Общепедагогическая подготовки учителя системе высшего педагогического образования. М. 1990. С.7. 27.
 7 Sayidahmedov N. Pedagogika amaliyotida yangi texnologiyalarni qo'llash namunalari – T: Yangi asr avlodi. 2001.
 8 Sayidahmedov N., Ochilov A. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. T: 1999.

<p>Kasbiy tayyorgarlik jarayoni qonuniyatlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> ✓ uzluksiz pedagogik amaliyot jarayonida bo'lajak mutaxassislar kompetentligini shakllantirish; ✓ bo'lajak mutaxassisning kasbiy-pedagogik faoliyatida nazariy va amaliy bilimlarni ushbu sohada amalga oshirish; ✓ ta'lim jarayonini izchil bosqichlarini loyihalashtirishda nazariy metodlar va amaliy jarayon asosida tashkil etish 	<p>Taymechlar:</p> <ul style="list-style-type: none"> ✓ talabalar kasbiy tayyorgarlik jarayonini isroqparvarlash-trish; ✓ demokratlashtirish; ✓ madaniyatga muvofiq; ✓ tabiatga muvofiq; ✓ kasbiy maqsadga muvofiq; ✓ pedagogik loyihalashtirish; ✓ amaliy pedagogik faoliyatning uzluksizligi; ✓ nazariya va amaliyot birligi; ✓ pedagogik refleksiya; ✓ kasbiy tayyorgarlikning ko'p bosqichlilikgi; 	<p>Vazifalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> ✓ bo'lajak mutaxassisga o'z vazifalarini bajarish uchun zarur bilimlarni chuqurlashtirish, ko'nikma va malakalarni shakllantirish; ✓ ta'lim oluvchilar, hamkasblar, ota-onalar bilan shaxsga yo'naltirilgan hamkorlikni ta'minlaydigan muloqot usullari va taktikasini egallash; ✓ muassasa ta'lim jarayonida ijodiy kasbiy pozitsiyani shakllantirish; ✓ ma'lum yosh davrida pedagogning ustuvor vazifalariga va o'quvchining individual xususiyatlariga pedagogik texnologiyalarni tanlash qobiliyati; ✓ bo'lajak pedagogning Men-konsepsiyasini shakllantirish; ✓ talabalarda pedagogik refleksiya va o'z-o'zini anglash amalda o'z-o'zini takomillashtirish ehtiyojini rivojlantirish; ✓ o'quvchilar shaxsi va faoliyatini tashxislash vositalari va metodlarini egallash
--	---	--

Pedagogik faoliyatni amalga oshirish shartlarining mazmuni:

- tashkiliy ishlar;
- o'quv-metodik ishlar;
- sport-ommaviy ishlar;
- JM-sog'lomlashtirish ishlari;
- tarbiyaviy ishlar;
- ilmiy-tadqiqot ishlari;
- targ'ibot-tashviqot ishlari.

B) Kasbiy faoliyatga tayyorgarlik



Qoniqsiz daraja, mazkur darajaning xususiyati shundaki, pedagogik mahorat talaba tomonidan anglanmagan bo'ladi, unda talaba taxminiy faoliyat olib boradi. Talabalarda o'z mutaxassisligi va boshqa sohalaridan tayyorgarlik darajasi belgilangandan past bo'ladi, mustaqil tarzda pedagogik vazifalarni qo'ya olmaydi va ularning yechimini topa olmaydi.

Qoniqarli daraja, kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni ifodalaydi. Bu darajada talaba o'z malakasini ifoda etishi, o'zini va o'quvchilarni maqsad va vazifalardan kelib chiqib rejalashtira olishi lozim; kasbiy faoliyatini amalga oshirish kerak, ya'ni o'z rejasi asosida va ko'zlangan maqsadga erishish lozim; o'qituvchilar, murabbiylar, amaliyotchi-talaba va albatta o'z faoliyatini tahlil qilish dardor. Biroq mazkur darajadagi talabalarda kasbiy mahoratni ifodalashda chegara bo'ladi, ular berilgan ko'rsatmani bajarishi lozim.

O'rta daraja, bu darajada talabning harakatlari aniq ifodalanadi. Uning kasbiy faoliyatdagi harakat samarasining sifati ko'zga yaqqol tashlanadi, ya'ni kasbiy faoliyatdagi mahorati orqali ifodalanadi. Yana mazkur darajaga yetgan talaba pedagogik vazifalarni yechimini topadi, uni aniqlashda u o'zining ijodkorlik qobiliyatiga tayanadi.

Yuqori darajadagi talabning o'ziga xos jihati, u nazariy bilim malakasining yuqori darajadagi sohib egasiga aylanadi va pedagogik faoliyati davomida o'z fikrini to'liq, ravon ifodalab beradi. Jumladan, uning malakasini shuni taqozo etadiki, o'z faoliyati tuzilishini oldindan ko'ra biladi va uni rejali amalga oshiradi⁹.

Shuni takidlash kerakki, jismoniy madaniyat talabalarini uzluksiz pedagogik amaliyoti jarayonini modellashtirish umumiy ma'noda shu o'rganilayotgan jarayonni soddalashtirilgan ko'rinishi. Biroq kasbiy tayyorgarlik jarayonini soddalashtirish shu darajada murakkab bo'ldiki, biz uni so'z bilan ta'riflangan modelidan tashqari (tarkibni ifodalovchi, barcha aloqa va qurilish munosabatlarini va o'rganilayotgan obyektini ajratilgan funksional tarafi) yana sxemali jihatini ham ko'rib chiqdik va uni ham (A,B,C) ifodaladik. Undan foydalanish natijasida talabalarni kasbiy tayyorgarlik metodikasining tuzilishini batafsilroq ko'z oldimizga keltirish oson bo'ldi¹⁰.

⁹ Rustamov L.X. Uzluksiz pedagogik amaliyotni takomillashtirishning nazariy asoslari. Monografiya. Toshkent 2017 y.
¹⁰ Rustamov L.X. Uzluksiz pedagogik amaliyotni tizimlashtirish. Metodik qo'llanma. Toshkent 2012 y.

KEKSA AYOLLARGA MOSLASHTIRILGAN SAYR-SAYOHATLARNING SOG'LOMLASHTIRUVCHI XUSUSIYATLARI

Turg'unboi Xoldarov - p.f.n., professor v.b. Jizzax davlat pedagogika universiteti
Azad Rajabovich Kazakov - dotsent, Nukus davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Maqola mazmunida mahalla xotin-qizlarini sayr-sayohatlar orqali chiniqtirish, sog'ligini mustahkamlash sog'lom turmush tarzini to'g'ri tashkil qilishga qaratilgan fikrlar ilmiy jihatdan asoslangan turistik ma'lumotlar berilgan.

Аннотация: В содержании статьи дана научно обоснованная туристическая информация, которая направлена на обучение женщин через прогулки, укрепление их здоровья, организацию здорового образа жизни.

Abstract: The content of the article provides scientifically based tourist information, which is aimed at teaching women of the microdistrict through walks, strengthening their health, and organizing a healthy lifestyle.

Kalit so'zlar: sayr, sayohat, yurish, yugurish, kompas, turistik jihozlar, ekologiya va hokazo.

Ключевые слова: прогулка, туристическое снаряжение, экология.

Keywords: walk, travel, walk, run, compass, tourist equipment, ecology.

Insonlarning jismoniy jihatdan doimo faol harakatlanib yurishida jismoniy mehnat, tabiiy harakatlar (yurish, yugurish, sayr-sayohat va hokazo) va maxsus mashqlar (maqsadli jismoniy tarbiya) muhim o'rinda turadi. Bu ijtimoiy tarbiyaviy jarayonlarda sayr-sayohatlarining (turizm) o'ziga xos o'ri va mohiyati mavjud. Hayot va ijtimoiy madaniyat turmushda sayr-sayohatlar insonlarning yoshi, jinsi va kasbini tanlamaydi. Faqat unga qiziqish, astoydil shug'ullanish asosida muayyan salomatlik darajalarni talab etadi. Lekin, shunday bo'lsa-da sayr-sayohatlarining joylari, tabiat manzaralari shahar-salomatlikni mustahkamlashda ma'lum bir talablarni qo'yadi. Masalan: maktab va litsey, kasb-hunar kollejlari o'quvchilari, oliy ta'lim muassasalari talabalar uchun o'lkani o'rganish, tabiatni muhofaza qilish, noyob gullar, daraxtlarni izlab topish, ekologik vaziyatlarda ishtirok etish kabi vazifalar oldinga qo'yiladi¹. Tabiiyki, bu jarayonlar faol harakatsiz amalga oshmaydi. Shu sababli yoshlar jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lishi, sayohatlarda esa uni kamolotga yetkazishi lozim bo'ladi. Keksa ayollar va erkaklar esa reja asosida rasmiy ravishda (putyovka orqali) yoki tanlangan tabiat manzarasida erkin dam olish uchun sayr-sayohatlar o'tkazishmoqda.

Ta'kidlanganidek, sayr-sayohatlar ishtirokchidan faol harakat qilishni (yugurish, yuk ko'tarish tog'larga chiqish, turli to'siqliklardan o'tish) talab etiladi. Bunda kekxa ayollarga monand (mos, xos, to'g'ri)

bo'ladigan sayr-sayohatlarining turlari, me'yor va talablari bo'ladi. Bu jarayonlarni ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish hozirgi davr talablaridan biri bo'lib hisoblanmoqda. Tadqiqotning ushbu muammoga qaratilishi mavzuini dolzarbligini bildiradi.

O'zbekiston tabiati va manzaralariga sayohatlar uyushtirishda kekxa ayollar uchun manzur bo'ladigan faol jismoniy tarbiya vositalaridan foydalanish yo'llarini asoslash tadqiqot ishining maqsadi hisoblanadi. Shu asosda quyidagi vazifalarni o'z oldimizga qo'yganimiz, ya'ni:

1. Sihat-salomatlikni saqlash va yaxshilashda sayohatlarining ijtimoiy-tarbiyaviy xususiyatlarini o'rganish.

2. O'zbekiston tabiatida sayohatbop manzillarining sharoitlari bilan tanishish.

3. Kekxa ayollar uchun sayohatlardagi faol harakatlarning turlarini ishlab chiqish va tavsiya etish.

Tadqiqot jarayonlarida quyidagi uslublariga amal qilindi: Sayohatlar (turizm) bilan bog'liq bo'lgan rasmiy hujjatlar maxsus adabiyotlar bilan tanishish, tahlil etish;

Ayollarning sayohatlarga bo'lgan qiziqish va e'tiqodlarini aniqlash maqsadida suhbat, savol-javoblar o'tqazish;

1. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida" qonun va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining turizm bo'yicha kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish masalasi bo'yicha qator qarorlari asosida viloyatlarida olib borilayotgan ko'p qirrali xizmat

¹ Abdumalikov R. Xoldarov T. Turizm, o'quv qo'llanma, T. O'qituvchi; 1988.

faoliyatlar aholi o'rtasida sayr-sayohatlarni ko'paytirishga katta yo'l ochib bermoqda. O'quvchi va talaba-yoshlar, ayniqsa jismoniy tarbiya va sport faoliyati bo'yicha kadrlar tayyorlash uchun qo'llanilayotgan sayohat turlari bo'yichagina emas, aholining barcha qatlamlari, toifalariga (ayollar) qo'llanma sifatida xizmat qiluvchi manbalar oz emas². Ular orasida R.Abdumalikov, T.Xoldorov hamda R.I.Qosimova kabi mahalliy mualliflarning ishlab chiqqan o'quv qo'llanmalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta'kidlash joizki, sayohatlarning (turizm) shakl jihatdan turlari, maqsad va vazifa hamda mazmun jihatdan bir biridan jiddiy farg qiluvchi xususiyatlari mavjud. Yani sayr (ekskursiya) va sayoxat (piyoda yurish) jarayonlarida asosan tomosha, tarixiy-madaniy obidalar bilan tanishish, o'rganish, o'lkani o'rganish, tadqiqotlar o'tkazish (biologiya, tibbiyot sohalarida dorivor o'simlik, giyohlarni topish) qo'riqxonalar, o'rmon xo'jaligi xodimlari va mehnatkash aholiga ko'maklashish (hashar kabi) amaliy faoliyatlar tashkil etishmoqda. Ularning tarkibi va mazmunida sog'lomlashtirish, jismonan chiniqish, madaniy hamda ma'rifiy tadbirlarni qo'llash kabi ijtimoiy-tarbiyaviy jarayonlar mujassamlashadi.

Yangi O'zbekiston sharoitida ishchi-xizmatchi, ziyoli va mehnat faxriylari hordiq chiqaradigan dam olish, sog'lomlashtirish maskanlari ko'paymoqda. Ularning faoliyatida esa go'zal manzarali, diqqatga e'tiborli joylarga sayr-sayohatlar (ulov va piyoda shaklida) qiziqarli ravishda tashkil etilib, yil sayin dam oluvchi, hordiq chiqaruvchi ayollar va erkaklar soni ko'paymoqda. Ayniqsa, oilaviy ravishda ishtirok etish, mustaqil ravishda oila bilan xushmanzarali joylarga bir kunlik hamda tunab kelish sayohatlari mazmunli o'tkazilmoqda.

2. "O'zbekiston tabiati", "O'zbekiston milliy bog'i", "Buyuk ipak yo'llari" kabi turkumdagi telefilmlar, O'zbekiston teleradiokompaniyasi mahsulotlaribo'libulardago'zalmanzarali joylar, sihatgohlar, oromgohlar, sayohatbop manzillar namoyish etilib, aholining sayohatlarga bo'lgan qiziqishi hamda amaliy faoliyatlarni ko'paytirmoqda. Ayniqsa: Toshkent viloyati hududlaridagi Xumson, Chorbog', Oqtosh, Soyliq, Chimyon, Beldersoy, Kumushkon kabi dam olish, oromgohlar, sihatgohlar diqqatga sazovardir. Maftunkor Farg'ona vodiysidagi xushmanzarali joylar (Shohimardon, Arslonbob, Chotqol, Chimyon va h.k.) barchaning havasini oshiradi; Ikkinchi Shvetsariya deb nom olgan "Zomin sharsharasi" milliy bog'i (Jizzax viloyati) va Nurota tizma tog'lari orasidagi tabiat manzaralari (Qo'riqxonalar) eshitgan kishini o'ziga chorlaydi; Zarafshon sohillari, Omonqo'ton o'rmonlari (Samarqand viloyati)

faqat mahalliy va Respublika aholisininggina emas, hatto chet el turist-mehmonlarini ham lol qoldiradi; Surxondaryo va Qashqadaryo tog' manzaralarida sharsharalar, noyob dorivor o'simlik hamda mevali daraxtlar ishtirokchilari zavq bag'ishlaydi.

Yuqorida zikr etilgan tabiat manzaralari, ularda joylashgan sog'lomlashtirish maskanlari u yoki bu shakl hamda mazmunida Sirdaryo, Zarafshon, Amudaryo etaklari, Buxoro, Navoiy, Qizilqum cho'llarida ham o'ziga xos xususiyatlarni kasb etmoqda.

3. Sog'lomlashtirish oromgohlari, sihatgohlar va erkin holda dam olish kunlari sayr-sayohatga chiqib turuvchilar bilan suhbatlarining natijalariga asoslanilsa: Har yili bahor va yozgi paytlarda borib-qaytish (25-30%), tunab kelish (25-30%), ko'p kunlik (bir hafta va undan ortiq) sayohatlarda ishtirok etuvchilar ko'paymoqda; Sayohatlardan jismoniy (70-75%) ruhiy (60-65%) oziqa olish kayfiyatlarini yaxshilaydi (75-80%) ertangi kun ishlari (70-75%) va turmush yumushlariga (75-80%) yanada tetik bo'lib yurishadi.

Oyoq og'riqlari (60-65%), belning sanchishlari (55-60%) hatto yurak xurujlari (45-50%), nafas siqilishlari (80-85%) sayohat jarayonlarida bezovta qilmaydi (50-55%) keyingi davrlarda ham (7-8 oy davomida) o'zini tetik, baquvvat sezishadi (60-65%).

Keksa ayollar orasida sayr-sayohatga (oromgoh, sihatgoh va erkin sayohatlarda-oilaviy chiqish) qiziqish va faol ishtirok etishga moyil (xohish) qilmaydiganlar ko'proq topildi, chunki tana a'zolarida muayyan bir dard asoratlarning saqlanishi (45-50%). Vazning og'irligi ko'p yurish, balandliklarga chiqishga yo'l bermaydi (60-65%). Manzaralarni o'tirib yoki o'zgina (300-400 metr masofa) yurib tomosha qilishni xush ko'radi (70-75%). Har kuni ertalab va kechki paytlarda sof havoda sayr qilish yoki 6-8ta mashq bajarishni o'ziga ep ko'rmaydi (65-70%). Sayr-sayohatlarning (sof havo, xushmanzarali joylarda yurish). Sog'lomlashtirish xususiyatlarni (tetik, harakatlanganlik, quvonch baxsh etuvchi omillar) yaxshi bilmaslik (50-55%); Jismoniy tarbiya, sayohat va ular bilan bog'liq bo'lgan qo'llanmalarni o'qimaslik (70-75%), o'z sog'lig'iga be'e'tiborlik (50-55%)³.

4. Yurtimizda ayol zotini ulug'lash va e'zozlash davlat tasarrufidagi muhim jarayonga aylantirish. Ularning sog'lig'ini yanada mustahkamlash, oila tayanchiga aylantirish extiyoji hisoblanadi. Bu yo'lda keksa ayollarni sihatgoh, oromgoh va ixtiyoriy ravishda mustaqil holatda oila bilan tabiat manzaralari sayr-sayohat qildirish farzandlar, mahalla faollari, xayriya jamg'arma ulashmalari,

xotin-qizlar tashkilotlari zimmasiga ko'proq yuklantirilishi va sayr-sayohatlarni har kuni uyushtirish zarur, degan xulosaga kelish maqsadga muvofiq.

Mazkur sayr-sayohatlarda keksa ayollar uchun:

Inson tanasi tuzilmalari (ichki va tashqi a'zolar) va ularning harakatchanligi, vazifalari haqida kengroq tushunchalar berish, video tasvirlar orqali jonli misollarni ko'rsatish; Tabiat in'om etgan ne'matlar (manzaralar, oziqalar, dorivor o'simliklar va h.k) va oromgoh sihatgohlardagi sog'lomlashtirish tadbirlari, sayr-sayohatlardan namunalarni namoyish etish. Shifokor, jismoniy tarbiya ta'limi namoyandalarning sog'liqni saqlash, umrlarni uzaytirish omillari haqidagi suhbatlari bilan tanishtirish; Ertalab va kunning yarmida gimnastika mashqlari, harakatli, o'yinlar, yoqimli hamda o'ynoqi raqslarni ijro etish; Oilaviy bo'lib kechki paytlarda xushmanzarali bog'lar, xiyobonlarda sayr qilish. Teleko'rsatuvdagi sog'lomlashtirish mashqlari, sayr-sayohatlarni doimo ko'rib borish, ularni amalda bajarish. Tibbiyot, jismoniy tarbiya ta'limi va badiiy asarlarda tasvir etilgan uzoq umr ko'rishga doir ma'lumotlarni o'qish, amal

qilish. Xalqimiz, millatimizga erish (noo'xshov noodatiy) bo'lgan bazi bir illatlardan (kiyinish, uyalish, tortinish, dangasalik, zebu-ziyatga botib go'ddayib yurish va h.k) qutilish;

Salomatlik yo'lida zarur, ehtiyojlar natijasida sport kiyimlarini kiyish, o'yin maydonlari (turar joylar) va xiyobonlar sayr qilish, yugurish, raqslarga tushish (musiqa ostida) maqsadga muvofiqdir.

Xulosa shundaki, keksalarni e'zozlash mazmunida ularga eng zarur shart sharoitlar yaratib berish:

-salomatlikni saqlash va uzoq umr ko'rishda ularning sog'lomlashtirish markazida shug'ullanish tavsiya qilinadi.

-mahalla xotin-qizlarini oromgoh va sihatgohlarga doimo borish uchun zarur imtiyozlar, yo'llanmalar berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

-mahalla xotin-qizlarini shaharga yaqin bo'lgan istirohat bog'lariga, tabiat qo'yniga 5-6km li sayohatlar o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

-xotin-qizlar sayohati davomida turli (sport o'yinlari, harakatli o'yinlar va h.k.) tashkil qilish salomatligini mustahkamlaydi.

МЕТОДИКА ПОДГОТОВКИ КОМПЕТЕНТНЫХ СПЕЦИАЛИСТОВ В ОБЛАСТИ ФУТБОЛА В УСЛОВИЯХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА

Дамир Канганович Исмагилов - д.ф. по п.н., (PhD) доцент, Узбекский государственный университет физической культуры и спорта

Аннотация: В статье анализируются эффективные научно обоснованные методы подготовки студентов (тренеров) на базе вуза физической культуры.

Аннотация: Maqolada jismoniy tarbiya universiteti bazasida talabalarni (murabbiylarni) tayyorlashning samarali ilmiy asoslangan metodlari tahlil qilinadi.

Abstract: The article analyzes effective science-based methods of training students (coaches) on the basis of a higher education institution of physical culture.

Ключевые слова: биоимпедансный метод, тренерские курсы «С», Polar.

Калит so'zlar: biopendans metodi, murabbiylik kurslari, Polar

Keywords: bioimpedance method, coaching courses, Polar.

Специализация по футболу при рациональной организации и финансировании в обозримом будущем может преобразиться в эффективную систему подготовки квалифицированных специалистов в области футбола¹. В связи с возрастающей нехваткой специалистов в области футбола разработка и поиск новых модифицированных и комплексных методических программ повышения образовательного уровня и профессиональной квалификации участников

(студентов) образовательного процесса УзГУФКС является важным направлением деятельности кафедры «Теории и методики футбола». Современная образовательная система подготовки тренерских кадров требует корректировки, а создание тренерских курсов на категорию «С» может в этом вопросе выступать в качестве отправной точки по привлечению к образовательному процессу студентов, заинтересованных в качественном обучении на тренера. Примеры

¹ Исмагилов Д.К. Инновационная технология подготовки юных футболистов групп начальной специализации.: Современные технологии подготовки одарённых футболистов групп предварительной подготовки и начальной специализации. Учебное пособие. Чирчик. УзГУФКС. – 2021.– 103с.

² Qosimova R. A. Turizm va o'qitish metodikasi, T., Alohachi., 2008

³ Холдорев, Т., & Туленова, Х. Б. (2007). Теоретические и практические основы физической культуры, физической культуры, спорта, туризма, национальных игр. Издательство ТДУ.

успешного взаимодействия студентов в образовательной деятельности футболистов уже имеются в международной образовательной практике в образовательных институтах Швеции (<http://www.life-hockey.ru/publikatsi/analitika/26-sistema-khokkeya-v-shvetsii>) и Северной Америки (N. Ewell, NCAA hockey in the olympic men's to moment (N. Ewell – College hockey (inc 2014-15p)). Целенаправленное педагогическое воздействие и рациональное планирование позволяют студентам совмещать образовательный, учебно-тренировочный и соревновательный процессы, и позволяет повышать образовательный уровень и профессиональное трудоустройство в сфере футбола непосредственно в процессе обучения в университете без прекращения занятий спортом. Такая организация образовательного процесса позволяет студенту начинать практическую деятельность, как во время своего обучения, так и непосредственно после его окончания.

В настоящее время постоянно растёт уровень требований к профессиональной подготовленности футболистов высокой квалификации².

Рост этих требований обусловлен развитием игровой деятельности и научно-техническим прогрессом с одной стороны, несущим в себе новые технологии, направленные на повышение качества подготовки футболистов, с другой стороны.

По результатам опытно-экспериментальной работы с помощью методов математической статистики были выявлены различные сведения об особенностях выполнения технико-тактических действий юными футболистами и высокой квалификации в процессе соревновательной деятельности. С использованием современной аналитической системы «Wyscout» фиксирующей игровую деятельность футболистов и анализирующей технику – тактические действия как отдельного игрока, так и команды в целом.

Ввиду применения больших и соревновательных нагрузок у футболистов наблюдается перенапряжение регуляторных систем организма, поэтому появляются отрицательные сдвиги в деятельности сердечно – сосудистой системы. Для этого необходимо осуществлять мониторинг функционального состояния организма. В настоящее время в практике спорта с целью контроля нагрузки используются современные компьютерные технологии и программное обеспечение фирмы «POLAR».

Биоимпедансный анализ (БИА) – это зарекомендовавший себя в спортивной практике метод оценки абсолютных и относительных значений компонентов состава тела, основанный на измерении антропометрических параметров и составляющих электрического импеданса участка тела спортсмена – активного сопротивления³.

Для оценки и контроля функционального

состояния и тренировочного режима юных спортсменов широко применяют метод композиционного состава тела, который позволяет определить: длину и массу тела, жировую массу тела, тощую массу тела, общую жидкость, скелетно-мышечную массу. В игровых видах спорта характеризуются дифференциацией величин мышечной и жировой массы в соответствии с игровым амплуа. В каждом виде спорта складывается специфическая морфологическая модель, являющаяся базовым преимуществом для успешной подготовки.

Успешность выступления футболиста на соревнованиях требует не только высокого уровня физической, технической, тактической подготовки, но максимального задействования психических функций, лежащих в основе психологической подготовленности юноши. Важно отметить, что именно психологический фактор играет решающую роль в напряжённых поединках.

1. В условиях перестройки подготовки футболистов, тренерам необходимо овладеть новыми формами и методами, эффективными средствами на основе педагогического творчества, новаторства, экспериментальных поисков с использованием инструментальных методик. Умелое владение современными методами обучения и совершенствования.

(Тренерские курсы «А», «В», «С») совместно с Ассоциацией Футбола Узбекистана и Узбекским государственным университетом физической культуры и спорта

2. Интерпретация и оптимизация обучения и совершенствования, создания аналитического отдела, организация педагогического процесса, интеграция научных исследований, приведёт к перестройке стиля работы тренерского состава и повышению качества подготовки одарённых юных футболистов.

3. В то же время участие юных футболистов в международных турнирах – это одно из ведущих средств подготовки спортсменов. Известно, что игра рассматривается как итог учебно-тренировочной работы. В процессе игровой деятельности развиваются и совершенствуются составляющие интегральной подготовленности.

4. Необходимо проведение и изучение темперамента и характера юношей, для применения персонализированного подхода.

5. Применять в практике метод изучения композиционного состава тела, позволяющий оценить функциональное состояние, определить рацион питания и контролировать эффективность средств и методов учебно-тренировочного процесса.

JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO'YICHA BO'LAJAK MUTAXASSISLARGA TA'LIM BERISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI

Alisher Isaqovich Olimov - p.f.b.f.d. (PhD), dotsent Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada jismoniy tarbiya va sport sohasida mutaxassislarni kasbiy-pedagogik tayyorlash, professional kasbiy jihatlari samaradorligi, kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish shakl va usullari, kasbiy-kompetentlik sifatleri hamda ularning mohiyati izohlab o'tilgan. Kasbiy-pedagogik kompetentlikni takomillashtirish bo'yicha innovatsion maxsus dasturlar ishlab chiqishning zarurati, uning tarkibiy qismlari bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan, xulosalar taqdim qilingan.

Аннотация: В данной статье описаны профессионально-педагогическая подготовка специалистов в области физической культуры и спорта, эффективности профессиональных аспектов, формы и методы совершенствования профессиональной подготовки, качества профессиональной компетентности и их сущности. Обоснована необходимость разработки инновационных специальных программ повышения профессионально-педагогической компетентности, разработаны предложения и рекомендации по ее компонентам, представлены выводы.

Abstract: This article describes the professional and pedagogical training of specialists in the field of physical culture and sports, the effectiveness of professional aspects, forms and methods of improving professional training, the quality of professional competence and their essence. The necessity of developing innovative special programs for improving professional and pedagogical competence is substantiated, proposals and recommendations on its components are developed, and conclusions are presented.

Kalit so'zlar: sport, talabalar, jismoniy tarbiya, jismoniy tarbiya o'qituvchilari, fan, kasbiy tayyorgarlik.

Ключевые слова: спорт, студенты, физическое воспитание, учителя физической культуры, наука, профессиональная подготовка.

Keywords: sport, students, physical education, physical education teachers, science, professional training.

Jismoniy tarbiya va sport sohasida muntazam shug'ullanadigan fuqarolarning xalqaro standartlarga muvofiq kompleks sonini oshirish, 68-maqсад: Olimpiya bilimlarga ega malakali kadrlar tayyorlash va Paralimpiya harakatini rivojlantirish² sifatini yaxshilash, sportda ilm-fanni jadal rivojlantirish, yuqori malakali raqobatbardosh trener-o'qituvchilar, mutaxassislar hamda ilmiy xodimlarni tayyorlash jarayonlarini yanada takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-noyabrdagi PQ-4877-son "Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori¹, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi Farmonining 67-maqсад: Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanadigan fuqarolarning sonini oshirish, 68-maqсад: Olimpiya va Paralimpiya harakatini rivojlantirish² masalalari belgilab berilgan ushbu vazifalarini bajarishda jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarning alohida o'rni bor. Bo'lajak jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislari turli ijtimoiy-pedagogik va ijtimoiy-madaniy sharoitlarda kasbiy faoliyatga tayyor bo'lishlari lozim. Jismoniy tarbiya va sport sohasida pedagog kadrlar tayyorlash, soha uchun yetuk kadrlar tayyorlash, o'quv-malaka, bilimlarini zamon talablari asosida oshirib borish muhim muammolardan biridir. Oliy o'quv yurtlarida mutaxassislarni tayyorlash jarayonini takomillashtirishga va ularning kasbiy tayyorgarligiga qo'yilgan davlat

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-noyabrdagi PQ-4877-son "Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.11.2020 y., 07/20/4877/1451-son.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son.

² Исмагилов Д.К. Исследование интегральной подготовленности футболистов на этапах становления спортивного мастерства.: Монография УзГУФКС – Чирчик. 2022. 107с.

³ Кошбахтиев И.А. Информационное обеспечение образовательного процесса по физическому воспитанию студентов. Учебное пособие. Т.2004. -108 с.

ta'lim standartlari talablarini amalga oshirishga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy faoliyatga oid o'quv-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishning shakl, metod va vositalari, yangi innovatsion texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash, ixtisoslik fanlaridan bo'lajak mutaxassislarini kasbiy bilim ko'nikmalarini oshirish uchun o'quv-uslubiy ta'minotlarni yaratish kabi ishlarining yetarli darajada olib borilmayotganligi ishimizning dolzarbligini belgilaydi.

Jismoniy tarbiya o'qituvchisi, sport murabbiyi, jismoniy tarbiya o'qituvchisining muvaffaqiyatli faoliyati asosan uning kasbiy mahorati darajasiga bog'liq. Bo'lajak bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligi qanchalik yuqori bo'lsa, uning malakali mutaxassis bo'lish ehtimoli shunchalik yuqori bo'ladi. Kasbiy faoliyatda barcha kasbiy ko'nikmalarining birikmasi o'qituvchining kasbiy mahoratini belgilaydi. Bu jismoniy tarbiya va sport bo'yicha bo'lajak mutaxassislarini tayyorlashning shartlaridan biridir chunki pedagogik kompetentlik ta'lim bilan bog'liq bo'lgan keng ko'lamlı pedagogik, psixologik, ijtimoiy, sog'liqni saqlash va boshqa muammolarni tushunishni talab qiladi³.

Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini tayyorlashning asos soluvchi omillaridan biri jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi asosiy o'quv fanlari, sport-pedagogik, tibbiy-biologik va psixologik fanlarning o'zaro aloqadorligi hisoblanadi. Ushbu fanlar bo'lajak mutaxassisning kasbiy faoliyati asoslarini chuqur nazariy tushunishni ta'minlaydi, asosiy nazariy qoidalarni amalga oshirishga oshirish qobiliyatini singdiradi, nazariya asoslarini amaliy amalga oshirish nuqtayi nazaridan har bir fanning o'ziga xos xususiyatlari bilan to'ldiradi.

Jismoniy tarbiya va sport mutaxassisi bir qator biotibbiyot fanlari bo'yicha ko'p qirrali bilimga ega bo'lishi kerak, chunki u tayanadigan tamoyillar va qoidalar, ko'pgina hollarda harakatchan faoliyatning qonuniyatlari, harakat ko'nikmalarining hosil bo'lishi, tana shakllarining va organizm funksiyalarining rivojlanishiga asoslanadi. Inson fiziologiyasi, sport tibbiyoti, shuningdek, anatomiya, biomexanika, sport gigienasi kabi fanlar tavsiyalardagi muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklarning asl sabablarini aniqlashga, yuklamani to'g'ri boshqarishga,

kerakli mushak guruhlarini rivojlantirishga, ichki organlarning funksiyalarini yaxshilashga ta'sir qilishga, kun tartibi bo'yicha oqilona maslahatlar berishga, o'z-o'zini nazorat qilishni tashkil etish va ularga ongli ravishda va o'z vaqtida tuzatishlar kirita olishga yordam beradi.

Milliy va hududiy farqlar bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan ma'ruzalar, seminarlar, amaliy mashg'ulotlar, pedagogik amaliyot va amaliyotlar turli mamlakatlarda bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini kasbiy tayyorlashning asosiy shakllari bo'lib qolmoqda. Hozirgi vaqtda bu o'qitish shakllari innovatsiyalar ta'sirida ma'lum o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. U videoma'ruzalar, vizualizatsiya ma'ruzalari, loyiha asosidagi seminarlarni joriy etishni nazarda tutadi. Aksiologik yondashuvlar asta-sekin atletik va jismoniy mahorat o'rnini egallaydi. Shu bilan birga, individuallashtirish guruh faoliyatidan ustun turadi. Shunga ko'ra, baholash usullari o'zgartirilishi va mavjud standartlar, shaxsiy sifatlari va fazilatlarini hisobga olgan holda, ularning harakat ko'nikmalarini tekshirish emas, balki o'quvchilarning jismoniy va nazariy-metodik kompetensiyalarini baholashga qaratilgan bo'lishi kerak. Bundan tashqari, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari ta'lim jarayonini samarali tashkil etishlari uchun o'qitish va baholash usullarini individuallashtirish va shaxsiylashtirish muhim ahamiyatga ega⁴.

Bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassisi ushbu fanlarning hozirgi holatidan xabardor bo'lishi kerak. O'z bilimlarini doimiy ravishda to'ldirish, jismoniy rivojlanishdagi o'zgarishlarni aniqlash uchun antropometrik tadqiqotlar metodologiyasini, charchoq darajasini aniqlashning fiziologik usullarini, vosita fazilatlarining rivojlanish darajasini va boshqalarni o'zlashtirish kerak.

Boshqa mutaxassislik o'qituvchilaridan farqli o'laroq, sport murabbiyi umumiy psixologiya va sport psixologiyasi masalalarida bilimdon bo'lishi kerak. Musobaqa sharoitida sportchilarning harakatlarining muvaffaqiyati pirovard natijada ularning qat'iyatiga, salbiy his-tuyg'ularni bostirish, irodasini safarbar etish va qiyinchiliklarni engish qobiliyatiga bog'liq. Sport o'qituvchisi har qanday vaqtda nafaqat alohida sportchining, balki jamoaning, butun jamoaning psixologik holatini to'g'ri baholay olishi va ularga to'g'ri yo'nalishda ta'sir

³ Федотенко, И. Л. Подготовка будущих бакалавров физической культуры к превентивной профессионально-педагогической деятельности // Теория и практика физической культуры. - 2015. - № 3. - С. 57-61.

⁴ Shapran, Y., Shapran, O., Raytarovska, I., Rybalko, P., Romanenko, V., & Halaidiuk, M. (2022). Forms and Methods of Future Physical Education Teachers' Training: An Analysis of Foreign Experience. Revista Romaneasca Pentru Educatie Multidimensionala, 14(1Sup1), P.127-144.

ko'rsatishi kerak.

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha bo'lajak mutaxassis uchun kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun nazariy va amaliy fanlardan chuqur bilimlarni egallashi lozim – sport pedagogikasi, jismoniy tarbiya metodikasi, tanlangan sport turining zamonaviy texnologiyasi, uni o'qitish metodikasi, mashg'ulotlarni tuzish va zarur pedagogik va tashkiliy ko'nikmalari. Sport va gimnastika mashqlari – sport o'qituvchisining o'z o'quvchilariga ta'sir qilishning asosiy vositasidir. O'qituvchining xotirasi ushbu mashqlarning ko'p sonini, shuningdek ularning kombinatsilarining ko'plab tizimlarini, bajarish variantlarini saqlash kerak, u o'ziga yuklangan vazifalarni hal qilishga, sohasining ushbu tomonlarini rivojlantirishga erisha oladi, ular tegishli sport va pedagogik samaraga erishishni ta'minlaydi.

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha bo'lajak mutaxassis kasbiy faoliyatida o'z ishiga ijodiy munosabat uni ixtirochi, olim, rassom sifatida tavsiflaydi. Uning maqsadi – g'oyaviy, kuchli, ma'naviy va jismonan sog'lom, harakatchanlik qobiliyatlari yuqori darajada rivojlangan shaxslarni shakllantirish.

Turli muammoli vaziyatlarning vujudga kelishi va o'qituvchining ularni o'z tasavvuriga asoslangan holda va nostandart tarzda hal qilish istagi zamonaviy o'qituvchining pedagogik ijodini rivojlantiradi. Pedagogik jarayonni birlashtirish – ma'lum bir namuna bo'yicha ishlash, hammaga ma'lum bo'lgan retseptlarni izlash odati – bularning barchasi o'qituvchining obro'siga salbiy ta'sir qiladi. Haqiqiy ijodkorlik ma'lumotlarning to'liqligi, ilmiy prognozi, o'qituvchining yangi usulda va ta'lim jarayonida pedagogik ta'sir ko'rsatishning turli xil vositalari, shakllari va usullarini samarali qo'llash qobiliyatiga asoslangan bo'lishi kerak.

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassis o'qituvchisining oldida vujudga keladigan muammolarni maqsadga muvofiq hal qilishning muhim sharti – bu o'quvchilarni ilmiy-tadqiqot ishlariga faol jalb etish, sport pedagogikasi muammolari bo'yicha ilmiy tadqiqot usullarini o'zlashtirish, analitik fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, doimiy bilim olishga intilishdir. Hozirgi vaqtda sport o'qituvchisining amaliy faoliyati samarali bo'la olmaydi va tadqiqot ishlariga asoslangan ilmiy

fikrlashsiz amalga oshirilishi mumkin emas.

Jismoniy tarbiya va sport mutaxassisi nafaqat ilmiy fikrlaydi, balki buni sportchilarga o'rgatadi, ya'ni ularni doimiy ravishda yangi ma'lumotlarni izlashga yo'naltiradi, ulardan narsadan voz kechib, yanada mukammalroq usullarga moyillik, innovatsiyalar ta'sirini ehtiyotkorlik bilan baholash qobiliyatini rivojlantiradi. U o'z ishida ilmiy tadqiqotlarning barcha usullaridan foydalanadi – sportchilar bilan suhbatlar o'tkazadi, ularning kundaliklarini o'rganadi, jismoniy rivojlanishni, tananing holatini va sportni yaxshilash dinamikasini tavsiflovchi bir qator o'lchovlarni o'tkazadi, kuzatish va eksperimentlarni tashkil qiladi. U sportchilarni ilmiy tadqiqotning asosiy usullari bilan tanishtirishi, ularning har biri uchun eng mos keladigan sport mashqlari texnikasini topish, uni amalga oshirishda mukammallikka erishish, harakat qobiliyatini rivojlantirish, sport mashg'ulotlarini qurish uchun kuzatishlar va o'z-o'zidan tajribalar o'tkazishga jalb qilish.

Xulosa o'rnida jismoniy tarbiya va sport bo'yicha bo'lajak mutaxassislarini tayyorlash uchun asosiy gimnastika, yengil atletika va sport o'yinlari asosida nisbatan elementar motor harakatlaridan foydalanish orqali har tomonlama jismoniy rivojlanishni ta'minlash uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni singdirish kerak. Bo'lajak jismoniy tarbiya va sport o'qituvchilarining qo'llaniladigan vosita vositalarini diversifikatsiya qilish, takrorlashning miqdoriy o'lchovi va intensivligini, mashq paytida va mashg'ulotlar oralig'ida dam olishning davomiyligi va xarakterini o'zgartirish qobiliyati ularning birlikda turli vosita sifatlarini rivojlantirishga ko'maklashadi. Pedagogika va tabiiy fanlar asoslarini egallab, jismoniy tarbiya va sport bo'yicha bo'lajak mutaxassislar keyingi kasb mahoratiga zamin yaratadi. Hozirgi kunda yuqori malakali mutaxassislariga ehtiyoj ortib bormoqda, ular o'z faoliyati turidagi uslubiy tayyorgarligi bilan bir qatorda gumanitar, tabiiy fanlar va jismoniy faoliyatning asosiy turlari bo'yicha fundamental tayyorgarlikka ega bo'lishi kerak. Ijtimoiy faollik va mehnat bozoriga ta'sir ko'rsatish va shakllantirish qobiliyati jismoniy tarbiya va sport sohasidagi zamonaviy mutaxassisning ustuvor vazifalaridan biridir.

MILLIY MUSIQIY MEROS NAMUNALARIDAN AXLOQIY-ESTETIK TARBIYADA FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Elnoza Ismatillayevna Qudratova - katta o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Maqolada o'zbek xalqining milliy musiqa merosidan yoshlarni estetik madaniyatini shakllantirish yo'lida foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari, ularni ta'lim jarayonida qo'llash imkoniyatlari haqida so'z yuritiladi.

Аннотация: В статье говорится о педагогических условиях использования национального музыкального наследия узбекского народа для формирования эстетической культуры молодежи, и возможностях их использования в образовательном процессе.

Abstract: The article talks about the pedagogical conditions of using the national musical heritage of the Uzbek people to form the aesthetic culture of young people, and the possibilities of using them in the educational process.

Kalit so'zlar: milliy musiqa merosi, mumtoz, maqom, ta'lim-tarbiya, urf-odat, an'ana, madaniy, xalq qo'shiqlari.

Ключевые слова: национальное музыкальное наследие, классика, статус, образование, обычай, традиция, культура, народные песни.

Keywords: national musical heritage, classical, status, education, custom, tradition, cultural, folk songs.

O'zbek xalqining boy tarixi, madaniyati, ma'naviy-ma'rifiy an'analarini o'zida xalqi ruhiyatini to'laqonli aks ettirishi, o'ziga xos turmush tarzi, hayotiy falsafasini ifoda etish imkoniyati bilan ijtimoiy-pedagogik, axloqiy va estetik tarbiya tizimida foydalanish bo'yicha samarali vosita sanaladi.

Insonning shaxs sifatida shakllanishida uning g'oyaviy, madaniy sifatlari muhim o'rin tutadi. Bu sifatlari ta'lim-tarbiyaning barcha yo'nalishlari bilan chambarchas bog'liq bolib, estetik tarbiyaga daxldor pedagogik-murabbiylar, tarbiyachilarning umumiy holda uzluksiz takomillashtirib borishlarini taqozo etadi. Bu o'rinda musiqa san'ati, eng birinchi galda xalq hayotining badiiy aks etuvchi xalq musiqasining imkoniyatlari beqiyosdir¹.

Har bir jamiyatning o'z madaniyati va ma'naviy omillari mavjud bo'lgani singari bizning xalqimizning milliy qadriyatlarini tizimida xalq musiqasi yangi jamiyat bunyodkorlarini tarbiyalab yetishtirishda eng asosiy omillardan hisoblanadi. Bu jihatdan xalqimizning o'tmishi, urf-odat va an'analarini, madaniy-musiqiy merosini o'rganish, tarbiya va ta'lim tizimida uning imkoniyatlaridan ta'limiy tarbiyaviy maqsadlarda foydalanish dolzarb pedagogik vazifalaridan hisoblanadi².

Umumta'lim maktablarining musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarni xalq musiqasi namunalari bilan har tomonlama chuqur

tanishtirib borish ularda milliy qadriyatlarini e'zozlash, o'z xalqi, Vatanga sodiq insonlar bo'lib yetishishlarida muhim tarbiyaviy ta'sirchan vosita bolib xizmat qiladi. Umumta'lim maktablarida o'qitiladigan musiqa madaniyati darslarini kuzatuvlarimizda shu narsaga amin boldikki, aksariyat o'quvchilarning xalq musiqasi, uning janri va shakllari, ijrochilik uslublari, mashhur ijrochilari, an'anaviy xususiyatlari, tinglash va kuylash bo'yicha malakalarini qoniqarli deb bo'lmaydi. Shulardan kelib chiqqan holda maktab musiqa darslarida o'quvchilarni xalq musiqasi merosi namunalari bilan izchil tanishtirib borish, beriladigan nazariy bilimlar va amaliy tushunchalar mazmunini belgilaydi. Musiqa madaniyati fani bo'yicha davlat ta'lim standarti va o'quv dasturida bu mezonlarga yetarlicha ta'rif berilgan bo'lsa-da, amaliy faoliyatda ular ko'ngildagidek holda bajarilmayapti deyishga har jihatdan haqlimiz. O'quvchilarga xalq musiqasi bo'yicha beriladigan kompleks bilim va tushunchalar mazmunini quyidagicha bo'lishi didaktik jihatdan to'g'ri bo'ladi:

- tuzilishi, qaysi hududlar bilan bog'liqligi haqida tushuncha berish imkoniyatiga egaligi;

- o'quvchilar - xalq musiqasi namunalari o'quvchilarning ma'naviy olami hamda xalq musiqasini tinglash va kuylashga qiziqishlarini shakllantirish;

- xalq musiqasi namunalari ularning ma'naviy olami va estetik madaniyatiga muayyan

darajada ta'sir ko'rsatish;

- xalq musiqasi, uning turli yo'nalishdagi janrlari, ijrochilik uslublari, an'analarini, kuy-qo'shiqlarining chet el musiqasi ta'sirida vujudga kelgan yengil-yelpi, mazmunan sayoz ohanglariga o'zbekcha matnlarni qo'yib aytish holatlariga qarshi his-tuyg'ularni uyg'otish³.

Haqiqatdan ham ona vatanni sevish, ardoqlash, milliy qadriyatlarini hurmat qilish insoniyat tarixi kabi qadimiy va muqaddasdir. Uning g'oyaviy, badiiy-estetik ifodasi xalqimizning milliy musiqiy an'analarida, xususan, xalq qo'shiqlari, mumtoz va maqom, dostonchilik qo'shiqlarida o'z izini qoldirgandir. Ulardan bugungi kunda musiqiy ta'lim tizimida imkon qadar keng foydalanish ta'limning milliy mazmunini boyitish va mustahkamlashga xizmat qiladi.

"Musiqa san'ati hamma zamonlarda ham qudratli tarbiya vositasi bo'lib qolganligi va bugungi kunda ham uning tarbiyaviy ta'sir imkoniyatlari tobora ortib borayotganligi ayni haqiqatdir"⁴. I.Karimov "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asarida ta'kidlaganlaridek, musiqaning hayotbaxsh ta'sirini hayotida sezmasdan yashaydigan odamlarni bizning yurtimizda topish qiyin. Eng muhimi, bugungi kunda musiqa san'ati navqiron avlodning yuksak ma'naviy ruhida kamol topishida boshqa san'at turlariga qaraganda ko'proq va kuchliroq ta'sir ko'rsatmoqda"⁵.

Shunday ekan, ta'limning barcha bo'g'inlarida, xususan, umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida o'quvchilarni milliy musiqa merosimiz namunalari bilan chuqur va har tomonlama tanishtirib borish zarur. Bu o'rinda bizningcha quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. Darsda o'quvchilar kuylashi va tinglashi uchun tanlanadigan repertuarida (dasturda ko'rsatilgandan tashqari) xalq musiqasi ijodiga oid bolalar folklor qo'shiqlari namunalari birlamchi e'tibor qaratish lozim. Chunki, bolalarda dastlabki malakalarni shakllantirishda ham bolalar xalq qo'shiqlari o'zining ohangdorligi, yengil va oson eslab qollinish xususiyati, tushunarligi, o'yinbopligi bilan qulaylik tug'diradi⁶.

2. Namunalarni ijrochilik an'analarini, janri, g'oyaviy-badiiy mazmuni, qaysi mahalliy uslubga mansubligi, yetuk ijrochilari, qanday holatda, kimlar tomonidan, qanday sozlarda ijro etilishi xususiyatlari haqida muxtasar bilim va tushunchalar, tasavvurlar beruvchi ma'lumotlar to'plash.

3. Xalq merosi namunalari folklor, mumtoz va maqom yo'nalishlari bo'yicha turli madaniy tadbirlar-konsertlar, mavzuli musiqiy kompozitsiyalar, ko'rik-tanlovlar, taniqli xonanda sozandalar bilan uchrashuvlar, ijodiy jamoalarga musiqiy sayohatlar uyushtirish kabilarni tizimli yo'lga qo'yish.

4. Xalq musiqa merosiga oid namunalarni vositasida o'quvchi yoshlarni yuksak ma'naviyat hamda estetik tarbiyalashda sinfdan va maktabdan tashqari faoliyatda olib boriladigan ta'limiy-tarbiyaviy ishlar imkoniyatlaridan foydalanish o'quvchilarni milliy musiqamizni sevish, qadrlash, kelgusida unga vorislik qiladigan shaxs sifatida kamol topishlari muhim ahamiyat kasb etish bilan milliy musiqiy ta'lim samaradorligini oshiradi⁷.

"Shu o'rinda yoshlar o'rtasida ommaviy estrada qo'shiqlarini tinglash, kuylash, tahlil qilishga haddan ziyod ruju qo'yish holatlari kuchayib borayotganligini ham musiqiy-estetik tarbiya borasidagi ishlar kutilgan natijalar bermayotganligining oqibati ekanligini ta'kidlash o'rinni bo'ladi"⁸. Bunday holatga qarshi kurashish "ommaviy musiqa" tasvirlaridan o'sib kelayotgan yoshlarni himoya qilishni yagona yo'li, ta'lim-tarbiya uchun mas'uliyatli pedagogik murabbiylarni bir maqsad yo'lida kuchlarni birlashtirgan holda milliy musiqa madaniyatimiz durdonasi bo'lmish xalq qo'shiqlari, mumtoz va maqom asarlar bilan chuqur tanishtirib, ularning ongiga, ma'naviyatiga singdirish yo'lida keng qamrovli ta'lim tarbiya ishlarini amalga oshirib borish lozim⁹. Bugungi kunda o'sib kelayotgan yosh avlodni xalqimizning o'tmishi va bugungi kunining ma'naviy-axloqiy, madaniy, estetik va badiiy ko'rinishlarini ifoda etuvchi milliy musiqa uslublari bilan, uning avlodlar osha o'z qimmatini yo'qotmay kelayotgan janrlari, ularga mansub namunalari (qo'shiq, aytim, raqs-o'yinlari, dostonchilik, mumtoz asarlar), shunga mos ijrochilik an'analarini bilan har tomonlama tanishtirib borish musiqa ta'limi va tarbiyasi oldidagi eng muhim vazifalardandir. Shu bois ham ta'lim tizimining eng muhim bo'g'inlaridan hisoblanmish umumiy o'rta ta'lim maktablarining "musiqa madaniyati" fani o'quv dastur va darsliklariga kiritilgan o'quv materiallari mazmunida xalqimizning milliy musiqa merosiga mansub asarlarga, shu jumladan ularning o'ziga xos an'analarini mujassam etgan mahalliy musiqiy uslublar haqidagi bilimlarga alohida o'rin berilgan¹⁰.

Xulosa qilib aytganda, milliy musiqiy merosining yosh va navqiron avlodni barkamol

3 Qudratov I. Boshlang'ich sinf musiqasi darsligida O'zbek xalq qo'shiqlarini o'rganish. Uslubiy qo'llanma. - Toshkent, Fan, 2007-yil.

4 Abdulkarimova E.I. "Oliy Pedagogik ta'limda bo'lajak musiqa o'qituvchilarini mumtoz musiqa vositasida amaliy faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirish" Xalq ta'limi jurnali. 2021-yil 3-maxsus son

5 I.Karimov. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. - Toshkent, Ma'naviyat, 2008-yil.

6 Sharipova G.M. Musiqa o'qitish metodikasini tuzuvchi TDPU 2003-yil. 47-bet.

7 Qudratov I., Abdulkarimova E. "Musiqa darslarida fanlararo aloqadorlik" Samarqand, SamDu bosmaxonasi, 2015-yil.

8 Ibrohimov O.A. O'zbek xalq musiqasi ijodi. Qo'llanma - Toshkent, UMNXTM nashriyoti 2004-yil. 65-bet.

9 Hamidov H. "O'zbek an'anaviy qo'shiqchilik madaniyati tarixi". - T.: O'qituvchi, 1996 yil. 10-bet

10 Abdulkarimova Elnoz Ismatillayevna. Актуальные вызовы современной науки. "Yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashda xalq musiqasi merosi qudratli tarbiya vositasi" science 2017 yil.

insonlar qilib tarbiyalashdagi o'рни tarbiya tizimida alohida mavqega ega.

SHAXS KAMOLOTINI SHAKLLANISHIDA MUSIQA VA TARBIYANING UZVIY BOG'LIQLIGI

Navbahor Xamraqulovna Xasanova - katta o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Maqolada ta'lim umumta'lim maktablarida musiqa ta'limi orqali yoshlarning musiqiy savodxonligini va estetik tarbiyasini rivojlantirishda musiqaning o'rniga oid ko'rsatmalar berilgan. Shuningdek, bugungi kunda musiqa ta'limi jarayonida o'quvchilarda musiqa san'atiga nisbatan qiziqish va havaslarining ortib borishi va bu san'atning yoshlar ma'naviy kamolotidagi ahamiyati yoritib berilgan.

Аннотация: В статье даны указания на роль музыки в развитии музыкальной грамотности и эстетическом воспитании молодежи через музыкальное образование в общеобразовательных школах. Также в процессе музыкального образования сегодня отмечается возрастающий интерес и увлеченность учащегося музыкальным искусством и значение этого искусства в духовном развитии молодежи.

Abstract: The article provides instructions on the role of music in the development of musical literacy and aesthetic education of young people through music education in general education schools. Also, in the process of music education today, the increasing interest and passion of students in the art of music and the importance of this art in the spiritual development of young people have been highlighted.

Kalit so'zlar: musiqa madaniyati, estetik tarbiya, milliy madaniyat, ta'lim muassasalari, milliy qadriyatlar.

Ключевые слова: музыкальная культура, эстетическое воспитание, национальная культура, образовательные учреждения, национальные ценности.

Keywords: music culture, aesthetic education, national culture, educational institutions, national values.

Respublikamizda ro'y berayotgan o'zgarishlar barcha sohalaridagi kabi bo'lajak o'qituvchilarning zimmasiga ham katta vazifalar yuklaydi. Hozirga kunda, musiqa madaniyati fani birdaniga shakllangan fan emas, balki murakkab taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan fan sifatida e'tirof etilmoqda. Bu ta'lim mazmunida har bir hududning san'ati va musiqa madaniyati, urf-odatlarini marosimlari, badiiy an'analarida o'z ifodasini topgan. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, hayotni va atrofdagi go'zallikni bilmay turib to'laqonli badiiy ijodni amalga oshirib bo'lmaydi.

O'quvchilarni ma'naviy dunyosini boyitish, borliqni idrok etishda uning yaxlitligi, takrorlanmasligi va uyg'unligini anglash, hayotiy tasavvurini amaliy faoliyatida ifodalash orqali tafakkurini o'stirish, ijodkorlikni rivojlantirish, innovatsion g'oyalarni yaratish hamda kundalik hayotga tatbiq etishga o'rgatish hozirgi kunning o'qituvchisi oldiga qo'yilgan dolzarb masaladir.

Shuningdek, o'quvchilarni ma'naviy,

badiiy, axloqiy madaniyatini rivojlantirib, ijodiy mahorat, badiiy-estetik didini o'stirishda, kasb-hunarga yo'naltirish bilan birga, jismonan baquvvat bo'lib, sog'lom turmush tarziga amal qilish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish aynan musiqa mashg'ulotlarida amalga oshiriladi.

Musiqa madaniyati o'quv predmeti o'quvchilarning ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini rivojlantirishga, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o'stirishga xizmat qiladi¹.

Musiqa san'ati estetik did, hissiyot, idrokning bitmas tuganmas manbaidir. Inson yuragini va aqlini zabt etuvchi maftunkor dunyosidir. Inson doimo go'zallika intilishi va kundalik hayotida shu go'zallik qoidalariga amal qilish kerak.

O'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk, komil inson qilib tarbiyalashda estetik tarbiyaga alohida e'tibor berilishi juda katta ahamiyatga ega

1 Umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturi. 2021-yil. 1-2 bet

bo'lgan jarayondir. Ushbu masalani yechishda musiqa san'atining o'рни beqiyosdir va estetik tarbiyaning eng asosiy omilidir.

Mamlakatimizning ma'naviy yuksalishi ko'p jihatdan milliy qadriyatlarimizni qayta tiklashni chuqur anglash, qalb bilan his etgan holda keng ko'lamda targ'ibot qilish, va eng muhimi yosh avlodni tarbiyalashni izchil taqozo etadi. Bu borada musiqiy qadriyatlarimiz alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, o'zbek xalqi musiqasiga mansub turfa shaklli kuy-qo'shiqlar xalqimizning chinakam bebaho ma'naviy boyliklarini tashkil etadi.

Musiqa o'zining betakror tabiati bilan o'quvchilarning ma'naviy dunyosiga katta ta'sir qilish kuchiga ega. Zero, kuy va ohang ta'sirida o'quvchilarda hissiyot olamining o'sishi, idrok va tafakkurning shakllanishi, ezgulikka intilishi, go'zallikni sevish, tabiatni asrash, oila Vatan ravnaqi uchun xizmat qilish istagi tobora ortib boradi. Musiqa tarbiyasi nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri bo'lib, atrofdagi go'zal narsalarni to'g'ri idrok etishga va qadrlashga o'rgatadi. "Musiqa ko'ngilga axloqan muayyan ta'sir ko'rsatish quvvatiga ega, hamonki, musiqa shunday xislatga ega ekan, u yoshlarni tarbiyalash predmetlari qatoriga qo'yilmog'i lozim", - deb aytgan edi qadimgi buyuk yunon faylasufi Arastu². Shunday ekan musiqiy ta'lim orqali o'quvchi-yoshlarni tarbiyalash o'ziga xos pedagogik yondashuvni talab etadi.

O'zbekiston mustaqilligi tufayli buyuk ajdodlarimizning boy tarixiy qadriyatlari, ming yilliklarni qamragan betakror va jozibali madaniyatimizga asoslangan ma'naviy merosimizni tikladi. Jamiyatimizning taraqqiyotini yuksaltirishning iqtisodiy va siyosiy omillari singari o'ta zarur bo'lgan yana bir muhim asosi borki, usiz mustaqillikni mustahkamlash, ko'zlangan ozod va obod Vatan, erkin va farovon jamiyat qurishga erishish mumkin emas. Mustaqillik iqtisodiy va siyosiy islohotlar bilan qatorda odamlar ongi va dunyoqarashida, odob-axloqi, iymon-e'tiqodi, bilim saviyasi va ruhiyatida madaniyati va ma'naviyatida tub asosli o'zgarishlar bo'lishini taqozo etadi.

Bugungi kunda musiqa insonning shakllanishida muhim rol o'ynaydi; uning hissiyoti va ruhiyatiga faol ta'sir ko'rsatadi. Umumta'lim maktablarining asosiy vaziyatlaridan nafosat olamiga olib kirish va ma'naviy tarbiya berish. Bunda o'qituvchi bolalarni muhim bir musiqa asari bilan

tanishtirib uni ifodali "jonli" qilib ijro etib, o'quvchilar diqqat e'tiborini jalb etadi, ularning nutqini o'stirish, fikrlash qobiliyatini, dunyoqarashini kengaytiradi, emotsional his-tuyg'ularga ham faol ta'sir etadi. Musiqa darslarining mazmunida faqatgina o'zlashtirish emas, balki o'quvchilar ongini, voqelikka munosabatini rivojlantirish, estetik madaniyatini tarkib toptirish va boshqa ichki his-tuyg'ularning shaklan tuzilishi nazarda tutiladi. O'qituvchining darsga ijobiy tarzda yondashishi muhim ahamiyat kasb etadi va bir qancha vazifalarni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi:

musiqa tarbiyasida yangi metod va vositalar izlaydi.

hayot va san'at o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ifodalaydi.

Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda o'qituvchi jiddiy tayyorgarlik ko'rish, o'z ustida tinmay ishlashi, ya'ni bilim saviyasini oshirishi uchun ilmiy adabiyotlar, teatr, muzeylarga borib ongini oshirish yo'llarini takomillashtirib borishi lozim³. Musiqa darslari olib boriladigan sinf xonasi namunalari jihozlangan bo'lishi muhim rol o'ynaydi. Texnika vositalari metodik ko'rgazmali qurollar pianino cholg'u asbobi va o'zbek xalq cholg'u asboblari bilan jihozlangan bo'lishi dasturdan foydalanib dars reja konspektlarini tuzib, yangi texnologiyalarni qo'llab olib borilishi kerak. Shunday qilib, musiqa darslarining barcha faoliyatlarini maqsadi va mazmuni darsni mazmunlarini yoritib, hayot bilan bog'lab darsning hamma qismlarini bir-biri bilan uzviy bog'lab olib borishini talab etiladi. Umumta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarni musiqiy madaniyatini mukammal kamol toptirish, ularni musiqiy savodxonlik malakalarini yanada yuqori saviyada rivojlantirish bugungi kunda dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Bu vazifalarni amalga oshirishning eng muhim omillaridan biri o'quvchilarni dastlabki musiqiy-nazariy bilimlarini chuqur o'zlashtirishlariga erishishdan iboratdir.

Darslarda berilayotgan dastlabki musiqiy-nazariy bilimlarni chuqur va mukammal o'zlashtirishlari ularni qo'shiq kuylash, musiqa tinglashda uni ongli idrok qilish va tahlil qila bilishlariga samarali ta'sir etadi. Shuning uchun ham har bir darsda o'quvchilarni nafaqat kuylash, musiqa tinglashga oid ko'nikma va malakalarini o'stirishga, balki, ularni musiqiy-nazariy bilimlarni, chuqur va mukammal o'zlashtirib borishlariga e'tibor

2 Тафаккур гулшани. В. Воронцов композицияси ЕФулом номидаги "Адабиёт ва санъат" нашриёти Т.: 1981-159 б.

3 Umumta'lim maktablarida musiqa ta'limi va tarbiyasi konsepsiyasi. - T.; XTV, 1995-yil.

berish va nazorat qilib borish kerak bo'ladi. Bolalikda aql-farosat, axloqiy ko'nikmalarni tarbiyalash bilan bir qatorda, ularda chiroyli, nafis, go'zal narsalardan zavq ola bilishni, go'zallikni dag'allikdan, qo'pollikdan tez ajrata olish qobiliyatini tarbiyalashimiz kerak. Musiqa mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilarni tozalikka, tartiblilikka, go'zallikni sevishga o'rgatish kerak. Buning uchun, avvalo, mashg'ulot olib boriladigan xonadagi barcha buyumlar did bilan tanlab, joylashtirilgan, toza, saramjon-sarishta bo'lgani ma'qul. Chunki, bolalarga ikki xil narsa ko'proq ta'sir qiladi. Birinchisi bolaning ko'ziga tez-tez tashlanadigan buyumlar, odamlar o'rtasidagi munosabat bo'lsa, ikkinchisi bolaning o'ziga bevosita tegishli bo'lgan narsalar – kiyim-kechak, idish-tovoqlar, kitoblar, o'yinchoqlar, yozuv stoli va boshqalardir. Bola o'z buyumlarini asrab, avaylab, toza-ozoda, saranjon-sarishta qilib yurishga o'rgansa, u yoshi ulg'aygan sayin go'zallikning murakkab ko'rinishlarini tabiatdagi uyg'unlikni, san'atdagi go'zallikni payqab olish uchun tayyorlana boradi.

Musiqa mashg'ulotlarida texnika vositalaridan foydalanish, did bilan chizilgan rasmlar, estetik badiiy asarlar va sahna o'yinlari orqali bola ongiga singdirib boriladi. Shuningdek turli janrdagi badiiy asarlarni o'rganish, so'zlarni yodlash, jumladan, ertak, rivoyat, hikoyalarni o'rganish orqali bola so'z qudratidan zavqlanadi, hayajonlanadi, ta'sirlanadi. O'zini sirli voqealar ichida yurgandek his etadi, butun vujudi quloqqa aylanadi, turli kechinma, kayfiyat, his-tuyg'u qalbini qamrab oladi. So'z qudrati uni sehrlab, butunlay o'ziga jalb etadi, ergashtiradi. Musiqa ohangi yordamida idroki oshadi.

Respublikamiz taraqqiyoti va o'zgarishlarga boy hozirgi paytda yoshlarning har tomonlama komol topishi davr talabi va ehtiyojidir. Yosh avlodni ma'naviy baquvvat, bilimni, o'z mustaqil Vatanimizdan faxrlanish tuyg'usiga boy kishilarni tarbiyalash zamonamizning dolzarb mavzusi hisoblanadi. Bu esa ta'lim-tarbiya oldidagi murakkab, keng

ko'lamli muammolardan biridir⁴.

Tarbiyalash deganda har tomonlama yetuk, o'zida axloqiy poklik, ma'naviy boylik va jismoniy barkamonlikni mujassamlashtirgan insonni yetishtirish nazarda tutiladi. Tarbiya tizimida musiqa san'ati yetakchi o'rinda turadi. Hozirgi kunda musiqa san'atni inson tarbiyasidagi roli ortib bormoqda. Yoshlarimizni ma'naviy yetuk, komil inson etib tarbiyalashda musiqa tarbiyasining roli shak-shubhasiz kattadir. Maktab yoshlarga bilim asoslarini singdiradi. U bolani ilmiy dunyoqarashining shakllanishi va mustahkamlanishi yo'lida asosiy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Shundayek umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida dastlabki musiqa ta'limi va tarbiyasining asosiy maqsadi – o'quvchilarga musiqa san'atini go'zallik qonunlari asosida o'rganish malakasini singdirish va ularda musiqa madaniyatini tarkib toptirishdir. Boshlang'ich sinflarda musiqa madaniyati darslari umumiy ta'limning axloqiy-estetik tarbiya berish tizimining ajralmas bir qismi bo'lib hisoblanadi. Shunga ko'ra, 1-sinfdan boshlab darslarni izchil, tizimli va ilmiy asosda tashkil etilishi o'quvchi-yoshlarni ta'limning keyingi bo'g'inlariga ma'lum tayyorgarlik bilan borishlarini ta'minlaydi.

Xalqni buyuk kelajak va ulug'vor maqsadlar sari birlashtirish, mamlakatimizda yashaydigan millati, tili, dini va e'tiqodidan qat'iy nazar har bir fuqaroning yagona vatan baxti uchun doimo mas'uliyat sezib yashashga chorlash ajdodlarimizning bebaho merosi va an'analarimizga munosib bo'lishga erishish, komil insonlarni tarbiyalash milliy istiqloq g'oyasining bosh maqsadidir. Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda o'qituvchi jiddiy tayyorgarlik ko'rishi, o'z ustida tinmay ishlashi, yan'i bilim saviyasini oshirishi uchun ilmiy adabiyotlar, teatr, mezyelarga borib ongini oshirish yo'llarini takomillashtirib borishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, shaxs kamolotini shakllanishida musiqa va tarbiyaning uzviy bog'liqligi beqiyosdir.

OZARBAYJON AN'ANAVIY MUSIQASIGA BIR NAZAR

Kamil Taxirovich Muxamedziyanov - o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Maqolaning asosiy vazifalari Ozarbayjon musiqiy madaniyatining dolzarb masalalarini, yoshlarni tarbiyalashdagi zamonaviy tendensiyalar va musiqiy san'atning, falsafiy va an'anaviy tarkibni aniqlash, she'riy matnni shakllantirish bilan tajriba o'tkazish. Musiqiy kompozitsion, musiqa san'atining tarixi, nazariyalari va amaliyotida yangi ilmiy ma'lumotlar yoritilgan. Ushbu maqola doirasida Ozarbayjon san'atida ashug janridagi tadqiqot natijalari yoritilgan.

Аннотация: Основными задачами статьи, является определение актуальных вопросов музыкальной культуры Азербайджана, изучение современных тенденций и роли музыкального искусства в воспитании молодёжи, тяготение к философско-традиционному содержанию, экспериментирование с поэтико-текстовой основой сочинения. Поиск новых средств музыкальной выразительности и композиционных решений, обмен научной информацией в области композиции, музыковедении, искусства ашуги, а также истории, теории и практики музыкального искусства. В рамках данной статьи осуществлена попытка исследования музыкальных жанров в музыкальном творчестве Азербайджана.

Abstract: The main objectives of the article are to identify topical issues of musical culture of Azerbaijan, study modern trends and the role of musical art in the education of young people, gravitation to philosophical and traditional content, experimentation with the poetic and textual basis of the composition. Search for new means of musical expression and compositional solutions, exchange of scientific information in the field of composition, musicology, the art of ashuga, as well as the history, theory and practice of musical art. Within the framework of this article, an attempt has been made to study musical genres in the musical creativity of Azerbaijan.

Kalit so'zlar: janr, ashug, tahlil, falsafiy va an'anaviy tarkib, dramaturgiya, tajriba, sharqona kuy, ijodiy fikrlash, yoshlar, shakl.

Ключевые слова: жанр, ашуги, анализ, философско-традиционное содержание, драматургия, экспериментирование, восточная мелодия, творческое мышление, молодёжь, формирование.

Keywords: genre, ashugi, analysis, philosophical and traditional content, drama, experimentation, oriental melody, creative thinking, youth, formation.

Ozarbayjon ashuglari san'ati (ozarbayjonchada - Azərbaycan aşığı sənəti) – she'riyat, hikoyalar so'zlash san'ati, raqs va ozarbayjon ashuglarining vokal instrumental musiqa majmuasidir. Ashuglar Ozarbayjonda doimo xalq orzusini ifodalashgan, sevgi ozodligini himoya qilishgan, vatanga sadoqat haqida kuylashgani sababli azaldan „El anasi“ (ozarb. Elanası – „Xalq onasi“), deb atalgan. Ozarbayjon ashugi san'ati milliy birdamlik ramzi va ozarbayjon tili, adabiyoti va musiqasining asrovchisi hisoblanadi.¹

2009-yilda YUNESKOning nomoddiy merosini himoya qilish Qo'mitasining Abu-Dabidagi (BAA) to'rtinchi sessiyasida ozarbayjon ashuglari san'ati YUNESKOning Nomoddiy madaniy merosining reprezentativ ro'yxatiga kiritilgan.

Asosan erkin bo'lgan ashug san'ati tarkibi bo'yicha kengligi va xilma-xilligi bilan ajralib turgan. Ashug san'ati epik doston, xalqning

erkinligi va qahramonligini madh etuvchi qo'shiqlar, shuningdek, do'stlik va sevgi madh etiladigan satirik va yumoristik qo'shiqlarni o'z ichiga oladi. Ashug san'ati sintetik san'at hisoblanadi, ashug o'zi she'r yozadi, musiqa bastalaydi, sozda chaladi va o'zi raqsga tushadi. Ko'pincha ashug ijrochisiga balaban ijrochisi va puflab chalinadigan asboblar ansambli jo'rlik qiladi, lekin ashugning asosiy musiqa asbobi soz hisoblanadi.

Ashug san'atining eng keng tarqalgan janri dostondir, xususan mardonavor – epik dostonlardir.

Dostonlardagi vokal – instrumental qismlari she'rdagi dialog fragmentlari bilan navbatma-navbat keladi. Feodal va bosqinchilarga qarshi kurashgan, XVI asrning ozarbayjon xalq qahramoni Go'rog'li haqidagi doston ayniqsa mashhurdir. Bu dostonda Go'rog'lining jasoratlarini madh etuvchi bir nechta qo'shiqlar mavjud. Ularga

⁴ M. Abzalova. Musiqa. 2-sinf uchun o'quv qo'llanma. –T; - O'qituvchi, 2009-yil.

¹ Косимова С., Мехмандарова Л., Захрабов Р, Азербайджанская музыкальная литература, Баку, 1984.

„Go'ro'gli djengisi“, „Atli Go'ro'gli“, „Piyada Go'ro'gli“, „Go'ro'gli“ va boshqa qo'shiqlar kiradi. Qahramonlik mavzusidagi „Misri“ qo'shig'i ashuglar dialogida ko'p ijro etiladi. Bunday dialogda muayyan mavzuda improvizatsiya qilayotgan ikkita, uchta va hatto to'rtta ashuglar ishtirok etishi mumkin.

Zamonaviy ensiklopedik lug'atda „ashug“ so'zi arab va turkiy „ashug“ – „oshiq“ so'zidan kelib chiqqanligi ko'rsatilgan. Katta ensiklopedik lug'atida ham „ashug“ turkiy tilda „oshiq“ ma'nosini bildirishi ko'rsatilgan. „Ashug“ so'zi arab tilidan kelib chiqib avval „ehtiros bilan sevgan, ilohiy sevgi bilan yonayotgan“ ma'nosini bildirgan, so'ng esa u turkiy tilga o'tib va asta sekin arman va gruzin tiliga „qo'shiqchi-shoir“ ma'nosi bilan o'tgan deb hisoblanadi. XII asrning turkiy shoir-tasavvufchisi Ahmad Yassaviy o'zining „Haqiqat oshiqlari“ she'rida so'fiy darvishlarini „ashuglar“ deb atagan.²

O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. I-X jildlar, T., 2005.

Ozarbayjon madaniyatida ashug an'anasi ashug Gurbani yashab ijro qilgan vaqtda – XV-XVI asrlardan boshlab rivojlana boshlaydi, lekin san'atning o'zi bundan ham qadimroq tarixga ega, masalan ozanlar X–XI asrlardan ijro qilishgan.

Ozarlar o'z hikoyalarini gopuz ijrosi bilan kuzatgan va oguzlar orasida alohida diniy ta'sirga ega bo'lgan oguz baxshi va qo'shiqchilari bo'lishgan. Ozanning mashhur yodgorliklariga oguz qahramonlik eposi „Buvam Korkut kitobi“ kiradi. Tarixda Dede Korkut, Dede Abbas, Dede Yadigyar, Dede Gasim, Dede Kerem („Dede“ so'zi oguzlarda „diniy ota“ ma'nosini bildirgan) kabi ozanlar mashhur. XVII asrda ozanlar tarixiy sahnadan butkul ketgan. Islom ta'sirini kuchayishi va uning turkiy-oguzlar jamiyatidagi mafkurasi bunga sabab bo'lgan. Arab tili va adabiyotining tarqalishi va umuman islom g'oyalariga yo'naltirilgan madaniyatining tarqalishi ozan san'ati g'oyalarini buzgan.

Gurbani davrida o'z chiqishlarini gopuz bilan bezatgan ozanlar o'rniga qo'shiqlarini sozda chalgan ashuglar kelishgan.

Milliy she'riyatning asosiy janrlari – goshma, doston, ustadname, shuningdek, ularning she'riy shakllari – gerayli, divani, goshma, tedjnis – ashuglar ijodining eng sevimli shakllaridir.

Xalq she'riyatining eng keng tarqalgan shaklidir. „Goshmada“ bo'g'inlar soni o'n birga yetadi. „Goshma“ bir nechta kichik turlarga bo'linadi: „gyuzelleme“ – gyuzel – chiroy so'zidan tabiiy go'zallik yoki ajoyib insoniy

xususiyatlarini madh etiladigan shakldir; „kochaklama“ – qahramonlik amallari yoki qahramonlarning o'zi madh etiladigan shakldir; „tashlama“ – jamiyat yoki insonlarning kamchiliklari tanqid qilinadigan turi, „agit“ xotirlashga atalgan qo'shiq.

Nafaqat sharqiy balki g'arbiy she'riyatda mashhur bo'lgan janr (shu jumladan xalq o'rtasida). „Dostonlarda“ ashuglar mardlik, sevgi qissalari, muhim tarixiy voqealar haqida hikoya qilishgan. Uslubiy va bo'ginli ma'noda ko'pincha „koshma“ ni eslatadi, lekin undan to'rt misraliklarning soni, mavzu, ma'no va musiqa mavzusi bilan farq qiladi.

An'anaviy mavzular qo'shiq - o'gitlardan va qo'shiq - nasihatlardan tashkil topgan.

Gyuzelleme - Gyuzelleme bu „Goshma“ turlaridan biri bo'lib, unda tabiiy go'zalliklar tavsiflanadi yoki ajoyib insoniy xususiyatlarni madh etish bo'ladi.

Ijrosi



Soz – ashugning asosiy cholg'u asbobi.

Ozarbayjon ashuglarining ijro uslubi mahalliy ijodning o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turgan. Masalan, Gyandja, Kelbadjar, Gazax, Tovuz, Borchalining har bir hududini aks ettiradigan ashuglar o'zining individual mahorati bilan ajralib turadi va katta matonat bilan ashug san'atining an'alarini asrashadi. Ko'p hollarda ashug ijrosiga balaban ijrochisi va puflab chalinadigan cholg'ular ansambli hamrohlik qiladi, lekin ashugning asosiy cholg'u asbobi bu sozdir. Asosiy ozarbayjon xalq cholg'u asboblari bu: tor, def (mug'omchilar triosida), soz (ashuglar ijodida), nog'ora, gosha-nog'ora (bayram udumlarida).

Ijodiy xususiyatlariga ko'ra ashuglar quyidagicha farqlanadi: Ashug-shoir xalq orasida „Usta ashug“ (ashug-usta) – dostonlar, karavellalar, she'rlar yozadi, qo'shiq aytadi va soz chaladi, ijro raqslar bilan kuzatiladi.

Ashug – cholg'uchi. Mashhur ashuglarning ijodini targ'ib qilishadi, qo'shiq aytib sozda chaladi, ayrim hollarda raqsga tushadi.

² O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. I-X jildlar, T., 2005.



Ashug Alesker, XIX-XX asrlar ashug va dostonchi

Ashuglar nafaqat yakkaxon balki, odatda to'rt ijrochidan – ashug, ikkita dudukchi va do'mbirachidan tashkil topgan ansambl bo'lib ham ijro etishgan. Ashug ansamblini shuningdek, soz bilan balaban va zarbli cholg'u asbobi ham tashkil etgan.

Ashuglar repertuari faqatgina dostonlar bilan cheklanib qolmaydi; u janrlari bo'yicha xilma-xildir va mavzusi bo'yicha juda aniq, doimo ijtimoiylik bilan qayralgan. Ashuglar ertak (nagil), sevgi-lirik qo'shiqlar, madh etish qo'shiqlari (gyozelleme), axloqiy qo'shiqlar (ustadname), satirik qo'shiqlarni bilishadi. Bunday beshlik (muhammas) va ikkilik (dubeyt) kabi she'riy shakllarda ijro qilishadi, shuningdek lab yopilishini talab etmaydigan (dodax-deymez), fonemalarda qurilgan she'rlardan keng foydalanishadi. Ko'p ashuglar 50-60 dostonlar, o'nlab hikoya, qissa va ertaklarni (misol uchun Gokchidan mashhur ashug Alesker) yodda tutishgan.³

Oldin ashuglar choyxona, karvon-saroy, bozor maydonlarida chiqishlar qilishgan. Ularning repertuarida ko'p ajoyib she'riy namunalari bo'lgan. Ashuglar hirgoyilari musiqiy jihatdan qiyin emas, lekin ritmik aniqdir. Bu hirgoyilar an'anaviydir va avloddan avlodga o'tib boradi. Bu bilan bir motivlar faqatgina qahramonlik she'rlariga, boshqalari esa - faqat lirik she'rlarga to'g'ri keladi. Bitta tarona turli ashuglarda har xil uslubda ijro etiladi va shaxsiy did va temperamentga bog'liq. Ashuglar ijodining eng ko'p tarqalgan janri bu sevgi lirikasidir. Lekin ashug ijodining eng qiziqarli shakli bu musiqali - she'riy bellashuv - deyishmedir, uning ishtirokchilari (ashuglar) topishmoq, savol va javoblarda bellashadilar. Bunda ashuglardan biri raqibiga she'riy shaklda javob qaytara olmasa yoki topishmoqni topa olmasa, g'olib mag'lubning sozini olib qo'yishga haqli bo'lgan va mag'lub ashug unvonidan mahrum bo'lgan.

Zamonaviy Ozarbayjonda professional ashuglarni ikki toifaga ajratishadi: ashug-

ijrochilar va ashug - shoirlar. Ashug - ijrochilar professional baxshi bo'lib she'riy ijod bilan shug'ullanmaydilar. O'zining individual mahorati va o'z folklori xususiyatlarining nozik jihatlarini tushunganligi tufayli o'z doston, qissalari, ayniqsa ularning prozaik shakllariga turli xil variatsiya va o'zgartirishlar kiritishadi. Ashug - shoirlar esa baxshilik faoliyati bilan bir qatorda she'riy ijod bilan ham shug'ullanishadi. Ozarbayjonda bunday ashuglarni ustodlar deb atashadi, ozarbayjon tilidan tarjima qilganda u „O'z ishining yetuk ustasi“ ma'nosini bildiradi. Ustodlar shogirdlariga ashug san'ati asoslarini o'rgatgan o'z maktablariga ega bo'lgan. Ustodlarga Gurbani (XVI asr.), Tufarganlik Ashug Abbas (XVII asr.), Xeste Kasum (XVIII asr), Ashug Valex (XVIII asr), Ashug Alesker (1821-1926), Bozalganlik Ashug Guseyin (1875-1949), Sayat - Nova kabi va ko'pgina boshqa iste'dodli shoirlarni keltirish mumkin. Ular nafaqat ashuglik she'riyatiga, balki Ozarbayjonning butun yozma adabiyotiga ham katta ta'sir ko'rsatishdi.



Ashug Asad Ashug Mirza Ashug Ibragim



Ashug Islam Ozarbayjon xalq artisti Brilliant Dadasheva Ozarbayjonda eng mashhur ashuglardan hisoblanadi. Shuningdek, Ozarbayjon parlamenti deputati Borchalilik (Gruziya) Zelimxan Yagub ham ashugdir. Davrimizning mashhur ashuglaridan Ashug Zulfiya, Ilham Aslan, Ali Tovuzli va boshqalarni misol qilish mumkin.

Temir parda davri XX asrning 30-yillardan boshlab, sobiq ittifoq xalqlarining barcha xalq musiqa madaniyati kabi ashug musiqasi ham davlatning qattiq nazorati ostiga tushadi va bu

³ Захрабов Р, Азербайджанский тесниф, Баку, 1983.

bilan o'zining eng yomon davrlarini boshdan kechiradi. Ozarbayjon milliy musiqasini xalqaro maydonlarga yo'lni ko'p yillarga yopib qo'yishadi. Ashug musiqasi va mug'omni primitiv san'at sifatida odamlar ongiga quyishadi, lekin bular ziyolilarning katta qismini og'zaki musiqa an'anasiga bo'lgan katta qiziqishini pasaytirmadi.



Bokudagi Yevrovideniye 2012 festivalida sozli ashug

XX asrning yetmishinchi yillarida, boshchiligida 1971-yilda Moskvada, 1973-yilda Olma-Otada va 1978 va 1983-yillarda Samarqandda birinchi an'anaviy musiqa xalqaro simpozium va festivallari o'tkazilgan YUNESKO sa'yi harakatlari oqibatida mug'om qayta tiklana boshladi.

2004-yil iyulida Sumgait shahrining Uzeir Gadjibekov nomidagi madaniyat saroyida „Sazin sozyun sexrin yagyal!“ nomli ashug musiqasi bayrami o'tkazildi. Festival „respublika ashuglari uyushmasi“ shahar bo'linmasi tashabbusi bilan tashkillashtirilgan edi va bayram a'lo darajada o'tdi. Konsertda Ali Tovuzli, Ilham Aslan kabi ashug va shoirlar, shuningdek, „Peri gizlar“ majlisining Telli Borchali, Kyamalya Gubadli kabi a'zolari sahnaga chiqishdi. Ular improvizatsiyada yetuk mahoratlarini va folkloridagi bilimlarini namoyish qilishdi.

Ozarbayjon ashuglari Uyushmasining sumgayit bo'limi raisi shoira Ganira Mextixanli hisoblanadi. Shaharda ushbu xalq san'ati bilan shug'ullanadigan 20 ortiq ashug – professionallar mavjud. Ular ashug musiqasi targ'iboti bilan faol ravishda shug'ullanishadi, yordam konsertlari bilan korxonalar, harbiy qismlarda ishtirok etishadi.

Jahon e'tirofi: Ozarbayjon mustaqillikka erishganidan so'ng, Ozarbayjon madaniyatini dunyoga targ'ib qilish imkoniyati tug'ildi, buning uchun ozarbayjon ashuglariga davlat ko'magi ko'rsatilmog'da va dunyo bo'ylab gastrollar tashkil etilmog'da.

2009-yil may oyida Luvrda Haydar Aliyev fondi yordami bilan ozarbayjon ashuglarining konserti bo'lib o'tdi. 2-fevral kuni Muzei markazida „Ozarbayjon ashug musiqasining antologiyasi“ nomli disk taqdimoti bo'lib o'tdi.⁴

2009-yilning noyabrda turli mamlakatlardan musiqachilar qatnashgan Derbent shahridagi musiqa festivalida ashuglar ham sahnaga chiqishdi. 2009-yil kuzida Buyuk Britaniyada Ozarbayjon kunlari doirasida Londondagi konsertda ozarbayjon ashuglari sahnaga chiqishdi.

Fransiyada Ozarbayjonlik Fredrik Gazaxbeyli „Gazax“ musiqa guruhini tuzib uning dasturiga ashug musiqasini ham kiritadi. Guruh yakkahonlaridan biri fransuz Meluka Obri Mikail Azaflining „Amandi“ qo'shig'ini ijro etadi. Qo'shiqlar „Lafibre“ albomiga kiritilgan. Ularning ilk „Foto“ albomiga ozarbayjon va fransuz milliy musiqalarining sintezi kiritilgan.

Turkiyaning Sivas shahrida mashhur ashug Rusatning xotira kechasida Naxichevanlik ozarbayjon ashuglari sahnaga chiqadi. Dastur doirasida ashuglar ozarbayjon xalq qo'shiqlarini ijro etishdi.



Xalqaro ashug festivali

O'rta va Yaqin Sharq xalqlarining tarixiy madaniy aloqalari, jozibador Sharq ohanglarining tarovati va ta'sir kuchi hamda o'zbek musiqasining xorijiy Sharq xalqlari musiqa an'analari bilan mushtarakligini nazarda tutgan holda, qayd etish joizki, Sharq mamlakatlari musiqa madaniyatini anglash, idroklash albatta talabalardan ma'lum darajada tayyorgarlikni talab etadi. Talabalar o'z milliy musiqa merosini kerakli darajada o'rganib, muayyan bilimga ega bo'lishlari lozim. Xorijiy tillarni ham bilishlari ayni muhimdir. Zero, bunday hol talabalarga turli tillarda yozilgan manbalar bilan tanishishlari uchun imkon yaratadi. Maqolada, Ozarbayjon xalqlarining kasbiy musiqasi, ya'ni mumtoz kuy va ashugalarga alohida e'tibor qaratilib, ularning madaniyatini musiqa orqali anglash va tasavvurni mustahkamlashga qaratilgan harakat o'z ifodasini topgan.

⁴ <http://wikipedia.org.ru>

MUSIQA O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

Sabina Shuxrat qizi Urinova - o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada musiqa o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik mahoratini va uning bir tarmog' sanaladigan kasbiy kompetensiyasini oshirish ahamiyati haqida so'z boradi. Bugungi kun musiqa o'qituvchilari faoliyati samaradorligini, pedagogik faoliyatini yo'lga qo'yishda avvalo, unda pedagogik mahorat, har bir pedagogik jarayonda zarur bo'lgan kompetensiya turlariga egalik faoliyatdagi ahamiyati yoritib o'tilgan.

Аннотация: В статье обсуждается важность повышения профессиональных и педагогических навыков учителей музыки и их профессиональной компетенции. При подготовке учителей музыки к будущему их педагогической работы, подчеркивает важность педагогических навыков, типов компетенций, необходимых в каждом педагогическом процессе.

Abstract: This article discusses the importance of improving the professional and pedagogical skills of music teachers and their professional competence as a branch. In preparing the music teachers of today for the effectiveness of their work, the types of competencies required in each pedagogical process.

Kalit so'zlar: musiqa madaniyati, axloqiy tarbiya, estetika, faoliyat, pedagogika, pedagogik mahorat, kompetensiya, komponent, mutaxassis.

Ключевые слова: музыкальная культура, нравственное воспитание, эстетика, деятельность, педагогика, педагогическое мастерство, компетентность, компонент, специалист.

Keywords: music culture, moral education, aesthetics, activity, pedagogy, pedagogical skills, competence, component, specialist.

Bugungi jadal rivojlanayotgan zamonaviy globalashuv va axborotlashuv davrida ta'limni yanada takomillashtirishni dars jarayonida innovatsiyalarning turli shakllarini tatbiqetmasdan turib amalga oshirishning imkoni yo'q. Yangi texnologiyalarning rivojlanishi va tarqalishi davrida inson mehnatining mohiyatini qayta ko'rib chiqish zarurati paydo bo'ldi. Ishning yangi usullari va shakllari tobora ko'proq mutaxassislarning yuqori bilim darajasiga, ularning malakasiga, shuningdek, ijodiy va innovatsion faoliyatga asoslangan. Bo'layotgan o'zgarishlar ko'lami va tezligidan butun dunyo xabardor bo'lib, kelajakning yagona kaliti shaxsning ijodiy va innovatsion salohiyatini rivojlantirish ekanligini anglab yetmog'da. O'qituvchilar mutaxassis sifatida talabga ega bo'lish uchun o'z mutaxassisligi bo'yicha raqobatdosh ustunlikni, malaka darajasini saqlab qolish va oshirish zarurligini anglashi lozim. Mamlakat

fuqarolari har tomonlama komillik sari intilib yashashi, davlat taraqqiyotining asosiy omiliga aylanadi. Yurt ravnaqi yo'lida talabachilarning bilim egallashlari bilan bir qatorda o'zining mustaqil fikriga ega bo'lgan, ma'nan yetuk, sog'lom fikrlovchi, yuksak kasbiy mahoratli qilib tarbiyalash bu yo'lda dolzarb masalalardan bo'lib qolmog'da. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov "...kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha qilib aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishini farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq"¹ deb ta'kidlagan.

Demak, musiqa ta'limining oliy maqsadi: "musiqani idrok eta oladigan, yetuk, barkamol, madaniyatli, nafaqat o'z milliy an'analari, balki boshqa millatlar madaniyatidan boxabar va bu an'ana, madaniyatlarini xurmat qiladigan qilib voyaga yetkazishdan iboratdir"²

Umumiy o'rta ta'limda o'rgatilayotgan

¹ I. Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". Ma'naviyat nashriyoti, Toshkent, 2008. 61-bet.
² Yusupova N. Musiqa savodi, metodikasi va ritmika. Musiqa nashriyoti. Toshkent, 2010-yil, 4-bet.

har bir fanning maqsad va vazifalari belgilab qo'yilgan. Asosan amaliy faoliyat bilan uzviy bog'liq bo'lgan musiqa madaniyati fanining ham o'z maqsad, vazifalari bo'lib, umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati fanini o'qitishdan ko'zlangan asosiy maqsad o'quvchilarning ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini, milliy g'urur hamda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish, tafakkurini kengaytirish, bolalardagi ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o'stirish hamda tashabbuskorlikni tarbiyalashdan iboratdir.

"Musiqa madaniyatini o'quvchilar ongida shakllantirish asnosida fan o'z oldiga bir necha vazifalarni qo'yadi:

- O'quvchilarga berilayotgan musiqiy ta'lim-tarbiyani hayotga bog'lab olib borish;
- O'quvchilarda musiqa san'atiga mehr, qiziqishni o'stirish;
- O'quvchilarda musiqiy-badiiy didni va musiqa faoliyatlariga ehtiyojini rivojlantirish;
- Musiqa haqida bilim, malakalar doirasini tarkib toptirish;
- Iqtidorli o'quvchilarning musiqiy rivojlanishi uchun sharoit yaratib berish;
- Musiqiy faoliyatlar jarayonida badiiy-ijodkorlik his-tuyg'ularini rivojlantirish;
- Musiqiy asarlarning badiiy-g'oyaviy mazmuni vositasida o'quvchilarda axloqiy-estetik qarashlarni tarbiyalash"³.

Yuqoridagi kabi jihatlarni bolalarda shakllantirishda pedagog asosiy rol o'ynashini hisobga olsak, bo'lajak musiqa o'qituvchilarini tayyorlash musiqa madaniyati fanlarining sifat ko'rsatkichini belgilab berishini anglash qiyin emas. O'qituvchining kasbiy jihatdan shakllanishi oliy ta'limda kasbiy ta'lim olish jarayonidan boshlanadi. Pedagogika oliy dargohlarining fan dasturlari mazmuni bo'lajak o'qituvchilarga kasb bo'yicha bilimlar berish, pedagogfaoliyatsirlarini o'rgatishvatalalarda ko'nikma hosil qilishga qaratilgan. Yuqorida qayd etilgan vazifalarni bajarishda bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy va pedagogik mahoratini shakllantirishga ahamiyat berish zarur. Zero o'qituvchi "pedagoglik kasbiga doir bilimlarni, ya'ni psixologik, pedagogik malaka va mahoratni, ilmiy-nazariy va amaliy bilimlarni puxta egallagan bo'lishi"⁴zarur. O'qituvchining

kasbiy va pedagogik mahorati deganda ustuvor ijtimoiy-siyosiy, umumilliy, maxsus, psixologik-pedagogik va kasbiy-metodik bilim va ko'nikmalar tizimi asosida olingan kasbiy faoliyatini amalga oshirish qobiliyati tushuniladi.

Pedagogning pedagogik faoliyati davomida darslarni faoliyat turlari boshlang'ich sinflarda:

1. "Xor bo'lib qo'shiq kuylash.
2. Musiqa savodi.
3. Musiqa tinglash.
4. Musiqaga mos harakatlarni bajarish.
5. Bolalar cholg'u asboblari jo'r bo'lish...

O'rta sinflarda esa musiqa darsi uchta faoliyat turi asosida olib boriladi:

1. Xor bo'lib qo'shiq kuylash.
2. Musiqa savodi.
3. Musiqa tinglash"⁵kabilar bo'yicha tashkillashtirishida kasbiy kompetensiya va kreativligi muhim.

Pedagogik mahorat tushunchasiga esa hozirgi zamon psixologiya va pedagogikasida turlicha ta'rif beriladi. "Pedagogik mahoratga ega mutaxassis bu – o'z kasbining mohir ustasi bo'lgan, yuksak darajada madaniyatli, o'z fanini chuqur biladigan, yondosh fanlar sohaslarini yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o'qitish uslubiyatini mukammal egallagan mutaxassis"⁶dir. Pedagogik mahorat tushunchasi quyidagicha izohlanadi:

- Madaniyatning yuqori darajasi, bilimdonlikning yuqori ko'rsatkichi;
- O'z faniga doir mukammal bilimlar sohibi;

- Pedagogika va psixologiya oid bilimlarni ham puxta o'zlashtirib, o'z kasbiy faoliyatida ularni ishlata oladigan shaxs;

- O'quv va tarbiyaviy ishlar uslubiyatini mukammal biladigan pedagog.

Musiqa o'qituvchisining pedagogik mahorati turli ko'nikmalarga egalik bilan yanada oshib boradi. Ya'ni musiqa o'qituvchida shakllanishi zarur bo'lgan quyidagi ko'nikmalarni tavsiflash orqali uning shakllanish jarayonini, pedagogik mahoratga erishish bosqichlarini yanada teranroq anglaymiz:

Birinchidan, u professional tarzdagi tashkiliy qobiliyatlar: pedagog sifatida

har doim o'zini tahlil etib borish, bolalar faoliyati ustidan tezkor nazoratni ta'minlash, bolalarning pedagogik ta'sirga bo'lgan munosabatini hisobga olgan holda, o'z vaqtida o'quvchini yo'naltirish va berilgan pedagogik vazifalarni to'g'rilashni oqilona amalga oshirish, belgilangan vazifalarga erishish uchun ko'rsatmalarni bajarish, bolalar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish, bolalarning muvaffaqiyatlari va yutuqlarini hisobga olgan holda faoliyatni rag'batlantirish, dars, o'zlashtirishdagi talablarning eng optimal shaklini topish va ularni bolalarning individual xususiyatlariga va muayyan pedagogik sharoitlarga qarab o'zgartirish, vazifalarni aniq, qisqa va oson tushuntirish kabilar.

Ikkinchidan, tahliliy qobiliyatlar: olingan natijalarni dastlabki ma'lumotlar va qo'yilgan pedagogik vazifalar bilan solishtirganda tahlil qilish, musiqiy faoliyatdagi yutuq va kamchiliklarning mohiyatini tahlil qilish, erishilgan natijalarni tahlil qilish asosida o'z tajribasini pedagogik nazariya bilan bog'lash, pedagogik vazifalarni ilgari surish va asoslash. Pedagog "o'z faoliyatini doimo tahlil qilib, unga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lishi"⁷zarur.

Uchinchidan, muloqot qobiliyatlari: musiqa o'qituvchisi bolalar va ularning ota-onalari bilan munosabatlar o'rnatadi, bolalarni axloqiy, estetik jihatdan tarbiyalaydi, har bir bolaga individual yondashishni ta'minlaydi. Zero, musiqiy va tarbiyaviy faoliyatning asosi muloqotdir. Bolalar bilan muloqot qilish qobiliyati ularga muhabbatsiz rivojlanmaydi. Jamoadagi munosabatlar ko'p jihatdan tarbiya, ta'lim va o'qitishdagi muvaffaqiyatni belgilaydi. Bu o'qituvchining muloqot qobiliyatining mazmuni va ahamiyatini belgilaydi. "Musiqa o'qituvchisi fandan barcha musiqiy-nazariy bilimlarni egallab, ularni amaliy tarzda qo'llay olar ekan, uni shu fan bo'yicha yetarli bilim, ko'nikma va malakalarga ega deb hisoblash mumkin"⁸.

To'rtinchidan, loyihalash qobiliyatlari: pedagogik faoliyat natijalarini loyihalash qobiliyati, ularni amalga oshirish yo'llarini rejalashtirish, har bir bolaning va guruhning musiqa fanini o'zlashtirishini loyihalash, tarbiya va ta'lim natijalarini, bolalarni musiqiy tarbiyalash va o'qitishda yuzaga kelishi

mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni oldindan ko'ra bilish, aniq vazifalarni ajratib ko'rsatish va shakllantirish. Unda rivojlanishi lozim bo'lgan Badiiy (musiqiy) fikrlash kompetensiyasini⁹ fan orqali– o'qituvchi qachonki o'zi yuqori salohiyatli, o'z sohasida badiiy-obrazli tarzda fikrlay olsagina o'quvchilarini musiqa olami bilan yaxshiroq tanishtira olishga erishishi mumkin.

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda shuni ta'kidlaymizki, bo'lajak musiqa o'qituvchisining pedagogik faoliyati-bu maxsus bilim, ko'nikma va malakalar, tashkilotchilik qobiliyatiga egalik, kasbiy tayyorgarlikning yuqori darajasi, kasbda o'z-o'zini anglash, doimiy o'z-o'zini takomillashtirish, muloqot qilish va har bir bolaga to'g'ri yondashuvni topish qobiliyatlarini namoyon qilishdir. Bu uning ijodiga bo'lgan ulkan qiziqish, o'z oldida turgan vazifasini tushunish, san'atdagi o'zni, yuksak shaxsiy madaniyati va kasbiy ishtiyoqi orqali yo'lga qo'yiladigan pedagog sifatidagi kelajagi hisoblanadi.

Bugungi jadal rivojlanayotgan davrda ta'limni yanada takomillashtirishni dars jarayonida innovatsiyalarning turli shakllaridan tatbiqetmasdan turib amalga oshirishning imkoni yo'q. Bu esa ta'lim va tarbiyani o'rganuvchi pedagogika sohasiga "kompetensiya", "kompetentlik", "kasbiy kompetensiya" kabi tushunchalar kirib kelishiga asos bo'layotgani ma'lum. Hozirgi zamonda har bir mutaxassisning o'z sohasida ustuvor o'rin egallashida, hartomonlama kasbiy raqobatga bardoshli bo'lishida pedagogdan pedagogik mahorat asosi bo'lmish - kasbiy kompetentlikka egalik va uni izchil ravishda oshirib borishni talab etmoqda.

Inglizcha "competence" tushunchasi "qobiliyat" ma'nosini ifodalaydi. Mazmunan "faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish" ni yoritishga xizmat qiladi. Kompetensiya ta'lim jarayonidagi psixologik izlanishlar natijasida yuzaga kelib, kompetensiyani rivojlantirib borishda o'z mutaxassisligi bo'yicha olingan bilimlarni doimo boyitib borish, yangi axborotlarni o'rganish, zamon talablarini anglash va talablarga mos faoliyat yuritish,

3 Ho'jayeva M. Umumta'lim maktablarida musiqa o'qitish metodikasi. O'z.D.K.tahrir-nashriyot bo'limi. Toshkent., 2008-yil. 10-11-bet.

4 Mavlonova.R., Abdurahimova R. Pedagogik mahorat. Fan va texnologiya nashriyoti. T., 2009-yil. 11-bet

5 Sharipova G., Najmekdinov G'. "Musiqa o'qitish metodikasi praktikumi". O'quv qo'llanma, "Turon-Iqbol" nashriyoti. Toshkent., 2014-yil. 11-bet.

6 Xoliqov A. "Pedagogik mahorat". Iqtisod-moliya nashriyoti, Toshkent., 2011-yil, 11-bet.

7 Asqarova M., Xayitboyeva M., Nishonov M. Pedagogika. "Talqin" nashriyoti. Toshkent., 2008-yil. 37-bet.

8 Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. Pg 11.

9 Аврамкова С.И. «Понятие «компетенция» в современной теории и практике преподавания музыки» // Известия Российского государственного педагогического университета им. Герцена. №136. М., 2010 г. 149 стр.

soha bo'yicha yangiliklarni izlash, o'rganish, amaliyotga tatbiqetish kabilar muhim omillardan.

"Kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik" ni anglatadi.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishidir¹⁰. Inson o'z sohasida professional tarzda bo'lishi mumkin, lekin masalalarni hal etishda kasbiy kompetensiyaga ega bo'lish qiyin masala. Pedagoglar yuqorida sanab o'tilgan kompetensiyalarga ega bo'lishi uning faoliyatida yuqori malakali pedagog bo'lib shakllanishida ahamiyatli jihatlardandir. Bu kompetensiyalarning har birini aynan bo'lajak musiqa o'qituvchilar uchun bog'liqlik tomonidan ko'rib o'tish ularda kasbiy kompetensiyasini oshirish ahamiyatini anglashga yordam beradi.

Musiqa o'qituvchisi har tomonlama qobiliyatli, zamon bilan hamnafas bo'lishi bugungi kun talabi. U nafaqat oddiy musiqa madaniyati fani o'qituvchisi, balki, bir vaqtning o'zida, bolalar bilan muloqot qiluvchi, ularning ruhiyati, kayfiyati, dunyoqarashi, qiziqishlarini bilib, shu asosida ish olib boruvchi psixolog;

sinfda bolalar bilan suhbat qurib, doska oldida musiqa olami haqida tasavvur paydo qilish uchun uning sirlarini so'zlayotgan tili ravon notiq; o'z fanining hayotiyliigi, axloqiy-estetik tarbiyadagi, estetik didni oshirishdagi o'rnini ta'minlaydigan estetika bilimdoni; tovushlar, ularning paydo bo'lishi, xususiyati, musiqada sanoqlar, raqamlar haqida bilimlarga ega fizik, matematik; darsning yanada mazmunli, samarali, zamonaviy tarzda tashkil etilishi uchun eng so'nggi axborot texnologiyalarida ham bemalol ish yurita oladigan IT mutaxassis; musiqaning yaratilishi, uning tarixiy bosqichlari, tarixiy davrlar haqida o'quvchilarga ma'lumot yetkazuvchi tarixchi; kuy-qo'shiq matnini ifodali qilib aytib bera oladigan, har bir so'z sehrini anglaydigan tilshunos, adabiyotshunos; musiqaning nazariy-tarixiy bilimlarini mukammal egallagan musiqashunos; cholg'u ijro etish uchun sozanda, kuylash uchun xonanda, o'quvchilar jamoa bo'lib kuylaganda xor dirijori rollarini bajaruvchi pedagogdir.

Bunday sifatlarga ega pedagog bo'lish nafaqat hozirgi zamon musiqa madaniyati fani o'qituvchilari, balki, bo'lajak musiqa o'qituvchilari oldiga ham bir qator dolzarb masalalarni qo'yishi tabiiy. Ko'p qirrali yetuk mutaxassis kadr sifatida shakllanish uchun esa talabalik yillaridanoq o'z ustida tinimsiz ishlash, pedagogik mahoratni, kasbiy kompetensiyani rivojlantirib borish bo'lajak musiqa o'qituvchilarining asosiy vazifalaridir.

BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHISINING ETNOPEDAGOGIK MADANIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING MAZMUNI VA PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Abror Rustamovich To'xtasinov - doktorant, Namangan davlat universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada talabalarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida bo'lajak musiqa o'qituvchilarini etnopedagogik madaniyatlarini takomillashtirishni masalalari yoritilgan.

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассматриваются вопросы повышения этнопедагогической культуры будущих учителей музыки в процессе обучения студентов.

Abstract: This article describes the issues of improving the ethno-pedagogical culture of future music teachers in the process of teaching students.

Kalit so'zlar: musiqa, texnika, qobiliyat, ta'lim, tarbiya, etnopedagogik, refraksiya, ilm, fan, taraqqiyot, kasbiy madaniyat, etnopedagogik madaniyat, kasb madaniyati, pedagogik madaniyat, musiqiy madaniyat.

Ключевые слова: музыка, техника, умение, образование, воспитание, этнопедагогическое, преломление, наука, наука, развитие, профессиональная культура, этнопедагогическая культура, профессиональная культура, педагогическая культура, музыкальная культура.

Keywords: music, technique, ability, education, training, ethno-pedagogical, refraction, science, science, development, professional culture, ethno-pedagogical culture, professional culture, pedagogical culture, musical culture.

O'zbekiston Respublikasining zamonaviy ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bu – mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy rivojlanish uchun yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlashda yetarlicha shart-sharoitlar yaratishdir¹. Bu jarayonda ta'lim maqsadlariga erishishda, albatta oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan bo'lajak o'qituvchilarga katta mas'uliyat yuklangan bo'lib, ularning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish muhim muammo sanaladi. Bo'lajak musiqa o'qituvchisining etnopedagogik madaniyatini takomillashtirish barobarida joylardagi ta'lim sifatini oshirish mazmuni, shart-sharoitlari va imkoniyatlarini yanada kengaytirishni taqozo etadi. Shu o'rinda bo'lajak musiqa o'qituvchisining etnopedagogik madaniyatini kasbiy madaniyati mazmuni va mohiyatini to'g'ri belgilash asosiy vazifalardan biridir.

Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy madaniyati ayniqsa, etnopedagogik

madaniyatida asosiy va muhim rol o'ynaydi. Shu o'rinda bo'lajak musiqa o'qituvchisining "kasb madaniyati" tushunchasini tahlil qilish barobarida uning bir qator ko'rinishlarini keltirib o'tamiz. Ya'ni, "kasb madaniyati", "kasbiy madaniyat", "pedagogik madaniyat", "musiqiy madaniyat" va nihoyat "Bo'lajak musiqa o'qituvchisining etnopedagogik madaniyatini va kasbiy madaniyati" shular jumlasidandir. Eng avvalo, musiqa pedagogikasi ta'limi tizimida "madaniyat" tushunchasiga murojaat etamiz.

Madaniyat iborasi bugungi gumanitar fanlar majmuasining (falsafa, madaniyatshunoslik, san'atshunoslik, sotsiologiya, tarix, etnografiya, antropologiya, arxeologiya, estetika, etika, san'at) biri bo'lib, unga aniq ta'rif berishda ko'pgina olimlar murojaat etgan². Keng ma'noda madaniyat deganda – insonlar tomonidan yaratilgan, mavjudlik va o'z-o'zini anglashning sun'iy sohosi, o'zaro ijtimoiy ta'siri va xulq-atvorni tartibga solishning asosiy manbai

¹⁰ Utanov U.Q., Qosimova O.X. "Xalq ta'limi xodimlarini kasbiy kompetentligini rivojlantirish" // "Pedagogik innovatsiyalar va yuqori samaradorlikka yetaklovchi ta'limiy g'oyalar" respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi to'plami. Termiz., 2020-yil. 722-bet.

¹ Sh.M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil yakunlari va 2017-yil istiqbollarga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017-yil 16-yanvar.

² Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1998. – b.64

tushuniladi. Madaniyat jamiyat va shaxs taraqqiyotining tarixiy jihatdan eng ko'p belgilab beruvchi, uning moddiy va ma'naviy jihatdan o'zgarishlarini o'zida ifodalagan tushuncha. Ayni davrda xorijiy va mahalliy ilmiy tadqiqotlarda aynan madaniyatga oid bir qator qarashlar shakllanib bo'lgan, u kishilarning xulq-atvori va faoliyatini belgilovchi tizim sifatida qaraladi (A.G.Zdravomslom, B.F.Lomov, A.Y.Flier, V.A.Yadov, U.Qoraboyev), moddiy –ma'naviy qadriyat sifatida (A.I.Arnoldov, T.Maxmudov), faoliyat usuli sifatida (V.E.Davidovich, O.V.Xanova), shuningdek, jamiyat ijtimoiy va aholining ma'naviy hayotining turli sohalarida va qolaversa, shaxsni o'zini-o'zi anglash usuli sifatida, bastakor, kompozitor va ijrochilar tomonidan yaratilgan musiqiy asarni nafaqat ijro etib yetkazib berish, balki, uni ijro madaniyati sifatida ko'p bor tadqiq etilgan. Ko'rinib turibdiki, madaniyat, kasb madaniyati mazmun va mohiyatan ko'p qirrali va keng kategoriyali tushuncha ekanligini ko'rsatadi.

Musiqaning pedagogikasi ta'limi tizimida bo'lajak musiqaning o'qituvchisining etnopedagogik madaniyatini takomillashtirishda kasbiy madaniyatni tushunchasi o'zining kontekstualligi, semantik sohasiga kirganligi, konseptual tizimda pedagogik faoliyatda "kognitiv" maqsadda talqin qilishga qaratilgan.

Mazkur maqolada faoliyatli yondashuv asosida bo'lajak musiqaning o'qituvchisining kasbiy madaniyatini rivojlantirish mazmuni va mohiyatini ochib berishda, uning aynan mavzu nuqtayi nazarida ijrochining butun ijtimoiy hayotini, kasbiy ijrochilik madaniyatini rivojlantirish, solishtirish, taqqoslash va namuna usuli sifatida ko'rib chiqildi.

Bo'lajak musiqaning o'qituvchisining etnopedagogik madaniyatini faoliyatini rivojlantirish, uning har bir sohada individual yondashish asnosida, kasbiy madaniyat faoliyati mahsuli jarayoni sifatida talqin qilishga asoslanadi. Mazkur yondashuvning tanlanishi, birinchidan, bo'lajak musiqaning o'qituvchisi pedagogik faoliyati natijalari prizmasi orqali o'rganish imkonini berishi bilan bog'liq. Ikkinchidan, bajarilgan faoliyatning sifat darajasi bo'lajak

musiqaning o'qituvchisining etnopedagogik faoliyatini ko'rsatgichi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Va nihoyat, uchinchidan musiqaning o'qituvchisi faoliyatida aks ettirilgan kasbiy madaniyatning o'zi, uning tanlagan musiqaning o'qituvchisi kasbining ijrochilik darajasini yuqori bo'lishiga bog'liq. Bu holat kasbiy pedagogik sohada zarur bo'lgan ijodiy kuchlari va qobiliyatlarini rivojlantirish o'lchovi bo'lib xizmat qiladi³.

Bo'lajak musiqaning o'qituvchisining pedagogik kognitiv faoliyatida ko'rsatadigan ijtimoiy hayot segmentiga qarab, u o'zini u yoki bu shaklda namoyon qiladi. Bu esa bo'lajak musiqaning o'qituvchisi ijrochiligi va etnopedagogik madaniyatini tashkiliy, hissiy, ruhiy, pedagogik, siyosiy va boshqa shakllarni mustahkamlashga imkon beradi. Xuddi ana shu jarayonlar bo'lajak musiqaning o'qituvchisining "kasbiy madaniyat" tushunchasiga kengroq murojaat etishi, o'zining pedagogik, kasbiy faoliyatini bosh mezonini bo'lishi uchun faol bo'lishi kerak.

Bo'lajak musiqaning o'qituvchisining kasbiy madaniyatini deganda – uning mehnat taqsimoti va ijrochiligining kasbiy amaliy va ma'naviy faoliyatining turli sohalarini tabaqalash jarayonlari bilan shartlashgan va ixtisoslashgan shakllaridan biri tushuniladi. Etnopedagogik faoliyat – bo'lajak musiqaning o'qituvchisining kasbiy mehnat faoliyati darajasini belgilovchi ijtimoiy fazilatlar tizimidir. Ayrim chet el olimlari o'zlarining tadqiqotlarida kasbiy madaniyat haqida so'z borganda bu – "mehnat subyekti ijtimoiy-kasbiy sifati" deb baholaydi (G.I.Gaisina, I.F.Isayev)⁴. Bakalavriat talabalarining kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan fazilatlarini rivojlantirishning hal qiluvchi omillaridan biri sifatida bakalavriat talabasining kasbiy madaniyatini, avvalo, o'zi tushinishni bilishi juda muhim bo'lib, keyingi bosqichda uning mohiyatini o'zining namunasida boshqalarga ko'rsata olishidir. Xuddi shu tariqa bo'lajak musiqaning o'qituvchisining kasbiy madaniyatini, uning xususiyatlari, ikkinchi tomondan shaxsning kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan fazilatlarini rivojlantirish kasbiy faoliyatida hal qiluvchi omillardan biri ekanligi, xuddi shuningdek, pedagogik faoliyatga tayyorlashda muhim

3 Исыянов Р.Г. Кластерный подход и формирование модульной компетентности преподавателей вузов. – Ташкент: ТГПУ, 2014. – 69 с.
4 Толіпова Ж. О'qituvchilarning kompetentligiga qo'yiladigan talablar. Metodik qo'llanma. Toshkent: Fan va texnologiya, 2010. – b.125.

ahamiyatini belgilaydi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan bo'lajak musiqaning o'qituvchisining etnopedagogik madaniyatini faoliyati bilan bog'liq bo'lgan yana bir kasbiy-pedagogik tushuncha bu – "pedagogik madaniyat"dir. "Pedagogik madaniyat" – tushunchasi ta'lim-tarbiya amaliyotiga kiritilgan bo'lib, uning mazmuni masalasi ustida kengroq tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi. Qabul qilingan uslubiy asoslarga tayangan holda shuni alohida ta'kidlash kerakki, kasbiy-pedagogik madaniyatning u yoki bu modelini asoslaydigan muayyan xilma-xil yondashuvlar mavjud. Uning tarkibiy qismlari sifatida kasbiy faoliyatda: aksiologik, texnologik, shaxsiy-ijodiy; aksiologik, texnologik, evrestik, shaxsiy-amaliy tajriba, kasbiy-amaliy mahorat; pedagogik faoliyatda: pedagogik qobiliyat, pedagogik mahorat, xususiy mahorat, faol pedagogik tajriba; o'z-o'zini boshqarish va tartibga solish, pedagog-o'qituvchining odob-axloq madaniyatini.

Bo'lajak musiqaning o'qituvchisining kasbiy faoliyatida pedagogik madaniyatini tuzilishini quyidagi uchta komponentga ajartirish mumkin: kognitiv; qadriyatli (odob-axloq); hissiy-irodaviy. Mazkur tushunchalarni o'z xususiyatiga ko'ra quyidagicha izohlanadi. Ya'ni: kognitiv – kasbiy pedagogik madaniyatning kasb ahamiyatiga ega bo'lgan bilimlar, ko'nikmalar, faoliyat algoritmlari, kasbiy fikrlash xususiyatlari; qadriyatli (odob-axloq) – kasbiy xulq-atvor stereotiplari, kasbiy-moddiy obyektlar majmui, kasbiy mehnatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan mehnat vositalari; hissiy-irodaviy – o'zida yuksak ijrochilik an'analarini mujassam etishi, istalgan sharoitda namoyon eta olishi; kasbiy-ruhiy tayyorgarligi, tajriba, mahoratini namoyish eta olishi.

Tilga olingan ushbu komponentlar bo'lajak musiqaning o'qituvchisining kasbiy pedagogik madaniyatini bo'lib, u "bilim", "ko'nikma", "kasbiy kompetensiya", "qadriyatlar", "qiziqishlar", "amaliy faoliyat" va "xulq-atvor" normalarini sifatli rivojlanishi bo'lib, u to'g'ridan-to'g'ri mehnat unumdorligi natijasi hisoblanadi.

Bo'lajak musiqaning o'qituvchisining

etnopedagogik faoliyatida pedagogik madaniyatini haqidagi tadqiqot doirasidagi nazariy yondashuvlar umume'tirof etilgan qadriyatlar tizimiga asoslangan har qanday faoliyat shaklining muhim sifati, ijodiy qobiliyati, amaliy tajriba me'yorlari hisoblanadi. Aynan shunday yondashuvlar bo'lajak musiqaning o'qituvchisining pedagogik madaniyatini "o'qituvchining mulkiga aylangan ijtimoiy-pedagogik madaniyatining ajralmas bir qismi bo'lib, uning kasbiy-pedagogik yo'nalishlarining tabiati va darajasini, pedagogik va kasbiy kompetensiyasini, umummadaniy bilim, ko'nikma, ish tajribasi, asosiy faoliyat turi hisoblangan – kasbiy ijrochiligida individul xatti-harakatlari ifodalangan shaxsiy fazilatlarini darajasiga bog'liq. Bundan kelib chiqadiki, bo'lajak musiqaning o'qituvchilarining kasbiy ijrochiligida namoyon bo'lishi musiqiy va pedagogik madaniyat bo'lib, u o'z navbatida "musiqiy madaniyat" va "pedagogik madaniyat" tushunchalarining ma'nosini ochib berishga xizmat qiladi.

"Pedagogik faoliyat" tushunchasi ham bo'lajak musiqaning o'qituvchisining kasbiy ijrochiligi faoliyatida muhim ahamiyatga ega. Pedagogik faoliyat – "keksa avlodlardan yosh avlodlarga insoniyat tomonidan ta'lim va tarbiyada to'plangan boy madaniy tajribani o'tkazish, doimiy ravishda ularning shaxsiy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, amalga oshirish mexanizmlarini taklif qilish, ularni kishilik jamiyatida vazifalarini bajarishga qaratilgan ijtimoiy faoliyatning alohida turidir. Olimlar ilmiy nazariya va o'z qarashlarida pedagogik faoliyat bilan har bir shaxs o'z ixtiyori bilan yosh avlodga o'z-o'zini tarbiyalash, nazorat qilish, ta'lim olish, bilish, turli nazariyalar ustida ishlashda kasbiy-pedagogik faoliyat xususiyatlarini o'rgatishni qo'llab-quvvatlaydilar⁵.

Endi "Musiqiy faoliyat" tushunchasiga keladigan bo'lsak, u turli ilmiy sohalarida "musiqashunoslik, etnomusiqashunoslik, cholg'ushunoslik, kasbiy ijrochiligi, ijrochilik asoslari, pedagogika, psixologiya, falsafa" nuqtayi nazardan kategorik talqin etiladi. Hozirgi vaqtda eng ko'p va keng tarqalgan musiqaning faoliyatning mohiyatini, uning asosiy ko'rinishlarida talqin qilish – musiqaning asarini ijro etish, musiqaning yaratish, hissiy-irodaviy

5 Толіпов О'О. Олий педагогик та'лим тизиміда умуммеһнат ва касбий ко'нікма ва ма'калаларні ривојлантірішнінг педагогик теһнологіјаларі: Діс. ...ped.fan.dokt. – Т.: 2004. – b. 314.

idrok etishdir. Ushbu falsafiy yondashuvlar musiqiy va badiiy faoliyatni insonning musiqqa bilan o'zaro munosabati jarayoni sifatida tushunib olishni taqozo etib, uning musiqiy dunyoqarashlarida o'z aksini topadi.

Talaba-yoshlarni musiqiy faoliyatini ko'rib chiqishda asosiy e'tibor, uning faoliyatligiga qaratiladi. Buning natijasida u bakalavriat talabalarining musiqqa san'atining asosiy faoliyat turi hisoblangan kasbiy ijrochiligi orqali atrofdagi voqelik va o'z mahoratini etnopedagogik vositasida taqdim etadi. Shu bilan birga musiqqa ta'limi faoliyat turlarining yuqorida ta'kidlangan ijrochilik malakasini o'zida singdirgan bo'lishi lozim. Tadqiqotimizning mazkur bo'limdagi asosiy maqsadi bo'lajak musiqqa o'qituvchisining etnopedagogik faoliyati davomida jamoa orasidagi munosabatlardagi ruhiy-hissiy jarayonlarni bakalavriat talabalarini orqali ochib berish asosida tavsiflanadi. Bu jarayonda etnopedagogik faoliyatda idrok va ijro etish, o'z-o'zini takomillashtirish, kasbiy faoliyatda qo'llash, ta'lim tizimida o'quvchi-yoshlarga individul (guruhli) o'rgatishdan iboratdir.

Faoliyatning psixologik nazariyasi pozitsiyasidan yondashuv ham mavjud bo'lib, unga ko'ra, uning (faoliyat) asosiy shakllari kasbiy ijrochilik, o'rganish va provard natija mehnatdir. Bo'lajak musiqqa o'qituvchisining etnopedagogik madaniyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri, bu – uning refraksiyaligidir.

Kasbiy-pedagogik faoliyatda talaba shaxsi hayotining shakli sifatida belgilangan nuqtayi nazarda qiziqish uyg'otishidir. Unda shaxsning voqelikni pedagogik nuqtayi nazardan o'zini o'zi o'zgartira olish istagini paydo qilishdi. Shu sababli mazkur ilmiy qarashlar tadqiq etilayotgan masalani tub mohiyatini tushinishda musiqiy madaniyatning badiiy namunalari bilan aloqa qilish usuli sifatida asosiy belgisidir. Ko'tarilayotgan muammoni retrospektiv tekshirish shuni ko'rsatadiki, bo'lajak musiqqa o'qituvchisi o'zining kasbiy va pedagogik faoliyatidagi g'oyalar Sharq xalqlarining dunyoqarashi, urf-odati, kishilik jamiyatidagi ijtimoiy mehnat faoliyati samarasi natijasida kelib chiqqan bo'lib, mahalliy aholining musiqqa madaniyatida

o'ziga xos tarzda shakllangan, rivojlangan va takomillashgan. Musiqqa ta'limi har doim yosh avlodni hayotga tayyorlashning ajralmas bo'lagi sifatida doimo jamiyatning e'tiborida bo'lib kelmoqda. Mazkur holatni O'zbekiston Respublikasida Prezident Sh.Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan qarorda ko'rish mumkin⁶. Bundan ko'rinib turibdiki, haqiqatdan musiqqa ta'limi har doim yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashning eng oddiy va sodda vositalaridan biri sifatida jamiyatda o'z o'rnini ko'rsata oladi. Kasbiy musiqqa haqidagi bunday qarashlar, yosh avlod ta'limi va tarbiyasida katta o'rin egallab, uning g'oyaviy munosabatlarda o'z o'rnini topishda va shaxs sifatida ijtimoiylashuvida umumahamiyat kasb etadi.

O'zbek musiqqa merosida shakllangan mahalliy musiqqa an'analari tizimini shakllanishining dastlabki bosqichlarida insonni cholg'u musiqasi turlari bilan tanishtirish uchun, uning ko'p jihatdan utilitar ma'noga ega. Keyinchalik odamlar orasida diniy, maishiy, mavsumiy, oilaviy, mehnat munosabatlarini o'zida namoyish etgan aytim va cholg'u turlari keng qo'llanilgan. Kasbiy musiqaning ta'lim va tarbiya masalalarida qo'llanishida chet el olimlarining xizmati katta bo'ldi (D.Kabalevskiy, Jak Dalkroz, Karl Orf, Zoltan Koday). Bu jarayon endilikda musiqqa pedagogikasining asosiy g'oyalariga aylanib ulgurdi.

Musiqqa ta'limi va san'ati ijro namunalari mavjud bo'lishi bo'lajak musiqqa o'qituvchisi hisoblangan bakalavriatning musiqqa ta'limi ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy bilim, ko'nikma, tajriba, mahorat va malakaviy kompetensiyasini rivojlantirishni belgilab beradi. Mazkur pedagogik yo'nalishning asosiy nazariy g'oyasi bo'lajak musiqqa o'quvchilarini kasbiy faolligini qo'llab-quvvatlash, ularni kelajakda egallashi lozim bo'lgan kasblariga bo'lgan qiziqishni orttirishdir. Ya'ni, bir so'z bilan aytganda o'quvchilar bilan bevosita musiqiy-pedagogik muloqotni o'rnatish bilan bog'liq bo'lgan maxsus talablarni o'zda rivojlantirishdir.

Musiqqa ta'limi o'zining deyarli barcha rivojlanish davrida bo'lajak musiqqa o'qituvchilarining kasbiy faoliyatiga

asoslanganligi sababli, musiqiy ijrochilik aynan ijrochilikning eng muhim kasbiy qadriyatlaridan biri hisoblanadi. Keyingi ta'lim va ijrochilikdagi rivojlanish jarayonlari musiqqa-ijrochilik faoliyati musiqqa pedagogikasi kasbining ajralmas qismi hisoblanadi. Cholg'u ijrochisi tomonidan hal qilinadigan kasbiy vazifalar prizmasidan o'ziga xos tarzda singan musiqqa pedagog ijrochisi kabi yo'nalishlar kasb etadi. Bu uning yuqori professional ijrochisi faoliyatidan asosiy farqidir.

Tadqiqot davomida bo'lajak musiqqa o'qituvchisining kasbiy faoliyatini tartibga solish ma'lumbir kasbiy madaniyat (qonunlar) bilan belgilab qo'yilgan ijrochilik an'analari bilan samarali kechadi. Musiqqa pedagogikasi ta'limi jarayonida bo'lajak musiqqa o'qituvchisining milliy urf-odat, an'ana, kasbiy qadriyatlar, shaxs fazilatlarini bilan bog'liq holda tashkil etish lozim. Musiqqa pedagogik ijrochilik faoliyati musiqqa o'qituvchisining kasbiy madaniyatini ifodalash shakli va uni baholashning umumlashgan mezonini hisoblanadi. Mahalliy olimlar tomonidan musiqqa o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashning madaniy muammolarini ishlab chiqish aslida XX asrning 80–90 yillariga to'g'ri keladi. O'sha davrlarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarning boshlang'ich nuqtalaridan biri musiqqa ijrochiligi bo'yicha tayyorlanayotgan kadrlarning faoliyatida ikki tamoyil musiqiy pedagogika (1), kasbiy-ijodiy (2) muhim rol o'ynaydi. Bo'lajak musiqqa o'qituvchilarining kasbiy ijrochiligi bo'yicha kasbiy-pedagogik faoliyatini rivojlantirishda bir qator pedagogik qobiliyatlarni o'zida singdirishi lozim. Bulardan biri kasbiy fikrlashdir. Kasbiy fikrlash – bu bo'lajak musiqqa ta'limi o'qituvchisining musiqqa ijrochiligida ijro etish madaniyati, uning mohiyati, musiqqa o'qitish metodikasi bilan bog'liq. Bo'lajak musiqqa o'qituvchilarining ijrochiligida kasbiy tayyorlash jarayonida shaxsning musiqiy-estetik madaniyati va uning rivojlanishi ikkita asosiy komponentni – musiqiy faoliyat va musiqiy ongni, shuningdek, ularda mos keladigan kuy tizimlarini ajratib ko'rsatadi. Umuman olganda musiqqa ijrochiligi bo'yicha bo'lajak musiqqa o'qituvchilarni ijrochiligini rivojlantirishda musiqiylik, axborot, operativ, motivatsion va baholash komponentlaridan foydalanish pedagogik kuzatishlar

natijasida aniqlandi. Mazkur komponentlar bo'lajak musiqqa o'qituvchilarining musiqqa ijrochiligida kasbiy tayyorlash muammosiga yondashuv nazariy g'oyalarini belgilab berdi. Jumladan, bakalavriat talabasini oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan, shuningdek, bevosita ularni kasbiy tayyorgarligiga xizmat qiladigan musiqiy-nazariy fanlarni o'qitish metod va usullarini belgilab berdi. Shu bois, musiqiy-nazariy fanlarni o'zlashtirish jarayonida talabalar badiiy madaniyat haqidagi tushunchalarni o'zlashtirib oladilar. Bu talabalarning badiiy madaniyatni egallab olish lozimligini ko'rsatadi. Badiiy madaniyat – bo'lajak musiqqa o'qituvchisi shaxsiyatining kasbiy faoliyati sifati bo'lib, u o'quv jarayonidagi tizimli bilimni nazarda tutadi. Yanada aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, bakalavriat talabalarini badiiy-musiqiy ta'lim va tarbiyalashning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyaviy qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Bo'lajak musiqqa o'qituvchisi musiqiy-psixologik-pedagogik bilimlar, malakalar, musiqiy-estetik ong; kasbiy (ijodiy) faoliyat turlari; umumiy va musiqiy pedagogik qobiliyatlar; kasbiy axloqiy munosabatlar darajasi bilan uyg'unlashadi. Natijada musiqqa san'ati ijrochiligi yordamida talabalarni o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish, takomillashtirish, o'zaro pedagogik munosabatlarda o'z-o'zini rivojlantirishga qaratilgan kasbiy faoliyat asosi sifatida namoyon bo'ladi. Bo'lajak musiqqa o'qituvchilarining musiqqa ijrochiligi bo'yicha kasbiy madaniyatini tasniflashda, uning ijtimoiy hayot munosabatlari bilan o'zaro uyg'unligini bilan asoslanadi. Ya'ni, musiqqa ijrochisining kasbiy madaniyati shaxsiy fazilatlariga talluqlidir. U tarixiy uzluksizlik, shaxsni kasbiy rivojlanishi, madaniy merosga munosabat, uni o'rganish, uni saqlay va yetkazish, ijtimoiy hayotdagi innovatsion o'zgarishlar ishlab chiqarishdagi uzluksizlikni ta'minlaydi, g'oyalar oqimini belgilaydi. Ya'ni, pedagogik madaniyat – bu pedagogik jarayonning integral xarakteristikasini, bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyaviy qobiliyatlarni avalambor, mukammal o'rganishga va avloddan-avlodga o'tkazishning o'ziga xos institutlar shaklidir.

Ijtimoiy jamiyatning musiqqa madaniyati ma'lum bir davrlarda yaratilgan va saqlanib

⁶ Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан 2022 йил 2 февраль куни имзоланган “Маданият ва санъат соҳасини янада ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ги қарори “Янги Ўзбекистон” газетасининг 2022 йил 4 февраль куни 25–сон.

kelgan musiqiy qadriyatlarni o'z ichiga olgan tizim sifatida qaraladi. Ularni yaratish, saqlash, ko'paytirish, rivojlantirish, takomillashtirish, tarqatish, idrok etish va foydalanishni turli metod va mexanizmlardan foydalanishni taqazo etadi. Bu esa asosan ta'lim muassasalarida tashkil etiladi va amalga oshiriladi. Jamiyatning pedagogik va musiqiy madaniyatlari tizimlarini bir-birini to'ldirish tamoyiliga asoslangan holda ko'rib chiqish musiqiy-pedagogik madaniyatni muayyan ijtimoiy vazifalarga ega tizim sifatida ko'rsatish imkonini berdi.

Bunday faoliyatli yondashuv kontekstida pedagogik va kasbiy madaniyatni tushunish va uning tegishli faoliyatiga mansubligi bo'yicha ularning o'zaro shartli ekanligi nazarga olish lozim. Xuddi shuningdek, quyida musiqa o'qituvchisining kasbiy faoliyat tahlili keltirib o'tildi:

- umumiy o'rta ta'lim maktablarida, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarida, pedagogika kolleji, bolalar musiqa va san'at maktablarida, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida, qo'shimcha ta'lim muassasalari (shu jumladan umumiy ta'lim muassasalari) da bolalar va yoshlarga musiqiy ta'lim berishni amalga oshirish;

- uzluksiz ta'lim tizimida musiqa to'garaklari, bolalar uchun qo'shimcha ta'lim, umumta'lim maktablarida o'quv-musiqiy va ijrochilik jamoalariga, cholg'u va xonandalik ansambl, ijodiy-badiiy rahbarlik qilish;

- musiqiy-o'quv uslubiy ishlarning turli shakllarini amalga oshirish;

- musiqa vositasida o'quvchi-yoshlarni tarbiyalash va shaxsning umumiy madaniyatini shakllantirish;

- kasbiy o'z-o'zini tarbiyalash va shaxsiy o'sishini amalga oshirish;

- yakka ijrochilik va konsert faoliyatining turli shakllari (sahna ko'rinishlari) ni amalga oshirish;

- badiiy kechalar, musiqiy tadbirlar, ta'lim muassasasi, tuman (shahar) va Respublika bayram tadbirlarida o'zining va o'zi tayyorlagan o'quvchi-yoshlarni konsert ijrochilik repertuarini namoyish etish;

- ommaviy axborot vositalari (matbaa, radio, televideniye, internet) orqali musiqa san'atini targ'ib qilish;

- keng ommani milliy, mintaqaviy musiqa an'analari bilan tanishtirish;

- cholg'u va xonandalik ijrochiligi sohasidagi kompetensiyalardan foydalangan holda tarbiyalanuvchilarni, o'quvchi-yoshlarni kasbga yo'llash, ularni kelajakda biror bir kasb egasi bo'lishiga motivatsiya berish;

- o'quvchi-yoshlarni bo'sh vaqtlarida, sinfdan va maktabdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish.

Ushbu faoliyatning o'ziga xos xususiyati shundaki, u ikki ijtimoiy-madaniy soha - pedagogika va kasbiy madaniyatni o'zaro kesishgan hududda sodir bo'lib, nisbiy avtonomiyaga ega bo'lgan va ayni paytda ularning ta'siridan butunlay holi bo'lmagan tuzilmani tashkil qiladi. Aniqlik kiritamizki, biz "madaniy maydon" tushunchasini ijtimoiy maydon nazariyasi qoidalariga asoslanib foydalandik. Ushbu nazariyaga ko'ra, ijtimoiy-madaniy maydon "san'at, adabiyot yoki fanni ishlab chiqaradigan, ko'paytiruvchi va tarqatuvchi agentlar va muassasalar mavjud bo'lgan makondir". Bu madaniy maydon koinot bo'lib, u tashqi ta'sirlardan nisbiy mustaqillik va subyektlar o'rtasidagi faol munosabatlar ta'rifi bilan tavsiflangan, ishlab chiqarish, takror ishlab chiqarish va ishlab chiqarish uchun ijtimoiy mehnat taqsimotida turli funksiyalarni bajaradigan ko'p o'lchovli tizimdir. Qadriyatlarni tarqatish aynan shu o'zaro ta'sirlar natijasida pozitsiyalar, vaqt o'tishi bilan barqaror bo'lgan strategiyalar, ijtimoiy soha agentlarining o'zini tutish usullari ishlab chiqiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu qoidalarning bizning tadqiqot sohasiga proyeksiyasi ularni "faqat ma'lum bir kasb egalariga xos bo'lgan" madaniyat sifatidagi kasbiy madaniyat ta'rifi bilan bog'lash imkonini beradi.

Pedagogik va kasbiy madaniyatning bir vaqtning o'zida shaxsning pedagogik va musiqiy qobiliyatlarini qo'llash va namoyon qilish sohasidir. O'qituvchi-musiqachi o'z faoliyatida musiqiy qadriyatlarni yaratmasdan, ko'paytirmasdan va foydalanmasdan qila olmasligi sababli, buning uchun u tegishli qobiliyatlarni rivojlantirishi kerak. Shu bilan birga, u muayyan madaniy me'yor va naqshlarga tayanishi, ya'ni zarur bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi kerak. Musiqa o'qituvchisining kasbiy madaniyati uning predmetli faoliyatida "bastakor-ijrochi",

"ijrochi-tinglovchi", "bastakor" tizimlaridagi o'zaro muloqotda namoyon bo'ladigan muayyan ma'naviy-axloqiy munosabatlarni pedagogik voqelikka amalga oshirish sifatida amalga oshiriladi. Bu munosabatlarning rivojlanishida talabaning ham, o'qituvchining ham shaxsining rivojlanishi sodir bo'ladi. Bularning barchasida tajriba muhim rol o'ynaydi. Har qanday vaziyatda harakatlar modeliga aylangan bilim va ko'nikmalarning qat'iy birligi deb tushinish lozim bo'ladi. Pedagogik va kasbiy madaniyatni bunday tushunish madaniyatni asosiy vazifasi - inson ijodkorligidan kelib chiqqadigan o'ziga xos funksiyalarni aniqlashtirishga imkon beradi. Quyidagi jadval ko'rinishida musiqa o'qituvchisining kasbiy madaniyatining ko'p funksionalligini namoyish etishga harakat qildik:

1-jadval

Funksiyalar	Funksiyalarni amalga oshirish
Qiyimat-yo'nalishi	O'qituvchining musiqiy qadriyatlar olamiga yo'nalishini ta'minlaydi, eng yuqori qadriyat-shaxsning ma'naviy rivojlanishiga erishish uchun pedagogik amaliyotda ulardan foydalanish bo'yicha uning faoliyati yo'nalishini belgilaydi.
Me'yoriy	Ijtimoiy kelishuv shakli sifatida zamonaviy ta'lim standartlari talablari va musiqa o'qituvchisi faoliyati o'rtasidagi bog'liqlikni o'rnatadi, bu pedagogik ijodni tartibga solish va erkinlik darajasini aniqlash imkonini beradi.
Axborot	Musiqiy va badiiy xarakterga ega bo'lgan pedagogik yo'naltirilgan ma'naviy ma'lumotlarni yaratish, mustahkamlash va uzatishni ta'minlaydi.
Moslashuvchan	Jadal rivojlanayotgan jamiyat sharoitida musiqa o'qituvchisining kasbiy muhit sharoitlariga moslashishini va rejalashtirilgan faoliyat natijalariga erishish uchun ushbu shartlarni uning ehtiyojlariga mos ravishda o'zgartirishni bog'laydi.
Akmeologik	Musiqa o'qituvchisining kasbiy va shaxsiy fazilatlarini tizimini uning ajralmas qismi bo'lgan musiqiy ijrochilik bo'lgan kasbiy faoliyatda o'z-o'zini rivojlantirish maqsadlari bilan muvofiqlashtirishni belgilaydi.
Ijodiy	Musiqa san'ati yordamida mavjud voqelikni o'zgartirish imkoniyatini belgilaydi.

Yuqorida keltirib o'tilgan fikrlarga asoslanib, shaxsiy ma'noda bo'lajak musiqa o'qituvchisining pedagogik va kasbiy madaniyatining muhim xususiyatlari pedagogik yo'nalish va musiqiy ong, faoliyat nuqtayi nazaridan integrativ kasbiy-pedagogik faoliyat degan xulosaga keldik. O'qituvchining kasbiy madaniyatida pedagogik yo'nalish alohida o'rin tutadi. Pedagogikada bu tushunchaning yagona ta'rifi mavjud emas. Demak, pedagogik yo'nalish u tomonidan keng ma'noda o'qituvchi shaxsining dominant motivlarining ierarxik tuzilishini belgilaydigan, uni pedagogik faoliyat va muloqotda o'zini o'zi tasdiqlashga undaydigan hissiy va qadriyat munosabatlari tizimi sifatida ko'rib chiqiladi. Tor ma'noda, bu o'qituvchi shaxsi tuzilishida markaziy o'rinni egallagan va uning individual tipik o'ziga xosligini belgilaydigan kasbiy ahamiyatga ega sifatdir. Uning tarkibiy qismlari (ierarxik tartibda) quyidagilardan iborat:

- yoshga (va boshqa odamlarga) g'amxo'rlik, qiziqish, sevgi bilan bog'liq bo'lgan, uning shaxsiyatini rivojlantirishga ko'maklashish;

- pedagogik ish sohasida o'z-o'zini takomillashtirish va o'zini o'zi anglash zarurati tufayli o'ziga qaratish;

- mavzu mazmuniga e'tibor qaratish. Demak, bo'lajak musiqa o'qituvchisining etnopedagogik yo'nalishi musiqa-pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishga ongli intilish, musiqa san'ati vositasida o'quvchi shaxsini rivojlantirishga qiziqish, shu kasbiy sohada o'z-o'zini namoyon etishga intilishdan iborat bo'ladi.

“TEKNOLOGIYA VA UNI O‘QITISH METODIKASI” FANINI O‘QITISH MODULLI- KREATIV O‘QUV MATERIALLARIDAN FOYDALANISH TEKNOLOGIYASI

Muhayyo G‘ulomovna Muminjonova - mustaqil tadqiqotchi, Jizzax viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi

Annotatsiya: Maqolada “Texnologiya ta’limi va uni o‘qitish metodikasi ixtisoslik fani”ni o‘tishda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun tavsiya, modulli o‘quv materiallaridan foydalanib o‘qitish jarayoni, modulli o‘qitish texnologiyasining boshqa texnologiyalardan farqi, o‘qitishni individuallashtirish haqidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Аннотация: В статье дано рекомендации для будущих учителей начальных классов, процесс обучения с использованием модульных учебных материалов, отличие модульной технологии обучения от других технологий в курсе «Технология обучения и методика ее обучения», информация об индивидуализации обучения.

Abstract: In the article, the recommendation for the future primary school teachers, the process of teaching using modular educational materials, the difference of modular teaching technology from other technologies in the course of “Technology education and its teaching methodology” difference, information about individualization of teaching is provided.

Kalit so‘zlar: Texnologiyaning roli, ta’lim mazmunini yangilash, boshlang‘ich ta’lim, modulli o‘quv materiallaridan, zamonaviy ta’lim, ko‘nikma, qobiliyat, o‘qitishni individuallashtirish, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari.

Ключевые слова: Роль технологии, обновление содержания образования, начальное образование, модульные учебные материалы, современное образование, навыки, умения, индивидуализация обучения, будущие учителя начальных классов.

Keywords: The role of technology, renewal of educational content, primary education, modular learning materials, modern education, skills, abilities, individualization of teaching, future primary class teachers.

Jahon miqyosida oliy ta’lim tizimini rivojlantirish, bo‘lajak mutaxassis-larning raqobatbardoshligini ta’minlash; kasbiy-pedagogik faoliyatda innovatsion shakllantirish; ta’limda ilg‘or texnologiya, didaktik vositalar va uskunalar keng foydalanish; o‘qitishning zamonaviy usullarini integratsiyalash masalalari dolzarb vazifalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Shuning uchun ham bo‘lajak o‘qituvchilarni kreativ yondashuvlar asosida innovatsion faoliyatga tayyorlashda o‘z bilimini uzluksiz to‘ldirib borishi va undan kasbiy mahorat hamda ijtimoiy faoliyatda ijodiy foydalana olish qobiliyatini rivojlantirish muhim sanaladi.

Keyingi yillarda respublikamizda oliy va professional ta’limi tizimi muassasalarida modulli o‘qitish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borildi va natijalari amalga tatbiq etildi. Bu sohada haligacha izlanishlar olib borilmoqda, tajribalar o‘tkazilmoqda.

N.X.Avliyovqulov, N.N.Musayeva fikricha

modulli o‘qitish – o‘qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi, chunki u boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilim imkoniyatlarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish tizimiga eng yaxshi moslashgandir. Modulli o‘qitish, kasbiy ta’limning quyidagi zamonaviy masalalarini har tomonlama yechish imkoniyatini yaratadi¹.

Modul – faoliyatlik asosida o‘qitish mazmunini optimallashtirish, dasturlarni o‘zgaruvchanligi, moslashuvchanligini ta’minlaydi.

Modulli o‘qitish samaradorligi quyidagi omillarga bog‘liq:

- ta’lim muassasasining moddiy-texnik bazasi;
- malakali professor-o‘qituvchilar tarkibi darajasi;
- boshlang‘ich sinf o‘quvchilar tayyorgarligi darajasiga;
- kutiladigan natijalar bahosiga;
- didaktik materiallarning ishlab

chiqilishiga; modullar natijasi va tahliliga.

Modulli o‘qitishda amaliy va nazariy mashg‘ulotlari bilan birga olib boriladi, har bir modul yangi material bilan to‘ldirilib borilishi kerak.

Modulli o‘qitish qo‘llanilganda quyidagi afzalliklar va imkoniyatlar bo‘lishi keltiriladi:

fanlar ichidagi modullar orasidagi o‘qitish uzluksizligini va uzviyligi ta’minlanadi;

har bir modul yaxlit tugallangan o‘quv jarayoniga moslashgan;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilar o‘zlashtirishi muntazam va samarali nazorat qilinadi;

har bir modul to‘la o‘zlashtirilgandan so‘ng ikkinchi modulga o‘tiladi². Buning natijasida, o‘quvchi yetarli bilimlarga, ko‘nikmalarga ega bo‘ladi.

Modulli metodika o‘qitishda faoliyatlilik, tizimli kvantlash, qiziqtirish, modullilik, muammolilik, kognitiv vizuallilik, xatoliklarga tayanish tamoyillariga muvofiq ishlab chiqishi lozim. Modulli o‘qitish texnologiyasining boshqa texnologiyalardan farqi shundaki, bunda har qaysi bosqichda boshlang‘ich sinf o‘quvchilar o‘quv materiali bo‘yicha yetarli bilim, ko‘nikma va malakalarni egallaganlaridan keyingina so‘nggi bosqichga o‘tadilar. Modulli o‘quv materiallari bilan mustaqil ishlash quyidagicha amalga oshirish mumkin:

talabalar o‘quv materiali tuzilishi bilan tanishish;

berilgan savollarga modulli o‘quv materialidan va boshqa manbalardan javob izlash;

mavzuni mustaqil o‘rganib referat yozish; amaliy topshiriqlarni texnologik xaritalardan foydalanib bajarib, natijalari bo‘yicha hisobot yozish;

test savollariga javob berish; o‘rganilgan ma’lumotni tahlil etish; modulli o‘quv materialida berilgan vazifalar va mashqlarni mustaqil bajarishi.

Biz “Texnologiya ta’limi va uni o‘qitish metodikasi ixtisoslik fani”ni modulli o‘quv materiallaridan foydalanib o‘qitish jarayonini quyidagi bosqichlarda amalga oshirdik.

1. Tashkiliy ishlar.

Modulli o‘quv materiallaridan foydalanib o‘qitish jarayoniga tayyorgarlik ko‘rish muhim ahamiyatga ega. Chunki har bir modul o‘ziga xos tayyorgarlikni talab etadi.

O‘qituvchi har bir boshlang‘ich sinf o‘quvchisining dastlabki bilimi va o‘zlashtirish imkoniyatlarini o‘rganish kerak. Chunki boshlang‘ich sinf o‘quvchilar o‘quv materialini o‘zlashtirishda dastlabki bilimlar va ko‘nikmalariga tayanadilar.

Ularning o‘rganish va mustaqil ishlash qobiliyatlarini, psixologik imkoniyatlarini modulli o‘qitishga ta’sir ko‘rsatadi.

Biz kreativ-modulli texnologiya asosida mashg‘ulotlarni olib borish uchun ishlab chiqilgan modulli o‘quv dasturi va modulli o‘quv materiallari bo‘yicha tashkiliy ishlarni amalga oshirdik.

Modul tarkibidagi nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni tashkil qilish uchun:

- o‘qitish joyi tanlandi;

- mashg‘ulotlarni o‘tkazish vaqti o‘rnatildi;

Mehnat jarayonlarini amalga oshirish uchun jihozlar, moslamalar, audiovizual vositalar, o‘qitish va o‘rganish vositalari (doska, flipchart, proyektor, videomagnitafon) ning yaroqliligi, shuningdek, elektr toki, suv, havo bosimi va hokozolar holati o‘rganildi.

2. Ta’lim mazmuni va maqsadni belgilash.

“Texnologiya”nimodullimetodikaasosida o‘qitishda o‘quv maqsadi va o‘quv materialini mazmunini belgilash muhim hisoblanadi. Umumiy o‘quv maqsadi belgilangandan so‘ng har bir modul bo‘yicha o‘quv maqsadlari belgilandi. O‘quv maqsadlari modul yakunida ta’lim jarayoni natijasida boshlang‘ich sinf o‘quvchisi erishishi kerak bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni belgilaydi.

Biz tomondan “Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi ixtisoslik fani” modulli o‘quv materiallaridan foydalanib tashkil etilgan o‘qitish jarayonini quyidagi sxema orqali tasvirlash mumkin.



1-rasm. Modulli o‘quv materiallaridan foydalanib tashkil etilgan o‘qitish jarayoni

Modulli o‘qitishda o‘quv maqsadlari boshlang‘ich sinf o‘quvchilar harakatida ifodalanadigan, aniq ko‘rinadigan va baholanadigan natijalar orqali qo‘yiladi. Har bir modul yakunida o‘quv maqsadlari mos baholash materiallari va mezonlari berilishi kerak.

Modulni o‘quv maqsadi qanchalik aniq qo‘yilsa, unga erishilganlik darajasini baholash shunchalik oson bo‘ladi.³

3. O‘qitish vosita va materiallarni

¹ Avliyovqulov N.X., Musayeva N.N. Kasbiy fanlarni modulli o‘qitish texnologiyasi. T., Yangi asr avlodi. 2006. 110-bet.

² Abduquddusov O.A. Kasbiy ta’lim va ilg‘or texnologiyalar. J. Xalq ta’limi. – 2000 y. - №5. - B. 29–33.

³ Abduquddusov O. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashga integrativ yondashuv. - T.: Fan, 2005 y. - 160 b.

tayyorlash.

Modulli metodika asosida o'qitishda har bir modul bo'yicha va vositalardan foydalanildi. Har bir modul bo'yicha darslik, kartoteka, tarqatma materiallardan, uslubiy qo'llanmalar, ko'rsatmalar, jadvallar, jihoz yoki asbobni ishlatish bo'yicha ko'rsatmalar tayyorlab qo'yiladi. Shuningdek, bunday didaktik materiallarga qo'shimcha ravishda tasviriy materiallar (fotosuratlar, rasmlar, chizmalar, grafiklar) tayyorlash mumkin. Dars jarayonida ko'rgazmaliligini ta'minlash juda muhim ahamiyatga ega.

Ovozli va tovushli audio-vizual vositalar mehnat usullari, texnologik jarayonlar va funksiyalar, buyumlar va obyektlar real tasavvurlarni vujudga keltiradi.

Mehnat sohasiga tegishli asl narsalar, mehnat qurollari, mahsulotlar, jihozlar va asboblarning holatiga keltiriladi⁴.

Mehnat usullarini bajaruvchi boshlang'ich sinf o'quvchisi o'rgazmali vositalar, jihozlar, uskuna va moslamalarni ishlata olishni va ulardan maqsadga muvofiq va samarali tarzda foydalanishni bilishi kerak. O'qituvchi texnik vositalardan foydalanilayotganda yuzaga keladigan texnik muammolarni hal qila oladigan bo'lishi lozim.

4. Mashg'ulotlarni o'tkazish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarga modul tarkibidagi nazariy o'quv materiallarini o'rgatish quyidagi bosqichlarda o'tkazish tavsiya etildi:

Tashkiliy qismda boshlang'ich sinf o'quvchilar davomati tekshiriladi. Oldingi o'tilgan mavzu bo'yicha savol-javoblar o'tkaziladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilar faollashtiriladi⁵.

Asosiy qismda yangi mavzu bo'yicha o'quv axborotlari uzatiladi, har bir kichik mavzu bo'yicha boshlang'ich sinf o'quvchilarga savollar orqali bilimlari tezkor baholanadi.

Dars paytida umumiy savollar orqali bilimlar baholanadi, qo'shimcha ma'lumotlar beriladi, o'quv maqsadiga erishilganligiga aniqlik ishonch hosil qilgandan so'ng boshlang'ich sinf o'quvchilarga modulli o'quv materiallaridan foydalanib ishlashlari uchun mustaqil ish topshiriqlari beriladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarning modulli o'quv materiallaridan foydalanib ishlashlari uchun quyidagi mazmunda topshiriqlar beriladi:

Berilgan mavzu bo'yicha to'plangan ma'lumotlarni tizimlashtirish, mavzu bo'yicha referat yozish, mavzuga oid muammolarni aniqlash, guruhlariga ajratish, taqqoslash,

mashq va topshiriqlarni bajarish nazariy va amaliy testlarga javob izlash kabilardir.

Mehnat xavfsizligi qoidalariga, baxtsiz hodisalar va ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir etuvchi salbiy holatlarning oldini olish borasidagi harakatlar kiradi, ya'ni ish o'rnida shaxsiy xavfsizlik, himoya vositalari va mexanizmlardan to'g'ri foydalanish, yong'inni oldini olish choralari, olov o'chiruvchi moslamalar kiradi. Mashg'ulotlarda mehnat xavfsizligi qoidalari tushuntirishlari ish bilan bog'liq ravishda olib borilishi kerak.

5. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarni baholash.

Har bir topshiriq yoki mashqdan keyin boshlang'ich sinf o'quvchilar o'zlari bajargan ishlarini baholashlari lozim. Boshqa bir imkoniyat esa natijalarni kichik guruhlarda ochiq-oydin va samimiy muhokama qilishdan iboratdir. Modul yakunida yakuniy suhbat uchun vaqt ajratilishi kerak. Bu esa o'z navbatida boshlang'ich sinf o'quvchilarning natijalari, ularning amalga oshirgan va oshirilmagan ishlari, shuningdek, o'qituvchilarning natijalar yuzasidan mulohaza yuritishlari uchun yaxshi imkoniyatdir⁶.

Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilari innovatsiyalardan samarali foydalanish asosan uning kasbiy tayyorgarligiga hamda uning shaxsiy tajribasiga bog'liq. Innovatsion ta'lim texnologiyalari butun insoniyatning hayot tarzini va mehnat shaklini o'zgartirib, uni o'z bilimlarini chuqurlashtirishga, malakasini oshirishga keng imkoniyatlar yaratadi.

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining tikuvchilikka oid kreativligini rivojlantirishda texnologiya ta'limi praktikumi fanni o'qitishda "Tarmoqli rejalashtirish" texnologiyasini qo'llash yaxshi samara beradi⁷. "Tarmoqli rejalashtirish" texnologiyasi dars jarayonini tashkil qilish amaliy jihatdan kreativ ijodkorlikni talab etadi.

Bu holatni uning didaktikaning asosini belgilovchi funksiyalardan biri sifatida quyidagicha ta'rif berishganini ko'rish mumkin: "O'qish, o'rganish, o'qitish va o'rgatish hamda tarbiya bu didaktikaning o'zaro bog'langan doimiy faoliyat ko'rsatish funksiyasi bo'lib hisoblanadi".

"Tarmoqli rejalashtirish" texnologiyasi – bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarda tarmoqli rejalashtirish texnologiyasining ahamiyati, mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari amalga oshirish bosqichlari hamda shartlari haqida bilimlarni shakllantiradi.

Tarmoqli rejalashtirish – bu o'qitishning

kompleks metodik usuli bo'lib, vaqtli va mantiqiy ketma-ketlik jihatdan loyihani rejalashtirishni, kompleks loyihaning alohida sikllarini grafik ko'rsatish yordamida loyihani boshqarish hamda nazorat qilishni yaxshilaydi. Didaktik maqsadi. Tarmoqli rejalashtirishning didaktik maqsadi, o'z-o'zini tashkil etish kompetentsiyasini yaxshilashdan iborat.

Metodik maqsadi. Tarmoqli rejalashtirishning metodik maqsadi, loyihalarni samarali (yaxshi qo'yilgan, tejamkor, uzluksiz) rejalashtirish va o'tkazishdan, shuningdek, umumiy muvaffaqiyatni nazorat qilishdan iborat.

Asosiy belgilari va asoslari. Tarmoqli rejalashtirish – murakkab strukturali kompleks loyihalarni samaraliroq rejalashtirish, boshqarish va nazorat qilish vositasidan iborat. Biroq, bu metodni kichik loyiha ishlarini tayyorlash hamda nazorat qilish uchun ham qo'llanilishi mumkin. Shunday qilib, tarmoqli rejalashtirish predmeti bo'lib istalgan turdagi loyihalar hisoblanadi. Loyihani operativ va kalendar rejalashtirish berilgan metodning asosiy tashkil etuvchilari hisoblanadi. Tarmoqli grafik reja – loyihaning alohida komponentlarini ularning vaqtini va mantiqiy ketma-ketlikda grafik tarzda ko'rsatishdir.

Kelib chiqishi. Tarmoqli rejalashtirish metodi fransiyalik rejalashtirish bo'yicha mutaxassislar tomonidan katta loyihalar doirasida ishlab chiqilgan. Bu vaqtga kelib shunday fikr bo'lganki, bitta tarmoqli rejalashtirish metodi orqali loyihani boshqarishning barcha qiyinchiliklarini bartaraf etish mumkin. Asosiy maqsad bo'lib loyihaning minimal davomiyligini va uning jarayonlari ketma-ketligining ehtimoli variantlarini aniqlash bo'ldi.

Qo'llanilish sohalari. Hozirgi vaqtda tarmoqli rejalashtirish metodi kompleks loyihalar yoki katta loyihalar uchun, masalan, istalgan turdagi qurilish loyihalari, mashinasozlik va sanoat jihozlarini ishlab chiqarish, montaj ishlari, shuningdek reklama kompaniyalarida hamda ilmiy tadqiqot ishlarida qo'llaniladi. Tarmoqli rejalashtirish metodi loyihani boshqarishning dasturiy ta'minoti uchun asos hisoblanadi.

Shartlari. Tarmoqli rejalashtirish metodi butun loyiha davomida, ya'ni uning oxirigacha qo'llanilishi mumkin. U rejadagi va amaldagi holatni taqqoslash yordamida doimiy qaytar aloqa uchun xizmat qiladi. Metodni amalga oshirish struktura va vaqt analizini taqozo etadi, keyingi yondashuvlar esa xarajatlar analizini hamda ishlab chiqarish hajmi analizini

kiritadi. Tarmoq grafiginini tuzish uchun turli tahlil ishlarini o'tkazish shart hisoblanadi.

Amalga oshirish bosqichlari. Bu loyihani o'tkazish zarur bo'lgan barcha jarayonlarning (ish, faoliyat, harakat jarayonlari) ularning vaqtdagi va mantiqiy ketma-ketlikda quyidagi savollarga javob berish tizimida amalga oshiriladi:

Qanday jarayonlarni (ish, faoliyat, harakat jarayonlari) o'tkazish va hisobga olish kerak?

Qanday jarayonlar qay tarzda bir-biriga bog'liq bo'ladi (oldingi, keyingi)?

Qanday jarayonlar parallel olib boriladi? Alohida jarayonlar qanchalik uzoq davom etadi?

Qanday manbalar kerak bo'ladi (moddiy, moliyaviy, kadrlar)?

Qanday muhim muddatlar belgilanishi kerak?

Kritik jarayonlar, ya'ni vaqt rezervisiz jarayonlar yoki bufer vaqt mavjudmi?

Ishlar ro'yxati. Grafiklar nazariyasiga qisqaca quyidagi asosiy tushunchalar tushuntirilishi kerak: grafikni bir-biriga (chekli yoki cheksiz) qirralar bilan bog'langan (chekli yoki cheksiz) tugunlar miqdori sifatida tushunish mumkin. Yo'nalish ko'rsatilgan qirrani strelka sifatida tasvirlash mumkin. Yopilgan kontur ostida "tugunni o'z-o'zi bilan bog'lovchi" strelkani tushunish mumkin. Yo'l marshrut "bir strelka oxirgi tuguni boshqa strelkaning boshlang'ich tuguni bo'ladigan strelkalar qatorini" bildiradi. Agar yo'l chetga chiqmasa, bunda zanjir deyiladi. Yuqorida aytilganlarni shunday xulosalash mumkin:

-Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining tikuvchilik kasbiga o'rgatish jarayonida mustaqil harakatlari shakllanadi;

-bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining mashg'ulotdagi faolligi oshadi;

- mustaqil ishlash qobiliyatlari va kreativ ijodkorligi rivojlanadi;

- amaliy ko'nikmalarni yaxshi o'zlashtirish imkonini beradi;

- individual ishlashda barcha bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilari mashg'ulotga jalb etiladi;

Texnologiya ta'limi praktikumi fani bo'yicha egallashi kerak bo'lgan shaxsiy qobiliyatlar va ko'nikmalarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, topshiriqni bajarish jarayoni davomida bilim va ko'nikmalar shakllanadi. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilari berilgan topshiriqni bajarishda vazifalarni individual yoki o'zaro taqsimlab mustaqil ravishda rejalashtirishidan boshlab amalga oshirish va xulosa chiqarishda birgalikda ishlashadi.

4 Adizov B. O'quv materiali va uning shakllari. Uzluksiz ta'lim T. 2006. № 1, 3-8 b.

5 Akmalov A.A. Matematika ta'limida tarixiy materiallarni tanlash mezonlari va ulardan foydalanish metodikasi. Nomz. diss. Avtoreferati. T.-2008.24 b.

6 Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. Toshkent. 2009. 131 b.

7 bduquddusov O.A. Kasbiy ta'limda asosiy o'quv materialini o'rganish texnologiyasi // "O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimi uchun pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish sifatini ta'minlashning ilmiy-uslubiy asoslari" resp. il.-amaliy konf. materiallari. -T., 2006. -B. 7-8.

JIZZAX VOHASI TARIXIDA AMIR TEMURNING O'RNI

Raya Ro'ziyevna Nurqulova - dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sohibqiron Amir Temurning Jizzax vohasi tarixida tutgan o'рни, Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma", Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"si, Muhammad Haydar Mirzoning "Tarixi Rashidiy" kabi tarixiy manbalar asosida yoritib berildi.

Аннотация: В данной статье освещена роль Сахибкирона Амира Темура в истории Джизакского оазиса на основе таких исторических источников, как «Зафарнама» Низамиддина Шами, «Зафарнама» Шарафиддина Али Язди, «История Рашиди» Мухаммада Хайдара Мирзы.

Abstract: In this article, the role of Sahibqiron Amir Temur in the history of the Jizzakh oasis was highlighted based on historical sources such as "Zafarnoma" by Nizamiddin Shami, "Zafarnoma" by Sharafiddin Ali Yazdi, "History of Rashidi" by Muhammad Haydar Mirza.

Kalit so'zlar: Amir Temur, Amir Husayn, To'xtamishxon, Qamariddin, Sharafiddin Ali Yazdiy, Nizomiddin Shomiy, Tarixi Rashidiy, "Loy jangi", O'smat, Novqa, Rovot, Pishog'ar, Zomin, Oqar, Oqsulot.

Ключевые слова: Амир Темур, Амир Хусейн, Тохтамышхан, Камариддин, Шарафиддин Али Язди, Низамиддин Шами, Тарихи Рашиди, «Грязевая битва», Осмат, Новка, Рават, Пишогар, Зомин, Акар, Аксулот.

Keywords: Amir Temur, Amir Husayn, Tokhtamishkhan, Qamariddin, Sharafiddin Ali Yazdi, Nizamiddin Shami, Tarixi Rashidi, "Battle of Mud", Osmat, Novka, Rovat, Pishoghar, Zomin, Aqar, Aksulot.

Jizzax qadimiy voha bo'lib. O'zbekistonning markaziy mintaqasida joylashgan. Voha o'zining qulay harbiy strategik imkoniyatlari, rang-barang tabiiy manzaralari, o'ziga xos iqlimi, bir-biridan go'zal tabiiy go'shalari, shifobaxsh maysazorlari va soyliklari, zilol suvlari bilan buyuk hukmdorlar nazariga tushgan, o'z bag'riga chorlagan.

Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma", Ibn al-Asirning "Mukammal tarix", Sh.A.Yazdiyning "Zafarnoma", Z.M.Boburning "Boburnoma", Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma", Muhammad Solihning "Shayboniyнома" kabi tarixiy manbalarda Amir Temur va temuriylarning vohamiz bilan bevosita bog'liq tarixlari bitilgan.

Sohibqiron necha bor dashti Qipchoq, Mo'g'uliston va Xitoy sari katta lashkari bilan yurish qilar ekan yoki hazrat Yassaviy qabrlarini ziyoratiga borar ekan, aniqki, Jizzax vohasining so'lim mavzalarida hordiq chiqarib, harbiy mashqlar o'tkazib, ov qilish bilan shug'ullangan.

Ulardan ayrimlari to'g'risida manbalarga tayanib, fikr yuritimiz.

Nizomiddin Shomiy o'zining "Zafarnoma" asarida Jetelarning Ilyosxojaxon, amir Hamid, amir To'q Temur va Bekijak boshchiligida Qaboyi Maton mavzesida, Amir Temur va Amir Husayn lashkarlari bilan bo'lgan janglari haqida: "Amir Sohibqiron o'zini ul poyonsiz dengizga urdi va

Rustami Dostondek shamshiru kamonga qo'l uzatdi. Birinchi hamlada To'q Temur bahodir, Bekijakning birodari Beki, Davlatshoh va boshqa ikki podshohzodani otlar oyog'i ostiga tashladi... dushmon lashkarining ko'pi halok bo'ldi... Amir Sohibqiron dushmon ketidan quvlab, Obi Yomga yetdi va u yerda yo'llarini to'sib, ulardan ko'pini o'ldirdi. Amir Husayn va Amir Sohibqiron shodu hurram bo'lib, bir necha kunni Obi Yomda o'tkazdilar"¹.

Ko'rinadiki, Qaboyi Maton mavzesida bo'lgan jangda Sohibqiron Temur va Amir Husayn lashkarlari, o'zlaridan son jihatidan ko'p bo'lgan Jete qo'shinlarini mag'lubiyatga uchratdilar. Ularning boshliqlaridan bo'lgan Iskandar o'g'lon, amir Hamid, amir Yusufxoja qo'lga tushdilar. Amir Bekijon va Ilyosxoja zo'rg'a qochishga ulgurdi. So'ngra Amir Temur va Amir Husayn Obi Yomda hordiq chiqardilar. So'ngra amirlar o'z lashkarlari bilan toshkent tomon yo'l oldilar. Amirlar Toshkentda biroz bo'lib, Xo'jand suvidan o'tib, hordiq chiqarish va ov qilish maqsadida Jizzax va Oqar mavzalarida to'xtadilar. Amir Temur "Xo'jand suvidan o'tdi va ov qilmoq niyatida jirg'a tuzib, o'sha yerda bir necha kunga to'xtadi. Amir Husayn ham Dizak mavzesida ov qilish istagi bilan jirg'a tuzdi. Ular ikki tomondan yurib Oqar mavzesida qamarmishi (ovni qo'raga olish) qildilar... bir necha kunni aysh-ishrat va xursandchilikda o'tkazdilar, ul yerdan

shod-xurram o'tlanib, Samarqand tomon yuzlandilar"².

Manbadan Amir Temur qo'shini bilan Zomin atrofiga kelib to'xtaganligini anglash mumkin. Ikkala amir ham kelishuvga muvofiq, ov qilish niyatida jirg'a tuzadi (maxsus kishilar soy va daralardan ov hayvonlarini belgilangan manzalga haydaydi). Ov esa Ohar mavzesida bo'ladi. Amir Temur Zomindan Amir Husayn Jizzaxdan aylanib, ovni Oqarda o'tkazar ekan (bu mavze Zomin tuman hududida joylashgan) go'zal tabiat, jilg'alar, buloqlar, ovlash uchun turli hayvon-parrandalar keng mo'lligidan vaqtlarini ma'lum muddat "aysh-ishrat va xursandchilikda" o'tkazganlari, shodu-xurramlikda Samarqandga o'tlanganlarini tushunish qiyin emas. Xullas, Amir Temur 1364-yildayoq Jizzax vohasining go'zal mavzalarida ov qilib, hordiq chiqaradi va bu hududga uning mehri tushgan edi.

1365-yilning bahorida Jata (Mo'g'ul) lashkarlari Toshkentdan o'tib, Samarqand sari yurish qiladilar. May oyining boshida Amir Temur, Amir Temurxoja, Amir Joku, Amir Sayfiddin, Amir Murod, Abbos Bahodir hamda Amir Husayn tomonidan yuborilgan Po'lod Bug'o, Zinda Xashim, Malik Bahodirlar boshliq qo'shinlar bilan Toshkent tomon yo'lga chiqdi.

"Oqar mavzesiga yetganlaridan song, ot-ulov ahvolini mulohaza qilib, bir necha kun o'sha maysazorda bo'ldilar"³. Amir Temur may oyida Molguzarning tog' oldi qismlari qalin o'tloq bo'lganligi va otlarni katta jang oldidan dam oldirish qulay joy bo'lganligi uchun ham, bu mavzede bir necha kun qolishni ma'qul ko'rgan, bo'lishi mumkin.

Uning ustiga, Amir Temur lashkarlari 17 qo'shindan iborat bo'lib, katta qo'shinni Ko'rupa, Uvob, Rabot, Pishog'ar va Achchi kabi qishloqlarda joylashtirish qulay edi.

Hazrat Sohibqiron Chinoz va Toshkent oralig'idagi suv bo'yiga o'z qo'shinlarini joylashtirdi.

Bu yerda Amir Temur va Amir Husayn bilan Ilyosxoja boshchiligidagi Jata (Mo'g'ul) qo'shinlari o'rtasida shiddatli jang bo'ldi.

Muhammad Haydar Mirzo o'zining "Tarixi Rashidiy" asarida: shu kuni "Osmonni qora bulut qoplab, nog'ora tovushlariga mamaqaldiroq ovozi qo'shilib, yeru ko'kni chaqmoq nayzalari chelaklab qo'ygandek yomg'ir qo'ydi...jangovor otlarning oyoqlari shu qadar loyga botdiki, qorinlari yerga tegib turardi. Namlikning zo'ridan yoy cho'plari ivib, o'q otishga ham yaramay qoldi. Yoy oqlarining patlari to'kilib, paykoni uzilib tushdi, kiyimlar ho'l bo'lib, og'irlashib ketganidan na otliqlar, na

piyodalar joylaridan siljiyolmay qolishdi"⁴.

Afsuski, bu jangda Amir Husayn qo'shinlarining jur'atsizligi tufayli ittifoqchilar qo'shinlari mag'lubiyatga uchradilar. Bu mag'lubiyatdan keyin ikkala amir o'rtasidagi do'stlik va qarindoshlik munosabatlari tobora yomonlashib bordi va oxir oqibatda esa ular bir-birlariga g'anim bo'lib qoldilar.

Tabiatan shuhratparast, hokimiyatparast shaxs bo'lgan amir Husayn qanday qilib bo'lmasin Amir Temurga pand berish va unga xiyonat qilishdan qaytmadi.

Sharafiddin Ali Yazdiy aytganidek, "ularning o'rtalarida sadoqat va do'stlik munosabati yaqinlik va qarindoshlik aloqasi bilan qat'iy qilingan edi. Ammo, Amir Husaynning kongli makr va g'addorlik o'y xayolidan bo'shamasdi"⁵.

1367-yilga kelib, Amir Temur Qashqadaryo vohasida 243 jangchisi bilan 12 ming qo'shinga qarshi kurashib, Qarshini egallaydi. Amir Husayn lashkarlari Surxondan ham Buxorodan ham uning yo'lini to'sadi.

1368-yilning bahorida Amir Husayn Amir Muso, shayx Muhammad va Uljoytular boshliq 20 ming otliqni Amir Temurga qarshi jo'natadi. Ularning old qismi Jizzax va Rovotda joylashgan edi. Amir Husayn qo'shinlari uch guruhga bo'lingan edi. Tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiy o'zining "Zafarnoma"larida yozganidek, har guruh bir yo'l boshida o'rnashib olib, o'sha yo'lni qo'riqlamog'i lozim edi. "Malik Bahodir uch ming sipoh bilan So'zangoron mavzesiga kelib, o'rnashib, o'sha yo'lni qo'riqlardi, Jahonshoh bir ming besh yuz otliq bilan Raboti Malikda turardi. Xarman ming kishi bilan Dizak mavzesida Yettiquduq yo'lini muhofaza qilardi"⁶.

Sohibqiron Toshkentdan Amir Kayxisrav bilan birgalikda 500 otliq lashkar bilan Xovos mavzesiga yetib, "Xo'jand suvidan o'tib, shabgir qildi va Jahonshoh hamda uning sipohi ustiga shabixun qilib bostirib bordi, ularni tarqatib, to'zg'itib yubordi. Yana o'sha kunning o'zidayoq, Dizak mavzesiga ot surdi va Xarmanni qo'vlab-savalab, ularning butun mollarini talon-taroj yeliga sovurdi. Bir muddat o'sha yerda to'xtab, otlarga dam berdi. So'ngra uch yuzta jata sipohini qo'lga kiritilgan o'ljalor bilan birga ul joyda qoldirib ... yuz kishi bilan podshohona himmat yuzini Malik Bahodir tomon qaratdi"⁷.

Sohibqiron o'ttizta tajribali otliqni oldinga o'tkazib, ularga izma-iz yo'l yurishlarini tayinladi. Qatorning ikki yondan ikkitadan otliqni qorovulday yurishlarini buyurdi.

Ularning orqalaridan bir yuz oltmish otliq bilan yo'lga chiqdi: "Dushmanlar haligi

2 Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. Тошкент. "Камалак", 1994, 97-бет.

3 Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. Тошкент. "Камалак", 1994, 103-бет.

4 Мухаммад Хайдар Мирзо. "Тарихи Рашидий". Тошкент. "Шарк", 2010. 88-бет.

5 Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. Тошкент. "Камалак", 1994, 207-бет.

6 Уша асар, 167-бет.

7 Уша асар, 167-бет.

1 Низомиддин Шомий. "Зафарнома". Тошкент. "Ўзбекистон", 1996, 43-бет.

qurollangan o'ttiz kishining bemalol kelishini ko'rib, o'ylanib qolishdi va mo'g'ul askari bostirib kelganga o'xshaydi, asosiy qismi orqada bo'lsa kerak, degan xayolga borishdi. Malik sipohi qayg'uga tushib, qochmoqqa yuz tutdi. G'olib qo'shinlari ular ortidan quvlab, ko'plarini o'sha cho'lda o'lirdilar. Qochib qolganlari Amir Muso, Shayx Muhammad va Uljaytu qoshiga yetib keldilar ... dushmonlar yigirma ming mukammal qurollangan askariga ega bo'lishlariga qaramay, qo'rquvga tushib, o'sha kundayoq shabgir qilib jo'nadilar, barchasi biri ketidan biri qo'rquvdan jon holatda qaltirab qochardilar. (shu ahvolda) Amir Husayn oldiga yetdilar⁸. Shu tariqa, Amir Temur besh yuz kishilik qo'shini bilan hujum qilib, ularga shunday qo'rquv soldiki, natijada Amir Husayn qo'shini Qashqadaryo va Surxon vohalariga qaytib ketadi.

Sohibqiron u yerdan "Yom suvi bo'yicha kelib tushdi va otlar to'yib o'tlab olguncha ma'lum muddat, o'sha yerda bo'ldi, so'ngra saodat ila yo'lga otlandi"⁹.

Amir Temur 1368-yilning qishini Toshkentda o'tkazdi. Qo'shin to'plab, Amir Husaynga qarshi o'tlanish arafasida (1369-yil) Toshkent va Xo'jand ulamolari va shayxlari Sohibqironga Amir Husayn bilan sulh tuzishni taklif qildilar. Amir Husaynning takliflarini Sohibqiron qabul qildi. Sulhga asosan, Shahrisabz, Qarshi, Samarqand, Jizzax, Xo'jand, Farg'ona, Buxoro Amir Temur ixtiyoriga o'tdi.

Shundan so'ng bir necha vaqt Amir Husayn bilan Badaxshon, Afg'oniston yurishlarida qatnashdi.

Tarixiy manbalarda Amir Temurning Mo'g'uliston tomon 7 marta harbiy yurish qilganligi tilga olinadi. Sohibqiron 1370-1389-yillar davomida Mo'g'uliston Qamariddinga qarshi hayot-mamot janrlari olib bordi. Natijada Movarounnahrda asosiy sharqiy hududlar uning tarkibiga qo'shib olindi. Bu esa o'zbek davlatchiligini qayta tiklash va markazlashgan davlatni vujudga keltirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi.

Amir Temur Eronga qarshi "uchyillik" urush olib borayotgan bir paytda, To'xtamishxonning Elyig'mish o'g'lon boshchiligidagi qo'shinlari Zominning Achchi qishlog'iga bostirib kiradilar, chunki To'xtamishxonning maqsadi katta harbiy strategik ahamiyatga ega bo'lgan Jizzaxni qo'lga kiritish edi. Sohibqiron bu xabarni eshitish bilan oq, darhol Jizzax tomon otlandi. Qorabuloq, Ilon o'tdi va Toshloqdan o'tib, Oqsulotga keldi. Amir Temur o'g'li Umarshayx Mirzo qo'shinlari bilan birgalikda Elyig'mish o'g'lon qo'shinlari tor-mor keltirdi va Sirdaryodan uloqtirib tashladi. Sohibqiron

bu xizmati bilan voha aholisini To'xtamishxon asoratiga tushishdan saqlab qoldi.

Sohibqiron To'xtamishxonga hal qiluvchi zarba berishga tayyorlanib, 1389 yil fevral oyi mobaynida Rovot va Pishog'ar qishloqlarida, Molguzorning tog' oldi yon bag'irlarida harbiy mashqlar o'tkazdi.

Nihoyat, 1404-yil noyabrda Xitoy yurishiga azmi qaror qilib, Samarqanddan yo'lga chiqib, Oqsulotga kelib to'xtaydi. Sohibqiron Xitoy bilan bo'ladigan urushga katta tayyorgarlik ko'radi.

Muhammad Haydar Mirzo "Tarixi Rashidiy" asarida: "... u sakkiz yuz ming askardan iborat lashkar tuzdi, uni yetti yilga yetgulik qilib ta'minladi. Xitoy va Movarounnahr orasidagi viloyatlar unchalik obod emasligi sababli oziq-ovqat zahirasini mo'l-ko'l qilib olishga harakat qilishdi; hukmdor kishi boshiga ikkitadan sigir, o'ntadan sog'iladigan echki olishni buyurdiki, bordi-yu yo'lga g'amlangan yeguliklar tugab qolsa, ularning suti ovqat bo'ladi, agar u ham tugasa, go'shti iste'mol qilinadi"¹⁰.

Ko'rinadiki, Sohibqiron Xitoy urushiga o'tlanar ekan, yo'lning uzoqligi, qo'shinlar ta'minoti, urushni ko'pga cho'zilishi kabi barcha holatlarni hisobga olib, tayyorgarlik ko'rgan.

Bu haqda, Nizomiddin Shomiy ham o'zining "Zafarnoma" asarida: "Sakkiz yuz yettinchi yil jumadi ul-avval oyida (1404-yil noyabr) Hazrat Sohibqiron qishlovni o'tkazish uchun dorusaltanat Samarqanddan yo'lga o'tlanib, Oqsulotga kelib qo'ndi... Uning otliq lashkarlari qurol-aslahalari yukidan yer ustunlari larzaga va otlari taqasi zarbidan osmon gumbazi junbushga kelib, Oqsulotga yetib tushdi"¹¹.

Amir Temur 1404-yilning dekabrda Oqsulotdan chiqib, Uzun ota, Qamar ota, Sulaymonshoh Zarnuk orqali Sirdaryoga yetib keldi. Unday O'troga 1405-yil 11-yanvarida yetib bordi.

Muxtasar qilib aytganda, Jizzax vohasi o'zining katta harbiy strategik ahamiyati, qulay jug'rofiy o'zni, ajoyib tabiiy manzaralari, zilol suvlari-yu, soy va adirlari, go'zal go'shalari bilan Sohibqironni alohida nazariga tushgan va mehrini qozongan.

Amir Temur mo'g'ullar istilosi davrida vayron bo'lgan O'smat, Novqa, Nushkent, Avliyo, Og'oman, Rovot, Pishog'ar, O'rda, Zomin, Xonimqo'rg'on, Bozorxonim kabi qo'rg'onlar, Sa'd ibn Vaqqos, Parpi ota, Ko'kgumbaz, Boboyakka, Qulfisar ota kabi maqbara va xonaqohlar obod bo'ldi, Sangzor, Ko'rpasoy, Uvob, Pishog'arda go'zal bog'lar bunyod etildi.

SHAXS TUSHUNCHASI VA UNING SHAKLLANISHIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR

Bobomurot Eshboyevich Toshboyev - dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxs tushunchasiga oid qarashlar va uning talqinida sharq va g'arb ijtimoiy-falsafiy fikrlaridagi o'ziga xos jihatlar hamda mamlakatimizda shaxs shakllanishining tarixiy evolutsiyasi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, shaxs shakllanishining inson, jamiyat va davlat hayotidagi muammolarni bartaraf etishdagi o'rni asoslab berilgan.

Аннотация: В данной статье обсуждаются взгляды на понятие личности и его трактовку, особенности восточной и западной социально-философской мысли, а также историческая эволюция формирования личности в нашей стране. Также обосновывается роль формирования личности в решении проблем в жизни человека, общества и государства.

Abstract: This article discusses the views on the concept of personality and its interpretation, the features of Eastern and Western socio-philosophical thought, as well as the historical evolution of the formation of personality in our country. The role of personality formation in solving problems in the life of a person, society and the state is also substantiated.

Kalit so'zlar: shaxs, xarakter, millat, milliy xarakter, mentalitet, ma'nan barkamol avlod, komil inson, "tarixiy shaxs", xalq og'zaki ijodi, shaxsning sharq tipi, shaxsning g'arb tipi.

Ключевые слова: личность, характер, нация, национальный характер, менталитет, совершенное по смыслу поколение, совершенный человек, «историческая личность», фольклор, восточный тип личности, западный тип личности.

Keywords: personality, character, nation, national character, mentality, generation perfect in meaning, perfect person, "historical personality", folklore, eastern personality type, western personality type.

Taraqqiyotning barqaror davomiyligini ta'minlash birinchi navbatda millatlararo totuvlik va milliy birlikka tayansa, keyingi o'rinda yoshlarga, ularning amaliy faoliyatiga, axloqiy barkamolligiga, g'oyaviy-siyosiy yetukligiga, milliy o'zligini qanchalik mukammal anglab olganliklariga va millat xarakterida mujassamlashgan jihatlarini o'zida namoyon qilishiga bog'liq. Mustaqil fikrlay oladigan, dunyoqarashi va tafakkuri keng, jismonan baquvvat, aqlan yetuk va axloqan hamda ma'nan barkamol insonlar yurt taqdirini hal qiladi. Shuning uchun ajdodlar merosiga munosib, milliy va umuminsoniy qadriyatlarini ongiga singdirgan barkamol avlodni tarbiyalash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri sanaladi. Ma'nan barkamol avlod, siyosiy yetuk shaxs tarbiyasida, avvalo, tabiiy taraqqiyot jarayonida shakllangan millat xarakteridagi fazilatlar asosiy o'rinni egallaydi. Zero, millatga xos bo'lgan xususiyatlarni o'zida mujassam etmagan va milliy ruhiyatga ega bo'lmagan odamni xalq shaxs sifatida tan olmaydi, u umuminsoniy taraqqiyotga ham o'z hissasini qo'shmaydi.

Millat xarakterida har bir xalqning uzoq asrlar davomida yaratgan ma'naviy va moddiy boyliklari, yon-atrof, muhit va kelajak

haqidagi tasavvurlari, milliy-etnik belgilari, mentaliteti, urf-odatlar, an'analari hamda ijtimoiy munosabatlari to'la aks etadi. Shu nuqtayi nazardan millatning tiklanishi va milliy yuksalishga erishishda milliy xarakter va uni o'zida mujassam qilgan shaxs yetakchi o'rin egalaydi.

Har bir inson muayyan millat vakili sanaladi. Barcha insonlarni shaxs sifatida e'tirof etish o'rinli emas. Qachonki, inson milliy va umumbashariy xususiyatlar bilan taqozolansa va ularning manfaatlarini o'zida mujassamlashtira olsagina, individual xususiyatlari orqali shaxs darajasiga ko'tarilishi mumkin. Bu xususiyatlarning ayrimlari tabiatan insonga in'om etilgan bo'lsa, ba'zilari keyinchalik shakllanadi. Inson o'z individual xususiyatlari orqali shaxs darajasiga ko'tariladi.

Shaxs tushunchasiga oid ilmiy tadqiqotlar inson tushunchasi talqiniga oid qarashlardan bir muncha keyinroq ya'ni, XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida shakllana boshlagan, keyinchalik shaxs muammosini o'rganishga bo'lgan urinish uzliksiz ortib bordi. Pragmatizm, personalizm, ekzistensializm, ruhiy tahlil falsafasi kabi maktablar o'z tadqiqot yo'nalishlaridan kelib chiqib shaxs

8 Низомиддин Шомий. "Зафарнома". Тошкент. "Ўзбекистон", 1996, 69-бет.

9 Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. Тошкент. "Камалак", 1994, 207-бет.

10 Муҳаммад Хайдар Мирзо. "Тарихи Рашидий". Тошкент. "Шарқ", 2010. 118-бет.

11 Низомиддин Шомий. "Зафарнома". Тошкент. "Ўзбекистон", 1996, 69-бет.

konsepsiyasining turli qirralarini ochib berishga harakat qilganlar. Pragmatizm falsafiy maktabi vakillaridan Uilyam Djeymning fikriga ko'ra, "shaxs – onglilikning tavsifidir", personalizm maktabi vakillarining xulosalariga ko'ra "shaxs – axloqiy kamolotga erishishning eng oliy cho'qqisi, uning Xudo shaxsi bilan doimiy muloqatidir"¹. Ekzistensialist faylasuflardan N.A.Berdyyevning fikricha, "shaxs "ijodiy energiya markazi" bo'lib, ma'naviy-axloqiy hodisadir. Uning mohiyatini erkinlik va ijodiylik tashkil etadi"². Psixanalitik falsafa vakillaridan K.Yung fikricha, inson shaxsining eng muhim xususiyati – uning butun diqqat e'tibori tashqi va ichki olamga qaratilganligidir³. Neofreydizmning yirik vakillaridan Erik Erikson tushuntirishicha, "individning shaxs darajasiga ko'tarilishi inson umrining dastlabki yillari bilan chegaralanib qolmaydi, balki bosib o'tgan butun hayot yo'lini qamrab oladi"⁴.

Shunday qilib, XIX asrning birinchi yarmida G'arbiy Yevropa va Amerikada shaxs to'g'risida turli ilmiy konsepsiyalar, nazariy doktorinalar yaratilishiga qaramasdan, shaxs fenomenini yaxlit o'rganishga bo'lgan ehtiyoj uzluksiz ortib boraverdi. Ana shunday bir sharoitda rossiyalik tadqiqotchilardan B.G.Anonev, K.K.Plotonov, L.Bejevichlar shaxs muammosini o'rganuvchi fanpsixologiyadegan fikrni ko'tarib chiqdilar. Xuddi ana shunday bir yoqlama fikrlash ta'sirida, shaxs – psixologik jarayonlar, holatlar, xususiyatlarning yig'indisi degan xulosaga kelinadi. Ayniqsa, ijtimoiy psixologiya tarafdorlari shaxs muammosini faqat biz yaxlit har tomonlama o'rganamiz degan da'vo bilan chiqadilar. Ularning fikricha, shaxs – eng avvalo, obyektiv shart-sharoitlar va subyektiv omillar belgilab bergan insonning ijtimoiy holati, xususan psixologik holatlari va xususiyatlarining yig'indisidir⁵.

Bizningcha, shaxs muammosini yaxlit o'rganishni da'vo qilib chiqqan psixologlarning ham fikrlari o'rinsiz emas. Ammo, psixologiya shaxsning psixik xususiyatlarini, ijtimoiy psixologiya esa, odamlar psixologiyasini o'rganadi. Qolgan ijtimoiy munosabatlar uning o'rganish obyektidan tashqarida qoladi va o'z o'zidan ma'lum bo'ladiki, shaxs masalasini faqatgina psixologiya yoki ijtimoiy psixologiya ham har tomonlama yoritib bera olmaydi. Shaxs murakkab fenomen hisoblangani bois u bilan qiziquvchi fanlar doirasida unga

kompleks yondoshuv talab etiladi.

G'arbdagi shaxs masalasiga oid turli soha vakillari ilmiy izlanishlari jarayonida shaxsning g'arb modeliga mos keladigan konsepsiyasi yaratildi. Bu konsepsiyaga ko'ra ijtimoiy faollik, tadbirkorlik, ongli va foydali faoliyat, mustaqillik, individualizm, shaxsiy mas'uliyat, o'z qadr-qimmatini bilish tuyg'usi – shaxsning g'arb yevropa-amerika konsepsiyalari yuksak qadrlaydigan sifatleri hisoblanadi⁶.

Shaxs masalasi talqini sharq falsafiy tafakkuri tarixida ham o'ziga xos tarzda talqin etilgan. Shaxs masalasiga oid (aynan tushuncha ishlatilmasada) fikrlar diyorimizda paydo bo'lgan ilk yozma yodgorlik "Avesto" kitobida ko'rishimiz mumkin. Zardo'shtiylikning axloqiy asosini uch narsa – ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal tashkil etadi. Mana shu uchlik mujassamlashgan insonni bizningcha, o'sha davr qiyofasidagi shaxsning timsoli deb talqin qilish mumkin. Inson kamoloti masalasi bilan bevosita shug'ullangan A.Nasafiy qarashlarida o'rta asrlar davriga xos shaxsning modeli yaratilgan. Aziziddin Nasafiy komil insonga ta'rif berib yozadi. "Bilgilki komil inson deb shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqatda yetuk bo'lgan odamga aytadilar va agar bu iborani tushunmasang, boshqa ibora bilan aytayin: bilgilki, komil inson shunday insondirkim, unda quyidagi to'rt narsa kamolga yetgan bo'lsin; yaxshi so'z, yaxshi fe'l, yaxshi axloq va maorif"⁷. Bizningcha, ushbu komil inson haqidagi fikrlar hozirgi vaqtda ta'riflanayotgan komil inson tushunchasiga mohiyatan yaqin.

Rus bosqiniga bo'lgan davrda shaxs tushunchasi ishlatilmagan bo'lsa-da, uning belgi va xususiyatlari haqida fikrlar mavjud bo'lgan. Kishilar bu xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirganlarni o'zlariga ideal hisoblab doimo ularga intilishgan. Rus bosqini davrida shaxs va uning belgi xususiyatlari bir yoqlama talqin qilindi. Oqibatda xalqimiz milliy xarakteriga singib ketgan ayrim xususiyatlarimiz oyoq osti qilinib, qadrsizlantirildi.

Mustaqillikdan keyin boshqa sohalarda bo'lgani kabi shaxs masalasiga e'tibor ham avvalgidan o'zgardi. Bu sohada ham tadqiqot ishlari olib borilib, ma'lum mulohazalar ilgari surilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning ta'kidlashicha, "shaxs ham odamning o'zginasi

1 Джеймс У. Психология. – М.: 1991. Стр. 67.

2 Қаранг: Чориев А. Инсон фалсафаси II мустақил шахс. – Т.: Чинор. 2002. 5-6.

3 Юнг К. Проблемы души нашего времени. – М.: 1993. Стр. 73.

4 Эриксон Э. Идентичность: юность и кризис. – М.: 1996. Стр. 114

5 Қаранг: Чориев А. Инсон фалсафаси II мустақил шахс. – Т.: Чинор. 2002. 28-6.

6 Фалсафа (Аҳмедова М. таҳр. ост.) – Т.: ЎзФМЖ. 2006. 354-6.

7 Комилов Н. Комил инсон – миллат келажи. – Т.: Ўзбекистон. 2001. 17- 6.

bo'lib, lekin uning ijtimoiy mohiyati va ijtimoiy faoliyatining ifodalanishidir"⁸. Taniqli faylasuf olim A.Choriyev fikricha, "shaxs tushunchasi inson faoliyatidagi onglilik, erkinlik, maqsadga muvofiqlik, boshqacha aytganimizda, inson o'z faoliyatini boshqara olish qobiliyatini ifodalaydi"⁹. Ibrohim Karimovning e'tiroficha, "shaxs beqarorlik (individual) sifatleri bilan albatta individ, ammo u faol xususiyatlari tufayli shaxsdir. Individni o'ziga xoslik, betakrorlik sifatleri, shaxsni shu bilan birga erkin, ijodiy fikrlash va muayyan vaziyatda mas'uliyatni o'z zimmasiga olib mustaqil harakat yo'nalishi olish qobiliyati kabi sifatleri belgilaydi"¹⁰. M.Imomnazarov yozishicha, "shaxs – o'z ma'naviy kamolot imkoniyatlarini yuzaga chiqara boshlagan inson. Bu hodisa o'zlikni anglash deb aytiladi. Demak, shaxsni – o'zligini anglay boshlagan inson deyish ham mumkin"¹¹.

Bizning yashash hududimiz sharq mamlakatlari qatoriga kirgani bois biz shaxsni sharq xalqlariga xos xususiyatlar orqali tasavvur qilamiz. Shaxsning sharq tipiga xos asosiy xususiyatlari quyidagilardir: mas'uliyat va majburiyatlarning inson huquqlari oldidagi ustuvorligi, xulq-atvordagi traditsionalizm, xulq-atvorning jamoaviy modellarining individual me'yorlardan ustunligi, sotsiumga ko'proq qaramlik, ijtimoiy muhit bilan aloqaning borligi¹². Bu xususiyatlar milliy mentalitetimiz va xarakterimizdagi asosiy jihatlar bilan uyg'undir.

Har bir tarixiy davrda shaxs tipining qaror topishiga ta'sir qiladi. Bu ta'sir etuvchi omillarga bizningcha, quyidagilarni kiritish mumkin: a) xalq tarixida iz qoldirgan muhim voqealar (bosqinlar, urushlar va qaramlik davrlari) b) xalq donishmandligi (xalq tomonidan to'qilgan laparlar, maqollar, dostonlar va hikoyalar), v) tarixda o'z o'rnini qoldirgan, xalq idealidagi "tarixiy shaxs"larning faoliyati kabilar.

Shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi tarixiy omillar ichida xalqning bosib o'tgan uzoq tarixiy tajribasi muhim o'ringa ega. Tarixiy tajribada xalq uchun ijobiy ahamiyatga ega bo'lgan urf-odat va an'analar millat vakillari tomonidan millatning muhim belgisi sifatida qadrlanib kelingan. Masalan, sharq xalqlari uchun jamoaviylik ustuvor ko'rinish kasb etishi va har bir sharq kishisi uchun jamoa fikri bilan hisoblash, yerni ulug' hisoblash va boshqa

holatlar xos bo'lgan.

"Biz sharqona tarbiya ko'rganimiz o'z odatlarimiz, an'analarimiz, o'z betakror insoniy tabiatimiz mavjud. Aytingchi, bizdagiday rang-barang, insonparvar qadriyatlar yana qayerda bor? Andisha, muruvvat, mehr-oqibat, oriyat ibo va hayo, mulozamat degan so'zlarni boshqa bir tilga tarjima qilish mumkinmi?"

Xalqimizning insoniylik fazilatlarini o'zida namoyon etadigan bunday atamalarni birmabir sanab, yuzlab misollar keltirish mumkin. Shunday ekan, barpo etayotgan davlatimiz, kelajagimiz ildizi teran tariximizga, betakror madaniyatimizga, noyob qadriyatlarimizga, yuksak maqsadlarimizga monand bo'lishi lozim"¹³.

Ma'lumki, tarix xalq qiyofasi shakllanishida o'z izini qoldirgani kabi shaxs takomilida ham o'z o'rniga ega. Ya'ni, tarixiy xotirasiz – kelajak yo'qdir. Tarix sinovlarida toblangan, millatning yaxshi-yomon kunlariga xizmat qilgan milliy qadriyatlarimizni avaylab uning ijobiy va ijtimoiy taraqqiyot uchun xizmat qilganlarini milliy tarbiya orqali millat farzandlari xarakteriga aylantirish lozim.

Xalq tarixida iz qoldirgan voqealar, xalqning boshqa davlat tomonidan istilo qilinishi, uning qahramon o'g'lonlarining fidoiyligi va milliy ozodlik harakatlari ham shakllanayotgan shaxs tipida o'z ifodasini topadi. Masalan, Spitamen, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Ulug'bek, Behbudiy kabilarni Markaziy Osiyo xalqlari o'z idealidagi kishilar hisoblab, ularning hayot yo'llaridan ibrat olishga urinishgan. Xalq idealidagi obrazlarda mujassamlashgan qahramonlik, vatanparvarlik, qat'iyatlilik, chidamlilik, millatparvarlik, vijdonlilik kabi fazilatlarini o'zlarida mujassamlashtirishga uringan. Bu holat milliy tarbiya bilan uyg'unlashgan holda millat xarakterining shakllanishiga o'z ta'sirini ko'rsatgan bo'lsa, millatning boshqa davlatlar tomonidan istilo qilinishi millat xarakteridagi ijobiy fazilatlarining so'ndirilishiga olib kelgan. "Tarixdan ma'lumki, - deb ta'kidlagan edi I.A.Karimov, bir xalqni o'ziga tobe qilishni istagan kuchlar, avvalo uni o'zligidan, tarixidan madaniyatidan judo qilishga intiladi... tabiiy savol tug'iladi: bunday mafkuraviy ta'sirlar salbiy oqibatlariga olib kelmasligi uchun nima qilish kerak"¹⁴?

Istilo qilingan mamlakatda hukmron

8 Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. –Т.: Ўзбекистон. 1992. 8- 6.

9 Чориев А. Инсон фалсафаси II мустақил шахс. – Т.: Чинор. 2002. 104- 6.

10 Каримов Иброхим. Ноосфера: геосиёсат ва мафкура. – Т.: Фан. 2007. 24- 6.

11 Имомназаров М. Миллий маънавиятимиз асослари. – Т.: Ўз. Ф. М. Ж. 2006. 245- 6.

12 Фалсафа (Аҳмедова М. таҳр. ост.) –Т.: ЎзФМЖ. 2006. 355-6.

13 Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. 8-жилд. – Т.: Ўзбекистон. 2000. 471-6.

14 Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт - пировард мақсадимиз. 8-жилд. –Т.: Ўзбекистон. 2000. 506- 6.

davlatning siyosati o'rnatiladi va bu davlatning boyliklarini talash, xalqini beayov ishlatish asosiy maqsad bo'ladi. Bu orqali millatga xos bo'lgan ko'plab ijobiy fazilatlar toptalib, ularni yo'qotishga harakat qilinadi. Masalan, chor rossiyasi hamda sovetlar mustamlakachiligi davrida xalqimizga xos bo'lgan hamjihatlilik, jangovarlik, har ishda so'z va amal birligi singari fazilatlariga jiddiy zarar yetkazildi. Xalq orasida milliy birlikka intilishdan ko'ra guruhiiy etnik, mahalliy va hududiy ayirmachilikka berilish kuchaydi va bu xususiyatlarga mustamlakachilar tomonidan zimdan zamin yaratildi. Xalq milliy mentalitetidagi taqdirga tan berish, hamma narsaga rozi bo'lib ketaverish, loqaydlik kabi xususiyatlar avj oldi¹⁵. Bu holat xalq tarixida bir necha bor Arablar bosqini, Chingiziyalar istilosi davrida ham takrorlangan. Bu esa, millatimiz xarakteriga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazgan. Oqibatda, islohatlar shiddat bilan kechayotgan bugungi kunda ham yurtboshimiz iboralari bilan aytganda "... aksariyat hollarda o'tkir va og'ir muammolarning yechimi ustida ishlash o'rniga, "ozgina vaqt o'tsa, bu masala o'zi xal bo'ladi", "bu - hukumatning ishi", degan qarashlar, "sen - menga tegma, men - senga tegmayman", degan eskicha kayfiyat ham yo'q emas"¹⁶ligini ta'kidlash joizdir.

Shaxs shakllanishiga xalq og'zaki ijodi namunalari ham ta'siri kattadir. Xalq og'zaki ijodi namunalari qaysi turiga murojaat qilmang ularning asosiy g'oyaviy yo'nalishini adolat, jasurlik, ezgulik, erkparvarlik, insonparvarlik, to'g'riso'zlik, mehnatni qadrlash kabi umuminsoniy qadriyatlarini targ'ib qilish tashkil qiladi. Masalan, "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Kuntug'mish", "Shiroq", "To'maris" kabi xalq qahramonlik dostonlari yoki turli xalq lapar va maqollarida ham xalqni ma'naviy jihatdan yetuklikka chorlovchi g'oyalar mujassamlashgandir. Bu g'oyalar bag'rida voyaga yetgan avlod millat xarakteriga xos bo'lgan ijobiy xususiyatlarni o'zlashtiradi. Ezgulikning qanday natija berishi va yovuzlikning qay tariqa yakun topishi haqida tasavvurga ega bo'ladi.

Xalq og'zaki ijodi namunalari shaxs shakllanishida tarixiy manba va retrospektiv asos vazifasini ham o'taydi. Tarbiya jarayonini aqliy jarayondan ajralgan holda tasavvur etib bo'lmaydi. Ma'naviy-moddiy manbalar hissiyot orqali aqlni, aql orqali esa hissiyotni tarbiyalash vositasidir. Shunday holat xalq og'zaki ijodi namunalari barchasida namoyon bo'ladi.

Xalq og'zaki ijodi namunalari dastlab hissiyotga o'z ta'sirini o'tkazsa, keyinchalik aql hodisasiga aylanadi va u kishi amaliy faoliyatida namoyon bo'ladi yoki aql hodisasidan yana hissiyot hodisasiga aylanadi. Mana shunday uzviy aloqadorlik asosida shaxs xarakteri tarkib topadi. Yomon yoki insonlarga salbiy ta'sir etuvchi holatlarni odam mushohada qilib, uni amalga oshirmaslikka harakat qiladi. Xalq og'zaki ijodining barcha janrlariga xos muhim xususiyat ham aqliy teranlik, mantiqiy fikrlash asosida ma'naviy madaniyatning barcha qirralarini ongli ravishda o'zlashtirish va ezgu qadriyatlarni amaliyotga tatbiq etish orqali aqliy barkamollikka erishishdan iboratdir.

Binobarin, shaxs deganda insondagi ham biologik, ham sotsial, ham psixologik jihatlarni bir butunicha birlashtiruvchi yaxlit holga keltiruvchi va jipslashtiruvchi ibtido nazarda tutiladi. Insondagi shaxslik undagi barqaror narsalardir. Shaxs shakllanishining zarur shart-sharoitlari jisimiy mavjudligi, o'z-o'zini anglash va sotsial turmush tarzidir. Shaxs bo'lganlikning asosiy ko'rinishi - insonda dunyoqarashning mavjudligidir.

Shaxs faoliyat, aloqa (muloqot) jarayonida shakllanadi. Boshqacha aytganda, uning shakllanishi mohiyatan individning ijtimoiylashish jarayonidir. Bu jarayon uning takrorlanmas-unikal qiyofasining ichki shakllanish yo'li bilan amalga oshadi va individdan mahsuldor faollikni talab qiladiki, u o'z xatti-harakatlari, xulq-atvori, qilmishlarini doimo korreksiya qilib turishni talab qiladi. Bu o'z navbatida o'z o'zini anglash bilan bog'liq bo'lgan o'ziga baho berish qobiliyatining rivojlanishi zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bu jarayonda aynan shaxsiga xos bo'lgan refleksiya mexanizmlari o'z o'zini anglash va o'z o'zini baholash asosida mashq qilinadi.

Shaxs uch asosiy tizim (tarkibiy qismi) majmuasidir: biogenetik qobiliyatlar, ijtimoiy omillar (muhit, sharoit, normalar) ta'siri va uning psixosotsial yadrosi - Men. Men nima? Bu insonning ma'naviy dunyosining integral yadrosi, uning regulyativ markazidir.

U go'yoki muayyan yo'nalishda namoyon bo'ladigan motivlash sohasini, xarakterni belgilaydigan, psixika fenomeniga aylangan - shaxsning ichki sotsialligi, o'z manfaatlarini ijtimoiy manfaatlar bilan nisbatlash usuli, talab darajasi, ishonch e'tiqod, qadriyatiy yo'l-yo'riqlar shakllanishining asosi, umuman, dunyoqarashdir. U yana inson ijtimoiy xususiyatlarining shakllanishi asosi hamdir.

15 Атажанов Ш, Аширов А. Этнология. - Т.: Миллий кутубхона. 2007. 130- б.

16 Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1- жилд. - Тошкент.: Ўзбекистон, 2017. 555- б.

Inson tabiiy, ya'ni jismi bo'yicha ham, ruhi bo'yicha ham shaxs emas, balki ruhi mukammalligining yuksak darajasi bo'yicha shaxsdir.

Shaxs deganda insonning ma'naviy dunyosida mujassamlashgan, uning ijtimoiy, axloqiy, psixologik va estetik sifatlari hamda uning jamiyatda bajarishi lozim bo'lgan ijtimoiy vazifasi nazarda tutiladi. Ammo integral birlikda ham shaxsni bu funksiyalardan iborat deb bo'lmaydi. Shaxsiy - bu insonga tegishli barcha narsa, uning mulki va boshqalar. Shaxs inson o'zimizniki deb hisoblagan barcha narsani - nafaqat jisimiy va ruhiy sifatlari, balki uning ko'ylagi, uyi, xotini, bolalari, avlodi, do'stlari va mehnatini qamrab oladi. Bunga ism va familiyani ham qo'shish mumkin. Bularning barchasi uning mulki va ularning barchasi shaxs g'oyasida mujassamlashadi. Aytaylik ism inson uchun tashqi emas, u, u bilan birga o'sgan va uning muhim elementlaridan biridir.

Shunday qilib, shaxs chegarasi inson jismidagina emas, uning ma'naviy dunyosidan ham ancha keng. Uni qandaydir markazdan tarqalgan suv to'liqiniga qiyoslash mumkin: yaqin doiralar - bu uning yaratgan nasalari, yaqin kishilari, shaxsiy mulki, do'stlari; uzoq doiralar sotsium dengiziga birikib ketadi va keyin tag-tubsiz koinotga qo'shilib ketadi.

Inson shaxs sifatida tugallangan narsa emas. U to'xtovsiz insonning o'z ustida ishlashini va mehnatni talab qiluvchi jarayon.

Shaxsning asosiy natijalovchi xususiyati uning dunyoqarashidir. Shaxs yuksak darajadagi ma'naviyatga ega bo'lgan insonni ifodalaydi. Dunyoqarash - bu shaxs va butun bizni o'rab turuvchi dunyoni bog'lab turuvchi ko'priq. Dunyoqarashning shakllanishi bilan bir vaqtda shaxs xarakteri ham shakllanadi. Shaxs xarakteri - inson faolligining ijtimoiy shakllarini barqarorlashtiruvchi psixologik hodisadir. "Faqat xarakterda individ o'zining doimiy muayyanligiga ega bo'ladi"¹⁷.

Shaxs tushunchasi sinonimi sifatida qo'llaniladigan "xarakter" so'zi odatda shaxs kuchining me'yorini, ya'ni iroda kuchini bildiradiki, u ham shaxsning natijalovchi

ko'rsatkichidir. Iroda kuchi dunyoqarashni yaxlit, barqaror qiladi va unga harakatchan energiya baxsh etadi. Kuchli irodali kishilar kuchli xarakterga ega bo'ladilar. Irodasiz individ shaxs sifatidagi qaror topishi mumkin emas.

N.A.Berdyayevning fikricha, "...inson shaxsi, dunyoga nisbatan sirliroqdir"¹⁸. Inson shaxsiga nafaqat yakkalik va umumiylik, ayni paytda noyoblik ham xos. Unga individual - o'z-o'ziga xos vujud sifatida qarash lozim. Insonning noyobligi biologik darajadayoq namoyon bo'ladi. Bu uning genofondida saqlangan bo'ladi. Uning mazmun-mohiyati nafaqat tashqi qiyofa, balki uning ichki ma'naviy dunyosi, uning dunyodagi alohida borliq usuli, xulq-atvori, kishilar va tabiat o'rtasidagi aloqalari bilan bog'liq.

Inson zotining vakili sifatida shaxs o'zida umumiy xususiyatlarni ham ifoda etadi. Unga muayyan jamiyat vakili sifatida bu jamiyatga xos bo'lgan ijtimoiy-siyosiy, milliy, tarixiy an'analar, madaniyat shakllari xos. Ayni paytda u noyobki, bu nasliy xususiyatlar va u yashagan takrorlanmas mikromuhit sharoitlari bilan bog'liq. Nasliy o'ziga xoslik, takrorlanmas mikromuhit sharoiti va unda amalga oshirilgan shaxs faoliyati takrorlanmas shaxsiy tajriba yaratadi. Bu birgalikda shaxsning ijtimoiy-ruhiy noyobligini shakllantiradi.

Yuqorida keltirilgan shaxs masalasiga oid fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkin: shaxs o'zining ijtimoiy mohiyati va faoliyati bilan boshqa kishilardan ajralib turuvchi fenomen hisoblanadi; shaxsning ijtimoiy-ruhiy noyobligini shakllantirish ta'lim-tarbiya jarayoni bilan uzviy aloqador; har bir shaxs yashab turgan muhit ta'sirida tarbiyalanadi va uning noyobligi ham yashash muhiti bilan taqozolanadi; o'z millatiga xos bo'lgan xususiyatlarni o'zida mujassam etmagan va milliy ruhiyatga ega bo'lmagan odamni uning millatdoshlari shaxs sifatida tan olmaydi hamda u umuminsoniy taraqqiyotga ham o'z hissasini qo'shmaydi.

17 Гегель Ф. Сочинения. - М., 1956. Т. III. Стр. 76

18 Бердяев Н.А. Самопознание. - М., 1990. Стр. 8.

YOSHLARNI FAOLLIGINI OSHIRISHDA SIYOSIY-HUQUQIY TA'LIM VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI

Xurshid Xurramovich Eshov - siyosiy f.b.f.d.(PhD),

Oybek Xayrulloevich Ravshanov - mustaqil tadqiqotchi, O'zbekiston Milliy universiteti

Annotatsiya: Hozirgi vaqtda so'ralgan yoshlarning har uchdan bir qismi yuqori texnologiyali innovatsiyalar sohasi bilan bog'liq professional faoliyatga olib kelishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarga qiziqish bildirmoqda. Yoshlarning innovatsiyalarga bo'lgan xohishi ancha yuqori. Yuqoridagilarning barchasi modernizatsiya o'zgarishlarida yoshlar salohiyatidan to'g'ri foydalanilmayotganiga olib keladi. Bunda yoshlarni davlatning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatiga jalb etish jarayoni yoshlarni modernizatsiya subyekti sifatida shakllantirishning ehtimoliy ssenariysi sifatida qaralmoqda. Maqolada mana shu jihatlar inobatga olinib, yoshlari faolligini oshirishda siyosiy-huquqiy ta'lim va innovatsion texnologiyalarini o'rganish to'g'risida fikr yuritilgan.

Аннотация: В настоящее время треть опрошенных молодых людей интересуется информацией, которая может привести к профессиональной деятельности, связанной со сферой высокотехнологичных инноваций. Стремление молодежи к инновациям очень велико. Все вышеперечисленное приводит к тому, что потенциал молодежи не используется должным образом в модернизационных преобразованиях. Процесс привлечения молодежи к социально-экономическому потенциалу государства рассматривается как возможный сценарий формирования молодежи как субъекта модернизации. С учетом этих аспектов в статье рассматриваются вопросы изучения политико-правового образования и инновационных технологий повышения активности молодежи.

Abstract: Currently, one third of the young people surveyed are interested in information that can lead to professional activities related to the field of high-tech innovation. The desire of young people to innovate is very high. All of the above leads to the fact that the potential of young people is not properly used in the modernization changes. The process of attracting young people to the socio-economic potential of the state is considered as a possible scenario of forming young people as a subject of modernization. Taking into account these aspects, the article discusses the study of political and legal education and innovative technologies to increase the activity of young people.

Kalit so'zlar: yoshlar, ta'lim, innovatsiya, jamiyat, modernizatsiya, e'tiqod, davlat, tizim.

Ключевые слова: молодежь, образование, инновации, общество, модернизация, вера, государство, система.

Keywords: youth, education, innovation, society, modernization, faith, state, system.

O'zbekistonda ro'y berayotgan o'zgarishlarning ko'lami va chuqurligi mamlakatda butun jamiyat manfaatlariga daxldor modernizatsiya jarayonlari kechayotganidan dalolat beradi. Ushbu bog'liqlikning shubhasiz ahamiyati modernizatsiya o'zgarishlariga tayyorlik, yoshlar kabi aholi ijtimoiy guruhining innovatsion faolligining namoyon bo'lishi masalalarini egallashdir.

Mamlakatning raqobatbardoshligi jamiyatning innovatsiyalarni eng ko'p qabul qiluvchi qismi sifatida o'sib kelayotgan yosh avlodning inson kapitalining o'sishi bilan bevosita bog'liq, desak xato bo'lmaydi. Innovatsion iqtisodiyotda muhim o'rin tutadigan bunyodkorlik, intiluvchanlik, yuksak

o'rganish qobiliyati, moslashuvchanlik, tashabbuskorlik kabi fazilatlar yoshlarda bejiz emas.

Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun, avvalo, ilm-ma'rifat, yuksak madaniyat kerak. ILM yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi¹.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda so'ralgan yoshlarning har uchdan bir qismi yuqori texnologiyali innovatsiyalar sohasi bilan bog'liq professional faoliyatga olib kelishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarga qiziqish bildirmoqda. Biroq mavjud imkoniyatlar yoshlarning innovatsion faolligini oshirishga olib kelmayapti. Yoshlar, eng avvalo, o'z bilim darajasini oshirish orqali inson salohiyatini

amalga oshirish mumkinligiga ishonadilar. Telefon so'rovi ishtirokchilarining fikriga ko'ra, oliy ma'lumot olish ish haqining yuqori darajasi, martaba o'sishi, moddiy farovonlik va moliyaviy barqarorlikni kafolatlaydi. Yoshlar mehnat bozorida raqobatbardosh, talabgir bo'lish uchun yaxshi ma'lumotga ega bo'lish kerakligini anglyadilar, ular hayotda muvaffaqiyatga, kasbiy faoliyatda yutuqlarga erishishga va jamiyatda o'zlarini ishonchli his etish hamda yangi maqsadlar sari harakatning yangi strategiyalarini yaratishga imkon beradigan ijtimoiy vosita – ta'lim ekanligini anglyadilar².

Shunday qilib, yoshlarning ehtiyojlari (qiziqishlari) bilan ushbu sohada shakllanayotgan real harakatlar (vaziyat) o'rtasida tafovut mavjud. Shunga ko'ra, yoshlarning innovatsion faoliyatga tayyorligini belgilovchi omillarni aniqlash bugungi kunning dolzarb ilmiy-amaliy muammosiga aylanib bormoqda.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, turli davrlarda yoshlar muammolarini o'rganishga bo'lgan ilmiy qiziqishning intensivligi o'zgargan. 1920-1980-yillar yoshlar muammolari bo'yicha keng ko'lamlil asarlar nashr etildi, tadqiqot mavzusi talabalarning moliyaviy ahvoli hayoti muammolari (A.Kaufman); ishlab chiqarishdagi o'smir ishchilarning ahvoli (I. Yanzhul, A. Bernshtein-Kogan); yosh oilalarning uy hayoti (E.Kabo). Ushbu masala 1960-1970-yillarda mahalliy tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. 1990-yillar B.A.Grushin, V.A.Yadov, V.T.Lisovskiy, M.N.Rutkevich, L.N.Z.I.Faynburg.

"Davlat boshqaruvi akademiyasida yoshlar masalasiga mutasaddi barcha rahbarlarning bilim va malakasini oshirish uchun o'quv kurslari tashkil etilishi kerak. Ular o'z viloyati va tumanlari, maktab, kollej, texnikum, oliygohlardagi yoshlarning ma'naviy tarbiyasi uchun bevosita mas'ul bo'lib, har oyda tahlilvi muhokamalar o'tkazishi va mahalliy kengashlarda hisobot berib borishi darkor"³.

O'zbekistonda ushbu sohaga qiziqishning sezilarli darajada pasayishi kuzatildi, bu ko'plab tadqiqot guruhlari faoliyatining to'xtatilishi, moliyalashtirishning yetarli emasligi sababli monitoringning to'xtatilishi va boshqalar bilan namoyon bo'ldi. 2000-yillar yoshlar muammolarini o'rganishga qaytish kuzatildi, bu uning alohida kichik guruhlari yoshlarini ijtimoiylashtirish va rivojlantirish bilan bog'liq nazariy empirik tadqiqotlar natijalariga asoslangan akademik nashrlarda nashr etilgan monografiyalar, maqolalar sonining ko'payishidan dalolat beradi. Yoshlar

muammolarini o'rganishga e'tiborning kuchayishi ma'lum darajada 2009-yilgi e'lon bilan bog'liq edi. "Yoshlar yili"⁴. Yoshlarni ijtimoiy resursning ijtimoiy-demografik guruhi sifatida talqin qilishga asoslangan ilgari ishlab chiqilgan nazariyalar bilan bir qatorda (I.S.Kon, V.T.Lisovskiy, M.N.Rutkevich va boshqalar), Yu.A.Zubokningkonseptualishlari, I.M.Ilyinskiy, A.I.Kovaleva, V.A.Lukov, E.L.Omelchenko, VI yoshlarning, yoshlar harakatining o'ziga xos xususiyatlarining mohiyati haqidagi nazariy tushunchalarni boyitdi, tadqiqotchilar yoshlar muammolarini o'rganishda qaysi jihatga ta'sir etishiga qarab, yoshlarni aniqlashning bir qancha yondashuvlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Stratifikatsiyayondashuviga ko'ra, yoshlar yosh chegaralari bilan cheklangan, o'ziga xos rollari, maqomi va ijtimoiy pozitsiyalariga ega bo'lgan odamlarning maxsus ijtimoiy-demografik guruhi sifatida qaraladi. Ijtimoiy-psixologik yondashuv, asosiy e'tibor yoshi, biologik psixologik xususiyatlariga qaratiladi. Subyektiv yondashuvga ko'ra, yoshlik o'z dunyosiga bo'lgan alohida tuyg'u, kelajakka intilish, nekinlik, hayotga muhabbat, intensiv samarali faoliyatga intilish sifatida qaraladi.

Yoshlarni o'rganishga roli yondashuv vakillari "yoshlik"ga har bir inson hayotining alohida xulq-atvor bosqichi sifatida e'tibor berishadi, u endi bola rolini o'ynamaydi, kattalar rolining tashuvchisi va shu bilan birga u to'liq huquqli emas. Yoshlarni o'rganishga konfliktologik yondashuvga ko'ra, "yoshlik" inson hayotining stress, muammolar, jamiyatning o'zi bilan to'qnashuvlarga to'la, har bir inson uchun ahamiyatli davri sifatida qaraladi.

Submadaniy yondashuv yoshlarni o'ziga xos turmush tarzi, xulq-atvori, madaniy me'yorlari va qadriyatlariga ega bo'lgan maxsus ijtimoiy guruh sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi. Yoshlarni o'rganishga an'anaviy yondashuvlar Stenli Xoll, Karl Manngem Talkott Parsonsning qarashlari. Ularning umumiy jihati shundaki, "yoshlik" biologik tabiati bilan ajralib turadi, faqat unga xos bo'lgan psixologik xususiyatlarga ega, madaniy tarixiy vositachilar (davrning asosiy voqealari, avlodlar ongi, e'tiqod tizimi) yoshlarning ushbu biologik va psixologik mohiyati qanday namoyon bo'lishiga ta'sir qilgan. o'zi u yoki bu tarzda. boshqa vaqt.

Yoshlar ta'rifiga yondashuvlar orasida biosiyosiy ham mavjud bo'lib, unga ko'ra quyidagi parametrlar hisobga olinadi: psixologik xususiyatlar, ijtimoiy xususiyatlar, xulq-atvor munosabatlari, yoshlarning

² Янги Ўзбекистон ёшлари: ҳаётий позициялар ва қадрият устуворликлари / 28.06.2021

<https://ijtimoiy fikr.uz/tadqiqotlar>

³ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – Б. 257

⁴ Луко В.А. Теория молодежи: возможности для развития. – URL: <http://www.rikmosgu.ru/publications/3559/4015/> (дата обращения: 23.09.2019).

¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – 24 б.

qadriyatlarini.

Shunday qilib, yoshlarni ta'riflashda turli yondashuvlarni tahlil qilish asosida ushbu aholi guruhining quyidagi xarakterli belgilarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- yoshlarning yosh chegaralari;
- ijtimoiy maqomning o'ziga xos xususiyatlari;
- xulq-atvorning rol o'ynash xususiyatlari;
- ijtimoiy-demografik xususiyatlar;
- ijtimoiy-psixologik xususiyatlar;
- yoshlarning o'z taqdirini o'zi belgilashi.

Ushbu aholi guruhining xususiyatlari yoshlar ta'riflarida o'z aksini topgan. 1960-yillarning oxirlarida "yoshlik" tushunchasining birinchi formulalaridan biri bo'lib, yoshlar muammolari bo'yicha Leningrad tadqiqot maktabi asoschisi, sotsiolog V. Lisovskiy tomonidan taklif qilingan⁵. U yoshlarni sotsializatsiya bosqichidan o'tuvchi, ijtimoiy rollarni bajarish uchun tayyorlangan madaniy qadriyatlarni o'zlashtirgan odamlar avlodi sifatida tavsifladi. I.Kon⁶ yoshlarning ushbu formulasini yosh xususiyatlarini, ijtimoiy mavqaning xususiyatlarini va ushbu aholi guruhining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda to'ldirdi.

V.I.Dobrynina⁷ "yoshlik" tushunchasini ochib berib, e'tiborni psixofiziologik, iqtisodiy va ijtimoiy parametrlarga qaratdi (yoshlar hali mustaqil, moliyaviy jihatdan mustaqil bo'lmagan, jismoniy ma'naviy jihatdan mustahkamlanmagan yosh guruhi sifatida tavsiflanadi). N.A.Chistyakova⁸ yoshlarni ijtimoiy tuzilmani takror ishlab chiqarish jarayonida o'ziga xos mavqega ega bo'lgan, nafaqat meros olish, balki mavjud ijtimoiy munosabatlarni o'zgartirish qobiliyatiga ega bo'lgan aholi guruhi sifatida belgilaydi.

Ijtimoiy va biologik xususiyatlar nuqtayi nazaridan eng to'liq ta'rif V.V.Pavlovskiy tomonidan berilgan⁹. U yosh xususiyatlariga e'tibor qaratadi, yoshlarni 13-14 yoshdan 29-30 yoshgacha bo'lgan odamlarning maxsus biosotsial guruhi sifatida belgilaydi, ular o'smirlik davridagi voyaga yetuk yoshdagi odamlar jamoalari o'rtasida o'tish pozitsiyasini egallaydi, o'ziga xos tarixiy tip bilan belgilanadi. Ushbu davlat tizimidagi jamiyat va ijtimoiy rivojlanishning boshqa xususiyatlari; jamiyatning beshta asosiy sohasini ijtimoiylashtirish natijasidir; reproduktiv (tayyorgarlik) ishlab chiqarish faoliyatidan, ijtimoiy fuqarolik mustaqilligidan jamiyatning

voyaga yetgan faol a'zolari, yetuk shaxsning to'la huquqli fuqarolari maqomiga o'tishni amalga oshiradi.

Nazariy va uslubiy yondashuvlarni tahlil qilish umumlashtirilgan mualliflik ta'rifini shakllantirishga imkon berdi, unga ko'ra biz yoshlarning innovatsion faoliyatining potensial omillariga tayanamiz G.V. yoshlar — 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan, bunday harakatchanlik darajasiga, sog'lig'ining intellektual faolligiga ega bo'lgan, uni boshqa ijtimoiy guruhlardan ajratib turadigan, o'zining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tufayli yangi turmush sharoitlariga tez moslashish imkonini beradigan, hududning innovatsion salohiyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydigan ijodiy jismoniy xususiyatlarga ega maxsus ijtimoiy-demografik guruhdir¹⁰.

Shunday qilib, yoshlarning innovatsiyalarga bo'lgan xohishi ancha yuqori. Shu bilan birga, o'zini innovatsion tarzda namoyon etish yoshlarning o'z tashabbusi bilan emas, balki tashqi ta'sir (amaliy zarurat yoki hokimiyat topshirig'i) bilan ko'proq bog'liqdir.

Yuqoridagilarning barchasi modernizatsiya o'zgarishlarida yoshlar salohiyatidan to'g'ri foydalanilmayotganiga, ayrim hollarda undan yetarlicha foydalanilmayotganiga olib keladi. Vaziyatni o'zgartirish bo'yicha federal mintaqaviy darajada choralar ko'rilayotganiga qaramay, ularning roli yoshlar muhiti muammolarini hal qilishda yetarli emas, ular ko'pincha tizimli emas. Yoshlarning kelajakka e'tibori modernizatsiya o'zgarishlarining aniq shakllantirilgan istiqboli zarurati bilan bog'liq. Bunda yoshlarni davlatning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatiga jalb etish jarayoni yoshlarni modernizatsiya subyekti sifatida shakllantirishning ehtimoliy ssenariysi sifatida qaralmoqda.

Taniqli siyosatchi, Parlamentlararo ittifoqning Bosh kotibi Martin Chungong boshliq rasmiy delegatsiya mamlakatimizga tashrif buyurganida u kishi bir fikrni afsus bilan ta'kidladi. Ya'ni, sayyoramiz aholisining yarmidan ko'pini 30 yoshgacha bo'lgan insonlar tashkil etsa-da, butun dunyo bo'yicha yosh deputatlarining ulushi 2,6 foizga ham yetmas ekan. Oliy martabali mehmon O'zbekistonda bu ko'rsatkich 6 foizdan oshganini yuqori baholadi. Bu — katta e'tirof, albatta. Biz g'oyat muhim yo'nalishdagi bu ishlarimizni davom ettirgan

5 Социология молодежи / под ред. проф. В.Т.Лисовского. — СПб.: Изд-во СПб ун-та, 1996. — 460с.

6 Кон И. С., Иконникова С. Н. Молодежь как социальная категория: доклад на VIII Всемирном социологическом конгрессе. Варна, 1970. — М., 1970. — 14с.

7 Девиантность поведения современной российской молодежи: социокультурный анализ/ В.И.Добрынина, О.М.Добрынина, П.Н.Кочетков, О.В.Крухмалева// Культура образования. — 2019. — №1 (32). — С. 38–46.

8 Чистякова Н. А. Особенности социального развития молодежи условиях кризисного состояния общества России: автореф. дис. ... канд. социол. наук: 22.00.04. — М., 1999. — 29с.

9 Павловский В.В. Социология молодежи ювенология// Социологические исследования. — 1999. — №5. — С. 46–52.

10 Молодежь современной России — ключевой ресурс модернизации: монография/ А.А.Шабунова, Г.В.Леонидова, М.А.Антонова, И.Н.Дементьева, В.С.Каминский, О.Н.Калачикова, Т.П.Кожина, Н.А.Кондакова. — Вологда: ИСЭРТ РАН, 2013. — 148 с.

holda, Parlamentlararo ittifoq ko'magida "Biz parlamentda yoshlarni qo'llab-quvvatlaymiz!" degan ezgu tashabbusni amalga oshiramiz. Siyosiy yetuk va faol yosh yigit-qizlarimizni milliy parlamentimiz va mahalliy kengashlar faoliyatiga yanada kengroq jalb etamiz.

Bugungi murakkab zamonda yoshlarni jismoniy va ma'naviy barkamol insonlar etib tarbiyalash biz uchun g'oyat muhim vazifa bo'lib qolmoqda.

Bu borada quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratamiz.

Har o'quv yili yakuni bilan tuman, shahar, viloyat va respublika darajasida bitiruvchilar bandligini ta'minlashga oid dasturlar qabul qilish amaliyoti yo'lga qo'yiladi. Dasturda har bir mahalla, tuman, shahar va viloyat kesimida qancha yoshlarni kasb-hunarga o'qitish, qanchasini ish bilan ta'minlash, nechta startup va tadbirkorlik loyihasini amalga oshirish belgilanishi shart. Bu bizning yoshlar bilan ishlash bo'yicha "bandlik", "innovatsiya" va "investitsiya" dasturimiz bo'lib xizmat qiladi¹¹.

1990-yillarda ommaviy internetning rivojlanishi bilan u asta-sekin haqiqiy siyosat vositasiga aylanib bormoqda. Internetning siyosiy hayotdagi rolini birinchi tadqiqotchilardan biri L.Grossman qaror qabul qilish jarayoniga Butunjahon Internet tarmog'ining jamiyatni "qo'shish" qobiliyatini tan oldi¹².

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamli platformalar siyosiy ishtirok etish uchun muhim yangi platforma sifatida qaralmoqda.

Adabiyotda raqamli texnologiyalarning siyosiy faoliyatga ta'sirini baholash maqtovdan tortib tangidiygacha. Birinchi nuqtayi nazarga ko'ra (E.To'ffler, N.Negroponte va boshqalar tomonidan baham ko'rilgan) internet makoniga yangi fuqarolik jamiyati makoni sifatida qaraladi, to'g'ridan-to'g'ri demokratiyaning faoliyat ko'rsatishi uchun imkoniyat sifatida, chunki internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish saylovlarda ishtirok etishni oshiradi va fuqarolarning hokimiyat bilan aloqalari soni siyosiy ma'lumotlardan foydalanish darajasini oshiradi va fuqarolar va elita o'rtasidagi munozara uchun yangi vositalardan foydalanish imkoniyati va boshqalar.

Binobarin, internet bu pozitsiya tarafdorlarining fikricha, nafaqat kengayibgina qolmay, balki siyosiy faollikni chuqurlashtiradi, norozilar va yoshlarni jalb qiladi, chunki yoshlarning salmoqli qismining siyosiy qarashlarini shakllantirish birinchi navbatda raqamli texnologiyalarga asoslanadi.

Infratuzilma (Internet, ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar). Darhaqiqat, internet va ijtimoiy tarmoqlar o'zlarining noyob imkoniyatlarini tufayli jamiyat qurilishiga hissa qo'shishi mumkin, bu ularga geografik masofa, irqiy, yosh, gender to'siqlari, vaqt zonalar va kundalik tartiblarni engib o'tishga imkon beradi. Internet aloqalari, shuningdek, xabarlarini yozib olish qobiliyati tufayli aniqroq "xotira effekti" ga ega¹³. Bularning barchasi fuqarolar o'rtasida o'zaro tushunish, bag'rikenglik, boshqa qarashlar va xatti-harakatlar normalarini qabul qilishga tayyorlik, umumiy qadriyatlarni rivojlantirish va boshqalar uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi.

Biroq, yoshlarning siyosiy faolligini oshirish nuqtai nazaridan internet va uning imkoniyatlari haqida ham u qadar optimistik baholar mavjud emas. Gap, birinchi navbatda, siyosiy ishtirok sifatining pasayishi, birinchi navbatda, raqamli texnologiyalarning individualistik tabiati natijasida shaxslarning bir-biridan ortib borayotgan yakkalanishida namoyon bo'ladi, bu esa siyosatning zaiflashishiga olib kelishi mumkin. jamoaviy harakatlar, ijtimoiy kapitalning eroziyasi va ikkinchidan, internet auditoriyasining sifatini o'zgartirish. Agar rivojlanishning dastlabki bosqichida, internet istemolchilari asosan oliy ma'lumotli va siyosiy faol fuqarolar bo'lgan bo'lsa, so'nggi 10-15 yil ichida Internetni ommaviylashtirish va tijoratlashtirish natijasida madaniy, internet auditoriyasining ta'lim, yoshi va kasbiy darajasi. Internetdan foydalanish, tijoratlashtirish va ko'ngil ochish tendensiyasi uni boshqa narsalar qatori inson tabiatining past tomonlarini ham aks ettiruvchi jamiyat ko'zgasiga aylantirdi.

Internetda ishtirok etish rus yoshlari siyosiy faoliyatining yangi shakli sifatida siyosatshunoslikning aksiomalaridan biri siyosatning samaradorligi, birinchi navbatda, mamlakat aholisining, shu jumladan yoshlarning siyosiy jarayonlardagi ishtirokiga bog'liq degan fikrdir.

Taklif etilayotgan modda doirasida biz yoshlarni 15 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan shaxslarni o'z ichiga olgan ijtimoiy-demografik guruh sifatida ko'rib chiqamiz, "(1) ijtimoiy subyektivlikni o'zlashtirish va o'zlashtirish, ya'ni. ular hayotining ma'lum bir bosqichida sotsializatsiya obyekti bo'lishning ustuvor mulkidan ijtimoiy faoliyat subyekti bo'lishning ustuvor mulkiga o'tish orqali obyektiv ravishda bog'langan; (2) yosh ijtimoiy maqomga ega bo'lish va (3) o'zini o'zi identifikatsiya qilish bo'yicha yosh, shuningdek (4) ushbu ijtimoiy guruhda keng tarqalgan tezauri (qiymat-me'yoriy va axborot-yo'naltirish komplekslari)

11 Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. — Тошкент: Ўзбекистон, 2021. —Б. 254

12 Grossman L.K. The Electronic Republic: Reshaping Democracy in the Information Age. N.Y.: Viking Penguin, 1995. 29 умумий 290 р.

13 Дзялошинский И.М., Мастерова Ю. Медиа и социальная активность мо- лодёжи // Медиа. Информация. Коммуникация. 2012. № 3. [Электронный ресурс] Режим доступа: URL: http://mic.org.ru/vyp/3-nomer-2012/media-i-sotsialnaya-aktivnost-molodezhi/?sphrase_id=30150.

va (5) ularni ifodalovchi va aks ettiruvchi ramziy va obyektiv dunyo.

Ko'pchilik yoshlar siyosat bilan 15-18 yoshda tanishadi va bu yosh oraligi so'nggi paytlarda yoshlanish tendensiyasiga ega: 12-14 yoshli o'smirlar siyosiy aksiyalarda qatnasha boshlaydi. Albatta, 15-20 yoshlardagi aksariyat yoshlar turli siyosiy oqimlar va ularning mafkuralaridan yetarlicha xabardor emas, ular mamlakatda namoyon bo'layotgan siyosiy partiyalar va ularning dasturlarini tushunmaydilar. Demak, yoshning siyosatga qanday aralashishi uning siyosiy qarashlari va siyosiy madaniyatiga, hech bo'lmaganda keyingi bir necha yilga bog'liq.

Shuningdek, bugungi kunda yoshlarning har qanday mafkuraga nisbatan ishonchsizligi ham ko'rinib turibdi. Mamlakatdagi so'l o'zgarishlar jarayonlari natijasida kommunistik mafkura aslida o'rnini ko'pincha demokratiya va "kuchli qo'l", erkin bozor va ijtimoiy himoya, erkinlik va qonun ustuvorligi haqidagi qarama-qarshi g'oyalardan iborat mafkuraviy tartibsizlik egalladi. G'arbdan olingan g'oyalar va qadriyatlar, jumladan, yoshlar tomonidan ham yuzaki qabul qilingan.

O'zbekistonda ro'yxatdan o'tgan 5 ta siyosiy partiyalarning o'z yoshlar partiya tashkilotlari, yoshlar qanotlari bor. Ahamiyatli jihati shundaki, bugungi yoshlar siyosiy yangiliklarga ko'proq qiziqmoqda hamda o'z fikrini erkin ifodalashi mumkinligini biladi. Shunga qaramay, ularning jamoat tashkilotlari hamda siyosiy partiyalardagi faolligi havas qilarli darajada emas. Respondentlar mahalliy qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirok etish imkoniyatidan mahrum ekanini ta'kidlagan – barcha masalalar faqat kattalar bilan bamaslahat hal qilinadi. Yoshlar bundan norozi, shu bois katta avlod vakillari bilan munosabatlarini qayta ko'rib chiqish kerak, deb hisoblaydi¹⁴.

Siyosiy partiyalarning yoshlar bo'limlari yoshlarga siyosiy partiya faoliyatida tajriba orttirish va/yoki partiyaviy martaba qilish imkoniyatini beradi. Biroq, aksariyat hollarda siyosiy partiyalar tizimli va puxta o'ylangan yoshlar siyosatiga ega emas, balki yoshlardan yo siyraklashib borayotgan partiyalar safini to'ldirish uchun zaxira sifatida yoki ko'cha tomoshalari va norozilik namoyishlarida "harbiy avangard" sifatida foydalanadi.

Sotsiologik tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, siyosiy internetda ishtirok etish amaliyotlari orasida foydalanuvchilar ko'pincha samarali bo'lishi mumkin bo'lgan kommunikativ faoliyatni tanlashadi. Bunday faoliyatning negizida foydalanuvchi kontentining mavjudligi yotadi, uning eng oddiy

turi ijtimoiy tarmoq foydalanuvchi sahifasiga joylashtirishdir.

Yurtimiz bo'ylab 6 millionga yaqin g'ayrati baland, "Yangi O'zbekiston" shiori ostida yetuklik intiluvchan o'g'il-qizlarimiz ishtirokida "O'zbekiston yoshlari, birlashaylik!" shiori o'tkazilgan festivallar barcha yoshlarimiz uchun va haqiqiy vatanparvarlik ko'rigi bo'ldi. Festivallar bundan buyon nafaqat viloyat markazlarida, balki har bir tuman va shaharda o'tkazib boriladi va ularda ko'tarilgan masalalar yechimi bo'yicha har yili hukumat alohida dasturlar qabul qiladi.

Albatta, yoshlikka xos shijoat, jo'shqinlik va mardlikni, ezgu orzu-intilishlarni amaliy harakatga aylantirib, salmoqli natijalarga erishish uchun inson o'z oldiga aniq maqsad qo'yib yashashi kerak.

Agar tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, buyuk ajdodlarimiz erishgan olamshumul yutuqlar zamirida, avvalo, ona Vatanga, xalqqa xizmat qilishdek olijanob maqsad mujassam ekanini ko'ramiz. Masalan, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug'bek singari ulug' allomalar, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi shoir va mutafakkirlar, Abdulla Avloniy, Fitrat, Abdulla Qodiriydek ma'rifatparvar adib va olimlar mashhur ilmiy kashfiyotlarini, o'lmas badiiy asarlarini aynan kamolot yoshida yaratganlarini hammamiz yaxshi bilamiz va bu bilan faxrlanamiz.

Bizning tomirlarimizda ana shunday ulug' bobolarimizning qoni oqar ekan, ularning munosib vorislari bo'lish, ular kabi yuksak maqsadlar sari intilib yashash barchamizning ezgu burchimizdir.

Bu borada yurtimizda mutlaqo yangicha shakl va mazmundagi Prezident maktablari, ijod va ixtisoslashgan maktablar tizimi yaratilganini ta'kidlash lozim. Ushbu maktablarda ta'lim olayotgan ko'plab o'quvchilar nufuzli xalqaro tanlovlarda yuqori natijalarni qo'lga kiritmoqdalar. Bunday zukko va bilimdon farzandlarimiz bilan har qancha faxrlansak, arziydi¹⁵.

Bizning fikrimizcha, yuqoridagi tahliliy masalalar yoshlar siyosiy ishtirokining eng muhim shakllarini, ko'rinishlarini o'z ichiga oladigan tasnifini ishlab chiqishni taqozo qiladi. Bunda siyosiy ishtirokning an'anaviy (yoki huquqiy) shakllariga, odatda, fuqarolarning amaldagi konstitutsiya va qonun hujjatlari doirasida sodir bo'ladigan, uning normalarini, boshqa fuqarolarning huquq va erkinliklarini buzmaydigan faoliyati ko'rinishlarini ham inobatga olinishi zarur. Ushbu qonunlar va normalarni buzadigan siyosiy ishtirok noan'anaviy deb tan olinadi.

JAMIYATDA MILLATLARARO BAG'RIKENGLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING AXLOQIY ASOSLARI

Yunus Ortiqovich Xoliqov - f.f.b.f.d. (PhD), dotsent, Samarqand davlat chet tillar instituti

Annotasiya: Millatlararo bag'rikenglik – eng avvalo, insonning universal huquqlari va asosiy erkinliklarini tan olish asosida shakllangan faol munosabat ekanligi tadqiq etilgan. Maqolada xilma-xil madaniyatlarni hurmat qilish, qabul qilish va to'g'ri tushunishni anglatadi. Uni bilim, samimiyat, ochiq muloqot hamda hurfikr, vijdon va e'tiqod erkinligi ilmiy tadqiq etilgan.

Аннотация: Международная толерантность – это прежде всего активное отношение, формирующееся на основе признания всеобщих прав и основных свобод человека. В статье говорится об уважении, принятии и правильном понимании различных культур. Это были научно исследованные знания, искренность, открытое общение и свобода мысли, совести и убеждений.

Abstract: International tolerance is primarily an active attitude formed on the basis of recognition of universal human rights and fundamental freedoms. The article refers to respect, acceptance and proper understanding of different cultures. It has been scientifically researched knowledge, sincerity, open communication and freedom of thought, conscience and belief.

Kalit so'zlar: insoniylik, rivojlantirish, ilm, ma'rifat, o'zlikni anglash, mehr-oqibat, or-nomus, andisha, sog'lom ijtimoiy muhit, xulq-atvor, ma'naviy, axloqiy, estetik, diniy, shukronalik, sabr-qanoat, kechirimlilik, munosabat, do'stlik, birdamlik, ahillik.

Ключевые слова: человечность, развитие, наука, просвещение, самосознание, доброта, честь, отношение, здоровая социальная среда, поведение, духовное, нравственное, эстетическое, религиозное, благодарность, терпение, прощение, отношения, дружба, солидарность, гармония.

Keywords: humanity, development, science, enlightenment, self-awareness, kindness, honor, attitude, healthy social environment, behavior, spiritual, moral, aesthetic, religious, gratitude, patience, forgiveness, relationship, friendship, solidarity, harmony.

Bugungi globalashuv sharoitida destruktiv harakatlar vujudga kelib, bu boshqa millatlararo bag'rikenglik madaniyati xalqlar va davlatlarning barqarorligi hamda rivojlanmagan jamiyatda dunyo hamjamiyati taraqqiyotiga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Qolaversa, jamiyatning o'zida ham har bir va potensial imkoniyatlaridan samarali shaxsda millatlararo bag'rikenglik madaniyati foydalanishga, ularning bag'rikenglik yuksalgan bo'lsa, kishilar o'rtasida ahllik, madaniyatini rivojlantirish bilan bog'liq jamiyatda barqarorlik, davlatda tartib bo'ladi. ehtiyojlarni vujudga keltirmoqda.

Jamiyat taraqqiyoti, adolat ustuvorligi Mashhur nemis olimi Maks Viber fuqarolarning bag'rikenglik madaniyati aytganidek, har qanday ijtimoiy jarayonda darajasiga ham bog'liq. Jahonda turli millat kamida ikkita shaxs ishtirok etadi¹. Shu vakillarining bir mamlakatda tinch-totuv nuqtayi nazardan qaraganda, tolerantlik – bu yashashlari, umuminsoniy bag'rikenglik turli madaniyatlarning barqaror rivojlanishini tamoyillarini rivojlantirishga intilishlari yangi ta'minlashga xizmat qiluvchi omildir. asrga xos xususiyatdir. Biroq, madaniyatning Tolerantlikni bu shaxsning rang-barang notekis rivojlanish qonuniyatiga ko'ra ayrim xususiyatlarini qabul qilish va ko'nikish jamiyatlarda madaniyat omili yetarlicha holatidir.

namoyon bo'lmayotganligi tufayli ularda Tolerantlikka xos bo'lgan dialektika va mavjud siyosiy hokimiyatga qarshi turli qarama-qarshilik mavjud: tolerantlik nafaqat

¹⁴ Умарова Н. Ўзбекистон ёшлари: муаммо ва истиқболлар <https://review.uz/oz/post/>
¹⁵ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021. –Б. 255

¹ М.Вебер Протестантская этика и дух капитализма. <https://www.livelib.ru/22495/top-maks-veber>.

boshqalarni qabul qilish, balki boshqalarni rad etish hamdir. Boshqacha qilib aytganda, tolerantlik bu qabul qilish va rad etishning dialektikasidir; va shunday qilib, hech bo'lmaganda, qisman boshqasini taklif qiladigan tarzda.

Tarixdan ma'lumki, jamiyat va davlatda millatlararo totuvlik, axloqiy bag'rikenglik g'oyalarining mohiyatini fuqarolarning barchasi yaxshi anglab olishlari asosida turli tahdidlar va bo'htonlarning oldi olinadi. Shuning uchun ham, mamlakatimizda yashaydigan turli millat vakillariga teng imkoniyatlarni yaratilishi, ayniqsa, diniy bag'rikenglik davlat siyosati darajasiga ko'tarilib qonuniy asoslarda mustahkamlanganligini ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston Konstitutsiyasining 4-moddasida "O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir. O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi"², deb yozilgan. Shuningdek, ushbu qonunni 8-moddasida "O'zbekiston xalqini millatidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi"³, deb belgilab qo'yilgan. Bugungi globalashuv jarayoni turli sohalarda bo'lgani kabi millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik masalalariga ham o'zining ta'sirini o'tkazmoqda. Shu jihatdan olib qaraganda ushbu masala dunyodagi ko'pmillatli davlatlarda bo'lgani kabi O'zbekiston uchun ham mamlakat kelajagi va taraqqiyotini belgilab beruvchi rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi mazmundorligi va ahamiyati, biz yashayotgan murakkab davrning eng dolzarb mavzularini qamrab olganligi bilan ajralib turadi. Jumladan, Prezidentimiz o'z ma'ruzasida "BMT Bosh Assambleyasining "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish taklifi bilan murojaat qilmoqchiman"⁴, – deydi. Ushbu rezolyutsiyani qabul qilishdan maqsad jahonda yashayotgan barcha millat va elatlar o'rtasida diniy bag'rikenglikni rivojlantirish, ularning bir-birlariga o'zaro hurmatini kuchaytirish,

ayniqsa, din sohasida erkinlikka erishish, biror-bir kishining kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik, inson haq-huquqlarini doimiy ravishda himoya qilish kabi masalalar asosiy o'ringa qo'yilgan.

Bugungi kunda millatlararo bag'rikenglik jamiyatda dinlararo bag'rikenglik g'oyasi poymol bo'lib, uning o'rnini diniy bag'rikenglik g'oyasi egallasa, unda bir mamlakat miqyosida ham turli millat va elat vakillari va davlatlar o'rtasida ham, ixtilof va urush-adovatlar vujudga kelishi kuzatiladi. Bunga misol sifatida ma'lum darajada, hozirgi Misr, Suriya, Eron, Afg'oniston, Ukraina va Iroq davlatlari miqyosidagi munosabatlarda bo'lib o'tayotgan ayancli hodisa va voqealarni olishimiz mumkin.

Bir mamlakatda dinga qarshi kurash davlat siyosati darajasida olib borilsa, unda turli dinlarning jamiyatdagi tutgan o'rnini va roli qisqarib va kamayib borishi natijasida dinlararo bag'rikenglik g'oyasining odamlarga bo'lgan ta'siri ham sustlashib boradi. Mamlakatda vujudga kelgan bunday ma'naviy-ruhiy holat, jamiyat a'zolarining, turli millat va elat, dinlar vakillari o'rtasidagi do'stona va xayrixohlik munosabatlari o'rniga, ishonchsizlik, begonalashuvlik, shafqatsizlik va boshqa noxush tuyg'u va munosabatlar vujudga keladi. Bunday munosabatlar jamiyatdagi turli millat va elatlar, din vakillari o'rtasida kelishmovchilik va janjallar, keraksiz qon to'kilishlar, boshqa-boshqa fojialar kelib chiqishiga asos bo'ladi. Sobiq Ittifoq davrida shunday holatlar kuzatilgan barchaga ma'lum.

Bag'rikenglikning asosiy vazifalari etib, yoshlarda millatlararo, diniy va axloqiy bag'rikenglik g'oyalarini yurtimizda yashayotgan barcha millat fapzandlapining o'zapo axloqiy bag'rikengligi, insonparvarligi, tug'ilib o'sgan yurtga sadoqat, Vatanga muhabbat, xalq farovonligi yo'lida mehnat qilish, turli millat yoshlari o'rtasidagi o'zapo kelishmovchilik va mensimaslik kayfiyatlarini bartaraf etishga qaratilgan vazifalar belgilangan.

"Bag'rikenglik – bu tinchlikni ta'minlashga imkon beradi va urush madaniyatidan tinchlik madaniyatiga olib keladi"⁵, – deyilgan 1995-yilda YUNESKO Bosh konferensiyasi tomonidan qabul qilingan bag'rikenglik

² Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – Б. 4.

³ Ўша манба. – Б. 6.

⁴ Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фольатимизга берилган энг олий баҳодир. – Т.: Ўзбекистон, 2-жилд, НММУ, 2018. – Б. 254.

⁵ "Bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi". 3-moddasining 1-band.

prinsiplari deklaratsiyasida.

Deklaratsiyada bag'rikenglik "dunyomizning boy rang-barang madaniyatini, o'zini namoyon qilish va inson shaxsiyatining namoyon bo'lish shakllarini hurmat qilish, qabul qilish va to'g'ri tushunish", dogmatizmni rad etish va inson huquqlari sohasidagi xalqaro huquqiy hujjatlarning normalarini qabul qilish"⁶, deb ta'riflanadi.

Bugungi kunda, yigirma birinchi asr bo'sag'asida, bashariyat murakkab taraqqiyot jarayonini boshdan kechirayotgan bir paytda diniy bag'rikenglik, turli dinlarga mansub xalqlar o'rtasida muloqot va amaliy hamkorlikni kuchaytirish nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda⁷.

Bag'rikenglik tamoyillari quyidagilar hisoblanadi. Teng huquqlar; o'zaro hurmat; turli guruh vakillariga do'stlik va bag'rikenglik; milliy ozchiliklarning madaniy o'ziga xosligi va tillarini saqlash va rivojlantirish; urf-odatlarimizga amal qilish imkoniyati; vijdon va din erkinligi; umumiy muammolarni hal qilishda hamkorlik va birdamlik.

Yoshlarda diniy bag'rikenglik tamoyillari asosida mehr-oqibatni, or-nomusni, oriyat va izzat-ehtirom kabi insoniy ezgu fazilatlarini shakllantirish muhimdir. Diniy bag'rikenglik xalq ma'naviyatining, ma'rifatining yuksalishiga katta hissa qo'shib kelgan ekan, bugungi davlatchiligimiz haqida so'z yuritganda, eng avvalo, milliy va umuminsoniy qadriyat sifatida e'tiborda tutishimiz kerak.

Xalqimizning etnik, madaniy va diniy sabr-bardoshi ma'naviy Uyg'onishning yana bir bitmas-tuganmas manbaidir. Ming yillar mobaynida Markaziy Osiyo g'oyat xilma-xil dinlar, madaniyatlar va turmush tarzlari tutashgan va tinch-totuv yashagan markaz bo'lib keldi. Etnik sabr-toqat, bag'rikenglik hayot bo'ronlaridan omon qolish va rivojlanish uchun zarur tabiiy me'yorlarga aylandi. Hatto bu hududlarni bosib olganlar ham Markaziy Osiyo xalqlarining madaniyati oldida bosh egibgina qolmay, uning eng qimmatbaho an'alarini, shu hududda mavjud bo'lgan davlatchilik an'alarini avaylab qabul qilganlar⁸.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov dinlararo

bag'rikenglik g'oyasi yuksak ma'naviy qadriyat sifatida azaldan xalqimizning ongu-tafakkurida shakllanib, takomillashib kelganligi va u mamlakatimizda kuchli demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etilishining asosiy tamoyillaridan biri sifatida jamiyatimizda o'ta muhim ahamiyat kasb etishi to'g'risida fikr bildirib: "Asrlar davomida xalqimiz umumbashariy, umuminsoniy qadriyatlar takomiliga ulkan hissa qo'shgan. Turli millat vakillariga hurmat, ular bilan bahamjihat yashash, diniy bag'rikenglik, dunyoviy bilimlarga intilish, o'zga xalqlarning ilg'or tajribalari va madaniyatini o'rganish kabi xususiyatlar ham xalqimizda azaldan mujassam"⁹, deb e'tirof etgan.

Bugungi kunda yoshlarda diniy bag'rikenglik madaniyatini shakllantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Kishilik ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotidan bizga ma'lumki, hech bir din insonlarni yomon yo'lga boshlamagan. Jumladan, islom dini bu dunyoning o'tkinchi ekanini, oxiratni eslatib turuvchi, dunyoda har bir insonni hushyor bo'lishga, halolu-haromni ajrata bilishga, pok bo'lishga, odamlarni o'zidan yaxshi nom qoldirishga undagan.

Millatlararo bag'rikenglik bugungi kundagi dolzarbligini masalasiga asosiy e'tiborni qaratib, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shunday deydi: "Biz O'zbekistonning buyuk kelajagini barpo etishga mahkam bel bog'lagan ekanimiz, bu ulug' ishni ertaga emas, bugun boshlashimiz, buning uchun avvalo navqiron yoshlarimizga zarur sharoitlarni aynan bugun yaratib berishimiz kerak"¹⁰.

Yoshlarda millatlararo bag'rikenglik tamoyillari asosida mehr-oqibatni, sabr-toqat, va izzat-ehtirom kabi insoniy ezgu fazilatlarini shakllantirish muhimdir. Millatlararo bag'rikenglik xalq ma'naviyatining, ma'rifatining yuksalishiga katta hissa qo'shib kelgan ekan, bugungi davlatchiligimiz haqida so'z yuritganda, eng avvalo, milliy va umuminsoniy qadriyat sifatida e'tiborda tutishimiz kerak.

Millatlararo bag'rikenglik madaniyati shaxsning butun hayoti mobaynida shakllanib, rivojlanib boradi. Ana shu jarayonda ta'lim-tarbiya muhim rol o'ynaydi. Ta'lim-tarbiya jarayoni shaxs dunyoqarashini shakllantirishga

⁶ Ўша жойда.

⁷ Каримов И.А. Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз 9 жилд Тошкент «Ўзбекистон» 2001. – Б. 80.

⁸ Локтев К.И. Толерантность как симулякр: от идеологии противоречий – к идеологии развития духовности (обзор позиций) <https://cyberleninka.ru/article/n/tolerantnost-kak-simulyakr-ot-ideologii-protivorechij-k-ideologii-razvitiya-duhovnosti-obzor-pozitsiy>

⁹ Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. 3-жилд. – Т.: "Ўзбекистон", 1996. – Б. 8-9.

¹⁰ Мирзиёев Ш.М. Нияти улуг' халқнинг иши ҳам улуг' ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд. – Т.: 2019. Ўзбекистон, – Б. 387.

qaratilgan axloqiy tarbiya, estetik tarbiya, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy ong va millatlararo bag'rikenglik madaniyatni qaror toptirishga yo'naltirilgan faoliyatdan iborat bo'ladi. Yoshlar tarbiyasida millatlararo bag'rikenglikning axloqiy tamoyillari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Markaziy Osiyo madaniyatidagi axloq - bu harakatning to'g'ri yoki noto'g'riligini baholashning kontseptual standartidir. Axloq - bu odamlarning xulq-atvorini tartibga soluvchi ijtimoiy norma. Konfutsiyning fikricha, davlatni boshqarish uchun "axloq va qonundan foydalanish" kerak, axloq va qonun bir-birini to'ldiradi. Shu bilan birga, qonun qonun chiqaruvchilarning xohish-irodasini, jamoatchilik fikriga mos keladigan qonun chiqaruvchilar tomonidan shakllantirilgan huquqiy qoidalar ijtimoiy axloqiy tushunchalarning huquqiy talablarini aks ettiradi.

Yana bir masala millatlararo bag'rikenglikning chegarasi masalasi hisoblanadi. uning chegaralarni to'g'ri tushunish uchun bag'rikenglik mohiyatini tahlil qilish muhimdir, chunki u hamma narsaga bardoshli bo'lish yoki ruxsat berish emas. Xo'sh, bag'rikenglik chegaralanganmi yoki bag'rikenglik cheksiz bo'lishi kerakmi? Barcha holatlarda va inson har doim nafaqat chidab turishi, balki unga begona bo'lgan boshqa shaxsning yashash huquqini tan olishi kerakmi? Bag'rikenglik muammosiga bag'ishlangan adabiyotlarda, ko'pincha, bu masala "bag'rikenglik paradoksi" deb nomlanadi¹¹. "Cheksiz bag'rikenglik" bag'rikenglikning yo'q bo'lib ketishiga olib keladi. Agar odam cheksiz toqat qilsa va bag'rikeng jamiyatni murosasizlikdan himoya qilishga tayyor bo'lmasa, u holda bag'rikenglik mag'lubiyatga uchraydi. Uning jamiyatdagi salbiy ta'siri intolerantlik bilan yonma-yon bo'ladi.

XX asrning taniqli faylasufi K.Popper o'zining mashhur "bag'rikenglik tamoyili"da tolerantlik chegaralarini belgilab bergan. U o'zining bag'rikenglik tamoyilini quyidagicha ifodalagan: "Bardoshli bo'lgan va murosasizlikni targ'ib qilmaydiganlarga nisbatan bag'rikenglik"¹². Faylasufning

fikrlaridan kelib chiqadiki, agar bu tanlov bag'rikenglik tamoyiliga zid bo'lmasa, biz tanlovni, axloqiy, siyosiy va boshqalarni hurmat qilishimiz kerak.

Shunday qilib, bag'rikenglik bu murosasizlikka toqat qilmaslik ham hisoblanadi. K.Popperning bu borada quyidagi fikrlari diqqatga sazovor. "Biz barcha murosasiz harakatlarni ta'qiqlashimiz kerak. Murosasizlikni og'ir jinoyat sifatida bolalarni o'ldirish, o'g'irlash yoki qul savdosini jonlantirish kabi jinoyatlar bilan bir qatorda tan olishimiz kerak"¹³. Amerikalik faylasufning ushbu so'zlaridan xulosa qilish mumkinki, har qanday hayotiy jamiyatda tolerantlik (bag'rikenglik) chegarasi mavjud va u tizim yaxlitligini saqlash, ijtimoiy tizimning barqarorligi ta'minlash zarurati bilan belgilanadi.

Demak, hozirgi kunda millatlararo bag'rikenglik muammosini ko'rib chiqish ko'p tomonlama madaniyatlar konsepsiyasi kontekstida, shuningdek bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi qabul qilingan farqlar ahamiyatini e'lon qilish bilan bog'liq. Undagi talqinga ko'ra, bag'rikenglik dunyomizning boy madaniyatlari, o'z-o'zini ifoda etish shakllari va shaxsiyatni hurmat qilish, qabul qilish va to'g'ri tushunishda aks etadi. Ushbu talqinda bag'rikenglik murakkab jamiyatlarning mavjudligi va yetuk shaxsning pozitsiyasining sharti sifatida ko'rib chiqiladi, bu esa murosasizlikka faol qarshilik ko'rsatishni anglatadi. Shu bilan birga, bag'rikenglikni axloqiy va madaniy qadriyat sifatidatalqin qilish mumkin.

Jamiyatda turli xalqlar, millatlar va dinlarning turli ko'rinishdagi xususiyatlariga nisbatan tolerantlik munosabatini O'zbekiston misolida ko'rish mumkin. "Mamlakatimizda turli toifadagi odamlar, siyosiy kuchlar va partiyalar o'rtasidagi millatlararo totuvlik, ijtimoiy hamkorlik, dinlararo bag'rikenglik tamoyili ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim omillaridan biridir. O'zbekistonda 130 dan ziyod millat va ellat vakillari istiqomat qiladi. Ular o'rtasida asrlar davomida milliy nizolar bo'lmaganligi va bu xalqimizning azaliy bag'rikengligini ko'rsatadi"¹⁴.

Millatlararo bag'rikenglikni insonning ma'naviy va axloqiy sifati sifatida tahlil qilish

uning asosiy tarkibiy qismlarini ajratishga imkon beradi: tolerantlik (va diniy tolerantlik), rahm-shafqat, xushyoqish, shaxsiy qiziqish va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, millatlararo bag'rikenglik madaniyati bu - jamiyatda shaxsning o'z ongu-shuuri asosida boshqalarning fikri, yurish-turishlari, g'oya va e'tiqodlarini qadrlashi va hurmat qilish madaniyati hisoblanadi.

Bag'rikenglik: insoniy, oilaviy, milliy va umuminsoniy bag'rikenglik tarzida, namoyon bo'lsa; o'z-o'zini hurmatlash va qadrlash, murosasizlik, o'zaro hurmat, qadrlash, sabr-toqat, chidamlilik, qanoat, shukr qilish kabi shakllarda diniy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, xalqaro va davlatlararo yo'nalishlarda aks etadi.

Yoshlarimiz ma'naviy dunyosiga chetdan bo'layotgan ma'naviy-mafkuraviy tahdidlar ma'naviy hushyorlikni biron bir lahzaga bo'lsin, aslo susaytirmaslikni talab etadi.

Biz mustaqil dunyoqarash, tafakkur erkinligi va sog'lom fikrni qaror toptirishni tarbiyaviy faoliyatimizning muhim vazifasi deb bilar ekanmiz, so'zsiz, ushbu yo'nalishda yoshlarimizning yuqorida ta'kidlangan turli zararli g'oyalarga qarshi tura olish qobiliyatini rivojlantirishni asosiy maqsad qilib qo'ymog'imiz kerak. Umuman, millatlararo bag'rikenglikning axloqiy munosabatlari ijtimoiy muhitning tarkibiy qismi bo'lib, u insonlarda millatlararo bag'rikengligini o'zlashtirishi hamda ehtiyoj darajasida unga amal qilishi uchun poydevor vazifasini o'taydi. Millatlararo bag'rikenglik madaniyatining rivojlanishi axloqiy munosabatlar bilan bog'liq

bo'ladi. Hozirgi kunda bag'rikenglik masalasini ko'rib chiqish ko'p tomonlama madaniyatlar konsepsiyasi kontekstida, shuningdek bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi qabul qilingan farqlar ahamiyatini e'lon qilish bilan bog'liq. Undagi talqinga ko'ra millatlararo bag'rikenglik dunyomizning boy madaniyatlari, o'z-o'zini ifoda etish shakllari va shaxsiyatni hurmat qilish, qabul qilish va to'g'ri anglash tushuniladi.

Millatlararo bag'rikenglik madaniyatini rivojlantirish uchun quyidagi amaliy takliflarni ilgari surishi mumkin:

Millatlararo bag'rikenglik madaniyatining xalqimiz tabiatiga xosligini ko'rsatib beruvchi badiiy asarlar, san'at asarlari va rassomlar asarlarining yaratilishiga hamda ularning xalq orasida keng ommaviylashuviga imkoniyatlar yaratish lozim.

Xalqimiz millatlararo bag'rikenglik madaniyatini targ'ib qiluvchi milliy "Veb-saytlar", mobil dasturlarini yaratish jarayonini faollashtirish lozim.

Yangi O'zbekistonda millatlararo bag'rikenglik madaniyatini rivojlantirish masalasi yechimini davlat siyosati darajasiga ko'tarish lozim, chunki bu davlat va jamiyatdagi tinchlik barqarorligini ta'minlash bilan chambarchas bog'liq.

Millatlararo bag'rikenglik madaniyati insonga xos xususiyat ekanligini, O'zbekiston xalqlari millatlararo bag'rikenglik madaniyatining mazmun va mohiyatini aks ettiruvchi qisqa metrajli filmlar, reklama videoroliklari sonini ko'paytirish kerak.

11 Безюлева Г.В., Шеламова Г.М. Толерантность. Взгляд. Поиск. Решения. - М.: 2013. - С. 9.

12 Поппер К. Открытое общество и его враги. -М.: 1991. - Т 1. - С. 234.

13 Безюлева Г.В., Шеламова Г.М. Толерантность. Взгляд. Поиск. Решения. - М.: 2013. - С. 9.

14 Узбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий наш, 2004. - Б. 486.

O'ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLAR FAOLLIGINI YUKSALTIRISHNING IJTIMOIY-SIYOSIY JIHATLARI

Maxsuda Pulatovna Ergasheva - s.f.b.f.d., dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada erkaklar va xotin-qizlar o'rtasidagi ijtimoiy mavqe orasidagi farq, omillar, xotin-qizlarning o'rnini idrok etishda ommaviy axborot vositalari ta'sir darajasi, boshqaruv samaradorligi darajasini oshirishda xotin-qizlarning o'rnini va roli, bandlik, ta'lim, ijtimoiy soha kabi barcha muhim sohalardagi ishtiroki masalalari yuzasidan olib borilgan sotsiologik tadqiqot natijalari bayon etilgan.

Аннотация: В данной статье рассматривается разница между социальным статусом мужчин и женщин, факторы, уровень влияния СМИ на восприятие роли и роли женщин, роль и роль женщин в повышении уровня эффективности управления, описаны результаты социологического исследования, проведенного по вопросам участия во всех важных сферах, таких как занятость, образование, социальная сфера.

Abstract: In this article, the difference between the social status of men and women, the factors, the level of media influence on the perception of the role and role of women, the role and role of women in increasing the level of management efficiency, the results of the sociological research conducted on the issues of participation in all important areas such as employment, education, social sphere are described.

Kalit so'zlar: xotin-qizlar, strategiya, mavqe, boshqaruv, OAV, bandlik, islohot, jamoatchilik fikri, stereotip.

Ключевые слова: женщины, стратегия, позиция, управление, СМИ, занятость, реформа, общественное мнение, стереотип.

Keywords: women, strategy, position, management, media, employment, reform, public opinion, stereotype

Bugun yangilanayotgan O'zbekiston o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Bu bosqichning muhim xususiyati shundaki, unda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va ma'naviy-madaniy islohotlar eng avvalo inson manfaatlariga yo'naltirilmoqda. Xuddi shuning uchun ham "islohotlarning asosiy maqsadi - aholi uchun munosib hayot darajasi va sifatini ta'minlashdan"¹ iboratligi e'tirof etildi.

"2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"ning qabul qilinishi mamlakatimizda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlashga² qaratilgan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bugungi kunda xotin-qizlarga, ularning ehtiyoj va manfaatlariga bo'lgan e'tiborning oshib borayotgani xotin-

qizlar faolligini yuksaltirish borasida jamoatchilik fikrini yangi voqelik talablari


asosida qayta tahlil qilish va tadqiq etish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan ham Jizzax davlat pedagogika universiteti, "Oila" ilmiy-amaliy markazining Jizzax viloyati barcha tuman va shahar bo'limlari, "Mahalla" xayriya jamoat fondi Jizzax viloyatining barcha tuman va shahar bo'limlari hamda Toshkent shahrida faoliyat olib borayotgan respublika tashkilotlari (Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputatlari, "Inson huquqlari" tashkiloti (Ombudsman), "Oila" IAM)da jami 72 nafar ekspert-mutaxassis xotin-qizlar orasida "O'zbekistonda xotin-qizlar faolligini yuksaltirishning ijtimoiy jihatlari" mavzusida o'tkazilgan ekspert so'rovi natijalari ahamiyatga molikdir.

Ekspertlarning u yoki bu tashkilotga tegishliliklari tahlil qilinganda quyidagi manzaraga ega bo'ldik: Jizzax davlat pedagogika universiteti - 18 nafar; "Oila" ilmiy-amaliy markazi Jizzax viloyatining

barcha tuman va shahar bo'limlari - 18 nafar; "Mahalla" xayriya jamoat fondi hamda Xotin-qizlar qo'mitasi Jizzax viloyatining barcha tuman va shahar bo'limlari - 18 nafar; hamda Toshkent shahrida faoliyat olib borayotgan respublika tashkilotlari - 18 nafarni tashkil etishdi.

Respondentlarga asosan ochiq savollar bilan murojaat qilindi. Hamda ularning javoblari so'rovnomaga varaqasida qayd etib borildi. Dastlabki savol: "Siz qanday fikrdasiz, bizning mamlakatimizda mehnat, jamoatchilik, davlat, madaniyat va boshqa sohalarda erkaklar va xotin-qizlar o'rtasidagi ijtimoiy mavqe bo'yicha farq qay darajada?"- degan savolga javoblarda "erkaklar va ayollar o'zaro teng huquqli" degan javob ko'pchilikni tashkil etsada (35%), "erkaklarning mavqei yuqori" deb 29% ekspertlar, "ayollarning mavqei baland" deb esa 10% ekspertlar javob bergan. Bu esa ikkala jins vakillari orasida ijtimoiy farq hali ham sezilarli ekanligini bildiradi, garchi oldingi so'rovga nisbatan jamoatchilik fikrida teng huquqlik borasidagi qarashda ijobiy o'zgarish bo'lgan bo'lsa-da (25-35%gacha). (2-rasm.)

2-rasm



So'rovda "Mamlakatimizda mehnat, jamoatchilik, davlat, madaniyat va boshqa sohalarda erkaklar va xotin-qizlar o'rtasidagi ijtimoiy mavqe bo'yicha farq qay darajada?" - degan savolga har o'ninchi respondent ular orasida farq yo'qligini ta'kidlashgan. Bu nisbatan ijobiy holat deyish mumkin. Zero, "islom dinida erkak ustun bo'lishi kerak" degan fikrni faqatgina 3% respondentlar aytishgan xolos. Shu bilan birga, ayollar va erkaklar o'rtasidagi ijtimoiy mavqedagi farq o'zbek mentalitetiga bog'liq deb 11% respondentlar hisoblashar ekan. Bu kabi fikrlar, ko'p

jihatdan jamiyatda adekvat jamoatchilik fikrini shakllantirish ayollarning o'ziga, avvalo ularning zukkoligi, oqilona ish yuritishlari, ya'ni bir tomondan faol bo'lsalarda, ikkinchi tomondan xalqimiz an'analariga monand faoliyat olib borishlari, boshqacha aytganda oiladagi mavqelarini ham saqlab qoluvchi, har tomonlama nozik muvozanatga asoslangan yashash tarziga o'tishlarini talab etadi.

Respondentlarning "Sizningcha, erkaklar va xotin-qizlar o'rtasidagi ijtimoiy mavqe bo'yicha farq nimaga bog'liq yoki nimaga asoslangan, qanday omillar bilan bog'liq?" - degan savolga bergan javoblariga binoan, 77,8% respondentlar ayollar teng huquqli ekanliklarini aytib o'tishgan. Shu bilan birga, 12,5% respondentlar ayollarning ijtimoiy mavqei erkaklarniki bilan teng emas, balki past deb javob berganligi bu haqda mulohaza yuritishga chorlaydi.

Ma'lumki, qonunda tenglik belgilab qo'yilganligi bilan birga, uni ta'minlovchi real mexanizmlar ham zarurdir. So'rovnomadagi "Jamiyat va davlat hayotining qaysi sohalarda xotin-qizlar erkaklarga nisbatan ko'proq ustunlikka erishgan? Bu nimaga bog'liq?" - degan savollarga javoblarda ana shu mexanizmlar birmuncha ko'zga tashlanadi. Xususan, respondentlarning har beshinchisining fikriga ko'ra, ayollar erkaklarga nisbatan ta'lim, tibbiyot va tadbirkorlik sohalarda ko'proq ustunlikka erishib bo'ldilar. O'tish davri murakkabliklariga nisbatan tezroq ko'nikish hissi ushbu sohalarga ayollarning faol kirib kelishi ushbu omilni keltirib chiqarganligi ehtimol. SHu bilan birga erkaklarning sezilarli qismi pul mablag'larini tezroq keltiruvchi ish o'rinlarini izlab boshqa mamlakatlarga (Rossiya, Qozog'iston, Turkiya va b.) chiqib ketishi ham ushbu jarayonlarni tezlashtirgan bo'lishini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak.

Shu bilan birga, buning aksi bo'lgan sohalarni ham ko'rish mumkin. Erkaklarning boshqaruvda, ayniqsa davlat boshqaruv sohasida o'z ustunliklarini saqlab qolayotganligi sir emaski, buni respondentlarning javoblaridan ham ko'rish mumkin. 3% respondentlar "Boshqaruvda ayollar juda kam" - deb javob berganliklari fikrimizga dalil bo'la oladi.

"Mamlakatimizda xotin-qizlar an'anaga ko'ra ko'proq qaysi sohada va nima bilan band? Bularga oila, bolalar tarbiyasi, ta'lim,

uy ishlari, tibbiyot, savdo-sotiq, buxgalteriya va x.k. taaluqli degan fikr mavjud. Siz ushbu fikrga qo'shilasizmi?" – degan savolga respondentlarning javoblari ham diqqatga sazovordir. Respondentlarning 41%i ayollar oila, bolalar tarbiyasi, ta'lim, uy ishlari, tibbiyot, savdo-sotiq sohalarida ko'proq bandlar va shunday bo'lishi ham kerak deb hisoblashar ekan. Faqatgina 3% respondentlar ayollar boshqaruvda ham faollashganini tan olishar ekan. Shu bilan birga, jamoatchilik fikrida haligacha bola tarbiyasi va pedagogika sohasida ayollar band bo'lishayapdi degan fikr anchagina salmoqli o'rinni egallaydi. Bu javoblarda real holatni qayd etish bilan birga, ma'lum ma'noda shunday holat davom etavergani ham ma'qul degan xohish ham yashiringan bo'lishi mumkin.


Xo'sh, ayollarning o'zlari shu holatga rozimilari? So'rovnomadagi "Siz qanday fikrdasiz, mamlakatimiz xotin-qizlari jamiyatdagi o'z mavqelaridan qoniqish xosil qiladimi? Agar "ha" yoki "yo'q" bo'lsa, unda nima uchun? - degan savolga javoblarga to'xtalib o'taylik. Zero, ayollarning jamiyatdagi maqomi va mavqeini o'zlarini o'zlari baholashlari alohida ahamiyatga ega. Ma'lum bo'lishicha, ayollarning 21%i o'z mavqelaridan rozi emas, ya'ni har beshinchi ayol vaziyatni ijobiy o'zgartirish tarafdori. 44% ayollar jamiyatdagi mavqelaridan qoniqish qilayotganliklarini izohlash uchun masalaga kengroq yondashish zarur. Bu javoblarda turli sotsial omillar (oiladagi ahvol, an'analar), ma'naviy-ruhiy kechinmalar mujassam bo'lgandir. Ammo bu omillardan tashqari, jamoatchilik fikrida o'zbek xotin-qizlarining zamonaviy portreti hali to'liq shakllanmaganligini ham ko'rish mumkin. Haqiqatdan ham, ayollar haqidagi ayrim stereotiplar, ya'ni eski qolipdagi tasavvurlar hozirga kelib jamoatchilik fikrida yangicha qarashlarga o'z o'rnini to'raligicha bo'shatib berdi, deb bo'lmaydi.

Xususan, "Xotin-qizlar haqidagi fikr qanday paydo bo'ladi? Ayollarga nisbatan u yoki bu jamoatchilik stereotipi qaerdan paydo bo'ladi?" – degan savolga javoblarda bu holat ko'zga tashlanadi. Ushbu savollarga javoblardagi "Bola tarbiyasi ayollar zimmasida" (4%), "Bizda ayol uyda o'tirishi kerak degan fikr ustunlik qiladi" (3%) va "O'zbek ayoli uy bekasi bo'lishi, bola tarbiyasi bilan shug'ullanishi kerak degan fikr bor" (3%) degan javoblarning

umumiy yig'indisi 10%ni tashkil etishini hisobga olsak, har o'ninchi respondent javoblari ayollarimiz haqidagi fikrlarda stereotiplar saqlanib qolayotganligining tasdig'ini topish mumkin. XXI asrning ikkinchi o'n yilligiga qadam qo'ygan bir davrda ilg'or insoniyat ayol zotiga nisbatan o'z fikrini zamonaviy qiyofaga solib olishga erishgan bir davrda, bizning hayotimizda saqlanib qolayotgan bu sotsial fakt sog'lom fikrlovchi hech bir insonni befarq qoldirmasligi kerak.

Xo'sh, fuqarolarimizning ayollardagi go'zallik, aql-zakovot, mehribonlik kabi ayollarga xos xarakterni ko'proq qadrlashlari uchun faqat erkaklarning ijobiy fikri etarli? Buning uchun ayollarning o'zlari ham mas'ul emasmi? Qolaversa, jamiyatning mavjud hayot omillari nechog'lik ahamiyatga molik? Buning uchun xotin-qizlarning hayotidagi o'rni va rolini to'g'ri idrok etishni shakllantirish mexanizmlari nimalardan iborat? So'rovnomadagi "Jamiyatda xotin-qizlarning o'rni va rolini idrok etishda ommaviy axborot vositalari qay darajada ta'sir ko'rsatadi?" – degan savolga javoblardan ko'rinadiki, ommaviy axborot vositalari bu sohada o'ta muhim va ta'sirchan omil bo'lib qolmoqda (3-rasm). Bugungi globallashuv davrida Internet tarmoqlarining axborot dunyosida "ulkan portlash" sodir etganligini hisobga oladigan bo'lsak, OAVning favqulodda muhim ahamiyati yanada ravshanlashadi. Demak, ayollarning zamonaviy obrazini OAV orqali noziklik bilan samarali tarzda yaratish – xotin-qizlar tashkilotlarining asosiy vazifalaridan biri bo'lishi zarur.

Ammo, buning uchun faqatgina OAV kuchiga tayanib qolish etarli bo'lmaydi. Avvalo, ayollar rahbarlik lavozimlariga ko'proq munosib bo'la olishlari, jumladan OAV ni boshqarishda ham o'z mavqelarini yaxshilab olishlari zarur



sohalarda xotin-qizlarning o'rni va rolini yuksaltirish zarur?" – degan savolga respondentlarning javoblari shu o'rinda mulohaza yuritishga asos bo'la oladi. Xotin-qizlarning bandlik, ta'lim, ijtimoiy soha, xullas barcha muhim sohalaridagi ishtirokini 50% respondentlar (ijobiy javoblarning umumiy yig'indisi) qo'llab-quvvatlanishi ko'rinib turibdi. Shu bilan birga yana 30% respondentlar ayollarning ijtimoiy-siyosiy sohadagi (7%), siyosiy hayotdagi (7%), biznes sohasidagi (8%) va siyosat hamda biznesdagi (8%) o'rni va rolini yuksaltirishi tarafdor ekanlar. Bu kabi javoblarni yuqoridagi ayollarning roli oshirilishi kutilayotgan ijobiy javoblarga qo'shsak, jami 80% respondentlar O'zbekistonda xotin-qizlarning faolligini yuksaltirish tarafdorlaridir. Aytish mumkinki, ushbu g'oyat dolzarb masalada jamoatchilik fikrida qulay muhit yaralib ulgurdi. Endi bu sohada ko'plab echimlar ayollarning o'zlarining faol ijtimoiy-siyosiy pozitsiyasiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, ayollarning rahbarlik lavozimlariga erishishlariga ko'maklashish katta ahamiyat kasb etadi.

Bu boradagi javoblarga e'tibor qarataylik. So'rovnomadagi "Sizning nazaringizda, mamlakatimizda ro'y berayotgan islohotlarda xotin-qizlar faolligini yuksaltirish uchun jamoatchilik fikrini shakllantirishda qanday chora-tadbirlarni qo'llash zarur?" – degan savolga 14% respondentlar "Ayollarni ish joyida qo'llab-quvvatlash", 13%i "Oliy ma'lumot olishga imkon yaratish", 11%i "Ko'proq ish o'rinlari yaratish" deb aniq takliflar berganlar

(jami 38% javoblar), yana umumiy olganda 25% javoblarda ayollarning zamonaviy imijini yaratish masalalari ko'tarilgan. Ko'rinib turibdiki, aksariyat aholi ayollarimiz haqida ijobiy jamoatchilik fikrini shakllantirish borasida aniq va maqsadli ishlarni amalga oshirish tarafdorlaridir.

Prezident Sh.M.Mirziyoyev tomonidan tajribali va obro'li ayollarning yuksak siyosiy lavozimlarga tayinlanishi (T.Narbayeva, Z.Mahkamova G.Rixsiev va b.) bu sohada amaliy ishlar boshlanganligini ko'rsatadi. Muhimi, bu ishlar joylarda sezilarli tarzda qo'llab-quvvatlanishi lozim.

Umuman olganda, "O'zbekistonda xotin-qizlar faolligini yuksaltirishning ijtimoiy jihatlari" mavzusida o'tkazilgan ekspert sotsiologik tadqiqot natijalariga xulosa tarzida aytish mumkinki, mamlakatimiz aholisining yarmini tashkil qiladigan xotin-qizlar siyosiy ijtimoiylashuvi va faolligi, ularning davlat va jamiyat hayotidagi o'rni va mavqeyining yuksalishi, siyosiy faolliklarining oshishi va eng muhimi, mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etishning faol ishtirokchisiga aylanishlari uchun barcha imkoniyatlar mavjud bo'lib, buning uchun tashkiliy, huquqiy va siyosiy imkoniyatlar to'liq yaratilgan. Bu borada davlatimizda siyosiy islohotlarning strategiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, xotin-qizlarni jamiyatning barcha sohalariga jalb qilish, ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish ushbu strategiyaning asosiy yo'nalishlaridan birini tashkil qiladi.

YOSHLAR ONGIDA MILLIY MENTALITETNI SHAKLLANTIRISH ZARURIYATI

Abbos Egamberdiyevich Do'lanov - f.f.n., dotsent, Qarshi davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy mentalitetimizga xos bo'lgan fazilatlarining muhim jihatlari, ayniqsa, ularning zamonaviy yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishdagi ahamiyati atroflicha tahlil qilingan.

Аннотация: В данной статье тщательно анализируются важные аспекты качеств, характерных для нашего национального менталитета, особенно их значение в повышении морального духа современной молодежи.

Abstract: In this article, the important aspects of the qualities characteristic of our national mentality, especially their importance in raising the spirituality of modern youth, are thoroughly analyzed.

Kalit so'zlar: milliy mentalitet, milliy g'urur, jamoaviylik, insonparvarlik, vatanparvarlik, or-nomus, andisha, mehr-muruvvat.

Ключевые слова: национальный менталитет, национальная гордость, коллективизм, гуманизм, патриотизм, честь, уважение, доброта.

Keywords: national mentalitu, national pride, teamwork, humanitarianism, patriotism, honor, respect, kindness.

Mustaqillik yillarida o'zbek xalqining qadimiy davlatchilik an'analari, etnik tarixi va etnogeneziga bag'ishlagan salmoqli tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, ammo o'zbek xalqning mentaliteti, uning o'ziga xos tomonlari, yutuqlari va nuqsonlari borasidagi tadqiqotlar juda kam.

Tarixdan ma'lumki, dunyodagi har bir millatning, shu jumladan, jahon sivilizatsiyasiga salmoqli hissa qo'shgan xalqlardan biri – o'zbeklarning ham boshqalarnikiga o'xshamaydigan, betakror urf-odat va an'analari bor. O'zbeklarning ham aqliy-ruhiy qiyofasi ya'ni milliy mentaliteti o'ziga xos tarixiy, etnik, tabiiy-iqlimiy shart-sharoitlar doirasida shakllangan bo'lib, uning jamiyatda, dunyoda sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy hodisalar, tarixiy jarayonlarga bo'lgan munosabati ham o'ziga xos bo'lishi shubhasiz.

Avvalo, shunita'kidlash lozimki, mentalitet deganda – biror bir xalqqa, shaxs yoki guruhga xos bo'lgan fikrlash tarzi, aqliy malakalar va ko'nikmalar hamda ma'naviy-ruhiy belgilar yig'indisi tushuniladi. Bu tushuncha muayyan ijtimoiy guruh yoki individning barqaror intellektual yoki emotsional xususiyatini ifodalaydi. Ko'pincha bu so'z millat, xalq, etnosga nisbatan qo'llaniladi.

Zero, "O'zbeklar o'ziga xos shakllanish jarayoniga ega xalqdir. Tarix guvohlik beradiki, o'zbek xalqi mazkur hududda yashagan tub yerli etnoslardan tomir olgan; ikkinchi ildizini esa qadimiy turkiy xalqlardan boshlagan. Har

ikkala asosiy ildizlarning birikishi – o'zaro sintezi o'zbek elatini va keyinchalik o'zbek millatini tashkil etgan"¹.

O'zbek xalqining etnik jihatdan ko'p tarmoqli va sertomir ekanligi uning mentalitetida barcha urug' va ijtimoiy qatlamlar uchun umumiy jihatlari, jamoa manfaatlarini himoya qiluvchi fazilatning rivoj topishini taqozo etgan. Xalqimiz fe'lidagi bag'rikenglik, hotamtoylik (saxovatlilik), mehmondo'stlik, o'zaro hamkorlikka moyillik, g'am-anduhli paytlarda nochor kimsalarga hamdardlik, yelkadoshlik, mehr-muruvvat, oqibatlilik, keksalarni hurmat qilish, farzandlarga g'amxo'rlik ko'rsatish, boshqa millat vakillariga xayrixohlik, jamoatchilik ishlarida jonkuyarlik kabi fazilatlar ana shu jamoaviy yakdillikni ta'minlash, til va dil, fikr, amal birligini saqlash ehtiyojlaridan tug'ilgan va sayqal topgandir.

Shuningdek, "mentalitet yuqorida qayd etilgan xususiyatlardan tashqari millatlarning aqliy intellektual imkoniyatlari va ruhiy-psixologik o'ziga xosliklarini qamrab oladi. Xarakterdagi o'ziga xosliklarning negizini esa shu xalqning tarixiy tajribalari, urf-odatlar, marosim va ma'rakalarining yaxlit tizimi tashkil etadi"².

Xalqimizga xos bo'lgan ushbu ezgu fazilatlarining yoshlar kamolotiga ta'siri o'ta muhim. Har bir o'zbek farzandi ana shu beqiyos sarchashmalardan suv ichib katta bo'ladi, ma'naviyati va madaniyati shakllanadi. Millatimiz mentalitetimizning eng

teran ko'rinishlaridan biri – bu jamoaviylikka intilishdir. Barchamizga ma'lumki, har bir inson ma'lum bir jamoada tug'ilib, voyaga yetadi. Bola tug'ilishidan tortib, to oxirgi manziliga borguniga qadar bo'lgan barcha marosim va urf-odatlarda keng jamoatchilik va mahalla ahlining doimo bosh-qosh bo'lishi udumlarga aylangan. Mazkur jamoadagi insoniy munosabatlar, udum-an'analar, turmush tarzi, qadriyatlarining uning dunyoqarashini shakllantiradi, hayotiy maslagini belgilaydi.

Xalqimizda jamoa, jamiyat ra'yi, ko'pchilikning kengashli fikri muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ham, jamoatchilik fikrining shaxs turmush tarzi, taqdirini belgilashdagi mavqei beqiyosdir. "G'arb – qonunlar, Sharq – urf-odatlar asosida boshqariladi", degan ibora bejizga aytilmagan. Darhaqiqat, o'zbeklar turmush tarzida ham ko'plab urf-odatlar qonunlar darajasida yuqori turadi. Jumladan, oila davrasida yoki keng jamoatchilik o'rtasida o'tkaziladigan barcha marosimlarda mahallaning bosh-qosh bo'lishi, qo'ni-qo'shnicilik an'analari, oila-turmush marosimlaridagi ko'plab urf-odatlar qonun darajasida bajariladi.

Jamoaviylik nafaqat shaxs kamolotida, balki jamiyat taraqqiyotida, jamiyat hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlil islohotlarning ro'yobga chiqishida hamda yangicha ijtimoiy munosabatlarning qaror topishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Asrlar davomida shakllangan jamoaviylik hodisasining mohiyatini chuqur anglash, muhim jihatlarni ilmiy asosda tadqiq etish orqali uning bugungi har bir shaxsdan yuksak intellektual salohiyatga ega bo'lish, mustaqil tafakkur yuritish salohiyatini talab qilayotgan tezkor zamondagi ahamiyatiga atroflicha baho berish mumkin.

Jamoaviylikning o'zagini tashkil etuvchi "jamo" istilohi arabcha so'zdan olingan bo'lib, asosan ibtidoiy jamiyat bosqichiga xoslikni ifodalaydi. O'zbek tilining izohli lug'atida "jamo-yig'ilgan, to'plangan, jamoa-qishloq va uning aholisi, bir guruh kishilar; jamiyat bir to'da kishilar, haloyiq, ko'pchilik; jamoatchilik jamiyat va uning ilg'or qismi"³, deb ta'rif berilgan.

Ba'zi ilmiy adabiyotlarda ham, jamiyat va jamoat degan so'zlar mavjud bo'lib, ularning barchasining o'zagida yig'ilgan, to'plangan degan ma'nolar ifodalanadi. "Jamo" iborasi biror mahalla yoki qishloq aholisi, biror muassasa yoki tashkilot ahlini bildiradi, ya'ni biror joyning bir guruh kishilari demakdir.

Garchi mazmunan juda yaqin bo'lsa-da jamoa va jamiyat tushunchalarining bir-

biridan farqi bor. Agar jamiyat turlicha qiziqish, manfaat, qarashlarga ega kishilarni angatsa, jamoada esa bir xil maqsad va manfaat yo'lida birlashgan kishilar tushuniladi. Masalan, mahalladosh, hamqishloq kishilar jamoadosh hisoblanadi. Shuningdek, bu so'zning kasbdoshlik, maslakdoshlik, faoliyat birligini ifodalovchi shakli ham mavjud: ilmiy jamoa, badiiy jamoa, o'quvchilar jamoasi va hokazolar.

Jamo" ibtidoiy jamoa bosqichidan keyin ham uzoq vaqt barqaror saqlanib kelgan kishilar birlashmasining asosiy shakllaridan biridir. Markaziy Osiyoning mashhur qomusiy olimi Abu Rayhon Beruniy ta'kidlaganidek: "Kishilar o'zlarining zarur ehtiyojlarini qondirish uchun uyushgan holda yashashga majburdirlar"⁴.

Shuningdek, jamoa uchun ishlab chiqarish vositalariga egalik qilish, o'zini o'zi boshqarish huquqidan foydalanish xarakterlidir. Jamiyat taraqqiyoti jarayonida jamoaning shakl va mazmuni ham doim o'zgarib boradi.

Individning yetuk inson sifatida shakllanishi va tarbiyasida jamoaning ahamiyati katta. Jamoaning maqsadi, xohish-irodasi va kuchi doimo bir maqsadga yo'naltiriladi. Shu boisdan ham u muhim tarbiya maskani rolini bajaradi. Kishi o'zi yashaydigan va faoliyat yuritadigan jamoada voyaga yetib, ajdodlari to'plagan tajribalar, ma'naviy qadriyatlardan to'la bahramand bo'ladi. Jamoa insonni ijtimoiy nazorat ostida tutib turish, shaxsning jamoadagi muntazam ishtiroki, uning umumiy axloqiy meyorlar doirasida ish tutayotganining isboti sifatida talqin etiladi. Jamoadan ajralgan holda ish tutish insonning ijtimoiy begonalashuvi sifatida baholanadi.

Darhaqiqat, o'zbek xalqi jamoa manfaatlarini, jamoatchilik fikri doirasida, an'ana va urf-odatlariga sodiqlik negizlarida birlashishga moyil va shunga intiluvchi xalqdir. Zero, an'analarning o'zi ham jamoatchilik fikrining barqarorlashgan ifodasidir.

Shaxs o'zining insoniylik mohiyatini faqat jamoada, insonlar bilan o'zaro munosabatlarda to'la anglab yetadi. Kindik qoni tomgan joyni e'zozlash, mahalladoshlar, el-yurt manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yish, o'zaro izzat-hurmatning kuchliligi, qarindoshlik rishtalarining mustahkamligi, jamoaviy an'ana va urf-odatlarining turmush tarzidagi ustuvor mavqeni egallashi xalqimizga xos eng oliyanob fazilatlar hisoblanadi. Shu bo'lib, "Jamoaviy yordam va ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarning oilasi, jamiyat va davlat bilan o'zaro aloqasini kuchaytirish, ... bu boradagi islohotlar ta'sirchanligini oshiradi"⁵.

Jamoaviylik shaxs zimmasiga asrlar

1 Shoniyozov K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. T., 2001, 8-bet

2 Bekmurodov M. O'zbek mentaliteti xususiyatlari// Ijtimoiy fikr 1998 № 1. 49-bet

3 O'zbek tilining izohli lug'ati. Ikkinchi jild. T., "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" nashriyoti, 2006-y. 68-b.

4 Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar 1-jild. T., "Fan", 1986y. 36-b.

5 Mirziyoyev Sh.M., "Yangi O'zbekiston strategiyasi". T., "O'zbekiston", 2021y. 200-b.

osha shakllanib kelgan an'anaviy udumlaridan kelib chiqib o'zini anglash, oldiga qo'yilgan maqsadga intilishda kamtarlik, el-yurt va shaxsiy manfaatlarni uyg'unlashtirish kabi majburiyatlarni ham yuklaydi. Ayniqsa, qishloq joylarda har bir jamoa o'zining aniq hududiga ega bo'lib, aholi o'zining yashash chegarasini aniq bilgan. An'anaga ko'ra qariyalar yosh avlodga o'z nasl-nasabi; shajarasi (yetti pushti), jamoasi, ziroatchilik yerlari, hatto sug'orish tarmoqlari haqida doimo ma'lumot berib borishgan. Yoshlarda esa o'z tug'ilgan yeri, qavmi va jamoasiga g'amxo'rlik hissi go'dakligidanoq shakllana boshlagan.

Jamoa ijtimoiy hayotning eng muhim bo'g'ini ekanligini ko'plab ilmiy tadqiqotlar ham tasdiqlaydi. Jamoa a'zolari asrlar davomida ishlab chiqarish munosabatlarida faol ishtirok etgan. Shu bois qishloq jamoasi o'zining barqarorligini saqlab qolgan. Qishloq jamoasining iqtisodiy faoliyatining asosini dehqonchilik, chorvachilik va bog'dorchilik tashkil etgan. Bu tarmoqlarning rivojlanishi jamoa a'zolarining faoliyati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan.

Har bir manzildagi oqsoqollar kengashi qishloq jamoasining nazorat qilish organi hisoblangan. Kengash a'zolari qishloq aholisining umumiy yig'ilishida saylangan. Kengash jamoa hayotida muhim rol o'ynagan va turli nizolarni bartaraf etuvchi hamda jamoa a'zolarining o'zaro munosabatlarini tartibga soluvchi va yo'naltiruvchi asosiy bug'in ekanligi tan olingan.

Tariximiz sahifalari yurtimiz tuprog'i ko'p asrlar mobaynida bosqinchilar tomonidan ayovsiz toptalganligidan darak beradi. Barcha jahongiru istilochilarning oyog'i, tulporlarining tuyog'i yetgan bu zaminga. Shu ham ajdodlarimizning doimo jamoa bo'lib, ahil "to'da"ga birlashib yashashni taqozo etgan bo'lsa ajab emas. Zero, mamlakatimizning birinchi prezidenti I. Karimov ta'kidlaganidek, "Tabiat qiyinchiliklarini, tashqi xavf-xatarni birgalikda yengish, yerlarni ishlashda kuchlarni birlashtirish, yaxshi-yomon kunlarda bir-biriga yelkadosh bo'lishga intilish tuyg'usi olis ajdodlarimizni jamoa tarzida yashashga o'rgatgan"⁶.

Mustabid sho'rolar davrida ham jamoa hayotidagi ko'pgina udum va ananalar turli ta'qiblar ostida unutilish, ba'zilar esa umuman yo'q bo'lib ketish darajasiga yetgandi. Chunki hukmron mafkura o'z mavqeini yanada mustahkamlash uchun jamoaning azaliy udum va an'analarni taraqqiyotga to'siq, deb tashviqot qilar edi. Ya'ni milliy mentalitet inkor etilib, "yagona sovet xalqi", "yagona sovet turmush tarzi"ga asoslangan ijtimoiy tuzum

yaratishga harakat qilindi. Bunday g'ayriinsoniy tartib va qoidalar inson tabiati va tafakkurini tayyor stereotiplar asosida shakllanishga majbur etar, odam tobora o'z qavmi, xalqi va millatidan begonalashib borardi.

Tabiiyki, bu soxta siyosat hayotda o'z o'rnini topa olmay tanazzulga uchradi, jamoatchilik qadriyatlarini esa xalqimiz turmush tarzidan muqim joy oldi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng esa qadriyatlarimizni tiklash va xolisona tahlil qilib odilona baho berish kun tartibidagi bajarilishi lozim bo'lgan eng asosiy vazifalardan biri sifatida belgilab olindi. Shu boisdan asrlar davomida tarix chig'irig'idan o'tib kelayotgan jamoatchilik udum va an'analarni yangidan qayta tiklash hamda ularni xolisona o'rganib, zamon talablariga moslashtirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani ayni muddaodir.

Milliy o'zligi toptalgan, mentaliteti kamsitilgan xalqni uyg'otish, uning ruhi va tafakkurini erkinlik g'oyalari bilan oziqlantirish, ijtimoiy faolligini oshirish uchun mustaqillik mafkurasini yaratish va hayotga tatbiq etish zarur edi.

Mustaqillik mafkurasini konsepsiyasini ishlab chiqish zaruriyati shunda ediki, kishilar ongi tafakkurini o'zgartirmasdan, mustaqil fikriga ega bo'lgan, yurtiga sadoqatli yoshlarni tarbiyalamasdan turib, yangi jamiyatni barpo etish mushkuldir. Ayniqsa insonparvar demokratik jamiyat, huquqiy davlat bunyod etilayotgan bir pallada milliy mentalitetga ega yoshlarni tarbiyalash muhim vazifalardan biridir. Chunki milliy mentalitetimiz asosini tashkil etadigan muruvvat, mehr-oqibat, andisha, oriyat, ibo va hayo kabi ma'naviy-axloqiy qadriyatlarimizni yoshlar qalbi va ongiga singdirishning tarbiyaviy ahamiyati beqiyosdir.

Shunday qilib milliy mentalitetda xalq hayotining ikki muhim jihati o'z ifodasini topadi. Birinchidan, unda tarixan shakllangan xalq, millat ongi, xarakteri, yashash tarzi va ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy-ma'naviy ideallari aks etsa, ikkinchi tomondan, muayyan tuzum va jamiyatda yashash sharoiti, jamiyat mafkurasini va ma'naviy ehtiyoji bilan bog'liq xususiyatlar o'zini namoyon qiladi.

Milliy mentalitet insonni millat bilan, ajdodlarni avlodlar bilan bog'lovchi vosita vazifasini bajaradi. Shu orqali milliy mentalitet millat abadiyligini, uzviyligini va davomiyligini belgilaydi.

Muxtasar qilib aytganimizda, Uchinchi renessans bunyodkorlari bo'lgan yoshlarimiz ongida an'anaviy jamoaviylik ruhini singdirish, ularda milliy mentalitetimizga xos bo'lgan vatanparvarlik, mehnatsevarlik, insonparvarlik,

andisha, mehr-muruvvat, oriyat kabi fazilatlarini shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

TURKISTON GENERAL GUBERNATORLIGI DAVRIDA MIRZACHO'LNING O'ZLASHTIRILISHI

Abdurasul Boltayev - t.f.n dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Davron Abdurazimov - tadqiqotchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Diyor Ibrohimov - magistr, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: O'tgan XIX-XX asrlardayoq paxta Podsho Rossiyasi qishloq xo'jaligi va sanoatida asosiy harakatlantiruvchi kuch edi. Shuning uchun Podsho hukumati paxta yakkahokimligini bor kuch va imkoniyatlarini ishga solib rivojlantirdi. Chetdan to'xtatib, faqat O'rta Osiyodan arzon va sifatli paxta olib keltira boshladi. Boylik orttirish yo'llarini niqoblab, zulm o'tkazishning barcha usullaridan foydalandi.

Аннотация: XIX-XX веках хлопок был основной движущей силой в сельском хозяйстве и промышленности Царьской России Поэтому, Царское правительство развивало свою монополию, используя все свои силы и возможности. Россия перестала покупать хлопок из-за границы, из Америки, а стал ввозить дешевый и качественный хлопок только из Средней Азии. Он маскировал способы обогащения и использовал все методы угнетения народов Средней Азии.

Abstract: In the past XIX-XX centuries, the cotton was the main driving force in agriculture and industry in Russia. Therefore, the tsar's government developed the cotton monopoly with all its strength and capabilities. He stopped buying cotton from abroad, i.e. from America, and started importing cheap and highquality cotton only from Central Asia. He disguised the ways of getting rich and used all methods of oppression.

Kalit so'zlar: vasvasa, niqob, bosqinchi, zo'ravon, gidrotexnika, irrigatsiya, muhandis, ruslashtirish, yakkahokimlik.

Ключевые слова: истерика, ключ, захватчик, насильственный, гидравлика, орошения, инженер, русификация, монополия.

Keywords: temptation, key, niobium, invader, violent, hydraulic engineering, irrigation, engineer, russification.

Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. "Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkuri bilan qurollantirishimiz zarur"¹ - deb ta'kidlagan edi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev. Shu bilan bir qatorda mutaxassis va tarixchilar oldiga tarix fanining 2030-yilgacha bo'lgan strategiyasini ishlab chiqish vazifasi qo'yildi.

Ma'lumki har qanday ijtimoiy-iqtisodiy tizimda va har qaysi mamlakatda agrar siyosat asosini yer masalasi tashkil etadi. Turkiston Podsho Rossiyasi tomonidan istilo qilinganidan so'ng agrar masala mustamlakachilik siyosatidagi bosh masala bo'lib qoldi. Bunda bir yo'la ikkita vazifani hal etish kerak edi: a) Podsho hukumatini Turkiston o'lkasidagi mavqeini tobora mustahkamlab boorish; b) O'lkaning boy tabiiy va iqtisodiy zahiralardan rus pomeshchiklari va kapitalistlari manfaati yo'lida foydalanish asosiy maqsad qilib qo'yildi.

Podsho hukumati agrar masalasida Turkiston o'lkasida minglab yillar davomida shakllanib kelgan agrar munosabatlarni go'yoki buzmaslik siyosatini olib bordi. Aslida esa ularning maqsadi bu sohada keskin o'zgarishlarni amalga oshirib, uning huquqiy asoslaridan o'z hukumati manfaatlariga xizmat qiluvchi vosita sifatida foydalanish edi.

1. Podsho hukumatining uzoqqa mo'ljallangan geopolitik va strategik rejalarida Turkiston o'lkasini "Rus elementi" bilan to'la va har tomonlama o'zlashtirilgan, turli maqsadlarga xizmat qiluvchi (plotsdarm) to'siq yoki oraliq xavfsizlik zonasini (Rossiyani tashqi agressiyadan himoya qiluvchi yoki aksincha, uning tashqi davolariga xizmat qiluvchi) barpo qilish, hamda bu o'lkani turli tuman tabiiy boyliklarini va xomashyo zaxiralarini yetkazib beradigan maskanga aylantirish ko'zda tutilgan edi. Ushbu yo'nalishda eng birinchi galda paxtachilikni keskin ko'paytirish ko'zda

6 Karimov I.A., "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q". T., "O'zbekiston", 1998y. 118-b.

1 "Халқ сўзи" 20 январ 2021 "Жамият ҳаётининг танаси иқтисодиёт бўлса, унинг жони ва руҳи маънавиятдир"

tutilgan edi. "Ikkinchi Turkiston" ni barpo qilish rejaları XIX asrning oxirgi o'n yilligidayoq kun tartibiga qo'yildi.

2. O'lkada uzoq asrlar davomida shakllanib tarkib topgan mahalliy irrigatsiya sohasini, Podsho hukumati birinchi galda maqsad qilib qo'ygan va yuqorida ko'rsatilgan ulkan rejani tezda amalga oshirish imkonini bermas edi. Buni yaxshi tushungan mustamlakachi ma'muriyat irrigatsiya sohasida qator, uzoqqa mo'ljallangan jiddiy islohotlarni amalga oshirishga kirishdi. Bir qarashda bu islohotlarning boshlanishi tasodifiy yoki amaliyotda yuzaga kelgan muammolarni hal qilishga qaratilgan chora ko'rishida bo'lsa-da, bora-bora mustamlakachi ma'muriyat uchun bu o'zi o'ratgan unitar, bosqichma-bosqich boriluvchi va bajariluvchi harbiy buyruqbozlikka asoslangan, boshqaruv tizimining talab va ehtiyojlariga mos keladigan butunlay yangi irrigatsiya sohasini yoki tizimini shakllantirish kerakligi ayon bo'lib qoldi.

3. Podsho hukumati Turkistonda irrigatsiya sohasida o'tkazilgan mustamlakachilik siyosati, birinchi navbatda yer va suvdan foydalanish bo'yicha istilochilar manfaatlariga mos tushadigan yangi qonunchilikni yaratishda va harbiy buyruqbozlikka asoslangan yangi ma'muriyat manfaati va ehtiyojlariga javob beradigan markazlashgan boshqaruv tizimini barpo qilishda, yana o'zini yaqqol namoyon qildi. V.I.Massalskiyning ta'biri bilan aytganda, "Paxta vasvasasi" Podsho hukumati hukmronligi davridayoq boshlangan edi. Bu esa Podsho Rossiyasi moliya vaziri Vishnegorodskiyning "Rus tojining duri" bo'lmish Turkistonga, Rossiyaning eng boy xazinasini sifatida e'tibor qaratish lozim, degan aqidasi mos siyosat ishlab chiqilishiga sabab bo'ldi.

Shu jihatdan olib qaraganda, Mirzacho'l ham rus podshosining nazaridan qolmadi. Mirzacho'lning tabiiy muhiti, u yerni o'zlashtirib, mahalliy manzilgihlar barpo qilish, yerlarni sun'iy sug'orish uchun ariq va kanallar qazish orqali qishloq xo'jaligini barpo qilish, ijtimoiy ahvolni mustahkamlash, ko'chib kelayotgan aholining milliy va diniy holatlarini hisobga olish lozim. Buning uchun esa barcha imkoniyatlar ishga solindi. Yerdan foydalanish bo'yicha tajribalar kata ahamiyatga ega bo'ldi. Ayniqsa, almashib ekishga e'tibor kuchaytirildi. Unga rioya qilmaslik esa vaqtinchalik hol edi, chunki u rus dehqonlari uchun yangilik bo'lib, ular dastlabki paytlarda qo'riq yerlardan mumkin qadar ko'proq naf ko'rishga intilar edilar, - deb

yozgan edi V.F.Koravayev.

Podsho Rossiyasining yerlar melioratsiyasi to'g'risida tajribasi yo'q edi, shuning uchun ham Mirzacho'lda ham sho'rlanishga va botqoqlanishga qarshi kurash olib borishda G'arbiy Yevropa mamlakatlari tajribasidan foydalanildi. Bu mamlakatlarda XIX asrdayoq turli drenajlar yordamida, jumladan, yopiq (quvurli) drenajlar yordamida botqoqlarni quritish ishlari olib borilar edi.

G'arb tajribasi asosida ko'r-ko'rona ish olib borilishi natijasida Mirzacho'lda oralig'i 40-50 m bo'lgan tor, sayoz (chuqurligi 0.7-1 m) drenajlardan foydalanila boshlandi. Bunday drenajlar Mirzacho'l sharoitiga butunlay javob bermas edi².

Mirzacho'l tabiiy sharoiti va tuproqlarini tekshirgan N.A.Dimo o'zining birinchi asarlaridayoq tuproqning sho'r bosish masalasini to'g'ri yoritdi. U tuproqlarning sho'r bosish qonuniyatlarini aniqladi, tuproq sizot xaritalarini tuzdi. Relyef yer osti suvlari va sug'orish xarakteriga qarab yerlarini sug'orishdan oldin va sug'orilgandan keyin sizot suvlarining chuqurligi va melioratsiya darajasini ko'rsatadigan kartalarni tayyorladi. N.A.Dimoning tadqiqotlari umuman tuproqning sho'r bosishini, jumladan, Mirzacho'l yerlari sho'rlanishini o'rganishga katta ilmiy xissa bo'lib qo'shildi va o'z ahamiyatini hamon yo'qotmagan. Ichki komissiya a'zolari (M.M.Bushuyev, M.P.Dvornichenko, N.I.Kurbatov, K.I.Xrustalevlar) esa chuqur denajlar qurish va Kaliforniya (AQSh) quduqlarining tajribalaridan foydalanib Mirzacho'lda vertikal drenajlar qurishni qo'llashni taklif etadilar.

1905-yildan Rossiya qishloq xo'jaligi jamiyati raisi, prof.R.R.Shreder (keyinchalik akademik) Turkistonda, jumladan Mirzacho'lda katta ishlarni amalga oshirdi. Yerlarni sho'rlanishdan saqlashga yirik mutaxassis olimlardan V.S.Malgin, G.K.Rizenkampflar ham katta hissa qo'shadilar. 1911-yilda tuzilgan "Sirdaryo avzasida qidiruv ishlari boshqarmasi" Rossiya dehqonchilik va yer ishlari vazirligining Yerlarni yaxshilash boshqarmasi bilan hamkorligida Mirzacho'lda loyiha qidiruv ishlarini olib bordi. Qidiruv-tadqiqot va loyihalash ishlariga talantli gidrotexnik G.K.Rizenkampflar boshchilik qildi. S.F.Ostrovskiy bilan birga Mirzacho'lni o'zlashtirishning dastlabki chizmasini ishlab chiqdi. Qidiruv ishlari davom etirilib, yaxshi natijalar berganidan keyin G.K.Rizenkampfga Mirzacho'lda jami 500 ming desyatina

2 Koravayev V.F. "Голодная степь в ее прошлом и настоящем" Петроградю 1914. С.98

(540 ming gektar) yerni, shu jumladan, Mirzacho'lning Markaziy va Janubiy qismidagi yerlarni ham sug'orish (bu yerlarga Jizzax vohasi ham kirar edi) loyahasini tuzib chiqish ishi topshirildi. U loyihani tuzish uchun o'z davrining tajribali va mohir menejerlari, agronomlari, iqtisodchilari va boshqa mutaxassislarni jalb qila oldi. Sirdaryoda bir qancha gidrostansiyalarni qurib, ularning energiyasi yordamida Mirzacho'lning Janubiy qismidagi Turkiston tizma yonbag'rlaridagi, Jizzax vohasi yerlarini ham su g'orish loyihaga kiritildi. Loyihada iqtisodiy hisob-kitoblarga ham ahamiyat berilgan edi. Shuni alohida qayd etib o'tish kerakki, Mirzacho'lni o'zlashtirish bo'yicha tuzilgan G.K.Rizenkampflar loyihasi, bu muammoni hal etish yo'lidagi birinchi jiddiy urinish edi. Biroq G.K.Rizenkampflar g'oyalari Podsho Rossiyasi davrida amalga oshmadi, chunki chekka o'lkalarni har tomonlama rivojlantirish, cho'lni o'zlashtiruvchilar zarur shart-sharoitlarni yaratib berishga podsho hukumati e'tibor bermadi.

Podsho Rossiyasi davrida turkistonda qishloq xo'jaligining (paxtachilikning) rivojlanishi o'lkada bu bilan bo'g'liq ishlab chiqarish jarayonining taraqqiyotiga olib keldi. Fabrika-zavodlar qurila boshlandi. Bu tarmoqlar orasida eng yirigi "Paxta tozalash" tarmo g'i edi. Paxta tayyorlash kuchaya borgan sari o'lkaning yirik paxtakor rayonlarida paxta tozalash zavodlari qad ko'tara boshladi.

Shu bilan birga ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishi va tovar-pul munosabatlarining kengaya borishi natijasida O'rta Osiyo xo'jaligi asta-sekin kapitalistik taraqqiyot yo'lga tortila boshladi. Biroq XX asr boshlarida burjuaziyaga qarashli paxta tozalash korxonalarining soni ortgan bo'lsa-da, texnik nuqtayi nazaridan zamon talabi darajasida jihatlanmagan edi. Shuning uchun ham bu zavodlarda ishlovchilar turmushi, yashash sharoiti ayanchli ahvolda edi. Nima bo'lganda ham Mirzacho'l yerlarini o'zlashtirish, su g'orish va melioratsiyalashni keng yo'lga qo'yish, uni xalq uchun xizmat qildirish ichki imkoniyatlarni qidirib topish va bu sohada ilmiy-tadqiqot ishlarni avj oldirish, yangi-yangi gidrotexnik inshootlarni qurish, dehqonchilikni kengaytirish mahalliy xalqning orzu-istagi bo'lib qolaverdi.

Podsho Rossiyasi qanday qilib bo'lsa ham, ko'proq paxta olish uchun, o'lkada paxta maydonlarini kengaytirish sohasida ba'zi bir choralarni ko'rdi³. Boshqa ekinlar, xususan

g'alla maydonlari kamaytirildi. Rossiyadan don keltirilib paxtaga almashtiriladi.

Shuni alohida takidlash kerakki, Mirzacho'lni o'zlashtirish asnosida o'lkada juda ko'plab rus qishloqlari paydo bo'la boshladiki biz ularni quyidagi ro'yxatda ko'rishimiz mumkin:

1. Zaparojeski qishlog'i-1885-yilda asos solindi.
2. Romanov qishlog'i-1885-yil
3. Nadejdinskiy qishlog'i-1886-yil
4. Sretinsk qishlog'i-1886-yil
5. Nijne-volinsk qishlog'i-1889-yil
6. Nikolayev qishlog'i-1889-yil
7. Nikolsk qishlog'i-1893-yil
8. Obetavanniy qishlog'i yil
9. Verxne-Volinsk qishlog'i-1897-yil
10. Konnegvardeysk qishlog'i-1897-yil
11. Duxovsk qishlog'i-1901-yil
12. Spasskiy qishlog'i-1906-yil
13. Axmonqul qishlog'i-1909-yil
14. Sirdaryo qishlog'i-1909-yil
15. Veliko-alekseevsk qishlog'i-1913-yil⁴

Ularning har birining o'z yer maydonlari, o'zigayarashonadonlarida istiqomat qiluvchi aholisi bor edi. O'lkada rus qishloqlari paydo bo'lishiga 1891-1895 yillarda Bekoboddan Mirzacho'lgacha kichik kanal qazilib 7 ming gektarga yaqin yerning sug'orilishi va boshqalar sabab bo'ldi. Chunki Podsho hukumati Mirzacho'lning sug'orma yerlarini Markaziy Rossiyadan ko'chirib kelingan o'ziga to'q dehqonlarga bo'lib berdi.

Mahalliy aholiga bu yerlarda dehqonchilik qilish taqiqlandi. Ko'chirib keltirilgan dehqonlar Sirdaryo o'zani hududidagi sog' tuproqli yalangliklarni o'zlashtira boshladilar. Natijada biz yuqorida ta'kidlaganimizdek turli nomdagi rus qishloqlar paydo bo'la boshladi. Bu uchastkalar yashovchi (dehqon) lar yerni qanday sug'orishni, yer sharoitini bilmasdilar, suvni isrof qilardilar. Natijada yerlarning sho'rlanishi oshib borardi. Masalan, Konnogvardeyskiy, Romanovskiy, Naddejdinskiy, Obetovanniy, Verxniy va boshqa qishloqlarda ham xuddi shunday ahvol yuz berdi.

1. Xulosa shundan iboratki, Podsho hukumati Turkiston, jumladan, Mirzacho'lni tabiiy boyliklar va xomashyo zahiralarni yetkazib beradigan maskanga aylantirishni ko'zda tutgan edi.

2. Podsho hukumati Turkiston zaminining turli-tuman boyliklarini egallashni, uni Rossiyaning Rossiyaning

3 Раззоков А. Мелиорация и народы, Т.: 1982. Б. 17

4 Болтаев А. Мирзачул-Жиззах: Утмиши ва бугуни. Т.: "Фан" нашриёти, 2007 йил.

xomashyo manbayiga va tayyor mahsulotlar bozoriga aylantirishni ko'zlab, paxtachilikni rivojlantirishni birinchi darajali vazifa qilib qo'ydi. Podsho Rossiyasi hukmronligi davrida paxta yakkahokimligining poydevori bunyod etildi.

Mustamlakachiliksiyosatining yanada mustahkamlanishi Rossiyada yuz minglab kishilarni ko'chirib keltirish imkonini yaratdi⁵.

3. O'lkada uzoq asrlar davomidashakllanib tarkib topgan mahalliy irrigatsiya sohasi hamda Podsho hukumati birinchi galdagi maqsad qilib qo'ygan va yuqorida ko'rsatilgan ulkan rejani, tezda amalga oshirishga kirishdi. Buni yaxshi tushungan mustamlakachi ma'muriyat irrigatsiya sohasida qator uzoqqa mo'ljallangan jiddiy islohotlarni amalga oshira boshladi. Bir qarashda bu islohotlarning boshlanishi tasodifiy yoki amaliyotda yuzaga

kelgan muammolarni hal qilishga qaratilgan choralar ko'rinishida bo'lsa-da, bora-bora mustamlakachi ma'muriyat uchun bu o'zi o'rnatgan unitar, bosqichma – bosqich boriluvchi va bajariluvchi harbiy buyruqbozlikka asoslangan, boshqaruv tizimining talab va ehtiyojlariga mos keladigan, butunlay yangi irrigatsiya sohasi tizimini shakllantirish kerakligi ayon bo'lib qoldi.

4. Podsho hukumatining irrigatsiya sohasida Turkistonda o'tkazilgan mustamlakachilik siyosati, birinchi navbatda yer va suvdan foydalanish bo'yicha istilochilar manfaatlariga mos tushadigan, paxtachilikni rivojlantirishga asoslangan, uning manfaat va ehtiyojlariga javob beradigan siyosatdan boshqa narsa emas edi.

MA'NAVIY TAHDIDLARNING MAZMUN-MOHIYATI

Hurriyat Xurramovna Eshova - milliy tadqiqot universiteti dekan o'rinbosari, "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti"

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugun jahonda kechayotgan globallashuv jarayonlari natijasida vujudga kelayotgan ma'naviy tahdidlar, shuningdek tajovuzkor millatchilik va shovinizm, neofashizm va fundamentalizm, rassizm va diniy ekstremizm, neokommunizm kabi g'oyalarning mazmun mohiyati yoritilgan.

Аннотация: В данной статье освещаются духовные угрозы, возникающие в результате процессов глобализации в современном мире, а также сущность агрессивного национализма и шовинизма, нефашизма и фундаментализма, расизма и религиозного экстремизма, неокommunизма.

Abstract: In this article, the spiritual threats arising as a result of globalization processes in the world today, as well as the essence of aggressive nationalism and chauvinism, neo-fascism and fundamentalism, racism and religious extremism, and neo-communism, are highlighted.

Kalit so'zlar: milliy ong, ma'naviyat, ma'naviy tahdid, globallashuv, axborot va mafkuraviy ta'sir ko'rsatish vositalari, millatchilik, shovinizm, neofashizm, fundamentalizm, rassizm, diniy ekstremizm, neokommunizm.

Ключевые слова: национальное самосознание, духовность, духовная угроза, глобализация, средства информационно-идеологического воздействия, национализм, шовинизм, нефашизм, фундаментализм, расизм, религиозный экстремизм, неокommunизм.

Keywords: national consciousness, spirituality, spiritual threat, globalization, means of information and ideological influence, nationalism, chauvinism, neofascism, fundamentalism, racism, religious extremism, neokommunism.

Hozirgi kunda mafkuraviy vositalar orqali o'z ta'sir doirasini kengaytirishga intilayotgan g'arbning ijtimoiy-falsafiy kuchlari va harakatlari sirasiga tajovuzkor millatchilik va shovinizm, neofashizm va fundamentalizm, rassizm va diniy ekstremizm, neokommunizm kabi g'oyalarni kiritishimiz mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, ayni paytda dunyoda vujudga kelgan murakkab vaziyat, ya'ni axborot ko'lami kengayishi, mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi tufayli mafkuraviy tahdidlar strukturasi insoniyat jamiyati va



hayotining barcha sohalarini qamrab olmoqda. Mafkuraviy tahdidlar o'z mohiyatidan kelib chiqib, eng avvalo, inson ongi, tafakkuri va xulq-atvoriga xavf-xatar solib, inson ongi va qalbini buzg'unchi g'oyalar bilan zaharlashga harakat qilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatda mafkuraviy xavfsizlikni kuchaytirish chora-tadbirlariga jiddiy e'tiborni qaratishni talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" (2008) asarida ushbu muammoga alohida e'tibor qaratib shunday deydi: "Bugungi murakkab mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish va baholash, ularning ustuvor yo'nalishlarini kimga va nimaga qarshi qaratilganini aniqlash, aholi turli qatlamlariga ta'sirini o'rganish, milliy manfaatlarimizga, hayot tarzimizga zid bo'lgan mafkuraviy xurujlarning mohiyatini ochib berish, fuqarolarimiz qalbida milliy tafakkur va sog'lom dunyoqarash asoslarini mustahkamlash alohida ahamiyat kasb etadi"¹. Bundan xulosa shuki, faylasuf va siyosatshunos olimlarimiz ma'naviy tahdidlarning jamiyat yoshlari hayoti uchun halokatli kuchga egaligi haqida ko'plab tadqiqotlarni yaratishi, o'rta maktab va oliy o'quv yurtlarida targ'ibot-tashviqot tadbirlari mexanizmini takomillashtirish vaqti keldi. Targ'ibot tadbirlarida jonli, faktik misollar, videoroliklar sezilarli ahamiyatga ega bo'ladi.

Globalashuv ta'siri va chegarasi kengayib borayotganligi endi sir bo'lmay qoldi. Mutasaddi tashkilotlar va ta'lim dargohlari mafkuraviy xurujlarning ildizlarini aniqlashi, ularning tub mohiyatini xalqimizga tushuntirishi, bu borada televideniye imkoniyatlaridan keng foydalanishi lozim. Mafkuraviy tahdidlarning xavfli jihati shuki, u birinchi navbatda jamiyatning ma'naviy sohasini buzib tashlashga yo'naltirilgan bo'ladi. Chunki ma'naviy tafakkur, ma'naviy salohiyat jamiyat taraqqiyotini, ijtimoiy-falsafiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan asosiy omillardan biridir.

Mana shunday mafkuraviy xurujlar harakatida bo'lgan ayrim rivojlangan mamlakatlar sanoat mahsulotlari, axborot va mafkuraviy ta'sir ko'rsatish vositalari, yangi zamonaviy texnologiyalar orqali keng ko'lamdagi geosiyosat yuritish bilangina cheklanmay, o'z xalqining tabiati, madaniyati,

mafurasiga xos jihatlarni muntazam ravishda dunyo xalqlari turmush tarziga, ongu shuuriga singdirishga intilmoqdalar. Bu hol ayniqsa, endigina mustaqillikka erishgan mamlakatlar, jumladan, O'zbekiston xalqining milliy o'zligi, madaniyatining vorislik an'alariga hamda mentalitetiga putur yetkazishi mumkin. Eski mafkura va uning axloq normalaridan voz kechilganligidan keyin jamiyatda paydo bo'lgan g'oyaviy bo'shliqdan foydalanib, chetdan biz uchun mutlaqo yot bo'lgan ma'naviy va axloqiy tuban illatlarini o'z ichiga olgan "ommaviy madaniyat" yopirilib kirib kelishi mumkinligini e'tiborga olsak, mafkuraviy xavfsizlikni yanada kuchaytirish zarurati yuzaga keladi, deb hisoblaymiz.

Xalqimiz ma'naviyatini asrash va uni yuksaltirish, ayniqsa, yosh avlodni turli zararli g'oya va mafkuralar ta'siridan, bir so'z bilan aytganda, ma'naviy tahdidlardan himoyalash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

"Ommaviy madaniyat" degan niqob ostidagi axloqiy buzulq va zo'rvonlik, individualizm, egosentriзм g'oyalarni tarqatish, kerak bo'lsa, shuning hisobidan boylik ortirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlarini, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlar yurtning taraqqiyoti, vatanning ravnaqini o'ylagan har bir fuqaroni tashvishga solmasdan qo'ymaydi.

Hozirda turli mamlakatlarda namoyish etilayotgan kino hamda videofilmlarning to'rttdan uch qismi Amerika mahsuloti ekani ham shundan dalolat beradi². Mafkuraviy tahdid yoki mafkuraviy tajovuzning "ma'naviyat" niqobi ostidagi bunday xurujlari har qanday yosh, mustaqil davlatlarning barqaror taraqqiyotiga putur yetkazadi. Eksport qilinayotgan Amerikacha madaniyat yoki ma'naviyatning salbiy oqibatlari nafaqat mustaqillikni endigina qo'lga kiritgan davlatlarda, balki Amerikaning o'zida ham jiddiy kuzatilmoqda.

Mahalliychilik va urug'-aymoqchilik qoldiqlarining saqlanib qolishi milliy ma'naviyatga nisbatan tahdid shakllaridan biri. "Urug' (ijtimoiy birlik) – qon-qarindoshlarning ijtimoiy-ma'naviy uyushuvi natijasida shakllangan jamoa. Urug'chilik insoniyat qadimgi davriga xos bo'lib, yashash uchun kurash va tashqi dushmanlardan saqlanish

¹ Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. Т.: Маънавият, 2008, 126-127 б.

² Зокиров Б. Глобаллашув зиддиятлари. // Тафаккур. 1-сон, 2004. –Б.29.

maqsadida kishilarning qarindoshlik asosida birlashuvi natijasida paydo bo'lgan"³. "Aymoq – mo'g'ul va turkiy xalqlarda qadimgi yirik urug'lardan ajralib chiqqan, turli-tuman hududlarda yashasa-da, o'zaro qon-qarindoshlik asosida bog'langan insonlarning ijtimoiy birligini anglatuvchi tushuncha"⁴. Keltirilganlardan ko'rinib turibdiki, urug'-aymoqchilik kishilarning millat darajasigacha yetib kelmagan ijtimoiy uyushmasidir.

"Mahalliychilik – kishilarda o'zlari tug'ilib o'sgan joy bilan bog'liq holda shakllanuvchi hududiy yaxlitlik tuyg'usining salbiy shaklda namoyon bo'lishi. U kishilarning urug'-aymoqchilik va qon-qarindoshlik aloqalari bilan bog'langan birligini ham anglatadi"⁵. Mahalliychilik va urug'-aymoqchilik qoldiqlarning milliy ma'naviyatga tahdidi shundaki, uning mavjudligi kishilarning hali milliy birlik bo'lib to'la shakllanmaganligini bildiradi. Buning oqibatida har bir urug' o'z manfaatlarini millat manfaatlaridan ustun qo'yadi. Oqibatda milliy birlikning vujudga kelishi xavf ostida qoladi va milliy ma'naviyat ham o'ziga xos jihatlari o'zida to'la ifoda ettirishga ulgurmasdanoq o'zga millatlar ma'naviyatlariga singib ketadi. Bu, o'z navbatida, millatning ham barbod bo'lishiga olib keladi.

Milliy ma'naviyatga qarshi qaratilgan tahdidlar shakllari ichida korrupsiya va jinoyatchilik katta o'rinni egallaydi. "Korrupsiya – uyushgan jinoiy guruhning shaxsiy boylik orttirish, davlat mulkini taqsimlash jarayonida uning bir qismiga, mamlakat iqtisodiy resurslariga ega bo'lish maqsadida urug'-aymoqchilik manfaatlarini davlat manfaatlaridan ustun qo'yadigan davlat xizmati amaldorlar jinoyat sodir etilishini anglatadigan tushuncha. "Korrupsiya" lotincha so'z bo'lib, "aynish", "poraga sotilish" ma'nosini anglatadi va mansabdor shaxsning shaxsiy boyish maqsadida o'z mansabi bo'yicha berilgan huquqlarni bevosita suiiste'mol qilishdan iborat jinoyat hisoblanadi". Jinoyatchilik mamlakatda qabul qilingan va amal qilayotgan qonunlarga bo'sunmasdan, o'zining maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan faoliyat shakli hamdir. Korrupsiya va jinoyatchilikning milliy ma'naviyatga tahdidi shundaki, ularning amal qilishi mamlakat hayotida beqarorlikning vujudga kelishiga, millat vakillari o'rtasida o'zaro ishonchsizlikning yuzaga kelishiga

sabab bo'ladi. Bunday sharoitda milliy ma'naviyat ham inqirozga yuz tutadi.

Milliy ma'naviyatga bosim o'tkazish amaliyotini globalashuv jarayoni bilan bog'lashning o'zi yetarli bo'lmaydi. Chunki bu jarayon davlatlar taraqqiyoti va ularda yashayotgan titul millatlarning o'zgalarga nisbatan rivojlanishda ilgarilab ketishi sodir bo'lgan sharoitlarda u yoki bu darajada boshlangan. Xususan, katta imkoniyatlarning vujudga kelishi va ularning davlatlarni o'zlariga qaram qilib olishi davrida avj oladi. Hukmronlikni qo'lga kiritgan davlatlar o'z millatlari, urf-odati, an'ana va qadriyatlarini qaramlikka aylangan mamlakatlarda yashayotgan millatlar va xalqlarning ong va dunyoqarashiga singdirishga yoki umuman, ularni tutqunlikda yashashlarini amalga oshirishga intiladi. Ayni paytda, turli yo'llar, vositalar bilan qaramlik holatiga tushib qolgan millatlar va xalqlarning tili, urf-odati, an'ana va qadriyatlarining rivojlanishiga imkon qoldirilmagan.

Jarayonning xatarli jihati shundaki, u tashqaridan qaraganda sezilmaydi. Bizning fikrimizcha, uning yuzaga kelishiga quyidagi omillar sabab bo'lmoqda:

Birinchidan, sobiq sho'ro zamonida milliy ma'naviyatimizni barbod qilishga qaratilgan siyosatning amalga oshirilishi natijasida millatimiz ongi, dunyoqarashi va qalbida o'z zaminiga nisbatan yuzaga kelgan bo'shliq, boy berilgan yo'qotishlarning mustaqillikni qo'lga kiritishimizdan keyin yuzaga qalqib chiqishi. Milliy-ma'naviy tiklanishimizning davlatimiz siyosatida ustuvor vazifaga aylanishi bugunga kelib bu borada katta yutuqlarni qo'lga kiritishimizning omili bo'ldi. Ammo davlatimiz faoliyatida bu siyosat davom ettirilishiga qaramasdan, mustaqillikdan keyin 30 yil ichida bir qator millatdoshlarimiz ruhiyatida qo'lga kiritilgan yutuqlardan qanoatlanish tuyg'ulari shakllandi;

Ikkinchidan, mustaqillik sharofati tufayli sobiq sho'ro davridan farqli o'laroq, millatimiz vakillarining ma'naviy boyishlaridan tazyiq o'tkazish, majburlash, hatto kuchdan foydalanish kabi zo'ravonlikning barcha shakllaridan xoli bo'lgan erkinlik, mustaqillik, demokratik qadriyatlarga rioya qilish amaliyotga aylandi. Aytish mumkinki, ular milliy-ma'naviy tiklanishimizning ilk bosqichlarida katta ahamiyat kasb etdi.

³ Маънавият асосий тушунчалар изоҳли луғати. – Т.: Ёғулум номидаги НМИУ, 2009. – Б. 574.

⁴ Ўша жойда. Б. 21.

⁵ Миллий истиқлол гоёси: асосий тушунчалар, тамойиллар ва атамалар (қисқа изоҳли луғат). –Т.: Янги аср авлоди, 2002. – Б. 92.

Millatdoshlarimiz erkin nafas olib, o'zligini anglay boshladi, ruhan tetiklashdi, o'z zaminlaridan bahramand bo'lishi kuchaydi va merosini o'z ma'naviyatining ajralmas qismiga aylantirishga intilish kuchaydi. Ammo vaqt o'tishi jarayonida ularning ma'naviyatda ana shu erkinlik ma'lum ma'noda o'z milliy ma'naviyatining buguni va istiqboli uchun befarqlik, e'tiborsizlik, hatto mas'uliyatsizlik kabi tuyg'ularning shakllanishiga olib kelmoqda. Bunday tuyg'ularga ega bo'lganlar mustaqillik bergan buyuk ne'mat va imkoniyatlarni, milliy ma'naviyatni o'z zaminlari hisobiga boyitishga emas, balki uni G'arbda rivojlanayotgan ma'naviyat hisobiga boyitish yo'lidan borayotgan, katta mablag'ga ega bo'lgan, millatimiz ichidan o'sib chiqayotgan uning "yangi" vakillaridir. Ular o'zining "men"ligini ko'rsatish yo'lida nima bo'lsa ham, yangilik bo'lsa bas, odamlar meni tanib, kimligimni bilib oladi, deguvchi maqtanchoq millatdoshlarimiz.

Uchinchidan, akademik Erkin Yusupov ta'kidlaganidek, "Ma'naviyatimizning milliy, sharqona mohiyati doim barqaror bo'lib qolsada, G'arb mamlakatlarining bu sohadagi tajribasida mavjud bo'lgan ijobiy saboqlar ham biz uchun ahamiyatli. G'arb mamlakatlarining bozor iqtisodi sharoitida ham fan va texnika yutuqlarini to'la egallashga bo'lgan intilishi biz uchun ibratlidir. Albatta, G'arb mamlakatlarining ma'naviy hayotida bizning

milliy, diniy ruhiyatimizga to'g'ri kelmaydigan ko'plab jihatlar bor. Yoshlarimizning shular ta'siriga berilib, ma'naviy tubanlashishiga ham yo'l qo'yib bo'lmaydi"⁶.

Tahdidlarning yuzaga kelishidagi to'rtinchi omil – din omilidan foydalanishda ularni birini ikkinchisiga qarama-qarshi qo'yish ham milliy ma'naviyatlararo ziddiyatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. U tobora rivojlanib, o'ta xatarli tahdidga aylanishi mumkin. Chunki milliy, diniy qadriyatlar uyg'un tarzda rivojlanib kelgan. Ularning birini ikkinchisidan ajratib bo'lmaydi. Professor A.Ochildiyev dinning milliy madaniyatdagi o'rni haqida shunday deydi: "Dinning millat hayotidagi o'rni haqida gap ketar ekan, milliy madaniyatning diniy adabiyot, san'at asarlari deb ataladigan madaniyat durdonalari, turli yo'nalishdagi diniy-falsafiy ta'limotlardan iborat maxsus qatlami ham shakllanganini ta'kidlash zarur. Bu qatlamsiz milliy ma'naviyatning bir butunligini tasavvur qilish nihoyatda qiyin, amaliy jihatdan mumkin emas"⁷.

Diniy qadriyatlarning milliy ma'naviyatlar bilan bog'liqligidan foydalanish ijtimoiy-falsafiy kuchlar faoliyatdagi asosiy yo'nalishlardan biriga aylangan. Ular inson va millatning ongi hamda dunyoqarashiga dinning kuchli ta'sir etish imkoniyatlarini hisobga olib, undan dunyoda o'zlarining hukmronligini o'rnatishda foydalanishga harakat qilmoqdalar.

⁶ Юсупов Э., Абдурахмонов Ф. Маънавий камолот – мустақил тараққиётимизнинг асосий омил. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 1999. – Б. 41-42.

⁷ Очилдиев А. Маданият фалсафаси. – Т.: Муҳаррир, 2010. – Б. 37.

ADOLAT FENOMENINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI

Shahnoza Bahodirovna Sa'dullayeva - katta o'qituvchi Samarqand davlat chet tillar instituti

Annotatsiya: Ushbu maqola adolat fenomenining genezisi, substansional komponentlari, evolutsiyasi, tenglik, adolatli boshqaruvning konstruktiv roli ijtimoiy-falsafiy tahlil qilingan.

Аннотация: В статье проводится социально-философский анализ генезиса феномена справедливости, его содержательных компонентов, эволюции, равенства, конструктивной роли справедливого управления.

Abstract: This article analyzes the social-philosophical analysis of the genesis of the phenomenon of justice, its substantial components, evolution, equality, and the constructive role of fair management.

Kalit so'zlar: adolat, tenglik, vijdon, haqiqat, qonun, poklik, axloq, huquq, insof va diyonat.

Ключевые слова: справедливость, равенство, совесть, истина, закон, чистота, нравственность, закон, честность и религия.

Keywords: justice, equality, conscience, truth, law, purity, morality, law, honesty and religion.

Adolat uzoq zamonlardan buyon inson ma'naviyatining tayanch ustunlaridan biri bo'lib kelgan. Jamiyat hayotida adolat va haqiqat, mehr va muruvvat, insof va diyonat, vijdon uyg'qligi va vijdon pokligi kabi fazilatlarni qaror toptirishda adolat omilining o'rni va ta'siri beqiyosdir. Chunki, bunday fazilatlarga ega inson hech qachon adolatning toptalishiga befarq qaramaydi.

Adolat ijtimoiy falsafiy axloqiy va xuquqiy tushuncha sifatida kishilar ijtimoiy siyosiy ongida katta rol o'ynaydi. Muayyan ijtimoiy guruxlar va ayrim shaxslarning o'zida aks ettiradi. Siyosiy xatti xarakterlar xuquq va burch me'yorlari, axloqiy munosabatlar, mexnat, taqdirlash, jinoyat va jazo, xizmat va uni tan olish, qadr qimmatni e'tirof qilish mazkur tushuncha orqali baho beriladi. Adolat tushunchasi muayyan tarixiy shart sharoitlar va ijtimoiy iqtisodiy munosabatlar bilan belgilanadi. Adolatning ijtimoiy falsafiy jihati jamiyat a'zolarining xilma xil munosabatlardagi o'zaro tenglikni nazarda tutadi.

Insoniyat hamisha adolat deb atalmish qadriyat uchun intilib yashagan. Aslida adolatga erishish insoniyatning tabiiy ehtiyojlari sirasiga kiradi. Adolat kategoriyasi juda ko'p olimlarni qiziqtirgan va shuning uchun deyarli barcha davrlarda tadqiqot markazida bo'lgan. Allomalarning adolat kategoriyasi haqidagi mulohazalarini o'rganishdan oldin bu kategoriyaning genezisiga bir nazar tashlaylik.

Adolat, arab tilida odillik va to'g'rilik

ma'nosini bildirib, u ijtimoiy, falsafiy, axloqiy va huquqiy tushunchalar turkumiga kiradi. Xalqimizning eng qadimgi og'zaki ijodida ham, yozma manbalarda ham adolat tushunchasi haqida fikr yuritilganda, u insonlar o'rtasidagi ezgulik, odamiylik, yaxshilik tamoyili sifatida qayd etiladi. Darhaqiqat, adolat so'zining zamirida qancha-qancha hikmat bor, har bir inson qalban, jisman adolatga intiladi.

Adolat kategoriyasi bir-biriga zid bo'lgan ikki xil ma'noda qo'llanilishi mumkin. Birinchidan, bu kategoriya kundalik muomalada "Nimaga loyiq bo'lsangiz, shuni olasiz", ijtimoiy-falsafiy adabiyotlarda esa ijtimoiy munosabatlarning mazmunini yorituvchi mezon sifatida ishlatiladi. Dastlab bu mulohazaga inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni misol keltirish mumkin. Ya'ni inson tabiatga qanday munosabatda bo'lsa, tabiatning insoniyatga shunga mos tarzda javobi asli adolatdir. Tasnifning ikkinchi qismi anchagina bahs-munozaralarni keltirib chiqaradi. Ammo juda ko'p xoh sharq bo'lsin, xoh g'arb vakili bo'lsin aynan bu tushunchani ijtimoiy-falsafiy-siyosiy tahlil etganlar. Adolatni ijtimoiy munosabatlarga nisbatan qo'llaganlar. Jumladan: Antik davrda qadimgi Yunon adibi Homer milloddan avvalgi VIII asrda "Iliada" va "Odiseya" dostonlarida dike(dike)¹ – haqiqat va adolat tushunchalarini ishlatgan. Bunda adolat barcha ijtimoiy munosabatlarning mezoni sifatida tasvirlangan. Boshqa bir Yunonistonlik alloma Gesiod (miloddan

avvalgi VII asr) adolat tushunchasini o'zining "Teroniya" va "Mehnatlar va kunlar" dostonlarida quyidagicha tasvirlagan: "Adolat" (dike) va Ezgu qonunchilik (evnomiya) Olimpiya oliy xudo Zevs va odil sudlov xudosi Femidaning qizlari bo'lgan ikki opa-singil ma'budlardir. Yuqorida Homer va Gesiod nazarida adolat zo'rovonlikka qarshi qo'yilgan kuch sifatida talqin etilgan.

Adolat o'lchov mezoni sifatida tavsiflangan va obrazli qilib uni tarozining o'ta tez o'zgaruvchan "til" iga qiyoslash mumkin. Adolatning o'rnatilishi o'z-o'zidan tenglik va erkinlik tamoyillarini ham qaror topishiga olib kelgan. Demak, bu tamoyillar fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etadi. Bu Forobiyning "Fozil odamlar shahri", A.Jomiy ruboiylarida, T.Morning "Utopiya", T.Kampanellaning "Quyosh shahri" Jon Rolzing "Adolat nazariyasi" va boshqa ko'plab asarlarda aynan adolatli jamiyat negizi sifatida talqin etilgan. Ushbu manbalarda adolat jamiyatda ijtimoiy munosabatlardagi o'zaro bajarilishi kerak bo'lgan burchlar va moddiy-ma'naviy fazilatlar asosi deya e'tirof etiladi.

Adolat tamoyilini Arastu asarlarida juda keng tarzda tahlil etilganligini bilamiz. Arastu² adolatni – birgina insonga emas, balki, barchani qamrab oluvchi fazilat sifatida talqin etgan. Adolat kategoriyasini buyuk Xitoy mutafakkiri Konfutsiy, Yunon olimlari Suqrot, Aflotun, Sitseron va boshqa juda chuqur o'rganganlar. Konfutsiyning³ nazarida "O'zingga ravo ko'rmaganni o'zgaga ham ravo ko'rma" munosabatlarning adolatli bo'lishini asosidir. Demokrit⁴ o'zining "Buyuk diakosmos" va "Kichik diakosmos" asarlarida "Adolat – bu burchni bajarishdir", - deb izohlaydi. Suqrot⁵: "... qonuniylik – bu adolatlilikdir", - deya sharhlaydi.

Adolatli jamiyat qurish hamda erkin fuqarolik jamiyati haqidagi nazariy qarashlar yunon mutafakkirlari Suqrot va Platon tomonidan rivojlantirildi. Suqrot fuqarolik jamiyati uchun muhim bo'lgan axloqiy qadriyatlarni kashf etdi. Platon esa ideal davlat, mukammal jamiyat haqidagi ta'limotni yaratar ekan, uni qurishda adolatning axloqiy mohiyatining ahamiyatini ochib berdi. Uning fikricha, donishmand kishilar jamiyatni boshqaradilar. Mardlik namoyon etganlar jamiyatni himoya qilishadi. Mo'tadillik va g'amxo'rlik namoyon qilgan kishilar jamiyat uchun zarur mahsulotlarni ishlab chiqaradilar.

Har bir kishi o'ziga munosib ish bilan mashg'ul bo'lib, barcha ijtimoiy funksiyalar eng yaxshi usulda amalga oshirilganda jamiyat adolatli jamiyat bo'ladi. Adolat uchta quyidagi saxovat uyg'unlashadi.

1. Donolik.
2. Mardlik.
3. Mo'tadillik (itoatkorlik)⁶.

«Avesto»da inson ijtimoiy mehnati tufayli barcha yomonlikdan, yovuzlikdan qutulishi mumkinligi g'oyasi yotadi. G'arazgo'ylik, hasad, manmanlik, o'g'rilik, talonchilik, nohaqlik illatlari qoralanadi. Ushbu illatlarga qarshi kurashish jamiyatda adolat qaror topishiga olib kelishi qayd etiladi. "Haq so'zdan o'zga hech narsa to'g'risida o'ylama, haq so'zdan o'zga hech narsa to'g'risida suhbatlashma, haqqoniy amaldan o'zga hech narsa bilan shug'ullanma", - deb yoziladi "Avesto"da. Chunonchi, ajdodlarimizning qadim bitigi bo'lmish "Avesto"da siyosiy-huquqiy merosimiz tarixi hamda yurtimizda yashagan el-elatlar, afsonaviy qahramonlar, saltanatlar, davlat va uning boshqaruv tizimi, xalqlarning mashg'ulotlari bayon etiladi. Unda zardushtiylik dinining qonun-qoidalari bilan birga, adolat, ijtimoiy hayotdagi tenglik, adolatlilik haqida yozilgan.

Odil hukmdor, adolatli rahbar g'oyasi Forobiydan tortib Alisher Navoiygacha va yana boshqa ko'p-ko'p mutafakkirlarimizning ulug' ma'naviyideali bo'lib kelgan. Sharqda qadimdan juda mashhur bo'lgan "Siyosatnoma" degan asarda podshoh, hokim, amir va beklar, qoziyu quzzotning, zamonaviy til bilan aytganda, rahbarning bosh vazifasi "qo'yu-qo'zilarni bo'rilardan muhofaza qilib, harom qo'llarni kesib, yer yuzini yomonlik qiluvchilardan tozalash, jahonni adolat va osoyishtalik bilan obod qilishdan iborat", - deb ko'rsatilgan. Har safar shu kabi hikmatli fikrlarni o'qiganimda chuqur o'yga tolaman. Qani endi, shu so'zlar har bir rahbarning, amal kursisida o'tirgan katta-kichik mansabdorlarning iymon-e'tiqodiga aylansa, deb orzu qilaman⁷.

Ilk Sharq uyg'onish davrining buyuk mutafakkirlaridan biri Forobiy "Fozil odamlar shahri" asarida adolat va axloq shakllanishining uzviy qonuniyatlarini, inson va jamiyatning o'zaro munosabatlarini, ayni paytda, jamoalarning ijobiy va salbiy xususiyatlarining tasniflarini yaratadi. Bu bilan alloma davlat boshqaruvining muntazam va izchil tizimini

2 Аристотель. Соч.: В4 т. Т.4. С. 147..

3 Хақиқат манзаралари. 100 мумтоз файласуф. –Т.: Янги аср авлоди, 2013.- 35 б

4 Б.Тўйчиев Хуқуқ фалсафаси. –Т.: ЎзМУ матбааси, 2004.-50 б.

5 В.С.Нерсеянц Сократ.-М.: 1996. С. 18

6 Скирбек Г. Гилье Н. Фалсафа тарихи. –Тошкент: Шарқ, 2002. - 75-100 б.

7 Каримов И. Адолат ҳар ишда ҳамроҳимиз ва дастуримиз бўлсин. // Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. Том 7.- Т.: Ўзбекистон, 1999.- Б.239-240

shakllantiradi. Jamiyatning rivojlanib borishini fozil rahbarlarning axloqiy fazilatlarini bilan bog'laydi.

Forobiy jamiyatning kelib chiqishi ustida mulohaza yuritir ekan, har qanday zo'rvonlik ta'limotini inkor etadi, tabiiy ehtiyojlar haqidagi g'oyalarni ilgari suradi. Tabiiy ehtiyoj kishilarning bir-birlari bilan birlashishiga, jamoa sifatida birlashishiga, o'zaro hamkorlikka olib keladi. U davlatga o'z aholisini baxt-saodatga yetaklovchi vosita sifatida qaraydi va bunday vositaning inson, jamoa ehtiyoji bilan bog'liq ma'naviy omillarini ochib beradi. Bu borada Forobiy "Ularning o'zlaridan saylangan rahbar yoki boshliqlar hokimi mutloq bo'lmaydi. Ular odamlar ichidan ko'tarilgan, sinalgan eng olijanob, rahbarlikka loyiq kishilar bo'ladilar. Shuning uchun bunday rahbarlar o'z saylovchilarini to'la ozodlikka chiqaradilar, ularni tashqi dushmandan muhofaza qiladilar"⁸, deb davlat boshqaruvida demokratik tamoyillarni ta'minlash bilan bog'liq axloqiy qadriyatlarini tizimlashtiradi.

Abu Nasr Forobiy boshqaruvni (idorani) baxtga erishishning asosiy omillaridan biri sifatida adolatli jamiyatni barpo etishni talqin qiladi. Adolatli jamiyatni barpo etish (fazilatli shaharni idora qiluvchi) rahbar (hukmdor) ga bog'liq bo'lib, u o'zida 12 tug'ma xislatni birlashtirishi lozimligini uqdiradi. Zotan, hukmdor barcha organlari mukammal taraqqiy etgan (sog'lom), barcha masalani tezdan va to'g'ri tushuna oladigan, xotirasi baquvvat, zehni o'tkir, mulohazalari ravon, har qanday bilimni oson o'zlashtiradigan, qimordan yiroq, haqiqatni va haqiqat tarafdorlarini sevadigan, o'z vijdonini qadrlaydigan, dinor va shu kabi turmush buyumlariga jirkanish bilan qaraydigan, adolatparvar hamda o'zbilarmonlik, qaysarlikka berilmagan shaxs bo'lishi kerak⁹. "Shahar hokimi, ya'ni boshlig'i, deb yozadi Forobiy, - shunday idora qilmog'i lozimki, toki shahar qismlari orasida o'zaro aloqa va o'zaro kelishish yuzaga kelsin, kishilar bir-biriga yovuzlikni yo'qotishda, osoyishtalikka erishishda yordam beradigan bo'lsin"¹⁰. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, fozillar shahri hokimi ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan mukammal, qobiliyatli, har tomonlama etuk bo'lishi bilan bir qatorda dono ham bo'lishi zarur. "Dono bo'lmasa, fozillar shahri yaxshi hokimsiz qoladi, bunday shahar halokatga yuz tutadi, fuqarolari esa jabr-zulmga muhtalo

bo'ladi"¹¹, deydi Forobiy.

Abu Nasr Forobiy «O'zida o'n ikki tug'ma xislatni birlashtirgan kishigina axloqiy odam bo'la oladi», deb ko'rsatadi. Ushbu fazilatlar quyidagilardan iboratdir:

birinchidan, insonning hamma a'zolarini mukammallashtirishga erishilishi va buning natijasida barcha ishlarni osonlik bilan amalga oshira olishi lozim;

ikkinchidan, zukkolik, muhokama va mulohazani tez va to'g'ri ang'lay olish;

uchinchidan, xotirajuda baquvvat bo'lishi;

to'rtinchidan, fikr va mulohazalarni ravon va ravshan bayon eta olish;

beshtinchidan, zehning o'tkirligi;

oltinchidan, bilim olishga chanqoqlik;

yettinchidan, ovqatlanishda me'yorni bilish, qimor o'ynash kabi xunuk ishlardan jirkanish;

sakkizinchidan, haqiqatni va haqiqat tarafdorlarini sevish, yolg'ondan va yolg'onchilardan nafatlanish;

to'qqizinchidan, g'ururli va vijdonli bo'lish, pastkash ishlarga aralashmaslik hamda olijanoblik ko'rsatish;

o'ninchi, boylikka o'ch bo'lmaslik, zebziynatlarga berilmaslik;

o'n birinchidan, adolatparvar bo'lish, adolat uchun kurashadiganlarni qo'llab-quvvatlash;

o'n ikkinchidan, qaysarlik qilmaslik, o'zbilarmonlikka berilmaslik.

Abu Nasr Forobiy musulmon Sharqida birinchi bo'lib insonparvarlik va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan adolatli tuzum, insonlarni kamolotga va baxt-saodatga etaklaydigan mukammal jamoa haqida o'z ta'limotini yaratgan.

Shunga o'xshash fikrlarni buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ma'naviy merosida ham uchratish mumkin. "Adolat bilan ish tutish, deb yozadi u, - shohlar uchun qanchalik ziyat bo'lsa, faqir va fuqarolar uchun ham shunchalik ziyatdir. Agar shohning ishlari adolatli bo'lsa, unga hech bir shoh martabada teng kela olmaydi"¹². Biroq bu bag'oyat mushkul ishdur. Chunki har kim «taxtga o'ltirganidan keyin zulm va ofat ishlariga sherik bo'lishi muqarrar"¹³. Shuning uchun ham "aql-zakovati quyoshdek munavvar, agar bedov otga minsa dunyoni zabt etadigan, adolat bobida Navro'z faslidek, siyosat bobida esa jahonni kuydiradigan yashindek bo'lsin, mashaqqatli kezlarda

⁸ Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar sha'ri. - Toshkent: Xalq merosi, 1993. - B. 190

⁹ Forobiy. Fozil shahar aholilarining fikrlari// Risolalar. - T.: F. Fulom nomi dagi nashr, 1975. - B. 135-136.

¹⁰ Farabi. Sosialno-eticheskiye traktaty. - Alma-Ata, 1975. - S. 132-133.

¹¹ Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar sha'ri. - Toshkent: Xalq merosi, 1993. - B. 190.

¹² Navoiy A. Saddi Iskandariy. - T., 1978. - B. 6.

¹³ Navoiy A. Saddi Iskandariy. - T., 1978. - B. 46.

dushmanga chora qiluvchi, og'ir kunlarda xalqqa ko'mak beradigan adolatpesha bir zotni hukmdor qiling, ana shunday kishigina tojkor bo'lishga loyiq,"-deb yozadi Navoiy¹⁴.

Adolat haqida turli fikrlar va qarashlar mavjud bo'lsa-da, tadqiqotchi T.Ch.Tolibov fikricha, "falsafiy adabiyotimizda hozirgacha ham "adolat" tushunchasining umumiy qabul qilingan ta'rifi yo'q. Bir guruh mualliflar "adolat" tushunchasi ishlab chiqarilgan yoki tabiatdan topilgan hayot shart-sharoitlarini ijtimoiy, jamoaviy va shaxsiy tarzda o'zlashtirish, almashish, taqsim qilish usullarini, jarayonlarni ifodalaydi, deb hisoblaydi. Boshqa mualliflar esa "adolat" tushunchasini axloqiy qadriyat, me'yoriy mo'ljal, kishilarning o'zaro talablari va xatti-harakatlarini o'lchash uchun asoslangan mezon sifatida baholaydilar. Obyektiv ijtimoiy ma'noga ko'ra "adolat" tushunchasi taraqqiyotning muayyan tarixiy davrida jamiyat, davlat, turli guruhlar, jamoalar, individlar o'rtasidagi munosabatlarning o'lchovini anglatadi"¹⁵.

Tadqiqotchilarimiz adolatning turli tomonlarini tadqiq qilishsa ham, "...shuni qayd etish lozimki, - deb yozadi professor H.Aliqulov, - adolat masalasi shu vaqtgacha falsafiy adabiyotimizda etarli tadqiq qilinmagan. Mavjud tadqiqotlarning aksariyati adolat tushunchasining zamonaviy talqini va mohiyatini ochib berishga bag'ishlanmagan. Ularning ko'pchiligi Sho'rolar davrida yozilgan bo'lib, o'sha davrdagi hukmron mafkura va sinfiy nuqtayi nazaridan tahlil qilingan"¹⁶, deya ta'kidlaydi.

Shuni ta'kidlash lozimki, adolat umumiy tushuncha sifatida kishilarning xatti-harakati, yurish-turishi, qilgan ishlariga axloqiy jihatdan baho beradi. Ikkinchidan, adolat - vaqt, zamon o'tishi bilan o'zgarib turadi.

Bugun mamlakatimizda kechayotgan demokratik yangilanishlarning yangi bosqichida xalq bilan ochiq muloqotni yo'lga qo'yish, barchaning fikrini bilish, dardini eshitish va haqiqiy hayotga mos bo'lgan xalqchil strategiyani amalga oshirishning hosilasi sifatida Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan adolat tamoyili kun tartibidagi eng ustuvor masalalardan biri sifatida ilgari

surilmoqda. Qolaversa, Prezidentimizning 2016-yil 21-oktyabrda "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda 2017-yil 21-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari ham bu sohadagi tub islohotlarning huquqiy asoslarini mustahkamladi. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev "Adolat bo'lmasa, dunyo zimiston bo'ladi, hayot hech qanday ma'no-mazmun bo'lmaydi. Biz xalqimiz uchun ozod va obod, farovon hayot barpo etmoqchi ekanmiz, mening davlat rahbari sifatida sizlardan talabim shu: faqat adolat yana bir bor adolat hayotimizda hukmron bo'lish kerak degan ilmiy-amaliy ahamiyatga molik falsafiy tafakkur hosil bo'lgan adolat va uning tantana qilish qoidasini ilgari surmoqda. Bir so'z bilan aytganda, adolat tamoyili buzilgan qonunlar o'zgardir. Adolata talpinish ustuvorlik kasb etib, qonunlar adolatga, haqiqatni ro'yob chiqarishga xizmat qila boshladi. Albatta buning uchun qonunlar hali ko'p isloh etilishi kerak"¹⁷, deya ta'kidlaydi.

Xulosa qilib aytganda, jismoniy va ayniqsa manaviy sog'lom avlodni voyaga etkazish murakkab va uzoq davom etadigan jarayondir. Shuning uchun ham yosh avlodni tarbiyalash bizdan davlat ishi, davlat faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoldi. Albatta, jamiyatda adolat o'z-o'zidan joriy etilib qolmaydi. Adolat shiorini aytish yoki yozib qo'yish bilan ish ham bitmaydi. Har bir inson o'zi hayotida adolatni himoya qilishi va adolatsizlikka qarshi chiqa olishi zarur bo'lgan holatlarga tushadi. Ana holatlarda birovlarining pand-nasihati emas, balki ichki ma'naviy olami go'zalligi, sofligi yoki xunukligi yoki loqaydligi bililib qoladi. Bunday paytlarda inson axloqiy yo'l orqali ma'naviy dunyosi qanday bo'lishini belgilaydi. Inson adolatparvar bo'lishi uchun doimo va faol ravishda kamol topib borishi kerak. Shu manaviy ulg'ayish adolatparvarlik shartidir.

¹⁴ Navoiy A. Saddi Iskandariy. - T., 1978. - B. 46. - B. 41.

¹⁵ Tolibov T.Ch. Prinzipiyi sosialnoy spravodlivosti kak vazhnyy faktor vospitaniya molodezhi.

Avtoferat diss. kand. ... filol. nauk. - Toshkent: 1997. - S. 11 - 12.

¹⁶ Aliqulov X. Adolat buok donishmandlar talqinida. - Toshkent: Falsafa va huquq instituti, 2010. - B. 7

¹⁷ Mirziyoyev Sh.M. Qonun va adolat ustuvorligini ta'minlash barcha zurgu maqsadlarimizning eng muhim sharti. 1-jild. T. "Uzbekiston" NMIU 2017- B. 447,

SAMARQANDDA JADIDCHILIK HARAKATI VA UNDA SAID RIZO ALIZODANING O'RNINI

Ulug'bek Ismatovich Nazarov - tadqiqotchi, Samarqand davlat chet tillar instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Samarqandda jadidchilik harakatini vujudga kelishi, unda Said Rizo Alizodaning o'rnini, uning dunyoqarashini shakllanishiga ta'sir etgan mavjud muhit va ma'rifatparvarning erk, mustaqillik, ozodlik, farovon hayot, millatparvarlik, barkamol avlodni tarbiyalash kabi ijtimoiy-siyosiy qarashlari ilmiy-falsafiy tahlil qilingan.

Аннотация: В данной статье рассматривается возникновение джадидского движения в Самарканде, роль в нем Саида Резы Ализода, существовавшая среда, повлиявшая на формирование его мировоззрения, и социально-политические взгляды просветителя, такие как свобода, независимость, воля, благополучная жизнь, патриотизм, воспитание совершенного поколения анализируются научно и философски.

Abstract: This article discusses the emergence of the Jadid movement in Samarkand, the role of Said Reza Alizod in it, the existing environment that influenced the formation of his worldview, and the social and political views of the educator, such as freedom, independence, will, prosperous life, patriotism, and the upbringing of a perfect generation are analyzed scientifically and philosophically.

Kalit so'zlar: jadidchilik, ma'rifat, ta'lim, insonparvarlik, vatanparvarlik, ozodlik, millatparvarlik, erk.

Ключевые слова: джадидское движение, просвещение, воспитание, гуманизм, патриотизм, свобода, национализм, свобода.

Keywords: Jadid movement, enlightenment, education, humanism, patriotism, freedom, nationalism, freedom.

Bizga ma'lumki, ma'naviy-axloqiy ongning o'zgarishi jarayonida ajdodlar tomonidan yaratilgan ma'naviy merosni o'rganish har bir davrning dolzarb vazifalaridandir. Negaki, ajdodlar ta'limotlaridan foydalanish ming yillar davomida ijtimoiy hayotni tanazzulga uchrashidan himoyalab kelgan. Xususan, hozirgacha yashagan allomalar va mutafakkirlarning ma'naviy merosi har bir avlodning ta'lim-tarbiyasi, uning falsafiy tafakkurini shakllantirishning eng asosiy manbalaridan biri hisoblanadi.

Jadid mutafakkirlarning ma'naviy merosini ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish ehtiyojining mavjudligi yangidan yangi ilmiy tadqiqotlar olib borishga sabab bo'lmoqda. Zero, jadidlarning, xususan, Said Rizo Alizodaning ijtimoiy, axloqiy, falsafiy g'oya va ta'limotlari bugungi kunda jamiyatni ma'naviy tahdidlardan himoyalashda, yoshlarning falsafiy ongini yuksaltirish va ularning mafkuraviy immunitetini mustahkamlashda ilmiy-konseptual ahamiyatga ega. Ayniqsa, mutafakkirning ma'naviy merosini zamonaviy ilmiy-metodologik nuqtayi-nazardan tadqiq etish yoshlarning falsafiy dunyoqarashini yuksaltirishning dolzarb vazifalaridan biridir.

Mamlakatimizda buyuk allomalar va

mutafakkirlarning ilmiy, ma'naviy merosining jamiyatimizda vatanparvarlik, sobitqadamlik, bag'rikenglik, ogohlik kabi ko'plab xos xususiyatlarni tarbiyalashdagi konstruktiv ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada alloma bobolarimiz tomonidan ilgari surilgan, jamiyat taraqqiyoti va ma'naviy qiyofasini yuksaltirishga qaratilgan ilg'or g'oyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, jadidlarning ijtimoiy-falsafiy qarashlarini zamonaviy nuqtayi nazardan o'rganish bugungi kunning obyektiv zaruriyatidir. Zerokim, "Biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotining qadrini anglab etadi"¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldagi «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida»gi PQ-3160-son, 2018-yil 12-maydagi "Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o'rganish va targ'ib qilish maqsadida yoshlar o'rtasida kitobxonlik

tanlovlarini tashkil etish to'g'risida»gi PQ-3721-son qarorlari va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-apreldagi «O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5465-son farmoyishlarida ajdodlarimiz, xususan, jadidlar merosini o'rganish bugungi kunda jamiyatni ma'naviy tahdidlardan himoyalashda, yoshlarning ongini yuksaltirish va ularning mafkuraviy immunitetini mustahkamlashda dolzarb ahamiyatga ega.

Jadidchilik ma'rifatparvarlikdan intellektual siyosiy imkoniyatlari mavjud bo'lgan harakatgacha bo'lgan murakkab rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Mustamlakachilik zulmi ostida ezilib kelgan xalq ommasining og'ir ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va Turkistonning iqtisodiy taraqqiyot etgan mamlakatlardan orqaga qolganligi kabi holat jadidlarni ijtimoiy taraqqiyot yo'lini izlashga undadi. Vujudga kelgan vaziyatda ilg'or musulmon ziyolilari mamlakat rivojlanish darajasi orqadaligi, ijtimoiy va mustamlaka zulmi hukmronligining asosiy sababini xalqning g'afolatda qolganligi va ma'rifatsizlikdan qidirdilar. Shuning uchun ham shakllangan muammolarni hal qilishning muhim omili sifatida maorif va ma'rifat yo'li tanlandi. Buning oqibatida dastlab jadidlar harakati yo'l boshchilari e'tibori markazida maorifni isloh qilish vazifasi turadi. Ular bu ijtimoiy mazmundagi islohotlarni amalga oshirishning zarurligini nazariy jihatdan asoslab berdilar, yangi usulda o'qitiladigan maktablar ochib, kutubxonalar, qiroatxonalar barpo etib, o'quv darsliklari va qo'llanmalar yozib ma'rifatparvarlik g'oyalarini amalda qo'llash uchun faoliyat yuritdilar.

Turkistondagi murakkab va ziddiyatli ijtimoiy-sharoitlardapaydobo'lgan ilg'or ijtimoiy-falsafiy tafakkur xususan o'zbek adabiyotiga doir asarlarda namoyon bo'ldi. Yangi ijtimoiy-falsafiy tafakkur bir tomondan, o'rta asrlarga oid idora-usuli buzilib borayotgani, ikkinchi tomondan esa, mamlakatda yangi kapitalistik munosabatlarning rivojlanishi davrida vujudga keldi. Jadidchilikka xos bo'lgan ijtimoiy-falsafiy tafakkur tatar tarixchisi Yahyo Abdullin ta'biri bilan aytganda, "kapitalizmning dunyoga kelishi va demokratik harakatlarning ezilgan millatlar o'rtasida uyg'onishi bilan chambarchas bog'lanib ketadi. Qrim va Qozon ziyolilari o'rtasida boshlangan bu harakat tez

orada Turkiston kengliklariga ham yoyildi"².

Bu davrdagi ma'rifatparvarlik xususiyati uning bevosita adabiy-publitsistik xarakterga egaligida edi. Ammo bundan ma'rifatparvarlik jamiyatning ijtimoiy-falsafiy muammolarini chetlab o'tgan, degan xulosaga kelish mumkin emas. Ta'kidlash lozimki, "badiiy adabiyotni tahlil qilish asosida tarixiy-falsafiy tadqiqot olib borishning to'g'riligi shu bilan taqozo qilinadiki, garchand falsafa va san'at ijtimoiy ongning o'ziga xos shakllari bo'lsalar-da, ular o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjuddir"³.

Jadidlar yoshlarga murojaat qilib, ularni millatning taraqqiyoti uchun kurashishga chaqiradi va bu qatlamni millat taraqqiyotining poydevorlari, deb tushunadi. Turkistonning taraqqiyoti va ravnaqi zamonaviy ta'lim – tarbiya beradigan maktab va oliy dargohlarda tahsil olish, islohotlarni amalga oshirish g'ayratli yoshlarning harakati ma'rifatparvarligi, shijoati soyasida vujudga keladi, degan fikr jadidlar falsafasida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ular mavjud bo'lgan mushkul ishlarda bajarishda yolg'iz yoshlarimizning ilm salohiyatigasuyanamiz va ulardan yordam so'raymiz, deb yozadilar. Jadid maktabi, ilmning beshigidir. Bu beshikdan keyin albatta, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarining bo'lishi va yoshlar tahsilni shu tarzda, zanjirsimon davom ettirishlari zarur.

Shu o'rinda ta'kidlashimiz kerakki, jadidlarning ijtimoiy qarashlarida oila va undagi munosabatlar masalalari keng o'rin oldi. Jadidlarning fikricha, oila asosini to'g'ri qurmasdan va yosh avlodni to'laqonli tarbiyalamasdan, jamiyatni isloh qilish, uning rivojini taraqqiyot sari yo'naltirish mumkin emas. Demak, oxir oqibatda millat taqdiri oilaning holatiga bog'liqdir. Bu g'oyalar Fitratning asarida shunday ifodalanadi: "Har bir milatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik esa, shu millat oilalarining intizomga tayanadi. Qayerda oila munosabati kuchli intizoga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo'ladi"⁴.

Jadidchilik harakatining yorqin vakili, o'zbek, tojik, ozarboyjon madaniyatining yirik arbobi, qomusiy olim, muallim, muharrir, publitsist, tarjimon, aktyor, rejissyor, mutafakkir Said Rizo Alizoda edi.

Tug'ilgan yili – 1887-yil 15-fevral. Samarqand. Vafot etgan yili – 1945-yil 24-dekabr, Vladimir shahri turmasi. Vatani -

2 Гафуров И. «Жадидлар ва жадидчилик» // "Ўзбекистон адабиёти ва санъати". 1995 йил, 17 феврал.

3 Вахидов Х.П. Особенности просветительства в Средней Азии и свободомыслие. // Из истории общественно-философской мысли и вольнодумия в Средней Азии. Под редакцией академика АН РУз М.М. Хайруллаев. -Т.: Фан, 1991. 99-бет. (Иқтибос муаллиф томонидан таржима қилинган.-Д.А).

4 Фитрат Абдурауф. Ойла ёки оила бошқариш тартиблари. – Т.: Маънавият, 2000. 4-б.

O'zbekiston.

1938-yil 3-fevralda siyosiy chaqiruv natijasida hibsga olinib, 5 yil qamoq jazosi belgilangan. 1943-yil 4-fevralda qamoq jazosi tugasa ham sobiq ittifoq NKVDsi urush oxiriga qadar saqlashga qaror qilgan. 1959-yilda begunoh qamalgani aniqlanib oqlangan. 1986-yil 30-sentyabrda nevarasi Farhod Alizodaning ko'p yillik sa'y-harakati bilan hoki Samarqandga keltirilib, "Panjob" qabristoniga qayta dafn qilingan.

Otasi Hoji Mir Maxsum asli nishopurlik, onasi Xadicha xonim ozarboyjonlik bo'lgan. Sayid Rizo bolaligida madrasada o'qib, fors, arab tillarini mukammal o'rgangan.

1900-yilda Samarqandda Demurov-Sliyanov bosmaxonasiga harf teruvchi bo'lib ishga kiradi. Rus tilini, keyinchalik boshqa tillarni mustaqil o'rganishga kirishadi. Zehni o'tkir Said Rizo jami 14 tilni bilgan. «Samarqand», «Zarafshon» gazetalarida, «Oyina» jurnalida o'zbek va tojik tillarida maqolalar chop ettirib turgan. 1915-yili «Sharq» gazetasiga muharrirlik qilgan. 1916-yili o'zbek va fors tillarida «Telegraf axboroti» - «Axboroti telegraf» varaqalarini o'z hisobidan chiqarib, shahar ahliga tarqatgan. 1917-yil «Hurriyat» gazetasida bo'lim boshlig'i, «Mehnatkashlar tovushi» gazetasida mas'ul kotib, tarjimon, «Begiz», «Mashrab», «Mullo Mushfiki» jurnallarida muxbirlik, tarjimonlik qilgan.

«Zarafshon». (Samarqand), «Buxoro sharif», «Turon» (Buxoro), «Turkiston xabarleri» (Toshkent), «Irrshod» (Boku). «Tarjimon» (Boqchasaroy, Krim), «Bizning Tovush» (Qozon). Ozod Eron», «Stora Eron», «Tarbiyat» (Eron), «Chehranoma (Misr) nashrlarida maqola, feletonlari bilan muntazam qatnashib turgan.

1919-yil aprel 1921-yil dekabr "Shu'lai inqilob" jurnali bosh muharriri, 4000 nusxada bosilgan ushbu jurnal Turkistondan tashqari Turkiya, Afg'oniston, Eron, Hindiston, arab mamlakatlari, Ozarboyjon, Tataristonga tarqalgan. 1924-yil 24-avgust "Ovozi tojik" gazetasi (Samarqand) asoschilaridan biri.

Kitoblari: «Nizomnoma» (1904), «Risolatul ettixodiya» (1907) musulmon xalklarini birdamlikka, ittifoqlikka da'vat etuvchi asarlardir.

Tarjimalari: o'zbek va tojik tillariga Pushkinning «Kapitan qizi», «Yevgeniy Onegin», «Dubrovskiy», «Belkin qissalari», «Buron», L. Tolstoy, A. Chexov hikoyalari, Krilov masallari, Sinkler Eltonning «Yuz foiz», Mopassanning «Do'ndiqcha», Molerning «Zo'raki tabib»,

Voynichning «Suna», Sholoxovning «Ochilgan qo'riq», Gladkovning «Sement», Ostrovskiyning «Po'lat qanday toblandi» asarlari, shuningdek, «Algebra (Kiselev)», «Arifmetika (Terenteva)» «Geografiya (Ivanov)», «Geometriya», «Botanika» darsliklari hamda A. Qodiriyning «O'tkan kunlar», «Mehrobdan chayon romanlari»ni tojik tiliga o'giradi. 1922-yili Qur'oni Karimning ayrim oyatlarini fransuz tiliga o'girib, saboq bergan muallimasi orqali Fransiyaga yuborgan.

1906-yili Samarqandda yangi usuldagi maktabini ochadi. Maktab uchun o'zbek tili, fors tili, arab tili grammatikasi, hisob, riyoziyot, handasa, tarix, jug'rofiya, fazo ilmi, aljabr, tibbiyot, jismoniy tarbiya buyicha 12 ta darslik tuzgan. 1909-1915-yillarda do'sti Halim Karimzoda hovlisida «Hayot», «Yangi hayot» maktablarini ochadi.

Sayid Rizo Alizoda birinchi bor nashr qilingan «Mullo Nasriddin» jurnalining muallifi sifatida, uning sahifalarida Chor Rossiyasining kolonial siyosatini qat'iy fosh etdi. Alizodaning maqola va she'rlarida o'rta asrchilik tuzumining g'ayriinsoniy tabiati, uni himoya qilgan mutaassib ruhoniylar tanqid qilindi. Xususan, o'zining «Mullo va xotini» she'rida achchiq kinoya bilan mullalarning riyokorligini, ularning o'rta asrchilik tartib-qoidalarini va Chor Rossiyasining siyosatini jon-jahdlari bilan qo'llab-quvvatlayotganliklarini ko'rsatib berdi. Sayid Rizo Alizoda mutaassib ruhoniylar Chor hukumatining mafkuraviy «panoh»lari hisoblanadilar, degan xulosaga keldi. Dunyoviy bilimlarni egallash, yangi o'quv uslublarini qo'llash tufayli ilg'or, savodli, jamiyat va xalq manfaatlarini uchun qayg'uradigan fidoiylarni tarbiyalash mumkin. Turkistonning shunday fidoiy farzandlari yurt mustaqilligi, ozodligi to'g'risida o'ylashlari va bu maqsad sari kurash olib borishlari lozim.

G'aybulloh as-Salom, Salohiddin Hayitov, Bekmurod Yo'ldoshev, Saydi Umurov, Farmon Toshev, Ubay Qodir, Sherali Turdiyev va boshqalar maqola, tadqiqotlar yozishgan. Solih Qosimov, Begali Qosimov, Naim Karimov, Yusuf Abdullayev, Nazira Abduazizova, Nusrat Rahmat, Ulug'bek Dolimov. Boybura Do'smqorayev, Halim Sayidov, S. Odjiyev, Muntazama Zokirova, Uktam Ibragimov, G'affor Mahmudov, Amrullo Ahmedov, G'ulom Ismoilov (shoir). Jumhur Ja'farov (alizodashunos), Nilufar Nomozova asarlarida ham ayrim ma'lumotlar bor⁵.

Sayid Rizo Alizoda tavalludining 105, 110, 115, 120 yilliklari Samarqand shahrida

5 Ализода Фарход. Саид Ризо Ализода (тархий-библиографик очерк). Т.Абу Матбуот-Консалт" наشريети. 2011. –Б. 7.

o'tkazilgan. Nomiga ko'cha, maktab, mahalla qo'yilgan, uy-muzeyi ochilgan. Shuningdek, Samarqand jadidchilik maktabining yetuk vakili Said Rizo Alizoda ijodini o'rganish, uning ijtimoiy-falsafiy, axloqiy qarashlarini tadqiqi bilan Rossiya, Ozarbayjon, Eron olimlari o'z asarlarida to'xtalib o'tganlar. Unga bag'ishlangan monografik asarlar, ilmiy maqolalar e'lon qilingan.

Said Rizo Alizoda 1914-yilda Mahmudxo'ja Behbudiy bilan hamkorlikda «Samarqand» gazetasi, keyinchalik «Oyina» jurnalini tashkil etadi. Ularning sahifalarida Samarqanddagi maktab hamda madrasalardagi eskicha o'qitish tizimini keskin tanqid qilib, ta'lim tizimini isloh etish bo'yicha maqolalar e'lon qilib boradi. Jumladan, gazeta va jurnal sahifalarida Afg'onistonda chiqadigan «Siroj-ul axbor» gazetasida mashhur siyosiy arbob, taniqli adib Mahmud Tarziy tomonidan yozilgan afg'on yangi usul maktablaridagi muammolarga bag'ishlangan maqolalarni ko'rsatish orqali Samarqand jadid maktablarida darsliklarning yetishmasligi, imtihon olish jarayonidagi chopon kiydirish kabi kamchiliklarni tanqid qiladi. Ularni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar beradi. «Samarqand» gazetasi va «Oyina» jurnalining «Telegraf xabarlar» sahifasini o'z hisobidan chiqartiradi. 1917-yildan «Hurriyat» gazetasida tarjimon va muxbir bo'lib ishlaydi.

1919-yili Turkiston hukumati huzurida respublikadagi tojiklar, eronliklar va afg'onlarni birlashtirgan fors bo'limi tashkil etilgach, Said Rizo Alizoda bu bo'limga boshliq qilib tayinlangan. Bo'lim haftalik «Sharq mash'ali» jurnaliga asos solgan va 1919-yil 7-martda Said Rizo Alizoda ushbu jurnalga muharrir etib tayinlangan. 4 ming nusxada chiqqan jurnal Turkiston, Kavkazortidan tashqari, Afg'oniston, Eron, Turkiya, Hindiston va qator arab mamlakatlarida tarqalgan edi. Jurnal sahifalarida Said Rizo Alizodaning o'lka ahlining erkin hayotga tashna orzu-umidlari o'z ifodasini topgan maqola va she'rlari e'lon qilib borilgan.

U 1922-yildan boshlab «Zarafshon» gazetasida bo'lim mudiri bo'lib ishlagan. Muharrirlik qilish bilan bir paytda, «Turkiston xabarleri», «Kambag'allar o'qi», «Hurriyat», «Mehnatkashlar tovushi», «Buxoro sharif», «Turon», «Samarqand ovozi» gazetalarida, «Mashrab», «Mulla Mushfiqiy» jurnallarida maqolalar chiqarib turgan. Tanqidiy maqolalari va feletonlarini Bahlul, Zambur, Ranjbar,

Bog'ishamoliy, Shapaloq, S.A. kabi taxalluslari bilan berib borgan.

Said Rizo Alizoda "Turkiston-bizning Vatanimiz" nomli maqolasida o'zining ona-yurtga bo'lgan cheksiz mehr-muhabbatini buyuk his-tuyg'u bilan izhor qilib, xalqni Vatani himoyasiga chaqiradi. "Sho'lai inqilob" jurnalining 1919-yil 4-sonida Said Rizo Alizoda Vatani istiqboli yo'lida qurbon bo'lish, uning baxt-saodati va sharafini himoya qilish uchun kurashishni muqaddas ish, deb biladi: "Shu yerning ob-havosidan bahramand bo'lib kamol topsangu, uning sharafini himoya qilmasang, oyoq osti bo'lishiga, qadrsizlanishiga yo'l qo'ysang, nobakor ajnabiy o'z Vatani shon-shavkati uchun ota-bobolarining kindik qoni to'kilgan eringni vahshiylarcha toptab, qoni simirsa va uni o'zining ahlatxonasiga aylantirsa-yu, sen hissizlarcha qarab tursang yoki undan qochsang, o'zing uning haqoratlanishiga ko'maklashsang, unda sen bu vatanning nomusli va sodiq farzandi emassan!"

Sayid Rizo Alizoda Vatanga bemehr kishilarni pastkash-razil va hatto hayvondan ham tuban hisoblaydi.

"Biz Vatanimizni loaqal shuursiz hayvonlarcha sevmaymizmi? Axir, ularning uyiga begona bir hayvon kirmoqchi bo'lsa, uni yo'qotish uchun ular tishlari va oyoqlari, panjalari va shoxlari bilan hujum qilmaydirmi? Yoki xonadonlariga o'g'ri va talonchilar hujum qilganda, ularni yo'qotish uchun o'sha dargoh egasi kurashmaydimi? Nahotki bizning o'sha xonadon egasichalik vatanparvarlik g'ayratimiz bo'lmasa?" Said Rizo Alizodaning bunday publitsistik jonfido maqolalar o'sha yillarda ham katta ahamiyatga ega bo'lib, o'qituvchilarning milliy iftixori va vatanparvarlik hissini oshirar, o'z yurtini himoya qilishga da'vat etardi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, o'zligini tiklamoqqa azm shijoat qilgan har bir millat bu yo'lda o'ziga xoslikni, mustaqil rivojlanish yo'lini tanlaydi. Bu yo'lda ajdodlar hayot tajribasi, bilim va tafakkuri, yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklari millat va jamiyat taraqqiyoti uchun ishonchli va mustahkam tayanch bo'lib xizmat qilishi shubhasiz. Shu sababli Said Rizo Alizodaning vatanparvarlik ruhi bilan sug'orilgan asarlari, maqolalarni bizning davrimizda ham o'z qadrini yo'qotmaydi. Ular yosh avlodni yurt-parvarlik ruhida tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi.

6 Саид Ризо Ализода. "Туркстон-бизнинг Ватанимиз" // "Шўълаи инқилоб" журнали. 1919 йил 4-сон.

YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOIY DAVLAT TAMOYILINING INSON HUQUQ VA MANFAATLARINI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI

Jaxongir Anarbayev - doktorant, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqola ijtimoiy davlat tushunchasining mazmuni, uning Yangi O'zbekistonni barpo etishdagi ahamiyati, insonlarning farovon hayot kechirishidagi o'rnini ochib berishga qaratilgan.

Аннотация: Данная статья призвана раскрыть содержание понятия социального государства, его значение для построения нового Узбекистана, его место в жизни людей.

Abstract: This article aims to reveal the content of the concept of a social state, its importance in the establishment of a new Uzbekistan, the place of people in a comfortable life.

Kalit so'zlar: ijtimoiy davlat, inson qadri, inson manfaatlari, ijtimoiy adolat, ijtimoiy siyosat.

Ключевые слова: социальное государство, человеческое достоинство, интересы человека, социальная справедливость, социальная политика.

Keywords: social state, human dignity, human interests, social justice, social policy.

Zamonaviy sharoitda davlatimizda ijtimoiy rivojlanish mohiyatan va shaklan yangi bosqichga kirib bormoqda. Yangi O'zbekistonimizda inson – eng oliy qadriyat hisoblanmoqda, shunday ekan yurtimizda olib borilayotgan insonparvar siyosatning bosh maqsadi ham aholining yashash sharoitini yuqori bosqichga olib chiqish, ularning manfaatlari, haq-huquqlarini ta'minlash, farovon hayot kechirishi uchun barcha imkoniyat va qulayliklarni yaratishdan iborat bo'lmoqda. Bugungi kunga kelib bu jarayon izchil davom ettirilib, yurtimiz tinchligi, farovonligi va xalqimizning munosib hayot kechirishining huquqiy asosini o'zida aks etgan bosh qomusimiz, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham o'zgacha ahamiyat kasb etmogleligiga alohida urg'u berilmoqda.

Bugungi kunda davlat taraqqiyotida "Avval–inson, keyin–jamiyat va davlat", degan g'oya bosh mezon sifatida qaralmoqda. Bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2022-yilning 20-iyun sanasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun loyihasining mazmun-mohiyatiga bag'ishlangan yig'ilishda, hamda 2022-yil 20-dekabr sanasida Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga yo'llagan murojaatnomasida ham eng dolzarb

masalalardan biri sifatida asosiy qonunimizda "O'zbekiston-ijtimoiy davlat", degan tamoyilni mustahakamlashni taklif etdi¹. E'tiborga molik tomoni shundaki, Konstitutsiyamizga "O'zbekiston – ijtimoiy davlat", degan tamoyilni kiritishimiz, Yangi O'zbekistonda inson farovonligini ta'minlash yo'lidagi sa'yi-harakatlarni yanada jadallashtirishimizga asos bo'ldi.

Atamalarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, "Inson qadri" tushunchasi "Ijtimoiy davlat" tushunchasi bilan uzviy bog'liq ekanligini ko'rishimiz mumkin, ushbu g'oyaning tag zamirida, birinchi navbatda, inson qadrini ulug'lash, aholiga xizmat qilishdek olijanob maqsad mujassam. Dunyo tajribasidan kelib chiqadigan bo'lsak, ijtimoiy davlat bu jamiyatning siyosiy tashkiloti, ya'ni tom ma'noda davlatdir. Ijtimoiy davlat o'z siyosatida ijtimoiy adolat mezoniga tayangan holda faoliyat yuritadi. Bosh maqsad – jamiyatda yaratilayotgan moddiy va ma'naviy boyliklarni ijtimoiy adolat tamoyili asosida qayta taqsimlashdan iboratdir.

Ijtimoiy davlatda har bir fuqaroning maishiy turmush tarzi holatini sifat jihatdan yuqori darajaga olib chiqish, aholining turmush sharoiti va sifati jihatdan tabaqalanishiga, ya'ni ular o'rtasidagi yashash uchun ketadigan sarf-xarajatlar bo'yicha farqlarning kattalashib ketishiga yo'l qo'ymaslik va aholining

ijtimoiy himoyaga muhtoj qismiga davlat tomonidan kafolatlar tizim orqali yordam ko'rsatiladi. Boshqacha aytadigan bo'lsak, maqsad yaratilgan ne'matlardan ijtimoiy kafolatlar orqali hamma bahramand bo'lishini ta'minlashdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Mehnat va ijtimoiy masalalar qo'mitasi raisi Mavluda Xo'jayeva ham "Ijtimoiy davlat har bir inson uchun ijtimoiy tenglik va adolat tamoyillari asosida munosib yashash sharoitlarini yaratib beradi"² - deb ta'kidlab o'tgan. Bundan yana shunday xulosaga kelishimiz mumkinki ijtimoiy davlatda kambag'allikni qisqartirish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini qo'llab-quvvatlash bo'yicha samarali siyosat olib boradi. Bugungi kunda yurtimizda ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar, ehtiyojmand aholining ijtimoiy muhofazasiga qaratilgan siyosat ijtimoiy davlatning tub zamini yaratilganidan dalolat beradi. Davlat budjeti mablag'larining ellik foizdan ortig'i ijtimoiy sohalarga yo'naltirilayotganining o'zi ham buni yaqqol isbotlaydi.

Birinchi navbatda bunday modeldagi davlat har bir inson uchun ijtimoiy tenglik va adolat tamoyillari asosida munosib yashash sharoitlarini yaratib beradi. U ijtimoiy tafovutlarni kamaytirish, muhtojlarga yordam berish bo'yicha samarali siyosat olib boradi. Olimlarning ta'kidlashicha, "O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy funktsiya fuqarolar uchun normal turmush sharoitlarini ta'minlash, ijtimoiy himoyaning samarali tizimini yaratishda yaqqol namoyon bo'ladi. Ijtimoiy adolat prinsipi davlatning ijtimoiy majburiyatlar oldidagi mas'ulligidir"³.

Ikkinchidan, ijtimoiy davlat ehtiyojmand oilalarga uy-joy, ichimlik suvi, tabiiy gaz, elektr energiyasi, transport, yashash uchun zarur bo'lgan iste'mol tovarlarining eng kam miqdori belgilab qo'yilishini nazarda tutadi. Shaxs va uning oilasi munosib hayot kechirishi uchun yetadigan ish haqi, bandlikni ta'minlash, xavfsiz mehnat sharoitini yaratish, kambag'allikni qisqartirishni, majburiy mehnatga taqiq qo'yishni talab qiladi.

Shu o'rinda alohida ta'kidlab o'tishimiz joizki, Konstitutsiyamizning 42-43-moddalarida "Har kim munosib mehnat qilish, erkin kasb

tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitilishsiz va belgilangan mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoridan kam bo'lmagan tarzda adolatli haq olish, shuningdek, ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalani huquqiga ega"⁴ligialohidabelgilanmoqda. Bundanyaqqol ko'rinib turibdiki, insonning manfaatlarini, qadr-qimmatini yangi konstitutsiyaviy mezon bilan mustahkamlanmoqda. Darhaqiqat, yurtimizda amalga oshirilayotgan mazkur siyosiy islohotlarni jahonning rivojlangan mamlakatlari (Rossiya Federatsiyasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Shvetsiya, Moldova, Belorussiya, Yaponiya, Ispaniya kabi davlatlar konstitutsiyasi) Asosiy Qonunlariga qiyoslangan holda ularning inson huquqlarini ta'minlashga doir moddalarini o'rganish o'z oldimizga qo'ygan maqsadni amalga oshirishda muhim hisoblanadi.

So'nggi yillar davomida mamlakatimizda aholini kuchli ijtimoiy himoya qilishga yo'naltirilgan siyosat o'zgacha tusga ega bo'ldi. Xususan, yurtimizda joriy etilgan "temir daftar", "ayollar daftari", "yoshlar daftari", "mahallabay" va "xonadonbay" ishlash usullari fikrimizga yaqqol misol bo'ladi. Bunda aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, ularning munosib hayot kechirishlari uchun sharoit yaratish, aholining bandligini ta'minlash va uning daromadlarini oshirish, ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish, aholining turmush sharoiti va sifati jihatdan tabaqalanishiga yo'l qo'ymaslik hamda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qismiga davlat tomonidan kafolatlar tizimi orqali yordam ko'rsatishga katta e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, ishsizlikdan himoyalani, kafolatlangan sifatli ta'lim berish, malakali tibbiy yordam ko'rsatish, bolalar, ayollar, qariyalar, nogironligi bor shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Alohida tahsinga sazovorlisi, fuqarolarning huquqiy manfaatlarini ta'minlash hamda yillar davomida aholini qiynab kelgan muammolarni hal etish maqsadida mamlakatimiz rahbarining tashabbusi bilan Prezidentning Xalq va Virtual qabulxonalari faoliyati yo'lga qo'yildi, aholining murojaatlari davlat organlari faoliyatining diqqat markazida

² Xo'jayeva M. Ijtimoiy davlat har bir inson uchun. <https://uzlidep.uz/uz/news-of-party/12579>

³ Muhammadjanov O., Muhitdinov F. Konstitutsiya: xalq manfaatlarining huquqiy kafolati. T., "Muharrir nashriyoti", 2017. –B. 36.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi loyihasi. 42-43-moddalar. www.xs.uz

bo'ldi. Bu kabi islohotlar va xalqchil chora-tadbirlar "Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak" degan chinakam xalqparvarlik tamoyili asosida amalga oshirilmoqda.

Oxirgi yillarda amalga oshirilgan ulkan islohotlar natijasida aholining daromadlari izchil o'sayotgani, odamlarning shaxsiy uy-joy va sifatli iste'mol tovarlari bilan ta'minlanayotgani, yashash uchun zarur infratuzilmaning kengayib borayotganida namoyon bo'lmoqda. Buning isbotini odamlar hayotida, turmushida his qilayotgani va buni hozir har qadamda e'tirof etayotgani misolida ham ko'rish mumkin. A.Saitkasimovning ta'kidlashicha, "Jamiyat hayotining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy sohalari barqaror muhitini doimiy ta'minlab borilishi mamlakatimiz kelgusi taraqqiyotining muhim asosi hisoblanadi. Mazkur jarayon jamiyatda fuqarolar manfaatlarini, ularning huquq va erkinliklarini ta'minlash, farovon turmushini yanada samarali tashkil etilishiga muhim zamin yaratadi"⁵.

Mamlakatimizda olib borilayotgan bunday keng ko'lamlil islohotlarni yanada mustahkamlash, ularni qonun hujjatlarida aks ettirilishi bo'yicha ko'plab taklif-tavsiyalar natijasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirish

va qo'shimchalar kiritish hamda uni zamon talablariga mos ravishda yangilash masalasi kun tartibiga qo'yildi va hozirda Asosiy Qonunimizga o'zgartirish va qo'shimchalar jamoatchilik muhokamasi markazida qo'yilib Konstitutsiyamizning qator moddalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy davlat tamoyilida inson – eng oliy qadriyat hisoblanadi, olib borilayotgan insonparvar siyosatning bosh maqsadi inson manfaatlarini, haq-huquqlarini ta'minlashdir.

Ijtimoiy davlatda fuqarolarning huquqiy manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy muammolarni o'z vaqtida hal etish va aholi farovonligini ta'minlash uchun o'z vaqtida muhim vazifalar belgilanib, yuqori sur'atlarda amalga oshiriladi.

Ijtimoiy davlatda inson farovonligiga qaratilgan ishlar "Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak" degan insonparvarlik tamoyili asosidagi konseptual g'oya asosida amalga oshiriladi.

Bugungi kunda yurtimizda ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar, ijtimoiy muhofazasiga qaratilgan davlat siyosati ijtimoiy davlatning asosiy zamini bo'lib xizmat qiladi.

ЯЗЫКОВАЯ КАРТИНА МИРА КАК ЦЕНТРАЛЬНОЕ НАУЧНОЕ ПОНЯТИЕ В СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ

*Абдиназар Ташбаевич Нурманов - д.п.н., профессор, Джиззакский государственный педагогический университет
Зулфия Одилжановна Каримова - преподаватель, Джиззакский государственный педагогический университет*

Аннотация: В статье рассматриваются такие ключевые для современных лингвокультурологических штудий научные понятия, как лингвокультурология и языковая картина мира, концепт и концептосфера, на основе чего дается обоснование концепции исследования.

Аннотация: Мақоллада зamonaviy lingvokulturologiya fanlari uchun lingvokulturologiya va dunyoning til manzarasi, tushuncha va kontseptsiya sohasi kabi asosiy ilmiy tushunchalar ko'rib chiqiladi, ular asosida tadqiqot konsepsiyasining mantiqiy asoslari keltirilgan.

Abstract: The article discusses such key scientific concepts for modern linguoculturological studies as linguoculturology and the linguistic picture of the world, the concept and the conceptual sphere, on the basis of which the substantiation of the research concept is given.

Ключевые слова: лингвокультурология, языковая картина мира, концепт, концептосфера, объект и предмет исследования, цель лингвокультурологии.

Kalit so'zlar: lingvokulturologiya, dunyoning lingvistik tasviri, tushuncha, konseptosfera, tadqiqot obyekti va predmeti, lingvokulturologiyaning maqsadi.

Keywords: linguoculturology, linguistic picture of the world, concept, conceptsphere, object and subject of research, purpose of linguoculturology.

Сегодня к центральным проблемам лингвокультурологии относятся проблемы изучения языковой концептуализации мира, языковой картины мира и национальной концептосферы.

Теория языковой картины мира – одна из самых изучаемых проблем современной лингвокультурологии. В этой области много нерешённых вопросов и противоречащих друг другу точек зрения. Та часть теории, которая посвящена изучению языковой картины мира нации, наиболее противоречива, поскольку предмет её изучения более относителен и неоднозначен, чем в случае с изучением индивидуальной языковой картины мира, например, писателя. Согласно современным представлениям¹, языковая картина мира выступает как итог процесса языковой концептуализации мира.

Концептуализация и категоризация мира выступают как основные понятия современной лингвокогнитивной парадигмы гуманитарного знания². Эти два когнитивных, ментальных процесса

представляют собой последовательные этапы общего процесса когниции – осмысления человеком окружающего его мира³. В процессе концептуализации формируются отдельные «кванты знания» о мире⁴, абстрагирующие и обобщающие дискретный опыт восприятия человеком окружающей среды. Потом, на стадии категоризации, полученные концепты распределяются по классам и категориям на основании имеющихся у них общих и различительных признаков.

Концептуализация как осмысление поступающего из внешнего мира потока информации возможна только через действие механизма символизации, т.е. через использование знаков, которые объективируют процессы ментальной деятельности человека и позволяют ему сделать их достоянием других людей в процессе информационного обмена, т.е. коммуникации. Концептуализация возможна в любой сфере семиозиса, т.е. в любой сфере, где фигурируют знаки и символы⁵, т.е. она может осуществляться

¹ Роль человеческого фактора в языке 1988; Человеческий фактор 1992; Апресян 1995а и 1995б и др.

² Демьянков 1994; Булыгина, Шмелев 1997; Болдырев 2004 и др.

³ Рахилина 1998; Кубрякова 2004; Рудакова 2004; Радбиль 2016 и др.

⁴ Токарев 2003: 17

⁵ Лосев 1982; Мечковская 2004

⁵ Saitqosimov A. Ijtimoiy barqarorlik inson hayotiy farvonligini ta'minlashning zaruriy sharti. Falsafa va huquq. № 1, 2019 y. –B. 184.

в среде действия любой вторичной знаковой системы и, соответственно этому, может быть художественной, научной, религиозной, мифологической, бытовой и пр.⁶

Однако базовой, первичной знаковой системой является естественный язык. Обладая, в отличие от других систем, универсальностью и имея отношение ко всем видам деятельности без исключения, система языка наиболее полно воплощает набор элементов и их связей, выделяемых человеком в мире. Поэтому и базовым видом концептуализации следует считать языковую концептуализацию мира.

Таким образом, всякая знаковая система – в том числе язык, – в сущности, является результатом членения, концептуализации, категоризации мира. Поэтому под познанием, осмыслением мира надо понимать его концептуализацию. Единственная форма познания для человека – «разложение» действительности «по полочкам». Чтобы превратить первичный опыт в знание, человек упрощает, схематизирует его, устраняет противоречия путём попытки их «подогнать» под единую схему. Мы часто выстраиваем отдельные знания о мире в ряд оппозиций, т.е. укладываем в схему. Мы членим действительность, чтобы удобнее было в ней ориентироваться так же, как разлиновываем лист бумаги, чтобы удобнее было писать. Познавая действительность путём её концептуального членения, мы лишаем мир диалектики, зато делаем его постигаемым. Причём это происходит на всех уровнях познания – будь то бытовые представления или научное знание (думается, чем больше знание претендует на научность, тем чаще в нём встречается схематизм, который можно считать ограниченностью).

Специфика языкового формата концептуализации мира заключается в том, что она не вполне осознаётся человеком, потому что осуществляется на внелогическом уровне, во многом подсознательно. К.Г.Юнг даёт такому феномену определение «коллективное бессознательное»; К.Леви-Стросс говорит о существовании некой единой «сетки сознания», которая объединяет все виды человеческой деятельности, коррелирующие на уровне отношений –

приводится по⁷. Множество учений этого времени связаны с попыткой проникнуть в самосознание, прорваться к предельным основаниям мысли, преодолеть сознание или просто постичь сам его механизм (феноменология, герменевтика, экзистенциализм, психоанализ, структурализм и все направления модернизма в искусстве). Но это не приводит ни к чему, кроме окончательного убеждения в существовании в человеческом сознании (или вне его) некоего пласта, сформированного независимо от самого конкретного сознания и предопределяющего наши собственные (условно говоря – собственные) суждения о мире. Этот пласт не осознаётся человеком, и им нельзя управлять. Он являет собой наследие исторически сформированного в определённом социуме образа мира. Всякое частное осмысление действительности есть проекция неизменной общей парадигмы. Человек находит себя внутри проекта языка, культуры и всего, что он наследует.

Несмотря на то, что понятие языковой концептуализации мира стало самостоятельным предметом изучения лишь в наше время, значительно раньше появляется идея несоответствия между действительностью и её восприятием. Проблема опосредованности мира языком рассматривалась ещё античными мыслителями.

Непосредственная данность человеку сознания в языке всегда заставляла задуматься если не о влиянии языка на сознание, то, по крайней мере, о характере отражения мира в языке: «часто употребляемое понятие «реальность» является уже не онтологической реальностью, а фактически только тем, что человек может выразить через язык: классы существующих и несуществующих, фиктивных и воображаемых объектов, понятий, представлений, которые человек вычленил при помощи языка из природы или творчески создал и дал им имя...»⁸.

Еще Аристотель задавался вопросом о познании всеобщего через вхождение в язык: способность абстракции – уникальное свойство человека, и осуществляется оно языком. Однако невозможно понять, где начинается способность абстракции, если язык называет сначала конкретные предметы. Аристотель сравнивает

процесс приобретения всеобщего знания с остановкой бегущего войска: невозможно определить, в какой момент происходит остановка. Так же невозможно понять, в какой момент появляется абстракция и предметное знание о мире становится обобщённым. Но это в любом случае процесс, осуществляемый языком (при этом язык и мышление не разделяются античными философами). Познание есть обобщение вещей, выделение неких категорий, по которым распределяются объекты предметного мира. Эти категории явлены как единицы языка, или мыслительные единицы – данные понятия приравниваются⁹.

В средние века проблема опосредованности мира языком поднимается в споре номиналистов и реалистов об отношении понятия к реальному миру. Предметом этого спора является скорее не отражение мира в языке, а сущность самого мира: либо он изначально вещественен, либо идеален. И уже в соответствии с решением этого вопроса, слова либо являются случайными наименованиями независимых вещей, либо отражают независимо существующие понятия. Так или иначе, язык отражает природу вещей (случайными именами или неслучайными) – независимо от их восприятия человеком: по большому счёту, язык идентичен миру. По-новому решается проблема в концептуализме. П.Абеляр использует понятие концепт для выражения идеи или образа вещи в человеческом уме. Это принципиально иное представление о механизме отражения мира в языке. Концепт соотносится не непосредственно с действительностью: это образ, формирующийся и существующий в сознании. Характеризуя концепт, Абеляр приходит к идее его вторичности по отношению к речи. Концепт стоит по ту сторону языка, создаётся в нём¹⁰.

Подход к языку как акту творения мира в сознании и первичной сущности по отношению к мышлению последовательно был впервые предложен в XIX веке В. фон Гумбольдтом. Лингвистика XX и XXI века, так же, как вся наука и философская мысль этого времени, характеризуется антропологическим подходом к миру.

Этот подход был обусловлен многими открытиями, обнаружившими, что человеческое сознание – не только инструмент познания мира, но своего рода шаблон этого познания. Философия языка В.фон Гумбольдта в числе других открытий сделала очевидным несвободу человеческого сознания. Немецкий лингвист не просто обратился к проблеме связи языка и мышления (об этом писали ещё философы античности), но поставил её в центр науки о языке. Он рассмотрел с этой точки зрения и проблему развития языка (в этом ему предшествовал И.Гердер, считавший, что язык существует, пока есть творческий дух в его носителях), и проблему различия языка и речи, и вопрос формы языка и его материала.

Центральная идея его учения, во-первых, в том, что связь между мышлением и языком не является односторонней: язык влияет на сознание, заставляет видеть мир в тех понятиях, для которых в нём есть обозначения. В. фон Гумбольдт рассмотрел язык как явление, довлеющее над человеческим сознанием, устанавливающее свой диктат. Язык заставляет видеть мир в тех категориях, которые в нём существуют, очерчивает вокруг человека «круг», который можно покинуть, лишь оказавшись в «круге» другого языка. Во-вторых, язык воплощает не просто человеческий взгляд на мир, но тот взгляд, который продиктован «духом» данного народа. Языки не только принципиально различаются системными свойствами и конкретными единицами, но каждый даёт свой образ мира, соответствующий духу данного народа¹¹.

В XX в., в рамках философского и лингвистического неогумбольдтианства, европейские ученые развили эти идеи, что, например, нашло свое отражение в учении философа Г.Г.Гадамера: «Всякое рассуждение о языке вновь и вновь охватывается языком. Только в языке мы можем думать, и именно это существование нашего мышления в языке является глубокой загадкой, которую язык ставит перед мышлением»¹². По мысли философа, человек никогда не находится в «безъязыком состоянии»: «Скорее, мы в наших знаниях о мире и о нас самих всегда

6 Роль человеческого фактора в языке 1988; КСКТ 1996

7 ФЭС 1983; ФЭС 2003; КСФТ 2006

8 Роль человеческого фактора 1988: 114

9 ФЭС 2003

10 Абеляр 1992

11 Гумбольдт 1984

12 Гадамер 1997: 135–136

охвачены языком, который является нашим собственным»¹³. По словам немецкого учёного В. фон Вартбурга, также тяготевшего к неогумбольдтианству, «лишь говорят об овладении языком; на самом же деле язык владеет человеком» – цитата по¹⁴.

Представление о систематизации действительности в человеческом сознании воплощается в 20-е годы XX века в новом научном направлении – семиотике. Она основывается на положении о том, что любая область умпостигаемого мира существует для человека как система знаков, с помощью которых человек ориентируется в ней. В человеческом сознании может существовать лишь образ мира, модель мира. Знаковая сущность охватывает все явления культуры, включая язык. Знаковость заключается в членении мира на значимые части, условно говоря – единицы, которые в человеческом сознании имеют определённые отражения. Единство образа в сознании с прообразом в действительности есть знак¹⁵.

Проблема языковой концептуализации мира первостепенна для современной лингвистики, породившей множество научных направлений, которые с разных сторон подходят к обусловленности человеческой деятельности языком. Это когнитивная лингвистика, находящая языковую обусловленность в процессах познания; а также лингвокультурология и этнолингвистика, связывающие с языком национальное своеобразие. Все эти направления отталкиваются от положения о непосредственном отражении в языке сознания человека и нацелены на исследование культурно обусловленной информации в языке, к чему призывал еще В. фон Гумбольдт: «Рассматривать язык не как средство общения, а как цель в самом себе, как орудие мыслей и чувств народа есть основа подлинного языкового исследования, от которого любое другое изучение языка, как бы основательно оно ни было, в сущности своей только

уводит»¹⁶.

Единство национального языка не обеспечивает понимания между людьми, однако самые существенные проблемы понимания возникают между носителями разных национальных языков. При этом знание иностранного языка лишь на первый взгляд разрешает это противоречие, но не решает проблемы понимания между людьми, имеющими разные родные языки. Понимание между носителями разных диалектов или собеседниками, владеющим и не владеющим сленгом, достигается значительно легче. Дело в том, что различия их языков сводятся к некоторым специфическим лексическим образованиям (диалектизмы, жаргонизмы и прочая лексика вне литературной нормы), обычно не затрагивая при этом в существенной мере даже грамматику языка. Все различия останавливаются, если воспользоваться терминологией Гумбольдта, на внешней форме языка, не затрагивая внутренней формы. (Язык индивидуума имеет более сложную специфику, являясь результатом опыта не только идеологического, но мировоззренческого вообще.)

Разница между национальными языками кроется прежде всего во внутренней форме¹⁷, т.е. в неосознаваемых носителями языка принципах национально обусловленной языковой концептуализации мира, что невозможно подвергнуть переводу так же, как это делается с внешней формой языка. Специфику концептуализации мира, таким образом, следует рассматривать прежде всего на материале национального языка: в каждом естественном языке отражается определенный способ восприятия мира, навязываемый в качестве обязательного всем носителям языка. Осмысление мира в языке этноса носит системный и целостный характер, оно представляет собой особую «наивную» философию этноса, для каждого языка свою.¹⁸

¹³ там же, 136

¹⁴ СЛТА 2000: 53

¹⁵ Лосев 1982; Лотман 1994; Успенский 1996; Мечковская 2004

¹⁶ Гумбольдт 1984: 197

¹⁷ Гумбольдт 1984

¹⁸ Апресян, 1986: 5-33

ADABIYOTSHUNOS NAJMIDDIN KOMILOV TADQIQOTLARI TAHLILI

Elmurod Jumaboyevich Nasrullayev - f.f.b.f.d. (PhD), dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Najmiddin Komilov dastavval tarjima, qiyosiy adabiyotshunoslik, tarjima tarixining nazariy masalalariga oid tadqiqotlar olib borgan bo'lsa, keyinroq matnshunoslik va adabiy janrlar rivoji bilan bog'liq masalalarni tadqiq qildi. Ushbu maqolada N.Komilovning mustaqillik yillariga qadar yaratilgan tadqiqotlari tahlili haqida fikr yuritiladi.

Аннотация: Нажмиддин Комилов сначала проводил исследования по теоретическим вопросам перевода, сравнительного литературоведения и истории перевода, а затем исследовал вопросы, связанные с текстологией и развитием литературных жанров. В этой статье обсуждается анализ исследований Комилова, созданных до лет независимости.

Abstract: Najmiddin Komilov first conducted research on the theoretical issues of translation, comparative literature, and the history of translation, and later he researched issues related to textual studies and the development of literary genres. This article discusses the analysis of N.Komilov's researches created before the years of independence.

Kalit so'zlar: tarjima, qiyosiy adabiyotshunoslik, adabiy janr, matnshunoslik, navoiyshunos, mutafakkir, tasavvuf, tafakkur.

Ключевые слова: перевод, сравнительное литературоведение, литературный жанр, текстология, нарцисс, мыслитель, суфизм, мышление.

Keywords: translation, comparative literary studies, literary classification, textual studies, narcissist, thinker, Sufism, thinking.

Adabiyotshunos olim Najmiddin Komilov bilan yaqindan tanishtirishdan charchamas hayotida 1965-yili muhim burilish nuqtasi edi. bo'ldi: do'sti Hasan Qudratullayev Dushanbe shahridan ko'chib kelgan Qutbiddinxon eshon Muhiddinov bilan tanishtirdi.

Qatag'on jafolarini chekkan bul zot ilohiyot, arab, fors tillari va adabiyotining bilimdoni bo'lib, Sharq she'riyati va mumtoz adabiyotni bimalol sharhlab berardi. Fanlar akademiyasi Til va adabiyot ilmiy-tadqiqot institutining katta xodimi bo'lgan Qutbiddin eshon "Alisher Navoiy asarlari izohli lug'ati" to'rt jildligining faol mualliflaridan biri edi. Shunday qilib, ikki o'rtada pir-u muridlik munosabatlari to'la shakllanib, u filologiya fanlari nomzodi Qutbiddin eshon Muhiddinovning vafotiga qadar (1983) davom etdi. Ular ota-bolalardek yonma-yon hovlida yashadilar.

1970-yillar oxirida G'aybulla Salomov Najmiddin akani Samarqanddan Toshkentdagi dorilfununga ishga chaqirdi. Ular "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" faniga asos solib, filolog va jurnalistlarga saboq bera boshladilar. O'ta madaniyatli, mulohazali, diplomat kishi bo'lgan G'aybulla Salomov o'zining sadoqatli shogirdlari – tortinchoq Najmiddin Komil, muloyim Tilak Jo'ra, mulohazali Sulonmurod Olimni poytaxtdagi ilmiy va adabiy davralar

bilan yaqindan tanishtirishdan charchamas edi.

Keyingi yillarda olimning ilmiy faoliyati tasavvuf tarixi, tasavvufning asosiy yo'nalishlari, tariqat, shariat, haqiqat tushunchalariga qaratildi. Shu yo'nalishda u Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Ibn Arabiy, Nasafiy, Bahouddin Naqshband ta'limotlari mohiyatini ochib berdi.

N.Komilov tarjimon sifatida ham nom qoldirdi. Olim Farididdin Attorning «Ilohiynoma», Sulon Valadning «Maorif», Aziziddin Nasafiyning «Zubdat ul-haqoyiq» va Husayn Voiz Koshifiyning «Futuvvatnomai sultoniy» asarlarini forschadan o'zbek tiliga tarjima qildi.

Ustoz Najmiddin Komilov ilm va badiiy ijodda taqqoslash, solishtirish uslubini ko'p qo'llardi. Jumladan, "Ibn Sino va Dante" (1983) asarida o'zbek olimlaridan birinchi bo'lib Sharq-u G'arbning adabiy aloqalarini davrlashtirdi. Mashhur italyan shoiri Dante Aligerining (1265-1321) "Ilohiykomediya" nomli asari tahliligiga kirishganda, bu umuminsoniy qadriyat va qarashlarning ildizlarini "Ming bir kecha", "Kalila va Dimna", "Sindbodnoma" singari Sharq durdonalari bag'ridan izlashga tushadi.

“Tasavvuf” nomli ikki jildlik (1996, 1999) monografiya ustoz ijodining yuqori choʻqqisi boʻldi, desak arziydi. Maʼlumki, tasavvuf ilmi sir-asrorlari haqida yozish uchun diniy va dunyoviy bilimlarni puxta egallash talab etiladi. Tasavvufni anglamasdan turib, milliy maʼnaviyat tarixi, Sharq falsafasi, adabiyoti va sanʼatini yaxshi oʻrganib boʻlmaydi. “Islom tarixi bizda tasavvuf tarixi bilan birga olib qaralgandagina toʻgʻri yoritilishi mumkin”, deb yozadi muallif. “Tasavvuf, bu – Mutlaq ilohni tanish va sevish; avliyolar eʼtiqodidan tugʻilgan; pokiza axloq haqidagi ilmdir”.

Oʻzbek kitobxonlari Najmiddin Komilovni nozik didli tarjimon sifatida juda yaxshi bilardi. Ustoz 90-yillarda Fariddin Attorning “Ilohiynoma”, Husayn Voiz Koshifiyning “Futuvvatnomai sultoniy yoxud javonmardlik tariqati”, Shayx Aziziddin Nasafiyning “Zubdat ul-haqoyiq” (“Haqiqatlar qaymogʻi”) singari nodir asarlarini mahorat bilan oʻzbekchalashtirdi. 1994-yilda Fariddin Attorning “Ilohiynoma” asari tarjimasini 40 ming nusxada chop etildi.

Biz ijodiy hamkorlikni davom ettiraverdik, 1995-yilda “Najmiddin Kubro” nomli risolalarini chop etdik. Risolada adabiyotshunoslik faniga koʻplab tushuncha, atama va talqinlar kiritilgan. “Najmiddin Kubro nazarida nuqta, dogʻ va doira murid ruhiy holatlari oʻzgarishida muhim xizmat qiladi, – deydi muallif. – Doira – falak doiralari aylanishi, dogʻ – dunyo timsoli va nuqta – vahdatdir. Doira doimiy aylanishda, u dogʻni ham oʻz ichiga oladi. Ammo bular markazga tomon, yaʼni nuqta sari intiladi. Nuqta mohiyatini anglash orqali Alloh olamini idrok etsa boʻladi”.

Taniqli adabiyotshunos olim B.Omon professor Najmiddin Komilovning oʻzbek ilm-fani, adabiyoti, umuman, jamiyatimiz oldidagi xizmatlarini quyidagicha eʼtirof etadi: Najmiddin Komilovning “birinchi xizmati shuki, davlatning yuqori lavozimlarida ishlagan davrida jamiyat hayotida maʼnaviyatning nufuzi, obroʻsini oshirish zarurligini isbotlab berdi.

Ikkinchi xizmati shuki, davlat va jamiyat boshqaruvi akademiyasi tinglovchilari boʻlgan vazirlik va idoralar rahbarlari, oʻrinbosarlari, masʼul xodimlariga islom dinining maʼrifiy vazifasi, tasavvuf ilmining mohiyatini yangi talqinlarda tushuntirib, ilm-fan, maʼnaviyatga

oʻzgacha mehr-muhabbatni uygʻota bildi. Islom falsafasi, taraqqiyot falsafasi, oʻtish davri psixologiyasini talabalarga, rahbarlarga yaxshi anglata bildi.

Uchinchi xizmati shuki, qadim yurtimizda tasavvuf qoidalarini yoyib, oʻzining ilmiy maktabini yaratdi. Bu maktabning Ibrohim Haqqul, Sultonmurod Olim, Sadridin Salim Buxoriy, Anvar Tursunov singari davomchilari tugʻildi.

Toʻrtinchi xizmati shuki, tasavvuf ilmidan boxabar, halol, iymonli, sadoqatli shogirdlarni tarbiyalashga erishdi. Ayni damlarda, muxlis va shogirdlari oliy oʻquv dargohlarida, davlat boshqaruvi idoralarida ishlab, ustozning ishini samarali davom ettirishmoqda”.

Jahon sivilizatsiyalari tarixidan maʼlumki, insondagi axloqiy sifatlarni tarbiyalash yoʻli orqali jamiyatni barqarorlashtirish, yuksaltirish imkoniyati mavjud. Shundan kelib chiqib, professor N.Komilov “jamiyatda oddiy insonga hurmat, eʼzoz, eʼtibor va ragʻbat hamisha ulugʻlanishi darkor”, deydi. Murakkab davrda inson ham oʻzini anglab, tarbiyalab, pogʻonama-pogʻona yuksalib bormogʻi lozim.

Olimning taʼkidlashicha, insonga tuhfa etilgan birinchi xislat – qanoat. Kishida qanoat boʻlmasa, boriga shukr qilmasa, Alloh bergan rizqqa koʻnmasa, tamagir boʻladi, boshqalar moliga koʻz olaytiradi, natijada toʻgʻri, halol yashashdan chekinadi. “Tama – bu qullik, chunki birovdan doim bir narsa kutib oʻtirgan odam oʻz nafsining quliga aylanadi. Qanoatli odam ilm va maʼrifat bilan shugʻullana oladi, dunyo va oxiratni oʻylaydi”. Bugungi kunda yurt rahbarini qiynayotgan korrupsiya, poraxoʻrlikning ildizi ana shu qisqa soʻzlarda aniq-tiniq ifoda etilgan.

Ikkinchi xislat – saxovat, yaʼni gʻarib va benavo, beva-bechora, yetim, qarovsiz qolgan qariyalar, tolibi ilmlar, xullas faqir-u haqir odamlarga qilinadigan hotamiylik. Ammo saxiy, badavlat odam kerilish va minnat uchun bu ishlarni qilmaydi.

Uchinchi xislat – maʼrifat. Avvalo, Iloh maʼrifati hammadam boʻlishi joiz. Lekin unga erishish uchun inson oʻzini chuqur oʻrganishi va yaxshi bilishi kerak”.

Adabiyotshunos olim umr boʻyi shugʻullangan tasavvufning magʻzida ilmi Haq – botin ilmi, qalb tafakkuri yotadi. Inson oʻz zakovatiga ishonib, Haqqning yagonaligi va

ulugʻligi haqida tafakkur qilishi lozim. Soʻfiy shoirlar ijodining markazida shu maqsadlar yotadi. Lekin, sobiq tuzum davrida bu ilm, hatto islom dinining maqsad va vazifalari xalqimizdan yashirildi. Oqibatda oʻzbek xalqi ham dinsizlik, eʼtiqodsizlik va fikrsizlik botqogʻiga botdi. Asli, bu – shaxs va jamiyat tanazzuli, ulkan yoʻqotish, orqaga ketish edi. Dinsiz, eʼtiqodsiz, fikrsiz kishi bilan uzoqqa borib boʻlmaydi. Ustoz masalaning ayni shu nozik jihatiga jamoatchilik eʼtiborini qaratib, fandagi “boʻshliq”ni toʻldirishga harakat qiladi.

Adabiyotshunos N.Komilov hokimiyat, podshoning imkoniyati bilan maʼrifat, bilimning darajasini qiyoslab, mansabga xos ijodiy va salbiy qusurlarni sanab oʻtgan, insondagi hokimiyatga hirs, dunyoparastlikni qattiq tanqid qilgan ekan, “Har qanday podsho yaxshilarni himoyasiga olib, olimlardan doimo maslahat soʻrab, yomonlarni jilovlashi va jazolashi lozim”, degan fikrni ilgari suradi. Ushbu gʻoyalar hozirda ham jamiyatimizda oʻz qimmatini yoʻqotmaganiga toʻla amin boʻlmoqdamiz.

Shogirdlarining xotirlashlaricha, ustoz olim oʻzaro suhbatlar chogʻida: “Oʻz vujudingga tafakkur aylagil, har ne istarsen, oʻzungdin istagil”, degan tasavvufning oltin qoidasini bot-bot takrorlab turgan. Darhaqiqat, ustoz olim yozgan baquvvat, pishiq asarlardagi gʻaroyib talqinlar, donishmandona fikrlar, oʻziga xos uslublar har bir kishini oʻziga rom etadi. Soʻfiyona misralar, bugunga daxldor gʻoyalar oʻquvchi qalbini maʼrifat nuri bilan tarbiyalab, insonni oʻzini anglashga daʼvat qiladi.

Bu izlanishlarning mahsuli sifatida yaratilgan “Tafakkur karvonlari” kitobida Sharqning Gʻarb sivilizatsiyasiga taʼsiri, Gʻarb ilm-fani, falsafasi, madaniy-adabiy yutuqlari Sharqdan oziqlanganligini ilmiy isbotlab berdi. Bunda olim juda koʻp ilmiy manbalarga tayanadi, B.Qosimov taʼbiri bilan aytganda, Gʻarbnig “insofli olimlari”ning eʼtiroflarini keltiradi. Ayniqsa, italyan shoiri Dantening butun ijodi Sharq falsafasi, adabiy qarashlari bilan sugʻorilganligini taʼkidlaydi”.

Nemis, fransuz, ispan, ingliz shoir va yozuvchilarining, XIX asr rus maʼrifaparvarlarining Sharq madaniy-adabiy merosiga munosabatlari bizning koʻz oldimizda Sharqni butun salobati va maʼnaviy qudrati bilan namoyon etadi va qalbimizni faxr

hislariga toʻldiradi.

Xalqimiz uzoq vaqt tasavvuf taʼlimotidan bebahra qolib keldi. Muqaddas islom dinimizning bosh gʻoyasi – Ollohni tanish, unga chin dildan eʼtiqod qilish, uning visoliga yetishish uchun inson oʻzini poklashi, komillik sari intilishi tasavvufda falsafiy talqinini topgan. Tasavvuf taʼlimotini oʻrganish, unda ilgari surilgan islomiy aqidalar mazmun-mohiyatini shuurlarga singdirish insonni maʼnan yuksaltiradi, komillik sari boshlaydi. U asrlar osha ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy hayotga, maʼnaviy-maʼrifiy, adabiy jarayonga faol ijodiy taʼsir koʻrsatib keldi. Oʻtmishda yashab oʻtgan barcha mutafakkir olimlar va shoirlar tasavvuf taʼlimoti masalalari bilan shugʻullandilar, ularni targʻib etdilar, uning gʻoyalarini asarlarida aks ettirdilar, bashariyatni axloqiy poklikka, komillikka chorladilar. Mustaqillik tufayli tasavvuf taʼlimotini oʻrganish, mohiyatini anglash, hayot tarzimizga chuqur singdirishga keng imkoniyat yaratildi. Bizga boy maʼnaviy meros qoldirgan tasavvuf taʼlimoti olimlari – buyuk bobolarimiz hayoti, ijodiy faoliyatini oʻrganishga kirishildi, asarlari qayta-qayta nashr etila boshlandi. Bizga zamondosh shoir va yozuvchilarimiz, olimlarimiz tasavvuf taʼlimoti mohiyati-mazmunini keng ommaga tushuntirish, uning gʻoyalarini targʻib etishga astoydil kirishdilar. Bir soʻz bilan aytganda, bugungi kunda oʻz ilmiy-ijodiy faoliyatida tasavvufga murojaat qilmagan, undan maʼnaviy oziqlanmagan, tasavvuf taʼlimoti gʻoyalarining naqadar xalqchil, insonparvar buyuk qudratga ega ekanligini targʻib etmagan olim yoki ijodkor yoʻq.

Ana shu fidoyilar orasida Najmiddin Komilovning alohida oʻrni bor. Olim oʻtgan asr 80-yillari oʻrtalaridan to umrining oxirigacha tasavvuf taʼlimoti masalalari bilan shugʻullandi va uni targʻib va tashviq etishda, keng ommaga mohiyat-mazmunini tushuntirishda yuksak fidoyilik namunasini koʻrsatdi. Tasavvuf taʼlimotini oʻrganishga bagʻishlangan “Komil inson axloqi” va “Tavhid asrori” kitoblari yaxlit bir asar boʻlib, unda muallifning naqadar chuqur izlanishlar olib borgani, nihoyatda koʻp zahmat chekkanligini his etamiz. Tasavvufiy gʻoyalarning badiiy asarlarda aks ettirilishi deyarli barcha adabiyotshunos olimlarimiz izlanishlarida koʻrinadi. Ayniqsa, navoiyshunos olimlarimiz mutafakkir shoir asarlari tahlilida

1 http://www.хуршид_даврон_кутубхонаси_хотиралар/нажмиддин_комиллов

2 Қосимов Б. Аслик. Сўзбоши. Нажмиддин Комиллов. Тафаккур карвонлари. Тошкент, 2011 й. Б-6.

albatta tasavvufiy tushunchalar, g'oyalar, axloqiy me'yorlar, bu ta'limotning hayotiy ildizlarini teran anglashga, ularning badiiy asarlardagi ifodasini ilmiy asoslab berishga harakat qilib keladilar. Professorlar B.Qosimov va I.Haqqulov singari olimlarimizning bu boradagi izlanishlari, ilmiy asarlari diqqatga sazovordir. Ammo N.Komilov tasavvufni muayyan bir ijodkor asarlari misolida emas, balki umuman, tasavvuf ta'limoti qanday ta'limot, uning zamiri nimadan iborat, tarixiy zaruriyat tufayli maydonga kelganligi, ijtimoiy-siyosiy hayotga ta'siri, axloq, odob, ma'naviy-ma'rifiy yuksalishdagi ahamiyatini dunyo tamadduni misolida, jahon adabiyoti durdonalari hisoblangan sof tasavvufiy asarlarni tahlil etish asosida tushuntirib beradi.

Olim Sharq she'riyatining peshqadam vakillari – Abdurahmon Jomiy, Farididdin Attor, Jaloliddin Rumiyning bebaho asarlarini o'zbek tiliga mahorat bilan o'girdi. Qisqa muddatda "O'lmas satrlar qudrati", "Ishqni o'lovlantirgan suv", "Jon va jonon mojarosi", "Timsollar timsoli", "Axtarin ashk etdi-yu...", "Erur ko'ngillarga safo ishq", "Ahd qildim...", "Soqiy, talx bo'ldi ayshim" kabi teran ilmiy tahliliy maqolalar "Yoshlik", "Guliston" jurnallarida bot-bot bosildi-yu, olimni xalqimiz kashf qilganday bo'ldi.

Najmiddin Komilov "Ibn Sino va Dante" (1983) kitobida o'zbek olimlaridan birinchi bo'lib Sharq-u G'arbning adabiy aloqalarini davrlashtirdi. Darvoqe, qadimgi Xitoy, Yunoniston va Rim mutafakkirlari Konfutsiy, Suqrot, Aflotun (Platon), Arastu (Aristotel), Sitseronning davlat va jamiyat munosabatiga oid ta'limoti o'rta asrdagi islom falsafasi shakllanishi, rivojlanishiga turtki bergandi.

"Sharq Uyg'onishi ulug' allomalar, qomusiy bilim sohiblari, tafakkur va ijod

pahlavonlarini maydonga keltirdi, – deydi Najmiddin Komilov. – Bu ulkan madaniyat umumbashariy sivilizatsiyaga qo'shilib, uning uzluksiz rivojiga omil bo'ldi, turli aloqa vositalari orqali G'arbg'a o'tib, yangi Yevropa tafakkuri taraqqiyotiga ta'sir ko'rgazdi. Yetti asr davomida arab xalifaligi qo'l ostida turgan Ispaniyaning Qurdoba, Siviliya, G'ironada viloyatlarida Sharq ilm-ma'rifati keng qanot yoydi. Ispan qirollari arab tilini mukammal bilar, o'z saroylarida arab shoir va olimlarini saqlar, barcha ispan ziyolilari arabcha ta'lim olib, sharqona urf-odat ruhida tarbiyalanar edilar³.

Olimning ta'kidlashicha, Sharq ilm-fani va madaniyatining Yevropaga ko'chishida tarjimaning roli, shubhasiz, buyuk bo'lgan. Arab tilida yaratilgan ilmiy adabiyotlarni lotin tiliga o'girish XII asrlardan boshlab avj olgan. Keyinchalik bu adabiyotlarni ispan, fransuz, kastil tillariga tarjima qilish kuchaygan, Toledo va Bolonya shaharlari o'sha davr tarjimachiligining yirik markazlariga aylangan edi. "Bu qadimiy san'at" (1988) kitobida ustoz ilmiyg'oyalarini izchil davom ettiradi. Kitob XVIII-XX asr boshlarida Xorazm adabiy muhitining Shermuhammad Munis, Muhammadrizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy, Bobojon Sanoiy, Komil Xorazmiy, Bayoniy kabi zabardast ijodkorlar amalga oshirgan yirik tarjima asarlari tadqiqiga bag'ishlandi. Darhaqiqat, Xorazm tarjima maktabi xizmati shuki, ular Abulqosim Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Kaykovus, Shayx Sa'diy Sheroziy, Xoja Hofiz Sheroziy, Amir Xisrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Husayn Voiz Koshifiy, Badriddin Hiloliy, Zayniddin Vosifiy singari buyuk zotlarning asarlarini ona tilimizga mohirona o'girdilar.

ALISHER NAVOIY ASARLARI UCHUN YOZILGAN LUG'ATLARDI "GULSHANUL-ASROR" BAYTLARINING ILLYUSTRATIV MATERIAL SIFATIDA FOYDALANILISHI

Jamoliddin Aminjonovich Jo'rayev - f.f.n., dotsent, Jizzax davlat pelagogika universiteti

Annotatsiya: XII-XIX asrlar lug'atshunoslik ancha rivojlangan davr hisoblanadi. Bu davrda Alisher Navoiy asarlariga, ayniqsa, forsiyazon adiblarning qiziqishi ortadi. Toli Imoniyning "Bado'e al-lug'at", Mirza Mehdiyxonning "Sanglox", "Lug'ati atrokiya" kabi lug'atlar. Bu lug'atlar, ayniqsa, ma'lum bir adib asarlari bo'yicha tuzilganligi bilan lug'atchilik tarixida yangilik edi. Ushbu lug'atlardan nafaqat Navoiy asarlarining ba'zi baytlari bilan tanishish mumkin, balki Lutfiy, Mir Haydar, Ubaydxon, Husayn Boyqaro, Xoja kalon Panohiy, Bobir Mirzo, Kamol Ummiy, Qutbiy Naimiy kabi ko'plab ijodkorlarning asarlarini ham tadqiq etish imkoni bo'ladi. Biz ushbu maqolada yuqorida zikr qilingan to'rt lug'atda illyustratsiya sifatida foydalanilgan Mir Haydar Xorazmiyning baytlarini "Gulshanu-asror" asari bilan qiyosiy tadqiq etdik.

Аннотация: XII-XIX века считаются периодом, когда развитие словаря было более продвинутым. Для удовлетворения этих потребностей было создано множество турецко-персидских переводных словарей: такие словари, как «Бадое ал-луг'ат» Толи Имони, «Санглох» Мирзы Мехди Хана, «Луг'ати атрокия». Эти словари были новинкой в истории лексикографии, тем более что они были составлены по произведениям одного писателя. Из этих словарей можно познакомиться не только с некоторыми стихами произведений Навои, но и произведениями многих художников, таких как Лутфий, Мир Хайдар, Ubaydhan, Хоссейн Бойкара, Ходжа Калон Панохи, Бобир Мирза, Камал Умми, Кутби Наими. В данной статье мы сравнили стихи Мир Хайдара Хоразми, использованные в качестве иллюстраций в четырех упомянутых выше словарях, с произведением «Гулшанул-Асрар».

Abstract: The 12th-19th centuries are considered the period when the development of the dictionary was more advanced. During this period, interest in the work of Alisher Navoi, especially Persian-speaking writers, increases. The issue of public understanding of literary works is also considered. To meet these needs, many Turkish-Persian translation dictionaries were created: such dictionaries as Bado'e al-Lug'at by Toli Imani, Sanglokh by Mirza Mehdi Khan, Lughati Atrokiya. These dictionaries were a novelty in the history of lexicography, especially since they were compiled from the works of one writer. From these dictionaries one can get acquainted not only with some poems of Navoi's works, but also with the works of many artists, such as Lutfiy, Mir Khaidar, Ubaydkhan, Hossein Boykara, Khoja Kalon Panokhi, Bobir Mirza, Kamal Ummi, Kutbi Naimi. In this article, we compared the poems of Mir Haydar Khorazmi, used as illustrations in the four dictionaries mentioned above, with the work "Gulshanu-Asrar".

Kalit so'zlar: lug'at, so'zlar, turkiy, ijodkorlar, kotib, muallif, mumtoz, adabiyot, masnaviy, farq, o'xshash, jihatlar.

Ключевые слова: словарь, слова, турецкий язык, создатели, писатель, автор, классик, литература, маснави, различие, сходство, аспекты.

Keywords: dictionary, words, Turkish language, creators, writer, author, classic, literature, masnavi, difference, similarity, aspects.

Alisher Navoiy asarlari uchun ko'plab lug'atlar tayyorlanganligi tilshunos va mumtoz adabiyot bilan shug'ullanuvchi olimlarga ma'lum. Bular "Badoe al-lug'at", "Abushqa", "Sanglox", "Lug'ati atrokiya" kabilar. Keyingi asrlarda ham XIX-XX asrlarda ham Navoiy asarlari uchun bir necha lug'atlar yozilgan. "Badoe al-lug'at" - Navoiy asarlariga tuzilib, bizgacha yetib kelgan lug'atlarning eng qadimiysi. Lug'atning muallifi Tole al-Imoniy al-Haraviy haqida ma'lumotlar yo'q. Lug'at qo'lyozmasi bilan tanishgan kishi Tole Haraviyning o'qimishli kishi bo'lganiga ishonch hosil qiladi. Uning fors, turk va arab tillarini bilgani, adab ilmlarini egallagan lug'at kirishining qofiyali saj bilan yozilganidan ko'rinib turibdi. Adab ilmlarini egallagan kishilarning xati ham chiroyli bo'lgani uchun

3 Komilov N. Tasavvuf. Birinchi kitob. – Toshkent, "Ezuvchi" nashriyati. 18-bet.

lug'at muallifi-saroy kanselyariyasi (devoni) da xizmat qilgan deyish mumkin. Haraviy lug'atni Sulton Husayn (1438-1506) topshirig'i bilan tuzgan. Bu haqda lug'at muallifining o'zi "Badoyi al-lug'at"ning kirish qismida gapiradi¹.

Lug'atning yagona nusxasi Leningrad shahrining M.Y.Saltikov –Shchedrin nomli ommaviy kutubxonada (Xanikov to'plamida №35 raqam bilan saqlanadi). Lug'at 1-89 sahifadan iborat bo'lib, 1117 hijriy (1705/06) yil ko'chirilgan².

Alisher Navoiy asarlari uchun yozilgan lug'atlarning qadimiylaridan yana biri "Abushqa" deb nomlanadi. Ba'zi olimlar "Abushqa" ning muallifi A'loiy bin Muhibil sharif deyiladi. Buning sababi asarda kotib tomonidan ismi "zaif faqir Aloiy ibn Muhibbil sharif ushbu kitobni hijriy 967 yil ko'chirdim"³ deb keltiriladi.

"Abushqa"dan so'ng ikki asr davomida Alisher Navoiy asarlariga bag'ishlangan katta lug'at tuzilgani ko'zga tashlanmaydi. Bu davr ichida Navoiy asarlari qo'lyozmalari hoshiyalariga bitilgan kichik lug'atchalargina shu qo'lyozmalar bilan birga bizgacha yetib kelgan.

1759-yil milodiyda Muhammad Mahdiyxon tomonidan "Sanglox" nomli lug'at yozib tugatiladi. Ushbu lug'at Klosontomonidan 1960-yilda Londonda "Sanglox" nashrini amalga oshirgach, lug'at ilmiy muomalaga kiritiladi⁴. "Sanglox"ning bir qo'lyozma nusxasi eron milliy kutubxonasi 14120 raqam bilan saqlanadi. Tuzilishi, maqaddima va mabonial lug'at, 1b-26b betgacha tushunilmagan so'z va baytlar. 27a-353 betgacha lug'at, 353a-367a betgacha arabcha va forscha so'z va iboralardan iborat qo'shimcha ma'lumotlar berilgan⁵.

Haydar Xorazmiy masnaviylari kiritilgan lug'atlardan yana biri "Lug'ati atrokiya" deb nomlangan. Lug'atning bitta nusxasini A.A.Romaskevich 1914-yilda Tehronda sotib olgan. «Romaskevich qo'lyozmasi» deb ataluvchi bu nusxa hozir Saltikov-Shchedrin kutubxonasida 1177 raqami bilan saqlanmoqda. «Lug'ati atrokiya» muallifining to'la ismi – Fathali ibn Kalbali ibn Murshidquli ibn Fathali Qojor Qazviniy.

Fathali Qojor lug'atni 1862-yil fevral oyida ancha keksaygan va turli-tuman qiyinchiliklarga duch kelgan kezida Xuroson vaziri Mirzo Muhammad Astrobody yordami va qo'llab quvvatlashi tufayli asarni tugatib,

unga "Lug'ati atrokiya" nom qo'yadi. Ishning cho'zilish sabablaridan biri sifatida, u Alisher Navoiy asarlaridan kerakli illustratsiyalarni izlab topishning qiyin bo'lganini uqitirib ko'rsatadi⁶.

Yuqorida nomlari keltirilgan lug'atlarning mundarijasidan ham ko'rishimiz mumkinki, to'rttala asarda ham Mir Haydar Xorazmiy "Gulshanul-asror" masnaviysiga lug'atshunoslar murojaat qilishgan.

No	Lug'atlar	Muallifi	Lug'atlarida baytlari keltirilgan ijodkorlar
1	Badoe ul-lug'at 1438-1506 m.y Ko'chirilgan yil: 1117 h. (1705/06 m.y)	Tole al-Inxoyi al-Haraviy	Alisher Navoiy, Lutfiy Buxoriy, Mir Haydar, Fuzuliy, Bobir, Sahriy, Azraqiy
2	Abushqa 967 h (1560 m.y)	Aloiy ibn Muhibbiy (kotib)	Alisher Navoiy, Lutfiy Mir Haydar, Ubeydton, Hasiya Boyqoro, Xoja Kalon Panohiy, Bobir Mirzo, Kamol Umriy, Qutbiy Naimiy
3	Sanglox 1171 h (1759 m.y)	Muhammad Mahdiyxon	Alisher Navoiy, Abu Balz Mirzo Bobur, Buxoriy, Mirzobeji Samarqandiy, Syyid Hasan, Mir Haydar, Hanoyva, Hasiya Mirzo, Hoja Kalon, Iskandar Mirzo, Lutfiy, Nosir, Mulla Soqiy, Ubeydton
4	Lug'ati atrokiya (1862 m.y)	Fathali Qojor Qazviniy	Alisher Navoiy, Lutfiy, Mir Haydar, Hasiya Boyqoro, Bobur, Iskandar Mirzo, Buxoriy, Kamoliy, Ubeydton, Fuzuliy, Mulla Soqiy

Demak, to'rt lug'at mualliflarining asarlarida Mir Haydar Xorazmiyning baytlaridan o'z tadqiqotlarida illyustratsiya sifatida lug'atshunoslar turli darajada foydalanganlar. Masalan, "Abushqa"da o'ttizdan ziyod qadimiy turkiy so'zlarni ko'rsatishda Mir Haydar Xorazmiyning o'ttiz uchta baytini misol tariqasida keltirgan bo'lsa, "Sanglox"ning muallifi o'ttizga yaqin baytlardan illyustrativ material sifatida foydalangan. "Lug'ati atrokiya"da yigirmaga yaqin so'zlarni "Bado'e ul-lug'at" esa faqat bitta baytdagi bir so'zni ko'rsatish bilan kifoyalangan.

No	Lug'atlar	"Gulshanul-asror" dagi illyustratsiya sifatida foydalanilgan so'zlar
1	Badoe ul-lug'at	ishlon (يشلن) [30b-bet]

1 Б.Хасанов. Жаҳоҳирлар ҳазинаси. (Алишер Навоий асарларига тузилган қўлёзма лугатлар. Гофур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкент, 1989, 39 бет)
2 А.К.Боровков. Бадаи ал-лугат. Словар Тали Имини Гератского к сочинениям Алишер Навои. Издательство восточной литературы. Москва 1961 г. 7-стр
3 Владимир Вельяминов - Зернов. اللغات العربية والأجنبية المعاني (Ал-луготун-Навоийя вал-истишходотул –чиготийя). Абушқа. Питербург, 1868 йил. 4-бет
4 Б.Хасанов. Жаҳоҳирлар ҳазинаси. (Алишер Навоий асарларига тузилган қўлёзма лугатлар. Гофур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкент, 1989, 32 бет)
5 Муҳаммад Маҳдийхон. Санглох. Эрон миллий кутубхонаси 14120 рақамли қўлёзма.
6 Б.Хасанов. Жаҳоҳирлар ҳазинаси. (Алишер Навоий асарларига тузилган қўлёзма лугатлар. Гофур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкент, 1989, 47 бет)

qo'llanganligi ham guvohi bo'lishimiz mumkin. Masala ushbu baytdagi:

Har neki qozog'ondim va yig'dim tamom,
Qildim oni sapag'uchi-ya harom⁷.

هر نی که قاز اغانديم و یغديم تمام

قيلديم انی ساپاغوچی یه حرام

Ya'ni "Abushqa" va "Sanglox"da "sapog'uchi" shaklida bo'lsa "Lug'ati atrokiya"da "saypog'uchi"- shaklida qo'llanilgan.

Quyidagi baytning bir so'zi "Abushqa"da "yotug'i" va "Sanglox"da yotug'on shaklida qo'llanilgan. Shu baytdagi "shidurg'u" so'zi esa "Abushqa" va "Lug'ati atrokiya" ga kiritilgan:

Rost qil ohangi navo-u Hijoz,
Tuz yotug'i birla shidurg'uni soz¹².

راست قيل آهنک نواو حجاز

توز ياتوغی بیرلا شیدور غونی ساز

Ba'zi o'rinlarda lug'atshunoslar shoirning bir baytning ikkita so'zidan foydalanganlar. Ya'ni bir muallif boshqa bir so'zni ikkinchisi shu baytdagi boshqa bir so'zni o'z lug'atlariga kiritishgan. Masalan,

Balx elining toqati ham toq edi,
Borcha qovun hasratidin qoq edi¹³.

بلخ ایلی نینگ طاقی هم طاق ایدی

بارچا قاون حسرتیدین قاق ایدی

ushbu baytdan "Abushqa" lug'atida "qoq" (قاق) so'zi, "Lug'ati atrokiya"da esa shu baytning "qovun" (قاون) so'zini lug'atiga kiritgan.

Yana quyidagi baytdan:

Hiylasi cho'q oli va aldog'i ko'p,
Makru dog'o toni bila bo'yi cho'p¹⁴.

هیلاسی چوق الی و الداغی کوپ
مکر و داشا تونی بیله بوی چوپ

lug'atshunoslar ikkita so'zni olishgan, birinchisi "Abushqa"da "aldog'" (الداغی) so'zini "Sanglox"da "ol" (ال) so'zini lug'atlariga kiritganlar.

Yana bir baytning turli so'zlarini lug'atshunoslar asarlarida foydalanganlarini ko'rish mumkin. Masalan,

Turk surudini tuzuk birla tuz,
Yaxshi ayolg'u bila ko'kla qo'puz¹⁵.

2	Abushqa ⁸	ochm (عچم) [9-bet], ochirg'indi (عچیرغندی) [9-bet], aldog' (الداغ) [26-bet], ayolg'u (ایولغو) [35-bet], etaklab (اتاکلاب) [48-bet], erik va eronlik (ایریک و ایرونلیک) [59-bet], ishton (ایشتن) [54-bet], nison va osug'on (نیزون و اوسورغون) [59-bet], ishton (ایشتن) [53-bet], ilqo' va ilqi (ایلقو و ایلقی) [73-bet], bezay (بزی) [140-bet], bilgin (بیلگن) [143-bet], bo'ksa (بوکسا) [153-bet], torib (تاریب) [166-bet], toesug' va toesug' (توسوغ و توسوغ) [177-bet], tekabce (تکابچه) [193-bet], tilin (تیلین) [195-bet], to'qo'qon (توقوقان) [215-bet], chopon (چاپون) [229-bet], chovdi (چویدی) [237-bet], charey (چرای) [239-bet], sarqad (سرقاد) [274-bet], sapog'ochi (سپاغوچی) [281-bet], shidurg'u (شیدورغو) [303-bet], qoq (قاق) [321-bet], qovchin va qovchin (قوچین و قوچین) [325-bet], kiy (کی) [353-bet], ko'ngaliga (کونگالیغا) [366-bet], ko'kla (کوکلا) [369-bet], nemak (نمک) [393-bet], yorxonob (یورخونوب) [406-bet], yotug' va yotug' (یوتوغ و یوتوغ) [407-bet], yovchin (یوچین) [407-bet], yip (یب) [416-bet]
3	Sanglox ⁹	ol (ال) [28-bet], ochm (عچم) [70b-bet], o'loh (اوش) [83a-bet], etaklab (اتاکلاب) [111b-bet], nison va osug'on (نیزون و اوسورغون) [121a-bet], bo'ksa (بوکسا) [171a-bet], gul (گل) [175a-bet], birak (بیرک) [181a-bet], tolasig'uchi (تولاسیغوچی) [203a-bet], telous boshladi (تیلور باشلادی) [259-bet], tilin (تیلین) [265-bet], tengabce (تینگابچه) [267b-bet], dagul (دگل) [305a-bet], sotg'chi (سوتغچی) [315a-b-bet], sapog'uchi (سپاغوچی) [321a-b-bet], sarcha (سرخه) [353a-bet], ko'kla (کوکلا) [362a-b-bet], serqovchi (سیرقوچی) [365a-bet], qoq'uchi (قوگوچی) [377a-b-bet], nemak-netek (نمک-نمک) [343a-bet], yotug'on (یوتوغون) [371a-bet], yoramshak (یورامشاک) [382a-bet], yo'g'on (یوغون) [403a-bet], yo'kla (یوگلا) [404b-bet], bildirib (بیلدیرب) [507a-bet]
4	Lug'ati atrokiya ¹⁰	ochm (عچم) [250-bet], ayolg'u (ایولغو) [346-bet], etaklab (اتاکلاب) [420-bet], bezay (بزی) [519-bet], torib (تاریب) [539-bet], tilin (تیلین) [652-bet], chovdi (چویدی) [686-bet], saypog'uchi (سپاغوچی) [847-bet], shidurg'u (شیدورغو) [856-bet], qoq (قاق) [918-bet], qovon (قورون) [926-bet], qo'puz (قوپوز) [941-bet], ko'kla (کوکلا) [1021-bet], kiy (کی) [1081-bet], nemak-netek (نمک-نمک) [1124-bet], yoramshak (یورامشاک) [1148-bet], yotug'on (یوتوغون) [1153-bet], yip (یب) [1221-bet]

To'rt lug'atning qiyosidan ko'rinib turibiki, mualliflar Mir Haydar Xorazmiy masnaviylaridagi so'zlarni tanlashda lug'at tuzuvchilar bir biridan farqli va o'xshash jihatlar ham mavjud. Shuningdek, bir so'zning lug'atlarda ikki xil shaklini ham kuzatishi mumkin. Masalan, "Abushqa"da tekshor (تیکشور), "Sanglox"da tengshur (تینگشور) shaklida. "Abushqa"da bayt:

Har neki o'ksutsang olur chog'da narh,
Arz kuni borchani tekshor bu charh.

هرنی که اوکسوتسانگ آلور چاغدا نرخ

عرض کونی بازچانی تیکشور بو چرخ

"Sanglox"da هرنی که اوکسوتسانگ آلور چاغدا نرخ

عرض کونی بازچانی تینگشور بو چرخ

Bir so'zni lug'atlarda turli shaklda

7 А.К.Боровков. Бадаи ал-лугат. Словар Тали Имини Гератского к сочинениям Алишер Навои. Издательство восточной литературы. Москва 1961 г. 7-стр
8 Владимир Вельяминов - Зернов. اللغات العربية والأجنبية المعاني (Ал-луготун-Навоийя вал-истишходотул –чиготийя). Абушқа. Питербург, 1868 йил.
9 Farhad Rahimi. Fethali Kaçarın Çağatay türkçesi sözlüğü. Gazi üniversitesi. Sosyal bilimler enstitüsü. 2016 haziran.
10 Farhad Rahimi. Fethali Kaçarın Çağatay türkçesi sözlüğü. Gazi üniversitesi. Sosyal bilimler enstitüsü. 2016 haziran.
11 Владимир Вельяминов - Зернов. اللغات العربية والأجنبية المعاني (Ал-луготун-Навоийя вал-истишходотул –чиготийя). Абушқа. Питербург, 1868 йил. 281-бет
12 Владимир Вельяминов - Зернов. اللغات العربية والأجنبية المعاني (Ал-луготун-Навоийя вал-истишходотул –чиготийя). Абушқа. Питербург, 1868 йил. 323-бет
13 Владимир Вельяминов - Зернов. اللغات العربية والأجنبية المعاني (Ал-луготун-Навоийя вал-истишходотул –чиготийя). Абушқа. Питербург, 1868 йил. 323-бет
14 Муҳаммад Маҳдийхон. Санглох. Эрон миллий кутубхонаси 14120 рақамли қўлёзма, 28 бет
15 Владимир Вельяминов - Зернов. اللغات العربية والأجنبية المعاني (Ал-луготун-Навоийя вал-истишходотул –чиготийя). Абушқа. Питербург, 1868 йил. 369-бет

ترك سورودىنى تۈزۈك بىرلا تۈز
بخشى ايلغو بيله كوكلا قوپوز

Ushbu baytdagi so'zlarni "Abushqa"da "ayolg'u" (آيالغو) bilan "ko'kla" (كوكلا) so'zidan foydalangan bo'lsalar, "Lug'ati atrokiya"da esa ushbu baytning "qo'puz" (قوپوز) so'zini lug'atga kiritgan.

Haydar Xorazmiyning "Gulshanul-asror" asari nusxalarida kelgan "shisha" so'zi "Sanglox"da "sarcha" (سرجه) shaklida ifodalangan. "Sanglox" muallifi "sarcha" so'zini "shisha" ma'nosida ekanligini ta'kidlaydi. Biroq shuni ham ta'kidlash kerakki, ushbu so'zni ishlatilgan bayt "Abushqa", "Bado'e ul-lug'at" va "Lug'ati atrokiya"da misol tariqasida lug'atshunoslar foydalanmaganlar. "Sanglox"da Haydar Telbaning "Maxzani"da shunday deydi, - deb ushbu baytni keltiradi:

Er kishi emgakta tetikroq bo'lur,
Sarcha necha sinsa itikroq bo'lur!¹⁶

اير كيشى ايمگاکت
سرجه نيچه سيند

"Abushqa" va "Lug'ati atrokiya"da bor, biroq "Sangloh" va "Badoe ul -lug'at"da yo'q. Shuningdek, "Gulshanul-asror" qo'lyozma nusxalarida ham mavjud bo'lmagan bayt mana bu:

Balx elining toqati ham toq edi,
Borcha qovun hasratidin qoq edi!¹⁷

بلخ ايلي نينك طاقتى هم طاق ايدى
بارچا قاون حسرتيدىن قاق ايدى

"Abushqa"da bor bo'lgan "chiroy" (چيراي) so'zi, lekin "Badoe al-lug'at", "Sangloh", "Lug'ati atrokiya" lug'atlarida yo'q. Mana ushbu bir misra:

Bini chiroyi ko'rguzar bir qori.

بىنى چىراى كورگوزار بىر قارى

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Alisher Navoiy asarlari uchun tuzilgan lug'atlarda nafaqat Navoiy asarlaridan misollar keltirilgan, balki turkiy tilda ijod qilgan va Navoiy asarlarining tiliga yaqin tilda yozilgan asarlardan ham ko'plab misollar keltirilgan. Lug'at tuzishda mualliflar, avvalo Navoiy asarlariga murojaat qilib, so'ngra "falanchining asarida ham shu kabi so'z qo'llanilgan" kabi mazmundagi jumlar bilan izohlab ketishgan.

Alisher Navoiy asarlari uchun tuzilgan lug'atlarda lug'atshunoslar Mir Haydar Horazmiy "Gulshanul-asror" asaridan ham foydalanganlar. Ularning ichida eng ko'p foydalanganini "Abushqa" va "Sanglox" deyish mumkin, bulardan keyin "Lug'ati atrokiya"da va "Badoe-ul lug'at"da esa faqat bitta baytdagi bir so'zni qo'llagan.

"Abushqa" va "Lug'ati atrokiya" larning so'zligi bir xil bo'lsa-da "Lug'ati atrokiya"da "Abushqa"ga qaraganda kamroq so'zlar kiritilgan. Ammo "Sanglox" ning o'ziga xos jihati shuki, unga bu ikki lug'atga ham kiritilmay qolgan bayt va so'zlar kiritilgan.

Lug'atlar qiyosi shuni ko'rsatadiki "Gulshanul-asror" dan misol sifatida qo'llanilgan baytlardagi turkiycha so'zlarni to'rt lug'atda ham bir xil so'z yoki bir xil baytlardan foydalanmaganlar. Ammo ba'zi o'rinlarda bir baytdagi ikki xil so'zni o'z lug'atiga kiritgan holatlar ham mavjud. Yana ba'zi o'rinlarda bir baytdagi bir so'zni turli shakllarda ifodalanganligini ham kuzatish mumkin. Lug'atlar qiyosidan shuni ham bilish mumkinki, hatto asar qo'lyozma nusxalarida ham qo'llanilmagan so'zlarni qo'llanilganligi.

KIYIM KOMPONENTLI FRAZEOLIGIK BIRLIKLAR TADQIQI

Zubayda Shavkatovna Jumayeva - f.f.b.f.d.(PhD), dotsent.v.b., Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Maqolada frazeologizmlarning milliy-madaniy xususiyati haqida fikr yuritilib, ular tildagi har qanday birlik u yoki bu darajada milliy-madaniy o'ziga xosliklarni namoyon etishi to'g'risida fikr yuritiladi. Frazeologizmlar millat mentaliteti, madaniyati, turmush tarzi hamda uzoq yillik kuzatuvlarning qabariq ifodasi hisoblanishi kiyim komponentli iboralar misolida ko'rsatib berilgan.

Аннотация: В статье рассматривается национально-культурный характер фразеологизма, высказывается предположение, что любая единица языка в той или иной степени обладает национально-культурными характеристиками. Фразеологизмы считаются выражением национального менталитета, культуры, образа жизни и многолетних наблюдений, что показано на примере выражений с элементами одежды.

Abstract: The article discusses the national-cultural nature of phraseology, and suggests that any unit in the language exhibits national-cultural characteristics to one degree or another. Phraseologisms are considered to be expressions of national mentality, culture, lifestyle and long-term observations, as shown by the example of expressions with clothing components.

Kalit so'zlar: frazeologizmlar, milliy-madaniy xususiyatlar, milliy-madaniy o'ziga xoslik, mentalitet, madaniyat, turmush tarzi, kiyim komponentli frazemalar.

Ключевые слова: фразеологизмы, национально-культурные особенности, национально-культурная идентичность, менталитет, культура, образ жизни, фраземы с компонентом одежды

Keywords: phraseologisms, national-cultural features, national-cultural identity, mentality, culture, lifestyle, phrasemes with a clothing component.

Iboralar hayotdagi voqea-hodisalarni o'z ifodasini topmay iloji yo'q. Bugungi kunda kuzatish, jamiyatdagi maqbul va nomaqbul lingvokulturologiya ushbu masalalarni chuqur harakat-holatlarini baholash, turmush o'rganuvchi, milliy tilda va til jarayonlarida tajribalarini umumlashtirish asosida namoyon bo'ladigan moddiy va ma'naviy xalq chiqargan xulosalarning o'ziga xos madaniyatni o'rganuvchi ijtimoiy soha obrazli ifodalaridir¹. Frazeologik ma'noning yaratilishi, rivojlanishi, saqlanishi va namoyon keng va murakkabligi bilan ajralib turadi. bo'lishi kabi tushunchalarini o'zida qamrab So'z ma'nosida bo'lmagan, uchramagan oladi.

komponentlar frazeologizmlar ma'nosida mavjud bo'ladi². Frazeologizmlar tilni, uning taraqiyoti kiyim-kechak bilan chambarchas mazmunini yanada boyituvchi ma'naviy xazina bog'liq holda yuzaga kelgan. Aynan kiyim insonni hayvondan ajratuvchi muhim tashqi alomatlardan biri hisoblanadi. An'anaviy milliy alomatlarning shakllanishiga nazar tashlar hisoblanadi. O'zbek xalqi kiyinish madaniyati nuqtayi nazaridan ham dunyodagi xalqlarning oldingi funksiyalari tarkib topganini ko'rishimiz saflarida turadi. Bir necha ming yillar ilgari ota- bobolarimiz egniga yaktak, oyoqqa kovush- maxsi, etik, boshga shabpo'sh, do'ppi, telpak, ustga chopon, to'n kiyib, belga belbog', qars

16 Муҳаммад Махдийхон. Санглох. Эрон миллий кутубхонаси 14120 рақамли қўлёзма, 353а-бет

17 Владимир Вельяминов - Зернов. اللغات التورية والاشتقاقات الجذابة (اللغات التورية والاشتقاقات الجذابة) (Ал-луғотун-Навойия вал-истишҳодотул - чиготийя). Абушқа. Питербург, 1868 йил. 329-бет

1 Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлил асослари. -Тошкент: Фан, 2006. -Б.53.

2 Вафоева М. Ўзбек тилида фразеологик синонимлар ва уларнинг структурал-семантик таҳлили. НДА. -Тошкент, 2009. -Б.17.

bog'lashgan. Shuning uchun ham xalqimizda erkak kishilikni ramziy ifodalash ma'nosida "belingda belbog'ing bormi degan ibora qolgan.

Har bir xalqning o'ziga xos kiyim-kechak nomlari va realiyalari ham milliy frazeologizmlarni hosil qilishda asos vazifasini o'taydi. Masalan, "to'nini teskari kiyib olmoq" – o'chakishgan holda qaysarlik qilmoq, "do'ppini osmonga otmoq" – juda xursand bo'lmoq, "do'ppi tor keldi" – iloj-imkonsiz og'ir ahvolga tushmoq, "bir-ikki yaktakni ortiqroq yirtgan" – yoshi kattaroq, turmush tajribasi ko'proq, "chorig'ini sudramoq-zo'rg'a-zo'rg'a, amal-taqal qilib yashamoq, "paytavasiga qurt tushdi" – xotirjamligi buzilib, bir yerda tinch tura olmaslik³.

Olamning tasvirini tushunib yetmoqlik uchun turli xil milliy urf-odatlar, marosimlar bilan tanishish kerak. Misol uchun: "ro'mol tashlab qo'yomoq" frazeologizmining kulturologik ma'lumoti quyidagicha: "Ro'mol" – bu ayollar boshiga o'raydigan, odatda to'rtburchak shakldagi mato. O'zbeklarning odatiga ko'ra, turmushga chiqayotgan qiz ro'mol o'rashni boshlasa, demak, uni unashtirib qo'yishgan. Shuning uchun "Ro'mol tashlab qo'yomoq" frazeologizmi ("sosvatat nevestu") "unashtirmoq" ma'nosini anglatadi.

Yana bir misol, sharqda unashtirilgan qiz yangi turmush qurgan joyga maxsus milliy oyoq kiyimida, mahsida kirib borgan. Mahsi so'zi arabcha "bo'yamoq", "surtmoq", "yog'lamoq" ma'nosidagi masaha fe'li⁴ asosida paydo bo'lgan. Oyoq kiyimining bunday nomlanishi unga mas'h tortish mumkin bo'lganidir. Mas'h tortish sharoiti va tartibi shar'iy asoslanadi⁵. Mas'h so'ziga nisbat qo'shimchasi bo'lgan -i ni qo'shish natijasida hosil bo'lgan. Ushbu so'z arab tilining o'zida yo'q. Shuningdek, ushbu so'zning fors tiliga oid lug'atlarda va "Navoiy asarlari lug'ati"da uchramasligi uning bir qadar keyingi davrlarda arabiy asosga o'zbek tili so'z yasash tizimidan mustahkam o'rin olgan, aslida arab tilidan o'zlashgan "yoyi nisbat"ni qo'shish bilan yasalganini ko'rsatadi. Demak, mahsi so'zining yasash asosi arab tiliga taalluqli bo'lsa ham, so'z yasash tizimi nuqtayi nazaridan o'z qatlamga mansub⁶. Xorazmda unashtirilgan qiz yangi turmush qurgan joyga maxsus milliy oyoq kiyimida, ya'ni mahsida kirib borgan. Shuning uchun "mahsi kiyimoq" turmushga

chiqmoq tushunchasiga teng qo'llanilgan⁷.

O'zbek frazeologizmlarida do'ppi kulteremasi tez-tez uchrav turadi. "Do'ppi" avra-astarli, ko'pincha qavima, pilta urilgan, tepa, kizak va jiyakdan tarkib topadigan guldor yoki gulsiz, to'garak yoki to'rtburchak shakldagi bosh kiyimi. Buni birovning do'ppisini birovga kiygizish deydi. (Shukrullo.Saylanma.) [O'TIL.I.676]

"Do'ppi" kundalik hayotda ham, mehnat jarayonida, marosimlarda ham, asosan, erkaklar tomonidan kiyiladi. Chaqaloq tug'ilganda unga atab o'tkaziladigan beshik to'yi (bolani beshikka solish munosabati bilan o'tkaziladigan tantanali marosim) da [O'TIL.I.402] xonadonboshi tomonidan chaqaloqqa do'ppi hadya qilinadi va bu kelajakda bir oilaga bosh bo'lsin, degan ma'noni ifodalaydi. Bezatilgan beshikning bir tomoniga o'g'il bolalarning, ikkinchi tomoniga qiz bolalarning do'ppisi kiydirib qo'yiladi. Bu odat xonadonga o'g'il va qiz farzandlar tilanishini ifoda etadi. To'y marosimlarida to'y egasining boshida albatta do'ppi bo'ladi. Bu uning xonadonida xursandchilik bo'layotgani va xonadonning sohibi ekanligini bildiradi. To'y marosimlarida kelinning xonadonidan kuyovga yuboriladigan sovg'a-salomlarga ham do'ppi qo'shib beriladi. Bu uning endi oilaboshi ekanligini bildiradi. Bundan tashqari, biror kishi vafot etgandan so'ng o'tkaziladigan barcha aza marosimlarida xonadon egalarning ham, ularning hol-ahvolini so'rab keluvchilarning ham boshida do'ppi bo'ladi. Boshda do'ppisiz duolar qabul bo'lmaydi, degan aqida o'zbeklarga xos. Shuning uchun azali xonadonga do'ppisiz borilmaydi⁸.

Ayollar do'ppisi esa, ko'pincha, biror xonadonga yangi kelin bo'lib borgan qizlar tomonidan kelin ko'rdi [O'TIL.II.346] (o'zbeklarda nikoh to'yining ertasiga kuyovning qarindoshlari, tanishlari, qo'ni-qo'shnilari ishtirokida o'tkaziladigan yangi kelinchakni ko'rish marosimi), kelin salom (nikoh kunining ertasiga ertalab kuyovning ota-onasi va boshqa yaqinlariga salom qildirish) marosimlarida va kelinlik davrining dastlabki ikki-uch oyida kiyiladi [O'TIL.II.346] Qolaversa, do'ppi o'zbek milliy bayrami – Navro'zda, Navro'z sayllarida qizlar tomonidan kiyiladi. O'zbek tilidagi "do'ppi" so'zi bevosita umumxalq hayoti bilan bog'lanadi va madaniyatning ajralmas qismi sifatida shu xalqning turmush tarzida yashaydi.

3 Усмонова Ш. Лингвокультурология. – Тошкент, 2019. – Б. 97.

4 Носиров О., Юсупов М. в.б. Ан-на'им. Арабча-ўзбекча луғат. – Тошкент: А.Қодирий номидаги "Халқ мероси" нашриёти, 2005. – Б. 783

5 Мухтасар. Араб тилидан Рашид Зоҳид ва Акрам Деҳқон таржимаси. – Тошкент: Чулпон, 1993.

6 Норбоева Ш.Х. Хоразм шеваларида кийим-кечак номларининг структур-семантик тадқиқи. Филол.ф.н.бўйича фалс.докт.(PhD) дисс...автореферати. – Тошкент, 2017. – Б. 12.

7 Норбоева Ш. Хоразм шеваларидаги соҳавий лексика. – Тошкент, 2014. – Б. 47

8 Холмонова З. Лингвокультурологияга оид тушунчалар тадқиқи. – Тошкент: Наврўз, 2018. – Б. 42.

"Do'ppi" leksemasi ishtirokida do'ppisini yerga qo'yib uxlamoq, do'ppini tagida odam bor, do'ppini yarimta qilib, do'ppisi tor kelmoq, do'ppisi chakkada, do'ppisi chambarak, do'ppisini osmonga irg'itmoq kabi qator frazeologizmlar shakllangan.

A.Mamatov "do'ppi" komponentli frazeologizmlarning ko'pchiligini o'zbek xalqining milliy urf-odatlar bilan bog'liq holda shakllanganini ta'kidlab, ulardan ayrimlarining qay tarzda paydo bo'lish hodisalarini tushuntirib o'tadi: "do'ppisini osmonga otmoq" frazeologizmi – kishi quvonganidan, ijobiy voqea-hodisadan, xabardan xursand bo'lganda beixtiyor do'ppisini osmonga otish hollari uchraydi. Shunday xursandchilik va quvonch belgisini obrazli ifodalash ehtiyoji asosida ushbu ibora paydo bo'lgan. "Do'ppining tagida odam bor" frazeologizmi ko'p ma'noliligi bilan ajralib turadi. Undan "birovning gapini birovga u yoki bu tarzda yetkazadigan", "chaqma-chaqar", "gap tashuvchi kishi" ma'nosi uqilishini payqash mumkin. Shuning uchun ham bu frazeologizm "bir gapni aslidan boshqacha talqin qilish" tarzidagi salbiy hodisani ifoda etadi. Bu kabi frazeologizmlarning milliyliigi shundaki, ular milliy tushunchalar va predmetlar bilan bog'lanadi⁹. Jumladan, mo'ljali pishiq bo'lmay, bir katta ishni boshlab qo'yib, oxirigacha yetkazish qo'lidan kelmagan kishilarga nisbatan "do'ppisi tor kelib qoldi" iborasi ishlatiladi.

Kiyimlar milliylik ramzi hisoblanadi. O'zbek xalqi azaldan har bir libosga mentalitet belgisi sifatida qarashgan. Kiyim rangi, tuzilishi, tikilish shakli, mavsumiyliigi, kundalik yoki bayramlar uchun tanlangani, unga o'rnatilgan bezaklar, tasma yoki naqshlarning barchasi libos egasi haqida ma'lumot bergan.

O'zbeklar an'anaviy kiyimlari va ular bilan bog'liq tarzda o'tkaziladigan urf-odatlarda islomgacha bo'lgan diniy-e'tiqodiy qarashlar, jumladan, fetishizm, animizm, magiya, totemizm kabi e'tiqodiy qarashlar keyinchalik islomiy an'analar bilan uyg'unlashgan holda saqlanib qolganigaguvo'lamiz. O'tmishdagi ijtimoiy tengsizlik, haq-huquqsizlik hukm surgan zamonlarda bevosita moddiy boyliklar yaratgan mehnatkashlar o'z mehnatlari samarasidan bahramand bo'la olmaganlarki, bu holatlar narsa iboralarda o'z aksini topgan:

"Bo'zchi belboqqa yolchimas, temirchi to'qaga" (to'qa – kamarning to'qasi); "Kulol mo'ndidan suv ichar" (mo'ndi – ko'va, ko'vacha. Unda zig'ir yog'i saqlardilar, suv tashib keltirardilar. Ammo mo'ndining o'zidan suv ichmasdilar. Iborada "kulol o'zi yasaydigan idish-tovoqlarga azbaroyi yolchimaganidan, mo'ndining o'zidan suv ichishga majbur bo'ladi" deyilmoqda.

Milliy kiyim-kechaklar haqida fikr yuritilganda, eng avvalo, atlas matosi va undan tikilgan kiyimlarimizni yodga olmasdan ilojimiz yo'q. Atlas – tekis, silliq, ipakdan to'qilgan mayin mato bo'lib, milliy kiyimlarimiz asosini tashkil etadi. "Atlas ko'ylakka bo'z yamoq" frazeologizmi shunday jarayonni amalga oshirish maqsadga muvofiq emasligi tushunchasi bilan bog'lanadi. Milliy liboslarimiz ichida eng oxorlisi bu atlas bo'lsa, bo'z esa uning aksidir. Bu ikki buyum o'rtasidagi nomuvofiqlik ushbu frazeologizmga xos "arzimagan yuzson yaxshi narsani buzishi" ma'nosining nuqzaga kelishiga asos bo'ladi: Atlas ko'ylakka bo'z yamoq qo'yib yuborganini sezdi shekilli, kelin bu safar ham indamay chiqib ketdi... [O'TIL. II.446]

Odatda, tasvir maqsadiga muvofiq iboralarni tanlab qo'llash bilan kifoyalanib qolinmaydi, balki qahramonlar xarakteri, ruhiy holati, hayot tarziga moslab o'zgartiriladi. Xalq iboralari shu tarzda sayqallanadi, yangi ma'no nozikliklari bilan to'yinib boradi. Xalq iboralarni qayta ishlash usullari, ularga yangicha ma'nolar berish yo'llari xilma-xil. Bunga "umumtil iborasi zamiridagi ma'noning yangicha talqinini ochish, iboraning leksik tarkibini o'zgartirish va uning semantik, stilistik funksiyalarini kengaytirish, iboraga yangicha majoziy va obrazli ma'nolar kiritish kabi usullarni kiritish mumkin"¹⁰.

Frazeologizmlarning milliy-madaniy xususiyati haqida fikr bildirar ekanmiz, quyidagilarga ahamiyat qaratishimiz zarur: a) tildagi har qanday birlik u yoki bu darajada milliy-madaniy o'ziga xosliklarni namoyon etadi; b) shunday til birliklari borki, ular milliy-madaniy kulteremalarning benihoya betakror timsolidir; v) shu ma'noda frazeologizmlar millat mentaliteti, madaniyati, turmush tarzi hamda uzoq yillik kuzatuvlarning qabariq ifodasi hisoblanadi.

9 А.Маматов. Ўзбек тили фразеологияси. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Наврўз, 2019. – Б. 55.

10 А.Шомақсудов. ва бошқ. – Тошкент: Ўзбек тили стилистикаси, 1974. – Б. 70

TOG'AY MUROD HIKOYALARIDA REALISTIK TASVIR

Munavara Rustamovna Xidirova - f.f.d., (PhD), Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ijodiy faoliyatini hikoyalardan boshlagan, hali katta hayotiy tajribaga ega bo'lmagan Tog'ay Murodning ilk hikoyalari ham, avvalo, chuqur milliy ruhi, hayotiy mazmuni va haqqoniy tasvirlari bilan ajralib turadi. Bu ilk hikoyalar adibning bo'lg'usi yetuk qissalari va romanlari uchun o'ziga xos g'oyaviy-badiiy tayyorgarlik bosqichi bo'lib xizmat qiladi.

Аннотация: Первые рассказы Тогай Мурада, начавшего свой творческий путь с рассказов и еще не имевшего большого жизненного опыта, отличаются глубоким национальным духом, жизненным содержанием и правдивыми образами. Эти ранние рассказы служат своего рода идейно-художественной подготовкой будущих зрелых рассказов и романов писателя.

Abstract: The first stories of Togay Murad, who started his creative career with stories and did not have a lot of life experience yet, are distinguished by their deep national spirit, life content and truthful images. These early stories serve as a kind of ideological and artistic preparation stage for the writer's future mature stories and novels.

Kalit so'zlar: realistik tasvir, hikoya, milliy ruh, "Ku-ku-ku", "Bobosi va nevarasi", "Er-xotin", hayotiy detal.

Ключевые слова: реалистический образ, рассказ, народный дух, «Ку-ку-ку», «Дедушка и внук», «Пара», детали быта.

Keyword: realistic image, story, national spirit, "Ku-ku-ku", "Grandfather and grandson", "Couple", life details.

Jahon adabiyotining yirik namoyandalari kabi Tog'ay Murod ham o'z ijodiy faoliyatini hikoya va publitsistik maqolalardan boshlagan. Ya'ni yozuvchi o'zining mashhur qissalarini yaratishdan oldin "Bobosi bilan nevarasi" (ba'zi manbalarda "Bobo va nevara"), "Ku-ku-ku", "Kuzning bir kunida" "Er-xotin" kabi hikoyalari bilan kitobxonlar e'tiborini tortadi. Endigina 18-19 yoshga kirgan, hali katta hayotiy tajriba va ijodiy malakaga ega bo'lmagan qalamkashning ilk hikoyalari ham, avvalo, chuqur milliy ruhda yozilgani, hayotiy mazmuni va haqqoniy tasvirlari bilan ajralib turadi. Bu ilk hikoyalar adibning bo'lg'usi yetuk qissalari va romanlari uchun o'ziga xos g'oyaviy-badiiy tayyorgarlik bosqichi bo'lib xizmat qiladi. Boshqacha aytganda, ular yozuvchining yirik asarlari uchun ijodiy mashq, ya'ni bamisoli mohir rassomlarning eskizlari rolini bajargan deyish mumkin.

"Bobosi bilan nevarasi" hikoyasida hayotda ko'p uchraydigan tabiiy bir voqea-lavha tasvirlangan. Lekin hikoyaning asosiy g'oya-mazmuni o'quvchini jiddiy mushohada qilishga undaydi, undagi bobo bilan nevara ramziy ma'noga ega¹. Bobo go'yo kechagi kun, o'tmish, ya'ni hayot intihosi, nevara esa bugungi kun va kelajak ramziday taassurot uyg'otadi. Ayniqsa, bu hayotiy g'oya hikoya

yakunida o'zining obrazli talqinini topadi: "Jajjigina nevara tokda osilib turgan uzumlarga qaraydi. O'z qo'llari bilan olib yemoqchi bo'ladi..." Ammo hali qo'li yetmaydi. Bu oddiy, ammo realistik tasvirda hayot va avlodlar davomiyligi o'z ifodasini topgandek. Bobo nevaraning peshonasi va tiniq yuziga boqib, uning kelajagiga umid bog'laydi. Bu tuyg'ular hikoyada tavsif etilmagan, ammo adibning g'oyaviy-badiiy niyati orqali ularni tuyish, anglash mumkin va oz so'z bilan ko'p fikr ayta olish va iliq hissiyot uyg'ota bilish iqtidoriga amin bo'lamiz. Nazarimizda, ushbu hikoyada adibning "Yulduzlar mangu yonadi" nomli ilk qissasining bosh qahramoni Bo'ri polvon va o'g'lining dastlabki chizgilarini payqashi mumkin. Bunday g'oyaviy-badiiy tasvir va talqinlarning mantiqiy davomiyligi ham ijod jarayonining an'anaviy bir tamoyili ekanligini ta'kidlash lozim.

Tog'ay Murodning ilk ijodiy mashqlaridan yana biri - "Kuzning bir kunida" nomli hikoyasida ham adibning "Otamdan qolgan dalalar" romaniga taalluqli dastlabki lavha va hayotiy detallarni uchratish mumkin. Hikoyada tasvirlangan paxta terimi mavsumidagi yomg'irlikunlardagitundob-havolarbilanbog'liq ezgin kayfiyat va qahramonlar ruhiyatidagi o'y-kechinmalar adib xayoli va tafakkurini

¹ Каримов Х. Адабий портретлар. – Тошкент: Янги нашр, 2017. – Б. 420.

talabalik paytlaridanoq band etib kelganini tasavvur qilish mumkin. Hikoyaning "jafokash dehqon kuzining oltin bir kuni tugayotgan edi..." jumlasida ham yosh yozuvchining teran o'y-mushohadasi va xalqimiz, xususan, paxtakorlarimizning mahzun hayoti va qismati haqidagi armonli hamdardlik tuyg'ulari ham aks etib turganligini sezgandek bo'lamiz. Bu ham ijodiy evolutsiyaga xos muhim xususiyatdir. Kichik epik janr-hikoyadan qissa va romanigacha muallif ongi va badiiy tafakkurini ifodalash shakllari ham o'zgarishi kuzatiladi. Yozuvchi ongi badiiy tafakkur shakliga aylangunga qadar bosib o'tilgan ijodiy bosqich muallif uslubi va mahoratida ko'proq namoyon bo'ladi. Bu hikoya 1969-yil chiqqan bo'lsa-da, unda muallif ong-tafakkuri modifikatsiyasi keyinchalik adib romanlarida keng rakersda qayta mushohada qilindi va chuqurlashadi. Bu bog'lanish ilk hikoyadan romanga qadar boyitilib, voqelikni ifodalashda ongosti qatlamlarida qayta talqin qilinib, janriy-kompozitsion yaxlitlik sintezlashuvi jarayonlari tasavvur etiladi.

Hikoyada xalq dardi - tashvishidan yiroq bo'lgan va tengqurlaridan o'zini juda baland deb biluvchi shaharlik "oqbilak" talabaning tipik bir obrazi o'ziga xos jonli tarzda yaratilgan. Shaharlik munofiq talaba Akromjonning xudbinligi uning individuallashtirilgan nutqi va xatti-harakati bilan oshkor bo'ladi: "Biza endi, domlajon, paxta terib ko'rmaganmiz-de..." "Ja-a vahima qilib yozibsiz, kasal desayiz ham bo'livurardi... mashina yuboring. Samarqand avtostansiyasi bor-ku, o'shatga kelib tursin"². Shu ikki og'iz so'zlaridan uning sezvasi ham, olifta, erka-arzandaligi ham sezilib turadi. Onasi o'lgan odam "chumoliga tikilib o'tirishi" holatlari adibning "Momo-er qo'shig'i" qissasidagi Pahlavon Daholarga o'xshab ketishi ham ijodkorning o'z asarlarida hayot manzaralarini mumkin qadar keng va chuqur yoritishga intilishi o'ziga xos bir ijodiy mezon ekanligidan guvohlik beradi.

Hikoyada ancha yorqin tasvirlangan, hayotda katta tajribaga ega va keng fikrli o'qituvchi tabiatni onaga mengzashida ham Tog'ay Murodning inson va tabiatning yaxlit bir olam ekanligi xususidagi chuqur falsafiy mushohadalarning badiiy bir talqini ifodalangan deb qaralishi to'g'ri bo'ladi. Adib ijodida asosiy o'rin tutuvchi bu umuminsoniy g'oya uning deyarli barcha asarlarida, jumladan, "Ku-ku-ku" hikoyasida ham mahorat bilan aks ettirilganini yosh yozuvchining ijodiy yutuqlaridan biri deyish mumkin.

"Ku-ku-ku" hikoyasi qahramoni istirohat bog'i direktori muovini, tabiat va go'zallik shaydosi, solih inson. U qushlarni sevganidan, ularga in yasatib, istirohat bog'idagi daraxtlarga qoqdiradi. Musichalar "ku-ku-ku" deganda, o'zida yo'q quvonadi. Lekin ko'p o'tmay direktor kurortdan kelgach, unga dakki beradi: "Bu madaniyat bog'i! Bu yerda parrandalar emas, xalq hordiq chiqarishi kerak! ...Siz rahbarmi yo kaptarbozmi? Marhamat, yozing ariza. U ariza yozayotganda yuragi yomonlashadi, qandaydir ichki nido bilan musichalarini ko'rgisi keladi. Direktorga: "Musichalarimni ko'rmadingizmi?" - dedi. Ana hovlida. O'zlaridan ko'rsin, haydadim, ketmadi - dedi direktor" U hovliga chiqqanda, musichalar chiqindilar qutisida boshlari orqasiga qayrilib yotardi". Bu manzaradan kitobxonning ham yuragi muzlab ketadi.

Hikoyada musichalar ezgulik va tabiatning bir mo'jizasiday tasvirlanadi. Johil direktorning xatti-harakati yovuzlik timsoli bo'lib, u hukmron tuzum - totalitar siyosatning ham ramziy bir ifodasiday o'quvchida kuchli nafrat uyg'otadi. Direktor o'rinbosari va musichalar esa zo'ravonlik siyosati va mafkurasidan yurak oldirib qo'yan, haq-huquqdan mahrum erksiz halqning ramziy timsoliga o'xshaydi. Mashhur shoirimiz Erkin Vohidov aytganidek, shunday zo'ravonlik va yovuzlik oqibatida uning "yuragida qo'ruv" hukmron. Hikoya voqealari zamiridagi muhim fikr-g'oyalari bilan ham kitob xonlarda chuqur va mahzun bir taassurot qoldiradi. (H.Karimov)

"Er-xotin" hikoyasida ham hayot haqiqati o'z badiiy in'ikosini topgan. Hikoya adabiyotda ancha keng tarqalib, quyma bir shablona aylanib ketgan "sayyor" syujetli asarlarga nisbatan kinoyadan boshlanadi: "Yo'q, ular anhor bo'yida uchrashmadi. Uchrashuvda o'ziniki qilib aytish uchun kitoblardan she'rlar ko'chirib olmadi. O, men seni sevaman, sensiz yashay olmayman qabilidagi mavsumiy so'zlarni so'zlashmadi. Yo'q, yigit bezorilardan qutqarib qolmadi..." Hikoyaning noan'anaviy muqaddimasi ham Tog'ay Murodning ijodda o'z yo'li va uslubini izlayotgan bir ijodkor sifatida ulg'ayib, shakllanib kelayotganidan nishona berib turadi.

"Shoir O'rolboy yoshi o'ttizga kirganda hayotning asosi haqida o'ylab qoldi, ya'ni oila haqida. O'ziga munosibini topdi. U oddiy tikuvchi Barchinoy edi... Hech bir millat o'z milliy kiyimidan voz kechmagan holda bizning millat kechdi. Bu hol o'z qadrini bilgan odamning qalbini o'rtaydi, albatta. O'rolboy shunaqa odam. (Ta'kid bizniki.-M.X.) Er-xotin o'rtasida

² Тогай Мурод. Танланган асарлар. 3-жилд. Ҳикоялар, мақолалар, кундалик дафтардан. – Тошкент: Шарқ, 2019. – Б. 52

munoqasha bo'ladi: - Siz doim shunaqasiz. Topgan gapingiz - o'zbek atlasiga butun jahon xaridor. Samarqanddagi tarixiy binolar jahonda yo'q. Unaqa-bunaqa..." Voqea keskinlashadi. O'rolboy ayol zotiga birinchi marta qo'l ko'tardi. Barchinoy bo'lsa vaziyatni o'ylab ko'rmadi. Hamma aybni erining zimmasiga qo'ydi. Chap yonog'i ko'kargan edi. U alamidan labini burib yig'ladi.

Kutilmaganda O'rolboyning qishloqdagi tog'asi bilan ikki notanish erkak kelib qolishadi. Shunda o'zbekning qon-qoniga singib ketgan udumi ustun kelib, Barchinoy mehmonlarni jilmayib kutib oldi. Hech narsa bo'lmaganday yelib-yugurib dasturxon yozdi, darrov ovqatga urindi. Shu payt tog'aning ko'kargan yonoqqa ko'zi tushdi. "E, yuzga nima bo'ldi, kelin? - dedi. O'rolboyning yuragi shuv etdi. Yo'q, Barchinoy ... erini noqulay vaziyatdan qutqardi. "Yosh ayolning bunday nozikfahmliligidan O'rolboyning qalbi tog'day ko'tarildi, go'yo qalbidagi mehr bulog'ining ko'zi ochilganday bo'ldi... Demak, haqiqiy insoniy tuyg'uni hissiyotgina emas, aql bilan yo'g'rilgan mehr yuzaga keltiradi. Hikoya shu hayotiy haqiqatni ifodalashi bilan ham qimmatlidir.

Darhaqiqat, "Er-xotin" hikoyasi ham yaxshi yozilgan, hayotiy bir asar. Qahramonlari ham o'zbekona milliy xarakterlari bilan o'quvchida qiziqish uyg'otadi. Ammo bir-ikki o'zni, nazarimizda, ishonarsizday: yosh ayol yuzidagi ko'karig'i bilan begona erkaklar yonida o'tirishi. Yana "ichkiliklardan quying", deb eriga buyurishi, unga tuzlangan bodring uzatishlari... Bizningcha, qahramonlar holatini tasvirlashda hayotiy haqiqatdan biroz chekingan ko'rinadi. Bulardan qat'iy nazar, dastlabki hikoyalarda ham muallifning milliy tafakkuri, adabiy-estetik qarashlari, adabiyot va san'at haqidagi muhim fikrlari ifodalangan hamda ular ijodkor shaxs sifatida shakllanishida muayyan darajada zamin bo'lganini qayd etish o'rinli bo'ladi.

Tog'ay Murodning dastlabki hikoyalari va maqolalarida ham uning qalbi, tiynati-vujudida san'atni o'zgacha bir tuyg'u-oshuftalik bilan juda nozik va chuqur his etishi bo'lg'usi ijodkorga xos noyob bir qobiliyat ekanligini ta'kidlash dozim. Masalan, yuqoridagi hikoyalaridagi epizod-lavhalarda bu xislatlari yaqqol namoyon bo'lganligini ko'rish mumkin. Adibning "Ku-ku-ku", "Er-xotin" hikoyalari yoki ayrim maqolalarida jahonning mashhur rassomlari asarlaridan zavqlanish, hayratlanish tuyg'ulari, qushlarga mehr va havasi alohida ajralib turadi. "Inson qalbida tuyg'ular ko'p bo'ladi. Ushbu tuyg'ularni yuzaga chiqarib bo'lmaydi. Bunday tuyg'ular

faqat yurakda bekinib yotadi". Ushbu e'tirofda yozuvchi asarlarining musiqiy ohangdorligiga sabab adibning qonida, ruhida musiqa va tabiatga oshnolik borligi va bitganlari ham qo'shiq holida bo'lishiga intilishi ayon bo'ladi.

Tog'ay Murod ilk hikoyalaridagi tabiat bilan bog'liq lavhalar ham bo'lajak ijodkorning san'atga qiziqish-hayrat tuyg'ulari uning tabiatida, qonida bo'lganligiga dalildir. Adibning "Ku-ku-ku" hikoyasidagi quyidagi parchani ko'zdan kechiraylik: "Uyida jurnallardagi rasmlarni, Rembrandt, Rafael, Bottichellining nodir asarlarini tomosha qilib o'tiradi. Ayniqsa, Shishkinning "Bug'doyzor"iga uzoq tikilib qoladi. U ikki toifa odamlarga achinadi. Biri - Shishkinning rasmlari oldidan beparvo o'tgan odamga, ikkinchisi qushlar sayrayotganda so'zlashgan odamga. Shu payt daraxt shohlar ida qo'nib turgan qushlarning turli nag'madagi sayrashlari eshitiladi. U "Munojot"ni tinglayotganday boshini ma'yus egib, eshitadi. Yuzlariga tabassum yuguradi. O'rnidan turib, qo'llarini ko'ksiga qo'yadi-da, qushlarga ta'zim qiladi: - Ofarin, birodar, ofarin. Qulluq!..." Ushbu realistik tasvir zamirida tug'ma iste'dodi va ijodkor shaxsi shakllanib kelayotgan yosh adibning adabiyot va san'atga munosabati va intel lektual salohiyati o'ziga xos va umuminsoniy mazmunga ega ekanligi yaqqol seziladi. Bizningcha, Tog'ay Murod va boshqa adiblarimizning asarlarida G'arb va Yevropa adabiyoti va san'atiga taalluqli reminissensiyalari tilga olinsa-da, ularni rus va yevropalik ijodkorlar ta'siri bilangina izohlash yetarli bo'lmaydi. Chunki mumtoz adabiyotimiz va ayniqsa, Kamoliddin Behzod kabi buyuk musavvirlarimiz yaratgan qadimiy miniatyura san'ati Sharq va O'rta Osiyo xalqlari madaniyatida ham rivojlangani tarixdan ham ma'lum. Adabiyot va ijodni o'zining qismati deb bilgan barcha iste'dodli adiblar singari Tog'ay Murod ham o'z ijodini boshlar ekan, eng avvalo, adabiyotning vazifasini, san'atkorning jamiyat, xalq oldidagi yuksak burch-mas'uliyatini to'g'ri tushunib etadi, hamisha ularga sodiq qoladi. Masalan, u bolalik davridan boshlab yuritgan Kundaliklarida, "Men" deb atalgan hasbi holida, shuningdek, ayrim hikoya va qissalarida ham o'zining adabiyot, badiiy ijod hamda ijodkor shaxsi haqidagi muhim hayotiy kuzatishlarini bayon etadi. Adabiyotni va ijodni g'oyat mas'uliyatli, muqaddas soha deb bilgan adibning fikrlari teranligi bilan jahon adabiyotshunosligiga munosib hissa bo'lib qo'shiladi.

REALITI-SHOULARDA O'ZARO MULOQOTLI JANRLAR UYG'UNLIGI

Yulduz Akmalovna Artikova - f.f.n., dotsent, O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada rekreativ yo'nalishdagi teleko'rsatuv janrlaridan bo'lgan realiti shou tarkibidagi o'zaro muloqotga asoslangan janrlar tahlil qilinadi. Shuningdek, hayotiy voqealarga asoslangan realiti shoulardagi ijtimoiy tahliliy xususiyat televizion jurnalistika rivojida o'ziga xos o'rin egallashi borasida so'z yuritiladi. Izlanishda shuningdek, realiti shoularning publisistik o'ziga xosligi, janrlar palitrasi bo'yicha amaliy kuzatuvlar asosidagi ilmiy xulosalar qilinadi.

Аннотация: В данной статье анализируются жанры, основанные на взаимодействии в реалити-шоу, которое является одним из жанров развлекательного телевидения. Обсуждается также, что особое место в развитии тележурналистики занимает социальная аналитическая особенность реалити-шоу, основанных на событиях из жизни. В исследовании также делаются научные выводы, основанные на практических наблюдениях за журналистским своеобразием реалити-шоу и жанровой палитрой.

Abstract: This article analyzes genres based on interaction in reality shows, which is one of the genres of entertainment television. It is also discussed that a special place in the development of television journalism is occupied by the social analytical feature of reality shows based on life events. The study also draws scientific conclusions based on practical observations of the journalistic originality of the reality show and the genre palette.

Kalit so'z: televideniye, efir, auditoriya, axborot, janr, ko'rsatuv, rekreativ, jamiyat, realiti shou, loyiha, tomoshabin.

Ключевые слова: телевидение, эфир, аудитория, информация, жанр, шоу, развлечение, общество, реалити-шоу, проект, аудитория.

Keywords: television, broadcast, audience, information, genre, show, entertainment, society, reality show, project, audience.

Yurtimizda olib borilayotgan ochiqlik siyosati tufayli o'zbek televideniyesida jonli efirlar hajmi, auditoriya fikri aks etadigan muloqotga asoslangan interaktiv ko'rsatuvlar ko'lami ortdi. Mamlakat Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bu jarayonda jurnalistlar faoliyatiga jiddiy e'tibor qaratib, ular oldiga qator vazifalarni qo'yan: "Davlat va nodavlat tashkilotlarining axborot manbalari yanada ortib, aholi bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot qilish, odamlarni oylantirayotgan muammolarga tezkor munosabat bildirish, turli mavzular bo'yicha ochiq, xolis va tanqidiy fikr bilan chiqishda katta imkoniyatlar paydo bo'lmoqda. Axborot sohasida miqdor ko'rsatkichlarini sifat ko'rsatkichlariga aylantirish, milliy jurnalistikamiz taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqish - oldimizda turgan dolzarb vazifadir. O'zbekiston media kompaniyalari ham jahon axborot maydonida munosib o'rin egallab, global siyosiy-ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etishga intilmoqdalar"¹. Mazkur dolzarb vazifalarni amalga oshirishda matbuot, radio, internet jurnalistikasi barobarida televizion jurnalistikaning alohida o'rne bor.

So'nggi yillari yurtimiz efirida tahliliy telejurnalistikaga ehtiyoj ortdi. Bunga 2019-yilda o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi deputatligiga saylovlar jarayonidagi jonli efirdagi debatlar, saylovoldi tok-shoularni misol bo'ladi. Shu bilan birga tipologik o'zgarishlar hamda janrlar yangilanishiga siyosiy vaziyat ham ta'sir qiladi. Janrlarning o'zgarishiga yana - jamiyatdagi ijtimoiy -psixologik holat sabab bo'lishini qo'shimcha qilsa bo'ladi. Bunga pandemiya sharoitini misol qilishimiz mumkin - ijtimoiy izolyatsiya tufayli odamlarning ruhiyatida paydo bo'lgan salbiy holatni yaxshilashda OAV alohida o'rin tutib, bu davrda yangi shakldagi, janrdagi teleloyihalar, ko'rsatuvlar, yo'nalishlar paydo bo'ldi. Janrlarni o'rganish, tadqiq etish ta'sirchan teleko'rsatuv tayyorlashning vositalarini turkumlab, bu borada dolzarb muammolarni tahlil qilish uchun ham zarur. Mazkur tushunchaga oid ilmiy izlanishlar ham amaliy tajribaga, ham nazariyaga kerakligini mutaxassislar ta'kidlashadi: "Janr tushunchasi deganda reallikni tasvirlashni doimiy xususiyatga ega shakllangan ko'rinishini

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти: Матбуот ва оммавий ахборот воситалари ходимларига. <https://president.uz/uz/lists/view/5294>.

tushunish mumkin. Janrbo'linishlariga tipologik me'yorlar kiritiladi. Bunda – jurnalist material yaratilishining vosita va usullari, reallikni aks ettirishning yo'llari, tematik va funksional o'ziga xosligi kabi xususiyatlar hisobga olinadi. Unga ko'ra – amaliy faoliyat hamda zamonaviy jurnalistika muammolarining nazariyasini anglash uchun zarur bo'lgan janrlarning shakl, modifikatsiyasi, o'ziga xosliklarning ma'lum miqdori aniqlanadi”².

Rekreativ telekontentning ommalashuvini tijoriy televideniye asosiy formatini ko'ngilochar kontent egallashi, hamda dam olish va ma'naviy hordiq ulashuvchi manbalar bo'lgan teatr, kino, musiqiy konsertlar o'rnini hozirda ularga nisbatan arzonroq, bepul bo'lgan televideniye egallayotganligini ta'kidlashyapti. Bu orqali jamiyatda ma'naviy va ruhiy ozuqa teleindustriyaviy ommaviy madaniyat ko'rinishlarini kasb etmoqda. “Yuqori texnologiyalar rivojlanishi ma'naviyat mahsulotlarni – turli ehtiyojlar qatori, auditoriyaning rekreativ talabini qondiruvchi ommaviy ishlab chiqarishga yo'naltirdi. Ommaviy madaniyatni ishlab chiqaruvchi va translyatsiya qiluvchi OAV auditoriyaning rekreativ ehtiyojlarini qondiruvchisi bo'lishmoqda. Boshqa jihatdan, rekreativ funktsiya reklama bozorini harakatga keltiruvchi katta kuchdir. Sayohat, madaniyat muassasalarga tashrif buyurish, sport bilan shug'ullanishga nisbatan OAV orqali dam olish kamharj, oson hamda hammabopdir. Aynan shu xususiyat – OAV rekreativ funktsiyasidan millionlab auditoriya foydalanayotganini izohlash mumkin”³. Tijoriy telekanallarda televideniye loyihalar o'z-o'zini oqlash, daromad keltirish, auditoriyaning o'ziga jamlash uchun bevosita tomoshabinlar ishtiroki asosida qurilishini taqozo etadi. Tok–shou janrining ommalashuvi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Tok–shouda spektakldagi tomoshabin sifatida emas, studiyadagi suhbatdoshga savol beruvchi, u bilan muloqotga kirishuvchi bo'lib faollashgan auditoriya ko'rsatuvda kommunikatsiya jarayonining mustaqil subyektiga aylanadi. Tomoshabinning o'zi ishtirok etishi va ko'rsatuv qahramoni bo'lishi interaktiv telejandagi ko'rsatuvlarning o'ziga xosligini belgilaydi. Rekreativ teleshoularda taniqli aktyorlar va hakamlar asosan mashhur media biznes vakillaridan iborat. Bevosita oddiy xalq vakillaridan iborat real hayotga yaqinlashtirilgan zamonaviy telejanr bo'lgan realiti shoularda ham telehou, ham teleo'yin janrlarining uyg'unligini ko'rish mumkin. Avvaldan rejalashtirilmagan, sahnalashtirilmagan voqelikni aks ettiruvchi

ko'rsatuvlarda, ishtirokchilar rol o'ynamay, kundalik hayotdagi real xarakterlarini ochib berishadi, xatti–harakatlarni tabiiy bajarishadi. Bu real hayotni aks ettiruvchi televideniye janr bo'lib, tomoshabin ishtirokchilarga ovoz berishi, hakam va mutaxassislar bilan ishtirokchilarning muloqoti kiritilishi mumkin. G'olib bo'lgan ishtirokchi navbatdagi bosqichga yo'llanma olishi yoki pul mukofotiga ega bo'lish shartlari qo'yiladi. Yurtimiz tijoriy telekanallarda bo'lgan “Sevimli” orqali efirga uzatilgan “Zirapcha”, “Sen va men”, “Zo'r TV” dagi “O'zbekiston go'zali” realiti shoulari misolida bu janrning o'ziga xosligini tahlil qilish mumkin. “Zirapcha” realiti shousiga ijtimoiy hayotda yo'lini qiyinchiliklarga uchragan, kundalik turmushga moslasha olmayotgan qizlar tanlab olinadi. Loyiha jarayonida ularga turli shartlarida o'zlarining imkoniyatini sinovdan o'tkazish vazifasi beriladi. Vazifalar ijtimoiy, jismoniy, ruhiy yo'nalishlarda beriladi. Ishtirokchilarni ruhiy, ma'naviy tarbiyalash uchun berilgan shartlarni qizlarni bajarish jarayonidagi hissiyotlaridan intervyular loyihaga kiritiladi. Shu bilan birga har bir shartni bajarish holatida qizlar jamoasidan iborat jamoaning hissiyotlari, holatlari, replikalari tabiiy holatda tasvirga tushirilib, ko'rsatuvda namoyish etiladi. Boshlovchi Rayhon Ulasenova yo'nalish bo'yicha tanlangan hakamlar bilan birga qizlarning vazifa bajarish shartlarini baholab boradi. Mazkur realiti–shouning ijtimoiy ahamiyati yuqori bo'lib, jamiyatdagi turli muammolarni sahnalashtirilmagan holatda borligicha teleekranda aks ettirishi bilan ahamiyatlidir. Taniqli shou biznes vakillari ishtirok etadigan teleshoulardan farqli o'laroq realiti–shouda tomoshabin – hayotda ko'p uchraydigan oddiy odamlar kundalik muammolari, tashvishlari bilan tanishadi. Ularning so'zlab bergan shaxsiy hikoyalari real hayotdan olinganligi, ishtirokchilar tomoshabiniga ruhiy yaqinligi bilan bu kabi loyihalarning reyting ko'rsatkichlarini yuqori bo'lishiga zamin hozirlaydi. Jamiyatdagi zaif qatlam bo'lgan xotin–qizlarning muammolari turli rakurslarda olib chiqilishi mazkur realiti–shoudagi auditoriyaning e'tiboriga sazovor qildi. “Sevimli” telekanalining asosiy maqsadli auditoriyasi xotin–qizlardan iborat ekanligi, “Zirapcha” realiti–shouning yo'nalish va mavzusi kanal formatiga mosligi bilan diqqatni tortadi. Ya'ni, bunday hayotiy voqelikni efirga olib chiqilishida, albatta, telekanal tipologiyasi, janr va yo'nalishining to'g'ri tanlanishining ahamiyati katta. Mazkur telekanalda efirga uzatilgan “Sen va men” realiti shousida esa, ajralish yoqasida turgan

2 Цвик В.Л. Телевизионная журналистика: История, теория, практика: Учебное пособие // – М.: Аспект Пресс, 2004. – с. 25.

3 Федотова Н.А. Рекреативные функции СМИ: содержание и стратегии реализации. Автореф. дисс. на соиск. Уч. степени к.ф.н. М.МГУ им. Ломоносова: 2010

oilalar, ularning muammolarini yechimini topishda turli oilalarni bir muhit, turli vazifalar orqali hayotlariga, o'zaro munosabatlariga boshqacha nazar bilan qarashga o'rgatadi. Mazkur ko'rsatuvda ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan oila mustahkamligi, oiladagi ikki insonning o'zaro munosabati, ularning taqdiri orqali jamiyatning tayanch nuqtasi bo'lgan oila muammolarining efirga olib chiqilishini ko'rish mumkin.

Juftliklarga alohida – alohida blits shaklda oiladagi zo'ravonlik masalasi bo'yicha savollar beriladi: “Erkak nima uchun ayolini urishni xohlaydi?”, “Sizning turmushingizda erkak ayolga qo'l ko'tardimi?”, “Turmushingizdagi eng yomon zo'ravonlik qay darajada bo'lgan?”, “Oilangizda erkak qo'l ko'tarsa ayol qanday himoyalanaadi?”, “Zo'ravon erkakni qanday jazolash kerak deb hisoblaysiz?”. Shou davomida oilaviy juftliklarga turli shartlar berilib, ularning psixolog, mutaxassislar suhbatlari davomida ichki ruhiy muvozanatlarini tiklashga yordam berishga harakat qilinadi.

Realiti–shoularning o'ziga xos xususiyati loyiha mualliflari tomonidan sun'iy hosil qilingan olam ichida ko'rsatuv qahramonining hayotini tomosha qilish imkoniyatini beradi. Rejissor va montaj ustalari bir nechta kameralar orqali turli rakurslardan olingan tasvirlarni eng qiziqarli, ko'rimli jihatlarini tanlab efirga olib chiqishga harakat qilinadi. Tomoshabiniga boshqa bir insonning hayotini ko'rish, kuzatish imkoniyati beriladi. Loyihaning ijtimoiy ahamiyati bilan birga ba'zi bir shaxsiy daxlsizlik masalasi ham aktual hisoblanadi. Chunki realiti shou ko'rsatuvining ishtirokchilari loyihada qatnashish asnosida o'zlarining shaxsiy muammolarini millionlab odamlar ko'rishini, ularning ba'zi o'ta nozik masalalarni efirga olib chiqilishida – etikaviy me'yorlar buzilishini bilishlari kerak. Mazkur dasturlar xorijiy davlatlarda nihoyatda ommalashgan bo'lib, Niderlandiyada “Katta aka”, “Katta parhez”, Rossiyada “So'nggi qahramon”, AQShda “Alive” kabi realiti shoulari mashhur. Bir necha yillar avval oiladagi zo'ravonlik masalasini efirga olib chiqish sharqona mentalitetimizga to'g'ri kelmasligi bo'yicha bahslar ko'tarilgan bo'lsa, hozirda oilaviy masalalarning efirga kirib kelishi odatiy holga aylandi. Realiti–shoularning ommalashuvi, shaxsiy muammolarining efirga olib chiqilishini milliy mentalitet, odob–axloq masalalar bilan to'qnashuv muammosi – soha mutaxassislari oldida turgan vazifalardir. Yuqorida tahlil qilingan realiti–shouda intervyu, suhbat, blits–intervyu, ijtimoiy so'rov kabi janrlarning dastur

tarkibiga kirganligini kuzatishimiz mumkin.

Realiti shou zamonaviy texnologik imkoniyatlar tufayli paydo bo'lgan yo'nalish bo'lsa-da, uning tarkibida mumtoz jurnalistik janrlarning uyg'unligini ko'rishimiz mumkin. Sof holdagi janrlar amaliyotda kam uchrab, zamonaviy teleindustriyada bir nechta janrlarning uyg'unligi kuzatilib, ular dasturning ko'rimlili, qiziqarli xususiyatlarini yanada oshirish uchun xizmat qiladi. Muloqotga asoslangan tok–shou, teleshoularning aksariyatida dialogik janrlarning bir necha ko'rinishlari namoyon bo'lib, interaktiv televideniye dastur uchun odatiy holdir. Ulardan farqli holda, realiti–shouda badiiy to'qima aralashmagan hujjatli publitsistika ko'rinishlari mavjud bo'lib hayotiy voqelikni aks ettirilishi bilan diqqatga sazovordir. Ya'ni, shou uchun tanlab olingan ishtirokchilar o'ylab topilgan obraz, personaj yoki qahramon bo'lmay, o'z hayoti, taqdiriga ega insonlardir. Ko'rsatuv efirga chiqqanidan so'ng ham, loyiha qatnashuvchilarning efir paytida aytgan gaplari ijtimoiy hayotda muhokama bo'lib, huquq tartibot organlari tomonidan belgilangan choralarni ko'rishga ham sabab bo'lgan. “Majburlikdan unday qildim, bunday dedim”, kabi so'zlar tez–tez quloqqa chalinib turadi. Ammo bu so'z odamning o'zini, qilmishini oqlashiga bahona bo'la oladimi? Bugun e'tiboringizga havola etilayotgan sud hukmi qahramoni “Sevimli” telekanalida namoyish etilgan “Zirapcha” ko'rsatuvining ishtirokchisi, hammaga yaxshi tanish bo'lgan, sirdaryolik Xumora Iminjonovadir. U ko'rsatuv davomida majburlikdan amakisining molini o'g'irlaganini hech kimdan yashirmagan edi. Yaqinda unga nisbatan sud hukmi o'qildi”⁴. Ya'ni, efirga ketgan realiti–shoudagi jarayonlar haqiqiy hayotda ham davom etib, OAVda yoritilishi realiti–shou loyihasining hujjatli publitsistik xususiyatini namoyon qiladi. Ko'rsatuv ishtirokchilari efirga so'zlab bergan voqealari to'qima gaplar bo'lmay, voqealar real hayotda ro'y berganligini isbotlaydi. Realiti–shoularning bu xususiyati publitsistik ko'rsatuvlarga yaqin bo'lib, ijtimoiy effekti tok–shou dasturlarining samaradorligiga o'xshash. Tok–shou dasturlarida qahramon studiyadagi suhbatda fikr–mulohazalarini bildirsa, realiti shouda loyiha ishtirokchisi sifatida o'zining his tuyg'ularini ifoda etadi. Bu jurnalistik intervyu shaklida yoki sahnalashtirilish orqali shakllangan xatti–harakatlar holatida ham bo'lishi mumkin. Realiti–shoularning hujjatli publitsistik xususiyatlari bu janrning jahonda nihoyatda ommalashuvini belgilab bergan. Rekreativ yo'nalishdagi loyihalar orasida

4 <https://student-servis.ru/spravochnik/zhanry-televizionnoj-zhurnalistiki>.

5 <https://darakchi.uz/uz/85321>.

realiti shoular hujjatli publitsistik xususiyati bilan ahamiyatlidir. Ularda real insonlarning hayoti va muammolari aks etishi, dastur yakunlanganidan keyin ham qahramonlarning taqdiri OAVda yoritilishi interaktiv jarayonning televideniya namoyon bo'lishiga misol bo'la oladi.

Realiti shoularda teleo'yin, badiiy sahnalashtirish, intervyu, suhbat, ijtimoiy so'rov kabi janrlarning uyg'un holda kelayotganligini ko'rish mumkin. Realiti-shoularda ham rekreativlik, ham tahliliylik, ham hujjatlilik xususiyatlari namoyon bo'ladi. Ularning yo'nalishini aniq sof holda belgilab bo'lmaydi. Turli yo'nalishlar va janrlarning uyg'unligi mazkur ko'rsatuvning o'ziga xosligi, ko'rimlilikini belgilaydi. Aynan janrlarning o'zgaruvchanligi teleko'rsatuvning dinamikasini hosil qilib, tomoshabinni ekran oldidan uzoqlashtirmaslik uchun xizmat qiladi. Rekreativ yo'nalishdagi realiti-shoularda esa, loyiha ishtirokchilari oddiy auditoriya vakillari ichidan tanlab olinishi orqali dasturlar xalqchilligi ta'minlanadi. Boshlovchi, mutaxassis hamda ko'rsatuv ishtirokchilari o'rtasidagi muloqot, bahs, munozaralar bu yo'nalishdagi dasturlarda ham interaktiv

jarayonlar rivojlanishiga zamin hozirlaydi. Realiti shoulardagi hayotiy reallikning aks etishi mazkur loyihalarning ijtimoiy ahamiyatini oshirib, reyting ko'rsatkichlarini yuqori bo'lishiga sabab bo'ladi.

Rekreativ yo'nalishdagi loyihalar orasida realiti-shoular hujjatli publitsistik xususiyati bilan ahamiyatlidir. Ularda real insonlarning hayoti va muammolari aks etishi, dastur yakunlanganidan keyin ham qahramonlarning taqdiri OAVda yoritilishi interaktiv jarayonning televideniya namoyon bo'lishiga misol bo'la oladi. Realiti-shoularda teleo'yin, badiiy sahnalashtirish, intervyu, suhbat, ijtimoiy so'rov kabi janrlarning uyg'un holda kelayotganligini ko'rish mumkin. Realiti-shoularda ham rekreativlik, ham tahliliylik, ham hujjatlilik xususiyatlari namoyon bo'ladi. Ularning yo'nalishini aniq sof holda belgilab bo'lmaydi. Turli yo'nalishlar va janrlarning uyg'unligi mazkur ko'rsatuvning o'ziga xosligi, ko'rimlilikini belgilaydi. Aynan janrlarning o'zgaruvchanligi teleko'rsatuvning dinamikasini hosil qilib, tomoshabinni ekran oldidan uzoqlashtirmaslik uchun xizmat qiladi.



axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi, shu jumladan turizm kollejlari ham. Biz ATdan bo'lajak gid-tarjimonlarni o'qitishda unumli foydalanyapmizmi mana shu eng og'riqli savol. Turizm mamlakatimiz iqtisodiy uchun juda katta mablag' olib keladigan soha. Butun dunyo bo'yicha turizm exporti hajmi yoqilg'i (2,310 milliard dollar), ximikatlar (2,194 milliard dollar) dan keyin 1,742 milliard dollar foyda keltirishi bilan 3-o'rinda turadi, undan keyin avtomobil mahsulotlari (1,528 milliard dollar), oziq ovqat mahsulotlari (1,502 milliard dollar)¹.

7000 ortiq turli ziyoratgohlar bo'lib O'zbekistonda bu sohada ulkan imkoniyatlar mavjud. Shunday ekan turizm sohasining bo'lajak mutaxassislarini sifatli qilib tayyorlash dolzarb vazifa. Ichki turizm ham davlatimiz rahbarining doimiy nazoratida. Bayramlarda sayohat qilish uchun ajratilayotgan chegirmalar bunga bir misoldir. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev "Bolalar sayyohlik bazalari" "Barkamol avlod" bolalar maktablarining "Yosh sayyoh", "Yosh ekskursovod", "Yosh o'lkashunos" to'garak a'zolari uchun o'lkamiz tarixi, qadimiy va muqaddas qadamjolar, milliy urf-odatlarimiz bilan yaqindan tanishtirish, atrof-muhitni muhofaza qilish va asrash, bolalar o'rtasida ekologiya hamda sayohat qilish madaniyatini yuksaltirish maqsadida tashkil etiladi², deb ta'kidlagani bejiz emas, bu vazifalar albatta amalga oshadi, bajariladi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun kadrlar salohiyati va chuqur bilim talab qilinadi. Biz o'tkazmoqchi bo'lgan tadqiqot qanday qilib turizm kolleji o'quvchilarini kasbiy kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan.

Gid-tarjimon tayyorlashda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish masalalari bilan bog'liq tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Instituto Federal de Educaçao, Ciênci e Tecnologia do Rio Grande do Sul (IFRS) (Braziliya), Universidade do Vale do Itajaí (UNIVALI) (Braziliya), Hospitality, Tourism, and Event Management, Southern Illinois University, Carbondale, IL, USA; School of Business and IT, Purdue University Global, Lewiston, ME, USA (AQSh), School of Business Administration, Fort Lewis College, Durango, CO, USA (AQSh), South Ural State University, Institute of Sports, Tourism and Service, (Rossiya), EHL - Ecole Hôtelière de Lausanne, Switzerland, University of Nevada, Las Vegas, US, Glion Institute of Higher Education, Switzerland, Les Roches

Global Hospitality Education, Switzerland, Swiss Hotel Management School, Switzerland, Hotel School the Hague, Netherlands, Hong Kong Polytechnic University, Hong Kong SAR, University of Surrey, UK, Oxford Brookes University, UK, Bournemouth University, UK, Hong Kong Polytechnic University, Hong Kong SAR, University of Central Florida, US, Griffith University, Australia, Sun Yat-sen University, China, University of Surrey, UK, Purdue University, US, Pennsylvania State University, US, University of Queensland, Australia, Sejong University, South Korea, Bournemouth University, UK, "Ipak yo'li" turizm xalqaro universiteti (O'zbekiston)da olib borilmoqda.

Ushbu masalaga bag'ishlangan yaqinda o'tkazilgan tadqiqotlar va nashrlarning tahlili bizga kasbiy tayyorlashning mazmuni va usullarining ayrim masalalari E.V.Krasilnikova³, Sun Chjentsyan⁴ va boshqalarning dissertatsiya ishlarida va nufuzli jurnallardagi maqolalarida batafsil ko'rib chiqilganligini tasdiqlash imkonini beradi. Ammo gid-tarjimonlarning kasbiy qayta tayyorlashning zamonaviy muammolarini o'rganish uni hal qilish, amaliyotga tatbiq etish bo'yicha o'tkazilgan ilmiy izlanishlarni topa olmadik. Gid-tarjimonlarning zamonaviy mehnat bozorida muvaffaqiyatli raqobatlashishiga imkon beradigan bunday kasbiy mahorat darajasini ta'minlaydigan usullarning yechimi noma'lum bo'lib qolmoqda. Hozirgi davrda rivojlangan davlatlar aholisiga xos bo'lgan turizm shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Turizm (Frans. tour - sayr, sayohat), sayyohlik – sayohat (safari) qilish; faol dam olish turlaridan biri. T.Deganda jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda uzog'i bilan 1 yil muddatga jo'nab ketishi (sayohat qilishi) tushuniladi⁵. Mamlakatimiz 1992-yil Butunjahon turizm tashkilotiga (BTT)ga a'zo qilindi va 1994-yil BMT, YUNESKO, O'zbekiston hukumati tashabbusi bilan Samarqand shahrida dunyo turizm yo'nalishlarida alohida o'ringa ega bo'lgan "Ipak yo'li" dasturi qabul qilindi. O'zbekistonlik olimlar turizmni 7 ta tasnifiy belgiga va 41 ta turizm turlariga ajratishgan. O'zbekistonlik mutaxassislarining kommunikativ kompetensiyasining hozirgi holati va ularning yutuq darajasi haqida batafsil ma'lumot berilgan. O'tgan asrning 60-yillarida D.Xayms (Dell Hymes) "kommunikativ

TURIZM KOLLEJLARI O'QUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH NAZARIYASINING BA'ZI TAHLILLARI

Abdunazar Xatamnazarovich Jo'rayev - dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya: Maqola turizm kollejlari o'quvchilarining turizm sohasida kasbiy kompetensiyasini shakllantirishdan oldin uni o'rganish nazariyasining ahamiyatini yoritadi. Turistlar bilan eng ko'p muloqotda bo'luvchi gid-tarjimonlarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish muammosi turizm sohasidagi kollejlarda ingliz tili o'qitishning eng muhim vazifalaridan biri ekanligi tahlil qilinadi.

Аннотация: В статье освещается значение теории формирования профессиональной компетенции перед обучением студентов туристических колледжей. Анализируется, что проблема формирования профессиональной компетентности гидов-переводчиков, наиболее активно взаимодействующих с туристами, является одной из важнейших задач преподавания английского языка в колледжах в сфере туризма.

Abstract: The article covers the importance of the theory of its study before the formation of professional competence of students of Tourism colleges. It is analyzed that the problem of the formation of professional competence of guides-translators who interact most with tourists is one of the most important tasks of teaching English in colleges in the field of Tourism.

Kalit so'zlar: turizm, kasbiy kompetensiya, korpus lingvistikasi, gidlar, ko'nikmalar, gapirish.

Ключевые слова: туризм, профессиональная компетентность, корпусная лингвистика, гиды, навыки, говорение.

Keywords: tourism, professional competence, corpus linguistics, guides, skills, speaking.

Hozirgi ta'lim jarayonini, ilm fanni bilim oluvchilarga cheksiz imkoniyat beruvchi

1 <https://www.e-unwto.org/doi/book/10.18111/9789284422456> - Friday, March 26, 2021 10:33:02 AM - IP Address:82.215.101.49

2 Xalq ta'limi tizimidagi maktabdan tashqari ta'lim samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston respublikasi prezidentining qarori. Toshkent sh., 2019-yil 30-sentabr, PQ-4467-son

3 Красильникова Е.В. Методика формирования лингво-профессиональной компетенции у будущих гидов-переводчиков в системе дополнительного профессионального образования (на материале французского языка). Дисс. ...докт. пед. наук. - Ярославль. 2011. -187 с

4 Сунь Чжэньцян Формирование коммуникативной компетенции китайских гидов в профессиональной деятельности на русском языке как иностранном. Дисс. ...канд. пед. наук. - М. 2017. -159 с

5 <https://qomus.info/oz/encyclopedia/t/turizm/>

kompetentsiya” kontseptini fanga kiritdi. D.Xaymsning fikriga ko’ra, kommunikativ kompetentsiya mazmuni tilga bog’liq holatni ichki sezgi asosida bilishdir. kommunikativ kompetentsiya tuzulishi o’z ichiga grammatik, sotsiolingvistik, strategik, diskursiv kompetentsiyalarni oladi. D.Xaymsning ushbu nazariyasi ikkinchi chet tilini o’qitishda muhim hissa bo’lib hisoblanadi va bu chet tillarini o’qitishdagi muhim qadamlardan biri bo’ldi. Kanadalik tilshunoslar M.Canale va M.Swain 1980-yilda keyinchalik M.Canale 1983-yilda kommunikativ kompetentsiya nazariyasini rivojlantirishda davom etdilar va o’sha davrdan boshlab ushbu tushuncha keng tarqala boshladi. Ular bilimlar tizimi va qobiliyatlar bilan birga muloqotni shakllantiradigan kompetentsiyaning asosiy to’rtta turini ajratishdi. Bular:

- grammatik kompetentsiya (leksika, fonetika, to’g’ri yozish, semantika va sintaksis);
- sotsiolingvistik (aniq nutq jarayonida shakli va tuzilishi bo’yicha kontekstga mos keluvchi);
- diskursiv kompetentsiya (og’zaki va yozma nutqda mantiqan bog’langan iboralarni tuza olish);
- strategik kompetentsiya (chet tilda muloqot jarayonida nutqiy va ijtimoiy bilimlardan kelib chiqib tilni yetarli darajada bilmaslikni muhim manbalar bilan o’rnini to’ldirish).

1970-yillarning boshlarida “communicative language teaching” paydo bo’lganidan buyon tillarni o’qitish sohasidagi ko’plab olimlar o’rtasida muhokama mavzusi bo’lib kelgan. “communicative language teaching” xususiyatlarini aniqlash va ta’riflashga qaratilgan ko’plab maqolalar va kitoblar chop etilgan. Boshqa tadqiqotchilar va amaliyotchilar “communicative language teaching” va kommunikativ kompetentsiyaning asosiy elementlari to’g’risida turli xil maqolalar yozdilar va ma’ruzalar o’qidilar. Shuncha ilmiy ishlarga qaramay kommunikativ kompetentsiya ga to’liq yagona ta’rif haligacha berilmagan. Tilni kommunikativ kompetentsiya asosida o’qitishda darsda nafaqat o’qituvchini balki o’quvchilarning rolini ham e’tiborga olish kerak. Talabalarga har xil kontekstda va turli rollarda mazmunli muloqot qilish mashqlarini bajarish imkoniyatini beradigan turli xil kommunikativ tadbirlar mavjud (masalan, o’yinlar, rolli o’yinlar, simulyasiyalar va muammolarni hal qilish vazifalari). Ushbu tadbirlarni bajarish jarayonida o’quvchilarning ona tilidan foydalanmasligi va xatolarni tuzatishi kamdan-kam hollarda bo’lishi mumkin⁶.

Gid tarjimon chet tilida samarali muloqot qila olishlari kerak. Sayohatchilaringiz siz

baham ko’rgan ma’lumotlar va g’oyalarni tushunishlari juda muhimdir. Gidlarning samarali muloqot qilishlari uchun aloqa qobiliyatlarining ochiq muloqot, faol eshitish, aniq va kerakli ohangda gapirish, noverbal aloqa kabi tarkibiy qismlari bor.

Turizmning asoschisi hisoblanmish ingliz ruhoniysi Tomas Kuk 1843-yilda 1 temir yo’l sayyohligini tashkil qildi. Shundan so’ng u o’zining xususiy turistik korxonasini tuzdi va 1866-yil dastlabki sayyohlik guruhi AQShga jo’natildi. Sharqda Arab sayyohi Ibn Battuta 21 yoshida sayohatini boshlab, deyarli barcha Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlarini piyoda kezib chiqdi⁷.

Mamlakatimiz dunyodagi mamlakatlar orasidagi uzoq asrlarga borib taqaladigan tarixi, madaniyati, dini va madaniy me’rosiga boy davlatlardan biri sifatida uzoq vaqtlardan buyon sayyohlarni jalb qilishi bilan e’tirof etiladi. Xalqaro amaliyotning ko’rsatishicha siyosat, iqtisod, madaniyat sayyohlikni rivojlanishiga o’z ta’sirini ko’rsatadi va xalqaro sayyohlik doimo davlat nazoratida bo’ladi. Oxirgi yetti yilda butun dunyoda sayyohlik eksporti savdo sotiqdan ko’ra tezroq o’sib mamlakatlarning savdo defisiti o’rnini to’ldirib kelmoqda xalqaro turizmdan davlatlarga keladigan daromad to’g’risida kirish qismida gapirib o’tildi. Shunday ekan mamlakatga tashrif buyuradigan turistlariga sifatli va malakali xizmat ko’rsatadigan gid-tarjimonlarning professionaligini oshirish, muloqot jarayonini qiziqarli va hammaga ma’lum bo’lmagan axborotlarni berish uchun metodik tashkil etish zarur. Mamlakatimizni turistlarga taqdim qiluvchi javobgar shaxs gid (gid-tarjimon) – axborotga oid va tashkiliy xizmatlar ko’rsatish, turistlar va ekskursantlarni vaqtincha bo’lish mamlakatidagi (joyidagi) turistik resurslar bilan tanishtirish uchun kasbiy jihatdan tayyorgarlik ko’rgan, O’zbekiston Respublikasi rezidenti bo’lgan jismoniy shaxs. Turizm sohasida

- ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish va rivojlantirish;
- kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- ilg’or innovasion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy etilishini rag’batlantirish zarur;
- tegishli ma’lumotga, malaka sertifikatiga ega bo’lishi va o’z vaqtida malaka oshirishdan o’tishi;
- mamlakatning tarixi, madaniyati, etnografiyasi, iqtisodiyotini va boshqa sohalarini rasmiy yoki ishonchli manbalardan bilishi belgilab qo’yilgan, shunday ekan gid-tarjimonlarning xorijiy tillardagi bilim, ko’nikma, malakasini shakllantirish va so’ngra takomillashtirish dolzarb vazifadir.

⁶ Kodirova Z.Z. “Ta’lim makonini xalqarolashtrish sharoitida chet tillarni o’qitishning innovatsion texnologiyalari” maqolasi xalq ta’limi vazirligining “Til va adabiyot o’qitish” ilmiy-uslubiy jurnali, Toshkent, 2018. –P.71–75.
⁷ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Turizm>

Zamonaviy tilshunoslikda tadqiqotning maqsadi tilning rasmiy tuzilmasidan ijtimoiy interaktivlikdagi til birliklarining tizimli va semantik tashkilotiga o’tkaziladi. Ushbu yondashuv subyekt munosabatlaridan, subyekt ta’siridan kelib chiqadi va umumiy psixologiya muammolari, nutq faoliyati nazariyasi bilan bog’liq. Shunday qilib, har qanday muloqot intersubjektiv muloqotni o’z ichiga oladi: nutq aloqasi odatda dialogik nutq prinsipi (M.M.Baxtinning g’oyasi) bilan bog’liq. Nutqdagi til konventsiyasi virtual konsepsiyalarni muayyan nutq hodisalari tushunchalariga o’tish sifatida amalga oshiriladi. Tahlil qilingan leksikografik manbalarning aksariyatida “innovatsion pedagogik texnologiya” tushunchasi to’rtta fikrni hisobga olgan holda tushuntiriladi: maqsadga muvofiqligi, yaxlitligi, yangiligi va tizimli o’zgarishlar. Ta’lim amaliyotiga yaqindan qarab, ko’p hollarda innovatsion texnologiyalar axborot bilan aniqlangan degan xulosaga kelish mumkin, ma’lum darajada faqat ikkita pozitsiyani - zamonaviy qurilmalarning texnik xususiyatlarini tezda takomillashtirish orqali qo’llab-quvvatlanadigan yangilikni va birinchi pozitsiyadan olingan tizimli o’zgarishlarni qayta ishlab chiqaradi. Boshqa tomondan, o’zgarishlarning yaxlitligi va maqsadga muvofiqligi axborot texnologiyalarini qo’llashdan tashqarida. Ya’ni, biz mantiqiy xulosa chiqaramiz: axborot texnologiyalarini joriy etish bilan bog’liq barcha narsalar innovatsion texnologiyalar deb hisoblanishi mumkin, ammo innovatsion texnologiyalar ko’pincha cheklanmaydi. Ikki tekislikda innovatsion texnologiyalarni joriy etishni ko’rib chiqish maqsadga muvofiq: axborot-kommunikatsiya va kommunikativ - faoliyat. Shuni ta’kidlash kerakki, ular juda chambarchas bog’langan, ba’zan ularni ajratish qiyin. Jahon amaliyotida chet tillarni o’qitishning innovatsion texnologiyalarini qo’llashning ayrim misollari ko’rib chiqildi. Oliy ta’limda xalqaro o’zgarishlarning fonida innovatsion amaliyotlarni ko’rib chiqadigan bir qator xorijiy tadqiqotlar mavjud. Avvalo, innovatsion axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yangi til amaliyotlariga erishish maydonini kengaytirmoqda, faqat bitta “klik” ispan jamiyatiga va cheksiz ko’p original matn manbalariga kirish imkonini beradi. Yevropa fuqarolarining turli loyihalari va dasturlari tufayli akademik almashinuvlar, o’quv safarlari, mobil til kurslari va shunga o’xshash shakllarga ega bo’lgan yangi mobillik imkoniyatlari paydo bo’ldi⁸. Til ta’limi va kommunikativ-faol axborot maydonini kengaytirishga qaratilgan bo’lib, ular birgalikda inson faoliyati jarayonida interaktivlikni ta’minlashga qaratilgan. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari

tabiiy til muhitini sinf xonasiga ko’chirishi mumkin bo’lsa, axborot va faoliyat komponenti auditorlik madaniyati orqali keltirilishi mumkin. M.Brinning ta’kidlashicha, “Audit madaniyati nafaqat o’qituvchilar va talabalar o’rtasidagi muloqotning samarasidir, balki jismoniy makonning namoyon bo’lishi, bu esa o’z navbatida qadriyatlar, an’analar va siyosiy ustuvorliklar bilan bog’liq yanada kengroq ijtimoiy kontekstni anglatadi”. (3.Davison Chris, 2005) Axborot texnologiyalari tufayli talabalar turli yoshdagi, madaniyat va ijtimoiy maqomdagi odamlar bilan muloqot qilish imkoniga ega. Butun dunyodagi shaxslar va guruhlar bilan sinxron va asenkron interaktsiya mavjudligiga qaramasdan, o’qituvchilar “badiiy” faoliyatni (rol o’yinlari, biznes o’yinlar, taqlid va h.k.) rag’batlantirishga hojat yo’q. Lekin ularning asosiy roli haqiqiy muloqotni tashkil qilishdir. Suhbat xonalari, kamroq interaktiv – e-pochta va telekonferentsiyalar ko’proq interaktiv aloqa xujayralari hisoblanadi. Shunday qilib, interaktivlik, bir tomondan, matn toifasi sifatida, virtual kommunikativ makonda aloqa shakliga qarab, aniq FBO implicitno tomondan amalga oshiriladi. Boshqa tomondan, muayyan til kommunikativ holati har qanday til tizimiga ta’sir qiluvchi nutq hodisalari mavjudligini aniqlaydi. Tarmoqda muloqot qilishda qabul qilingan ko’plab til formulalari va grafik belgilar paydo bo’lishi yozma nutqni og’zaki tilga yaqinlashtirish istagi bilan bog’liq, shuningdek, xabarni kiritish jarayonini tezlashtirish istagi bilan bog’liq. Tarmoqda muloqot qilish ehtimoli, shuningdek, kompyuter jargonining g’ayritabiiyligiga olib keldi, aslida uni boshqa professional va bu mavjudlik ma’lum bir yozma kanalning og’zaki shakli bilan birga ommaviy jargonlarning asosiy qismidan ajratib turadi. O’ziga xoslik, aslida, tarmoqdagi apellyatsiya nafaqat yangiliklarni o’zgartirish uchun emas, balki jonli suhbat uchun ham og’zaki muloqotning muayyan nuqtayi nazaridan uni yaqinlashtiradi. Hatto ingliz tilidagi “technobable” to’lab-gapirish kompyuter jargoni uchun maxsus atama ham mavjud.

Shunday qilib, aloqa vositasi sifatida ingliz tili yangi texnologiyalarga va yangi vaqtga moslashadi. Kompyuter fanlari kontekstida neoplazmalarga moslashuvchan, uning soddalashtirilishi va mazmunli potentsialini hisobga olgan holda ochiq tizimdir. Shu bilan birga, u so’z qurish va semantik jarayonlarda ingliz tilining sezilarli ta’siri ostida bo’ladi. Ingliz tilida so’zlashadigan nutq og’zaki va yozma-grafik shakllarning o’ziga xos nutq hodisalari bilan aloqa virtual maydonida amalga oshiriladi. Zomin, Toshkent, Xiva turizm kollejlari ingliz tilini o’qitishga bag’ishlab o’tkazilgan tadqiqotlarimiz, axborot

⁸ Davison Ch. *Information Technology and Innovation in Language Education* / Chris Davison // Hong Kong: Hong Kong University Press, 2005. – 304 p.

texnologiyalari yordamida ingliz tilini (soʻz boyligini) amaliy jihatdan oʻrgatish ijobiy natija berishi maʼlum darajada isbotlandi. Tadqiqot natijalari sifatida turizm kollejlari oʻquvchilari va keng jamoatchilikka bagʻishlangan “I

am guide interpreter” monografiyasi, oʻquv qoʻllanma va elektron “Oʻzbek-ingliz tillarida soʻzlashgich” yaratildi.

SALOMATLIK KONSEPTINING AKTUAL KOGNITIV XUSUSIYATLARI

Nafisa Izatullayeva Gʻaybullayeva - f.f.f.d (PhD), dotsent, Buxoro davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada konsept tushunchasi hamda unga berilgan taʼriflar, uning jahon va oʻzbek tilshunosligida shakllanishi amalga oshirilgan tadqiqotlardan olingan misollar, fikr-mulohazalar va shuning bilan birgalikda konseptosfera hamda uning mohiyatiga alohida eʼtibor qaratilgan. Salomatlik konsepti mazmunining milliy xususiyatlari lisoniy jihatdan talqin qilingan. Qolaversa, ilmiy maqolada soʻz, tushuncha va konseptning oʻzaro aloqasi, ularning umumiy va alohidalik xususiyatlari haqida ham ayrim mulohazalar keltirib oʻtilgan. Maqolada salomatlik konsepti bilan yonma-yon turgan kasallik soʻzining maʼnodosh (sinonimik) soʻzlar qatoridan dominant soʻz hisoblanishi, ushbu soʻzlar jumlasiga nosogʻlomlik, darmonsizlik, xastalik kabi birliklar misollar orqali tahlilga tortildi.

Аннотация: В данной статье особое внимание уделяется понятию понятия и данным ему определениям, его становлению в мировом и узбекском языкознании. Национальные особенности содержания концепта здоровья интерпретируются лингвистически. Кроме того, научная статья содержит некоторые комментарии о взаимосвязи слов, понятий и понятий, а также об их общих и особенных признаках. В статье слово «болезнь», стоящее рядом с понятием здоровье, рассматривается как доминантное слово из группы слов-синонимов, и анализируются такие единицы, как «нездоровый», «немоть», «болезнь». через примеры.

Abstract: In this article, special attention is paid to the the concept and the definitions given to it, its formation in the world and Uzbek linguistics. National features of the content of the concept of health are interpreted linguistically. In addition, the scientific article contains some comments on the relationship of words, concepts, as well as on their general and special features. In the article, the word “disease”, which stands next to the concept of health, is considered as a dominant word from the group of synonymous words, and such units as “unhealthy”, “infirmity”, “disease” are analyzed through examples.

Kalit soʻzlar: konsept, konseptologiya, konseptosfera, tushuncha, soʻz, tahlil, salomatlik, semantik, kasallik, kognitiv xususiyat, tabu, evfemizm.

Ключевые слова: концепт, концептология, концептосфера, концепт, слово, анализ, здоровье, семантика, болезнь, когнитивный признак, эвфемизм.

Keywords: concept, conceptology, concept sphere, concept, word, analysis, health, semantics, disease, cognitive feature, euphemism.

Dunyo lingvopragmatika, kognitiv tilshunoslik, neyrolingvistika, taʼlimning yangi yoʻnalishlarida, ayniqsa, koʻp qoʻllanilmoqda. Umuman olganda, konsept atamasini nafaqat tilshunoslik, adabiyotshunoslik, balki boshqa sohalarda ham qoʻllash mumkin, biroq bu atama kognitiv tilshunoslikning asosiy kategoriyalaridan biri sanaladi.

olimlar tomonidan talaygina ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilayotganligiga guvoh boʻlmoqdamiz. Ushbu tushuncha filologik taʼlimning yangi yoʻnalishlarida, ayniqsa, koʻp qoʻllanilmoqda. Umuman olganda, konsept atamasini nafaqat tilshunoslik, adabiyotshunoslik, balki boshqa sohalarda ham qoʻllash mumkin, biroq bu atama kognitiv tilshunoslikning asosiy kategoriyalaridan biri sanaladi.

Bu esa konsept tushunchasi bilan bogʻliq bir qator masalalarni koʻrib chiqishni taqozo qiladi. Keyingi yillarda “konsept” atamasini tilshunoslik sohalarda tez-tez takrorlanishiga hamda ayrim lingvistik birliklarning konsept sifatida tadqiq qilish barobarida koʻplab

Zero, filologiyada konsept – narsa (keng maʼnoda) belgining mazmun tomonida boʻlib, insoniyatning ijtimoiy tajribasida mustahkamlangan, ularning hayotida tarixiy ildizlarga ega boʻlgan, ijtimoiy va subyektiv ravishda inson mavjudligining aqliy, maʼnaviy

yoki moddiy sohasi bilan bogʻliq tushunchadir¹. Konsept predmet – hodisaning his qilinishi, anglanilishi va obrazli tasavvur qilinishi bilan bogʻliqdir.

Olam haqidagi muayyan tasavvurlarning hosil qilinishi ruhiy inʼikosning uch sathi – hissiy idrok, tasavvurlarning shakllanishi (eng sodda umumlashma va maʼlumotlar), nutq yasalishi jarayonlarining oʻzaro taʼsiri hosilasidir. Bu axborotlarning umumiy yigʻindisi konseptlar tizimining mohiyatini tashkil qiladi².

Ham madaniy-maʼnaviy, ham akseologik, ham ruhiy-falsafiy xususiyatlarni oʻzida jamlagan mazkur tushuncha haqida olim D.Xudayberganova ham uning koʻp qirrali tuzilma ekanligini, konsept psixologik, kognitiv-semantik va lingvomadaniy xossali boʻlib, ushbu jihatlarni nutqiy bosqichda bir vaqtning oʻzida namoyon etishini³ tadqiqotlarida eʼtirof etadi.

Milliy konseptual sohaning negizini tashkil etuvchi asosiy konseptlarni oʻrganishga qaratilgan tadqiqotlar olimlarni konseptlarda aks etgan madaniy qadriyatlarni tizimlashtirishning yangi darajasiga olib chiqish va madaniyat konseptuariyasini yaratish miqyosigacha olib chiqmoqda⁴. Darhaqiqat, antropologik ahamiyatga ega tushunchalarning roʻyxatini toʻldirayotgan ijtimoiy-madaniy jihatdan talab qilinayotgan konseptual mohiyatlarni oʻrganish ustuvor boʻlib qolmoqda. Milliy konseptual sohaning mental mohiyatli tushunchalari jumlasiga har qanday madaniyatning asosiy, antropologik jihatdan ahamiyatli tushunchasi hisoblangan salomatlik konsepti ham kiradi. Aynan, “u orqali inson dunyoni koʻra oladi”⁵.

Falsafa nuqtayi nazaridan salomatlik – bu tana va uning qismlari, tana va atrof-muhit, tana va ruhning mutlaq uygʻunligini oʻzida aks ettirsa, kasallik – bu uygʻunlikning buzilish holatlarini ifodalaydi. Salomatlik va kasallikning jahon tibbiyotida shakllantirilgan toʻrtta asosiy konsepti mavjud. 1) salomatlik – kasallikning yoʻqligi; kasallik – inson organizmida paydo boʻlgan hamda shu bilan birga unga yot boʻlgan hayotning organik shakli, 2) salomatlik – meʼyor, kasallik esa – meʼyordan ogʻish; 3) salomatlik – bu barcha organlar va ularning tizimlarining toʻgʻri ishlashi, kasallik esa bunday faoliyatdagi buzilishlar; 4) Jahon Sogʻliqni saqlash tashkilotining 1946-yilgi Nizomiga muvofiq

salomatlik – “nafaqat kasalliklar yoki jismoniy nuqsonlar yoʻqligi emas, balki toʻliq jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonlik holati”⁶. Salomatlik deganda insonning ijtimoiy funksiyalarini toʻliq bajarishi va jamoat hayotida faol ishtirok etish qobiliyati, kasallik deganda esa inson faoliyati erkinligini cheklaydigan holat tushuniladi. Antropologiyada salomatlik va kasallikni tushinishda quyidagi variantlarni ajratish mumkin:

Salomatlik: 1) xudo bergan neʼmat; 2) yaxshiliklar uchun mukofot; 3) inson tanasining meʼyoriy holati; 4) qalbni boʻshashtiradigan holat;

Kasallik – 1) insonning axloqiy tubanligining natijasi; 2) xatolar uchun jazo; 3) sinov; 4) gunohlardan poklanish va ulardan qutulish vositasi; 5) xavotirli belgi bildirish.

Faylasuflar, tabiblar va shifokorlar tomonidan salomatlik va kasallik hodisalarining yuqoridagi keltirilgan talqinlari ularning anglanishi va nutqda ifodalanishini lingvistik tadqiq qilish uchun zarur dalil va asos boʻlib xizmat qiladi.

XXI asr oxiri XXII asr birinchi yarmida jahonda sodir boʻlayotgan tub iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy oʻzgarishlar, shubhasiz, lisoniy shaxs konseptual dunyosining oʻzgarishiga sabab boʻlmay qolmaydi. Birinchi navbatda, siyosiy yoki iqtisodiy konseptlarga taalluqli boʻlmagan salomatlik konsepti ham mazmuniy modifikatsiyalanishga yuz tutmoqda. Aytish mumkinki, bugun til sohibi tashuvchisining ongida ona tili konseptual sohasining qayta qurilishi, toʻldirilishi kuzatilmoqda: salomatlik eng yangi ijtimoiy-madaniy meʼyorlar taʼsiri ostida namunaviy tarzda idrok etilmoqda. Bu esa salomatlik konsepti mazmunining milliy xususiyatlarini lisoniy jihatdan talqin qilish zaruratini belgilaydi.

Shu oʻrinda aytish mumkinki, oʻzbek madaniyatida mavjud salomatlik konsepti ham oʻziga xos kognitiv xususiyatlarga ega.

Hindistonliklar “Ayurveda”sining asosiy tamoyili insonning tanagata siroʻtkazishiga asoslanadi. Kasallikdan xalos boʻlish odamning oʻz ongi bilan muloqotga kirishib, uni muvozanatga keltira olishiga bogʻliq⁷. “Avesto”da “Tibbiyot – bu tanani sogʻlom holatda saqlash sanʼatidir”, deb yozilgan. Buyuk vatandoshimiz Abu Ali ibn Sinoning mashhur “Tib qonunlari” asari salomatlikni saqlash va mustahkamlash gʻoyalari asosida

1 <https://ru.wikipedia.org/wiki/>

2 Маслова В.А. Когнитив тилшунослик. – Самарқанд, 2011. – Б. 8.

3 Худайберганова Д.С. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол.фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2015. – Б.19.

4 Антология концептов : в 8 т. / под ред. В. И. Карасика, И.А.Стернина. – Волгоград : Парадигма, 2005; Степанов.Ю.С. Константы : Словарь русской культуры / Ю.С.Степанов. – изд. 3-е, испр. и доп. – Москва : Академический Проект, 2004. – 982 с. и др

5 Лурье С.В. Психологическая антропология : история, современное состояние, перспективы / С.В.Лурье. – 2-е изд. – Москва : Академический проект : Альма Матер, 2005. – С. 587

6 Устав (Конституция) Всемирной организации здравоохранения (от 22 июля 1946 г) // www.pravo.kulichki.com

7 <https://yuz.uz/news/salomatlik-ilmii>

yoziq. Alloma insonlar o'zini o'rab turgan atrof-muhit bilan muloqotda bo'lishini va tashqi muhit omillari, o'z navbatida, uning salomatligiga ta'sir qilishini ta'kidlab o'tgan. Ulug' hakim salomatlikni saqlashda jismoniy faollik muhimligini alohida qayd etib, tartibli hayot tarzi omili sifatida jismoniy mashqlar, ovqatlanish tartibi va uyquni qayd etgan. U bunday yozadi: "Me'yorida va o'z vaqtida jismoniy mashqlar bilan shug'ullanadigan inson hech qachon davolanishga muhtoj emas". Prezidentimizning e'lon qilingan "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida ham sog'lom turmush tarzini hayotga keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi. "To'g'ri ovqatlanish va jismoniy faollik orqali qanchadan-qancha kasalliklarning oldini olish, insonlar hayotini saqlab qolish mumkinligini barcha tushunishi kerak", deya ta'kidlandi. Kasalliklarning oldini olish, gipodinamiya-kamharakatlikka qarshi ommaviy kurashish, aholi keng qatlami, ayniqsa, yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga jalb etish salomat bo'lish va uzoq umr ko'rishning muhim omillaridan sanaladi.

Darhaqiqat, tahlil qilinayotgan salomatlik konsepti "biz"dan chiqib ketib, "men" qadriyatiga aylanganligini qayd etish mumkin. Globallashuv sharoiti, 2019 yilda boshlangan pandemiya davrida inson o'z salomatligi ustida har qachongidan qayg'uradigan bo'ldi. Zero, Islom dini sog'liqni saqlashning yo'llarini ham o'rgatadi. Bu borada dinimizda badantarbiyaga, tozalikka rioya qilishga, sog'liqqa zarar yetkazuvchi va atrofni iflos qiluvchi narsalardan chekinishga, jismni toliqtirishdan qaytarishga sog'liqni saqlash maqsadida yengillik va ruxsatlar berilishi kabi bir qator muhim ishlar yo'lga qo'yilgan⁸.

Matnlar tahlilining ko'rsatishicha, sog'lom odam haqidagi individual va jamoaviy tasavvurlarning tabiati o'zgargan: zamonaviy kishi o'z sog'lig'i uchun javobgar ekanligini biladi: Tortinmang va dangasalik qilmang – bu sizning sog'lig'ingiz masalasidir; Inson o'zi uchun nima zararli va salomatligi uchun nima foydali bo'lgan narsalarni o'zi belgilashi kerak kabi.

Rivojlanayotgan iqtisodiyot sharoitida salomatlik bilan bog'liq, nutqda u bilan birga voqelanadigan g'amxo'rlik tushunchasi ma'nosi ham kengaydi. Salomatlik va uni himoya qilishga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishning ahamiyati dolzarb bo'lib qolmoqda: o'z sog'lig'iga e'tibor; sog'lig'iga befarq emas; sog'lig'i bilan shug'ullanish; sog'lig'ini qo'llab-quvvatlash; salomatligini yaxshilash, sog'lig'i

haqida qayg'urish, g'amxo'rlik qilish va boshqalar.

"Salomatlik" konsepti borasida olib borilgan izlanishlar natijasida ushbu tushuncha o'z atrofida kasal bo'lmaslik, sog'lom turmush tarzi, ma'naviy-axloqiy turmush tarzi, jismoniy sog'lik, turmush tarzidan to'laligicha qoniqish hosil qilish va yetuklik, bardamlik, fiziologik va biologik sog'lom hayot kabi konseptual birliklarni qamrab oladi, degan xulosaga kelish mumkin. Demak, biror so'zni konseptual tahlilga tortishda, dastlab, uning lisonda paydo bo'lgan voqelanishi tushuncha deb qaraladigan bo'lsa, chuqurroq kognitiv talqin qilinganda uning yanada ko'proq mazmuni namoyon bo'laveradi. Konsept so'zni shunchaki anglatgan ma'nosiga qarab emas, uning borliqda ifodalanadigan barcha tushunchalarini, inson idroki bilan bog'liq jihatlarni, zidlik ma'nolarini kognitiv talqinda tahlil etadi. Masalan "salomatlik" konsepti o'ziga zid turgan "kasallik" konsepti mazmun mohiyati bilan ham yonma-yon turadi. Kasallik semasini nutqiy muloqotda ifoda etuvchi rang nomlari bilan bog'liq fiziologik holatni bildiruvchi fe'l so'z turkumlari ham bunga misol bo'la oladi. Qizarmoq, gezarmoq, bo'zarmoq, siniqmoq, qonlanmoq, lovullamoq, oqarmoq, qoraymoq, ko'karmoq, sarg'aymoq, zahillashmoq kabi mantiqiy ifodasiga ega holat fe'llari insonga, uning yuz, ko'z, quloq, lab, burun, qosh, bosh, soch, soqol, bo'yin kabi a'zolariga xos ayni belgining holati sifatida anglatadi. Ular kasallik, dard, qo'rquv, qattiq iztirob, keksalik, betoblik natijasida insonda yuzaga kelgan fiziologik o'zgarish holatini bildirishi bilan muhimdir. Bu o'zgarish asosida inson a'zolarining ichki va tashqi ta'sirlarga bo'lgan "ijobiy va salbiy munosabati" yotadi. Inson salomatligi, turmush tarzi bilan bog'liq bu ikkala hodisa ham tafakkur birligi sifatida namoyon bo'ladi. Bularning ikkalasining ham boshlang'ich nuqtasi inson jismoniy va ruhiy holatiga obrazli ta'sir qilinishiga bog'liq.

Shuningdek, tadqiqot doirasida salomatlik va kasallik substantivlari va ularning so'z hosil qilish uyalariga kiritilgan so'zlarning leksikografik talqinlari tahlil qilindi, o'rganilayotgan leksemalarning etimologiyasi hamda ularning sinonimlari o'rganildi.

Izohli lug'atlarni tahlil qilish natijasida salomatlik (sog'liq) so'zi uchun quyidagi leksikografik semantik invariantlar (LSI) aniqlandi: 1) "barcha tana a'zolar faoliyatining me'yorda bo'lishi"; 2) "kasallikning yo'qligi"; 3) "o'zini yaxshi his qilish holati" yoki aksincha, kasallik so'ziga quyidagi LSI larni ajratish mumkin: 1) "tananing to'g'ri faoliyatining buzilishi", 2) "biror narsaning yetishmovchiligi yo'nalishi bo'yicha ham, ortiqchaligi yo'nalishi bo'yicha ham me'yordan og'ish".

Salomatlik substantivining lug'aviy ta'riflariga aniqlik darajasi yuqori bo'lgan leksemalar kiradi: holat, tartib, faoliyat, harakat, jarayon, faoliyat, muvozanat, me'yor, organizm, kasallik (uning yo'qligi sifatida). Buzilish, o'zgarish, og'ish, jarohatlanish, nogironlik kabi so'zlar kasallik nomlarining metatil birliklari hisoblanadi. Og'zaki nutqda ushbu so'zlardagi kasallik atamalarini evfemizmlar sifatida qabul qilinishini e'tiborga olish muhim. Zamonaviy tilshunoslikda bunday muloqot jarayonlarida o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan evfemizmlarning uchta – ijtimoiy, psixologik va maxsus lingvistik aspektga ega ekanligi qayd etiladi.

Ijtimoiy aspekt evfemiya asosida yotadigan ijtimoiy, xususan, ma'naviy, diniy-ma'rifiy va siyosiy motivlardan iborat. Ayni omillar ta'sirida predmet, voqea-hodisalarning asl nomlanishi salbiy baho kasb etadi, taqiqlanadi, maqbul ifodalar bilan almashtiriladi.

Psixologik aspekt ostida evfemistik o'rindosh talab qiluvchi tushunchani fikr-mulohazani yumshatuvchi effekt bilan ifodalash tushuniladi. Predmet, voqea-hodisani asl nomi qo'rquv, uyat, noqulaylik, nafrat kabi salbiy hissiyotlar tug'diradi. Yangi, ko'chma ma'noli nom shu hisnime'yorlashtiradi.

Evfemiya hodisasining lingvistik aspekti evfemizm qo'llashning belgi, ishora va shart-sharoitlarini aniqlaydi.

Kasbiy muloqotda kasallik konseptlarining evfemizmlar orqali bir yoki bir necha aspekti baravar voqelanishi mumkin. Xususan, tibbiyot xodimlari nutqida uning ijtimoiy, psixologik, lingvistik aspektlari o'zni bilan, vaziyat-sharoit, nutq talabiga ko'ra namoyon bo'ladi. Nutqda inson fiziologiyasi va anatomiyasi bilan bog'liq xususiyat yoki holatlar ifodalanganda birinchi o'rinda ijtimoiy aspekt voqelanishi kuzatiladi. Masalan, ko'r o'rnida ko'zi ojiz birikmasi ishlatiladi: Bepul foydalanish huquqi ko'zi ojiz nogironlar va ko'zi ojiz nogironlarga hamrohlik qiluvchi shaxslarga beriladi. ("Shifo-info", 2017, №39, 14-b.) Shuningdek, kar o'rnida quloqdan qolish, eshitish qobiliyatining yomonlashishi, tevarak-atrofdagi ovoz, so'zlardan mosuvollik, muloqot qilish imkoniyatining cheklanganligi kabi birikmalar qo'llaniladi. Chunonchi: Quloqdan qolish yosh tanlamaydi ("Shifo-info", 2016, №20, 16-b). Eshitish qobiliyatining yomonlashishiga taxminan 30 foiz hollarda shovqin sababchidir ("Shifo-info", 2016, №20, 16-b). Tevarak-atrofdagi ovozlardan, so'zlardan mosuvollik... Eshitish qobiliyatini yo'qotgan odam holati ("Shifo-info", 2016, №20, 15-b). Har xil xizmatlardan foydalanish hamda

muloqot qilish imkoniyatining cheklanganligi bunday kishilarning kundalik hayotiga ta'sir etmay qolmaydi ("Shifo-info", 2016, №20, 15-b). Jamiyatda jismonan nuqsonli kishilar va nogironlar imkoniyati cheklangan ijtimoiy toifani tashkil etishi alohida isbotni talab etmaydi. Bu toifa vakillari bilan muloqotda insondagi jismoniy nuqsonni o'z nomi bilan ifodalash so'zlovchi va tinglovchiga birdek noqulaylik, yoqimsiz his bag'ishlashi ham izohga o'rin qoldirmaydi. Basharti muloqot shu tarzda yuzaga kelsa, insonga beriladigan ruhiy-ma'naviy jarohatni tasavvur qilsak, psixologik aspekt nechog'liqimmatga egaligi ayonlashadi. Ma'lumki, nutq madaniyati talablari hamda odob-axloq me'yorlariga muvofiq nutqiy harakat muloqotning samarali kechishini ta'minlaydi. Aksincha, kommunikantlar nutqiy harakati mazkur talablarga nomuvofiq bo'lsa, bunday muloqot samarasiz kechadi. Demak, ijtimoiy aspekt nutqda psixologik aspekt bilan bir vaqtda namoyon bo'ladi. Keltirilgan nutqiy dalillar buni tasdiqlay oladi.

Tibbiyot xodimlari nutqida psixologik aspekt boshqalariga nisbatan yetakchilik qiladi. Mazkur aspektning yetakchiligi evfemalarning qo'llanishi bilan belgilanadi va bunda ularning qo'llanish chastotasi baland bo'ladi. Tibbiy amaliyotda nomi qo'rquv, uyat, noqulaylik, nafrat kabi salbiy hissiyot tug'diradigan fiziologik holat, kasallik va u bilan bog'liq hodisalar mavjud. Salbiy ruhiy kechinma uyg'otuvchi bunday hodisa nomlari nutqda evfemalashadi. Masalan, qorin bo'shlig'ida (ichaklarda) yig'ilgan havo(dam)ni chiqarish holati, odatda, bod chiqarmoq, yel ajralmoq birikmalari orqali ifodalanadi: Og'riq ovqat iste'mol qilingandan keyin kuchayadi, najas va yel chiqargandan so'ng esa kamayadi ("Shifo-info", 2017, №39, 37-b.). Ko'p hollarda qisir o'rnida bepust so'zi qo'llaniladi: Bepustlik hamda jinsiy hayotdagi turli muammolar sababli shifoxonamizga murojaat etuvchilar ko'pchilikni tashkil etadi ("Shifo-info", 2017, №39, 37-b.).

Kundalik hayotda ayollarning o'zaro muloqotida emizmoq so'zi faol qo'llansa-da, tibbiyot xodimlari nutqida, odatga ko'ra, bu ma'noni ifodalash vazifasi ko'krak suti bilan oziqlantirmoq yoki ona suti bilan parvarishlamoq birikmalariga yuklanadi: Go'dakni o'z vaqtida ko'krak suti bilan oziqlantirmaslik sababli ayolda laktostaz kelib chiqadi ("Shifo-info", 2016, №20, 6-b). Bolani ona suti bilan parvarishlash to'xtatilgach, albatta, mammolog ko'rigiga borish zarur ("Shifo-info", 2016, №20, 7-b.). Ushbu o'rinlarda nutq egasi tinglovchi ruhiyatida uyalish va noqulaylikni tug'dirmaslik uchun hamda bu

⁸ <https://muslimaat.uz/maqola/1238>

⁹ Анализ состояния понятия эвфемизма в историческом аспекте. (Электронный ресурс): <https://studfiles.net/preview/5702057/>

holatlarni keltirib chiqarmaslik maqsadida evfemik birliklardan foydalanadi.

Qayd etganimizdek, nutq evfemizatsiyasining lingvistik aspekti mavjud. U evfemizm qo'llashga xos belgi, ishora va shart-sharoitlarni aniqlash imkonini beradi. So'zlovchi (shifokor) evfemik birlikni tanlar ekan, qanday sharoitda qaysi birlikni tanlashi bemor yoki uning yaqinlariga yetkazayotgan axborotini o'z maqsadiga muvofiq tinglovchiga noqulaylik, uyat, o'ng'aysizlik hisini paydo qilmay yetkazishni ko'zlaydi. Shuning uchun nutqda kishida ortiqcha iymonish, hayo qilishni qo'zg'atmaydigan shart-sharoit, shunga mos ifoda vositalari, ayniqsa, muayyan tana a'zolarini atashda muqobil ifodalar tanlanadi. Masalan, jinsiy a'zolar ifodasi jiddiy a'zolar, nozik sohalar, qorinning pastki qismi, peshob chiqarish kanali kabi so'z birikmalari bilan almashtiriladi. Peshob chiqarish kanali gigiyenasida maxsus yuvish vositalaridan foydalanish tavsiya qilinmaydi ("Shifo-info", 2016, №20, 20-b.). Jiddiy a'zolarini mikroblardan tozalash (dezinfeksiya) da ishqorli sovunlardan foydalangan ma'qul ("Shifo-info", 2016, №20, 20-b.). Sochiqlardan foydalanishda ham e'tiborli bo'lish foydadan xoli bo'lmaydi. Nozik sohalar uchun sochiqlar ham toza, yumshoq va, eng asosiysi, shaxsiy bo'lmog'i zarur ("Shifo-info", 2016, №20, 20-b.). Hayz kelganda bel va qorinning pastki qismida kuchli og'riq sezadi ("Shifo-info", 2016, №20, 20-b.). Bemorda peshob tutilishi kuzatilgani bois unga sistostoma o'rnatiladi. Bu usul bilan adenomaning peshob chiqarish kanalini bevosita ezib turuvchi qismi olib tashlanadi. ("Shifo-info", 2016, №20, 47-b.).

Demak, kasbiy muloqotda evfemik birliklardan foydalanish vaziyat, shart-sharoit, muhit, auditoriya kabi omillarga bog'liq bo'ladi. Nutqning evfemalashishi so'zlovchining nutq madaniyati, kasb egasining professional mahoratini ko'rsatib beruvchi asosiy lisoniy omil hisoblanadi. Kasbiy mahorat talab qilinadigan vaziyatda har bir shaxs inson omili ustuvorligini nazarda tutib, nutqini nazorat qilishi, fikrini nazokat va latofat bilan ifoda etishi ma'naviy va madaniy yetuklik nishonasidir. Zero, tibbiy madaniyat va tibbiy amaliyot tajribasidan ayonki, til malhami tig' davosidan o'tkir: o'z o'rniga munosib va o'z vaqtiga muvofiq aytilgan so'z yashashdan umidini uzgan har qanday insonga hayot baxsh etadi.

Kasallik so'zi o'zining ma'nodosh (sinonimik) so'zlar qatoridan dominant so'z hisoblanadi, ushbu so'zlar jumlasiga nosog'lomlik, darmonsizlik, xastalik (bu so'zni qo'llashni shifokorlarga tavsiya etiladi), xastalik,

dard, quvvatsizlik (holsizlik) kabi birliklar kiradi. Salomatlik so'zining almashtiriladigan sinonimlari yo'q: ular ma'no jihatidan sezilarli farq qiladi (o'zini his etish, holat) yoki yorqin stilistik bo'yoqdorlikka ega (salomatlik, sog'liq). Salomatlik va kasallik so'zlari "o'zini his etish" deb nomlangan semantik maydonga kiritilgan, unga yana yuqorida sanab o'tilgan ularning sinonimlari va unga semantik yaqin bo'lgan birliklar, shuningdek "kasallikdan oldingi holat" tibbiy atamasi ham kiritilishi mumkin.

So'zlarni derivatsion jihatdan tahlil qilishdan maqsad – bu sog'liq va kasallik so'zlari semalarini aniqlashdir. A.N.Tixonov¹⁰ lug'atiga ko'ra, salomatlik so'zi sog'lom so'zining so'z hosil qilish uyasiga kiritilgan. Mazkur uyani tahlili shuni ko'rsatdiki, barcha bir o'zakli so'zlarning eng barqaror oilalari "ijobiy baholash" va "normaga muvofiqlik" (sog'lom tanqid, sog'lom munosabatlar) kabi semalarni o'z ichiga olishi kerak. "Organizm" semasiga kelsak, sifatning majoziy ma'nosida quyidagi ma'nolarning qayta taqsimlanishi sodir bo'ladi: sog'lom hayot, sog'lom iqtisodiyot kabi sintagmalardagi "odam" semasi nafaqat saqlanib qoladi, balki takrorlanadi, zero maishiy hayot shaxs hayotining ijtimoiy parametridir va iqtisodiyot butun jamiyatning ishlab chiqarish munosabatlariga xosdir. Kasallik substantivi, A.N.Tixonov lug'atiga ko'ra, og'riq so'zining so'z hosil qilish uyasiga kiritilgan. Ushbu uyadagi barcha so'zlarini birlashtiradigan eng barqaror sema bu "me'yordan og'ish" (og'riq – "me'yordan oshib ketadigan tuyg'u"; kasal (odam) – "ayniqsa qimmatli, boshqalar kabi bo'lmagan"; kasallik – "tana normal ishlashining buzilishi"; og'riqli (ko'chma, majoziy ma'noda) – "ortiqcha"). Ma'noning eng zaif komponenti 'organizm' semasi bo'lib qoladi, chunki uyaning barcha so'zlari ham tanaga xos, ham ruhiy azoblarni ifodalash uchun ishlatilishi mumkin.

Demak, yuqoridagilardan anglashiladiki, salomatlik konsepti ko'p o'lchovli tavsifga ega bo'lib, ushbu konsept kognitiv xususiyatlarining mazmuni turlicha namoyon bo'ladi. Salomatlik tushunchasi – bu kundalik ongda organizmning ikki tomonlama (jismoniy va aqliy) holati haqidagi g'oyalarni aks ettiradigan ko'p o'lchovli hodisa, u tashqi kuzatuvchi, shuningdek, o'z ichki holati tashuvchisi bo'lgan sub'yektning o'z-o'zini idrok etishi nuqtayi nazaridan baholanadi. Darajali xarakterga ega bo'lgan konseptning noagentiv tabiati uning tarkibidagi salomatlikka ta'sir qiluvchi tashqi omillar guruhiga tegishli kognitiv xususiyatlar mavjudligidan dalolat beradi.

¹⁰ Тихонов А.Н. Словообразовательный словарь русского языка: В 2-х т. М., 1985

ALISHER NAVOIY SHE'RIYATIDA OBRAZLAR TRANSFORMATSIYASI FUNKSIYALARI

Xolyigit Xolmurodov - katta o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti.
Dilnoza Abduxashimovna Xidirova - magistr, Jizzax davlat pedagogika universiteti.

Annotatsiya: Ushbu maqola Alisher Navoiy she'riyatida obrazlar transformatsiyasi va ularning bajargan funksiyalari masalasi tadqiqiga bag'ishlanadi. Unda shoir she'riyatida ifodalangan adabiy motivlarga e'tibor qaratiladi, lirik obrazlar tasnifi o'rganiladi, obrazlar ko'chish-o'zgarish hodisasi adabiy timsollar talqini misolida yoritiladi. Shuningdek, adabiy obrazlar lirik ifoda qonuniyatlari va ularning badiiyati haqida fikr yuritiladi.

Аннотация: Данная статья посвящена изучению трансформации образов и их функций в поэзии Алишера Навои. В ней уделяется внимание литературным мотивам, выраженным в поэзии поэта, изучается классификация лирических образов, выделяется феномен миграции и смены образов на примере интерпретации литературных символов. Также обсуждаются законы лирической выразительности литературных образов и их художественность.

Abstract: This article is devoted to the study of the transformation of images and their functions in Alisher Navoi's poetry. In it, attention is paid to the literary motives expressed in the poet's poetry, the classification of lyrical images is studied, the phenomenon of migration and change of images is highlighted as an example of the interpretation of literary symbols. Also, the laws of lyrical expression of literary images and their artistry are discussed.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy she'riyati, adabiy voqelik, badiiy motiv, epik tasvir, lirik talqin, an'ana va yangilik, obraz genezisi va transformatsiyasi, poetik o'zgarish qonuniyati, obrazlar ko'chishi, mumtozlik qonuniyati.

Ключевые слова: поэзия Алишера Навои, литературная действительность, художественный мотив, эпический образ, лирическая интерпретация, традиция и новаторство, образогенез и трансформация, закон поэтического изменения, передача образов, закон классицизма.

Keywords: Alisher Navoi's poetry, literary reality, artistic motive, epic image, lyrical interpretation, tradition and innovation, image genesis and transformation, law of poetic change, transfer of images, law of classicism.

Jahoniy badiiy ijod tajribalari shuni ko'rsatadiki, adabiy-estetik tafakkur jarayonida buyuk o'zgarishlar bunyod etgan shaxslar yoki dunyo adabiyotiga yangi qarashlarni taqdim etgan asarlar insoniyat ijtimoiy va ma'naviy ehtiyojlari talabi o'laroq paydo bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan Hazrat Alisher Navoiy shaxsiyati va ijodiyoti ham shunday ulug' bir hodisa sifatida tarix maydonida yuzaga chiqdi. Alisher Navoiy ijodi, va ayniqsa, lirik merosi g'oyaviy-badiiy jihatlardan dunyo miqyosida takomil topgan adabiy an'ana va badiiy kashfiyotlar uchun o'ziga xos manbadir. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bugunga qadar jahon va o'zbek adabiyotshunoslari Alisher Navoiy she'riyati poetik olamini tadqiq etish borasida yirik ilmiy, ilmiy-ommabop ishlarni amalga oshirdi. Bu misli yo'q ma'naviy xazina bundan keyin ham ko'plab tadqiqotlar uchun manba bo'lib xizmat qiladi. Alisher Navoiy she'riyati timsol va obrazlar olamida tarixiy,

afsonaviy, ilohiy, adabiy siymolar talqini alohida poetik ko'lam kasb etadi. Albatta, Alisher Navoiy lirikasida bunday siymolar badiiy talqiniga asos bo'lgan manbalar xilma-xildir. Jumladan, shoir badiiy-estetik tafakkuri uchun diniy-ilohiy, tarixiy-memuariy, og'zaki-yozma manbalar bu xil obraz-timsollar talqiniga ilhom omili sanaladi. Misol sifatida payg'ambarlar timsollari tavsifini oladigan bo'lsak, bunda diniy-islomiy manbalarga, tarixiy-afsonaviy shaxslar tasvirida "shohnoma"lar va asosan "ajam shoqlari tarixi"da zikr etilgan qarashlarga, adabiy timsollar uchun esa "Xamsa" qahramonlari ifodasiga ishora etiladi. Bundan ko'rinadiki, mumtoz lirik ifodalar uzoq kechmish va boy an'analar zamirida yuzaga keladi. Bunda obraz-timsol tarixiy jarayonlar va badiiy-falsafiy talqinlar prizmasidan o'tib lirik ifodaga kirib keladi. Bu xil obraz-timsollar ko'lami, poetik ifodalari bilan lirik tuyg'ularni o'ziga jalb qiladi va mumtoz she'riyatning

betakror nafasatini ta'minlaydi. Shu bilan birgalikda muayyan tur obraz yoki motivlar uchun xos manbalar badiiy-estetik talqin qonuniyatlariga asosan o'zgacha poetik manzaralarni vujudga keltiradi. Bunda tarixiy-hayotiy voqelik va badiiy talqin masalasida nihoyatda nozik, muhim bo'lgan o'zaro uyg'unlashuv yuz beradi. Shu nuqtayi nazardan, Alisher Navoiy she'riyati barcha zamonlar uchun o'z ahamiyati va qimmatini yo'qotmaydi. Bu xil talqin qadrini mangu saqlagan manbalar birinchi qatorida Qur'on va Hadisi Sharif turadi. Ushbu muqaddas manbalardagi mavzu va motivlar mumtoz adabiyot poetik olami uchun beqiyos darajada katta ahamiyat kasb etadi. Mumtoz, chunonchi, Navoiy she'riyatida eng sarmahsul bo'lgan payg'ambarlar (Odam, Nuh, Ibrohim, Muso, Iso, Muhammad (s.a.v)) obraz-timsollari tavsifi uchun ayni manbalarga tayaniladi. Yoxud afsonaviy shaxs va shohlar (Jamshid, Kayxusrav, Iskandar, Xusrav) obrazlari tasvir etilganda an'anaviy tarixiy asarlar talqini nazarda tutiladi. Alisher Navoiy lirikasida shunday adabiy obraz-timsollardan bir turkumini (Farhod, Shirin, Layli, Majnun, Vomiq, Uzro) adabiy qahramonlar silsilasi tashkil qiladi. Bu timsollar talqini og'zaki va yozma, jumladan, Sharqda epik adabiy an'anaga aylangan voqeliklar, sujet va motivlar migratsiyasi jarayonlari tufayli yuzaga kelgan poetik hodisalar natijasida obraz-timsollar transformatsiyasi mahsuli o'laroq talqin etiladi. Bu o'rinda shuni alohida aytish kerakki, Alisher Navoiy va umuman mumtoz she'riyatda obraz-timsollar ko'chish-o'zgarishlari miqdor jihatlaridan ham, talqin mavzulari va ifoda usullari rang-barangligi jihatlaridan ham nihoyatda keng ko'lamlidir. Hatto bu xil obrazlarning har biri o'ziga xos o'zgarish-ko'chishlar tamoyillariga ega bo'lib, o'z ichki va tashqi qonuniyatlari bilan yangi-yangi ohanglarni yaratadi. Umuman aytilganda Alisher Navoiy lirikasida bu turkum obrazlar talqini mavzu mohiyatida ilohiy-irfoniy, tarixiy-tavsifiy, adabiy-ishqiy motivlar ayni timsollar xarakteridan kelib chiqishi kuzatiladi, ya'ni sujet va motiv, obraz va xarakter qaysi tipga yo'naltirilgan bo'lsa, lirik talqinda shu xususiyat tarannum etilgan satrlarda ko'p o'rinlarda Farhod va Shirin, Layli va Majnun singari

timsollarga murojaat etiladi. Ma'lum bo'ladiki, lirikada obraz transformatsiyasi hodisasi ayni masala uchun xos bo'lgan mavzu va motivlarga xoslashadi, timsol asl mohiyatidan uzoqlashmaydi. Ayni muammo alohida tadqiqot talab etadi. Adabiyotshunos olim B.Sarimsoqov diffuziya va transformatsiya hodisasini adabiy janrlarga tatbiqetib, adabiy jarayondagi o'zgarishlar, rivojlanishlar va siljishlar ma'nosida qo'llaganligi ko'rinadi. Olim transformatsiyani keng ma'nodagi tushuncha sifatida e'tirof etib, "u hamma vaqt ma'lum bir janr, motiv va obrazning uzviy rivojiga nisbatan qo'llaniladi"¹, - deydi Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, Alisher Navoiy she'riyatida Farhod obrazi tasviri o'zining xilma-xil badiiy vazifalari bilan namoyon bo'ladi. Bu poetik funksiyalar an'anaviy "Farhod va Shirin" voqeligidan o'ziga xos qonuniyatlar asosida lirik tafakkurga ko'chgan, hissiy kechinmalarga aylangan talqinlar hisoblanadi. Bunda, birinchidan, lirikada Farhod obrazining Shirin bilan parallel tasvir etilishi masalasiga e'tibor kerak. Bu Sharq adabiyoti an'analarida badiiy kashfiyot sifatida Alisher Navoiy talqinida yuzaga kelganligi ma'lumdir. Ya'ni, sujet "Xusrav va Shirin"dan "Farhod va Shirin"ga o'zgarishi aynan Alisher Navoiy adabiy idroki orqali amalga oshiriladi. Ushbu masalaning o'ziyoz Farhod va Shirin mavzusi epik va lirik talqinlardagi o'zgarish hodisalarini (transformatsiya) tadqiq etishni zaruratga aylantiradi. Dastlab kichik epizod sifatida paydo bo'lgan Farhod qissasi keyinchalik ko'lamdor masalalar ifodasiga aylanadi. Bunda shoir shohlik va oshiqlik bir o'zanda kechmasligi haqiqatiga rioya etilgan holda talqin o'zgaradi. Alisher Navoiy Farhod obrazi orqali komil inson timsolida ishq kamolotini tarannum etadi. Shoir nazarida Xusrav shoh ilk padarkushlikni boshidan kechirgan tarixiy shaxs sifatida komillikka prototip bo'lishi notabiiy va mantig'i yo'q hodisa edi. Shoir ham "Badoe' ul-bidoya" devonida "hijron dardini Farhoddan so'ra, uni Xusrav qayerdan biladi" tarzida fikr yuritadi:

*Ko'hi dardu teshayi hijronni so'r Farhoddin,
Anglamas Xusravki, Shirin birladur doyim bila².*

Shu bois Farhod obraz-timsoli Alisher Navoiy epik-lirik talqinlari va keyingi davrlar adabiyotida o'zida komil tuyg'ularni mujassam etgan bosh qahramon sifatida an'ananing

1 Sarimsoqov B. Epik janrlar diffuziyasi. O'zbek xalq og'zaki ijodi bo'yicha tadqiqotlar. 7 kitob, - Toshkent: "Fan", 1981, 34-bet.
2 Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Badoyi' ul-bidoya. - Toshkent: Fan, 1987 yil, 645-bet.

etakchi tipiga aylanadi. Boshqacha xil qilib aytilganda, u epizodik obrazdan bosh qahramon timsoli darajasiga o'zgardi. Ehtimol shuning uchun ham Farhod obrazi Alisher Navoiy va umuman mumtoz lirika uchun eng sarmahsul timsolga aylanadi. Alisher Navoiy she'riyatida Farhod va Shirin timsollari parallel tasvir etilganda ham ular bir ishq juftligi ifodasi sifatida emas, balki turfa poetik manzaralar talqinini yuzaga chiqaradi. Bu mumtoz she'riyatda obraz-timsol transformatsiyasi o'ziga xos qonuniyatlar kasb etishini ko'rsatadi.

*Dahr zolin gar desam Farhodkush ayb
etmangiz
Gar emas Farhodkush oxir dengiz
Shirinmudur?³
La'li shavqidinki g'am tog'in qozarsen, ey
ko'ngul,
Ne balo Shirin havasliq notavon Farhodsen⁴.
Magar Farhod jonidin sizib, qonidin etti rang
Kadar suratgari Shirin labi la'li shakarborin⁵.*

Keltirganimiz misollardan ham ko'rinadiki, garchi Farhod va Shirin timsollari bir baytda tasvir etilsa-da, ular orasidagi rishta tashqi taassurotda bo'lib, ichki ma'noda o'zga manzaralar namoyon bo'ladi. Birinchi baytda

shoir "dunyoning makkorligi, farhodkushligi" haqida fikr yuritadi, ikkinchi baytda "ma'shuqa dardida g'am tog'ini qazishga chog'langan ko'ngil Shiringa havas qo'ygan Farhodga" qiyoslanadi. Uchinchi misralarda esa Farhod oshiq, Shirin ma'shuqaga timsol qilib olinadi. Ya'ni, "Azal suratchisi yor labi qizilligini oshiq qonidan olganligiga" ishora etadi. Demak, ushbu satrlarda mumtoz she'riyatda nihoyatda rang-barang timsollarda ifodalanib keladigan "dunyo", "ko'ngil", "oshiq" obrazlariga Farhod u yoki bu ma'nolarda timsol bo'lib kelmoqda. Agar "Farhod va Shirin" dostonlarida bu obrazlar bir yo'nalishdagi motivlarni ifodalasa, lirik transformatsiyasi esa turfa ramziy-majoziy ifodalarni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytilganda, Alisher Navoiy lirikasida obraz-timsollar transformatsiyasi funksiyasi abadiy motivlarni yuzaga chiqaradi, turfa xil poetik ohanglarni yaratadi, inson ko'ngliga zavq va bedorlik ulashuvchi fikrlarni bunyodga keltiradi. Shu bilan birga uzoq tarixiy an'analar va adabiy voqeliklarni lirik tuyg'ularda jonlantiradi, she'riyatning jozibador olamini epik xotiralar bilan to'ldiradi.

ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ НАПРАВЛЕННОСТЬ ПРИ ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ

Шокир Абдухалимович Кенжабоев - заведующий кафедры, Ташкентского филиала СамГУВМЖИБ.

Аннотация: В данной статье даются принципы профессиональной направленности при обучении иностранному языку. Профессионально-ориентированное обучение является приоритетным направлением обучения иностранному языку в вузах. Сущность профессионально-ориентированного обучения иностранному языку заключается в его интеграции со специальными дисциплинами

Аннотация: Ushbu maqolada chet tilini o'qitishda kasbiy yo'nalish tamoyillari berilgan. Kasbiy yo'naltirilgan ta'lim universitetlarda chet tilini o'qitishning ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Chet tilini professional yo'naltirilgan o'qitishning mohiyati uni maxsus fanlar bilan birlashtirishdir

Abstract: This article gives the principles of professional orientation in teaching a foreign language. Professionally-oriented education is a priority direction of teaching a foreign language in universities. The essence of professionally-oriented foreign language teaching is its integration with special disciplines

Ключевые слова: профессиональная направленность, коммуникативные навыки, мотивация, ветеринарные термины, интеграция, современные образовательные технологии.

Калит so'zlar: kasbiy e'tibor, muloqot qobiliyatlari, motivatsiya, veterinariya atamallari, integratsiya, zamonaviy ta'lim texnologiyalari.

Keywords: professional orientation, communication skills, motivation, veterinary terms, integration, modern educational technologies.

Преподавание иностранного языка в высших учебных заведениях вносит

3 Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Badoyi' ul-bidoya. - Toshkent: Fan, 1987 yil, 225-bet.
4 Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Badoyi' ul-bidoya. - Toshkent: Fan, 1987 yil, 558-bet.
5 Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Badoyi' ul-bidoya. - Toshkent: Fan, 1987 yil, 566-bet.

определенную специфику в процесс обучения. Обучающиеся часто задают вопрос о необходимости изучения иностранного языка, каким образом это связано с той или иной специальностью или профессией. Приходится объяснять, что владение иностранными языками необходимо, чтобы быть конкурентоспособной личностью на рынке труда. Выпускнику вуза, владеющему иностранным языком, открываются большие перспективы устройства на работу.

Однако, кроме вышеизложенной причины необходимости изучения иностранного языка, мы в своей работе также стараемся воспитывать у обучающихся желание изучать иностранный язык. Своим студентам мы пытаемся донести, что, насколько они умеют общаться на иностранном языке на профессиональные темы, выразить себя будет зависеть, насколько успешным будет их профессиональная деятельность. Это - один из самых важных моментов при формировании мотивации в изучении иностранного языка. Ведь всем известно, что самый гениальный преподаватель не сможет научить, если человек не хочет, чтобы его научили.

Ни для кого не является секретом, что иностранный язык – один из самых сложных предметов для обучения в школе, а тем более в вузе. Сложность обучения иностранному языку объясняется некоторыми причинами, а именно: процесс обучения происходит в искусственной языковой среде; иностранный язык рассматривается как второстепенная дисциплина; недостаточное количество учебников и учебных пособий для нефилологических факультетов вузов, имеющих профессиональную направленность; и, наконец, самая главная причина - в на эти факультеты поступают студенты с разным уровнем обученности иностранному языку после школ, а некоторые студенты вообще изучали в школе язык, который в данном вузе не преподается. Это означает, что изначальная задача преподавателя, связанная с «углублением» базовых умений и навыков и их «совершенствованием» может оказаться невыполнимой миссией просто за неимением того, что необходимо

углублять и совершенствовать, если не у всех студентов, то, зачастую, у значительной их части. На практике это приводит к тому, что преподавателю приходится тратить время на повторение и обобщение материала, предназначенного к изучению в рамках средней школы, а с отдельными студентами – и на изучение этого важного материала «с нуля»¹. У таких студентов интерес к предмету падает, появляется апатия, безразличие. Поэтому мы считаем, что одна из главных задач преподавателя - поддерживать интерес к предмету, желание работать изо дня в день. Студентов нефилологических факультетов мотивировать сложно, а особенно студентов, которые вообще не изучали в школе иностранный язык. Они считают, что иностранный язык им не нужен, т.к. они никогда не смогут его применить. Такие студенты не ставят перед собой цели своего дальнейшего развития. Поэтому свою задачу мы видим в том, чтобы преподнести изучение иностранного языка как профессионально значимого предмета.

Не стоит переоценивать возможность знаний иностранного языка студентами ветеринарных вузов. Если ветеринарному предприятию понадобится специалист для перевода, скорее всего и правильнее всего будет обратиться к профессиональному переводчику. Ситуации делового профессионального общения, которые являются реальными для наших сегодняшних студентов и будущих специалистов - это ситуации элементарного владения языком, ситуации повседневного общения плюс владение профессиональной лексикой по специальности. Поэтому профессионально-ориентированное обучение является приоритетным направлением обучения иностранному языку в вузе. Профессионально-ориентированное обучение иностранному языку зародилось как научное направление в 1960-х годах за рубежом. В нашей стране большой вклад в разработку теории профессионально-ориентированного обучения иностранному языку внес Ж.Ж.Жалолов с коллегами. Ими был обоснован принцип профессиональной направленности учебного материала при обучении иностранному языку.

Ж.Ж.Жалолов отмечал, что изучение иностранного языка не должно быть самоцелью, а должно являться средством достижения цели повышения уровня образованности, эрудиции в рамках выбранной специальности². По их мнению, учет специфики профилирующих специальностей должен проводиться по следующим направлениям: работа над специальными текстами, изучение специальных тем для развития устной речи, изучение словаря-минимума по соответствующей специальности, создание преподавателями пособий для активизации грамматического и лексического материала обучающихся. Сущность профессионально-ориентированного обучения иностранному языку заключается в его интеграции со специальными дисциплинами. Здесь преподаватель-лингвист может столкнуться с определенными трудностями, так как в силу своего лингвистического или педагогического образования не всегда владеет специальной профессиональной лексикой. Соответственно преподаватель должен изучить основы той или иной специальности, базовую и профессиональную лексику, уметь ориентироваться в терминологии³.

Профессионально-ориентированное обучение иностранному языку предполагает, что основой курса станут аутентичные тексты, отобранные по тематическому принципу. В дополнение к текстам используется система специальных упражнений, направленных на формирование необходимых навыков и умений.

Алгоритм работы с техническим текстом при переводе с английского языка на узбекский: текст прочитывается; размечается, выделяются непонятные словосочетания, термины и сокращения. Только после этого выполняется полный перевод в устном или письменном виде.

Сегодня происходит взаимное проникновение специальной терминологии из одних областей знаний в другие и для

того, чтобы верно понять технический текст, надо хорошо знать данный предмет и связанную с ним английскую терминологию. Для грамотного научно-технического перевода необходимо знание не только основных терминов, но также и знание особенностей своей специальности. Данный материал студенты изучают на узбекском языке на специальных дисциплинах. Целью курса иностранного языка является использование уже имеющихся у студентов знаний на уроках английского языка. Так как этот материал интересен студентам, он непосредственно связан с их будущей профессией, обучение проходит с энтузиазмом. Знание иностранного языка для выпускников вузов, в частности в ветеринарии необходимо, т.к. основная часть технологий, используемых в ветеринарии, в настоящее время разрабатывается за границей, и большая часть нормативных документов написана на иностранном языке. В ходе изучения курса студенты знакомятся:

- с производством ветеринарной медицины;
- с основной ветеринарной медициной;
- с основами ветеринарной санитарной экспертизы.

В заключение отметим, что перевод английской технической литературы – это самостоятельная сложная работа в области языка и конкретной специальности.⁴ А помощниками для студентов служат технические словари, справочники и трудолубие. Бывает так, что ни одно из значений слова, найденных вами в словаре, не подходит, т.к. некоторые значения слова не зафиксированы в словаре. В таком случае снять затруднение может хорошее чувство языка (языковая догадка), и самое главное – понимание того, о чем идет речь. Поэтому в конце второго года обучения английскому языку студенты, уже частично изучив соответствующую сферу будущей профессиональной деятельности, могут корректно переводить ветеринарные медицинские тексты.

¹ Кучерявая Т.Л. Проблемы профессионально-ориентированного обучения иностранному языку студентов неязыковых специальностей [Текст] // Теория и практика образования в современном мире: материалы междунар. науч. конф. (г. Санкт-Петербург, февраль 2012 г.). – СПб.: Реноме, 2012. – С. 336-337.

² Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi. Toshkent. 2012.

³ Образцов П.И., Ахулкова А.И., Черниченко О.Ф. Проектирование и конструирование профессионально-ориентированной технологии обучения. Орел, 2005.

⁴ Похолоков Ю.П. Подходы к формированию национальной доктрины инженерного образования России в условиях новой индустриализации // Инженерное образование. – Томск, 2012. – № 9. – С. 5-11.

INGLIZCHA GAZETA MATNLARINI O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH USULLARI VA MUAMMOLARI

Orzubek Rahmanovich Anarbayev - katta o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada inglizcha gazeta matnlarini o'zbek tiliga tarjima qilishda qo'llanishi mumkin bo'lgan tarjima transformatsiya usullaridan samarali foydalanish va ularning o'ziga xosliklari va muammolari tahlil qilingan. Bundan tashqari tilshunos olimlar tomonidan gazeta matnlarini tarjima qilishdagi ilmiy izlanishlari haqida ham so'z yuritilgan. Shuningdek inglizcha gazeta matnlarini muvaffaqiyatli tarjima qilishda tarjimonlarga ko'rsatmalar ham berilgan.

Аннотация: В данной статье анализируется эффективное использование методов переводческой трансформации, которые можно использовать при переводе английских газетных текстов на узбекский язык, а также их особенности и проблемы. Кроме того, лингвисты рассказали о своих научных изысканиях в области перевода газетных текстов. Также даются инструкции переводчикам для успешного перевода английских газетных текстов.

Abstract: This article analyses the effective use of translation transformation methods that can be used in the translation of English newspaper texts into Uzbek, as well as their peculiarities and problems. In addition, linguists spoke about their scientific research in the translation of newspaper texts. Also, instructions are given to translators for successful translation of English newspaper texts.

Kalit so'zlar: grammatik transformatsiya, leksik transformatsiya, sintaktik transformatsiyalar, transliteratsiya, kalkalash, almashtirish, gap bo'laklarini almashtirish, o'rnini almashtirish, tushirib qoldirish, modulyatsiya.

Ключевые слова: грамматическая трансформация, лексическая трансформация, синтаксические трансформации, транслитерация, копирование, замена, замена придаточных предложений, замена, пропуск, модуляция.

Keywords: grammatical transformation, lexical transformation, syntactic transformations, transliteration, copying, substitution, replacement of clauses, substitution, omission, modulation.

Jurnalistika nafaqat kundalik hayotni aks ettiradi, balki jamoatchilik fikrini ham shakllantiradi. Publitsistika "til vositalaridan ijtimoiy-bahoviy foydalanish" tamoyillariga asoslanadi. Jurnalistika tili ma'lumotlilik, mantiqiylik va "majburiy emotsionallik, baholovchilik, nutqni standartlashtirishga yo'naltirilganlik, nutq me'yorlaridan foydalanish kabi qarama-qarshi lingvistik tendensiyalarning birligini, bir tomondan, ifoda etish istagini birlashtiradi. Boshqa tomondan, nutqni jonlantirish uchun" jurnalistika tilining informativligi ("axborot va kommunikativ funktsiya") nutq me'yorlariga yo'naltirilganlikda namoyon bo'ladi. Masalan, ingliz tilida to be in the forefront, to report, to make an important contribution, to lead the standings, to bring to life, to meet difficulties kabilar. Publitsistik uslub boshqa uslublar elementlarini o'z ichiga olgan ochiq tizim hamdir.

Gazeta matnlarini tarjima qilish jarayonida turli xil tarjima variantlaridan foydalanish mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, tarjima usullarini o'rganish ko'plab tilshunoslar

tomonidan ilmiy ishlar olib borilgan, masalan A.D.Shveytser, L.S.Barxudarov, L.K.Latvishev, R.K.Minyar-Beloruhev, V.N.Komissarov, I.Retsker, V.G.Gak va boshqalar. Ular "tarjima transformatsiyalari" atamasiga o'z ta'riflarini berishadi. Ta'rif asoschilaridan biri L.S.Barxudarov hisoblanadi. Ushbu ta'rifga ko'ra, tarjima transformatsiyalari bu tarjima ekvivalentiga erishish uchun asl matn elementlarining permutatsiyalari, tillararo transformatsiyalar, ma'noni qayta ifodalash yoki parafrazlash operatsiyalaridir¹.

Tarjima transformatsiyalarini grammatik, leksik va sintaktik deb tasniflash mumkin. Grammatik transformatsiyaga tushirish, almashtirish, jumalarni o'rnini almashtirish va qo'shish kiradi. Leksik transformatsiyalarga transkripsiya, transliteratsiya, kalkalash, konkretlashtirish, jumalarni umumlashtirish, almashtirish kabi usullar kiradi. Sintaktik transformatsiyalar esa gaplarni ajratish va birlashtirish, sintaktik assimilyatsiya, kompensatsiya, antonimik tarjima, tavsiflovchi tarjima, sinonimik almashtirishlar va boshqa

turdagi almashtirishlar kiradi².

Gazeta matnlarini tarjima qilishda grammatik transformatsiyalarning barcha turlari qo'llaniladi. Axborot maqolalari va xabarlar eng quruq, rasmiy va ixcham uslubdir. Gaplarni sintaktik qayta qurish, leksik moslashuvlar va tarkibiy almashtirishlardan foydalanish yordamida bunday maqolalarni yanada aniqroq tarjima qilish mumkin. Qisqa xabarlar tarjima qilish uchun jumlani qayta qurish talab qilinadi³.

Ekvivalent bo'lmagan lug'atni tarjima qilishning yetakchi usullari transkripsiya, transliteratsiya va kalkalashdir. Tarjimonlar ko'pincha transkripsiya va transliteratsiya aralashmasi, ularning keyingi tushuntirishlari bilan, ya'ni tavsifiy tarjimadan foydalanadilar. Transkripsiya – bu tildagi talaffuzni hisobga olgan holda manba tili so'zining tarjima til alifbosi orqali o'tkazilishi.

Transliteratsiya deganda manba tili so'zining grafik shaklini tarjima tili yordamida o'tkazish tushuniladi. Masalan:

"A weak rouble and rampant inflation that have been exacerbated by western sanctions over Ukraine has prompted General Motors to announce a huge retrenchment in Russia". (Times, 19/03/2015)

"Ukrainadagi voqealar munosabati bilan Rossiyaga qarshi G'arb sanksiyalari tufayli kuchaygan zaif rubl va qochib ketgan inflyatsiya Jeneral Motorsni Rossiyada tejamkorlik choralarini e'lon qilishga undadi".

Bu gapdagi transliteratsiyaga misol sifatida "Jeneral Motors" leksemasini keltirish mumkin.

Tarjimaning yana bir usuli - kalkalash bo'lib, unda manba tili leksik birligi tarkibiy elementlarni mos keladigan tarjima tili leksik birliklari bilan almashtirish orqali tuzatiladi. Kalkalash yordamida o'rganilayotgan tilda yangi so'z yoki to'plam ibora hosil bo'ladi. Kalkalashning ko'plab misollari mavjud. Masalan:

"The official opening of the tallest skyscraper in Europe was timed to coincide with the start of the Olympic Games in London". (Guardian, 14/05/2013)

"Yevropadagi eng baland osmono'par binoning rasmiy ochilishi Londondagi Olimpiya o'yinlari boshlanishiga to'g'ri keldi".

Tarjima konvertatsiyasining eng keng tarqalgan turi almashtirishdir. Almashtirishlar, o'z navbatida, tarjimada otning soni o'zgarganda so'z shakllarini almashtirishga

bo'linadi. Masalan:

Vitamin pills cannot replace fruit and vegetables – in fact, taking too many supplements may increase the risk of cancer, an expert has warned. (Times, 21/04/2015)

- "Mutaxassislar vitaminlar meva va sabzavotlarning o'rnini bosa olmaydi va oziqaviy qo'shimchalarni haddan tashqari iste'mol qilish saraton xavfini oshirishi haqida ogohlantirmoqda".

Ushbu jumlaning tarjima qilishda bir nechta usullardan foydalanilgan. Asl jumlada "vitamin" so'zi birlikda bo'lib, "pills" tushirib qoldirilgan va shu sababli u tarjima tilda ko'plik shakliga aylangan. Bu yerda biz o'zbek tilining nominativ xususiyatiga ko'ra "taking" "iste'mol" deb tarjima qilinganda, nutq qismlarini almashtirishni ham kuzatamiz. Fe'l nominalashtirilgan. Bu yerda biz "the risk of cancer" "saraton xavfini oshirish" deb tarjima qilinganda qo'shimchani ko'ramiz, chunki bu ibora barqaror va o'zbek o'quvchisi uchun buni tushunish osonroq bo'ladi.

Almashtirishning navbatdagi turi gap bo'laklarini almashtirishdir. Sifatni, ayniqsa geografik nomdan olingan sifatni ot bilan almashtirish juda keng tarqalgan. Masalan:

"Tsipras, the Greek prime minister, made his official visit to Germany yesterday". (The Times, 24/03/2015)

"Kecha Gretsiya Bosh Vaziri Aleksis Tsipras Germaniyaga rasmiy tashrif bilan keldi".

Sifatni ravishga, o'z fe'lga, ravishni sifatga almashtirish va boshqalar - bularning barchasi gazeta matnlari tarjimasida mavjud. Masalan:

"An attempted crime by suicide bomber was registered in New-York". (Washington Times, 30/04/2014)

"Nyu-Yorkda o'z joniga qasd qilishga urinish haqida xabar berildi".

Bu gapda tegishli ekvivalenti yo'qligi sababli "attempted" sifatdoshi fe'l sifatida tarjima qilingan.

Gazeta-publitsistik uslubdagi boshqa funksional uslublarda bo'lgani kabi, ko'pincha gap bo'laklarini almashtirish mavjud. Misol uchun:

"Two hostages, one American and one Italian, held by al-Qaeda were killed in a US drone strike". (Times, 26/04/2015)

"AQSh dron hujumi "Al-Qoida" tomonidan garovga olingan amerikalik va italiyaliklarni o'ldirdi".

¹ Бархударов Л.С. Язык и перевод / Л.С.Бархударов. - М.: «Междунар. отношения», 1975. 45-бет

² Левицкая Т.Р. Теория и практика перевода с английского языка на русский / Т.Р.Левицкая А.М.Фитерман. - М.: Издательство литературы на иностранных языках, 1963. 103-бет
³ Латышев Л.К. Проблема эквивалентности в переводе: автореф. дис. докт. филол. наук / Л.К.Латышев. - М, 1983. 34-бет

Bu gapni tarjima qilishda sintaktik tuzilmaning qayta tuzilishi munosabati bilan gap a'zolarini almashtirishga to'g'ri kelgan.

Keyingi juda keng tarqalgan transformatsiya – bu o'rnini almashtirish. Ingliz tili qattiq so'z tartibi bilan ajralib turadi, o'zbek tili esa erkinroq. Shuning uchun tarjimonlar tez-tez o'rnini almashtirish texnikasidan foydalanadilar. Masalan:

"New law in education was adopted in Russia yesterday". (Guardian, 02/02/2014)

"Kecha Rossiyada ta'lim sohasida yangi qonun qabul qilindi".

Bu misolda manba tilida "yesterday" gap oxirida, tarjima tilida esa boshida joylashgan, chunki o'zbek tilida ma'lumotli xabarlar vaqt va joy qo'shimchasi bilan boshlanadi, keyin esa gapning boshqa a'zolari.

Quyidagi misolni ko'rib chiqaylik:

"Israel's prime minister accused the United States yesterday of negotiating a nuclear deal that was a "danger to humanity". (Times, 30/03/2015)

"Kecha Isroil Bosh vaziri Qo'shma Shtatlarni butun insoniyatni xavf ostiga qo'yadigan yadroviy dastur shartlarini muhokama qilishda aybladi".

Bu jumla almashtirishning yana bir misolidir, ammo boshqa usullar ham mavjud. "Danger" otini fe'lga almashtirish, "shartlar" so'zi qo'shilgan. Qo'shimchalar so'zning ma'nosini aniqlashtirish uchun ishlatiladi. Bu jumlaning tuzilishidagi farqlar tufayli kelib chiqadi. Ingliz tili ixchamroq bo'lganligi sababli, o'zbek tili esa fikrni batafsil ifodalashni talab qiladi. Masalan:

"There is regulatory requirement in certain industries such as construction and transport, that employers provide a safe working environment". (Guardian, 12/17/2014)

"Qurilish va transport kabi ba'zi sohalar ish beruvchilar uchun xavfsiz ish muhitini ta'minlash uchun qonuniy talabga ega".

Bu gapga "soha" so'zi qo'shilgan, chunki u qotib qolgan klishedir.

Qo'shishdan farqli o'laroq, tushirib qoldirish ham mavjud. Ushbu usul ortiqcha ta'sirni oldini olish uchun ishlatiladi. Jumladan, hech qanday semantik vazifa bajarmaydigan elementlar tushirib qoldiriladi. O'zbek tiliga tarjimada tillar o'rtasidagi obyektiv tafovutlar tufayli artikl, shuningdek ko'makchi fe'llar tushirib qoldiriladi. Masalan:

"Newspapers continue to occupy an important role in society".

"Gazetalar jamiyatda hali muhim rol o'ynashda davom etmoqda".

Yuqoridagi jumlada "continue" tushirilgan, u "hali" sinonim so'zi bilan qoplangan.

Konkretlashtirish qo'llanilganda ingliz tilidagi keng ma'noli so'z o'zbek tiliga tor ma'noli so'z bilan tarjima qilinadi. Ko'pgina tilshunoslar o'zbek tilining lug'ati ingliz tilining lug'atiga qaraganda ko'proq o'ziga xoslik bilan ajralib turishini bir necha bor ta'kidlashgan. Masalan:

"The victory in the UEFA Champions League went to the team «Real Madrid» at the additional time". (Guardian, 15/05/2015)

"Real Madrid" qo'shimcha bo'limlardan so'ng UEFA Chempionlar ligasini qo'lga kiritdi".

Ingliz tilidagi "go", "be", "come" va boshqalar kabi fe'llar ko'p ma'noga ega va tarjimada aniqlikni talab qiladi. Ushbu jumlada bo'lgani kabi, went "yutdi" deb tarjima qilingan, chunki bu fe'l ko'proq "g'alaba" otlari bilan birlashtirilgan.

Tarjimaning keyingi usuli modulyatsiya yoki semantik rivojlanishdir. Shu bilan birga, tarjimon manba tildagi so'zni qayta o'ylangan ma'noga ega tarjima til so'ziga almashtiradi. Masalan:

"A politician must have a twisted conspiratorial mindset to even attempt to deny the obvious". (Guardian, 19.01.2015)

"Siyosatchi hatto aniq narsalarni inkor etishga urinish uchun fitnachi fikrga ega bo'lishi kerak".

Ushbu misolda "conspiratorial" sifatdoshi modulyatsiyaga uchragan, chunki "tafakkur" "fitnaviy" bo'lishi mumkin emas, shuning uchun bunday semantik rivojlanish bu yerda mos keladi.

Konkretlashtirishning qarama-qarshi hodisasi – umumlashtirish, ya'ni tor ma'noli tushunchani kengroq tushunchaga o'tkazish. Ammo ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjimonlar bu usuldan kamroq foydalanadilar. Misol uchun,

"Pesticides temporarily banned because of fears that they kill honeybees could also damage populations of bumble bees, butterflies and moths, scientists claim." (Times, 04/09/2015).

"Olimlar asalarilar va boshqa hasharotlar populyatsiyasini yo'q qilishdan qo'rqib, pestitsidlardan foydalanishni vaqtincha to'xtatishni talab qilmoqdalar".

Bu umumlashtirish o'rinli, chunki o'zbek o'quvchisi uchun hasharotlarning barcha nomlarini sanab o'tish keraksiz ma'lumotdir. Ammo siz ushbu texnikani suiiste'mol qila olmaysiz.

Gaplar har doim ham turli grammatik transformatsiyalar yordamida tarjima

qilinmaydi. Ba'zan gapning tuzilishi o'rganilayotgan tilda to'liq saqlanib qoladi. Bu hodisa sintaktik assimilyatsiya deb ataladi. Misol uchun, quyidagi jumla ingliz tilidagi varianti bilan bir xil tuzilmani saqlab qoladi:

"The Soviet government has authorised the Soviet Ambassador in the United States, V.N.Zarubin, to take part in these discussions". (Guardian, 07/05/2015)

"Sovet hukumati AQShdagi elchisi V.N.Zarubinga munozaralarda ishtirok etish huquqini berdi".

Misol uchun:

"More than 1,900 people have been killed across four countries after a devastating 7.9 magnitude earthquake struck Nepal yesterday, collapsing buildings onto victims and triggering deadly avalanches on Mount Everest". (The Times, 25/04/2015)

"Kecha Nepalda sodir bo'lgan 7,9 magnitudali dahshatli zilzila to'rtta davlatdan 1900 dan ortiq kishining umriga zomin bo'ldi. U ko'plab binolarni vayron qildi va Everest tog'ida qor ko'chkisini keltirib chiqardi".

Birinchi gapdagi passiv konstruksiya faol konstruksiyaga tarjima qilingan. O'zbek tilida aniq nisbatdan foydalanish majhul nisbatdan ustun turadi. Jumlaning bo'linishi ham qiyin bo'lganligi sababli tarjimada ishlatilgan. Gerund ingliz tilida juda tez-tez ishlatiladi. Va bu jumlada "collapsing" va "triggering" o'zbek tiliga fe'l sifatida tarjima qilingan.

Jumalarning qismlarga bo'linishi va birlashishi ingliz tilidan tarjima qilishda o'zbek tilining tushunish qiyin bo'lib chiqishi bilan bog'liq, shuning uchun jumlani bo'linishni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Aksincha, birinchisining fikri ikkinchi gapda rivojlansa, u holda gaplar birlashtirishi kerak. Keling, jumlar bo'linishiga misol keltiraylik:

"Overseeing the largest military parade since the collapse of the Soviet Union, Vladimir Putin yesterday took a swipe at America, accusing the Kremlin's Second World War ally turned Cold War rival of undermining international co-operation." (The Times,

5/10/2015)

"Kecha Sovet Ittifoqi parchalanganidan keyingi eng yirik harbiy paradda Vladimir Putin Amerikani tanqid qildi. U Kremning Ikkinchi Jahon urushidagi ittifoqchisini Sovuq urushni xalqaro hamkorlikka putur yetkazganlikda aybladi".

Ushbu misolda jumlar bo'linishi ishlatilgan, chunki qisqa jumlar o'zbek gazeta-jurnalistik uslubiga xosdir, shuning uchun ortiqchalik ta'siridan qochilgan.

Tarjimon antonimik tarjimadan ham foydalanishi mumkin. Bunda manba tili leksik birligi haqidagi fikr uning tarkibidagi o'zgarish bilan tarjima tilidagi qarama-qarshi tushuncha orqali ifodalanadi. Ushbu uslub ko'pincha ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilinganda jumlagi ekspressivlikni qo'shish uchun ishlatiladi. Masalan:

"The foreign secretary has warned that multinational companies will stop investing in India if the country fails to abolish its tax regime". (Times, 03/13/2015)

"Tashqi ishlar vaziri, agar mamlakat soliq rejimini bekor qilmasa, transmilliy kompaniyalar Hindistonga sarmoya kiritishda davom etmasligi haqida ogohlantirdi".

"Will"ni "etmaslik" bilan almashtirishga yaqqol inkorning qo'llanishi sabab bo'lgan, "stop" fe'li o'rniga "davom et" fe'lining qo'llanishi esa yashirin inkor, ya'ni bunda antonim tarjimadan foydalanilgan.

Shunday qilib, gazeta matnlarini tarjima qilishning ko'plab usullari mavjud. Ammo ulardan to'g'ri foydalanish kerak. Ijtimoiy-siyosiy maqolalarni tarjima qilishda ko'proq ekvivalentlikka erishish mumkin, chunki u yerda umumiy qabul qilingan atamalar qo'llaniladi. Qiyinchiliklar har doim so'zlashuv lug'ati, siyosatchilarning o'ziga xos nutqlari, jargon va qo'shma so'zlarning tarjimasi tufayli yuzaga keladi. Tarjimon gazeta uslubining bunday jihatlarni tarjima qilish uchun yetarli malakaga ega bo'lishi kerak.

ERKIN VOHIDOV BADIY PUBLITSISTIKASI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR

Shukrullo Alishboyevich Jo'rayev - o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti
Akram Rayimqulovich Muhammadov - o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Maqolada Erkin Vohidovning badiiy ijod, so'z va uning badiiy-estetik ahamiyati, adabiy jarayon hamda ijodkor shaxsiyati haqidagi qarashlari o'rganilgan.

Аннотация: В статье анализируются художественно-публицистические произведения Эркина Вахидова о художественном творчестве, слове и его художественно-эстетическом значении, литературном процессе и личности творца.

Abstract: The article analyzes the artistic journalistic works of Erkin Vahidov about artistic creativity, words and their artistic-aesthetic significance, literary process and the personality of the creator.

Калит so'zlar: Badiiy publitsistika, maqola, so'z, mumtoz adabiyot, adabiy tanqid, adabiyot maydoni.

Ключевые слова: Художественная публицистика, статья, слово, классика литературы, литературоведение, литературное поле.

Keywords: Artistic journalism, article, word, classic literature, literary criticism, literary field.

Erkin Vohidov publitsistikasining g'oyaviy-badiiy problematikasi, ya'ni mavzu va muammolari doirasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularni shartli ravishda katta uch guruhga ajratish mumkin.

Ulardan birinchi katta guruh bu – so'z qudrati, so'zning badiiyatdagi o'rni masalasi; ikkinchi katta guruh esa – mumtoz va zamonaviy adabiyot, badiiy ijod muammolari; uchinchi turkum guruh – ustoz va zamondosh adiblar ijodiga munosabat masalalari hisoblanadi.

Muallif badiiyatning qaysi muammolari haqida fikr yuritmasin, albatta u qarashlar ming bir marta sinalib, xulosa qililib, asoslangan hamda ilmiy tomondan isbotlangan mulohazalar ekanligiga amin bo'lamiz.

Jumladan, adibning ta'kidlashicha, "Navoiyning so'z boyligi beqiyos. Sababi hazrat fors tilini qanchalar mukammal bilsalar – o'z e'tiroflari bo'yicha: "fors alfozin kishi mendin ko'prak bilmaydur" – arab tilini ham shu qadar barkamol egallaganlar va ularni to'la istifoda eta olganlar. Turkiy tilning esa butun nazokatini, so'z boyligini "Muhokamat ul-lug'atayn" dagina emas, butun umr, butun ijod jarayonida namoyon qilganlar¹".

Darhaqiqat, hazrat Mir Alisher Navoiy ijodini mukammal bilgan navoiyshunoslarigina xuddi shunday teran tahlil bera olishlari mumkin. Lekin, Erkin Vohidov navoiyshunos

olim bo'lmasada, ushbu fikr va mulohazalari orqali Navoiy dahosiga nechog'lik yaqin ekanliklarini anglash mushkul emas.

"Erkin Vohidov zamondoshlariga aruzni, o'n to'rt kunlik oydek, yashartirib, yangilab, qaro ko'zlariga surma, qo'llariga esa xino qo'yib berdi. "Sovet davriga yot", "eskirgan", "yangi madaniy davrning g'oyaviy boyligini ifodalashga noqodir", deb ayblanib kelingan aruz, Erkin Vohidov tufayli, zamonaviy, serimkon, jozibador vazn sifatida yarqirab ketdi. Shoir shu sohada izlanishlarini davom ettirib, aruzning mumtoz Sharq adabiyotidagi pirlaridan biri – Alisher Navoiy g'azallarida ifodalangan badiiy mazmunning boy va go'zalligini, ulug' shoirning she'riy san'atlardan foydalanish mahoratini shunday yorqin ko'rsatib berdiki, biz endi "Qaro ko'zim"ni aytgan hofizning ovoqidangina emas, uning tilidan kuylanib chiqayotgan so'zlarning turfa va chuqur ma'nolarini chaqib ham sel bo'ladigan bo'ldik²".

Biror milliy til va uning ravnaqi yo'lida g'amxo'rlik qilish – bu bir guruh mutaxassislar yoki ijodkorlargagina tegishli bo'lgan ilmiy yoki amaliy tadbir emas, lekin jahon madaniyati tarixiga nazar tashlasak, shunday bir hodisaning guvohi bo'lamiz. Hamisha ulug' adib va mutafakkirlar o'z milliy tilining ravnaqi va istiqboli uchun kurashib kelganlar. Shu jihatdan qaralganda atoqli so'z san'atkori

Erkin Vohidovning o'zbek tilimiz rivoji, uning sofligi va xalqchilligi yo'lidagi faoliyatini alohida o'rganishga loyiq deb o'ylaymiz. Erkin Vohidovning ona tilimiz boyligi va rivoji yo'lidagi kurashi izchil bo'lib, u turli yo'nalish va shakllarda namoyon bo'lganligini ko'rish mumkin. U o'zbek tilining xalqchilligi, sofligi va milliyligini asrash hamda uni ardoqlash yo'lida beqiyos faollik ko'rsatgan fidoiy ijodkorlardan sanaladi. Adibning bir qator yetuk she'r va dostonlari, o'nlab maqolalari ana shu ezgu maqsad bilan yo'g'rilganligi fikrimiz tasdig'i bo'la oladi.

Jumladan, Erkin Vohidovning "So'z – zabarjad, so'z – gavhar, oltin" sarlavhali maqolasida muallif so'zning qudrati, uning shoir va ijodkorlar ijodida nechog'lik ahamiyati xususida qarashlarini bayon etadi. She'riyat olamida qalam tebratuvchi har qanday ijod ahli shuni bilishadiki, ijodkorlar so'zni qurilish ustasining tosh va g'ishtlardan foydalanganidek ishlatishmaydi. Ijodkor o'z asariga tanlagan so'ziga ko'ngil rishtasini bog'laydi. Shoirning qalbidan to'kilgan tuyg'ulari so'zga, undan so'ng esa she'riyat muxlislarining ko'ngliga joylanadi. Xuddi shu ma'nodagi ruhiy aloqalar ijodkorni so'zga, so'zni kitobxonga, kitobxonni esa shoirning badiiy tafakkur olamiga bog'laydi.

Shoirning mazkur maqolasida shu kabi masalalar xususida muallif fikr yuritadi. Har bir tanlangan so'z muallifning o'ziga xos uslubi orqali ma'lum bir badiiy-estetik vazifani bajarganligini ko'rishimiz mumkin.

Insonning insondan, so'zning so'zdan farqi bo'lganidek, faylasuf so'zi ong hamda tafakkurga, shoir so'zi inson qalbi va hissiyotiga ta'sir etadi. Shu sababli barcha betakror so'z she'r bo'lmaganidek, she'riy so'z hikmat bo'lavermaydi. Oddiy hayotiy falsafadan farqli ravishda she'riy asarlarning o'ziga xos mantiqiy yechimi mavjud. Shunga mos tarzda she'riyat olamiga qadam qo'yan har bir yosh ijodkor o'zining badiiy tafakkur olami yo'nalishini belgilab olishi lozim.

Adibning yana bir muhim "Qalbimiz hududlarini omon saqlaylik" ("Yoshlik" jurnali tahririyati Alisher Nazar bilan suhbat) nomli badiiy publitsistik maqolasida badiiy ijod, adabiyotning yashovchanligi va sofligi, ijodkor e'tiqodi hamda fidoiyligi, iste'dodning yuzaga chiqishida ijtimoiy-tarixiy muhitning ta'siri masalalari xususida fikr yuritilgan.

Muallif ta'kidlaganidek, "Abdulla Qahhor tabiatan isyonkor adib sifatida bizni yo'ldan qaytarish emas, aksincha qo'llab-

quvvatlash, qalqon bo'lishdek mas'uliyatni zimmasiga olgan edi. O'z asarlariga bizning she'rlarimizdan epigraf olgani, "men shu shoirlar tomonidaman, ularga tega ko'rmang", degan jasoratli xitobi edi.

Ijodkorlar bir-biriga o'xshamaganlari kabi ustozlarimiz Mirtemir, Zulfiya, Asqad Muxtor, Shuhrat, Saida Zunnunova, Ozod Sharafiddinovlarning bizga mehru ardog'i ham turli yo'sinda bo'lgan. Ularning yodi oldida qarzdormiz va bu qarzni ijodkor yoshlarga mehr ko'rsatib uzmog'imiz kerak³".

Haqiqatan ham muallif ta'kidlaganidek, o'tgan asrning 60-70-yillarida adabiyotga, badiiy ijodga bo'lgan mafkuraviy tazyiq juda ko'plab yosh ijodkorlarning o'z to'g'ri yo'lidan adashib, badiiy ijod olamining keng sarhadlaridan biroz chetlashib qolishlariga ham sabab bo'lgan. Ularning haqqoniy ijod namunalari o'sha davr adabiy tanqidchiligi tomonidan nohaq tahlilu talqinlarga uchrab chop etilmay qolish holatlari ko'plab uchrab turgan. Erkin Vohidov xuddi o'sha muhitda ijod qilgan adiblardan biri sifatida, adabiyot maydoniga endi kirib kelayotgan shoir va yozuvchilarga har doim ham oson bo'lmaganligini ta'kidlab, bu borada taniqli adib Abdulla Qahhorning o'z ijod yo'lida nechog'lik ahamiyat kasb etganligini e'tirof etib o'tadi.

Erkin Vohidov ushbu suhbat maqolasida mulohazalarini davom ettirib, o'sha davrda ijod qilgan ustozlar o'z fe'l-atvoriga muvofiq turfa xil bo'lganligini, ularning har biri yosh qalamkashlarga o'zlarining qimmatli maslahatlarini berganliklarini ta'kidlaydi: "G'afur G'ulom 1966-yilning aprelida Tojikiston yozuvchilari anjumaniga borar ekan, Komil Yashinga aytib meni ham ro'yxatga kiritganini, yo'l-yo'lakay bu bolaning qulog'ini cho'zib qo'yaman, deb aytganini eshitganman. Darhaqiqat u kishi o'sha safardan qaytishda menga tanbeh berib: "Siyosatga to'g'ri kelmaydigan she'rlar yozarmishsan. Hukumat bilan o'ynashma, jimjiloqdek shoirsan. Bu davlat marshallarni ham otgan", degani qulog'imdan ketmaydi."

G'afur G'ulomning Erkin Vohidovga bergan maslahatlarini chin ko'ngildan, otalarcha berilgan nasihat sifatida tushunish lozim, deb o'ylaymiz. Chunki, keksa avlod vakillari, jumladan G'afur G'ulom ham Stalin qatag'onining bir necha to'lqinlarini ko'rgan, guvoh bo'lgan inson sifatida yosh shoirning o'zini asrashi lozimligini chin ko'ngildan xohlaganligini anglab olishimiz mumkin.

¹ Воҳидов Э. Сўз лаофати. – Т.: Ўзбекистон, 2018 йил 14-15-бетлар.

² Каримов Н. Эркин Воҳидов гулшани. Эркин Воҳидов ижодининг туркий халқлар маданиятида тугган ўрни (Халқаро илмий-амалий конференция материаллари). – Т.: ЎЗМУ, 2022 йил 10-бет.

³ Воҳидов Э. Эрк саодати. Асарлар. Олтинчи жилд. – Т.: Шарқ, 2018 йил 270-271-бетлар.

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA "METALLAR KORROZIYASI" MAVZUSINI O'QITISHDA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISH

Kamila Xamidovna Rashidova - dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti
Ozoda Jo'raqulovna Akbarova - magistrant, Jizzax davlat pedagogika universiteti
Kamola Mirsharofovna Anorboyeva - talaba, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqola umumta'lim maktablarida "Metallar korroziyasi" mavzusini o'qitishda zamonaviy metodlar yordamida o'quvchilarning kreativ fikrlarini shallantirishga qaratilgan. Maqolada o'tilgan mavzu va yangi mavzuni mustahkamlash uchun mavzuga doir "Keys-Stadi", "Assisment", "Tushunchalar tahlili" kabi interfaol metodlarning ishlanmalari keltirilgan.

Аннотация: Данная статья направлена на стимулирование творческой мысли учащихся с помощью современных методик преподавания темы коррозии металлов в общеобразовательных школах. В статье представлена разработка интерактивных методов, «Кейс-Стади», «Ассисмент», «Концептуальный анализ» с целью закрепления новой темы.

Abstract: This article aims to stimulate the creative thoughts of students using modern methods in teaching the subject of metal corrosion in secondary schools. The article presents the development of interactive methods such as "Case-Study", "Assessment", "Concept Analysis" to strengthen the topic and the new topic.

Kalit so'zlar: kimyoviy korroziya, elektrokimyoviy korroziya, ingibirlash, himoya qavatlar, fosfatlash, ingibitorlar, elektrokimyoviy himoya, anod qoplama, katod qoplama.

Ключевые слова: химическая коррозия, электрохимическая коррозия, ингибирование, защитные слои, фосфатирование, ингибиторы, электрохимическая защита, анодное покрытие, катодное покрытие.


Keywords: chemical corrosion, electrochemical corrosion, inhibition, protective layers, phosphating, inhibitors, electrochemical protection, anodic coating, cathodic coating.

Dunyoda sanoat intensiv ravishda rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotining turli sohalarida metallar korroziyasini oldini olish, ingibirlash sistemalarini va antikorroziya qoplamalarni yaratish amaliy hamda nazariy jihatdan alohida ahamiyatga kasb etadi. Kimyo va neft-kimyo sanoati rivojlangan mamlakatlarda metallar korroziyasi natijasidagi yo'qotishlar katta iqtisodiy zarar yetkazadi. Shu sababli umumta'lim maktablarida "Metallar korroziyasi" mavzusini keng qamrovli, interfaol metodlar yordamida tushuntirish, ularning fikrlash doirasini ham kengaytiradi.

Korroziya — metallarning atrof-muhit bilan ta'sirlashishi natijasida yemirilish jarayondir. Kimyoviy korroziya — metallning tashqi muhitdagi oksidlovchi bilan bevosita ta'sirlashishi natijasida yemirilishi. Elektrokimyoviy korroziya — bir-biri bilan kontaktda bo'lgan ikki xil metallning elektrolit, suv bilan bevosita ta'sirlashganda nisbatan faolroq yemirilishi. Kimyoviy korroziyaga natriy va kalsiyning havoda oksidlanishi, temirni nam havoda zanglashi, vodorod sulfidli, galogenli, oltingugurt (IV)-oksidli va boshqa gazli muhitda,

elektr tokini o'tkazmaydigan neft, benzin, toluol kabi suyuqliklar ta'sirida metall yemirilishi misol bo'ladi. Bunda elektronlar metallan bevosita oksidlovchilarga o'tadi. Fe(OH)₃ — bu modda temir (III)-gidroksid yoki siz ko'rgan temir buyumlar sirtidagi "zang" hisoblanadi.

Elektrokimyoviy korroziyada murakkab jarayonlar ro'y beradi. Metall buyumlarni bo'yashdan oldin fosfatlash bo'yoqlarning po'lat bilan mustahkam birikishini hamda sirtning turli nuqsonlarida korroziya yemirilishlarining kam bo'lishini ta'minlaydi. Fosfat qoplama hosil bo'lishi vodorod chiqishi bilan boradi. Temir atomlari bosqichma-bosqich kislotalar tarkibidagi vodorod atomlari o'rnini oladi:



Ko'pincha metallar korroziyaga ancha chidamli boshqa metallar (nikel, rux, xrom, aluminiy, oltin, kumush) bilan ham qoplanishi mumkin. Agar qoplama yemirilsa, ya'ni metal sirtining bir qismi ochilib qolsa, himoya qilinuvchi metal agressiv muhitga tushib, galvanik element hosil bo'ladi va metall korroziyalana

boshlaydi. Agar qoplama metall himoya qilinuvchi metallan faolroq, masalan, temir ustiga rux qoplangan bo'lsa, qoplangan metall (rux) anod bo'ladi va bunday qoplama anod qoplama deyiladi. Himoya qilinayotgan metall (temir) katod bo'ladi va u qoplangan ruxning hammasi sarflanib bo'lmaguncha buzilmaydi. Himoya qiluvchi metallga qaraganda faolligi kamroq bo'lgan metallar katod qoplama hosil qiladi. Agarda katod qoplama buzilsa, himoya qilinuvchi metall juda tez korroziyalanadi.

Korroziya muhitga ishlov berish. Metall atrofidagi muhitdan zararli qo'shimchalar chiqarib tashlanib, erigan kislorod va tuzlar miqdori kamaytirilsa, ular ta'sirida korroziyalanadigan metallarning korroziyalanishini kamaytirish uchun korroziyani sekinlatuvchi ingibitorlar deb ataluvchi moddalar ishlatiladi³.

Ingibitorlar — maxsus moddalar bo'lib, korroziya muhitga oz miqdorda (10⁻⁶-10⁻³ mol/l) qo'shilganda korroziya jarayon tezligini keskin pasaytiradi yoki butunlay to'xtatadi. Ingibitorlar sifatida turli individual organik va noorganik moddalar hamda ularning aralashmalari qo'llanadi.

Dars jarayonida o'tilgan va yangi mavzularni bir-biriga bog'lash o'quvchilar uchun muhim bo'lib, bunda ular o'z bilimlarini yanada mustahkamlaydilar. Masalan, metallar haqidagi ma'lumotlarni juftlash uchun (1-topshiriq), o'quvchilar metallarning ishlatilishi va fizik-kimyoviy xossalriga doir mavzularni, yangi o'tilgan darslarni o'zlashtirgan bo'lishi kerak.

1-topshiriq. Metallar raqamini ular haqidagi ma'lumot bilan juftlang.

No	Metallar	Metallar haqidagi ma'lumot
1	Oltin -Au	A "Og'ir tosh" nomi bilan ataluvchi taqsim mineral kislotalar yordamida parchalanish natijasida olingan. Uning ayyoqlanish harorati +1400C (qayish sirtidagi kabi)
2	Kumush-Ag	B Agar s metall bo'lmaganida ko'pgina avtomobillarning vani iki baravar og'irroq, yuqorigi sarti ham iki baravar ko'proq bo'lar edi. Shuning uchun ham "avtomobil metalli" deb ataladi.
3	Mis-Cu	D O'simlik, daraxt barglarida organik moddalarning ustasi yoki hosil bo'lish fotosintezni barglardan kislorod ajralib chiqishi va quyosh energiyasi yutilishi, barglari organik moddalarda energiya "yashirincha" ko'rsatishda yig'indisi.
4	Zn-Zn	E Tibbiyotda saraton kasalligi, turli shifonisi va aterosklerozda ishlatiladi.
5	Volfram-W	F Rossiya iqtisodiyotida birinchi o'ringa chiqqan. Moskvada ma'lumiyatda buyuk Ivan karkasi minora yasalgan. Dengiz moyulkalar, qashqabqashimolarni qoni tashqidaq gemotomamida uchraydi va natija olish jarayoni boshqaradi. Shuning uchun ularning qoni harorati bo'ladi.
6	Vandiy-V	H Qatimda bi metallan taxtacha (bruzok) tayyorlab unama lam bo'labatani "pul" vositanda qo'llanilgan. Shunday arado maonala rosta pal butigi (nati) kabi chiqqan.
7	Alyuminiy-Al	G Agar, provinta ben, ko'zning to'y parchalash to'planadi. Qon yurish, ichki sekreniya belani faoliyatida ishtirok etadi. Organizmida CO ₂ hosil bo'lishi va og'irlarni o'zlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Uning birikmalarining ko'pi yuqumotatir.
8	Magnez-Mg	J D.I.Mendeleyev elementlarni har bir jadvallari kabi etqani uchun o'ziga vaqtida oltin 22 marta qimmat bo'lgan metallan yasalgan kaslikka bilan taqdirlangan.


3 Akbarov H.I., Sagdullayev B.U., Xoliqov A.J. // Fizikaviy kimyo, Toshkent: "Universitet". 2019.

4 Golish L.V., Fayzullayeva D.M. // Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish// O'quv uslubiy qo'llanma, Ta'limda innovatsion ta'lim texnologiyasi seriyasi. Toshkent, 2010y. 149b.

Topshiriq javobi: 1-E; 2-H; 3-F; 4-G; 5-A; 6-B; 7-J; 8-D;

O'quvchilarning kreativ fikrlashini ularning ijodiy fikrlash qobiliyatlarida, o'z aksini topadi⁴. Yoritgich lampochkasi qaysi metallardan tashkil topganligi to'g'risidagi topshiriqda (2-topshiriq) aynan ularni fikrlashga chorlaydi va topshiriqni bajarishda o'z bilimlariga tayangan holatda javob yozish lozim bo'ladi.

2-rasmga izoh yozing. Yoritgich irdan tashkil topgan?



Yangi mavzuni mustahkamlashda o'quvchilar berilgan bilimlarni qanday o'zlashtirganliklarini "Assesment" metodi

Test	Qisqartirib
<p>1. Iqibirlash deb nimga aytiladi?</p> <p>a) Korroziya muhitning faolligi kamaytirish</p> <p>b) Korroziya muhitning faolligi oshirish</p> <p>c) Korroziya muhitning faolligi taqsimlash</p> <p>2. Fosfatlash deb nimga aytiladi?</p> <p>a) Qora va oq metallar sirtidagi fosfat qoplamalar olish usuli.</p> <p>b) Qora va rangli metallar sirtidagi fosfat qoplamalar olish usuli.</p> <p>c) Qora va rangsiz metallar sirtidagi fosfat qoplamalar olish usuli.</p>	<p>Muammoli vaziyat.</p> <p>Dehli iqtisodiyotida birinchi o'ringa chiqqan. Moskvada ma'lumiyatda buyuk Ivan karkasi minora yasalgan. Dengiz moyulkalar, qashqabqashimolarni qoni tashqidaq gemotomamida uchraydi va natija olish jarayoni boshqaradi. Shuning uchun ularning qoni harorati bo'ladi.</p> <p>Korroziyaga qarshilikning usuliy usuli metall yuzasida tabiiy ravishda hosil bo'lgan oksidli plyonkadir. Temir tashqidaq fosfatning ko'payishi plyonka hosil qilib qotilyatini oshirgan.</p>
<p>Savol</p> <p>Temir qotilyatini tarkibi ...% temir bo'lib, magnezdir. Uning qotilyatini oshirish usuli.</p> <p>Javob:</p>	<p>Amaliy ko'rsatma</p> <p>Temirni magnez bilan reaksiya tajribalarida oshirish.</p>

Keys-stadi metodi orqali o'tilgan mavzuni mustahkamlash

Keys harakatlari o'z ichiga quyidagilar savollar bo'yicha faoliyatni qamrab oladi⁵:

- Kim? (Who?),
- Qachon? (When?),
- Qayerda? (Where?),
- Nima uchun? (Why?),
- Qanday?/ Qanaqa? (How?),
- Nima? (natija) (What?)

Rossiyaning "Suv parisi" nomli suv osti kemasi – 1893-yilda Reval (Tallin)dan Xelsingforsga (Xelsinki) o'tish paytida cho'kib ketgan. Kema bortida 177 nafar dengizchi bo'lgan. XIX asrning oxirida "Suv parisi" ning halokati Rossiya uchun dahshatli fojia bo'ldi. Rossiya kemasi estoniyalik dengiz arxeologlari tomonidan Finlandiya hududida topilgan. Qadim zamonlardan beri Yevropani Osiyo bilan bog'laydigan eng muhim dengiz yo'llari Qora dengiz orqali o'tgan. Qora dengiz tubida nafaqat cho'kib ketgan kemalarning qoldiqlarini uchratish mumkin, balki ular tomonidan tashilgan barcha buyumlarni ham ko'rish mumkin⁶.

Qizig'i shundaki, cho'kkan buyumlar o'zgarmagan holatda topilgan. Ammo, suv osti kemalari yer yuzasiga ko'tarilishi bilan oq, ularning korpuslari tezda zanglab, qulab tushgan. Cho'kkan metal buyumlarning o'zgarmasligiga va suv yuzasiga chiqqan kemanding zanglashiga nima sabab bo'lgan? Javobingizni izohlang?

1. Korroziya nima?
2. Nima uchun dengiz chuqurligida korroziya darajasi ahamiyatsiz ekanligini tushuntiring.
3. Korroziyadan himoya qilishning qanday usullari mavjud?
4. Nima uchun kimyoviy jihatdan sof temir korroziyaga texnik temirga qaraganda ancha chidamli? Texnik temirning nam havoda va nitrat kislotada korroziyasida yuzaga keladigan anod va katod jarayonlarining tenglamalarini tuzing.

1.Korroziya – metallarning atrof-muhit bilan ta'sirlashishi natijasida yemirilish jarayoni. Kimyoviy korroziya – metallning tashqi muhitdagi oksidlovchi bilan bevosita ta'sirlashishi natijasida yemirilishi.







Elektrokimyoviy korroziya – bir-biri bilan kontaktida bo'lgan ikki xil metallning elektrolit, suv bilan bevosita ta'sirlashganda nisbatan faolroq yemirilishi.

2.Harakatlanuvchi suvda korroziya tezligi yuqori, pastki qismida suv harakati tezligi deyarli nolga teng; Dengiz tubida kislorod yo'q, kislorodsiz esa korroziya rivojlanmaydi. Mikroorganizmlar tomonidan ifloslanish ham korroziya jarayonini sekinlashtiradi.





3.Himoya qoplama hosil qilish. Korroziyon muhitning faolligini kamaytirish (ingibirlash). Metallning xossalari o'zgartirish (qo'shimchalarni yo'qotish yoki qo'shimchalar qo'shish). Elektrokimyoviy himoyalash. Kimyoviy barqaror materiallardan foydalanish.

4.Texnik temir tarkibida, katod vazifasini bajaradigan aralashmalar mavjud. Kimyoviy toza temirda u qayerda oksidlanmasin, tarkibida temir bilan galvanik juft hosil qiladigan aralashmalar yo'q. Texnik temirning korroziyasi paytida quyidagi reaksiyalar sodir bo'ladi:

Nam havoda



Nitrat kislotada



Yuqorida nazariy va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish uchun, metallarning korroziyalanish mexanizmlari (kimyoviy, elektrokimyoviy) va sodir bo'lish sharoitlari, hamda ularning korroziyalanishi kimyoviy faolligiga bog'liqligi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan. Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, zamonaviy metodlar asosidagi darslar o'quvchilarni fanga va mavzuga, nisbatan qiziqishlarini, oshirishga yordam beradi. Bugungi kunda ta'lim jarayonining sifatini oshirishda o'quvchini qiziqitira olish, o'zlashtirishning yuqori sifat darajasiga erishish uchun muhim omil hisoblanadi.

ELEKTRON, AVTOMATIK VA AVTOMATLASHTIRILGAN LUG'AT TUSHUNCHALARINING O'ZARO NISBATI

Aziza Abdumannapovna Sharipova - f.f.b.f.d., (PhD), dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqola elektron, avtomatik va avtomatlashtirilgan lug'at tushunchalarining o'zaro bog'liqligiga bag'ishlangan. Lug'atlarning elektron turlarining asosiy afzalliklari ham qayd etilgan. Bundan tashqari, maqolada lug'atlarning elektron va an'anaviy xususiyatlarning tahlili aniqlangan.

Аннотация: Данная работа посвящена взаимосвязанности понятий электронной, автоматической и автоматизированной лексики. Также отмечены основные преимущества электронных типов словарей. Кроме того, в статье проводится анализ электронных и традиционных особенностей словарей.

Abstract: This work is devoted to the interrelation of the concepts of electronic, automatic and automated vocabulary. The main advantages of electronic types of dictionaries are also noted. Also, the article analyzes the electronic and traditional features of dictionaries.

Kalit so'zlar: leksikografiya, elektron lug'at, multimedia vositalari, elektron nashr, lug'at.

Ключевые слова: лексикография, электронный словарь, мультимедийные средства, электронное издание, словарь.

Keywords: lexicography, electronic dictionary, multimedia tools, electronic edition, dictionary.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining rivojlanishi ta'lim jarayonini masofadan turib tashkil etish, boshqarish, nazorat qilish imkoniyatlarini oshiradi. Natijada masofali ta'lim kompyuterli ta'limning eng yetakchi maqomini ola boshladi. 1. Elektron o'quv nashrlari – o'quv dasturiga mos keluvchi turli ma'ruzalar, seminarlar, laboratoriya ishlari va keys texnologiyalar. 2. Multimediali o'rgatuvchi dasturlar – animatsiya va tovushli kuzatuvli o'quv kurslari. 3. Elektron darsliklar – o'qitishni avtomatlashtirishga mo'ljallangan elektron o'quv nashri. 4. Elektron o'quv qo'llanmalar – fanning alohida bo'limlari, mashqlar yoki masalalar to'plami, ma'lumotnoma va boshqalar. D.Sayfurov fikricha elektron o'quv adabiyotlari an'anaviy o'qitish shakllari kamchiliklarini bartaraf etish imkonini beradi Keyingi yillarda elektron o'quv adabiyotlarini yaratish va elektron lug'atli-ma'lumotli materiallarni ishlab chiqish keskin rivojlandi. Elektron o'quv nashrlarni tarmoq orqali tarqatish imkoniyati yaratildi. Elektron o'quv adabiyotlarining yana bir ahamiyatli jihati shundaki, undagi o'quv materiali, tasviriy materiallar eskirmaydi va emirilmaydi, saqlash uchun ko'p maydon va hajmni talab etmaydi. Elektron o'quv adabiyotlarni yaratish bosma nashrlardan ko'ra sezilarli darajada oshib

bormoqda¹.

"Leksikografiya" so'zi yunoncha bo'lib, u "so'z, lug'at bilan bog'liq" lexikos va grapho "men yozaman" leksemalariga borib taqaladi. Binobarin, leksikografiya: "Men so'z yozaman" yoki "Men lug'atlar yozaman" degan ma'noni bildiradi.

M.V.Avdeevaning ta'kidlashicha, zamonaviy ma'noda "leksikografiya – bu tilga oid bo'lmagan, ensiklopedik lug'atlardan farqli ravishda, asosan, lingvistik, lingvistik lug'atlar tuzish nazariyasi va amaliyotidir. Leksikografiya ilmiy fan sifatida murakkab, ammo leksikografiyaning belgilovchi xususiyati uning amaliy yo'nalishidir. Olimlarning ta'kidlashicha, nazariy leksikografiya lug'atning makro tuzilmasi va mikrostrukturasi rivojlanishini, lug'atlar tipologiyasining rivojlanishini, leksikografiyaning rivojlanish tarixini o'rganadi.

M.V.Avdeevaning fikriga ko'ra, lug'atning makrostrukturasi lug'atning tanlanishini, lug'at hajmi va xarakterini, materialni joylashtirish tamoyillarini belgilaydi. Amaliy leksikografiyani nazariy ishlanmalar asosida har xil turdagi lug'atlarni tuzish jarayoni deb ta'riflash mumkin².

Aksariyat ekspertlarning fikricha, jamiyat axborotlashgani sari, umuman, zamonaviy

5 Yo'ldoshev J., Yo'ldosheva F., Yo'ldosheva G. // Interfaol ta'lim – sifat kafolati// O'quv qo'llanma. Toshkent, 2008.

6 Ismailova Z.K., Musayev R.S., Shoyusupova A.A. // O'qitishning zamonaviy texnologiyalari// O'quv qo'llanma, Toshkent-2010. 36b.

1 Elov B. "Elektron lu'atlar, tezaurus, ontologiyalar elektron ta'limda zaruriy vositalar sifatida" Kompyuter lingvistikasi, muammolari va yechimlari. Respublika I ilmiy va texnik konferensiyasi. 2021. B. 177-182.

2 Avdeeva M.V. Kompyuternaya leksikografiya v sisteme prakticheskoy i teoreticheskoy leksikografii. 2012. № 44. B. 26–28.

leksikografiyaning tabiati ham o'zgaroqda. Hozirgi kunda leksikografik ish uchun kompyuterdan foydalanish ilmiy tadqiqotlarda ham, lug'atlarni amaliy qurishda ham tobora keng tarqalmoqda. Tadqiqot vositalarini o'zgartirish yangi lug'at texnologiyalarining paydo bo'lishiga olib keladi. Bugungi kunda kompyuter yordamida bajariladigan leksikografik ishlarning hajmi shunchalik kattaki, ko'plab mutaxassislar kompyuter leksikografiyasi fanining tegishli bo'limining paydo bo'lishi haqida ko'plab fikr mulohazalar bildirmoqda.

Kompyuter leksikografiyasi quyidagilarni ifodalaydi:

1) kompyuterlashtirishning jadal rivojlanayotgan tarmog'i;

2) tilshunoslikda o'rganuvchi amaliy ilmiy fan lug'atlarni tuzish nazariyasi va amaliyotida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish usullari, texnologiyasi va individual usullar³.

E.Y.Vaulina kompyuter leksikografiyasini "yaralish usulidan qat'iy nazar elektron shaklda mavjud bo'lgan lug'atlar to'plami" deb ta'riflaydi. Tadqiqotchining fikriga ko'ra, lug'atning elektron versiyasi, xususan, "lug'atning biron bir joyida mavjud bo'lgan va foydalanuvchi tomonidan shakllantirilgan so'rovga to'g'ridan-to'g'ri javob beradigan ma'lumotlarni tezda olish imkoniyatini berish uchun mo'ljallangan qulay islanmadir"⁴.

Masalan, lugat.uz gramota.ru, imlo.uz, vseslova.ru, km.ru va boshqa ba'zi saytlar lug'atlarning butun guruhida bir vaqtning o'zida berilgan so'z bilan bog'liq ma'lumotlarni qidirish imkoniyatini beradi. V.P.Selegey boshqacha nuqtayi nazarga ega, unga ko'ra "kompyuter leksikografiyasi nafaqat ko'rsatish, balki lug'at mazmuniga ham o'ziga xos yondashuvlarga ega bo'lgan amaliy leksikografiyaning alohida yo'nalishidir". Uning fikricha, "elektron lug'at qog'oz lug'atlarda turli sabablarga ko'ra talab qilinmagan ko'plab samarali g'oyalarni amalga oshirish va muomalaga kiritish mumkin bo'lgan maxsus leksikografik obyektidir"⁵.

A.V.Shlyaxova "Elektron lug'at" deb nomlangan ishida turli tavsiflarni beradi. Bizning fikrimizcha, quyidagi xususiyatlar asosiy hisoblanadi:

- qaytariluvchanlik (o'zboshimchalik bilan, foydalanuvchining iltimosiga binoan, kirish va chiqish tillarini o'zgartirish);

- moslashuvchanlik (lug'atdan oson foydalanishda qidiruv shaklini

soddalashtiruvchi bir qator texnik usullar to'plami; qisqa vaqt ichida kerakli ma'lumotlarni olishi uchun qulaylik);

- dinamiklik (to'ldirish, tuzatish, eskirgan ma'lumotlarni olib tashlash).

- ko'plik (ko'p tillilik);
- hajm (har qanday miqdordagi lug'at birliklarini kiritish qobiliyati).

Qo'shimcha funktsiyalarga har xil turdagi ma'lumotlarni taqdim etish uchun multimedia vositalaridan foydalanish kiradi (foydalanuvchilarning har bir toifasiga mos turli xil talab va qiziqishlarga ko'ra audio, video, radio ma'lumotlari, animatsiya, o'yinlar, forumlar, eslatmalar)⁶.

Yuqoridagilarni sarhisob qiladigan bo'lsak, lug'atlarning elektron turlarining asosiy afzalliklaridan biri quyidagilardan iborat deb ta'kidlash mumkin: ular foydalanuvchilar uchun mavjud bo'lgan lug'atga yangi so'zlarni qo'shish imkonini beradi, shu bilan birga bosma nashrdan qayta chop etmasdan qo'shimcha ma'lumot qo'shish mumkin emas. Ammo elektron lug'atlarni yaratish zaruratining yana bir sababi bor: foydalanuvchi uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni qidirishni avtomatlashtirish. Ma'lumotni topish tezligi, hayot tezligi va har qanday qidiruv natijalarini tezda olish zarurati tubdan muhim bo'lgan zamonaviy dunyoda bu ayniqsa to'g'ridir.

Biroq, elektron lug'atlardan bir qancha sabablarga ko'ra hamma yerda ham foydalanilmaydi. Ushbu sabablarni aniqlash uchun biz elektron lug'atlar va an'anaviy lug'atlarni funksional taqqoslashni o'tkazamiz va ikkala turdagi lug'atlarning afzalliklari va kamchiliklarini aniqlaymiz.

Aksariyat elektron lug'atlar beshta funksiyani bajaradi:

- 1) ish paytida parallel so'rov;
- 2) o'zgartirish va tuzatish (nusxalash-joylashtirish);
- 3) qaydlovlar va eslatmalar;
- 4) eksport;
- 5) bosib chiqarish.

Elektron shakl juda katta imkoniyatlarni taqdim etadi. Ushbu imkoniyatlar bosma nashrga qaraganda ancha kengroq va ular ikkita omilga bog'liq:

1) elektron nashr nafaqat matnlar va rasmlarni, balki animatsiya, video va ovozni ham o'z ichiga olishi mumkin;

2) elektron nashr interaktivlikka ega, ya'ni u giperhavolalar orqali o'tishni va hatto

³ Fellbaum C. (1998, tahr.) WordNet: Elektron leksik ma'lumotlar bazasi. Kembrij, MA: MIT

⁴ Vaulina Ye. Strukturnaya i prikladnaya lingvistika. 2007. B. 187-196

⁵ Shlyaxova A.V. Elektronnii slovar i yego spetsifika Tyumen. 2008. B. 181-185.

⁶ o'sha manba

virtual makonni simulyatsiya qilishda shaxsiy ishtirokini ta'minlaydi.

Elektron va an'anaviy nashrlar xususiyatlar tahlil qilgandan so'ng biz ularning shakllarida quyidagi farqlarni aniqladik:

1) elektron shakl bilan ishlash uchun kompyuter talab qilinadi va qurilmaning operativ xotirasi, qog'oz shakli bilan ishlash uchun - kitob va undan foydalanish mahorati;

2) lug'atning an'anaviy turini yaratishda matbaa ta'minoti va matbaa xizmatlari, elektron lug'at uchun esa dasturlash ko'nikmalari, ma'lumotlarni o'qiydigan kompyuter va hokazolarni yagona mahsulotga jamlash talab etiladi; shunday qilib, biz elektron lug'atlarni ishlab chiqarishning ekologik xavfsizligi haqida gapirishimiz mumkin;

3) elektron lug'at eng to'liq ma'lumot va ma'lumotnomalarni o'z ichiga olishi mumkin, an'anaviy lug'at cheklangan hajmga ega bo'lishi mumkin, shuning uchun uni yaratishda kiritilgan ma'lumotlar miqdorini cheklash kerak;

4) qog'oz lug'atlar bilan ishlash chiziqli tarzda sodir bo'ladi ("nomenklatura bo'yicha yoki butun matn bo'ylab so'zni qidirish"⁷), elektron lug'atlar bilan esa siz parchalangan usulda ishlashingiz mumkin ("so'zni faqat nomi bo'yicha qidirish ("nomenklatura");

5) elektron lug'atlar nashrning dizayni uchun an'anaviy lug'atlarga qaraganda ko'proq imkoniyatlar beradi: ranglardan foydalanish, sahifalash, har xil turdagi ma'lumotlarni vizualizatsiya qilish; boshqa tomondan, aksariyat qog'oz turdagi lug'atlarda rangli dizayn yo'q, xarakteristikalar minimal va ma'lumotlarning taqdimoti qat'iy;

6) elektron lug'atlar foydalanuvchiga oson va tez izlash imkoniyatini beradi; ulardagi ma'lumotlar foydalanuvchi turli xil qidiruvlarni amalga oshirishi mumkin bo'lgan tarzda tuzilgan (axborotli - foydalanuvchi savolining javobi bilan qiziqadi, lekin qayerda joylashganligi unchalik muhim emas, navigatsiya bunga yordam beradi).

7) elektron lug'at doimiy ishlaydigan axborotni yangilash tizimi bilan jihozlanishi mumkin, an'anaviy lug'atlarda bunday imkoniyatlar mavjud emas;

8) elektron lug'at eslatmalar, sharhlar va boshqalarni o'z ichiga olishi mumkin, bundan tashqari, u boshqa lug'atlar yoki ma'lumotnomalarga o'zaro havolalar bilan ta'minlanishi mumkin;

9) elektron lug'atlar kamroq joy egallaydi (stolda va kutubxonada) va qog'oz lug'atlarga qaraganda foydalanish qulayroq;

10) elektron lug'at qarimaydi, uning sahifalari buzilmaydi, yirtilmaydi va buklanmaydi.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqadiki, lug'atlarning ikki turi ma'lumotni taqdim etish asoslari bo'yicha farqlanadi, bu ikkalasining afzalliklari va kamchiliklarini belgilaydi. Elektron lug'atlarga xos bo'lgan ba'zi kamchiliklarga qaramasdan, ayniqsa texnik atamalarda (qattiq disklarning ishlashidagi beqarorlik, dasturiy ta'minotning noto'g'ri ishlashi, shu jumladan, shaxsiy kompyuterning ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin), ular foydalanuvchi uchun katta afzalliklarga ega.

Elektron lug'atlarni yaratish zamonaviy leksikografiyaning istiqbolli, faol rivojlanayotgan sohasidir. Shu bilan birga, bunday lug'atlarni yaratishning aniq qoidalari yoki usullari, yagona standarti, ushbu turdagi lug'atlar sifatini belgilaydigan umumiy mezonlari mavjud emasdir.

Bizning fikrimizcha, kompyuter lug'ati asta-sekin, lekin ishonchli tarzda bosma nashrini almashtirmoqda va bu muxim asosga ega deb xisoblaymiz. Shuning uchun ham foydalanishda optimal, to'liq, universal elektron lug'atlarni ishlab chiqish zamonaviy kompyuter leksikografiyasining dolzarb vazifasidir. Aynan elektron leksikografik shakl yaqin kelajakda turli xil lug'atlarni yaratishga qaratilgan tadqiqot natijalarini birlashtirishga imkon beradi.

⁷ Vaulina Y. Strukturnaya i prikladnaya lingvistika. 2007. B. 187-196.

ZAMONAVIY TA'LIMDA VIRTUAL TEKNOLOGIYALAR VA UNING DASTURIY TA'MINOTIDAN FOYDALANISH

Doniyor Baxodirovich Abduraximov - p.f.n., Guliston davlat universiteti

Annotatsiya: Axborot texnologiyalari zamonaviy jamiyat hayotiga ko'plab foydali va qiziqarli narsalarni olib keldi. Har kuni ixtirochi va iste'dodli odamlar ishlab chiqarish, ko'ngil ochish va hamkorlikning samarali vositasi sifatida kompyuterlardan tobora ko'proq foydalanishni taklif qilmoqdalar. Ushbu maqolada respublikamiz oliy ta'lim tizimi o'quv jarayoniga tez kirib kelayotgan yana bir ajoyib istiqbolli chinakam samarali texnologiya – "bulutli" hisoblash konsepsiyasida asosiy o'rinni egallagan zamonaviy ta'limda virtual texnologiyalar va uning dasturiy ta'minotidan foydalanish yoritib berilgan.

Аннотация: Информационные технологии принесли в жизнь современного общества множество полезных и интересных вещей. Каждый день изобретательные и талантливые люди придумывают все новые и новые применения компьютерам как эффективным инструментам производства, развлечения и сотрудничества. В данной статье освещается использование виртуальных технологий и их программного обеспечения в современном образовании, которое занимает центральное место в концепции "облачных" вычислений - еще одной невероятно перспективной и по-настоящему эффективной технологии, с помощью которой система высшего образования республики стремительно входит в учебный процесс.

Abstract: Information technologies have brought a lot of useful and interesting things to the life of modern society. Every day, inventive and talented people come up with more and more new applications of computers as effective tools for production, entertainment and cooperation. This article highlights the use of virtual technologies and their software in modern education, which occupies a central place in the concept of "cloud" computing - another incredibly promising truly effective technology, with the help of which the higher education system of the republic is rapidly entering the educational process.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, zamonaviy ta'lim, internet tizimi, masofaviy o'qitish, virtual o'quv muhiti, elektron o'quv-resurslari, virtual dars, veb-texnologiya.

Ключевые слова: цифровые технологии, информационно-коммуникационные технологии, современное образование, интернет-система, дистанционное обучение, виртуальная среда обучения, электронный учебный ресурс, виртуальный урок, veb-технологии.

Keywords: higher education system, digital technology, information and Communication Technology, modern education, digital knowledge, Internet system, distance learning, educational process, virtualization, electronic learning resources, virtual lesson, veb technologies.

Zamonaviy jamiyat inson faoliyatining deyarli barcha sohalariga kirib borishga muvaffaq bo'lgan kompyuter va axborot texnologiyalarining kuchli ta'siri bilan ajralib turadi. Atrofqa boqsak, inson ijodkorligining biqiyos, hayratlanarli dunyosiga duch kelamiz. XXI asr - yuqori texnologiyalar va ommaviy kommunikatsiyalar asri. Endi hayotimizni elektron qurilmalarsiz tasavvur qilish qiyin. Kompyuter, noutbuk, planshet yoki hatto uyali telefon. Ushbu qurilmalar ko'plab odamlarning hayotini yaxshi tomonga o'zgartirib yubormoqda.

Inson tafakkuri va tasavvuri mahsuli bo'lgan elektron xizmatlar, virtual reallik va boshqalar og'irimizni yengil, uzoqni yaqin qiladi.

Shuning uchun bugungi kunimizni zamonaviy axborot texnologiyalarisiz, internetsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bir necha yillar oldin internet haqida, virtual muloqat haqida tasavvurga ega bo'lmagan insonlar hozir muloqotning eng oson va har taraflama qulay yo'lga o'tishdi. Bu muloqotning qulayligi shundaki, u hech qanday masofani tan olmaydi. Shuningdek, joy, muhit va boshqa subyektiv jihatlarsiz onlayn muloqotni ta'minlaydi. Bu esa hozirgi sharoitda an'anaviy dars usullaridan ko'ra, noan'anaviy dars o'tish uslublari ko'proq samaraga, ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi.

Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek "Ijtimoiy davlat bu, eng avvalo, inson salohiyatini ro'yobga chiqarish

uchun teng imkoniyatlar, odamlar munosib hayot kechirishiga zarur sharoitlar yaratish, kambag'allikni qisqartirish, demakdir. Shu bois, birinchi navbatda, e'tiborni Yangi O'zbekiston uchun eng katta investitsiya bo'lgan ta'limni qo'llab-quvvatlashga qaratamiz". "Najot – ta'limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi"¹.

Kelajak avlodni jismonan sog'lom, intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy pozitsiyaga ega, Vatanga sodiq qilib tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish masalalari 2022- 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida muhim vazifalar sifatida belgilangan².

Axborot texnologiyalarining ta'limga kirib kelishi o'quv jarayoniga talabalarning axborot olishi, uni qayta ishlashi va undan foydalanishi axborot jarayoni sifatida qarashni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ta'limni axborotlashtirishga faqat kompyuter va boshqa elektron o'quv vositalaridan foydalanish emas, balki o'quv jarayonini tashkil etishga yangicha yondashuv sifatida qaralishi lozim. Bunday vositalar yordamida talabalar va o'qituvchilarga olingan xabarlarini tahlil qilish va ularga qulay vaqtda javob berish imkonini beruvchi axborot (o'z-o'zini tekshirish vazifalari, qiziqtirgan savollar, test varaqalari) almashish mumkin bo'ladi. Zamonaviy o'qituvchi nafaqat axborot texnologiyalari sohasidagi bilimlarga ega bo'lishi, balki ta'lim muassasasida o'z kasbiy faoliyatida yangi texnologiyalarni qo'llash bo'yicha malakali mutaxassis bo'lishi kerak.

Informatika va axborot texnologiyalari fanida virtual tushunchasi keng ma'noda qo'llanilmoqda. Masalan: virtual mashina, virtual xotira, virtual disk, virtual aloqa, virtual sayohat, virtual sinf va h.k. Birgina ushbu sohasida ham virtual tushunchasi turli shakl va ma'nolarda qo'llanilib kelinmoqda va bir-biridan farqli ma'nolarni anglatadi. Multimedia tizimlarida virtual tushunchasi virtual borliq ma'nosini beradi. Virtual (lotincha Virtualis - mumkin bo'lgan, ya'ni muayyan bir sharoitlarda sodir bo'ladigan yoki ro'y berishi mumkin bo'lgan) tushunchasi narsalar va hodisalarning vaqt va makonda mavjud bo'lmagan, lekin obyektiv narsalar yoki subyektiv obrazlarning amalga oshish ehtimoli mavjud bo'lgan

jarayonni anglatadi³. Virtual texnologiyasi - bu atama hisoblash resurslarining abstraksiyasini anglatadi. Virtualashtirish asosida bir kompyuterning resurslarini bir nechta muhitlar bo'yicha taqsimlash natijasida bir nechta kompyuter faoliyatini bajarish imkoniyati yaratiladi. Bir nechta operatsion tizimlar va dasturlarni virtual serverlar hamda virtual stol kompyuterlari yordamida yagona joyda joylashtirish mumkin⁴.

Virtual o'quv muhiti bu - o'quv muhitining mazmunini va ishtirokchilarning aloqalarini boshqarish imkonini beruvchi zamonaviy kompyuter vositalari va texnologiyalar to'plamidir (1-rasm).



1-rasm. Virtual o'quv muhiti

Virtual o'quv muhiti bilan biz ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari tomonidan ta'lim maqsadlarida tashkil etilgan va foydalaniladigan mahalliy, korporativ va global kompyuter tarmoqlarining axborot mazmuni va aloqa imkoniyatlarini tushunamiz. Virtual ta'lim atrof-muhit tezkor rivojlanayotgan, ko'p bosqichli va ko'p funksiyali tizimdir.

Ta'lim tizimi rivojlangan dunyoning qator davlatlarida muayyan kurs bo'yicha darslar Google Classroom platformasidan foydalangan holda amalga oshirilmoqda. Bu tizimning ilm-fan, ta'lim uchun foydali imkoniyatlari nihoyatda keng. Uning dasturlari dunyoning qay chekkasida bo'lmasin talaba va pedagogni bir vaqtda ishlash imkoniyatini yaratadi. Bu uchun "gmail"dan elektron pochta ochishning o'zi kifoya qiladi. "Google classroom", "Google doc", "Google disk"

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi 20.12.2022

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. 28.01.2022.

3 Калмыков Д.А., Хачатуров Л.А. Опыт организации виртуальных образовательных сред [Электронный ресурс]. - Режим доступа: URL: <http://altruism.ru/sengine.cgi /5/28/9, http://www.philosophclub.org/publ/6-1-0-66>

4 Технологии виртуализации. [Электронный ресурс] // Режим доступа: <https://intuit.ru/studies/courses/673/529/lecture/11915?page=1#keyword15>

dasturlari bunda yordamga keladi.

“Google classroom”- dasturi sinfxona vazifasini bajaradi. Bunda pedagog talabalarni ro'yxatini tayyorlash, vazifa berish, topshiriq bajarilishi muddatini belgilash, baholash, fanga oid qo'shimcha ma'lumot berish, turli xil mavzuga doir bahslar uyushtirish va talabalar fikrini bilishga erishishi mumkin.

“Google doc” dasturi talabalarni maqola, kurs ishi, bitiruv-malakaviy ishi, tadqiqot ishi, ilmiy loyiha tayyorlashda ko'mak beradi. Bunda talaba “Google doc” dasturida elektron hujjat yaratadi va ilmiy rahbari bilan “gmail” orqali aloqaga chiqadi. Ushbu dasturning imkoniyati shundaki, bir paytning o'zida ham talaba, ham pedagog tahrir qilish, qo'shimchalar kiritish imkoniyatiga ega bo'ladi. Hammualliflikda ilmiy maqolalar yozishda ham juda qo'l keladi.

“Google disk” dasturi ma'lumot saqlash uchun xizmat qiladi. Hozirgi kunda bu dastur 15 Gb bepul joy taqdim qiladi. Dastur katta hajmdagi ma'lumotni saqlash imkoniyatiga ega.

Hozirgi kunda Respublikamizdagi ta'lim muassasalarida o'qitilayotgan fanlar bo'yicha katta hajmda elektron o'quv resurslar yaratilgan. Respublika miqyosida bu resurslardan o'quv muassasalarini samarali foydalanishini ta'minlovchi “Ziyonet” tarmog'i ishlab turibdi. Ammo undan foydalanuvchi ta'lim muassasalarining yo'nalishlar va fanlar kesimidagi yaratilgan elektron - o'quv resurslarini o'zaro ayirboshlash va ularni bevosita dars jarayonlarida foydalanishi yetarli darajada emas. Shunga ko'ra ta'lim yo'nalishlari kesimidagi har bir fanni samarali o'qitishda, ularning virtual modellarini yaratish, tegishli apparat-dasturiy vositalari asosida o'quv jarayonini boshqarishning intellektual tizimini yaratish va uni amaliyotga joriy qilish muammosini yechish ko'zda tutilgan. Buning asosida fan o'qituvchilarining har bir fan xususiyatidan kelib chiqqan holda, jumladan, pedagogik va psixologik xususiyatlarni hisobga olgan holda o'qituvchilarning virtual kabinetlarini yaratish tamoyillari ishlab chiqiladi. Ularni amaliyotga joriy etilishi ta'lim sifati va samaradorligini keskin oshishi kafolatnadi. Bunday vazifalarni samarali bajarishda o'quv jarayonini virtuallashtirishning dasturiy ta'minotlarini yaratish, ularni standartlashtirish va jahon andozasidagi dasturiy platformalarda initsializatsiya qilish muhimdir.

Ta'lim tizimida o'quv jarayonini virtuallashtirishda quyidagi asosiy masalalar yechilishi ko'zda tutilgan:

- elektron-o'quv resurslarning umumiy

tasnifi asosida uni yaxlit obyekt sifatida shakllantirish, uning asosiy tuzilmasi va parametrlarini tizimli tahlil asosida tadqiq etish;

- o'quv jarayonlarini virtuallashtirishga qaratilgan diskret, semantik va ko'p bosqichli matematik modellarini ishlab chiqish, ularning turg'unlik va adekvatlik tamoyillarini aniqlash;

- elektron-o'quv resurslarini Veb-texnologiyalarga asoslangan o'qitish tizimiga joylashtirishning dasturiy ta'minotini ishlab chiqish va uni joriy etish;

- o'quv jarayonlarini virtuallashtirishning maxsus dasturiy foydalanuvchi interfeysi, masofaviy test-nazorat o'tkazish texnologiyasining dasturiy ta'minotini ishlab chiqish va joriy etish;

- ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'qiladigan fanlarni ekspert tizim asosida optimal konsentratsiyasi asosida takomillashtirish masalasi, soha fanlardagi yangi yutuqlarni o'quv jarayoniga integratsiya qilish;

- barcha masalalar yechimlarini birlashtirish natijasida bajariladigan amaliy taqdiqotlar asosida yaxlit interfaollik elementlarga ega bo'lgan ta'lim portalini shakllantirish va ularni amaliyotga joriy etish.

Ta'lim tizimida o'quv jarayonlarini virtuallashtirishning dasturiy ta'minotini zamonaviy C++, Java, Python, HTML, PHP, Apache-Server dasturiy muhitlarda ishlab chiqishni talab etganligi boyis, bu muxitlarni yaxshi biluvchi mutaxassislar ishtirokchi sifatida qatnashadilar. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'quv jarayonlarida qo'llanilishining negizida o'quv jarayonini fanlar kesimida virtuallashtirish, multimediya va tarmoq tizimlari yordamida o'quv jarayonining modellarini, apparat-dasturiy vositalarini ishlab chiqish va ularning amaliy tadbirlarini tashkil etish lozim bo'ladi. Birinchi navbatda o'quv jarayonlarini tizimli tahlil asosida parametrlash, ularning semantik, kontent va ko'p bosqichli modellarini ishlab chiqish, bu modellarning turg'unlik va adaptivlik shartlarini ishlab chiqish zarur bo'ladi.

Fanning o'quv-uslubiy majmuasi komponentlarining mazmunini Davlat ta'lim standarti asosida tuzilgan fan dasturiga muvofiqlashtirish hamda shaxsga yo'naltirilgan, rivojlantiruvchi va mustaqil ta'lim olish texnologiyalari, tamoyillari va talablari asosida ishlab chiqiladi. Shunga ko'ra yo'nalishlar kesimidagi har bir fanni samarali o'qitishda ularning virtual modellarini yaratish, xusan o'quv jarayoniga qaratilgan apparat-dasturlarini ishlab chiqish, ularni bevosita amaliyotga qo'llanish tamoyillari yaratish

amalga oshiriladi.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining keyingi rivojlanish bosqichlarida o'quv jarayonini to'liq virtuallashtirish, ularni oliy ta'lim muassasalari axborot-resurs markazlari bilan bog'lash masalalari yuzaga keldi. Bu masalalarni yechishda tarmoq yechimlari, jumladan, internet tarmog'i imkoniyatlaridan keng foydalanish zaruriyati tug'ildi. Virtual dars va uning dasturiy ta'minoti o'quvchi va o'qituvchi orasidagi onlayn shakldagi munosabatlarni o'rnatish imkoniyati shakllantiradi. Natijada, internet tarmog'ida ko'plab o'qituvchi va o'rgatuvchi munosabatlarni, ya'ni ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi orasidagi muloqotni avtomatlashtiruvchi tizimlar paydo bo'ladi.

O'quv jarayonlarini virtuallashtirishga qaratilgan modellar, algoritmik va dasturiy ta'minotlar tajriba va nazorat guruxlarida sinovlardan o'tkaziladi. Shuningdek, tizim doirasida virtual test-nazorat tizimini ishlab chiqish va buning asosida o'quv jarayonini boshqarishning intellektual tizimini ishlab chiqish va uni amaliyotga qo'llash taqdim etiladi. Bunda apparat-dasturiy vositalar ta'lim muassasalarining tegishli lokal tarmoqlarda joylashtiriladi. Bunday vazifalarni samarali bajarishda o'quv jarayonini virtuallashtirishning modellarini, apparat-dasturiy ta'minotlarini ishlab chiqish, ular asosida o'qituvchining virtual kabinetlarini xalqaro darajadagi dasturiy platformalarda initsializatsiya qilish, shuningdek, ularni amaliyotga joriy etish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu yo'nalishda bajariladigan ilmiy-tadqiqot, texnik-tashkiliy izlanishlar o'quv jarayonini virtuallashtirishning dasturiy ta'minotini zamonaviy dasturiy muhitlarda ishlab chiqishni talab etadi va ular birgalikda mediata'lim tizimini shakllantiradi. Virtual dars va uning dasturiy ta'minoti o'quvchi va o'qituvchi orasidagi onlayn shakldagi munosabatlarni o'rnatish imkoniyati shakllandi.

Keyingi bosqichdagi izlanishlar o'quv jarayonini virtuallashtirishda matematik, semantik va boshqa turdagi modellashtirishni taqozo etgan holda o'quvchilarning virtual mashg'ulotlar davomidagi pedagogik-psixologik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlandi. Ammo har bir o'quv fani bo'yicha yaratilajak virtual tizim, fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ma'lum mazmun va ko'rinishga ega bo'ladi. Shuning uchun o'quv jarayonini virtuallashtirishning apparat-dasturiy ta'minoti yuqorida ko'rsatilgan barcha xususiyatlarni kuzatish imkoniyatini

berishi kerak.

Xulosa. Zamonaviy ta'limda virtual texnologiyalar ta'limni axborotlashtirish va virtuallashtirish o'quv jarayonining muhim tomonlarining o'zgarishiga olib keladi. Virtual ta'limiy resurslardan foydalanish orqali talabalarda vaziyatni baholay olish, qaror qabul qilish va ular sodir bo'lganda to'g'ri harakat qilish ko'nikmalari hosil bo'ladi. Talaba ko'p miqdordagi xilma-xil axborot bilan ishlash, uni qayta ishlash hamda jarayonlarni modellashtirish qobiliyatiga ega bo'ladi. O'qituvchi esa ortiqcha harakatlardan ozod bo'lib, o'quv jarayonini tahlil qilish, talabaning bilim olish faoliyatini kuzatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, ta'lim jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etish ta'limni axborotlashtirish texnologiyalari va vositalarini ishlab chiqish va qo'llash bo'yicha malakali mutaxassislarni tayyorlashga yordam beradi. Asosiy ta'lim funksiyasidan tashqari, kompyuter texnologiyalari talabaning ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi, shuningdek, ularning tafakkurini sezilarli darajada kengaytiradi.

So'nggi vaqtlarda dunyoning yetakchi oliy o'quv muassasalarida ta'lim jarayonining sifat ko'rsatkichlari axborot texnologiyalarining qo'llanilishi sababli keskin o'zgardi. Tadqiqotlardan kutilajak natijalarni jahon miqyosidagi ilmiy yutuqlar bilan solishtirish, dunyoning yetakchi ta'lim muassasalarining virtual ta'lim portallaridagi ta'lim tizimlari bilan qiyosiy tahlili orqali amalga oshiriladi. Buning negizida kuchli elektron o'quv resurslar bazasiga ega bo'lgan va Veb-texnologiyalarga asoslangan o'quv tizimlari ishlab chiqiladi. Bunday tizimlarni yaratish va qo'llash asosida esa, virtual o'quv tizimlarining matematik va dasturiy ta'minotlarini yaratish yotadi. Qilinayotgan ishlarning so'ngi bosqichida bajariladigan amaliy taqdiqotlar yaxlit interfaol elementlarga ega bo'lgan ta'lim portalini ko'rinishda shakllantiriladi. Olingan ilmiy amaliy natijalar, texnik, axborot kommunikatsiya texnologiyalar oliy ta'lim muassasalarida o'qiladigan maxsus fanlarning virtual modellarini misolida sinovdan o'tkaziladi. Shunday qilib, zamonaviy ta'limda virtual texnologiyalar an'anaviy ta'limning raqamli shakli, ya'ni multimedia, onlayn platformalar, veb-resurslar, bulutli texnologiyalar kabi tizimlardan foydalanishga asoslangan bo'lib, bu ta'lim tizimi imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi.

AYLANMA HARAKATLANUVCHI MEKANIZMLARNI O'QITISHDA FANLARARO BOG'LANISHDAN FOYDALANISH

Shokir Baxtiyorovich Ochilov-p.f.b.f. doktori (PhD), Navoiy davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarga o'qitish metodlari orqali kasbiy faoliyati va shaxsiy hayotida egallashlari lozim bo'lgan layoqatlar, qobiliyatlar, hayotiy malaka va konikmalarini rivojlantirishga e'tibor berilgan. Aylanma harakatlanuvchi mexanizmlarni fanlararo bog'lanish orqali ishlab chiqarish jarayonida vujudga keladigan ekologik muammolar va ularni bartaraf etish chora tadbirlari tahlil qilingan.

Аннотация: В этой статье основное внимание уделяется развитию навыков, способностей, жизненных навыков и навыков, которые учащиеся должны приобрести в своей профессиональной деятельности и личной жизни с помощью методов обучения. Проанализированы экологические проблемы, возникающие в процессе производства механизмов кругового движения посредством междисциплинарных связей, и меры по их устранению.

Abstract: This article focuses on the development of skills, abilities, life skills that students should acquire in their professional and personal lives through teaching methods. The environmental problems arising in the production of circular motion mechanisms through interdisciplinary connections and measures to eliminate them are analyzed.

Kalit so'zlar: tabiat, kompetensiya, ekologik ta'lim, aylanma harakat, ishlab chiqarish, organik yoqilg'i, chegaraviy doza, muammoli vaziyat, aktiv usullar, atmosfera, gaz va changlar, konsentratsiya, mexanik harakat.

Ключевые слова: природа, компетентность, экологическое образование, обращение, производство, органическое топливо, предельная доза, проблемная ситуация, активные методы, атмосфера, газ и пыль, концентрация, механическое воздействие.

Keywords: nature, competence, environmental education, circulation, production, organic fuel, maximum dose, problematic situation, active methods, atmosphere, gas and dust, concentration, mechanical impact.

Tabiat hodisalari orasida mexanik harakat ancha chuqur va keng o'rganiladi. Texnologiya fanini fanlararo o'qitishda o'quvchilarga ekologik ta'lim berish dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Texnologiya fani bevosita ishlab chiqarish bilan bog'langan bo'lib, ishlab chiqarish jarayonida atrof-muhitda salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tushuntirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

2019-yil aprelida O'zbekiston Prezidenti 2030-yilga qadar Xalq ta'limi tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqladi. Umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish – o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-

bosqich rivojlantirish maqsad qilib qo'yilgan¹.

Maktab ta'lim tizimi kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limga keng e'tibor qaratilmoqda. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limning asosiy prinsiplaridan biri o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalar bilan birga hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish, ya'ni kundalik hayotida yoki egallagan kasbiy faoliyatida duch keladigan tanish va notanish vaziyatlar hamda ekologik muammolarda foydalanishga tayyorlashdan iborat².

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Aylanma harakatlar mexanizmlari" mavzusini fanlararo o'qitishda, V-sinf "Texnologiya" darsligidagi "Aylanma harakatlanuvchi sodda mexanizm yasash", "Aylanma harakatlanuvchi sodda Karuselyasash" mavzulari mavjud. VI-sinf "Texnologiya" darsligida "Stanoklarning asosiy qismlari va vazifalari. Stanoklar tuzilishidagi umumiylik", "Stanokdagi harakat uzatish

mexanizmlari" mavzulari mavjud. Umumiy o'rta ta'lim maktablari VII-sinf "Fizika" darsligida "Aylana bo'ylab harakatni tavsiflaydigan kattaliklar orasidagi munosabat", "Markazga intilma tezlanish", "Harakat qonunlarining aylanma harakatga tadbiri" mavzulari mavjud. Ushbu mavzularni o'qitishda o'quvchilarga aylanma harakatlanuvchi mexanizmlarni tushuntirish maqsadga muvofiqdir. Ushbu mavzularni fanlararo aloqadorlikda "Keys-stadi" metodi yordamida o'qitishga zaruriyat paydo bo'lmoqda. O'quvchilarga aylanma harakatlanuvchi mexanizmlarni fanlararo aloqadorlikda ekologik ta'limni bog'lab o'qitish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Aylanma harakatlanuvchi mexanizmlarni fanlararo aloqadorlikda "Keys-stadi" metodi yordamida o'qitishning tanlash modeli tuzib olindi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Aylanma harakatlanuvchi mexanizmlar qonunlari mavzusini keys-stadi metodida o'qitishning tanlash modeli.

Umumta'lim maktablarida aylanma harakatlanuvchi mexanizmlarni tavsiflovchi asosiy kattaliklardan biri bu markazga intilma tezlanish $a = \frac{v^2}{R}$ va shu bilan bog'liq bo'lgan markazdan qochma kuchdir. Bu kuchning jism massasi va tezligi kvadratiga to'g'ri mutanosib ($F_m \sim m, F_m \sim v^2$) va aylana radiusiga teskari mutanosib ekanligi ($F_m \sim 1/R$) aniqlangan ($a = \frac{v^2}{R}$). Bu mavzuni faqat aylanuvchi jismlar va ularning harakatini ifodalovchi qonunlar, formulalar bilan tushuntirish bir yoqlama xarakterga ega bo'lsa, ikkinchi tomondan qonun va formulalarni kundalik faoliyatimizda mavjud bo'lgan tanish va notanish vaziyatlarda qo'llay olish va ushbu qurilmalar bilan

ishlayotganda texnika xavfsizlik qoidalariga rioya qilgan holda ehtiyotkorlik bilan ishlash kompetensiyalarni rivojlantirish bugungi kunning asosiy vazifalariga aylanmoqda.

Zamonaviy maktab o'z faoliyatini, tezkor va shiddat bilan rivojlanib borayotgan jamiyat, fan-texnika va ishlab chiqarishning yangicha talablariga mos ravishda, uzoqni ko'zlagan holda o'quvchilarga nafaqat bilim, ko'nikma va malakalarni nazariy asosda yetkazish, balki kelajakda shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyati uchun zarur bo'lgan ekologik kompetensiyalarini rivojlantirish zarurdir.

O'quvchilarga aylanma harakatlanuvchi mexanizmlarga doir mavzularni o'qitishda har yili atmosferaga million tonnaga yaqin zararli moddalar tarqatilmoqda, shulardan yarmi uglerod oksidlariga to'g'ri keladi, 15% uglevodorod chiqindisi, 14% oltingugurt (IV) oksidi, 9% azot (IV) oksidi, 8% qattiq moddalar, 4% ga yaqini o'ziga xos o'tkir zaharli moddalarni tashkil qiladi.

Ko'pgina yoqilg'ilar kuli nafas organlariga mexanik ta'siridan tashqari organizmga zararli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, yoqilg'i sifatida ishlatiladigan antratsitlar tarkibida mishyak va ftorli birikmalar mavjud. Mazutning yonishida vanadiy birikmalari ajralib chiqadi. Tutun gazlari tarkibiga azot oksidlari mavjudligiga hozirgi kunda jiddiy e'tibor berilmoqda, chunki tutunlar tarkibidagi oltingugurt va azot gazlari bir-birining inson organizmiga ta'sirini kuchaytiradi. Tabiiy gaz yonishida hosil bo'ladigan azot oksidining miqdori ancha yuqori ko'rsatkichga ega.

Organik yoqilg'ilar yonishida dunyo bo'yicha har yili atmosferaga 100 mln tonna kul va 150 mln tonna oltingugurt angidrid ajralib chiqadi. Hozirgi kunda dunyo bo'yicha sanitariya inspeksiyasi tomonidan atmosfera havosidagi zararli moddalarning inson nafas olishi uchun chegaraviy yo'l qo'yilgan konsentratsiyasi keltirilgan (1-jadvalga qarang).

1-jadval
Atmosfera havosidagi zararli moddalarning chegaraviy konsentratsiya.

T/r	Modda	Bir maralik maks. doza mg/m ³	Yo'l qo'yilgan doza maqdoni mg/m ³
1	Kul va chang	0,5	0,15
2	Azot II oksidi (NO ₂)	0,015	0,08
3	Oltingugurt II oksidi	0,5	0,05
4	Vanadiy angidrid V ₂ O ₅	-	0,002

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni. Lex.uz.


2 Ochilov Sh.B. Fizika ta'limida ekologik kompetensiyani takomillashtirish // O'quv qo'llanma. -N., "Aziz kitobxon", -2021. -176 b.

Zararli gazlar konsentratsiyasini yo'qo'yilgan darajada ushlab turish uchun passiv va aktiv usullar ishlatiladi. Passiv usulda tutun chiqarish quvurlari iloji boricha baland ko'tariladi. Quvur balandligi qancha yuqori bo'lsa, chiqadigan zararli moddalar shuncha katta maydonga tarqaladi va konsentratsiya shuncha kam bo'ladi. Hozirgi kunda katta quvvatli issiqlik elektr stansiyalarning quvurlari 300 m dan baland qilib yasaladi. Bu esa murakkab va qimmat turuvchi muhandislik ishlanmalaridir³.

Aktiv usullardan biri yoqilg'ini turli usullar bilan boyitib undagi oltingugurt miqdorini kamaytirishdir. Bundan tashqari, yonish jarayonini ratsional amalga oshirish, masalan: olov mash'ali yadrosidagi harorati azotning oksidlanishida pasayishiga olib keladi.

Issiqlik elektr stansiyalari, sement zavodlar, g'isht va ohakni pishiradigan pechlarining o'choq quvurlaridan chiqadigan tutun tarkibidagi kulni tutib qolish qurilmasi kul zarrachalarining markazdan qochma kuch $a = \frac{v^2}{R}$ ta'sirida gazlardan ajralishiga asoslanib ishlaydi va eng samarador qurilmalardan hisoblanadi. Bunday qurilma siklon deb ataladi. Eng oddiy siklon qurilmasining tuzilishi keltirilgan (2-rasmga qarang).

Bu qurilma kirish va chiqish quvurlariga ega bo'lgan korpus kul bunkerini va chiqarish klapanidan iborat. Kirish quvuridan 15-25 m/s tezlikda siklon korpusiga kiritilgan quruq kul zarrachalari aylanishda inersion markazdan qochma kuch ta'sirida (massasi gazlardan kattaligi tufayli ($F \sim m$)) gazlardan ajraladi. Siklon devori bo'ylab bunkeriga tushadi. Tozalangan gazlar so'rish qurilmasi bilan tashqariga chiqariladi⁴. Bu qurilmaning diametri 400-1000 mm bo'lganda 60-80% tozalash effektiga ega. Diametri o'lchami ortishi bilan tozalash samaradorligi kamayadi ($F \sim 1/R$).



3 Xudoyberdiyev E.N., Ochilov Sh.B., Xudoyberdiyev M.E. Aylanma harakatni o'rganishda fanlararo bog'lanish va ekologik ta'lim // Fizika, matematika va informatika jurnali. 2013-yil. 2-son. -B.86-89.

4 Ochilov Sh.B. Forming Students Ekologikal Competence Physics Lessons // J. Eastern European Scientific. -Germany, Ausgabe, №6. 2018. -r 134-138

5 Yormatova D. Sanoat ekologiyasi // O'quv qo'llanma. -T. "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" 2007. -256 b.

6 Turdiqulov E.O., Musayeva M.E., Norboevov A.G., Ochilov Sh.B. O'quvchilarga t'fimoqlik ekologiyadan ta'lim berish texnologiyalari // Metodik qo'llanma. -T.; O'zPFITi, -2014. -160 b.

Markazdan qochma skrubber siklon bilan ta'minlab takomillashgan varianti bo'lib u, suv kollektori va suv sepish sistemasi bilan jihozlangan. Korpusga urinma yo'nalishda kiradigan suv skrubber ichida markazdan qochma kuch ta'sirida chetlangan kulni tutib qoluvchi suv qatlamini hosil qiladi. Hosil bo'lgan loyqa gidrozatvor orqali chiqarib yuboriladi. Skrubber diametri ≤ 1500 mm, gazlarning korpusga kirish tezligi 20 m/s bo'lganda tozalash darajasi 90% ga yetadi. Bunda suv sarfi 0,1- 0,2 l/m³ gazga to'g'ri keladi⁵.

O'quvchilar atmosferadagi chang va gazlarni sanoat korxonalarida va qurilishlarda insonning bevosita yoki bilvosita ta'siri natijasida hosil bo'ladigan gaz va changlar tutun bo'lib chiqarib yuborishi tushuntiriladi, bu ko'p miqdordagi chang va gazlarni atrof-muhitga chiqarib yuborishning oldini olish bo'yicha o'quvchilarga yuqorida aytib o'tilgan mavzularda tushuntiriladi. Bunday qurilmalarning atmosferani zararli gazlardan tozalashda ishlatilishi texnologiya va fizika kursini o'rganishning ekologik ta'lim bilan uyg'unlashuviga hamda shu orqali ta'lim samaradorligining ortishiga olib keladi⁶.

Mamlakatimizda tezkor va shiddat bilan rivojlanib borayotgan fan-texnika, ishlab chiqarish, zavod-fabrikalarni soni oshib borayotganini e'tiborga olib. Ishlab chiqarish jarayonida yonish mahsulotlari (tabiiy gaz, neft yoqilg'ilar, ko'mir) ning yonishi oqibatida, atmosferaga chiqayotgan karbonad angidrid, azot dioksidlari, kul va tutunlar atmosfera havosini ifloslantirib bormoqda, ifloslangan havo o'z o'rnida biosfera qatlamiga salbiy ta'sirlari mavjudligi ayni haqiqat. Shu sababli, o'quvchilarga "Aylanma harakatlanuvchi mexanizmlari" mavzusini fanlararo bog'lanishda o'rgatish yuqorida keltirilgan ma'lumotlar orqali ishlab chiqarish korxonalaridagi kul va tutunlar skrubber apparatiga gaz oqimi pastdan berilganida, yuqoriga ko'tarilayotgan gaz oqimi aylanma harakatlanayotganda suv tomchi yopishib olib shlaglarga aylanib bunker pastiga tushishlarini va atmosferaga chiqarilayotgan gazlardagi zaharli chang zarrachalarini 99,7% ushlab qolinishlari tushuntirilgan. Keltirilgan misolda o'quvchilar fanlararo bog'lanish orqali fizikaviy qonuniyatlarni ishlab chiqarish bilan bog'liq holda amaliyotda bajarib kurish maqsadga

muvofiqdir. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish bilan birga ularni kasbiy faoliyatida vujudga keluvchi ekologik muammolarni bartaraf etuvchi chora tadbirlarini izlab topilgan.

Shuningdek, atmosferagachiqarilayotgan chang va gazlar asosan sanoat korxonalarida, ishlab chiqarish va qurilishlarda insonning bevosita yoki bilvosita ta'siri natijasini

ekanligini biladi. Bu chang va gazlarni atrof-muhitga chiqarib yuborishning oldini olish bo'yicha o'quvchilarda fanlararo bog'lanish orqali texnik jarayon va hodisalarni ongli ravishda tahlil qiladi, modellashtiradi, tajribalar o'tkaza oladi va ekologik kompetensiyasini rivojlantiradi.

ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНЫЕ ДАННЫЕ ПО ОБРАЗОВАНИЮ ЗЕРКАЛЬНЫХ ЯДЕР ³H И ³He В ¹⁶Ор-СОУДАРЕНИЯХ ПРИ 3,25 А·ГЭВ/С

Мамадали Усанович Султанов - старший преподаватель, к.ф.-м.н Самаркандский государственный архитектурно-строительный университет

Зафар Комилжон огли Ботиров - магистр, Джизакский государственный педагогический университет

Аннотация: Выполнено сравнение предсказаний каскадно-фрагментационной испарительной модели (КФИМ) и экспериментальных данных по инклюзивному образованию ядер ³H и ³He в ¹⁶Or-взаимодействиях при 3,25 А·ГэВ/с. Показано, что КФИМ не описывает детальных характеристик процесса образования зеркальных ядер из-за неучета α -кластерной структуры ядра кислорода и коалесцентного механизма формирования легких фрагментов.

Annotatsiya: 3,25 A·GeV/s impulsli ¹⁶Or-to'qnashuvlarida hosil bo'luvchi ³N va ³Ne yadrolarining tadqiqot natijalari Kaskadli fragmentlanish va bug'lanish modeli bashoratlari bilan qiyosiy tahlil qilingan. Ko'zguli yadrolar (³N va ³Ne) hosil bo'lishi tajribaviy tavsiflarining modelda kislород yadrosining α -klasterli tarkibi hamda yengil yadrolar hosil bo'lishining koalescent mexanizmi hisobga olinmaganligi sababli nazariy hisoblangan qiymatlari bilan mos kelmasligi ko'rsatildi.

Abstract: The comparison between predictions of the cascade-fragmentation evaporation model (CFEM) and experimental data on the inclusive productions of ³H and ³He nuclei in ¹⁶Or-interactions at 3.25A·GeV/c was conducted, it is shown that CFEM does not describe the detailed characteristics of production of these "mirror" nuclei due to not taking into account the α -cluster structure of the oxygen nucleus and coalescence mechanism of production of light fragments.

Ключевые слова: ядра, каскад, испарительный модель, зеркальные ядра, реакция, кластер, фрагментация.

Kalit so'zlar: yadro, kaskad, bug'lanish modeli, ko'zgu yadrolar, reaksiya, klaster, fragmentatsiya.

Keywords: nuclear, cascade, evaporation model, reaction, cluster, fragmentation.

Исследование процессов образования легких ядер с $A \leq 3$ во взаимодействиях адронов с ядрами при высоких энергиях позволяет изучать состояния промежуточной возбужденной ядерной материи и ядерную структуру фрагментирующих ядер, что важно при построении общей теории ядра и ядерных сил.

Настоящая работа является продолжением цикла исследований процессов фрагментации ядер кислорода в ¹⁶Or-соударениях при 3,25A·ГэВ/с и посвящена сравнительного анализа

инклюзивного образования ядер ³H и ³He. Общая статистика экспериментального материала составляет 13759 измеренных ¹⁶Or-соударений.

Методические вопросы, касающиеся идентификации заряженных частиц и фрагментов, а также восстановления их кинематических характеристик опубликованы в наших более ранних работах^{1,2,3}.

Совпадение сечений образования зеркальных ядер с массовыми числами $A = 3$ (³H,³He) и 7 (⁷Li,⁷Be) в ¹⁶Or-взаимодействиях при 3.25 А ГэВ/с. было

1 В.В.Глаголев, К.Г.Гуламов, М.Ю.Кратенко и др., ЯФ 58 2005 (1995).

2 В.В.Глаголев, К.Г.Гуламов, М.Ю.Кратенко и др., Выход зеркальных ядер ³H, ³He и ⁷Li, ⁷Be Письма в ЖЭТФ, 59, 316(1994).

3 Э.Х.Базаров, В.В.Глаголев, В.В. Луговой, С.Л.Лутпуллаев, К.Олимов, В.И.Петров. О сечениях образования стабильных и нестабильных изотопов с зарядом от 1 до 8 в ¹⁶Or-соударениях при 3.25 А ГэВ/с. Письма в ЖЭТФ 81, 174(2005).

впервые установлено в работе⁴, однако из-за малой статистики измеренных событий (4737) детальный сравнительный анализ кинематических характеристик этих ядер не проводился. В работе нашей лаборатории⁵ при исследовании процессов фрагментации ядер кислорода во взаимодействиях с протонами при 3.25 А ГэВ/с была установлена интересная закономерность, выражающаяся в совпадении в пределах статистических погрешностей сечений образования зеркальных ядер с массовыми числами, отличающимися на $A = \pm 1$ от основного массового числа, определяемого как $A = 2Z$. Наблюдалось также совпадение сечений выходов нестабильного изотопа ⁹В и зеркального ему стабильного изотопа ⁹Ве, и зеркальных ядер (¹⁵Н, ¹⁵О), образовавшиеся в результате потери одного нуклона исходного ядра ¹⁶О в периферических соударениях с протоном-мишенью. В настоящее время мы имеем 13759 полностью измеренных ¹⁶Ор-событий, что позволяет провести более детальный анализ различных кинематических характеристик зеркальных ядер (³Н, ³Не). Для выяснения вклада процессов образования быстрых зеркальных ядер при квазиупругом или неупругом выбивании протоном-мишенью одного нуклона α -кластера данные нашего эксперимента сопоставлялись с данными по α -соударениям при близких импульсах.

Разделение фрагментов по массе проводилось на основе анализа их импульсных распределений в л.с. Однако здесь для надежной идентификации изотопов по массе рассматривались фрагменты, измеренной в рабочей области камеры $L > 35$ см. При таком отборе средняя относительная погрешность измерения импульса не превышает 5% при всех значениях заряда фрагментов.

В целях установления общей картины образования ядер ³Н и ³Не мы проанализировали их импульсные и угловые спектры. На рис.1 приведены импульсные спектры ядер трития и ³Не в антилабораторной системе координат (а.л.с.), т.е. в системе покоя ядра кислорода. В нашем эксперименте лабораторные импульсные интервалы разделения этих ядер различаются: к ядрам трития относятся положительные однозарядные частицы с импульсами $p \geq 7.75$ ГэВ/с, при этом примесь ядер дейтрона можно пренебречь и потери ядер трития с импульсами $p < 7.75$ ГэВ/с не превышают 3%, а к ядрам ³Не относятся двухзарядные фрагменты с импульсами

$p \leq 10.8$ ГэВ/с, из которых также теряются 3% с импульсами $p > 0.8$ ГэВ/с, и примесью ядер ⁴Не при этом можно пренебречь. Для сравнения импульсных и угловых спектров рассматривались только те зеркальные ядра, значения импульсов которых лежат в интервале $7.75 \leq p \leq 10.8$ ГэВ/с. В связи с тем, что ошибка измерения кинематических характеристик (импульсов и углов) трития в среднем в 1.7 раза больше, чем ядер ³Не. Импульсные и угловые спектры последних были "размазаны" по закону Гаусса с учетом разницы в ошибках измерений импульса и угла этих ядер. Процедура "размазывания" основана на следующем: можно предположить, что, дисперсия экспериментального




Рис.1. Импульсные распределения ядер ³Н (○) и ³Не (★) в ¹⁶Ор-соударениях в антилабораторной системе

импульсного спектра состоит из суммы дисперсии истинного импульсного распределения и дисперсии погрешности определения величины импульса, т.е. $\sigma^2(p)_{\text{эксп}} = \sigma^2(p)_{\text{ист}} + \sigma^2(\Delta p)$. Используя это выражение для импульсного спектра ядер ³Не и ³Н, а также предполагая, что дисперсии истинных спектров одинаковы для этих ядер, получаем следующее соотношение: $\frac{\sigma^2(p(3H))_{\text{эксп}} - \sigma^2(p(3He))_{\text{эксп}}}{\sigma^2(\Delta p(3H)) - \sigma^2(\Delta p(3He))} = \frac{\sigma^2(p(3H))_{\text{ист}} - \sigma^2(p(3He))_{\text{ист}}}{\sigma^2(\Delta p(3H)) - \sigma^2(\Delta p(3He))}$. Действительно, использование количественные значения дисперсии, полученные на основе экспериментальных импульсных спектров и распределений погрешностей определения импульсов зеркальных ядер ³Н, ³Не в а.л.с., мы получили удовлетворительное согласие значений левой и правой частей приведенного выражения (0.0036 и 0.0037 (ГэВ/с)² соответственно). Полученное значение разности дисперсий ($\sigma^2 = 0.036$ (ГэВ/с)²) было использовано для "размазывания" импульсного спектра ядра ³Не:

$$f(p)_{\text{разм}} = f(p)_{\text{ист}} + (b/\sqrt{2\pi}\sigma) \sum_{j=1}^n f(p)_{\text{ист}} \exp(-(p_i - p_j)^2/2\sigma^2)$$

4 Botvina A.S., Iljinov A.S., Mishustin I.N. Multifragment Break-Up of Nuclei by Intermediate-Energy Protons // Nucl. Phys. 1990. V.A507. P.649.
5 V.V.Glagolev, K.G.Gulamov, V.D.Lipin et al. Fragmentation of relativistic oxygen nuclei in interactions with a proton Eur.Phys.J. A 11, 285, (2001); В.В.Глаголев, К.Г.Гуламов, В.Д.Липин и др. Испускание легких фрагментов в ¹⁶Ор-взаимодействиях при 3.25 А ГэВ/с ЯФ 62, 1472 (1999).

Далее для сохранения исходной нормировки поправленный спектр нормировался на отношение

$$\frac{\sum_i f(p)_{\text{эксп}}}{\sum_j f(p)_{\text{разм}}}, \text{ где } f(p)_{\text{эксп}}$$

– экспериментальная плотность вероятности импульсного спектра в i -м интервале, $f(p)_{\text{разм}}$ – поправленный импульсный спектр, n – число экспериментальных точек в спектре, b – коэффициент, введенный для учета размерности σ численно равный 1 ГэВ/с. Аналогичная процедура была применена также для анализа угловых спектров и распределения по поперечным импульсам рассматриваемых зеркальных ядер.

Как видно из рис.1, импульсные спектры ядер ³Н и ³Не имеют характерную асимметричную форму одной моды без каких-либо нерегулярностей, а также значительные протяженные "хвосты", не объяснимые с точки зрения каскадно-фрагментационной испарительной модели (КФИМ)⁶ и успешно интерпретируемые в работе⁷ в рамках модели коалесценции⁸. Видно также, что в пределах статистических погрешностей оба спектра взаимно совпадают и средние значения импульсов ядер ³Н и ³Не составляют 0.344 ± 0.009 и 0.332 ± 0.010 ГэВ/с, соответственно.

В частности, в работе было показано, что КФИМ⁹, основным механизмом образования фрагментов которой является ферми-развал, удовлетворительно описывает структурные функции по кинетической энергии зеркальных ядер ³Н и ³Не в области небольших энергий $T \leq 25$ МэВ, но в то же время эта модель существенно недооценивает образование быстрых ядер ³Н и ³Не – теоретические спектры прерываются в области больших энергий $T \leq 120$ МэВ, тогда как экспериментальные распределения достигают $T \approx 200$ МэВ. Также было установлено, что в области энергий $T > 70$ МэВ структурные функции этих зеркальных ядер хорошо описывает модель коалесценции, предполагающая слияние каскадных нуклонов с близкими импульсами-векторами. Однако удовлетворительное описание структурной функции зеркальных ядер ³Н и ³Не в области $T > 70$ МэВ с помощью модели коалесценции еще не означает,

что все эти быстрые ядра сформировались исключительно за счет механизма слияния, поскольку в области $T > 70$ МэВ может появиться вклад от процессов выбивания протоном-мишенью одного нуклона α -кластера исходного ядра вследствие α -частичной структуры ядра кислорода.

Для изучения влияния размеров ядра и его α -кластерной структуры на характеристики реакции мы сравнили импульсные спектры ядер ³Н в ¹⁶Ор- и ⁴Нер-взаимодействиях при 3,25 А·ГэВ/с и 3.375 А·ГэВ/с, соответственно (рис.2).

Экспериментальный материал по ⁴Нер-соударениям, как и по ¹⁶Ор-взаимодействиям, получен с помощью 1-м ВПК ЛВЭ ОИЯИ, облученной релятивистскими ядрами ⁴Не на Дубненском синхрофазотроне, и включает более 31000 полностью измеренных ⁴Нер-событий.

Из рис.2 видно, что импульсные спектры ядер трития существенно различаются для двух рассматриваемых типов соударений. Очевидно, что основным механизмом образования ядер ³Н в ⁴Нер-взаимодействиях является неупругое или квазиупругое выбивание протоном-мишенью одного из протонов ядра ⁴Не, т.е. рождение ядер трития происходит главным образом в




Рис.2. Импульсные распределения ядер ³Н в ¹⁶Ор (★) и ⁴Нер (○) соударениях

периферических ⁴Нер-соударениях. Существенное уширение импульсного спектра ядер ³Н в ¹⁶Ор-взаимодействиях по сравнению с ⁴Нер-взаимодействиями обусловлено существенно большим числом каналов образования, в частности, помимо указанного выше процесса, развалом возбужденных

6 Р.Н.Бекмирзаев, В.А.Беляков, К.Олимов, М.У.Султанов, Г.Ю.Нодиров. Нуклоны спектры в СС-соударениях при 4,2 А ГэВ/с. Доклады Академии наук Республики Узбекистан. 6-2011, с.36-38.
7 Rukoyatkin P.A. et al.: Secondary nuclear fragment beams for investigations of relativistic fragmentation of light radioactive nuclei using nuclear photoemulsion at Nuclotron. Eur. Phys. J. ST 162, 267 (2008).
8 Султанов М.У., Усаров А.А., Тухтаев У.У., Кодиров А.А., Яхшибоев К.Х., Нурмуродов Л.Т. Влияние центральности столкновений к образованию заряженных пионов и протонов в dC-взаимодействиях при импульсе 4,2 ГэВ/с. СамГУ, Научный вестник, 2020 г. №1(119), стр.112-116.
9 R.N.Bekmirzaev, M.U.Sultanov et al. Multiplicity outputting of hadrons in CC-interactions at the momentum 4.2 GeV/c with different collision Centralities. ACADEMICIA. An International Multidisciplinary Research Journal. Vol.10, Issue 10, October 2020.

остаточных ядер, возникающих после первичного акта соударения, развитием внутриядерного каскадирования и дальнейшим слиянием (хотя и с небольшой вероятностью) каскадных нуклонов. Для определения вкладов от процессов образования ядер трития за счет слияния каскадных нуклонов и выбивания одного протона α -кластера исходного ядра мы установили доли ядер трития с $T > 70$ МэВ ($p > 627$ МэВ/с) в $^{16}\text{O}p$ - и $^4\text{He}p$ -соударениях, которые оказались равны $(9.01 \pm 0.74)\%$ и $(0.61 \pm 0.04)\%$ соответственно. Поскольку в $^4\text{He}p$ -соударениях слияния нуклонов быть не может, то разность между долями быстрых ядер трития ($T > 70$ МэВ) в $^{16}\text{O}p$ - и $^4\text{He}p$ -соударениях приходится на процесс слияния. Таким образом, вкладом в образование ядер трития с $T > 70$ МэВ за счет выбивания одного протона α -кластера исходного ядра, который составляет 1/15 от процесса выхода быстрых ядер трития в $^{16}\text{O}p$ -соударениях, можно пренебречь и предположить, что основным механизмом образования быстрых зеркальных ядер с $T > 70$ МэВ в $^{16}\text{O}p$ -соударениях является слияние каскадных нуклонов с близкими импульсами.

На рис.3 приведены угловые спектры ядер ^3H и ^3He в лабораторной системе.




Рис.3. Распределения по углам вылета ядер ^3H (○) и ^3He (■) в $^{16}\text{O}p$ -соударениях в лабораторной системе.

Из рис.3 видно, что угловые спектры зеркальных ядер ^3H и ^3He , так же как и импульсные, имеют асимметричную одномодальную форму, значительные протяженные "хвосты" без каких-либо нерегулярностей. Из рис.3 также видно, что в пределах статистических погрешностей оба спектра совпадают друг с другом. В пределах статистических погрешностей совпадают и средние углы вылета этих ядер: $\langle \theta(^3\text{He}) \rangle = (1.39 \pm 0.05)^\circ$ и $\langle \theta(^3\text{H}) \rangle = (1.44 \pm 0.05)^\circ$. Из совпадений импульсных и угловых спектров вытекает и совпадение распределений этих ядер по поперечному

импульсу (см. рис. 4).

Таким образом, из совпадения средних множественностей и импульсных, и угловых характеристик зеркальных ядер ^3H и ^3He можно заключить, что они формируются при очень близких физических условиях и при этом разница в энергиях связи этих ядер не оказывает заметного влияния на характеристики их образования.




Рис.4. Распределения по поперечному импульсу ядер ^3H (○) и ^3He (■) в $^{16}\text{O}p$ -соударениях.

Рис.4.. Распределения по поперечному импульсу ядер ^3H (○) и ^3He (■) в $^{16}\text{O}p$ -соударениях.

Нами был выполнен сравнительный анализ образования ядер ^3H и ^3He также на основе изучения множественностей сопутствующих частиц (протонов и заряженных пионов) и фрагментов первичного ядра. В табл.1 приведены средние множественности различных типов частиц и фрагментов, ассоциированных с наличием в событии ядер ^3H и ^3He .

Из данных таблицы 1 видно, что множественность протонов-фрагментов в событиях с образованием ядер ^3H на $\sim 12\%$ больше, чем в событиях с образованием ядер ^3He . Такое различие в множественностях протонов, по-видимому, связано с образованием части ядер ^3H (^3He) за счет выбивания одного протона (нейтрона) α -кластера исходного ядра кислорода. В самом деле, поскольку в таких случаях образование ядер ^3H сопровождается вылетом дополнительного протона, то из-за изотопической симметрии образование ядер ^3He должно сопровождаться вылетом ненаблюдаемого нейтрона. В пользу этого заключения свидетельствует также соотношение множественностей π^+ и π^- в этих группах взаимодействий.

Таблица 1. Средние множественности фрагментов и заряженных частиц, ассоциированные с образованием ^3H и ^3He в $^{16}\text{O}p$ -взаимодействиях при 3.25 А ГэВ/с.

Тип частицы и фрагмента	Ассоциированная множественность частиц и фрагментов	
	с образованием ^3H	с образованием ^3He
^1H	2.75 ± 0.04	2.36 ± 0.04
^2H	0.61 ± 0.02	0.62 ± 0.02
^3H	1.25 ± 0.04	0.25 ± 0.01
^4He	0.26 ± 0.01	1.25 ± 0.04
^6He	0.73 ± 0.02	0.71 ± 0.02
$3 \leq Z_i \leq 8$	0.22 ± 0.01	0.17 ± 0.01
π^+	0.62 ± 0.02	0.49 ± 0.02
π^-	0.32 ± 0.01	0.49 ± 0.02
$p_{\text{заряд}}$	0.45 ± 0.02	0.39 ± 0.02

Нетрудно доказать, что из-за зарядовой асимметрии первого соударения протона с протоном или нейтроном соотношение множественностей π^+ и π^- будет характеризовать номенклатуру сталкивающихся частиц.

Другим источником образования протонов-фрагментов является их испускание в процессе снятия возбуждения ("испарение" протонов). Однако образование этих протонов происходит на заключительной стадии акта адрон-ядерного взаимодействия и не может быть использовано для идентификации динамических особенностей реакции, за исключением тривиального различия в избыточном числе оставшихся протонов в событиях с образованием ^3H или нейтронов в событиях с образованием ядер ^3He . Для выяснения степени возбуждения фрагментирующего ядра в процессах образования ядер трития мы определили среднюю множественность испарительных протонов ($p < 0.22$ ГэВ/с в а.л.с.) в $^{16}\text{O}p$ -соударениях в событиях с образованием ядер трития и без их образования. Оказалось, что в первой группе она приблизительно на единицу

выше, чем во второй, составляя 1.84 ± 0.04 и 0.85 ± 0.00 соответственно. Этот факт является дополнительным доказательством, что образование легких зеркальных ядер происходит в условиях сильного возбуждения ядра кислорода.

Интересно отметить совпадение средних множественностей ядер ^2H и ^4He для обеих групп событий (см. табл.1), что не противоречит простой комбинаторике их формирования из оставшихся нуклонов исходного ядра.

Несколько меньшая множественность фрагментов с $3 \leq Z_i \leq 8$ в событиях с образованием ядер ^3He , по-видимому, обусловлена сохранением барионного и электрического зарядов, и, таким образом, анализ множественностей в этой группе фрагментов не чувствителен к механизмам образования рассматриваемых зеркальных ядер.

В заключение данного раздела приведем основные выводы по результатам исследования образования ядер ^3H и ^3He в $^{16}\text{O}p$ -соударениях при 3.25 А ГэВ/с, которые могут быть сформулированы следующим образом:

• Импульсные спектры ядер ^3H и ^3He в $^{16}\text{O}p$ -соударениях при 3.25 А ГэВ/с существенно шире наблюдаемых спектров в $^4\text{He}p$ -взаимодействиях при 3.375 А·ГэВ/с. Это обстоятельство указывает на существенную роль каскадных процессов при образовании легких зеркальных ядер.

• Импульсные спектры зеркальных ядер содержат компоненту с аномально большими значениями импульсов, не объяснимую с точки зрения КФМ. Образование таких высокоэнергичных ядер может быть интерпретировано коалесценцией продуктов фрагментации.

• Образование зеркальных ядер ^3H и ^3He происходит при близких физических условиях, и разница в их энергиях связи не оказывает значительного влияния на их формирование.

KIMYO FANIDAN MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISH USULLARI

Shoira Bobonazarovna Formanova - (PhD), Toshkent davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Maqolada o'quv jarayonida o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish to'g'risida so'z yuritilgan. Shuningdek, ko'p tanlov javobli va kombinatsiyali test topshiriqlari ishlab chiqish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Аннотация: В статье рассматривается организация самостоятельной работы студентов в учебном процессе. Также были разработаны методические рекомендации по разработке ответов с множественным выбором и комбинированных тестовых заданий.

Abstract: The article discusses the organization of independent work of students in the educational process. Also, methodological recommendations have been developed for the development of multiple-choice response and Combination test tasks.

Kalit so'zlar: mustaqil ishlar, kimyoviy diktant, reaksiya tenglamalari, ko'p tanlov javobli va kombinatsiyali test topshiriqlar, ko'nikma, kompetensiya.

Ключевые слова: самостоятельная работа, химический диктант, уравнения реакций, варианты ответов и комбинированные задания, навыки, компетентность.


Keywords: independent work, chemical dictation, reaction equations, multi-choice answer and combination tasks, skills, competence.

Hozirgi davrda kimyo o'qitish metodikasi sohasining o'quv jarayonida o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish borasida ancha katta tajriba to'plangan. Kimyo fanini o'qitish jarayonida qo'llanilib kelayotgan mustaqil ishlar jumlasiga o'quvchilarning mustaqil bajaradigan laboratoriya ishlari, darslik materiallarini o'rganish, masalalar tuzish va yechish, yozma nazorat ishlarini bajarish, modellar bilan ishlash, qo'shimcha adabiyotlar yuzasidan axborot tayyorlash, biror o'quvchi javobiga yoki ma'ruzasiga taqriz tayyorlash, kimyoviy diktant yozish, video yoki kino ekranda ko'rsatilgan materiallar asosida muayyan ishlarni bajarish va boshqalar kiradi¹.

Mustaqil ishlar 3 tipga: 1) ko'chirma xarakterli (reproduktiv); 2) qisman izlanuvchi; 3) tadqiqot tiplariga ajratiladi. Ko'chirma xarakterli mustaqil ishlarda o'quvchilardan biror topshiriq yoki tajribani o'qituvchi ko'rsatib berganidek tarzda bajarish talab qilinadi².

Qisman izlanish tipidagi mustaqil ishlar esa o'quvchilarni fikrlashga undaydi. Bunday tipdagi topshiriqlarda o'quvchilarning o'zlari olgan bilim asosida muayyan masalalarni yechish yo'li va usulini topish nazarda tutiladi. Masalan, "quyidagi o'zgarishlarni amalga oshirishga imkon beradigan reaksiyalar

tenglamalarini yozing" degan vazifa xuddi shunday topshiriqlarga kiradi:



Bunda o'quvchi o'zgarishlarni amalga oshirish uchun kerakli moddalarni topishi va reaksiya tenglamalarini to'g'ri tuzishi lozim. Tadqiqot tipidagi mustaqil ishlar muammoli o'qitish metodlaridan biri hisoblanadi. Bunday ishlar o'quvchilarning kichikroq tadqiqot ishlaridan iborat bo'lib, unda o'quvchi yangi bilim oladi. Keyingi yillarda mustaqil ishlarning ko'p tanlov javobli va kombinatsiyali topshiriqlardan iborat shakllari taklif etildi. O.Mavlonov mustaqil bilim olish va o'z-o'zini baholashga mo'ljallangan topshiriqlarning beshta shaklini taklif etadi.

1-teng nisbatdagi to'g'ri va noto'g'ri javoblardan iborat bo'lgan ko'p tanlov javobli topshiriqlar;

2-bir-biriga qarama-qarshi tushunchalarni aniqlashga doir ko'p tanlov javobli topshiriqlar;

3-to'g'ri ketma-ketlikni aniqlashga oid topshiriqlar;

4-o'zaro mos keladigan tushunchalarni aniqlash topshiriqlari;

5-rasm va chizmalarni o'qish topshiriqlari. Keng miqyosda o'tkazilgan tajribalar ko'p

tanlov javobli va kombinatsiyali topshiriqlar o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish va o'z-o'zini baholashda yaxshi samara berishini ko'rsatdi. Quyida kimyo ta'limi jarayonida foydalanishga yaroqli bo'lgan ko'p tanlov javobli va kombinatsiyali test topshiriqlarining asosiy shakllari va ulardan namunalar keltirilgan³.

A. Teng nisbatdagi to'g'ri va noto'g'ri javoblardan tashkil topgan ko'p tanlov javobli topshiriqlar. Bunday topshiriqlarda to'g'ri va noto'g'ri javoblar bir xil nisbatda bo'ladi.

1. Ikki atomli galogenlar molekularidagi bog'ni uzish uchun talab etiladigan energiya qiymati (kJ/mol) quyidagicha:

F₂-155; Cl₂-239; Br₂-190; J₂-149; At₂-113 bo'lishini quyidagi holatlar (I)ning qaysi biri asosida talqin etish mumkin?

I: 1) atomlar orasidagi bog' uzunligining ortib borishi bilan bog'lanish energiyasi kamayib boradi;

2) ftor molekulasidagi bog'lanish energiyasi xlor molekulasidagi energiyadan kichik bo'lishi ftor atomining radiusi kichikligi bilan;

3) ftdan xlorga o'tganda energiya kamayish o'rniga ortishini xlordan oxirgi astatgacha dissotsilanish energiyasi kamayib borishini molekulasidagi bir atomning r-orbitallardagi taqsimlanmagan elektronlari qo'shni atomning aktseptor d-orbitallariga tortilishi (dativ bog'lanish) asosida va bog' uzunligini ortishi bilan; 4) molekulasidagi atomlarning dativ bog' hissasi bilan; ftdor atomi bilan qolgan galogenlar atomlari orasida kuzatiladigan tafovutlarni tushunish uchun ularning quyida keltirilgan qaysi xususiyatlarini

II: 5) NEM qiymati ftdor atomida maksimal qiymatga ega bo'lishini uning p-orbitalidagi elektronlarining yadro ta'sirida kuchli tortilishiga o'zak elektronlar orbitalida faqat s- pog'onacha orbitali niqoblay olmaydi, bu p-orbitallar atomida paydo bo'lgan, yangi turdagi simmetriyaga-kaynosimmetriya (bu so'zdagi kayno-yangi ma'noni anglatadi)ga ega bo'lishi va bu elektronlar yadro zaryadining to'la ta'sirida bo'lishiga olib keladi;

6) kuzatilgan xususiyatlar ftdor atomining eng kuchli elektrmanfiyligi natijasidir;

A- 1,3,6 B-3,4,5 C-4,5,6 D-1,2,5 Bu topshiriqdagi 6 ta javobning 3 tasi,

ya'ni 3, 4, 5 to'g'ri javoblar hisoblanadi.

B. Bir-biriga qarama-qarshi tushunchalarni aniqlashga doir tuzilgan ko'p tanlov javobli topshiriqlar. Ulardagi javoblarning yarmisi birinchi topshiriqqa, qolgan yarmisi esa ikkinchi topshiriqqa tegishli bo'ladi.

2. Qaysi galogenlar odatdagi sharoitda gaz holatda bo'ladi? A-ftor; B-xlor; C-yod; D-astat;

3. Qaysi galogenlar odatdagi sharoitda qattiq holatda bo'ladi? (2- topshiriqqa qarang). Yuqoridagi 2-topshiriqning to'g'ri javobi-A, B;

3-topshiriqniki esa C, D.

B. To'g'ri ketma-ketlikni aniqlashga doir tuzilgan topshiriqlar. Bunday topshiriqlarning javoblari faqat to'g'ri javobni shakllantirish uchun lozim bo'lgan tushunchalardan iborat bo'lib, tartibsiz holda beriladi.

4. Xlorni kislorodli kislotalarini ketma-ketlik tartibida joylashtiring. A-xlorit; B-gipoxlorit; B-perxlorat; G-xlorat. To'g'ri javob quyidagicha yoziladi: 1-B, 2-A, 3-G, 4-B.

C. O'zaro mos keladigan tushunchalarni (juftliklarni) aniqlash topshiriqlari. Bunda berilgan tushunchaning mohiyatiga mazmunan mos keladigan ikkinchi tushunchani aniqlash kerak bo'ladi.

5. Quyidagi kimyoviy reaksiyalarning nomini va ularga mos keladigan tenglamalarini juftlab ko'rsating:

A-almashinish; B-o'rin olish; C-birikish.



D. Rasm va chizmalarni o'qish topshiriqlari. Bunday topshiriqlarga rasm ilova qilinadi. O'quvchidan topshiriqda keltirilgan javoblarga rasmdan ularga mos bo'lgan raqamlarni yozib berish taklif qilinadi.

6. Quyidagi laboratoriya jihozlari nomining o'rniga 1-rasmdan ularga to'g'ri keladigan raqamlarni ko'rsating:

1-rasm. Xlor olish asbobi.

A-yuvish idishlari; B-tomchi voronkasi; C-Vyurts kolbasi; D-xlor to'plash uchun idish.


¹ Бурибоев А.А. Кимё фанидан мустақил ишларни ташкил қилишда кўп танловли тест топшириқларидан фойдаланиш. "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842

January 2022 / Volume 3 Issue 1

² Бурибоев, А.А. (2021). Олий таълим тизимидаги ўқув фаолиятини ташкил этишда мустақил ишларнинг роли. Science and Education, 2(11), 1051

³ Тошпўлатов Б.Т., Норматов А.А., Мавлонов О.М. "Академик лицей ва касб-хунар коллежларида физика-математика фанларини ўқитишни такомиллаштириш истиқболлари"

-Ташкент:ТДПУ, 2000.-75-78 б.



D-5

ko'rinishida yoziladi.

Bunday test topshiriqlar juda ixcham va tejimli bo'lib, o'quv materiallarini to'liq qamrab olishga imkon beradi. Mustaqil o'qish uchun mo'ljallangan ko'p tanlov javobli va kombinatsiyali test topshiriqlari darslik materiallari bo'yicha oldindan tuzib chiqiladi va darsdan so'ng uyga vazifa qilib topshiriladi. Topshiriqlar alohida to'plam holda chop etilgan bo'lsa, uni darslik bilan birga o'quvchilarga tarqatiladi. Ko'p tanlov javobli va kombinatsiyali test topshiriqlaridan nazoratning barcha pog'onalarida foydalanish mumkin. Joriy nazoratlar darslikning alohida bir mavzusi bo'yicha tuzilsa, oraliq nazoratlar o'quv predmetidagi ayrim yirik mavzular bo'yicha, yakunlovchi nazorat esa butun o'quv predmeti bo'yicha tuzib chiqiladi. Oraliq va yakuniy nazoratlarning test topshiriqlari asosan umumlashtiruvchi tushunchalardan iborat bo'lishi kerak.

O'quvchilarning bilim o'rganishga

qiziqishini oshirish, ularning bilim olishini rag'batlantirish maqsadida nazoratlar o'zini-ozini baholash usulida olib boriladi. Buning uchun oldindan tayyorlangan nazorat topshiriqlari o'quvchilarga tarqatiladi. O'quvchilar nazorat daftariga topshiriqlarning javobini talab etilgan qoida asosida yozma bosh harflar orqali yozib berishadi. Topshiriqlarga javob berish uchun bir to'g'ri javobga o'rtacha 30 sek vaqt ajratiladi. Ajratilgan vaqt tamom bo'lishi bilan o'quvchilardan "javobni yopish" talab etiladi. Buning uchun o'quvchilar javob yozilgan matnni tik siniq chiziq tortib, varaqning bu qismidan ajratib qo'yishadi. O'qituvchi o'sha sahifaga buzib qayta yozilgan yoki o'chirilgan javoblarni qayd etib qo'yadi.

Bu chora tadbirlar topshiriq javoblariga bundan keyin o'zgartirishlar kiritishga imkon bermaydi. Shundan so'ng topshiriqlarning to'g'ri javoblari doskaga yozib qo'yiladi. O'quvchilar noto'g'ri javoblar ostiga chiziq tortib belgi qo'yishadi, ko'rsatilmagan to'g'ri javoblarni esa chiziqdan o'ng tomonga yozishadi⁴.

Shunday qilib, ko'p tanlov javobli va kombinatsiyali test topshiriqlarining mustaqil o'qish jarayoniga tatbiq etilishi o'quv materiallarini o'zlashtirib olishni yengillashtiradi. Shu bilan birga o'quvchilar vaqtini tejaydi, ularning uyda mustaqil bilim olishini doimiy nazorat qilib borishga imkon beradi. Nazorat ishlarining o'z-o'zini baholash usulida tashkil etilishi bilim olishni rag'batlantirib, o'qituvchi mehnatini yengillashtiradi.

⁴ Бурибоев, А. А. Кимё фанидан мустақил ишларни ташкил қилишда кўп танловли тест топшириқларидан фойдаланиш. "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 January 2022 / Volume 3 Issue 1

"KEYS-STADY" METODIDAN FOYDALANIB TALABALARDA KOMPYUTERNING TEXNIK TA'MINOTINIGA OID KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH

Ulugbek Suyunbayevich Xonimkulov - o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Maqolada talabalarning kompyuterning texnik ta'minotiga oid egallagan bilimlarini amaliy mashg'ulotlarda keys-stady metodidan foydalanish masalasi qaralgan. Talabalarda kompyuterning texnik ta'minotiga oid kompetensiyani rivojlantirishda keys-stady metodidan foydalanish bo'yicha tavsifa va takliflar keltirilgan.

Аннотация: В статье рассматривается использование метода кейс-стади в практической отработке приобретенных студентами знаний по обслуживанию компьютеров. Представлены рекомендации и предложения по использованию метода кейс-стади в развитии компетенций по технической поддержке компьютера.

Abstract: The article examines the use of the case-study method in practical training of students' acquired knowledge of computer maintenance. Recommendations and suggestions for the use of the case study method in the development of competence in the technical support of the computer are presented.

Kalit so'zlar: o'qitish usuli, keys usuli, kompyuterga texnik xizmat ko'rsatish, kompetensiya, texnik xizmat ko'rsatish, diagnostika.

Ключевые слова: метод обучения, кейс-метод, обслуживание компьютера, компетентность, обслуживание, диагностика.

Keywords: teaching method, case-study method, computer maintenance, competence, maintenance, diagnosis.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi¹. Bu esa o'z navbatida, pedagog kasbining yanada murakkablashuvi, mas'uliyati va vazifalarining ortishiga olib keladi. Chunki ommaviy ta'limning bugungi sharoitida yangi raqamli avlod bilan ishlash, ularni rivojlantirish, jahon talablariga mos qilib kasbga tayyorlash zamonaviy o'qituvchidan yuksak texnologik bilim, salohiyat va mehnatni talab qiladi.

Ta'lim amaliyotiga kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish bo'lajak o'qituvchilarda zaruriy kompetensiya darajasini shakllantirish

imkonini beruvchi o'qitish usullari va ta'lim jarayonini tashkil etish shakllarini izlashni taqozo etadi. Talaba axborotni tayyor shaklda emas, balki izlanish va ijodiy fikrlash jarayonida olishi kerak. Ushbu muammoni hal qilishga qaratilgan shakllarni izlash oliy ta'limda keys texnologiyasi imkoniyatlarini kengroq tushunishga olib keldi. Keys texnologiyasi - real yoki xayoliy vaziyatlarga asoslangan qisqa muddatli ta'lim uchun interfaol texnologiya. Ushbu texnologiya bilimlarni rivojlantirishga emas, balki talabalarga yangi sifat va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan.

Ushbu metodlarning eng samaralilaridan biri "Keys-stadi" metodidir. "Keys-stadi" inglizcha so'z bo'lib ("case" - aniq vaziyat, hodisa, "study" - o'rganmoq, tahlil qilmoq), aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan uslub hisoblanadi. Mazkur uslub 1921-yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan kelib chiqqan holda iqtisodiy boshqaruv fanlarini o'rganishda qo'llanilgan. Keys-stadida ochiq axborotlardan yoki aniq voqeahodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys-stadi harakatlari o'z ichiga

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son

quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday-Qanaqa (How), Nima natija (What). Ushbu harakatlar orqali o'qituvchi talabani vaziyatni mavjud ma'lumotlardan foydalangan holda samarali yechimlarni topishga yo'naltiradi².

Kompyuterga texnik xizmat ko'rsatish - bu kompyuter ta'minot bilan ishlash va muayyan texnik muammolarni hal qilishni o'z ichiga olgan keng qamrovli xizmatdir. Kompyuter texnik ta'minoti quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- kompyuter texnik ta'minoti va tashhisi;
- kompyuterga texnik xizmat ko'rsatish;
- operatsion tizimni o'rnatish va sozlash;
- virusga qarshi dasturlarni o'rnatish va sozlash, virus hujumlari oqibatlarini bartaraf etish;

• zamonaviy kompyuterlarida ishlash uchun zarur bo'lgan texnik ta'minotni tanlash, o'rnatish, sozlash, texnik xizmat ko'rsatish;

- printerni ulash va chop etishni sozlash;
- yuzaga kelgan hodisalarni aniqlash va o'z vaqtida bartaraf etish;
- ma'lumotlarni qayta tiklash, komponentlarni almashtirish.

Talabalar tahliliy ko'rsatkichlar bilan malakali ishlay olishi, eng muhimi, u yuqori darajadagi mantiqiy fikrlashga ega bo'lishi kerak, bu unga quyidagilarga³ imkon beradi:

- har qanday murakkablik darajasidagi muammolarni hal qilish;
- mavjud bo'lmagan muammoga duch keldi oldingi faoliyatidagi o'xshashlar, uni malakali va professional tarzda engish;
- doimiy ravishda o'z-o'zini tarbiyalash ko'nikmalarini rivojlantirish va kasbiy yo'nalishni o'zgartirish qobiliyati.

Talabalarni ishda keltirilgan vaziyat bilan tanishtirishda, birinchi navbatda:

- ishning asosiy muammolarini aniqlash va taqdim etilganlardan qaysi biri hal qilish uchun muhimligini tushunish;
- tahlil qilish uchun zarur bo'lgan faktlar va tushunchalarni tanlash, muammoni hal qilishda qanday qiyinchiliklar paydo bo'lishi mumkinligini tushunish.

Ishni muhokama qilishni tashkil etish talabalar uchun savollarni shakllantirishni, shu jumladan ularni muhokamaga qo'yishni o'z ichiga oladi. Savollar odatda oldindan tayyorlanadi va ish matni bilan birga talabalarga taklif qilinadi.

Munozarani olib boruvchi, o'qituvchi har bir talabaning muhokamasida ishtirok etishga intilishi, tarafdor va qarshi dalillarni tinglashi va ularni tushuntirishi, muhokama jarayoni va yo'nalishini⁴ nazorat qilishi kerak.

Ishni muhokama qilish va tahlil qilishda munozarani tashkil etishda aqliy hujum yoki aqliy hujum deb ataladigan g'oyalarni shakllantirish usulidan foydalanish alohida o'rin tutadi. Vaziyatni tahlil qilish natijalarini taqdim etish yoki taqdim etish ish uslubining juda muhim jihati hisoblanadi. Keys usulidan foydalanib, siz barcha turdagi baholashlardan foydalanishingiz⁵ mumkin: joriy, oraliq va yakuniy.

Biz bilamizki, kompyuterlardan foydalanish jarayonida ko'pgina muammolarga duch kelamiz va ularni samarali ishlashi uchun qurilmalarning barchasi bekamu-ko'st ishlab turishi talab etiladi. Quyida kompyuterlar bilan ishlash jarayonida sodir etilishi mumkin bolgan muammo va vaziyatlarni ko'rib o'tamiz.

Keys bayoni: Hozirgi vaqtda ixtiyoriy tashkilot kompyuter tarmog'iga ega bo'lib, bunday tizimlarning murakkabligi, jixozlanganlik darajasi, yechadigan masalalar sinfi, boshqarish holatlari va hududiy bo'linganligi tashkilot foydalanuvchilarining sohasiga bog'liq bo'ladi. Biroq, bunday tizimlarning asosida axborotni yig'ish, ishlov berish, saqlash, aks ettirish va uzatish imkonini beruvchi dasturiy-apparat vositalar majmuasidan iborat axborot texnologiyalari yotadi. Bunday turdagi avtomatlashtirilgan dasturiy-apparat vositalarning asosini hisoblash tizimlari tashkil qiladi. Hisoblash tizimlarining qo'llanilishi ishlov berish jarayonining tezlashishi evaziga hisoblash aniqliligi va ishonchiligi oshirish, foydalanuvchilarga servis xizmatlarini taqdim etishni asosiy maqsad qilib oladi⁶.

Keys topshirig'i: Kompyuterning ishlamay qolishi va noto'g'ri ishlashining asosiy sabablarini keltiring va izoh bering.

Birinchi sabab: kompyuterni yoqgandan so'ng, yon tomondan tanish ovozli signal eshitiladi va tizim bloki va yuklanadigan operatsion sistema, ishga tushadi ammo monitor ishlamaydi;

Ikkinchi sabab: vaqti-vaqti bilan doimiy bo'lgan kompyuter mustaqil rejimda o'chadi (odatda bu elektr ta'minoti uzilib qolganda sodir bo'ladi);

Uchinchi sabab: kompyuter uni yoqish uchun hech qanday urinishlarga javob bermaydi;

To'rtinchi sabab: kompyuterni davriy muzlatish;

Beshinchisabab:kompyuterniyoqqandan so'ng ishlash to'xtaydi, monitorda qora yozuv paydo bo'ladi yoki qurilmalarni ishga tushirish jarayonini ko'rsatadigan ma'lumot paydo bo'ladi. Bu holat vaqti-vaqti bilan "har safar"

² Муслимов Н.А. ва бошқалар. Инновацион таълим технологиялари ва педагогик компетентлик модули бўйича ўқув-услубий мажмуа. - Т.: ТДПУ, 2016.

³ Кейс метод. Окно в мир ситуационной методики обучения/Casemethod.ru

⁴ Матусевич А.П., Коровин С.В. Кейсы и кейс-стади: вопросы методологии. М, 2010.

⁵ Масалков И.К., Семин М.В. Стратегия кейс-стадии: методология исследования и преподавания: учебник для вузов / И.К. Масалков, М.В. Семин. - М., 2011.

⁶ Иванова О.А., Цегельная Н.В., Деметьева О.М. Использование кейс-метода в образовательном процессе // Школа и производство. - 2011. - № 8. - С. 3-7.

takrorlanadi va bir muncha vaqt o'tgach, uzoq kutilgan yuklab olish boshlanadi;

Oltinchi sabab: yoqilgandan keyin bir necha soniyadan so'ng - kompyuter o'chadi;

Yettinchi sabab: Kompyuter vaqti-vaqti bilan BIOS larni (ko'k ekrani) chiqaradi. Ko'pincha Windows-ni qayta o'rnatish kerak bo'ladi, chunki xabar paydo bo'ladi fayllardan birining shikastlanishi haqida. Windows HDD ni mavjud xatolar uchun tekshirishni boshlaganda so'ng;

Sakkizinchi sabab: monitor ekranida xarakterli gorizontall chiziqlar, nuqtalar, buzilishlar paydo bo'ladi "noan'anaviy" joylarda tasvirlar, nuqtalar, matn qismlari va boshqalar;

To'qqizinchi sabab: kompyuter uzoq vaqt davomida POST diagnostikasidan o'tadi, sekin ishlaydi, muntazam ravishda ko'k ekranni chiqaradi yoki shunchaki noma'lum vaqt davomida muzlaydi;

O'ninchi sabab: Kompyuterni yoqgandan so'ng, ishlaydigan fanatlarning ovozi eshitiladi, LED larning porlashi ko'rinadi, lekin kompyuterni yuklash belgilari yo'q, ekran javob bermay, tizim dinamikidan davriy signallari chiqishi mumkin.

1. Nosozlik tasnifi: Bu erda, ehtimol, qimmat video karta yoki monitoring o'zi muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Biz quyidagi amallarni bajaramiz - monitor kabelini tizim blokidan ajratib oling. Agar monitor ish holatida bo'lsa, ekranda "Kabel ulanmagan" yozuvi paydo bo'ladi, agar bu sodir bo'lmasa, monitor noto'g'ri, ishonch hosil qilish uchun siz boshqa kompyuterga ulanishingiz mumkin. Muammo tasdiqlansa, monitorni ta'mirlash kerak. Agar kabelni uzgandan so'ng, monitor ekranida ulanishning yo'qligi haqida ma'lumot paydo bo'lsa, unda shartlarga rioya qilgan holda muammo video kartada bo'ladi. BOIS diagnostikasining normal POST (tovushli signal bilan birga). Video kartani ta'mirlash yoki almashtirish kerak.

2. Nosozlik tasnifi: Ko'pincha tizim bloki joriy yuk paytida himoyani yoqadi (kodlash, o'yinlar, arxivlash ...) - ikkita variant bo'lishi mumkin: elektr ta'minoti bilan bog'liq muammolar yoki protsessorning haddan tashqari qizishi. Haddan tashqari qizib ketishga kelsak, buning sababi katta chang qatlami, singan fan yoki aloqaning etishmasligi va radiator o'rnatish moslamasida issiqlik tarqalishi. Protsessorning haddan tashqari qizishi bilan bog'liq vaziyatning ehtimoli elektr ta'minotining ishdan chiqishiga qaraganda ko'proq. Agar tizim bloki tasodifiy o'chib qolsa, muammo, ehtimol, qurilmada ta'minlash, uni almashtirish yaxshiroqdir.

3. Nosozlik tasnifi: Kompyuter uni yoqish uchun doimiy urinishlarga javob bermaydi;

Nosozlik sababi bo'lishi mumkin - quvvat manbai, kamroq - video karta va anakart. Video kartaning ishlashini tekshirish uni olib tashlash

va kompyuterni qayta ishga tushirishni talab qiladi. Agar nosozlik tasdiqlansa, tasvir o'rnatilgan video kartaga (agar mavjud bo'lsa) "qoladi" yoki BIOS darhol maxsus signal bilan xato haqida signal beradi. Ushbu video kartani ta'mirlash kerak. Agar buzilishning sababi video kartada bo'lmasa, u holda kompyuter jonsiz qoladi. Elektr ta'minotining ishlashi uni anakartdan uzish orqali tekshiriladi va boshqa qurilmalar. Endi biz tarmoqqa ulanamiz va odatda anakartga ulangan keng panelda joylashgan yashil va qora kontaktlarni qog'oz qisqich bilan yopamiz. Elektr ta'minoti yaxshi holatda bo'lsa, qurilmaning fanati aylanishi kerak. Tekshirishning yana bir samarali usuli quvvat manbaini boshqa kompyuterga ulashdir. Elektr ta'minoti ishlayotgan bo'lsa va video karta ishlayotgan bo'lsa, barcha e'tibor noto'g'ri ish bo'lgan anakartga o'tkaziladi.

4. Nosozlik tasnifi: Muammo qurilmalardan birida: qattiq diskda, anakartda, quvvat manbaida, qattiq diskning SATA kabelida. Kompyuter darhol muzlaydi, hamma narsa to'xtab qoladi, tasvir, musiqa, sichqoncha kursori muzlaydi. Muammo shundaki, anakartda joylashgan shimoliy yoki janubiy ko'prik chiqib ketgan, bu darhol ta'mirlashni talab qiladi. Bu yerda dizayn bilan bog'liq bo'lgan zavod nuqsoni, SATA kontrolleri bilan bog'liq muammo bo'lishi mumkin. Bunday aomatlar shaxsiy kompyuter yoki alohida platani sotib olgandan so'ng darhol paydo bo'lishi kerak va to'g'ri yechim kafolat ostida bo'lgan platani almashtirishdir. Bundan tashqari, qo'shimcha PCI SATA kontroller o'rnatish mumkin. Muzlatishning bosqichma-bosqich jarayoni mavjud: dastlab dasturlar muzlaydi, to'xtaydi operatsion sistema harakatlariga javob bering, sichqoncha kursori harakatni to'xtatadi, ekranda ko'k rang paydo bo'ladi. Muammo qattiq diskingizning SATA kabelida, quvvat manbai yoki qattiq diskning o'zida nosozlikdir. Loopni almashtirish kerak, agar vaziyat o'zgarmasa, shovqinni maxsus PSU osiloskopi bilan o'lchash kerak. Agar kerakli diagnostika vositalari mavjud bo'lmasa, almashtirish usulini qo'llashga harakat qilish kerak va birinchi navbatda, HDDni almashtirishingiz kerak, chunki uning ishdan chiqish ehtimoli elektr ta'minotidan yuqori.

5. Nosozlik tasnifi: Ehtimol, BIOS u yoki bu qurilmani taniy olmaydi: DVD disk, qattiq disk ...Barcha tashxis qo'yilgan qurilmalarni ajratish va ulash usulini qo'llash kerak, ehtimol buzilishning sababi SATA kabelida. Mumkin sabab yomon ovqatlanish bo'lishi mumkin, bu rasm bilan tasdiqlangan. PSU chiqishidagi shishgan (zararlangan) kondansatorler. Mumkin bo'lmagan variant BIOS bilan bog'liq muammolar bo'lishi mumkin, bu mutaxassisning tizimli aralashuvini talab qiladi.

6. Nosozlik tasnifi: Elektr ta'minotini

himoya qilish faollashtirilgan, ikkita sabab bo'lishi mumkin: qurilmaning noto'g'ri ishlashi yoki anakartdagi qisqa tutashuv, masalan: o'layotgan PWM kontrolleri yoki plataning boshqa elementlari. Anakartga ulangan keng chiqishdagi qog'oz qisqichi (pin) bilan yashil va har qanday qora kontaktni yopish orqali quvvat manbaini tekshiramiz. 95% PSU ishlayotgani foydasiga - fan darhol yoqiladi. Ammo to'liq tekshirish uchun siz qurilmani ma'lum va sinovdan o'tgan va ishlaydigan kompyuterga ulashingiz kerak. Shunday qilib, elektr ta'minoti ishlaydi, ya'ni nosozlik anakartda bo'lib, jiddiy ta'mirlash kerak.

7. Nosozlik tasnifi: Monitorida ko'k ekranlari paydo bo'lishi Operatsion tizimni qayta o'rnatish zarurligini ko'rsatadi, bunga qo'shimcha ravishda, sabab diskning ishdan chiqishi bo'lishi mumkin, bu esa shunchaki ta'mirlash emas, balki to'liq almashtirish, chunki u "to'kilgan". Bundan tashqari, RAM (Random Access Memory) memtest 86+ dasturi yordamida tekshirilishi mumkin. Ana plata va protsessorning barqarorligi "Tizimning stress testi" orqali tekshiriladi. Original AIDA64 dasturiy ta'minot to'plami va video kartani tekshiring.

Siz 3DMARK dan foydalanishingiz mumkin. Biroq, testlar kerakli natijalarni bermasligi mumkin, shuning uchun tekshirish tizimni vaqtincha o'zgartirib, istisnolar usuli bilan amalga oshirilishi kerak.

8. Nosozlik tasnifi: Bu yerda video karta shikastlangan, uni ta'mirlash uchun xizmat ko'rsatish markazining mutaxassislariga topshirish kerak. Agar monitor ekranida shovqin va gorizontal chiziqlar ustunlik qilsa, video kabelning yaxlitligini tekshirishga harakat qiling.

9. Nosozlik tasnifi: Muammo qattiq diskda yoki SATA kabelida. Bunga qo'shimcha ravishda, bu erda HDD tufayli operatsion tizimning sekin ishlashini umumiy sekinlashuv bilan aralastirmaslik kerak. Viruslar, tartibsizliklar va boshqa bema'niliklarning mavjudligi tufayli. Siz POST vaqtiga e'tibor qaratishingiz kerak. PSU sekinlashishi mumkin (qattiq disk tomonidan yoqilmaydigan xarakterli chertishlar eshitiladi). Shishgan (buzilgan) vizual ko'rinishi⁷ paydo bo'ladi.

10. Nosozlik tasnifi: Kompyuter korpusidan anakartni olib tashlash kerak, unga bitta RAM (Random Access Memory) tayoqchasini, protsessorning o'zi va video

kartani (agar o'rnatilgan plata bo'lmasa) ulangan holda qoldiring. Bundan tashqari, quvvat manbai ishda qolishi kerak. Diagnostika uchun sizga POST kodlovchi, multimetr va osiloskop kerak bo'ladi. Biz POST-kartani ishga tushiramiz va xato raqamiga e'tibor qaratamiz. Birinchi marta 00 yoki FF dan o'tmasdan pochta kartasida bronzlashda muammo anakartda, kamdan-kam hollarda protsessorda yoki quvvat manbaida. Biz kuchlanishni multimetr bilan o'lchaymiz (+12v, +5v, +3.3v). Oddiy qiymatlarda shovqin darajasini - osiloskop bilan o'lchash maqsadga muvofiqdir. Zarar aniqlansa, ta'mirlash kerak. Agar pochta kartasi boshqa kodni chiqarsa, tegishli hujjatlardagi POST kodlarining shifrlanishini ko'rib chiqishingiz kerak. Muammolarni bartaraf etishning osonroq yo'li ikki yoki uchta tafsilotni talab qiladi - xuddi shu avtobusda (AGP, PCI-e ...) o'xshash RAM (DDR1, DDR2), quvvat manbai va video karta mavjudligi. Kompyuter qismlarini navbat bilan ishlaydigan analoglar bilan almashtirish orqali - yo'q qilish usuli bilan siz buzilishni tezda aniqlashingiz mumkin. Agar muammo hal etilmasa va kompyuter yoqilmasa, u holda anakart to'liq ishlamay qolgan, kamroq darajada bu protsessorga tegishli. Quvvat manbai chiqishidagi kondansatorler - mavjud nosozlikning eng yaxshi tasdig'i. Biz SATA kabelini tezda o'zgartiramiz, PSU ni vaqtincha almashtiramiz, agar u yordam bermasa, muammo HDD da⁸ joylashgan.

Xulosa sifatida shuni takidlash lozimki, darsda keys-stady metodini qo'llash, o'qituvchi talabalar faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo'naltiradi, ya'ni mavzu bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni mustaqil o'zlashtirish va shakllantirish amaliyotidir. Ta'lim berish jarayonida deyarli barcha talabalar o'zlarining mustaqil fikrlash qobiliyati bilan jarayonida ishtirok etadilar. O'quv materialini o'zlashtirish jarayonida talabalarning birgalikdagi faoliyati har kimning o'z shaxsiy hissasini qo'shishini, bilim, g'oyalar, faoliyat usullari almashishini anglatadi. Bunday o'zaro ta'sir o'quvchilarga nafaqat yangi bilimlarni olish, balki muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini beradi: bironing fikrini tinglash, baholash, munozaralarda qatnashish, birgalikda qaror ishlab chiqish, bag'rikenglik va boshqalar.

“TEXNIK TIZIMLARDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI” FANINI O‘QITISHDA VIRTUAL TA‘LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Umid Jumayevich Hasanov - katta o'qituvchi, Jizzax politexnika instituti

Annotatsiya: Maqolada texnika yo'nalishi oliy ta'lim muassasalarida texnik tizimlar va jarayonlarni o'rganishda virtual ta'lim texnologiyalari imkoniyatlari va ulardan foydalanish afzalliklari yoritilgan. Texnik tizimlarni o'rganida virtual ta'lim vositalaridan foydalanishning asosiy afzalliklaridan biri ularning haqiqiy asbob-uskuna va jihozlarsiz virtual laboratoriya ishlarini o'tkazishga imkoniyat berishidir. Virtual ta'lim vositalaridan foydalanish murakkab texnik jarayonlarni nisbatan tez va katta xarajatsiz, inson hayoti va sog'ligi uchun xavfsiz sharoitda tadqiq etish va o'rganish imkoniyatini beradi

Аннотация: В статье описаны возможности и преимущества использования виртуальных образовательных технологий при изучении технических систем и процессов в технических вузах. Одним из основных преимуществ использования виртуальных средств обучения при изучении технических систем является то, что они позволяют проводить виртуальные лабораторные работы без реального оборудования и без расходных материалов. Использование виртуальных средств обучения дает возможность относительно быстро и без больших затрат исследовать и изучать сложные технические процессы, в безопасных условиях жизни и здоровья человека.

Abstract: The article describes the possibilities and advantages of using virtual educational technologies in the study of technical systems and processes in technical universities. One of the main advantages of using virtual learning tools in the study of technical systems is that they allow you to conduct virtual laboratory work without real equipment and without consumables. The use of virtual learning tools makes it possible to relatively quickly and cost-effectively explore and study complex technical processes in safe conditions for human life and health.

Kalit so'zlar: tizim, texnik tizim, o'quv jarayoni, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, virtual ta'lim, virtual didaktik vositalar

Ключевые слова: система, техническая система, образовательный процесс, информационно-коммуникационные технологии, виртуальное образование, виртуальные дидактические средства.

Keywords: system, technical system, educational process, information and communication technologies, virtual education, virtual didactic tools

Oliy ta'lim muassasalarining bitiruvchilari oldiga fundamental fanlar va aniq kasb sohasi doirasida nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lish, kompyuter va telekommunikatsiya vositalaridan foydalana olish uchun zarur bo'lgan bilimlar majmuasiga ega bo'lish vazifalari qo'yilgan. Ta'lim muassasalarida ta'lim samaradorligini oshirish maqsadida ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalarini joriy etish, ularda interfaol usul va vositalardan foydalanish ko'zda tutilgan.

Shu sababli, bugungi kunda oliy ta'limda faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar oldida: 1) talabalarning mustaqil bilim olish va o'rganish qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishda fanning roli va ahamiyatini oshirish; 2) mashg'ulotlarini zamonaviy joy, muhit va boshqa subyektiv jihatlarisiz

pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish va o'tkazish; 3) talabalarni faollashtirish va o'zlashtirish darajalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan metod va shakllarini qo'llash; 4) ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalaridan samarali foydalanishdek muhim vazifalar turadi.

Bugun zamonaviy dunyoni axborot texnologiyalarimiz, internet tarmog'isiz tasavvur etib bo'lmaydi, chunki ular allaqachon hayotimizning bir qismiga aylanib ulgurgan. Bir necha yillar oldin internet haqida, virtual muloqot haqida tasavvurga ega bo'lmagan insonlar hozir muloqotning eng oson va har taraflama qulay yo'lga o'tishdi. Bu muloqotning qulayligi shundaki, u hech qanday masofani tan olmaydi. Shuningdek, qanday masofani tan olmaydi. Shuningdek, qanday masofani tan olmaydi. Shuningdek, qanday masofani tan olmaydi.

⁷ Смолянинова О.Г. Инновационные технологии обучения студентов на основе метода CaseStudy // Инновации в российском образовании, ВПО. – М., 2000. – С. 103–111.
⁸ Khonimkulov Ulugbek Suyunbaevich. (2022). THE USE OF CASE-STUDY TECHNOLOGY IN THE FORMATION OF STUDENTS' KNOWLEDGE OF COMPUTER HARDWARE. JournalINX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, 8(03), 78–81. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/YT3KZ>

onlayn muloqotni ta'minlaydi. Bugun zamon o'zgard, turmush tarzimiz hattoki jamiyatimiz kishilarining dunyoqarashi ham borgan sari kengayib bormoqda. Endilikda an'anaviy dars usullaridan ko'ra, noan'anaviy dars o'tish uslublari ko'proq samaraga, ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi.

O'qitish jarayonida virtual ta'lim vositalardan foydalanish ta'lim jarayonini qiziqarli olib borish, har bir foydalanuvchilarga individual yondashish imkonini beradi. Shu borada, ta'limni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish yo'llari izlanmoqda, ta'limda yangi pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish masalasi bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek "Xalqimiz dunyoqarashida innovatsion muhitni yaratish eng muhim vazifamizdir. Innovatsiya bo'lmas ekan, hech bir sohada raqobat, rivojlanish bo'lmaydi. Bu sohadagi o'zgarishlarni xalqimizga keng targ'ib qilmasak, odamlarda ko'nikma paydo qilmasak, bugungi davr shiddati, fan texnikaning mislsiz yutuqlari bilan hamqadam bo'laolmaymiz".

Mazkur vazifaning ijrosini amalga oshirish borasida davlat tilidagi kompyuter dasturlarining miqdoriy va mazmuniy sifatlarini oshirish va axborot texnologiyalari sohasida raqobatni kuchaytirish orqali milliy dasturlash maktablarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda ta'lim sifatini oshirish maqsadida virtual texnologiyalardan faol foydalanilayotgani xech kimga sir emas. Bu esa ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini ko'proq joriy etilishini talab qiladi. Talabalarining ta'lim jarayonida virtual texnologiyalari yordamida matn bilan ishlashni, tasviriy obyektlarni va ma'lumotlar bazasini yapatishni, elektron jadvallardan foydalanishni o'rganadi. Darslarda virtual texnologiyalarining qo'llanilishi o'qishga bo'lgan motivatsiyasini, talabalarining qiziquvchanligini, ta'lim samaradorligini oshiradi. Bugungi kunda ta'lim sifatini oshirish maqsadida jarayonida virtual texnologiyalardan faol foydalanilayotgani hech kimga sip emas. Bu esa ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya

texnologiyalari vositalarini ko'proq joriy etilishini talab qiladi. Talabalarining ta'lim jarayonida virtual texnologiyalari yordamida matn bilan ishlashni, tasviriy obyektlarni va ma'lumotlar bazasini yaratishni, elektron jadvallardan foydalanishni o'rganadi. Darslarda virtual texnologiyalarining qo'llanilishi o'qishga bo'lgan motivatsiyasini, talabalarining qiziquvchanligini, ta'lim samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, ta'kidlash lozimki, texnologiyalar shu qadar tez rivojlanib, bo'shliqni to'ldirib bormoqdaki, hatto eng ilg'or o'qituvchining ham bu jarayonga darhol kirishib ketishga ulgurmay qolmoqda. Agap til ta'limi haqida gapiradigan bo'lsak, unda 5 yil oldin darsliklarga CD-romlar asosiy ilova sifatida tikildi, hozirda esa butun darslik va uning barcha tarkibiy qismlari, jumladan, audio, video, o'qituvchi kitobi va boshqalar uning ichiga kiritilgan bo'lib, hap qanday kompyuter yoki planshetda onlayn foydalanish, hamda darsga ortiqcha narsa olib kirishning hojati qolmadi, darsda bor-yo'g'i gadjet yoki qurilmadan foydalanish mumkin bo'lib qoldi.

Barcha fanlarni o'rgatishda didaktik tamoyillar muhim o'rin tutganidek, muhandislik sohasiga tegishli fanlarni o'rgatishda ham didaktik prinsiplar dars mazmuni va darsni tashkil etishda muhim o'rin tutadi. Ta'lim berishning asosiy tamoyillaridan hisoblangan ko'rgazmalilik muhandislik sohasiga tegishli fanlarni o'qitishda ko'p joriy etilgan tamoyillardan biri hisoblanadi. Darslar ko'rgazmali qurollar yordamida o'tilsa, talabalarining o'zlashtirishlari osonlashadi. Kompyuter dasturlaridan foydalanib ko'rgazmali ma'lumotlarni tayyorlash, murakkab sxemalarni vizuallashtirish va eslab qolish imkoniyatini kengaytiradi. Bilimlarni ko'rgazmali va real hayotga yaqin tarzda taqdim etish mavzuni tushinarli bo'lishiga olib keladi. Maqsad o'tilayotgan dars xar talabaning ongiga yetib borsin va xotirasiga uzoq vaqt saqlansin².

Muhandisliksohasidagifanlarnio'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'quv jaryonida foydalanishdan maqsad, jarayonni jadallashtirish, katta o'lchamdagi axborot oqimidan unumli foydalanishni yo'lga qo'yish. Bunda, ta'lim jarayonining sifati va samaradorligi ortadi, talabalarining muhandislik sohasidagi fanlarni bilishi va

o'zlashtirishi faollashadi. Didaktika nuqtayi nazaridan muhim o'ringa ega bo'lgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etish orqali yuqori samaradorlikka erishiladi, ya'ni: teskari aloqa orqali o'quv faoliyati nazoratini olib borishga erishiladi talaba o'z-o'zini nazorat qila olish imkoniga ega bo'ladi; talabada takrorlash, mashq qilish va mustaqil ta'lim olish imkoniyati paydo bo'ladi; dars o'tish va o'qish vaqti tejiladi; murakkab sxema ko'rinishidagi axborotlar vizuallashtirish va jarayonlarni modellashtirish orqali ifodalash imkoniyati paydo bo'ladi; maxsus kompyuter dasturlari orqali laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish imkoniyati yuzaga keladi; ma'lumotlar bazasi shakllanib boradi³.

Oliy ta'lim muassasalarida muhandislik sohasifanibo'libhisoblangan"Texniktizimlarda axborot texnologiyalari" umumkasbiy fanini o'qitish jarayonida virtual ta'lim vositalardan foydalanish avtomatika va nazorat-o'lchov asboblari va vositalaridan foydalanish, ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatishni tashkil etish; - texnologik jarayonlarni avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlaridagi texnik vositalarga texnik xizmat ko'rsatish, namunaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va qo'llash; - texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish sohasida ishlatiladigan apparatlarni sinash, ularning ishlashiga tashxis kuyish va kamchiliklarini bartaraf etish; - texnologik jarayonlar va ishlab chikarishni avtomatlashtirish sohasida ishlatiladigan apparatlarning ishchi jarayonlari modellarini ishlab chikish va tahlil qilishda hisoblash vositalaridan foydalana bilish; - inson sog'ligini va uning ishchanlik qobiliyatini saqlash bo'yicha hamda hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlash bo'yicha metodika va tadbirlarni ishlab chikish hamda amalga oshirishga doir bilimlarga ega bo'lish va ko'nikmalar hosil qilishga imkon beradi⁴.

Virtual ta'lim vositalaridan ixtisoslashgan o'quv xonalarida o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi qulay imkoniyatlarni yaratadi: kompyuterli qo'llab-quvvatlashlardan foydalangan holda katta miqdordagi topshiriqlarni bajarishga, yechimlarni va ularning grafik talqinini tahlil qilish uchun zarur bo'lgan vaqtdan ozod bo'ladi; o'qituvchining rahbarlik va maslahatchi

sifatida qatnashib kompyuter oldida mustaqil ish shaklida mashg'ulot o'tkazish imkonini yaratadi; o'qituvchiga kompyuter yordamida ta'lim oluvchilar bilimni tez va samarali nazoratdan o'tkazishiga imkon beradi; o'qituvchiga nazariy va amaliy mashg'ulotlarda o'zining xohishi bo'yicha hajmi jihatidan kichik ammo tarkibi bo'yicha o'ta muhim bo'lgan materiallarni yetkazishiga, ta'lim oluvchilarning auditoriya mashg'ulotlari doirasidan tashqari o'rganish mumkin bo'lgan masalalarni yechishda mustaqil shug'ullanishlari uchun imkon yaratiladi; o'qituvchini uy topshiriqlari, turli hisoblashlarni va nazorat ishlarni tekshirish kabi mashaqqatli ishlardan ozod etadi; ta'lim oluvchilar bilan ayniqsa uy topshiriqlari va nazorat ishlari qismiga oid ishlashni individualashtirishga imkon beradi.

Texnika oliy ta'lim muassasalarida talabalarining "Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari" fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarini tatbiqetish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanma hamda ko'rsatmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, virtual stendlar, ishchi holatdagi elektr texnik materialarining namunalari va maketlaridan foydalaniladi. Ma'ruza va amaliy darslarda mos ravishdagi ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi⁵.

Zamonaviy o'quv jarayonida kompyuter texnikasidan foydalanishga ko'p e'tibor qaratilmoqda. Barcha oliy ta'lim muassasalarida kompyuter texnikasi mavjud bo'lib, dars jarayonida ulardan foydalanishga imkoniyat ortmoqda. Bunday texnika va texnologiyalardan foydalanish o'quv jarayoni sifatini oshiradi, talabalar qiziqishiga sababchi bo'ladi. Shuni unutmashlik kerakki, zamonaviy o'quv jarayonida kompyuter texnikasidan foydalanishga ko'p e'tibor qaratilmoqda. Barcha oliy ta'lim muassasalarida kompyuter texnikasi mavjud bo'lib, dars jarayonida ulardan foydalanishga imkoniyat ortmoqda. Bunday texnika va texnologiyalardan foydalanish o'quv jarayoni sifatini oshiradi, talabalar qiziqishiga sababchi bo'ladi. Shuni unutmashlik lozimki, darsda kompyuterdan foydalandi, degani talabaning bilimi ortdi degani emas, balki undan

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi. <https://uz.uz/oz/politics/o'zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-oliy-25-01-2020>.

2 P.Хамдамов, У.Бегимкулов, Н.Тайлоқов Таълимда ахборот технологиялари. –Т.:–2010, 120 б.

3 Xurramov, A.J., Boymurodov A.Kh., Jurayev, A.X., Educational technologies and their quality assessment, European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Vol. 8 No. 12, 2020 pp: 162-166.

4 Kadirov M.M. Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari 2-qism: darslik - Toshkent: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati», Toshkent 2019, 306 bet

5 Xalilova F.A. Improvement of Teaching Methods in Electrical Materials in Universities.-Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 2021, Pages. 14564-14570.

oqilona foydalanish zarur bo'ladi. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida foydalaniladigan juda ko'plab elektron qurilmalar tayyorlangan. Zamonaviy elektron qurilmalar dasturlashtirilgan. Mashg'ulotda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish texnik tizimlarga oid materiallarni o'rganishni osonlashtiradi. Bu talabalarni o'rganayotgan mavzusini o'zlashtirish darajasini oshiradi. Bundan tashqari, bu jarayon o'qituvchiga talabalarining o'zlashtirish darajasiga qarab, o'rganilayotgan mavzu yuzasidan qo'shimcha savollarni shakllantirishga yordam beradi⁶.

"Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari" fanini o'quv jarayoniga virtual didaktik vositalar yordamida ta'lim texnologiyalarni joriy etish metodikasini takomillashtirish uchun, dastlab elektron ta'limni joriy etishga oid bir nechta tadqiqotchilarning ilmiy-uslubiy adabiyotlarini tahlil qilib va ular ko'rsatib o'tgan pedagogik va psixologik muammolar o'rganildi. Olib borilgan izlanishlar natijasida quyidagi muammolar borligi aniqlandi: yaratiladigan dasturiy vositalarga pedagogik va psixologik jihatdan yondashilmayotganligi; oliy ta'lim muassasalarining professor o'qituvchilarida kompyuter savodxonligi yetarli darajada emasligi; professor o'qituvchilarda pedagogik dasturiy vositalarni qo'llashda tajribasi yetishmasligi; hozirgi zamon talabiga moslashtirilgan didaktik vositalari va elektron o'quv-metodik majmualarni yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi; masofaviy ta'limdan foydalanish uchun zamonaviy dasturiy vositalar va ularni qo'llashga oid ilmiy ishlanmalar yetishmasligi; yagona metodologik o'qitish talablar va tizim mavjud emasligi; kompyuterning pedagogik dasturiy vositalarini o'quv jarayoniga qo'llash metodikasi to'liqligicha ilmiy asoslanmagani.

Virtual ta'lim texnologiyalarini loyihalashtirishdan asosiy maqsad talabalarining bor e'tiborini o'quv jarayoniga qaratish, o'quv didaktik vositalarini va obyektlarini virtual ta'lim modellari bilan birga yaqqol namoyon qilish, shu asnosida eslab qolishni yanada yengillashtirish, faol tushunishni, o'quv jarayoniga oddiy kitob o'rniga insonlarni hissiy xotirasini kuchaytiruvchi kompyuter vositalarini ishlatishdan iborat⁷.

Bizning fikrimizcha, "Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari" fanidan zamon

talablariga mos virtual ta'lim texnologiyalarini yaratish quyidagi tartibda amalga oshirilishi lozim (1-rasm).



1-rasm. Virtual ta'lim texnologiyalarini yaratish algoritmi bosqichlari.

Virtual laboratoriyalar elektron – ta'lim muhitida real hayotiy obyektlar xatti-harakatini modellashtirib, o'quvchi va talabalarga asosan fizika, kimyo, biologiya, matematika, geometriya, informatika kabi ilmiy-tabiiy fanlar hamda texnika fanlaridan yangi bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishga imkon beradi. Virtual laboratoriya atamasi ostida texnika yo'nalishi oliy ta'lim muassasalarida umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish jarayonida laboratoriya mashg'ulotlarida laboratoriya qonun-qoidalarini bajarish uchun zarur bo'lgan kompyuter axborotlari jamlanmasi tushuniladi. Virtual laboratoriya bu platforma bo'lib, faqatgina belgilangan vaqtda mavzu yuzasidan amaliy ishdir, shuning bilan birga yangi bilimlarni egallash uchun ilmiy muhitdagi bizning belgilangan xatti-harakatlarimiz. Virtual laboratoriya "integratsiyalangan axborot ta'lim muhiti bo'lib, o'quv, o'quv-metodik, amaliy, ma'lumotnoma, nazorat-o'qitish va nazorat-test materiallarini o'z ichiga oladi".

Muammoga doir pedagogik adabiyotlarni o'rganish shuni ta'kidlash imkonini beradiki, virtual laboratoriya: o'qitishning samarali vositasi (instrumenti, asbobi) sifatida qo'llanadi,

ammo o'quv jarayonida o'qituvchining o'rnini bosmagani holda ta'lim oluvchiga bilim olish sur'atini va trayektoriyasini tanlash erkinligini ta'minlaydi; o'zida yaxshi darslik va kompyuter imkoniyatlarini birlashtirgan holda, bu katta hajmdagi axborotni saqlash imkoniyati, ko'rgazmalilik, matn, grafik, audio va videoaxborotlarning jamlanishi hisobiga ta'minlanadi; u yoki bu fan sohasidagi vazifalarning murakkab majmui bo'lib, ta'lim oluvchiga vazifa shartlarining yaratilishi va shakllanishi uchun virtual asbob-uskunalarni hamda uni yechish vositalarini taqdim etadi, o'qituvchiga esa ta'lim oluvchining harakatlarini nazorat qilishga imkon beradi. Virtual laboratoriyalarni yaratishning maqsadlaridan biri – o'rganish jarayonini har tomonlama, to'liq vizuallashtirish, asosiy vazifalardan biri – ta'lim oluvchini o'rganish jarayonining mazmun-mohiyati to'liq idrok etish va tushunishdir.

Quyidagilar virtual laboratoriyaning vazifalari bo'lib hisoblanadi: ko'rgazmali illustratsiya va o'rganiladigan qonunlarning to'g'riligini isbotlash; o'tkaziladigan tajribalarning mutlaqo xavfsizligini ta'minlash; tajribalarni yakka tartibda bajarish imkoniyati, bu esa ta'lim oluvchilar mustaqilligining, ularning konstruktorlik qobiliyati va texnik uddaburonligining rivojlanishiga ta'sir o'tkazmay qolmaydi; mashg'ulot paytida virtual laboratoriya ishlarini bajarish nazariy hamda amaliy mashg'ulotlar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etadi, bu o'qitish sifat va samaradorligi, ta'lim oluvchining mustaqil bilish faolligi ortishiga ko'maklashadi; virtual axborot-ta'lim laboratoriyasi tadqiqotchilik xarakteridagi eksperimentlarni o'tkazish uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi, ma'lum metodik jihatdan asoslangan vaziyatlarda ulardan real laboratoriya qurilmalariga qo'shimcha sifatida foydalanish mumkin (kompyuterdagi laboratoriya nostandart va muammoli vaziyatlarda ta'lim oluvchining subyektiv tajribasini ta'minlaydi); ta'lim muassasasi o'quv jarayoniga ochiq dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarni joriy qilish. Virtual laboratoriyalarning imkoniyatlari quyidagilardan iborat: qimmat laboratoriya

asboblari sotib olishga ehtiyojning yo'qligi; laboratoriya shart-sharoitlarida bajarilishi prinsipial mumkin bo'lmagan jarayonlarni modellashtirish imkoniyati; xavfsizlik; vaqt va resurslarning tejallishi; bajarilgan laboratoriya natijalarining avtomatik tarzda hisoblanishi; virtual laboratoriyalarni masofaviy ta'limda qo'llash imkoniyatining mavjudligi; virtual jarayonni boshqarish kompyuterning zimmasiga tushishini hisobga olib, kiritilayotgan parametrlarni o'zgartirib, tajribalar seriyasini o'tkazish imkoniyati mavjudligi; o'tkazilayotgan laboratoriya tajribasini vaqtning boshqa masshtablarida kuzatish mumkinligi. Bundan tashqari, virtual axborot-ta'lim laboratoriyasi sharoitida o'quv modellashtirish orqali bilimning yangi sohalarini o'rganishda o'quvchilarning atrof olamdagi hodisalarni bilishga oid mustaqil faolligi ortadi, hayotiy faoliyati davomida yuzaga keladigan muammolarning yechimi variantlarini mustaqil topish malakasi, olingan bilimlarni amaliyotda qo'llashga tayyorlik shakllanadi. Demak, o'quvchilarning mustaqilligini rivojlantirishga ko'maklashadigan virtual laboratoriyalardan foydalanish elektron ta'limiy kompyuter mahsulotini joriy qilishda muvaffaqiyatning uzviy qismi sanaladi.

Bulardan shuni xulosa qilish mumkinki murakkab texnik va texnologik, o'lchash-nazorat jarayonlarni laboratoriya mashg'ulotlarida o'rganishga imkon yaratuvchi vositalar foydalanish tajriba va uning natijalarini kuzatish imkonini beradi va hodisalarni ta'lim oluvchilar tomonidan yaxshi o'zlashtirishga zamin yaratilgan bo'ladi. Shuningdek, kompyuterlar uchun yaratilgan dasturlardan foydalanib hisoblashlarni olib borilishi natijalarni juda aniq chiqarilishida katta ahamiyatga ega. Demak, ilmiy asoslarga tayangan holda o'quvchilarning murakkab fizik jarayonlar bo'yicha tasavvurini axborot texnologiyalari vositasida, maxsus dastur asosida aniq nazariy va amaliy materiallarni yaratish va uni ta'lim jarayoniga joriy etish hozirgi zamonning dolzarb vazifasidir.

⁶ Fayzullaev J.I. A systematic approach to the development of mathematical competence among students of technical universities. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8 (3), 42-47

⁷ Алисов Е.А. Виртуальная образовательная среда в педагогической реальности современной высшей школы // Личностное и профессиональное развитие будущего специалиста. Тамбов, 2010

KREDIT-MODUL TIZIMIDAGI MUSTAQIL TA'LIMNI KLASTER USULIDA OLIB BORISH JARAYONI

Habiba Toshboboyevna To'rayeva - assistent, Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Bugungi kunda oliy ta'limning sifat jihatidan yangi ta'limga o'tishi o'quv faoliyatini tashkil etishning mutlaqo yangi shaklini va maqsadlarga erishishda ta'lim jarayoni ishtirokchilarining o'zaro ta'siri shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy shakllanishi va rivojlanishiga qaratilgan. Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarini kadrlar tayyorlash samaradorligining zarur sharti zamonaviy ta'lim texnologiyalari va usullaridan foydalanish hisoblanadi. Ushbu maqolada aytib o'tilganki, amaliy faoliyatga asoslangan pedagogik metodlardan biri bo'lgan klaster usuliga e'tibor qaratilgan.

Аннотация: Сегодня переход высшей школы к качественно новому образованию направлен на совершенно новую форму организации образовательной деятельности, а взаимодействие участников образовательного процесса в достижении целей направлено на личностное, социальное и профессиональное становление и развитие. Использование современных образовательных технологий и методов является необходимым условием эффективности подготовки кадров профессорско-преподавательского состава высших учебных заведений. В данной статье отмечается, что внимание уделяется кластерному методу, который является одним из педагогических методов, основанных на практической деятельности.

Abstract: Today, the transition of higher education to a qualitatively new education is aimed at a completely new form of organization of educational activities, and the interaction of participants in the educational process in achieving goals is aimed at personal, social and professional formation and development. The use of modern educational technologies and methods is a necessary condition for the effectiveness of training the teaching staff of higher educational institutions. This article notes that attention is paid to the cluster method, which is one of the pedagogical methods based on practical activities.

Kalit so'zlar: uglevod, disaxarid-maltoza, sut kislotasi, glukon kislotasi, dekstrin, glyukoza, kolloksilin, asetat tola, sellofan.

Ключевые слова: углеводы, дисахарид - мальтоза, молочная кислота, глюконовая кислота, декстрин, глюкоза, коллоксилин, ацетатное волокно, целлофан.

Keywords: carbohydrates, disaccharide - maltose, lactic acid, gluconic acid, dextrin, glucose, colloxylin, acetate fiber, cellophane.

Bu talabalarni tadqiqot faoliyatiga jalb qiluvchi variantli fikrlashni, har tomonlama aloqa va munosabatlar o'rnatish qobiliyatini rivojlantiruvchi klaster usuli fikrlashni va ma'lumotlarni tartibga solishni o'rgatadi va qiziqishni uyg'otadi.

Metodologiya. Klaster-bu diagramma shaklida o'rnatilgan asosiy sistematik birliklar ajratib ko'rsatilganda axborotni tashkil qilishning grafik shakli hisoblanadi. Ular orasidagi barcha aloqalarni grafik tarzda aks ettiradi, ushbu matnning axborot maydonini vizual shaklda belgilaydi.

O'qitishda klaster axborotni tushunish, aniqlash, saqlash va tizimlashtirish vositasi, shuningdek, ma'lum bir har qanday fanyo'nalishi bo'yicha bilimlarni rasmiylashtirish, ularning boshqa tuzilmalarga qo'llanish sohalari va boshqalar bilan aloqasi o'quv jarayonida aks etadi. Universitet klaster usuli talabalarni og'zaki va yozma nutqini o'zgartirishga o'rgatadi. Eng muhimlarini tizimlashtirish va

ajratib ko'rsatish orqali ularning professional tafakkurini shakllantiradigan ixcham grafik shakldagi ma'lumotlar yig'masi shakllanadi. Klasterlash jarayoni, aslida har xil turdagi ma'lumotlar mavjud bo'lganda, aqliy tarkibni qisqartirish va ular vizual ramziy tasvirga birlashtirilgan bo'lib, ular bir marta idrok etilgandan so'ng, keyinchalik joylashtirilishi va aqliy amaliy harakatlar uchun tayanch bo'lib xizmat qilishi mumkin¹.

Vizual ma'lumotlarning har qanday shakli, shu jumladan klaster diagrammasi, muammoning elementlarini o'z ichiga oladi. Bu holatda muammoli vaziyat o'quv materialining mazmunini izohlash, matnni taqdim etishdir. Sxema-belgili modellar yordamida shifda tashkilotchilik klaster bilan ishlash shakllari muammoli vaziyatni yaratishga yordam beradi, uni hal qilish ya'ni sintez, umumlashtirish, tahlil qilish, qisqartirish asosida amalga oshiriladi yoki axborotni joylashtirish, ya'ni talabaning faol aqliy faoliyatini yuritish orqali olib boradi.

Shunday qilib, klaster usuli faol ta'lim, ya'ni A.A.Verbitskiy talqinida - kontekstli ta'lim usuli usullaridan biri bo'lib, bunda tarkibni loyihalash va joylashtirishning asosiy birligi hisoblanadi².

Klaster tuzish bo'yicha ish jarayonida talabalar quyidagi ko'nikmalarni shakllantiradilar va rivojlantiradilar. Savollar berish va ularga javob berish, ta'kidlash qobiliyati va asosiysi sabab-oqibat munosabatlarini o'rnatish orqali xulosalar chiqariladi.

Tanlangan ko'nikmalar to'plami ta'lim, o'quv, ilmiy va kasbiy faoliyatda tadqiqot muammolarini hal qilish uchun zarur bo'lgan tadqiqot vakolatlarini shakllantirishning texnologik tarkibiy qismi hisoblanadi. Klaster usuli "tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi" usullaridan biri bo'lib, uning asosiy maqsadi aqliy qobiliyatlarni kengaytirishdir. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish yordamida o'quvchilarning quyidagi fazilatlarini shakllantirish mumkin: qat'iyatlilik (maqsadga erishish kerak), moslashuvchanlik (boshqalarning g'oyalarni qabul qilish), murosali yechimlarni izlash, rejalashtirishga tayyorlik (kim aniq o'ylaydi, u aniq aytadi), talabalar kerak xatolarini tuzatishga tayyor bo'lish va qabul qilishni o'rganishga tayyorlaydi.

Bu bosqichlarning amalga oshirish aqliy faoliyatini faollashtirish uchun bir yo'l bo'lib xizmat qiladi. Mavzuni o'rganish yoki uni o'tish natijalariga ko'ra materialni tizimlashtirish shakli talabalarga klaster qiziqishni uyg'otish, to'plangan ma'lumotlarni tuzatish uchun xizmat qiladi. Tushunish bosqichi imkon beradi. Yangi ma'lumotlar bilan tanishish, o'rganilayotgan obyektning tabiati haqida o'ylash ularni mustaqil izlanishga yo'l ochib beradi.

Reflektor component fikrlashni tashkil etish omili sifatida ishlaydi: talabalar olingan narsalarni mustahkamlaydilar bilish va o'zlarining asosiy g'oyalarni faol ravishda qayta qurish yangi tushunchalarni kiritishni fikrlash bosqichida klaster usuli vazifani bajaradi. Olingan bilimlarni tizimlashtirish, ma'lumotlarni tushunish va mustahkamlash imkonini beradi. Natijada, har bir bosqich tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga faol hissa qo'shadi. Ushbu usuldan foydalanganda ish shakli har qanday bo'lishi mumkin: masalan, uglevod mavzusi olib boorish jarayonida har bir talaba o'z klasterini yaratadi; qo'shma muhokamadan so'ng mavzular, yangi bilimlarni olish jarayonida, alohida klasterlar asosida umumiy grafik sxemasini tuzish mumkin. Talabalar tomonidan yaratilgan klaster sxemalarini

baholash mezonlari bo'lishi mumkin³.

Klaster usuli matnlarni idrok etish va tushunishning samarali usuli bo'lib, bu ayniqsa, talabalar tomonidan o'quv fanlarini ongli ravishda o'rganish, ularning shaxsiy fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish uchun muhimdir. An'anaviy ta'lim tizimiga ega bo'lgan sinfdagi zamonaviy talaba ko'pincha zerikadi va qiziqmaydi, o'rganish uchun motivatsiya yo'q. Shu munosabat bilan ushbu usuldan foydalanish rivojlanish yo'li bo'lishi mumkin.

Tadqiqot va topilmalar. Bundan tashqari klaster usulini talabalariga modul-kredit tizimida olib borishni ko'rishimiz mumkin. Organik kimyo fanining o'quv rejasida 2-smestrda 180 soat va 3-smestrda 180 soat jami 360 soat berilgan. Shunda auditoriya soati 180 soat va mustaqil talim 180 soat taqsimlangan. Mustaqil talim mavzularini laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar mavzusiga mos holda tuzilishi lozim. Shunda dars davomida talabalarga mustaqil ta'lim ham berilib baholab boriladi⁴. Talabalarimiz mustaqil holda izlanib erkin fikrlashga olib keladi. Pedagogika yo'nalishining ikkinchi kurs talabalarini bilan organik kimyo darsida "Uglevodlar" mavzusida Klaster metodini qo'llash orqali dars jarayonini olib boramiz⁵.



Kimyoviy xossalari Uglevodlar tabiatda keng tarqalgan organik moddalar bo'lib, o'simliklarning 80% ni, odam va hayvon organizmining 2% ni tashkil etadi.

Suvda erigan molekulasini bitta saxarid molekulasini hosil qiluvchi uglevodlar-monosaxaridlar deyiladi. Monosaxaridlar olishning asosiy usuli, disaxaridlar va polisaxaridlar gidrolizi hisoblanadi⁶.

1. Kraxmalning gidrolizlanish jarayonini quyidagicha ifodalash mumkin.

2 Avliyoyulov N. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. Toshkent, 2001.

3 Usmonov B.Sh., Habibullayev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. Toshkent-2020, b-20

4 Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. М.: Педагогика, 1989.


5 To'rayeva Habiba Toshboboyevna. Oliy o'quv yurtlarida kredit modul tizimining klaster usulidan foydalanish. Tafakkur ziyosi ilmiy uslubiy jurnal. 2/2022.

6 M.M.Abdulhaeva, O'.M. Mardonov. Kimyo, 2002.




Disaxarid - maltoza gidrolizlanganda ikki molekula glukoza hosil bo'ladi.

3. Glyukoza birinchi marta A.M. Butlerov tomonidan formaldegid molekularining kalsiy gidroksidi ishtirokida o'zaro ketma-ket birikishi natijasida suniy usulda sintez qilingan:



4. Glyukoza aldegidlar singari vodorod biriktirib, 6 atomli spirt-sorbitga aylanadi.



5. Ag₂O ning ammiakli eritmasi ta'sirida oksidlanib glyukon kislotaga aylanadi:




6. Glyukoza to'rt xil biyog'idi⁷.

1) Spirtli biyog'ish jarayoni davomida glyukoza etil spirt bilan karbonat anhidridga aylanadi.



2) Sut kislotali biyog'ish-glyukozani sut achituvchi bakteriya fermenti vositasida biyog'ish yo'li bilan sodir bo'ladi.



3) Moy kislotali biyog'ish glyukozadan moy kislotaga hosil bo'ladi.



4). Limon kislotali biyog'ish:



Laboratoriya ishi

Glyukoza tarkibidagi gidroksil guruhlarini aniqlash

1-tajriba. Probirkaga bir tomchi 0,5 % li glyukoza, 6 tomchi 2 n NaOH va 0,2 n mis kuporosi eritmalaridan quyib chayqatamiz. Bunda, avval, Cu(OH)₂ cho'kmasi hosil bo'ladi, so'ngra u tezda erib mis saxaratning kuchsiz havo rangli tiniq eritmasiga aylanadi.



Mis(II)-gidroksid cho'kmasining aralashmada mis saxarat hosil bo'lish hisobiga erishi glyukoza tarkibida gidroksil guruhlarining borligini bildiradi. Bu tajribani mis glirserati va vino kislotasining mis alkogolyati bilan solishtiring. Mis saxarati hosil bo'lish reaksiyasini yozing⁸.

2-tajriba. Probirkadagi 1 ml 10 % li kalsiy xlorid eritmasi ustiga 3 ml natriy ishqoridan bir necha tomchi quyung. Kalsiy gidroksid cho'kmasi hosil bo'ladi. Bu probirkaga 0,5% glyukoza eritmasidan oz-ozdan quyilsa,

cho'kma eriydi. Bunda kalsiy saxarat hosil bo'ladi. Reaksiya tenglamalarini yozing.

3-tajriba. Kumush oksidning ammiakdagi eritmasining glyukoza va fruktozaga ta'siri.


Dastlab, qaynoq ishqor eritmasi bilan, so'ngra suv bilan yaxshilab yuvilgan probirkaga kumush oksidning 0,2 n. eritmasidan 1 ml va o'yuvchi natriyning 2 n. eritmasidan 2 ml soling. Hosil bo'lgan kumush gidroksid cho'kmasi erib ketguncha ammiakning 2 n. eritmasidan tomchilatib qo'shing. Probirkadagi aralashmada glyukozaning 70-80oCgacha isitilgan suv hammomiga bir necha daqiqa botirib qo'ying. Agar probirka toza bo'lsa reaksiyada ajralgan kumush uning devorlarida yaltiraq ko'zgu qavatini hosil qiladi. Aks holda qora cho'kma hosil bo'ladi⁹:




4-tajriba. Glyukozaning mis(II)-gidroksid ta'sirida oksidlanishi. Glyukoza ishqoriy muhitda mis(II)-gidroksid ta'sirida ham glyukon kislotagacha oksidlanadi.

Probirkaga glyukozaning 3%li eritmasidan 2 ml quyib, ustiga uyuvchi natriyning 10%li eritmasidan 1 ml qo'shing..

So'ngra probirkadagi aralashmani chayqatib turgan holda unga mis sulfatning 5%li eritmasidan mis(II)-gidroksidning ko'k rangli cho'kmasi hosil bo'lgunicha tomchilatib qo'shing. Probirkani qiya holda ushlab turing va aralashmaning yuqori qismini ochiq alangada ehtiyotlik bilan qizdiring¹⁰. Bunda, avval sariq rangli mis (I)-gidroksid hosil bo'ladi. Qizdirish davom ettirilsa, u qizil rangli mis (I)-oksidga aylanadi:



ko'k cho'kma




Amaliy ish¹¹


1. 40% li 50 l (ρ=0,95) etanol eritmasini olish uchun tarkibida massa jihatdan 20%

krxmal bo'lgan kartoshkadan qancha kerak bo'ladi? Etanolning unumi 80% ga teng.

Yechish: m_{etanol} = 50·0,95·0,4 = 19 kg. Agar reaksiya unumi 100% bo'lganda m_{Etanol} = 19/0,8 = 23,75 kg ru etanol hosil bo'lar edi. Etanol olish uchun zarur bo'lgan reaksiyalar tenglamalarini yozamiz:




Ikkinchi reaksiyadan 23,75 kg etanol olish uchun necha gramm glyukoza kerakligini topamiz:



Kartoshkaning massasini topamiz:

$$m = \frac{42,34 \cdot 100}{20} = 211,68kg$$


2. Maltoza gidrolizlanganda hosil bo'lgan glyukozaning massasi dastlabki disaxaridning massasidan 27 g ga ko'p. Glyukoza 100% unum bilan biyog'iganida hosil bo'lgan sut kislotaga natriy metali ta'sir ettirilganda qancha hajm vodorod ajralib chiqadi¹² ?



Masala sharti bo'yicha

$$n_{x,p} = \frac{27}{18}$$

1,5 mol. Reaksiya tenglamasidan 1,5 mol suv sarflanganda 3 mol glyukoza hosil bo'ladi. 3 mol glukozadan esa 6 mol sut kislotaga hosil bo'ladi.



Reaksiya tenglamasi bo'yicha 6 mol sut kislotadan 6 mol (134,4 l) vodorod hosil bo'ladi. J: 134,4 l.

Mustaqil ta'limni mustahkamlash uchun savollar¹³.

1. Monosaxaridlarning asosiy xossalari aytib bering.

2. Aldopentozalar, aldogeksozalar, aldogeptozalar va ketogeksozalarning tuzilish formulalarini yozing.

3. Aldopentozalar uchun "kumush ko'zgu" reaksiyasi tenglamasini yozing.

4. Monosaxaridlardagi yarimatsetal (glikozid) gidroksilining oddiy spirt gidroksilidan farqi qanday reaksiyalarda

namoyon bo'ladi?

5. Maltoza va saxaroza gidrolizlanganda qanday monosaxaridlar hosil bo'ladi?

Test. 1. Massasi 3 kg bo'lgan 12% li glyukoza eritmasining spirtli biyog'ishi natijasida 33,6 litr uglerod (IV)-oksid hosil boldi. Etanolning hosil bo'lish unumini aniqlang¹⁴.

A) 72 B) 71 C) 37,5 D) 35,5

2. Qaysi modda yordamida glyukozaning 5 atomli spirt ekanligini isbotlash mumkin

A) mis (II)-gidroksid B) CH₃COOH C) kumush oksid D) Na-gidrosulfid

3. Fruktoza qaysi saxaridlar guruhiga kiradi? 1) polisaxarid 2) monosaxarid 3) disaxarid 4) oligosaxarid A) 2 va 4 B) 3 va 4 C) 1 va 4 D) 1 va 2 4.

Qaysi uglevod gidrolizlanmaydi?

A) maltoza B) saxaroza C) glyukoza D) selluloza

Hozirgi vaqtda talabalarni mustaqil ravishda ishlash uchun kimyo fanidan 6 kredit ajratilgan bo'lsa, shundan 3 krediti mustaqil ishlashga ajratilgan. Bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo'yicha yangi o'zaro klasterni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Klaster usulini hozirgi zamonaviy kredit-modul usuliga ham qo'llashimiz mumkin. Bular qatoriga nafaqat innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida o'qitish, balki o'quvchilarning mustaqil bilim olishi, ta'limga yangicha yondashish, mehnat bozori ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda zarur va chuqur nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni egallash ham kiradi¹⁵.

K	Kimyoviy xossalari
L	Laboratoriya ishi
A	Amaliy ish
S	Savollar
T	Test
E	Yechish uchun masalalar
R	Radikal holatda ishlash

Dars jarayoni tugallangan vaqtda talabalar uchun uyga 1-jadvalni to'ldirib kelish beriladi. Bunda talabalar ko'proq mustaqil holda ishlashni o'rganadilar.

Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, ushbu maqolada aytib o'tilganki, amaliy faoliyatga asoslangan pedagogik metodning klaster usuliga e'tibor qaratilgan. Klaster tizim usuli faol usullardan biri bo'lib, talabalar kasbiy rivojlanishi va kamolotiga qaratilgan. U ilm-fan sohibining umrbod bilim olishini ta'minlash, shuningdek, mehnat bozori va zamonaviylik talablariga javob bera oladigan kadrlar tayyorlashga qaratilgan.

7 R.Shoymardanov, A.Abdusamotov Organik kimyodan praktikum. Toshkent, 1982-y.

8 M.M.Abdulhaeva, O'.M. Mardonov. Kimyo, 2002.

9 R.Shoymardanov, A.Abdusamotov Organik kimyodan praktikum. Toshkent, 1982-y.

10 A.Abdusamotov, R.Ziyaev, B.Akbarov Organik kimyodan mashq, masala va testlar. Toshkent-2003

11 Mamatqulova R. Interfaol usul: bahs-munozara. Xalq ta'limi. 2004. 1-son.

12 A.Abdusamotov, R. Ziyaev, B. Akbarov Organik kimyodan mashq, masala va testlar. Toshkent-2003

13 Mamatqulova R. Interfaol usul: bahs-munozara. Xalq ta'limi. 2004. 1-son.

14 Shirinova D. International scientific-online conference: intellectual education technological solutions and innovative digital tools. 2022. 5-son.

15 Husanboyeva Q. O'qitishning zamonaviy metodlari va adabiy ta'lim. Til va adabiyot ta'limi. 2003. 2-son.

PROBLEMS IN CLASSIFICATION OF STARS

Jakhongir Abdulmalikovich Khotamov - teacher, Jizakh State pedagogical university

Abstract: This paper discusses in detail the problems of sorting star classifiers on the basis of theoretical calculations, the problems of theoretical models in modeling astrophysical processes in planet formation, and the role of observational results in solving these problems.

Annotatsiya: Ushbu maqolada yulduzlar klassifikatsiyalarini nazariy hisob-kitoblar asosida tartibga solish muammolari, sayyora shakllanishidagi astrofizik jarayonlarni modellashtirishda nazariy modellar muammolari va ushbu muammolarni hal qilishda kuzatuv natijalarining roli batafsil muhokama qilingan.

Аннотация: В данной статье подробно рассмотрены проблемы организации звездных классификаций на основе теоретических расчетов, проблемы теоретических моделей моделирования астрофизических процессов формирования планет и роль результатов наблюдений в решении этих задач.

Keywords: astrophysics, classifier, model, theory, observation, space, disk, viscous, photoelectric, star, planet, accretion, optical.

Kalit so'zlar: astrofizika, klassifikator, model, nazariya, kuzatish, kosmik, disk, viskoz, fotoelektrik, yulduz, sayyora, akkreditatsiya, optik.

Ключевые слова: астрофизика, классификатор, модель, теория, наблюдение, космос, диск, вязкость, фотоэлектричество, звезда, планета, аккреция, оптика

Introduction. Typically, transition discs perform a weak hydrodynamic condition during the accumulation of gases and dusts in the range of planetary formation in space. This is a concept consistent with theoretical models. However, the results of several practical studies show that there are a number of shortcomings in the theoretical models.

None of the current theoretical models took into account the hydrodynamic conditions in which the planet formed. In particular, the photoelectric model, which is the most perfect of the theoretical models, also calculates the value of the mass accretion rate, and the performance of this model is much smaller. The difference between the theoretical models and the observation results is explained by the fact that the viscous time measurements are less¹.

Comparison of theory with observation is a fundamental basis in the formation of the scientific worldview and the explanation of astrophysical processes.

Explaining the properties of circular star disks, which allow significant accumulation of dust in the interior, can have a major impact on the process of planet formation. (James Murazell et al.)

The length of this process causes the

formation of the planet to accelerate or slow down. That is

$$t_{acc} = GM_* M \left(\frac{1}{R_*} - \frac{1}{R_{in}} \right) \sim 0.2 \left(\frac{M_*}{M_{\odot}} \right) \left(\frac{R_{in}}{1 \text{ AU}} \right)^{-1} \left(\frac{M}{10^{-3} M_{\odot}} \right) \text{ yr}$$

explanation on a hydrodynamic basis

$$T_{disk} = \frac{3GM_* M}{4\pi \sigma T_{eff}^4} \left(1 - \sqrt{\frac{R_{in}}{R_*}} \right)$$

The change in the velocity of the gases and dusts in the disk in space is equivalent to the disintegration of the planet. This shows that the process of planet formation in the previous process is important. In other words, the increase in the density of those with the highest accretion rate during the formation of which planet also plays the most important role in the formation of a planet in transition.

In explaining the gap period, it is necessary to calculate the trend. Statistics show that tracking other locations between 3-10 Myr will improve results².

Analysis: Two of the following seven youngest star clusters have a classic transition disk section (f hole) that is much lower than the other five locations. Some of this trend may be a general decrease in total disk function (f disk) over time. Because we count each disk in relation to the disk, not to the total star population.





Figure 1. Clusters of young stars.

In many sources, the transition phases were determined on the basis of spectral positioning, but were rejected based on other criteria. Nevertheless, they still show important evolutionary signs of the stage. Finding sources of active and weak excess transitions is based on exact spherical positioning. If the active excess sources show a constant excess emission at a wavelength of $D = 3-8 \mu\text{m}$, it will be much lower than the normal emission. Optical amplification is required. Weak redundant transition sources have two characteristics. Firstly, if they are not, their accumulation activity is significantly reduced, and secondly, these sources are associated with lower mass stars³.



³ Alexander R.D., Clarke C.J., & Pringle J.E. 2006, MNRAS, 369, 229.

⁴ C.F.Manara, C.Mordasini, L.Testi, J.P.Williams, A.Miotello, G.Lodato and A.Emsen-huber 2019 Constraining disk evolution prescriptions of planet population synthesis models with observed disk masses and accretion rates Astrophys.

⁵ Jaxongir A Khotamov, Mashxura A Ulasheva, Nozima X Jumanazarova, & Jasur A Juraboyev. (2020). Describe The Inconsistency Of Observational Results With Theoretical Models In Explaining The Evolution Of Planetary Disks. The American Journal of Interdisciplinary Innovations Research, 2(12), 110–115.

⁶ Lada C.J, Wilking B.A. 1984. The nature of the embedded population in the Rho Ophiuchi dark cloud—mid-infrared observations. Astrophys.

Figure 2. SEDs of two inner disk hole candidates identified from the spectral slope locus shown in Figure 1 (top two panels), plus one object satisfying only the short wavelength criterion (bottom panel). Diamonds are observed fluxes dereddened using the known A_V of each star and the Mathis (1990) and Flaherty et al. (2007) reddening law. Optical and IR photometry and stellar properties are reported in Flaherty & Muzerolle (2008). Solid blue lines are empirical photospheres constructed from the main sequence star colors from Kenyon.

Hartmann (1995), normalized to the observed J-band flux⁴.




Figure 4. Distribution of spectral types for the classical transition objects identified in this paper.

The distribution of spectral species is shown in Figure 4. Based on the data in the figure, the number of transition phases increases from G1 to ~ M5 and then decreases sharply⁵.

We know that the period of operation of the protoplanetary disk until 1990 was studied by the excessive emission of infrared rays depending on its age. Of course this indicates a normal runtime of the disk up to (~ 3) Myr. As a result of the development of theoretical models, it was calculated that the transition period would show its number. They do not have an emission of more than 10mm in wavelength, dust emission increases when the wavelength is high, and indicates no dust during the transition period⁶.

Observations and samples: Clusters of young stars found on the basis of theoretical models based on the results of observations are being updated. Data obtained with the help of Spitzer's infrared camera suggest that clusters of young stars formed according to theoretical models should be ignited. The

Spitzer Formation sequentially sequences star-forming discs and clusters of young stars of spectral energy distributions ranging from 3.2 to 24 μm .

Table 1

ID	t (Myr)	d (pc)	Transition Fraction	Disk
NGC 1333 ^a	<1 ^b	320	1/66 (1.5 ^{+2.6} _{-1.2} %)	
L 1988 ^c	<1 ^d	140	1/74 (1.4 ^{+3.2} _{-1.1} %)	
NGC 2068/2071 ^e	1-3 ^f	400	3/152 (2.0 ^{+1.9} _{-1.1} %)	
IC 348 ^{g,h}	2-3 ⁱ	315	12/99 (12 ^{+4.2} _{-3.4} %)	
OB1b ^j	4-6 ^k	400	1/14 (7.1 ⁺¹³ _{-5.7} %)	
η Cha ^{l,m}	5-9 ⁿ	100	1/6 (17 ⁺²⁸ ₋₁₅ %)	
OB1a/25Or ^o	7-10 ^p	330	1/6 (17 ⁺²⁸ ₋₁₅ %)	

Conclusion: The gaps in the transition phase act as a filter of the disk and this process plays an important role in the formation of the planet. Hence, a significant increase in infrared light emission at high wavelengths proves that the cavity acts as a filter.

Quantities such as hydrodynamics and infrared light emission should be taken into account when developing theoretical models. Planet formation processes are not observed in the same periods. It depends on the dynamic power of the young star.

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA TA'LIMYIY VA BAHOLASHGA ASOSLANGAN PLATFORMALAR

Murodjon Aliyev - doktorant, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'limning raqamlashuviga doir ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Xususan, ta'limni raqamlashtirish jarayonida ta'limiy va baholashga asoslangan platformalar ularning funksional xususiyatlari, amaliyotda qo'llanilishi haqida tahliliy ma'lumotlar berilgan.

Аннотация: В данной статье представлена информация о цифровизации образования. В частности, в процессе цифровизации образования образовательными и оценочным платформам предоставляется аналитическая информация об их функциональных характеристиках и практическом использовании.

Abstract: This article provides information about digitization of education. In particular, as part of the educational digitization process, teaching and assessment platforms receive analytical information on their functional characteristics and practical uses.

Kalit so'zlar: raqamlashtirish, onlayn ta'lim, web texnologiyalar, ta'limga yo'naltirilgan va baholashga asoslangan platformalar.

Ключевые слова: оцифровка, онлайн-обучение, веб-технологии, платформы, ориентированные на обучение и оценку.

Keywords: digitization, e-learning, web technologies, learning-focused and assessment-based platforms.

To'rtinchi sanoat inqilobi davriga kelib barcha sohalar kabi ta'lim ham transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda. Ta'limning yangidan-yangi turlari paydo bo'ldi. Albatta, bu obyektiv zarurat tufayli sodir bo'lmoqda. Ayniqsa, pandemiya (Covid-19) onlayn ta'limning ahamiyati va dolzarbligini yanada oshirdi. Endilikda, ta'limning onlayn, gibrid, aralash turlarini bevosita internet, yangi web texnologiyalar orqali olib borishni taqozo etmoqda.

Bugunga kelib ta'limni web texnologiyalar yordamida tashkil etish, birinchidan, ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish imkoniyatini yuzaga keltiradi, ikkinchidan, inson omilini kamaytirib baholash (assessment)ni raqamli texnologiyalar orqali amalga oshiriladi, uchinchidan, o'zaro integratsiyalashgan texnologiyalar ayni bir vaqtda ko'plab foydalanuvchilarni qamrab oladi, to'rtinchidan, ta'limning sifatligini yaxshilab, ta'lim oluvchilarning akademik harakatchanligini

rivojlantiradi.

Ma'lumot o'rnida aytish mumkinki, AQShning Garvard universiteti hamda Massachutes texnologiya instituti hamkorligida internet orqali interfaol ta'lim olish imkoniyatini beruvchi onlayn ochiq kurslar yaratilgan. Germaniyada esa inson intellektini aniqlash orqali mos kurslarni taqdim etuvchi o'qitishga moslashuvchi tizimlar yaratilgan¹.

Web texnologiyalarning ta'limdagi o'zni ko'p qirrali bo'lib, uni quyidagicha tasniflash mumkin:

- web texnologiyalar axborot, jumladan o'quvchiga zarur bo'lgan o'quv materiallarini yetkazib beradi;

- axborot-kommunikatsion texnologiyalarini qo'llash kompetensiyalarini shakllantiradi va rivojlantiradi;

- shaxsning o'zini-o'zi rivojlantirish imkonini yuzaga keltiradi;

- ta'lim muhitining ochiqligini, adaptivligini ta'minlaydi;

Web texnologiyalar ta'lim jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatib, o'quvchi-talaba shaxsiga yo'naltirilgan ta'limni tanlash imkonini beradi².

Bugunga kelib jahon standartida ta'limga yo'naltirilgan web texnologiyalar o'zining auditoriyasiga ta'limga moslashgan hamda baholashga (assessment)ga yo'naltirilgan holda taqdim etilmoqda.

Ta'limiy va baholashga asoslangan platformalar haqida so'z borganda, ta'limga yo'naltirilgan hamda baholash (assessment) ga asoslangan platformalarga ajratib olish maqsadga muvofiqdir. Chunki ikki tushuncha bir-biridan ayrim farqlari bilan xarakterlanadi. Ta'limga yo'naltirilgan platformalar - asosiy kontenti fan moduli resurslari bilan boyitilgan, onlayn orqali amalga oshiriladigan platformalardir. Bunday turdagi platformalarda resurslar media, fayllar shakllarida bo'ladi. Shuningdek, topshiriqlarni bajarish funksionali ham mavjud bo'ladi. Bunday platformalar - masofaviy ta'limni olib borishni qo'llab-quvvatlaydigan dasturiy ta'minot bo'lib, ushbu turdagi dasturiy ta'minot uchta asosiy foydalanuvchi - o'qituvchi, talaba, ma'mur (admin) bo'lib hisoblandi. Ta'lim mazmuni bo'yicha masofaviy maslahat, mustaqil o'rganishni va onlayn tyutorlik vazifalarini bajaradi³.

Binobarin, ta'lim uchun ushbu moslashuvchan web platformalarda talabalar kurs resurslari bilan tanishadi, topshiriqlarni bajaradi va yangi ko'nikmalarni rivojlantirishlari va o'zlarining o'quv trayektoriyalarini tuzishlari

mumkin⁴.

Hozirgi kunda elektron ta'lim muhitida web texnologiyalar bo'yicha darslarni tashkil etish yoki onlayn kurslar jahon miqyosida keng amalga oshirilmogda hamda ta'limiy yo'nalishda tashkil etilgan, turfa xil fan modullari bo'yicha ta'lim beruvchi saytlar salmog'i ham ortib bormogda. Misol uchun, Udemy, Coursera, edX, MasterClass, Udacity, Skillsoft, Pluralsight Skills, Skillshare, FutureLearn, Khan Academy, Treehouse kabi platformalar ommaviy ochiq onlayn kurslar (MOOC) internet orqali juda ko'p sonli odamlar uchun ochiq bo'lgan bepul o'quv kurslarini o'z ichiga qamrab olgan. Foydalanuvchi istalgan vaqt rejimida platformadan ro'yxatdan o'tib, kurslarni o'rganishi va kursni tamomlaganlik sertifikatini qo'lga kiritishi mumkin. Mamlakatimizda ham bu borada yoshlarning xalqaro IT kurslarda o'qish va xalqaro IT-sertifikatlarga bo'lgan ehtiyojini o'rganish hamda xalqaro IT-sertifikatlar olish uchun sarf qilgan xarajatlarini qoplab berish uchun tizim yo'lga qo'yilgan⁵. HUAWEI, Coursera, Skillbox, Geekbrains, Cisco kabi xalqaro platformalarida kurslarni muvaffaqiyatli yakunlagan yoshlar uchun sarflangan mablag'ning 50 foizigacha kompensatsiya pulini qo'lga kiritishi mumkin. Quyida ba'zi ta'limga yo'naltirilgan platformalar xususida to'xtalib o'tamiz:

Coursera - bu taniqli universitetlarning ommaviy ochiq onlayn kurslarini taklif qiluvchi bepul o'quv sayti bo'lib, uning kurslari oldindan yozib olingan video ma'ruzalarni o'z ichiga oladi va ularni foydalanuvchiga qulay tarzda namoyish etadi. Coursera universitetlar bilan birgalikda magistr darajasi yoki bakalavr mutaxassislikni olish imkonini beruvchi dasturlarga ham ega. Foydalanuvchi turli xil kollej kurslarini hech qanday qiyinchiliksiz o'rganishi mumkin. Ushbu sayt akkreditatsiyalangan muassasalardan bepul dasturlarni taklif qiladi. Bunday platformalarda mavjud kurslar yetakchi universitet tomonidan ishlab chiqiladi. Coursera dunyoning 150 dan ortiq nufuzli institutlari va kollejlari bilan hamkorlik qiladi. Smartfonlar uchun ham Coursera mobil ilovasi mavjud. O'zingiz yoqtirgan kursga yozilgach, istalgan vaqtda va istalgan joydan o'quv materiallari va boshqa manbalardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lasiz (batafsil ma'lumot uchun: www.coursera.com).

Edx - eng yaxshi bepul onlayn kurslar provayderlaridan biridir. U turli fanlar bo'yicha universitet darajasidagi kurslarni taklif qiladi.

1 M.R.Fayziyeva "O'quv jarayoniga moslashuvchi web tizimlarni yaratish" pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent-2017, B-3

2 M.B.Niyozov "Akademik litsey o'quvchilarini web texnologiyalar asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish" pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Jizzax-2021, B-11

3 OVAREP (Observatoire des ressources multimédias), 2000 Étude comparative technique et pédagogique des plateformes pour la formation ouverte et à distance

4 Pfahl, D., Angkasaputra, N., Differding, C.M., Ruhe, G. (2001). CORONET-Train: A Methodology for Web-Based Collaborative Learning in Software Organisations, LSO 2001, Springer-Verlag Berlin Heidelberg 2001, LNCS 2176, 37-51.

5 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 19.05.2021-yildagi 310-sonli "Xalqaro it-sertifikatlarga ega yosh mutaxassislarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" qarori

Kompyuter fanlari, tillar, muhandislik va boshqalar kabi turli fanlarni o'rganish mumkin. Ushbu saytda haftalik mavzular ketma-ketligi mavjud. U o'quv mashqlari bilan qisqa videoni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, TOEFL yoki IELTS kabi imtihonlarga tayyorlaydigan til kurslari ham mavjud (batafsil ma'lumot uchun: www.edx.com).

Skillshare — ta'limga yo'naltirilgan onlayn platforma bo'lib, grafik dizayn, ma'lumotlar tahlili, e-tijorat va boshqa fanlar bilan bog'liq ko'plab mavzularni o'z ichiga oladi. Skillshare'dagi darslar haqiqiy ijodkorlar tomonidan yaratilgan. Istalgan qurilmadan o'rganish uchun kurslarga qo'shilish mumkin. Barcha ta'limiy sohaga asoslangan platformalarda umumiy bir xususiyat mavjud, ya'ni platformaning kontenti fayl, media, audio va boshqa turdagi resurslar bilan boyitilgan hamda foydalanuvchi ma'lum bir muddatdan so'ng biror sohaga oid bilimlarni egallaydi.

Ta'limga asoslangan web platformalarning o'ziga xos jihatlari quyidagilardan iborat:

- istalgan fanga oid videoma'ruzalarni ko'rish, yuklab olish mumkin;
- ayrim platformalarda kurslar bepul taqdim etiladi, aksincha ayrimlarida esa ularni ma'lum bir narxga sotib olgandan so'ng o'rganish mumkin;
- tanlagan kurs haqida qisqacha sillabus keltiriladi;
- kurslardagi o'quv mashg'ulotlari modullardan tashkil topgan bo'lib, har bir modul yakunida o'zlashtirganlik uchun imtihon topshiriladi;
- kurs yakunida kursni tamomlaganlik to'g'risidagi sertifikatni yuklab olish mumkin. Ayrim platformalarda esa kursni yakunlagandan so'ng, sertifikatni yuklab olish uchun to'lov qilish lozim bo'ladi;
- ayrim turdagi ta'lim platformalarda kurslarni muvaffaqiyatli yakunlagandan so'ng olingan sertifikatni ma'lum bir faoliyatga maqsadli yo'naltirsa bo'ladi ya'ni biror bir ta'lim muassasasi, korxonasi, tashkilotlari o'sha sertifikatni tan oladi. Ba'zilarida esa shunchaki sizning mahoratingizni aniqlovchi sertifikatni taqdim etadi.

Ta'limiy yo'nalishlar bilan bir qatorda assessment (baholash) tizimi orqali foydalanuvchilarning qiziqishlarini oshiruvchi, dars modullarini o'qitishda interaktiv tarzda foydalanib kelinayotgan web platformalar ham mavjud. Ular sirasida Quiziz, Trivia Crack, Photomath, Google Classroom, Quizlet, Kahoot, ClassDojo, JeopardyLabs, LittleWords, Canvas kabilar kiradi. Bular mavzu bo'yicha o'yinlar orqali baholash tizimiga ega interaktiv platformalardir. Baholashga

asoslangan platforma o'quvchilarni sinf ichida va tashqarisida mobil qurilmalari yoki kompyuterlari yordamida jalb qilish uchun ishlatilishi mumkin. Buni qo'llash uchun alohida dasturlashga yoki texnologiyalarga oid bilimlar talab etilmaydi.

Baholashga asoslangan platformalar — butalabalar bilimni tez va qulay baholash uslubi bo'lib, talabalarning dars(modul) materialini tushunish darajasini tekshirish uchun qo'llaniladi. Bugungi zamon talabi darslarni konservativ metodlar orqali emas, yangi yondashuvlarni taqozo etmoqda. Bu o'rinda baholashga asoslangan platformalardan foydalanish ijobiy samara beradi. Ta'lim muhitida innovatsion texnologiyalarni qo'llash darsning sifat darajasining oshishiga, ta'limiy maqsadlarga erishishga ko'mak beradi⁶.

Hozirda global miqyosda ko'plab ta'lim muassasasi, korxonasi va kompaniyalar turli xil viktorinalar orqali baholashga asoslangan web platformalardan foydalanib kelishmoqda. Ta'limiy yo'nalishlar bilan bir qatorda assessment (baholash) tizimi orqali quyida ulardan ayrimlarini ko'rib chiqamiz:

Kahoot — maktablar va boshqa ta'lim muassasalarida sinfda (guruh faoliyati) qo'llaniladigan o'yin asosida o'rganish platformasi bo'lib, sayt o'yinlar katalogini taqdim etadi. Talabalar interfaol doska, proyektor, monitor, VNC, Jitsi, Skype yoki Google Hangouts orqali virtual ulashiladigan ekran orqali umumiy ekran atrofida to'planishadi. O'yin jarayoni oddiy barcha ishtirokchilar o'z qurilmalarida bir vaqtning o'zida savollarga javob berishadi. Savollar ekranda birma-bir o'quvchilarga ko'rsatiladi. Ishtirokchilar har bir to'g'ri javob uchun ball oladi. Viktorina oxirida ekranda barcha ishtirokchilarning savollariga javob berish paytida to'plagan ballari ko'rsatiladi. O'yinda ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tish shart emas.

Platformaning o'ziga xos jihatlari:

- ta'limni interaktiv va qiziqarli qilish uchun ishlab chiqilgan;
- talabalarning imkoniyatlariga qarab o'yinlar yaratish mumkin;
- foydalanuvchi istalgan joy va vaqtda bema'lol o'ynashi mumkin;
- talabalar yakka tartibda ham, guruhlarda ham o'ynashlari mumkin;
- viktorina yaratuvchilari viktorinaga bir nechta tanlovli savollarni qo'shishlari mumkin;
- tuzilgan viktorinalar uchun vaqt cheklovi mavjud, ya'ni tuzuvchi o'zi istagan vaqt muddatini qo'ya oladi;
- kurs yakunida talabalar natijalarni ko'ra olishadi;
- kahoot o'qituvchilari hisobotlarni elektron jadvalda yuklab olishlari mumkin.

Poll Everywhere — mazkur platforma ham web-quiz texnologiyasi bo'yicha baholashga asoslangan hisoblanadi. Platforma musobaqalar o'tkazish, so'rovnomalar to'plash va savol-javoblarni olib borish imkonini beradi. Bundan tashqari, Poll Everywhere'da savollar berish va boshqa turdagi ko'plab funktsionallar mavjud. Platformaning yana bir e'tiborli xususiyati shundan iboratki, taqdimotlarni integratsiya qilish funksiyasi mavjud.

Quizizz — bu o'qitish va o'rganish uchun mo'ljallangan veb-sayt bo'lib, u viktorinalar bilan birga darslar yaratish imkoniyatini beradi. Bu o'z jamoalari yoki talabalari uchun o'rganishni yanada qiziqarli qilishni istaganlar uchun ajoyib bepul platformadir. Bundan tashqari, agar foydalanuvchining savollar bazasi tugasa, platformada boshqa odamlar tomonidan yaratilgan viktorinalar hamjamiyati savollar bo'yicha ba'zi g'oyalarni taqdim etadi. Milliy kontentda ta'limiy va baholashga yo'naltirilgan platformalarning ayrimlari haqida ham to'xtalamiz:

ProSuit davlat organlarida faoliyat yurituvchi fuqarolar uchun mo'ljallangan dasturiy ta'minot. Davlat fuqarolik xizmatchilari mazkur platformada qisqa muddatli kurslar, malaka oshirish kurslari, mavzulashtirilgan video kontent, kutubxona, KPI reytingi kabi ma'lumotlar mavjud. Dasturiy ta'minot orqali davlat fuqarolik xizmatchilarning bilim, malaka, ko'nikmalari muntazam ravishda tekshiruvdan o'tkazilib turiladi.

STesting platformasi — xalqaro baholash dasturlari (PISA, TIMSS, PIRLS) doirasidagi topshiriqlar bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan elektron tizim va video mahsulotlarni o'z ichiga olgan innovatsion platformadir.

Elektron platformada quyidagi imkoniyatlar yaratilgan:

- xalqaro baholash dasturlarining topshiriqlarini o'zida mujassam etgan elektron test tizimida o'z bilimlarni sinab ko'rish;
- xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik doirasida o'quvchilar, o'qituvchilar, ota-onalarga mo'ljallangan video mahsulotlar bilan tanishib chiqish;
- ta'lim muassasalarida o'quvchilarda savodxonlik kompetensiyalarini shakllantirish, ularning egallagan bilimlarini hayotda qo'llay olish ko'nikmalarini hamda tahlil va talqin qila olish, mulohaza yuritish qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida keng foydalanish;
- ta'lim jarayonida fanlararo integratsiyani ta'minlashda elektron platforma

materiallarini bepul yuklab olishin;

- o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalari (funktsional savodxonlik, muammolarni hal qilish, shaxsiy fazilatlar)ni shakllantirish bo'yicha metodik yordam olishi mumkin.

STesting — bu o'quvchilarni xalqaro PISA, TIMSS, PIRLS tadqiqotlariga tayyorgarlik ko'rish uchun sinov platformasidir.

Khiso.uz — maktab auditoriyasi uchun mo'ljallangan, turli xil fanlardan test tuzgan holda olimpiadalar o'tkazadigan platforma bo'lib hisoblanadi. Platforma o'quvchilar hamda o'qituvchilar uchun tuzilgan savollar asosida olimpiadalar tashkil etadi. Foydalanuvchilar ro'yxatdan o'tib, bepul va pullik olimpiadalarni tanlaydilar va shu orqali bilimlarini sinovdan o'tkazadilar.

Bugunga kelib foydalanuvchilar soni 547007 shundan o'qituvchilar 181012, o'quvchilar 365995ta, o'tkazilgan olimpiadalar soni 1166 tani tashki etadi. Platformaning asosiy vazifasi umumiy o'rta ta'lim subyektlari uchun testlar orqali fanlardan olimpiadalar o'tkazishni nazarda tutadi. Tahlil natijalariga ko'ra milliy segmentda ta'limga yo'naltirilgan web platformalarning ko'pchiligi IT va dasturlash sohasiga oid, baholash (assessment) ga asoslangan web platformalar esa kamchilikni tashkil etadi.

Mamlakatimizda jamiyatning barcha sohalarini, xususan, ta'lim jarayonini raqamlashtirish sharoitida mazkur turdagi web platformalarni yaratish va amaliyotini ta'minlash nafaqat sifatli ta'lim atmosferasini yaratadi shuningdek, yaxshigina daromad olib keladi. Masalan, birgina Courseraning 2021-yilgi daromadi o'tgan yilga nisbatan 41 foizga oshib, 415 million dollarga yetgan⁷. Shuningdek, Kahoot platformasi 2021-yil 4-choragida e'lon qilgan yillik daromadi 39.7 mln dollarni tashkil etadi⁸.

Xulosa qilib aytganda, motivatsion ta'lim atmosferasini yaratish muammolarni bartaraf etish uchun:

- ta'limda raqamlashtirishni izchil davom ettirish;
- ta'limga oid loyihalarni amalga oshirishda xususiy sektor bilan aloqalarni mustahkamlash;
- ta'limiy va baholashga asoslangan kreativ hamda o'ziga xos bo'lgan dasturiy ta'minotni yo'lga qo'yish;
- ta'limda fanni oson o'zlashtirish imkonini yaratuvchi muhitni yaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

⁷ [https://investor.coursera.com/news/news-details/2022/Coursera-Reports-Fourth-Quarter-and-Full-Year-2021-Financial-Results/default.aspx#:~:text=Revenue%20in%20the%20range%20of%2024536%20to%2024544%20million,45.5%20to%2024\(51.5\)%20million](https://investor.coursera.com/news/news-details/2022/Coursera-Reports-Fourth-Quarter-and-Full-Year-2021-Financial-Results/default.aspx#:~:text=Revenue%20in%20the%20range%20of%2024536%20to%2024544%20million,45.5%20to%2024(51.5)%20million)

⁸ <https://kahoot.com/investor/announcements/kahoot-group-reports-fourth-quarter-2021-financial-results/>

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI FAOLIYATINI INDIKATORLAR ASOSIDA DIAGNOSTIKA QILISH

Rayxona Davlatovna Norqobilova - o'qituvchi, Termiz davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada diagnostikaning mohiyati, boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyatidagi indikatorlar asosida diagnostika qilish, umumiy o'rta ta'lim sifatini diagnostika qilishning demokratik tamoyillari, umumiy o'rta ta'lim muassasasida samarali diagnostik xizmatni tashkil qilish haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Аннотация: В данной статье содержится информация о сущности диагностики, диагностики по показателям в деятельности учащихся начальных классов, демократических принципах диагностики качества общего среднего образования, организации эффективной диагностической службы в общеобразовательной средней образовательной организации. Данный.

Abstract: This article contains information about the essence of diagnostics, diagnostics based on indicators in the activities of elementary school students, democratic principles of diagnosing the quality of general secondary education, and the organization of an effective diagnostic service in a general secondary educational institution. given.

Калит so'zlar: diagnostika, indikatorlar, demokratik tamoyillar, diagnostik xizmat, iqtidor, kompetentlik, pedagogik diagnostika, innovatsiya.

Ключевые слова: диагностика, индикаторы, демократические принципы, диагностическая служба, талант, компетентность, педагогическая диагностика, инновации.

Keywords: diagnostics, indicators, democratic principles, diagnostic service, talent, competence, pedagogical diagnostics, innovation.

Iqtidorni rivojlantirish muammosi pedagogik nuqtayi nazardan qaraganda, bolaning iqtidorini, xususan, ona tili bo'yicha iqtidorini rivojlantirishga imkon beradigan shart-sharoitlarni yaratishdan iboratdir. Yurtimiz ta'lim tarixini o'rganish, shaxsdagi kreativ rivojlanish, uning iqtidorini rivojlantirish masalalarining doimiy muhokama qilib kelinganini ko'rsatadi.

Ayniqsa, 2016-yildan boshlab, klassik ta'limni shakllantirish bilan birga noan'anaviy o'qitish jarayonlarida iqtidorli bolalarni rivojlanishiga katta e'tibor berildi.

U 1997-yildan boshlangan o'rta maktabda o'qitishning turli xil shakllarini joriy etish bilan bog'liq holda rivojlanishni davom ettiradi. Ushbu davrda ta'lim muassasalarining yangi turlari keng ommalashtirildi: gimnaziyalar, litseylar, individual fanlarni chuqur o'rganish, turli yo'nalishlarda profil saboqlari va boshqalar bunga misol bo'ladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida barkamol insonni shakllantirish mahsulasi orqali mustaqil fikrlovchi, ijodiy izlanuvchi, kuchli

irodali, ishchan, g'oyaviy e'tiqodli, ma'naviyati yuksak, pok vijdonli shaxsni kamol toptirish dolzarb muammolar sirasiga kiradi. Bu o'rinda o'quvchilarning iqtidorini diagnostika qilish katta ahamiyat kasb etadi va ta'lim jarayonini innovatsion tashkil etishda pedagogik diagnostikadan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish asnosida jamiyatning barkamol shaxsni yetishtirishdek maqsadiga mos kelishi bilan tavsiflanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni, 2018-yil 15-iyuldagi PQ-916-son, 2010-yil 15-dekabrda PQ-1442-son, 2019-yil 20-fevraldagi PQ-4199-son 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-son qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi PQ 3304-sonli qarori-Toshkent, 2017-yil 30-sentabr va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash



to'g'risida"gi 187-sonli² qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu maqola muayyan darajada xizmat qiladi.

Diagnostika (yunon tilida «dia»- shaffof, «gnosiss»-bilim degan ma'noni bildiradi)-o'rganilayotgan obyekt yoki jarayon to'g'risida aniq ma'lumot olishning umumiy vositasi bo'lib xizmat qiladi³. Diagnostikaning ahamiyatini meditsina nuqtayi nazaridan qarasa, kasallik belgilari va ularni kelib chiqish sabablari to'g'ri aniqlansa, davolanish natijasida bemor tuzalib ketishining kafolati oshadi. Xato diagnoz esa faqat shifokorlarning aqliy harakatini yo'qqa chiqaribgina qolmay, balki kasalning tuzalish imkoniyatini ham susaytirishi mumkin. Tana a'zolari salomatligi to'g'risida aytilgan ushbu fikrlar ta'lim sifatini o'rganishga ham bevosita aloqadordir. Inson jismoniy rivojlanishini diagnoz qilish ancha oson kechadi, buning uchun ayrim mashqlar bajarilgach, uning natijasiga binoan xulosa chiqarish mumkin. Lekin intellektual, ruhiy, ma'naviy, ijtimoiy rivojlanishni diagnostika qilish mashaqqatli faoliyatning mahsulasi hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tilidan iqtidorini diagnostika qilish mexanizmlarini takomillashtirish, o'qituvchidan yuksak kompetentlik xususiyatlariga ega bo'lishni talab etadi va zamonaviy ta'lim texnologiyalari, axborot va kompyuter texnologiyalari, o'quv predmetini o'qitish usullari, o'qituvchilikning umummadaniy va amaliy tayyorgarligini namoyon ettirish nazarda tutiladi⁴.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyati quyidagi indikatorlar asosida diagnostika qilinadi:

-davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari talablarini bajarish darajasi;

-ta'lim muassasasi o'quvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasidagi umumiy natijalari;

-o'quvchilarning bosqichli nazoratlardagi umumiy natijalari;

-ta'lim muassasasini bitirgan o'quvchilarning akademik litsey, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'qishlarini davom ettirishlari;

-"Umumta'lim muassasalari o'quvchilarining umumta'lim fanlari bo'yicha bilimlar bellashuvi"dagi tuman, viloyat va respublika bosqichidagi natijalari;

-fan olimpiadasining tuman va viloyat bosqichi natijalari;

-"Tili bilimdonlari" va boshqa ko'rik-tanlovlarning natijalari.

Ta'lim samaradorligi prinsipining ikkinchi parametri "Umumiy o'rta ta'lim muassasasida samarali diagnostik xizmatni tashkil qilish" indikatorlari sifatida:

-o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatini o'rganishda ilmiy-uslubiy, diagnostik va nazariy asosga ega metodlardan foydalanilishi;

-o'qituvchi, maktab psixologi va rahbar o'rinbosari faoliyatlarining ilmiy-metodik jihatdan optimal ravishda tashkil etilganligi;

-o'quvchi, o'qituvchi, maktab rahbariyati faoliyatini jamoatchilik tomonidan nazorat etuvchi, ota-onalar, jamoatchilik fikrini o'rganuvchi mexanizmning mavjudligi va natijaviyligi;

-ta'lim muassasasini boshqarish holati, muammo va kamchiliklarini ifodalovchi tahlillarning mavjudligi;

-rahbar kadrlarning kasbiy, ilmiy-metodik tayyorgarligining ta'lim mazmuni va uning metodik ta'minoti bilan muvofiqlashtirilganligi;

-maktab rahbarlarida nazariy, pedagogik, ilmiy-metodik tayyorgarlik, g'oyaviy-siyosiy va ma'naviy-axloqiy, ijodiy va ijtimoiy faollik darajasining ortganligi;

-umumiy o'rta ta'lim maktabi rahbarlarini tayyorlash tizimining nazariy-metodik jihatdan asoslanganligi, bu jarayonda zamonaviy pedagogik, axborot va innovatsion texnologiyalardan foydalanish uchun zarur bo'lgan metodik bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga e'tibor qaratilganligi;

-ta'lim muassasasi rahbarining ijtimoiy-psixologik, muloqotga kirishuvchanlik, kommunikativ kompetentligi, madaniyati va mahorati sohasidagi bilim, ko'nikma va malakalarga hamda to'g'ri qaror qabul qilish va uni bajarilishini nazorat etish, tashkilotchilik qobiliyatlariga egaligi;

-ta'lim muassasasi rahbarida o'quv-tarbiya jarayoni sifatini ta'minlashga oid ta'lim strategiyasini belgilash ko'nikmalarining mavjudligi;

-ta'lim iste'molchilari va pedagogik xizmat ko'rsatuvchilar o'rtasida ijtimoiy hamkorlikning o'rnatilganligi;

-ta'lim muassasasi rahbarining vaqtini samarali taqsimlash, muammoni malakali tarzda aniqlay olish, maqsad va vazifalarni to'g'ri belgilash, xodimlar o'rtasida ishni tashkil

² Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг "Умумий ўрта ва ўрта maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-sonli qarori. -Toshkent, 2017 йил 6 апрель.

³ Abdullayeva Sh.A. O'quvchilarni pedagogik tashxislashda qo'llaniladigan metodlar//Xalq ta'limi, 2016, №3, 40-45 b.b.

⁴ Г.С.Ковалевой, О.Б.Логиновой. Планируемые результаты начального общего образования / под ред. М.: Просвещение, 2009.

eta olish layoqatiga egaligi;

-ta'lim muassasasi rahbarining moslashuvchanligi: jamoada shaxslararo munosabatlarning dinamikasini tavsiflay olishi;

-ta'lim muassasasi rahbarining yetakchiligi: muammoli vaziyatlarni hal qila olish, o'zgalardan barcha xususiyatlari bilan sifat jihatdan yuqori tura olishi, tashabbuskorligi;

-ta'lim muassasasi rahbarining kirishuvchanligi: ijobiy, ijtimoiy aloqalarni o'rnata olishi, ruhiy zo'riqish va bosimlarga qarshi tura olishi kabilardan iborat.

Navbatdagi indikator "Umumiy o'rta ta'lim sifatini diagnostika qilishning demokratik tamoyillar asosida yo'lga qo'yilganligi" hisoblanadi. Mazkur indikator quyidagi ko'rsatkichlar asosida baholanadi:

-maktab direktorining o'qituvchilar, o'quvchilar faoliyatini boshqara olish qobiliyatiga egaligi;

-ta'lim muassasasida o'quvchilar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishning yo'lga qo'yilganligi;

-sinflar kesimida darslarni taqsimlashda o'qituvchilar tajribasi va tayyorgarlik darajasining hisobga olinganligi;

-o'quvchilar va o'qituvchilarning maktab ichki tartib-qoidalariga qat'iy amal qilishiga erishilganligi;

-maktabda o'z-o'zini boshqarish tizimining mavjudligi;

-yetakchilik (liderlik) qobiliyatiga ega bo'lgan o'quvchilar faoliyatining rag'batlantirib borilganligi;

-maktabda sog'lom raqobat va o'z-o'zini tanqidiy baholashga nisbatan do'stona munosabatning shakllanganligi;

-ta'lim muassasasida shaxslararo ziddiyatlarni bartaraf etish tizimining mavjudligi;

-maktabdagi o'quvchilar hamda o'qituvchilar jamoasida samimiylilik va o'zaro hamkorlikka asoslangan ishchan muhitning yaratilganligi;

-o'quvchilar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash tizimining mavjudligi;

-ta'lim muassasasidagi sharoitlar o'quvchilar va ota-onalarni qay darajada qoniqtirishining o'rganilganligi hamda tahlil qilinganligi;

-o'quvchilar, ota-onalar va boshqa manfaatdor tomonlarning takliflari, so'rovlariga muvofiq tarzda o'qitish sifatini nazorat qilish va ta'minlashning ichki tizimi yaratilganligi;

-ta'lim muassasasining joriy va istiqbol rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda o'qituvchilar hamda ota-onalar vakillarining ishtirok etishi;

-maktabning ichki boshqaruvi tizimiga ota-onalar vakillarining kiritilganligi;

-bitiruvchilar, o'quvchilar va ota-onalar taqdim etgan axborotlar yordamida ular bilan qayta aloqaning o'rnatilganligi;

-o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish hamda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida sinfdan va maktabdan tashqari tadbirlarni talablar darajasida tashkil qilish tizimining yaratilganligi kabilardan iborat.

Navbatdagi "UO'Tda innovatsiyalarning tatbiq etilishi" indikator ko'rsatkichlari:

-o'qituvchilarning innovatsion faoliyati samaradorligini ta'minlovchi chora-tadbirlar va rag'batlantiruvchi muhitning mavjudligi;

-ta'lim boshqaruvi muassasalari tomonidan tavsiya etilgan innovatsiyalarni amaliyotga joriy etish monitoringining amalga oshirilganligi va tahliliy materiallarning mavjudligi;

-ta'lim muassasalarida izlanuvchan, ijodkor, istedodli pedagoglarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash mexanizmining yaratilganligi;

-UO'Tda innovatsiyalarni tatbiq etish maqsadlari va rejasining mavjudligi;

-ta'lim muassasalarida pedagog kadrlar (o'qituvchilar) va o'quvchilar uchun ijodiy muhit yaratilganligi, tashabbuslar va yangiliklarga qiziqish hosil bo'lganligi kabilardan iborat.

Pedagogik diagnostika: birinchidan, individual ta'lim jarayonini qulaylashtirishi, ikkinchidan, jamiyat talabidan kelib chiqqan holda, ta'lim-tarbiya natijalarini to'g'ri aniqlashni ta'minlashi, kafolatlashi, uchinchidan, o'ziga xos ta'lim yo'nalishi va mutaxassislikni oqilona tanlashga yordam berishi kerak⁵. Pedagogik diagnostika yordamida ma'naviy-ma'rifiy jarayon tahlil qilinadi va ta'lim-tarbiya natijalari aniqlanadi.

Tashxislashda nafaqat ta'lim-tarbiya natijalarini sarhisob qilish, balki ularning o'zgarish dinamikasini ham nazarda tutish lozim.

Pedagogik diagnostika quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

-birinchisi-shaxsni har tomonlama o'rganish, tashxis qilish yoki o'zini-o'zi tashxislash;

-ikkinchisi-pedagoglar jamoasi tomonidan ta'limiy-tarbiyaviy jarayonning

samaradorligiga erishishni ta'minlash.

Pedagogik diagnostika o'quv-tarbiyaviy jarayonni tadqiq qiladi. Uning metodlari ilmiy-pedagogik tadqiqot metodlaridan shu bilan farq qiladiki, u alohida o'spiringa yoki o'quvchi-yoshlar guruhiga dolzarb pedagogik tadbirlarni qo'llashni ko'zda tutadi⁶.

O'quv-tarbiyaviy jarayonni takomillashtirishga xizmat qiluvchi pedagogik diagnostika har bir rejali o'quv jarayonining ajralmas qismi hisoblanib, tahsil oluvchi o'quv materialini qanday o'zlashtirayotganini doimo kuzatib boradi, tarbiyaviy jarayondagi muammolarning yechimini topishga harakat qiladi. Mohir pedagog o'quv jarayonida tug'iladigan qiyinchiliklarni boshqalardan ko'ra yaxshiroq tushunadi.

Pedagogik diagnostika o'z zamirida korreksiya tadbirlarini ham nazarda tutadi. Mashg'ulot o'tkaziladigan sharoitlardan qat'i nazar o'quv jarayonining samaradorligiga xizmat qiluvchi pedagogik korreksiya quyidagi maqsadlarga yo'naltirilishi kerak:

-ta'lim natijasi noto'g'ri baholanganda ichki va tashqi tahrirga;

-ta'limdagi kamchiliklarni aniqlashga;

-ta'limning muvaffaqiyatli natijalarini tasdiqlashga;

-o'quv jarayonining keyingi bosqichlarini rejalashtirishga;

-ta'lim-tarbiyadagi muvaffaqiyatlarni rag'batlantirish orqali motivatsiya paydo qilishga va keyingi murakkab qadamlarni yo'naltirishga;

-o'quv-tarbiyaviy sharoitlarda yo'l qo'yilgan kamchiliklar, bo'shliqlarni korreksiyalashga, bartaraf etishga.

Nufuzli Amerika ma'lumotnomalarining (Lindquist) birida pedagogik diagnostika va korreksiya vazifalari (Educational Measurement)ga yirik boblar uchun o'rin ajratilgan: o'qitish jarayonida uslubiy yordam ko'rsatish, ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, o'quv maskanidagi ijtimoiy pedagog maslahati, tarbiyaviy jarayonda ta'limning o'rnini aniqlash(Plaziering)dan iborat. Demak, ilmiy asoslangan pedagogik diagnostika va korreksiya o'quv-tarbiyaviy jarayonning mazmunini boyitishga xizmat qiladi.

Shu bilan bir qatorda o'qitish sifatini tashxislash va korreksiyalash uchun quyidagilarni aniqlash talab etiladi:

-amalda qo'llanilayotgan o'quv dasturlarining samaradorligi va maqsadga muvofiqligi;

-metodik hamda tashkiliy innovatsiyalar;

-mazkur innovatsiyalarning o'qitish natijalarining sifati va bitiruvchilarning bilimdonlik darajasiga ko'rsatadigan ta'siri;

-o'quv jarayonining texnologik jihatdan ta'minlanganlik darajasi;

-umumiy o'rta ta'lim muassasasining turli bo'g'inlari faoliyati maqsad va vazifalarining o'zaro muvofiqligi;

-o'qitish konsepsiyalari, davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va o'quv-metodik majmualar mazmuni orasidagi o'zaro uzviylik;

-pedagogik, metodik, boshqaruv sohasidagi axborot tarmoqlarining samaradorligi, ularni ommalashtirish va foydalanish uchun qulayligi va ishonchiligi;

-fanlar bo'yicha o'qitish sifati baholanishini ta'minlovchi kvalimetrik, tashxislash metodikalarining o'qituvchilar tajribasida foydalanilganligi va sinovdan o'tkazilganligi kabilardan iborat.

O'qitish sifatini aniqlashda umumiy o'rta ta'lim muassasasining metodik quvvatini tashkil etuvchi ko'rsatkichlar ham muhim o'rin egallaydi. Jumladan:

-avvalgi yillarda tuzilgan o'quv dasturlari;

-umumiy o'rta ta'lim muassasasida ishlab chiqilgan metodik hamda didaktik materiallar;

-sinovdan o'tkazilgan o'rgatuvchi va tashxislovchi metodikalar;

-innovatsion g'oyalar banki;

-metodik ishlarning tashkiliy shakllari, ilg'or tajribalarni aniqlash, tanlash, umumlashtirish va ommalashtirish kabilardan iborat.

O'qitish sifatini tashxislashda moddiy-moliyaviy manbalarni hisobga olish ham nihoyatda zarur. Mazkur manbalar sirasiga:

-ta'lim muassasasida amalga oshiriladigan alohida tadbirlarni moliyalashtirish manbalari;

-qabul qilingan me'yorlar va talablarga mos tarzda o'quv materiallari mazmuniga muvofiq keladigan moddiy-texnik bazaning tavsifi;

-umumiy o'rta ta'lim muassasasidagi sinf xonalari va o'quv kabinetlarining kompyuterlar,

5 Ingenkamp Karixayns. Der pedagogischen diagnostik. Berlin:Lampress, 2001, 168p.

6 Г.С. Ковалевой, О.Б. Логиновой. Планируемые результаты начального общего образования / под ред. М.: Просвещение, 2009.

audio, video-vizual texnikalar va laboratoriya jihozlari bilan ta'minlanganligi;

-umumiy o'rta ta'lim muassasasining aloqa vositalari bilan ta'minlanganligi;

-umumiy o'rta ta'lim muassasasining o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlanganligi;

-umumiy o'rta ta'lim muassasasining sport maydonchalari, zallari, inventarlari bilan ta'minlanganligi;

-umumiy o'rta ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazani kengaytirishga yo'naltirilgan rejasini;

-o'qitish jarayoni sifatining o'quv

jarayoni sifati natijalari bilan mos kelishining ta'minlanganligi;

-umumiy o'rta ta'lim muassasasida masofaviy ta'limni joriy etish uchun moddiy-texnik bazaning mavjudligi kabilarni kiritish mumkin.

Bugungi kunda pedagogik diagnostika va pedagogik korreksiyaning tamoyillarini takomillashtirishda yoshlarning shaxsiyatiga zarar keltirmaslik, ularning pedagogik daxlsizligini ta'minlash, milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar orqali ularga ijobiy ta'sir ko'rsatish inobatga olinishi zarur.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUCHILARIDA NUTQ KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIMNING AHAMIYATI

Ikram Davlatovich Babamuratov - o'qituvchi, Termiz davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida nutq madaniyatini o'rgatish va har bir darslarga qiziqish uyg'otish, so'z, gap yordamida nutqiy faoliyatga ehtiyoj hosil qilish, shuningdek, ularda bilim, ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish yo'nalishlari va usullari bayon etilgan.

Аннотация: В данной статье необходимо обучать младших школьников культуре речи в процессе личностно-ориентированного обучения и вызывать интерес к каждому занятию, формировать потребность в речевой деятельности с использованием слов и предложений, а также давать им знания, описаны направления и методы составления никмы и квалификации.

Abstract: In this article, it is necessary to teach elementary school students speech culture in the process of person-oriented education and to arouse interest in each lesson, to create a need for speech activity with the help of words and sentences, as well as to give them knowledge, directions and methods of composition of nikma and qualifications are described.

Kalit so'z: bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, yozma nutq, idrok, pedagogik-psixologik muhit.

Ключевые слова: знание, умение, компетенция, компетенция, письменная речь, восприятие, педагогико-психологическая среда.

Keywords: knowledge, skill, competence, competence, written speech, perception, pedagogical-psychological environment.

Bugungi kunda zamon juda tez sur'atlarda rivojlanib bormoqda. Shuning barobarida ilm-fan ham, ta'lim-tarbiya yuksalmoqda. Ta'lim jarayonida yangilik sifatida kirib kelgan kompetensiya tushunchasi va ularni pedagogik jarayonda tutgan o'rni haqida qancha ta'kidlansa shuncha oz.

O'tmishda pedagogik tizim uchun

xos bo'lgan holatlardan biri — o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirish g'oyasini tatbiqetishdan iborat bo'lgan. Bu muammo bugungi kun uchun ham alohida dolzarblik kasb etib u an'anaviy ta'lim jarayonida emas, shaxsga yo'naltirilgan o'quv-biluv jarayonida amalga oshirilishi kerak¹. O'quvchilarni intellektual rivojlantirish, nutq kompetensiyalarini

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-sonli

shakllantirish, salomatligini muhofaza qilish uchun ularga to'laqonli ta'lim-tarbiya berish bugungi kun o'qituvchisi faoliyatidagi ustuvor maqsaddir.

Tahlil va natija: Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartida umumiy o'rta ta'limning malaka talablari umumta'lim fanlari bo'yicha ta'lim mazmunining majburiy minimumi va yakuniy maqsadlariga, o'quv yuklamalari hajmiga hamda ta'lim sifatiga qo'yiladigan talablardan iborat bo'lib, u quyidagilardan tashkil topadi:

bilim — o'rganilgan ma'lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish;

ko'nikma — o'rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo'llay olish;

malaka — o'rganilgan bilim va shakllangan ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llay olish va yangi bilimlar hosil qilish;

kompetensiya — mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyatidir.

Chiroyli so'zlashni, savodli, to'g'ri yozishni, o'z fikrini ravon va aniq bayon etishni bilmagan yoki bu masalada bir oz qiynalgan o'quvchi bilimlarni muvafaqqiyat bilan o'zlashtira olmaydi. Har bir insonning nutqi chiroyli, mukammal, talaffuzi aniq, ravon bo'lsa, fikrlash doirasi keng, idrok qilishi ham teran bo'ladi².

Nutq o'stirish boshlang'ich ta'lim pedagogikasining tarixi va nazariyasini ham, muomala madaniyatini o'rgatish uslubiyotini ham o'z ichiga oladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi, avvalo, o'quvchilariga umumiy estetik tarbiya berish vazifalarini tushunib olishi lozim. Bu vazifalar faqatgina yaxshi muomala qilishni o'rgatishdangina iborat bo'lib qolmasligi kerak. Bunda, eng muhimi, o'quvchiga nutq madaniyatini o'rgatish va unda har bir darslarga qiziqish uyg'otish, so'z, gap yordamida nutqiy faoliyatga ehtiyoj hosil qilish, shuningdek, ularda bilim, ko'nikma va malakalarni tarkib toptirishdir.

Nutq ikki ko'rinishga ega: og'zaki, va yozma nutq. Bular o'zaro uzviy bog'langan bo'lsa ham, har birining o'ziga xos xususiyati bor. Og'zaki nutqda tovushlar, so'zlar nutq orqali talaffuz qilinsa, eshitish a'zolari orqali qabul qilinadi. Shuning uchun o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirishda, avvalo, ularning nutqidagi kamchiliklar sabablarini aniqlash, uni bartaraf etish yo'llarini izlab topish kerak³.

Og'zaki nutq ko'pincha dialog tarzida, yozma nutq esa monolog tarzida bo'ladi.

O'quvchilar nutqiga qo'yilgan talablar. O'quvchilar nutqini o'stirishda aniq belgilangan bir qator talablarga rioya qilinadi.

1. O'quvchilar nutqi mazmundor bo'lsin.
2. Nutqda mantiqiylik bo'lsin.
3. Nutq aniq bo'lsin.
4. Nutq til vositalariga boy bo'lsin.
5. Nutq tushunarli bo'lsin.
6. Nutq ifodali bo'lsin.
7. Nutq to'g'ri bo'lsin.

Shunday qilib, nutqni tafakkurdan ajratib bo'lmaydi, nutq tafakkur asosida rivojlanadi; fikr nutq yordamida pishib yetiladi, yuzaga chiqadi. Ikkinchi tomondan, nutqning o'sishi fikrni shakllantirishga yordam beradi, takomillashtiradi. O'quvchilar nutqini o'stirishning mashg'ulotning boshqa turlari bilan bog'liqligi⁴.

O'quvchilar nutqini o'stirish boshqa o'quv predmetlaridan o'tkaziladigan mashg'ulotlar bilan ham uzviy ravishda bog'lanadi. Ona tili darslarida o'quvchilar til yordamida tabiat va kishilar hayoti haqida bilim oladilar: ular kuzatishni, oylashni va ko'rganlari, eshitganlari, o'qiganlari haqida to'g'ri bayon qilishni o'rganadilar. Ona tili darslari bolalar lug'atini boyitishga samarali yordam beradi, nutqni to'g'ri tuzishni o'rgatadi.

O'quvchilarning bilish faolliklarini namoyon qilish ularning aqliy mustaqillik ko'rsatishlariga imkoniyat yaratadi. Shu bilan bir qatorda, egallangan yangi bilimlarning ko'nikma va malakalarga aylanishiga asos bo'ladi. Ular o'zlashtirgan yangi bilimlarni nostandart va yangi vaziyatlarda qo'llash usullarini egallaydilar⁵. O'quvchilarning aqliy mustaqilliklari fikriy faoliyat operatsiyalarini o'zlashtirish natijasida hosil bo'ladi. Bu esa o'quvchilarni bilish faoliyatini rivojlantirish asosida nutqiy kompetensiyalarini paydo bo'lishiga xizmat qiladi.

O'quvchilarning bilish faolliklarini yo'naltirish usullari va yo'llarini tahlil qilish bu sohada bir qator yo'nalishlarni ajratish imkonini berdi:

- o'quvchilarning o'quv jarayoni subyekti sifatida shakllanishlari;
- o'quv jarayonini dialog asosida tashkillashtirish;
- shaxsga yo'naltirilgan o'zaro munosabat

qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarini to'plami, 2017. 14-son, 230-modda.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-son Qarori. <https://lex.uz>

³ Q. Abdullayeva. Birinchi sinfda nutq o'stirish. - T.: 1980.

⁴ D. Shabbazova, (2022). CONTENT OF FACTORS DETERMINING THE EFFICIENCY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(5), 630-636.

⁵ S. Abdullayeva, R. Choriyev. Hamkorlik pedagogikasi. T.: Bayoz, 2015.

vaziyatini vujudga keltirish;

- o'quv jarayonini individuallashtirish va tabaqalashtirish;
- o'quv materiallarining ahamiyatligi va qimmatligini namoyon qilish;
- o'quv predmetlararo va har bir predmetning o'z ichida aloqadorlik va integratsiyani ta'minlash;
- o'quvchilarni qiziqarli vaziyatlarga jalb etish⁶;
- muammoli ta'lim metodlarini qo'llash;
- o'quvchilarning mustaqil ishlari ko'lamini kengaytirish;
- o'quvchilarning shaxsiy tajribalarini hisobga olgan holda o'quv jarayoni mazmunini boyitish;
- sinfdagi o'quvchilar orasida sog'lom pedagogik-psixologik muhitni vujudga keltirish;
- o'quvchilarning muvaffaqiyatlarini ta'minlaydigan, ular uchun qiziqarli bo'lgan vaziyatlarni tashkillashtirish;
- o'quvchilarni muvaffaqiyat qozonishga ruhlantirish va ularning bilish faoliyatlarini ta'minlash;
- o'qituvchilarda o'z o'quvchilarining bilish imkoniyatlariga ishonchini mustahkamlash kabilar.

O'quvchilar bilish faoliyati darajalarini mumkin qadar ko'proq tabaqalashtirish va uni faollashtirish yo'llari taniqli pedagog Ye.V.Korotayevaning ishlarida batafsil yoritib berilgan. Hech qanday bilish faoliyatini namoyon qilmaydigan o'quvchilar o'quv ishiga qiyinchilik bilan jalb etiladilar. Buning uchun o'qituvchi tomonidan muntazam tarzda muayyan bosim ko'rsatiladi, qulay pedagogik-psixologik muhit yaratiladi, ularning noto'g'ri javoblardan cho'chishlarining oldi olinadi⁷. Faol bilish imkoniyatiga ega bo'lgan o'quvchilar o'quv materiallariga nisbatan alohida qiziqishning mavjudligi, dars shakllariga alohida e'tibor qaratishlari bilan tavsiflanadilar. Faol bilish imkoniyatiga ega bo'lgan o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda muammoli topshiriqlardan foydalanish, rolli o'yinlar tashkil etish orqali faolliklarini muayyan maqsadga yo'naltirish mumkin. Bilish faoliyati jarayonida faollikning yuqori darajada namoyon bo'lishi ijodiy faollik sifatida e'tirof etiladi⁸.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim sharoitida fikriy operatsiyalarni maqsadga muvofiq

tarzda o'zlashtirish imkoniyati bugungi kunga qadar to'liq amalga oshirilmayapti. Buning asosiy sababi shundaki, ta'lim jarayonida muayyan natijalarga erishish uchun o'quvchilarning aqliy rivojlanishlariga yetarlicha ta'sir ko'rsatilmayapti. O'quvchilarning bilish faoliyatiga asoslangan nutq kompetensiyalaridan maqsadga muvofiq tarzda foydalana olmaydilar.

Gumanitarturkumdagi o'quv predmetlarini o'qitish jarayonida o'quvchilarning aqliy rivojlanishlarini jadallashtirish orqali bilish faolliklarini ta'minlash mumkin.

Hozirgi kunda darsliklarning yangi avlodi nashr etilmoqda. Jumladan, "Smart", "Qo'shma darsliklar" ya'ni 1-2-sinflar uchun chop etilgan "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsliklari o'quvchilarning yozma va og'zaki nutq kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi⁹.

O'quvchilarda yangi xarakterdagi bilish moyilligini ta'minlash mexanizmlarini vujudga keltirish alohida ahamiyatga ega. O'quvchilarning ichki mayllarini bilish faoliyati orqali uyg'otish, ularning hayotiy tajribalari, bilimlarini boyishga xizmat qiladi. Tashqi yo'naltiruvchi omil sifatida to'laqonli muammoli vaziyatlarni vujudga keltirishdan iborat. Bunday vaziyatlarda topshiriqlarni yechish, bilish faoliyati jarayonida o'quvchilarga qiyinchiliklar tug'diradi. O'quvchilarning bilish faoliyatlarini yo'naltirish mexanizmlarini shakllantirishda o'quv predmetlarining mazmuni ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'zlashtirishlari, bilish qiziqishlarini yo'naltirish va tanlovga asoslangan munosabatlarni shakllantirish imkonini beradi. Shu bilan bir qatorda, o'quvchilar bilish faoliyatining izlanuvchanlik xarakteriga ega bo'lishiga e'tibor qaratish lozim. Bunda o'quvchilarning yangi bilimlarni o'zlashtirishlariga ko'maklashadigan metodlar yig'indisi yordamida ularda o'z mehnatlari natijasini ko'rish imkoniyatini yaratish kerak¹⁰.

Bugungi kunda bilish jarayonining o'ziga xos jihatlari o'qituvchi-o'quvchilarning o'zaro hamkorligiga asoslangan munosabatlari tashkil qiladi. An'anaviy didaktikada bu sohada biryozlama nuqtayi nazar qat'iyilashgan bo'lib, o'quv, o'quv faoliyatining obyekt, o'qituvchi esa mazkur jarayonning subyekt sifatida e'tirof etilgan. Bu jarayonda ular turlicha vazifalarni bajarganlar.

6 Q. Abdullayeva. Birinchi sinfda nutq o'stirish. - T.: 1980.

7 Jalilov Z.B. IX-XII asrlarda Sharq mutafakkirlari yaratgan tarbiyaviy qadriyatlardan oliy pedagogik ta'lim jarayonida foydalanish texnologiyalarini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI, Namangan, 2018, 52 bet

8 S. Abdullayeva, R. Choriyev. Hamkorlik pedagogikasi. T.: Bayoz, 2015.

9 Dilfuza Shabbazova. (2022). MODEL OF PERSONAL VALUE FOR PRIMARY SCHOOL LITERACY LESSONS. European Scholar Journal, 3(5), 80-83.

10 Kosimova D.X. O'quvchilarda ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojini shakllantirish texnologiyasi. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI, Namangan, 2019, 48 bet.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga faoliyat maqsadini ochib beradi, uni o'quvchilar anglashlariga harakat qiladi, yetakchi g'oyalarni tahlil etadi, o'quv predmetining mazmuni o'quvchilar uchun tushunarli bo'lishiga o'z kuch-quvvatini sarflaydi, taqdim etiladigan bilimlarning qiymatini ochib beradi, o'quv jarayoni mantiq va bu jarayonda yangi bilimlarni o'zlashtirishning ahamiyatini tahlil qiladi, o'quvchilarni bilish faoliyatining zarur usullari bilan qurollantiradi. Bunday faoliyat natijasida o'quvchilarning nutq kompetensiyalari shakllanib, bilish faolliklari jarayoni dasturlashtiriladi. Bunday vaziyatda o'quvchilar obyekt sifatida namoyon bo'lib,

o'qituvchi tomonidan qo'yilgan vazifalarni bajaruvchi funksiyasiga ega bo'ladi¹¹. O'quvchilarning bilishga asoslangan nutq kompetensiyalarini shakllantirish jarayonida ularning shaxsiy faoliyatlariga keng yo'l ochish ta'lim berishning samarali usuli hisoblanadi. Shuning uchun ham, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida o'quvchilar subyekt mavqeiga ega bo'lishlari lozim. Bunday vaziyatlarda shaxsiy yondashuv vujudga keltirilib, o'quvchilar hamda o'qituvchilarning imkoniyatlarini mujassamlashtirish metodidan foydalaniladi. Bunday sharoitda o'qituvchi faoliyat obyekt sifatida namoyon bo'ladi. Buning natijasida o'quvchilar ta'lim jarayonida muayyan mustaqillikni qo'lga kiritadilar.

THE CONCEPT OF DISCOURSE AND ITS LINGUISTIC AND CULTURAL INTERPRETATION

Munajat Akmaljonovna Rasulova - teacher, Tashkent state university of uzbek language and literature

Abstract: In the article some problems of the interpretation of the notion "discourse" in modern linguistics are described. The process of the formation of the notion "discourse" in linguistics is presented in brief, the main characteristics of this notion distinguishing it from the notion "text" are pointed out.

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy tilshunoslikda "diskurs" tushunchasini talqin qilishning ba'zi muammolari yoritilgan. Tilshunoslikda "diskurs" tushunchasining shakllanish jarayoni qisqacha yoritilgan, bu tushunchani "matn" tushunchasidan ajratib turadigan asosiy belgilari ko'rsatilgan.

Аннотация: В статье описываются некоторые проблемы интерпретации понятия «дискурс» в современной лингвистике. Кратко представлен процесс формирования понятия «дискурс» в языкознании, указаны основные характеристики этого понятия, отличающие его от понятия «текст».

Keywords: text, discourse, speech, speech activity

Kalit so'zlar: matn, nutq, nutq, nutq faoliyati.

Ключевые слова: текст, дискурс, речь, речевая деятельность.

The definition of a discourse still remains in the center of attention of modern scientific discussions and there is its relevance and scientific value. Communicative characteristics of a discourse and its function in public practice became a subject of numerous disputes and discussions. In fact, each human activity possesses own, characteristic for it, a discourse (political, scientific, legal, economic) in which abilities of the person to a reflection and communication is realized. Giving special accent and attention to a language role in formation of cultural-semiotic components of public consciousness and in

cross-cultural social interaction that involves the corresponding expansion of the sphere of linguistic researches is characteristic for modern humanitarian thinking. Interests of linguistics were significantly displaced from the structural description of language on the functional ones. The academic science which deals with studying of languages realized that the language that is learnt is actually certain scientific abstraction or fiction which doesn't have a direct relation on real processes of communication. Studying of laws in any language didn't affect users of that language¹. The absence of rules of usage of the

1 Anutyunova N. D. Discourse // Linguistic encyclopedic slo-improves., 1990. S. 136-137.

11 Kosimova D.X. O'quvchilarda ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojini shakllantirish texnologiyasi. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI, Namangan, 2019, 48 bet.

accumulated knowledge of the language led to emergence of the functional disciplines which focused on human factors. Inclusion in a scientific paradigm of producers of language units, various parameters of speech situations promoted development of the theory of communication and speech interaction that caused emergence of the new directions in linguistics, new objects of research, new language unit – a discourse. The discourse is thought as a substance which has no accurate contour and volume and it is in the continuous movement. Purpose of a conceptual framework of linguistics of a discourse consists in providing access to its structure-forming parameters. As the discourse has the dynamic character, methods which are applied in the analysis of the words or the sentences as static essence, stable elements of system are totally useless in application to a discourse. And the specified units which are used in discourse are not stable and find out semantic and formal variability and polysemy. The internal organization of a discourse is still described by scientists of the different scientific directions².

Discourse (fr. discours, English discourse, armor. discursus “running backwards-forward; movement, circulation”, English – “conversation, talk”). In Latin the word meaning was limited: races (in various directions) or the special bidirectional attack of army aiming to isolate parts of army of the opponent from each other (pincer movement). This Latin dictionary didn't record. Most likely, this sema appeared already at later stages of functioning of language, outside title ethnos. In articles of the French and English dictionaries the sema of speaking dominates. Only in the private use in Edmund Spencer's poems (the 16th century) the word discourse describes military action and designates battle process. More specific value of the church sermon also was fixed in English where this word got from French. Some conclusions and assumptions follow from the analysis of entries. At the metaforization of a loan word which occurred at very early stage the field of military action was blocked by a field of speech action. And the internal form of the word keeps all sema and analogies of evasion from a course, races in various directions, skirmishes, process of battle, defeat of the opponent³.

Literature review. All these sema

and analogies are realized at the level of a speech act. It is hard to say, at what stage there was such metaforization. In Anglo-American linguistic researches the discourse traditionally is understood as “the coherent speech”, “dialogue”, in this value the term is used in the 1950th by Z.Harris. Two decades later there is a definition of a discourse as “the speech that was immersed in life” by E.Benvenista. Researchers agree in opinion that the discourse – “is the speech immersed in a communicative situation and having thus the expressed social contents is more distinct in comparison with speech activity of the certain individual”. One of the outstanding linguists who predicted existence of a discourse is L.V.Shcherba. It allocated the third aspect of the language phenomena (after language and the speech) when wrote about “set of all sayings and understandings in a certain situation during this or that era of life of this or that public group”⁴.

Research Methodology. This aspect is called by Shcherba as language material, but this phenomenon will receive the name “discourse” later. In modern science as the term “discourse” it is understood practically anything to the researcher, the term is extremely popular, as concept of a discourse also indistinctly, as concept of language, societies, ideologies. A discourse – object of interdisciplinary studying. Besides cognitive linguistics such sciences and the research directions as computational linguistics and artificial intelligence, psychology, philosophy and logic, sociology, anthropology and ethnology, a historiography, law, communication researches, political science are connected with research of a discourse⁵.

And in spite of the fact that each of these disciplines approaches studying of a discourse in own way, it is obvious that the discourse is a multiple-valued term of a number of the humanities which subject directly or indirectly assumes studying of functioning of language. Some interpretations which are used in different paradigms of knowledge in different values are assigned to this term.

Therefore it is possible to speak about polysemantism of this term both in linguistics, and in others sciences. A.Kibrik, P.Parshin allocate three main classes of the use of the term “discourse” corresponding to various national traditions and deposits of

2 Kubryakova E. S. On the concept of discourse and discourse analysis in modern linguistics: a review // *Discourse, speech, speech activity*.

3 Dijk van. *Discourse studies: a multidisciplinary introduction*. P. 1-34.

4 Виссон Линн. *Практикум по синхронному переводу с русского на английский*. - Москва, 2000. - С. 200.

5 Kubryakova E. S. On the concept of discourse and discourse analysis in modern linguistics: a review // *Discourse, speech, speech activity*.

specific authors. Actually linguistic uses of this term belong to the first class, it was firstly used in the name of the article “Discourse Analysis” of the American Linguist of Z.Harris which was published in 1952. Fully this term was demanded in linguistics approximately in two decades. Actually linguistic uses of the term “discourse” in itself are very various, but in general behind them attempts of specification and development of traditional concepts of the speech, the text and dialogue are looked through⁶.

Analysis and results. On the one hand, the discourse is thought as the speech entered in a communicative situation and owing to this fact as category with more clearly expressed social contents in comparison with speech activity of the individual; on aphoristic expression of N.D.Arutyunova “the discourse is the speech immersed in life”⁷. On the other hand, real practice modern (from the middle of the 1970th years) the discourse analysis is interfaced to research of regularities of the movement of information within a communicative situation which is carried out first of all through an exchange of remarks; thereby some structure of dialogue interaction that continues quite structural (though usually and not called that) line, which beginning just is really described and it was necessary Harris. Thus, however, dynamic character of a discourse that becomes for distinction of concept of a discourse and traditional idea of the text as to static structure is emphasized⁸. The first class of notion of the term “discourse” is presented mainly in Englishspeaking scientific tradition to which also a number of scientists from the countries of continental Europe belongs; however beyond the scope of this tradition about a discourse as “the third member” of Saussure's opposition the Belgian scientist E.Byuissans spoke for a long time, and the French linguist E.Benvenist consistently used the term “discourse” (discours) instead of the term “speech” (parole)⁹.

The second class of the uses of the term “discourse” which in recent years was beyond science and which became popular in journalism, goes back to the French structuralism and post-structuralism, and first of all to M.Foucault though in justification of these uses the important role was played

also by A. Greymas, Ge.Derrida, Y.Kristeva; later this understanding was partly modified by M.Peshyo, etc. Behind these usages the aspiration to specification of traditional concepts of style (in that widest value which is meant, speaking “style is a person”) and individual language (cf. traditional expressions of Dostoyevsky's style, Pushkin's language or language of the Bolshevism with such is more modern the sounding expressions, as a modern Russian political discourse or Ronald Reagan's discourse) is looked through¹⁰.

The term “discourse” understood thus (and also the derivative and often replacing it term “discursive practice” which was also used by Foucault) describes the way of speaking and surely has definition – WHAT or WHOSE discourse because researchers are interested not in a discourse in general, and its concrete versions set by a wide set of parameters: purely language distinctive features (in that measure in what they can be distinctly identified), stylistic specifics (mostly determined by quantitative tendencies in use of language means), and also specifics of subject, systems of belief, ways of a convictions, etc. (it would be possible to tell that the discourse in this understanding is stylistic specifics plus the ideology standing behind it). Moreover, it is supposed that the way of speaking in many respects predetermines and creates the subject sphere of a discourse, and also social institutes corresponding to it. From the point of view of the second understanding, it is possible to call it “a rationality discourse”, the word “discourse” here obviously sends to the fundamental text of scientific rationalism – to the judgements on R.Descartes's method (in the original – “Discours de la méthode” that at desire it is possible to translate and as “a method discourse”¹¹.

Conclusion/Recommendations. All three listed macrounderstandings (and also their versions) interacted and interact with each other; This circumstance in addition complicates an overall picture of the use of the term “discourse” in the humanities. Besides, it must be kept in mind that this term can be used not only as patrimonial, but also in relation to concrete models of language interactio¹². The complexity of definition of a discourse is connected with difficulty of differentiation

6 Kubryakova E. S., Aleksandrov O. V. the space, of text and discourse // *Categorization of the world: space and time: proceedings of the conference*. Moscow: Dialog-MGU, 1997. S. 19-20.

7 Arutyunova N. D. *Discourse // Linguistic encyclopedic slo-improves.*, 1990. S. 136-137.

8 Виссон Линн. *Практикум по синхронному переводу с русского на английский*. - Москва, 2000. - С. 200.

9 Van Dijk, T. A., Kinch V. *Strategy for understanding coherent text // New in foreign linguistics*. M.: Progress, 1988. Vol. XXIII. P. 153-211.

10 Kubryakova E. S., Aleksandrov O. V. the space, of text and discourse // *Categorization of the world: space and time: proceedings of the conference*. Moscow: Dialog-MGU, 1997. S. 19-20.

11 Бархударов Л.С. *Язык и перевод*. - Москва: МГУ, 1975. - 190 с.

12 Виссон Линн. *Практикум по синхронному переводу с русского на английский*. - Москва, 2000. - С. 200.

of a discourse and the text, and also that it is necessary to recognize dominating in system of a discourse. So, N.A.Lavrova [Lavrova 2010] accents the attention on actually linguistic and sociolinguistic in a discourse: From speech linguistics position the discourse is the process of the real-life verbalized communication which is characterized by a set of deviations from initial written language, thus an important role play degree of spontaneity, completeness, thematic connectivity, clearness of conversation for other people.

Thus, the concept "discourse" has the

deep semiotic, cognitive and linguocultural content, but the maintenance of a discourse is not limited to a conceptual basis since the discourse has also language, and extra language content. An originality of a discourse as events in science is caused by a research paradigm. Discourses, primary sources of the text, cause a continuity of development of scientific knowledge of the "highest reality of language" embodying regularities of outlook of the person, mechanisms of expression of an orientation of its spirit on itself and on people around.

САЛОМАТ ВАФО И ЕЁ ГЕРОИ В ФОЛЬКЛОРНОМ АСПЕКТЕ

Умида Абдуллаевна Аннакулова - преподаватель, Термезский государственный университет

Аннотация: В данной статье рассматривается творчество узбекской современной писательницы Саломат Вафо как мастера психологической прозы, сумевшей передать трагизм своих произведений через легенды, мифы, обряды и традиции Средней Азии. Основное внимание в работе автор акцентирует на художественных приёмах писательницы и средствах отображения внутреннего мира человека через его духовное начало. Новизна научной работы в том, что автор на примере творчества Саломат Вафо обращается к современной узбекской литературе с её фольклорными аспектами, которые помогают лучше рассмотреть и изучить работы писательницы.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbek zamonaviy yozuvchisi Salom Vafoning asarlari o'rta Osiyoning afsonalari, miflar, marosimlari va urf-odatlarini orqali o'z asarlarining fojiasini yetkazishga muvaffaq bo'lgan psixologik nasr ustasi sifatida ko'rib chiqiladi. Muallif asarning asosiy e'tiborini yozuvchining badiiy texnikasi va insonning ichki dunyosini uning ma'naviy printsipi orqali namoyish etish vositalariga qaratadi. Ilmiy ishning yangiligi shundaki, muallif Salomat Vafo ijodi misolida zamonaviy o'zbek adabiyotiga o'zining folklor jihatlari bilan murojaat qiladi, bu esa yozuvchining asarlarini yaxshiroq ko'rib chiqish va o'rganishga yordam beradi.

Abstract: This article discusses the work of the Uzbek modern writer Salomat Vafo as a master of psychological prose who managed to convey the tragedy of her works through legends, myths, rituals and traditions of Central Asia. The main attention in the work the author focuses on the artistic techniques of the writer and the means of displaying the inner world of a person through his spiritual beginning. The novelty of the scientific work is that the author, using the example of the work of Salomat Vafo, refers to modern Uzbek literature with its folklore aspects, which help to better consider and study the works of the writer.

Ключевые слова: узбекская литература, «женская проза», духовный мир героев, традиции, обряды, легенды, Средняя Азия.

Kalit so'zlar: o'zbek adabiyoti, "ayol nasri", qahramonlarning ma'naviy dunyosi, urf-odatlar, marosimlar, afsonalar, O'rta Osiyo.

Keywords: uzbek literature, "women's prose", the spiritual world of heroes, traditions, rituals, legends, Central Asia.

На рубеже Независимости Эргашевна, Зульфия Куролбой кизи и современная узбекская литература Саломат Вафо. Писательницы своим представлена талантливыми творчеством сумели передать образ писательницами представительницами узбекской женщины, выдержавшей и «женской прозы», такими как Джамиля вытерпевший все невзгоды «развала»,

жизнейские невзгоды обыденной жизни, полные каждодневной рутинной проблемы, Писательницы в своих произведениях сумели раскрыть роль узбекской женщины в современном мире через призму прошлого, которое ощущается в каждом их рассказе. Они сумели передать всю гуманность узбекской женщины, принадлежащей к разным сословиям и профессиям. Факт интересен тем, что до них никто из писателей Узбекистана не затрагивал внутреннего мира и подробного описания обрядов и традиций своих соотечественниц.

Политические изменения сыграли не маловажную роль и в социальной жизни народа, повлекли за собой изменения в духовном и нравственном мире узбекской женщины. В литературных трудах авторов, указанных выше, можно найти тексты, в которых ощущаются все качества и чувства внутреннего мира узбекской женщины. Героини узбекских писательниц, грезят о лучшем будущем через тернии страданий, ниспосланных им судьбой. Порой они бессильны перед всеми испытаниями судьбы, но вера в лучшее будущее помогает пробудить в них дух воительницы, борющейся за счастье своей семьи.

Саломат Вафо вошла в узбекскую литературу не так давно, но её произведения смогли стать неким толчком в развитие литературы Узбекистана. Её роман «Таинственное государство» («Тилсим салтанати», 2004) является одним из первых, написанных на историческую тему женщиной-писательницей. Своей откровенностью и беспощадностью писательница смогла стать на ступень выше среди других авторов узбекской «женской прозы»¹.

Её индивидуальный подход к каждому из героев, полон элементов экспрессивности, способной воссоздать субъективный мир героини. Она смогла затронуть одно из лучших качеств женщины – любовь, способность пробудить человеческие качества в самые трудные минуты разочарования

и лишения. Любить и быть любимой – это основная проблема героини Саломат Вафо, осложнённая проблемами глубокого эмоционального и духовного самоанализа в психологической ситуации, окаймлённой фольклорными традициями.

Героиня её рассказа «Гора Бутан» – женщина, потерявшая смысл жизни, уставшая от обыденности, не чувствующая любви близких духовного равновесия среди таких же, как и она. В какой-то мере этот рассказ напоминает крик души самого автора, мысли которого захлаплены невзгодами каждодневной суеты. У Л.Я.Гинсбурга есть высказывание о том, что человек, в порядке сознательного обмана, предлагает обществу некий украшенный образ, вовсе не соответствующий внутреннему содержанию личности². Или наоборот, человек стремится и внутренне отождествиться со своим сублимированным образом, по возможности вытесняя из сознания всё, что ему противоречит.

В «Горе Бутан» героиня показана вечной труженицей, не нашедшей успокоения в своей работе и в своей судьбе, но ей удаётся найти внутреннее расслабление в пустыне у подножия горы Бутан. Её разум устал от жизненной суеты, и ей нравится тишина и покой природы, которые она обрела именно здесь. Нетронутая красота пейзажа чаруют её. Она понимает, что это и есть тот мир, о котором она всегда грезилась. И только теперь она понимает смысл жизни, и только тут она обретает душевное спокойствие. Всё здесь тождественно с её душой. Попав в объятия природы, где она ощущает тишину, покой и безмятежность, она понимает, что это и есть то самое место, где бы ей хотелось спрятаться от проблем внешнего мира.

Писательница в деталях разъясняет о всей своей душевной боли, что напоминает о её незащитности перед мужской волей. И здесь, на лоне царственной природы, она находит для себя духовника, встреча с которым для

¹ Саломат Вафо «Таинственное государство» («Тилсим салтанати», 2004). 8 стр

² Виноградов В. С. Введение в переводоведение (общие и лексические вопросы). М.: Издательство института общего среднего образования РАО, 2001. 46 стр

неё оборачивается очередной утратой. Ей нравился его голос, убаюкивающий напеванием молитв. Хоть и многие слова из гипнотизирующей речи были ей непонятны, но они обладали очищающей силой. Душа её обновлялась слезами, которыми она не в силах была управлять. Околдованная его всем существом, она чувствовала к нему притяжение, хотя разум управлял чувствами. Они вместе паломничали, обходили с молитвами могилы великих предков, просили душевного успокоения и счастья.

Саломат Вафо удаётся передать чувства героини, анализирующие всю свою жизнь от начала до конца. Автор прекрасно ощущает каждое душевное переживание, передавая это всё через монолог своего «прототипа». Мы видим, что автор тоже обыкновенная женщина, мечтающая о женском счастье. И автору, и героине, как «хранительнице домашнего очага», нужно надёжное плечо, на которое она могла бы опереться и найти душевное успокоение. Этого «плеча» ей не хватало во внешнем мире и поэтому глядя на этого кохина (духовника), отрёкшегося от внешнего мира, она понимает, что их души родственны. Кохин верен своим принципам, и повторять своих ошибок он не намерен. Их внутренний монолог переходит во внутренний диалог. Она просит его спасти любя, а он доказывает, что нет в любви спасения. Его оправдания полны предательства и разочарований и только у подножия этой величественной горы он может управлять собой и своими чувствами.

Героиня не находит того, чего искала, ведь одно из женских предназначений любить и быть любимой. Она вынуждена покинуть этот рай, ощутив только платоническое наслаждение. Героиня смогла обуздать свою страсть и прислушавшись к своему внутреннему голосу, очистить свою душу от проблем современного мира. Образ героини, обрамлённый переживанием, вызывает у читателей такой же внутренний дискомфорт, так как кладбище

напоминает о смерти, которую нельзя миновать.

Описание кладбища овеяно мистикой и по поверью там нельзя ходить одному, иначе злые духи могут забрать твою душу. Поэтому героиню сопровождает кохия. ...Мы навещали гробницы большие и малые, поклонялись им. Кохин нараспев читал молитвы. Его голос, юный, звучный, звенел в давно опустевших кельях, нарушая вековую тишину. Воздух становился теплее, казалось, что вот-вот великие, веками спавшие в могилах, поднимутся из-под своих надгробий, встанут, покачиваясь, распрямляя стан³.

Героиня рассказа верит в тайную силу молитвы... В лице кохина проступала тайная сила молитвы: словно кающийся грешник он касался лбом камня, снова и снова отбивая поклоны. Голос управлял всем его существом, звал за собой, звал вырваться из кельи, оставить позади чудесную гору, взлететь. Автор сравнивает голос духовника с волшебным голосом птицы Феникс. Героиня в каждой детали своего существования видит что-то из мистики. Я жила мечтой: однажды найдется смелый богатырь, прилетит на крылатом коне и увезет меня с собой⁴.

Увидев развалины старой крепости, автор вспоминает легенду о девушках Бакра. Они как истинные воительницы были непобедимы в войнах и очень умны в науках, но и их сломил дев (мифическое существо мужского пола). Автор подробно описывает развалины, чем способствует погружению в мир прошлого этих легендарных девушек.

Саломат Вафо с отвращением относится к жертвоприношению «Паломники должны приносить жертвы. Каждый день поблизости резали овец, каждый день доносился запах крови и протухающей требухи, вызывая во мне брезгливое отвращение к еде. Я чуть с ума не сошла от этого. Увижу кровь — и вся начинаю трястись, мерещатся целые отары безголовых овец, пробегающих мимо меня, слышатся предсмертные

3 Саломат Вафо. Гора Бутан. Рассказ. Перевод с узбекского Зои Тумановой // Журнал «Дружба Народов». 2010, №1. 28 стр.

4 Саломат Вафо. Гора Бутан. Рассказ. Перевод с узбекского Зои Тумановой // Журнал «Дружба Народов». 2010, №1. 31 стр.

хрипы⁵. “Люди, люди, до чего вы безжалостны! У меня душа болела за этих бессловесных, кротких существ, неизвестно за какую вину приносимых в жертву без счета. Здесь она добавляет и историю о сбежавшей овце, которую всё же зарезали, найдя в утробе ягнёнка”⁶.

Этот рассказ полон фольклорного описания легенд, пословиц, сказаний, которыми она дополняет внутреннее переживание и духовное опустошение героини, не нашедшей себя в современном мире.

Опыт сопереживания знаком читателю по многим произведениям Саломат Вафо. В её рассказе «Устюрт» так же можно ощутить глубокие чувства волнения из-за пассажиров злополучного грузовика, перевозившего людей через пустыню, чуть не ставшими добычей волков.

В произведениях автора ощущается не поддельная любовь и уважение к ближнему, они полны чувств сострадания и гуманности. Она через своих героев даёт нам понять о глубинах человеческой души со всеми свойственными им проблемами.

Основные герои Саломат Вафо простые женщины, уставшие от жизненных противоречий. У каждой из них свой взгляд на мирозерцание. Её героини проходят стадию депрессионного воззрения на жизнь. Они измучены каждодневным гонением за счастьем, а счастьем для них является - спокойствие в семье и сытость домочадцев. Каждая из героинь проходит стадию сдачи экзаменов на выносливость. Судьба испытывает каждую из них особой проверкой на прочность, но не сумев сломить, даёт лишь шанс на существование в муках и страданиях. В галерее образов женщин Саломат Вафо наши современницы чаще всего пребывают в духовном и нравственном кризисе, чья личность, нравственный мир проходит своеобразный экзамен из-за горести жизни, испытаний судьбы.

И это раболепское преклонение перед мужским полом остаётся у женщин Востока изпокон веков, ведь уважение к мужчине сравнимо с уважением к Богу.

В рассказе «Женщина, забывшая себя» автору удаётся открыто прикоснуться к человеческой психике и к подсознанию женщины, перенёвшей аборт. Автор сумел так подробно, честно и с болью написать об аборте. ... утешаюсь мыслью: род человеческий создан для горя, тоски и мучений⁷. И так может только человек, выстрадавший на себе все тяготы аборта. Читая описание всего процесса аборта, чувствуешь психологизм женщины, которая лишается самого дорогого. Саломат Вафо, как женщине мусульманке, удалось разрушить стереотипы, открыто сказав о тяжком грехе, вызывающего ужас в подсознание человека. ... Какая боль! Всё моё тело, вся сущность моих тридцати лет, все члены мои, все органы, все частицы скорбят о младенце⁸.

В этом рассказе о героине ничего не рассказывается. Мы так и не узнали причины, которая заставила её лечь под скальпель акушера. Автор через этот сюжет хочет донести до нас и об этой проблематичной стороне женщины добровольно, а может насильственно отказывающейся от своей половины сердца. Эта горькая правда, пережитая чуть ли не каждой женщиной, является напоминанием о безвыходности жизненной ситуации. В какой-то мере Саломат Вафо, просит женщин опомниться и не быть губителями божьего дара.

Баю-баю, дитя моё, /Баю-баю, дитя моё, /небо моё, /Баю-баю дитя, / ты стремление моё, /Баю-баю, дитя, /ты томление моё⁹. Мать поёт прощальную колыбельную песню своему не родившемуся ребёнку. Колыбельная – эпитафия напоминает нам о предопределении женщины, в первую очередь дарить и лелеять жизнь. Слова колыбельной – стремление и томление

5 Саломат Вафо. Гора Бутан. Рассказ. Перевод с узбекского Зои Тумановой // Журнал «Дружба Народов». 2010, №1. 32 стр.

6 Саломат Вафо. Гора Бутан. Рассказ. Перевод с узбекского Зои Тумановой // Журнал «Дружба Народов». 2010, №1. 33 стр.

7 Саломат Вафо. Женщина, забывшая себя. // Журнал «Звезда Востока». – 2008. – № 1, 16 стр.

8 Саломат Вафо. Женщина, забывшая себя. // Журнал «Звезда Востока». – 2008. – № 1, 17 стр.

9 Саломат Вафо. Женщина, забывшая себя. // Журнал «Звезда Востока». – 2008. – № 1, 15 стр.

говорят о тяжёлой доле материнства, где мать мечтает о стремительном росте ребёнка и о том, что томительна судьба материнства.

Автор усугубляет описание ножа. Нож ассоциируется с предметом, забирающим жизнь¹⁰.

Героиня понимает весь ужас происходящего, и мы видим, что она здесь не первый раз. Она стремительно покидает место казни, обвиняя себя в смерти своего малыша, но её душевное состояние передаётся через внутренний голос. Весь трагизм ситуации возникает между сознательным и бессознательным действием героини. Писательница старается открыто соединить свою судьбу с судьбой героини, там и рождается то, что мы называем «лирическим я», и это, наверное, наиболее понятное для нас рассуждение и проявление чувств. При чтении этого рассказа, от начала до конца, читательницы могут ощутить на себе эту безысходность героини. И колыбельная песня, и рассказ отца о ноже ассоциируются как дающее и забирающее жизнь Отец, ты говорил, что в ноже есть злая сила¹¹.

По поверьям, колыбельная, которую поёт мать, является напутственно внушающей песней, определяющей судьбу малыша. Поэтому слова колыбельной подобраны не только под такт ударов сердца и как гипнотизирующе-успокаивающее, но и как предсказывающее и направляющее разум ребёнка к будущему предназначению. А нож – это орудие, способное забрать жизнь, и поэтому при чтении намаза (молитвы) благоденствия он не должен быть виден сидящим вокруг.

Ойдын - героиня рассказа «Безымянный корабль» два года прожила на чужбине, многому её научила жизнь. Крепко став на ноги, она уже могла различать - хорошее от плохого. Многое она осознала вдали от родины.

Получив печальное известие о смерти матери, она тут же прилетела в

маленький городок, недалеко от Арала. При перелёте Ойдын думает о тяжёлой доле женщины, терпящей все невзгоды семейной жизни. Она сравнивает образ своей матери с образом родины, проходящий почти во многих произведениях автора. Этот образ помогает обобщить всё понятие женской судьбы с образом Родины.

И этот образ матери – Родины параллельно возникает в жизни каждого человека, помогая стать личностью. Ойдын глубоко переживает смерть матери, но и судьбы женщин – попутчиц, не оставляют её равнодушной. «Молчаливые женщины, наверное, ещё молодые, замотанные в многочисленные платки, с руками, не знающими никаких маникюров, равнодушно стояли возле своих тележек с жареными пирожками»¹².

Фатима – одна из этих торговек пирожков или совсем ещё молодая девушка, которая выживает, торгуя собой. Автор не щадя рассказывает о тяжёлой судьбе узбечек При аралья. Фатима, которой Ойдын помогла доехать до дома, рассказала о своей тяжёлой судьбе кормилицы. Её мужу, пьянице и бездельнику, завидует таксист, подвозивший Ойдын, рассказывая о её муже, Джаббаре, которому каждый день кайф! Живёт будто на курорте. Как придёт с базара, нажарит мяса, купленного подешевле для пирожков, и выпивая бутылку за раз, больше ничем не занимается, когда его жена почти весь день на ногах¹³.

Ойдын пришлось долго добираться до похоронной процессии, до которой так и не успела, так как место захоронения было сменено.

В каждом слове автора ощущается эмоционально трагическое состояние героини, заставляющее и читателю ощутить весь трагизм данной ситуации. Саломат Вафо, как писателю-психологу, удаётся затронуть глубины человеческой психики, связанные с потерей самого родного и близкого-матери.

Автор словно сама переживает всю

¹⁰ Саломат Вафо. Женщина, забывшая себя. // Журнал «Звезда Востока». – 2008. – № 1, 17 стр.

¹¹ Саломат Вафо. Женщина, забывшая себя. // Журнал «Звезда Востока». – 2008. – № 1, 18 стр.

¹² Саломат Вафо. Безымянный корабль. Рассказ. С узбекского перевод Усто Али. Журнал «Дружба народов», – 2012, – № 7. 22 стр.

¹³ Саломат Вафо. Безымянный корабль. Рассказ. С узбекского перевод Усто Али. Журнал «Дружба народов», – 2012, – № 7.23 стр.

трагедию бытия своих героев, вживаясь в них, она доказывает, что для того, что бы быть человеком, достаточно быть человеческим, быть самим собой, ведь это и есть сущность бытия. Гуманизм не может быть бесчувственным!

Литература наравне с психологией стремилась выразить душевные качества человека, его ощущения, переживания, размышления, и на данном этапе возникла необходимость к глубоким познаниям теории художественного процесса, но так как наша работа состоит в основном из рассмотрения использования автором фольклорных и этнографических особенностей, мы можем выделить характерные предметы материальной и духовной культуры народов Средней Азии, на которые непосредственно влияло географическая среда народа.

И опять внутри что-то оборвалось – чуть-чуть поодаль располагалось кладбище. Вот почему, наверно, здесь этот странный запах. Человеческий запах. Мне ли не знать, что здесь, возле Арала, из-за близости подземных вод мертвецов кладут во что-то похожее на

сундук и хоронят над землей, что бы тела не коснулись подземные воды¹⁴, которые приведут к гниению. Описания кладбища и похоронной процессии даётся во многих произведениях Саломат Вафо. Она как маятник часов напоминает нам о неминуемом и невозвратном. Через простые жизненные ситуации, в которых наблюдаются частички фольклорных традиций и обрядов, она смогла передать глубину людских проблем, живущих по своим законам сопереживания.

Мы видим, что на фоне обыденности возникают вечные картины прошлого, которые напоминают нам о духовном начале каждого народа, истории возникновения которых передаются в легендах, мифах, в простых колыбельных песнях, молитвах. И именно жанр фольклора помогает глубже понять мысль автора. «Социокультурные сведения характерные лишь для определённой нации или национальности, освоенные массой их представителей и отражённые в языке данной национальной общности» В. С. Виноградов, обозначил как фоновую информацию¹⁵.

¹⁴ Саломат Вафо. Безымянный корабль. Рассказ. С узбекского перевод Усто Али. Журнал «Дружба народов», – 2012, – № 7.27 стр.

¹⁵ Виноградов В. С. Введение в переводоведение (общие и лексические вопросы). М.: Издательство института общего среднего образования РАО, 2001. 36 стр.

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA YURIDIK TERMINLAR TARJIMASIDA ME'YORLAR (FONETIK, GRAMMATIK, LEKSIK, FRAZEOLOGIK)

Feruzakhon Muhammadjonovna Vakhidova - o'qituvchi, Andijon davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada yuridik atamalarni tarjima qilishga doir qoidalar keltirilgan bo'lib, ushbu qoidalar fonetik, grammatik, leksik va frazeologik jihatdan ingliz va o'zbek tillaridagi o'ziga xosligi tadqiq etilgan.

Аннотация: В данной научной статье представлены правила перевода юридических терминов, а также изучены фонетические, грамматические, лексические и фразеологические особенности этих правил на английском и узбекском языках.

Abstract: This scientific article presents the rules for the translation of legal terms, and the phonetic, grammatical, lexical and phraseological peculiarities of these rules in the English and Uzbek languages are studied.

Kalit so'zlar: tarjimonlik, lug'at, lingvistik, leksik, huquqiy, kompozit, transformatsiya, komponent.

Ключевые слова: перевод, словарь, лингвистический, лексический, юридический, составной, трансформация, компонент.

Keywords: translation, dictionary, linguistic, lexical, legal, composite, transformation, component.

Tarjima va tarjimonlik uzoq asrlardan buyon dunyo xalqlari tarixi va madaniyatida shakllanib kelayotgan ko'hna ijodiy faoliyat sohalaridan biridir. Tarjima xalqlar o'rtasidagi madaniy, ijtimoiy, do'stlikotuvlik, yaxshi qo'shnichilik aloqalari va munosabatlarini yo'lga qo'yish, mustahkamlash, taraqqiy ettirishga xizmat qiladi. Tarjima orqali umuminsoniy qadriyatlar keng va chuqur ildiz otadi, insoniyatni yangi taraqqiyot pog'onalariga olib chiqadi¹. Zamonaviy dunyoda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va boshqa ko'plab sohalar jadal rivojlanishi ko'plab sohalar uchun dolzarb bo'lgan nazariyalar, tushunchalar, hodisalarni o'rganishni taqozo etmoqda. Terminning asosiy xususiyatlari quyidagilar hisoblanadi: ta'rifning mavjudligi, terminning aks ettirilgan tushunchaga muvofiqligi, ko'proq ma'lumot to'yinganligi, noaniqlikka moyillik, uslubiy betaraflik va ifoda yetishmasligi, izchillik.

Ushbu asosiy xususiyatlardan tashqari, terminning qo'llanish xususiyatlariga ko'ra bir qator xossalari va talablarini bir qator olimlar, xususan, K.A.Myakshin quyidagicha ajratib ko'rsatadi: amalga oshirish (umumiy qabul qilingan, tushunarli), variatsion barqarorlik (takrorlanuvchanlik), evfoniklik (evfoniylilik talabi). Terminlar tarjimasida lug'atlarning ikki guruhidan foydalanish kerak: an'anaviy tarjima

lingvistik lug'atlari (sinonimlar bilan bog'liq bo'lgan lingvistik ma'lumotlar, so'z shaklining o'ziga xos xususiyatlari, etimologiyasi va b.) va terminlarning izohli konseptual tarjima lug'atlari (tegishli tushunchalar haqidagi konseptual ma'lumotlar)².

Bizga ma'lumki, terminlar matni tashkil etuvchi kichik leksik birliklar, so'zlar, so'z birikmalari, maqolva matallar, aforizmlar kabilarda qatorida tilda mavjud bo'ladi. Shunday ekan odatda terminlarni tarjimasida tarjima usullari alohida ahamiyatga ega. Tarjima usullari ilk bor Vinie va Darbelnie tomonidan aniq metodologik maqsadga ko'ra tasniflangan. P.Nyumark tarjima transformatsiyalarining tasnifiga transferensiya, naturalizatsiya, madaniy ekvivalent, tasviriy ekvivalent, komponent tahlil, sinonimlik, to'liq tarjima, o'zgarishlar yoki transpozitsiyalar, modulyatsiya, rasmiy uslub tarjimasini, o'rnini to'ldirish, perifraza, birlashma, eslatmalarni kiritadi. N.Qambarov tarjima usullaridan foydalanish salmog'i asliyat va tarjima tillarining bir – biriga qardosh yoki qardosh emasligiga bog'liqligi, ularni tarjima munosabati bilan kontaktga kirgan ikki til (asliyat va tarjima)ning tipologik, stilistik, lingvostilistik, pragmatik, lingvopragmatik, lingvokulturologik, sotsiolingvistik hamda lingvotekstologik xususiyatlaridan kelib chiqib tanlanishi borasida o'z fikrlarini bildirib o'tgan.

¹ Гак, В. Г. Теория и практика перевода. Французский язык / В. Г. Гак, Б. Б. Григорьев. – М.: Либроком, 2009. – 464 с.

² Реформатский, А. А. Что такое термин и терминология / А. А. Реформатский // Вопросы терминологии: материалы Всесоюзного терминологического совещания. – М.: Изд-во АН СССР, 1961. – С. 45–54.

Olimning fikricha, tarjima jarayonida eng ko'p qo'llanadigan tarjima transformatsiyalari: so'z tartibining o'zgarishi, so'z qo'shish, so'zni tushirib qoldirish, umumlashtirish, konkretlashtirish, kalikalash, tasviriy tarjima usullari kabilarda hisoblanadi. Transformatsiyalar sonining kam bo'lishi tillarning bir-biriga yaqinligidan, transformatsiyalar miqdorining ko'pligi tillarning bir-biridan uzoq ekanligidan dalolat beradi.

Atamaning ramziy mohiyatini tushunish uchun atamani so'z sifatida ko'rib chiqishga arziydi. So'z terminologiyaning asosiy birligi sifatida ishlaydi va ayni paytda uning eng kichik komponent qismini ifodalaydi. Har qanday ilmiy sohada asosiy vosita so'zda o'z ifodasini topadigan tushunchalardir. Nutqni ishlab chiqarish jarayonida so'z inson fikrlarini o'rab turgan moddiy qobiqqa o'xshash asosiy qurilish materialidir. "So'z" tushunchasining juda ko'pta'riflari mavjud. Biz V.G.Gakta'ri bilan rozi moyil, qaysi eng to'liq ko'rib chiqilayotgan hodisaning mohiyatini aks ettiradi. Muallifning fikriga ko'ra, so'z tilning asosiy tarkibiy va semantik birligi bo'lib, uning maqsadi obyektlar, ularning xususiyatlari, hodisalari va voqelik munosabatlarini nomlashdir. Ushbu til birligi har bir tilga xos bo'lgan semantik, fonetik va grammatik xususiyatlar to'plamiga ega. O'z-o'zidan aniq tushunchani ifodalovchi atama tilda so'z orqali amalga oshiriladi. Biroq, so'zdan farqli o'laroq, atama nafaqat konsepsiyani nomlaydi, balki uni belgilaydi va aniqlaydi. Shuning uchun atamalarni oddiy (tez-tez ishlatiladigan) so'zlardan ajratish tubdan muhimdir. Bir vaqtlar A.A.Reformatskiy uni "butun lingvistik muammo" deb atagan³. Terminning lingvistik tabiati uning bir qator xarakterli xususiyatlarida namoyon bo'ladi:

* bu atama har qanday adabiy tilning bir qismi bo'lgan ajralmas leksik birlikdir;

* atamalar juda ma'lumotli, chunki ular taqdim etilgan konsepsiyani eng to'liq, aniq va iqtisodiy ta'rif bilan ta'minlaydi;

* shartlar sistematikdir;

* atamalar nominativ xarakterga ega, ya'ni. ular ayniqsa qimmatli ma'lumotlarning qisimli konsolidatsiyasi bilan tavsiflanadi;

* qoida tariqasida, atamalar ma'lum bir terminologik kontekstda bir ma'noli;

* atamalar stilistik jihatdan neytral, ular ekspressivlik bilan tavsiflanmaydi.

Lug'at huquqiy atamalarni uch guruhga ajratadi: umumiy atamalar, maxsus huquqiy atamalar va maxsus texnik atamalar.

Ushbu tasnifning mezonini aholining yoki bu qismining "tushunariligi" tamoyilidir. Shunday qilib, atamalarning birinchi guruhiga kundalik hayotda ishlatiladigan va hamma uchun tushunarli bo'lgan atamalar kiradi. Ularning maxsus huquqiy ma'nosi deyarli odatiy ma'noga to'g'ri keladi.

Maxsus atamalarga kundalik nutq so'zlari kiradi, ular huquqshunoslikda alohida ma'noda ishlatiladi, ya'ni ular maxsus huquqiy tarkibga ega. Bunday atamalar huquq sohasidagi mutaxassislar uchun tushunarli bo'ladi. Uchinchi guruh shartlari faqat texnik va ilmiy. Ular maxsus bilimlar sohasini – texnologiya, iqtisodiyot, tibbiyot va boshqalarni aks ettiradi, boshqa sohada mutaxassis bo'lgan advokat tomonidan tushunilishi kerak. Shunday qilib, Konstitutsiyaga sharh matnidagi yuqoridagi xususiyatlariga asoslanib, biz quyidagi huquqiy atamalar guruhlarini aniqladik⁴:

1. Bir komponentli birliklar:

a. nutqning nominal qismlari bilan ifodalangan atamalar:

* ismlar bilan ifodalangan atamalar;

* sifatlar bilan ifodalangan atamalar;

b. fe'llar bilan ifodalangan atamalar;

v. huquqiy matnlarga xos predloglar.

2. Ko'p komponentli birliklar:

a. barqaror iboralar bilan ifodalangan atamalar;

b. huquqiy matnlarda ishlatiladigan qisqartmalar;

v. chet tillaridagi barqaror iboralar.

Tanlangan misollar tahlili shuni ko'rsatdiki, ushbu huquqiy atamalar guruhi eng kengdir. Shu bilan birga, ushbu guruhga tegishli atamalar asosan olingan ismlar yoki kompozitsiyalar bilan ifodalanadi.

Avvalo, olingan otlarni uzatish uchun qanday tarjima texnikasi qo'llanilishiga e'tibor qaratish lozim. Qoida tariqasida, ushbu morfologik birliklar ko'pincha ekvivalent atama bilan tarjima qilinadi. Ya'ni, ushbu guruhga mansub otlarning aksariyatini tarjima qilishda tarjimon, qoida tariqasida, aniq ekvivalentlarga duch keladi, bu esa tarjima transformatsiyalaridan foydalanish zaruratini yo'q qiladi. Bunday otlarga, masalan, quyidagilar kiradi:

• sovereignty - suverenitet

• statehood – davlatchilik

• interpretation – izoh

• referendum - referendum

• unitarianism – unitarizm

• federalism - federalizm

³ Реформатский, А. А. Введение в языковедение / Под ред. В. А. Виноградова. – М.: Аспект Пресс, 1996. – 536 с.

⁴ Конституционное право России. Энциклопедический словарь / Г. Иванец [и др.] – М.: Юридическая литература, 2002. – 432 с.

- centralism - markazlashish
- monarchy - monarxiya
- autocracy – avtokratiya
- absolutism - absolutizm
- pluralism - plyuralizm
- democracy – demokratiya

Yuqoridagi atamalarni tarjima qilishda tarjimon transformatsiyaga murojaat qilmaydi, balki asosiy, ko'pincha yagona lug'at ma'nosini ishlatadi. Bundan tashqari, ushbu guruh atamalarini tarjima qilish ko'p hollarda katta qiyinchilik tug'dirmaydi, chunki yuqorida keltirilgan nemis atamalarining aksariyati chet eldan kelib chiqqan so'zlar va tahlil qilingan ikkala tilda ham mavjud bo'lgan internatsionalizmlardir.

Biroq, bunday ismlar bilan ifodalangan huquqiy terminlarga sharh matnida topilgan ba'zi bir komponentli atamalar bir nechta semantik ma'nolarga ega va shuning uchun tarjimon variant yozishmalaridan foydalanishi kerak. Bunday atamalarga quyidagilar kiradi, masalan:

- the court - sud
- requirement - talab
- cancellation – bekor qilish

Sifatlarning atama sifatida mustaqil ishlatilishi rus va nemis qonunlarida keng tarqalgan holat emas. Biroq, shunga qaramay, biz sifatlar bilan ifodalangan bir komponentli atamalarining tarjimasi tahlilini tanlangan misollar tasnifining alohida kichik guruhiga ajratishga qaror qildik. Bu guruhga nominal predikatning bir qismi bo'lishiga yoki aniqlanayotgan ot bilan chambarchas bog'liq bo'lishiga qaramay, "terminologik mustaqilligini" saqlaydigan sifatlar kiradi, ya'ni ularning terminologik ma'nosi ular bilan bog'liq fe'l yoki otga bog'liq emas. Ushbu atamalar guruhiga kiritish uchun taklif qilingan mezonlarga mos keladigan sifatlarini tahlil qilishimiz uning kichikligini ko'rsatdi. Bundan tashqari, ushbu talablarga javob beradigan tanlangan misollarni o'rganish quyidagi tendensiyani ko'rsatdi: qoida tariqasida, ushbu morfologik birliklar ekvivalent atama bilan tarjima qilinadi va aksariyat hollarda tarjimon aniq ekvivalentlar bilan ishlaydi. Misol

tariqasida ushbu guruhga tegishli quyidagi sifatlarini keltirish mumkin⁵:

- democratic – demokratik
- federativ – federativ
- republican – respublikaga oid
- national – milliy
- politic – siyosiy
- sovereign – mustaqil

Agar kompozitlarni tarjima qilish muammosidan kelib chiqadigan o'zgarishlarni hisobga olmagan holda, iboralarning tuzilishidagi o'zgarishlarni ko'rib chiqsak, yuqoridagi misollarning oxirgisi istisno hisoblanadi: unda ittifoq bo'lmagan aloqani almashtirish mavjud edi. Ittifoq kompozitsiyasi bilan. Ehtimol, bunday tarjima qarori stilistik me'yorlarga bog'liq va ikkita atributning bir-biriga bog'liq bo'lmagan ro'yxati bu holda jurnalistik uslub bilan bog'lanishga olib kelishi mumkinligi sababli qabul qilingan bo'lishi mumkin, chunki bu uslub ko'pincha bunday matnlarda so'zning xususiyatlarini oshirish uchun ishlatiladi.

Bir komponentli tarkibiy birliklar bilan ifodalangan atamalar, aksincha, tarjimon uchun unchalik qiyinchilik tug'dirmadi. Olingan otlar va sifatlar sifatida ifodalangan nemis atamalar orasida rus tilida aniq yozishmalarga ega bo'lgan internatsionalizmlar keng tarqalgan. Bir komponentli atamalarni tarjima qilishda tarjimon variant yozishmalariga murojaat qilgan hollarda, u yoki bu ekvivalentni tanlashda u kontekstga tayangan⁶.

Tahlil davomida bir komponentli birliklar orasida kompozitlarni tarjima qilish eng qiyin ekanligi aniqlandi, chunki qo'shma otlar rus tilida keng tarqalgan emas, shuning uchun tarjimon asl tuzilishini o'zgartirishi va atamani ko'p komponentli birlikka tarjima qilishi kerak edi, bu esa xavfni oshiradi. Tarjima xatolar qilish.

Shunday qilib, biz tanlangan misollar orasida ibora bilan ifodalangan atamalar guruhi eng ko'p va xilma-xil bo'lishiga qaramay, ushbu atamalarining rus tiliga tarjimasini tahlil qilish jarayonida tarjimon ko'p hollarda asl nusxaning tuzilishini saqlab qolishga intilganligi aniqlandi.

LINGVOMADANIYATSHUNOSLIKDA KONSEPT TUSHUNCHASI

Yulduz Xujamurovna Jabbarova - assistent, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali

Annotatsiya: Maqola tilshunoslik fanining kognitiv tilshunoslik kabi istiqbolli sohasiga xos bo'lgan konsept tushunchasi tahlilga bag'ishlanadi. Maqolada, shuningdek, konsept va uning tarkibiy qismlarini tahlil qilishda so'zning tuzilishini tahlil qilish, ya'ni, so'zning tarkibiy tahlilidan boshlanishi kerakligi haqida xulosa beriladi.

Аннотация: В статье анализируются понятия концепта, характерное для такой перспективной отрасли лингвистической науки, как когнитивная лингвистика. В статье также делается вывод о том, что анализ концепта и его составные части всегда следуют начинать с анализа структуры слова, то есть структурного анализа слова.

Abstract: The article is devoted to analyzes of the concept, characteristic of such a prospective branch of linguistic science as cognitive linguistics. The article also concludes that the analysis of the concept and its components should always begin with the analysis of the structure of the word, that is, the structural analysis of the word.

Kalit so'zlar: konsept, axborot, tafakkur, mantiqiy-mental jarayon, ma'no, konseptual qism, mantiqiy faoliyat.

Ключевые слова: концепт, информация, мышление, логико-мыслительный процесс, смысл, концептуальная часть, логическая деятельность.

Keywords: concept, information, thinking, logical-thinking process, meaning, conceptual part, logical activity.

Lingvomadaniyatshunoslik tilshunoslik va madaniyatshunoslikni lingvistik fan sifatida birlashtirib, xalq madaniyatining tilda namoyon bo'lishini o'rganadi. Til nafaqat madaniyat konseptlarinimunosabatlarinimustahkamlaydi va saqlaydi, balki ularni xalq yoki uning alohida ijtimoiy guruhlari mentalitetida avloddan-avlodga yetkazish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Lingvomadaniy konseptlarni o'rganish zamonaviy tilshunoslikda katta ahamiyatga ega.

Lisoniy faoliyatda voqelik haqida axborot jamlanib, bu axborot adresatga uzatiladi (aniqrog'i, axborot almashinuvi harakatlari bajariladi). Axborot jamlash lingvokognitiv jarayon bo'lib, bu jarayonda inson ongida idrok qilinayotgan voqelikning "lisoniy qiyofasi", obrazi shakllanadi. Borliq lisoniy qiyofasining shakllanishi oddiy jarayon emas, zero, tafakkur faoliyatining o'zi ham ko'p bosqichli bo'lganidek, yaratilgan kotseptning lisoniy

voqelanishi ham murakkab faoliyat natijasidir. Birgina konseptning shakllanish sharoitini olaylik: bu sharoitda ko'rish, his etish, tasavvur qilishdan boshlangan faoliyat obraz yaratilishi, tushuncha hosil bo'lishi kabi konseptual harakatlar majmuasi bilan boyib boradi. Bundan tashqari, bu majmua idrok etuvchi shaxsga xos bo'lgan individual belgilar hamda milliy-etnik ko'rsatkichlarni ham qamrab olishi aniq¹.

So'nggi o'n yilliklarning lingvistik adabiyoti shuni ko'rsatadiki, tadqiqotchilarning e'tiborini madaniyatshunoslik va antropotsentrik paradigmalar-tadqiqotchining qiziqishlarini tafakkur obyektlaridan subyektga o'tkazish, ya'ni tildagi shaxs va shaxsdagi til tahlili tobora ko'proq jalb qilmoqda². Oxirgi vaqtlarda o'tkazilgan ko'plab tadqiqot ishlarida konsept tushunchasiga tafakkurni shakllantiruvchi fikrlash birligi sifatida alohida e'tibor qaratilmoqda³. Konsept tushunchasi

¹ Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008. – 320 б.

² Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001. – 208 с.

³ Аскольдов С.А. Концепт и слово // Русская словесность. Антология. – М. Academia, 1997. – С. 267-279. Карасик В.И. Здравый смысл как лингвокультурный концепт // Концептуальное простр. языка: сб. науч. тр. – Тамбов, 2005. – С. 184-203. Кубрякова Е.С. Эволюция идей во второй половине XX в. // Язык и наука конца XX в. – М., 1995. – С. 144-238. Нелюбин Л.Л., Хухун Г.Т. Наука о переводе: учеб. пособие. – 2-е изд. – М.: Флинта: МПСИ, 2008. – 416 с. Пименова М.В. Введение в концептуальные исследования.

– Серия «Концептуальные исследования». – Вып.5. – Кемерово, 2006. – 150с. Попова З.Д., Стернин И.А. Очерки по когнитивной лингвистике. – Воронеж: Истоки, 2001. – 252 с.

Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008. – 320 б. Ashurova D.U., Galieva M.R. Stylistics of Literary Text. – Т., 2013. – 204 p.

tilshunoslik fanining kognitiv tilshunoslik kabi istiqbolli sohasiga xosdir. Ushbu tushunchaga parallel ravishda konsepsiya va konseptosfera deb ataluvchi kengroq ma'nodagi tushunchalar ham mavjud. M.V.Pimenovanning fikriga ko'ra, konseptni obyektivlashtirishning murakkab tizimiga ega bo'lgan milliy mental obraz sifatida tushunish mumkin⁴.

Sh.Safarov konseptlarning paydo bo'lishi haqida quyidagicha fikr bildiradi: "So'zsiz, har qanday lisoniy qurilma hosil bo'lishining dastlabki bosqichi idrok etilayotgan voqelikning ongdagi in'ikosi, yuzaga kelishi va uning tafakkurda "hazmutahlil qilinishi natijasida hosil bo'ladigan konseptning tug'ilishidir", keyingi ya'ni lisoniy voqelanish bosqichi esa turli xil amallardan iborat bo'lib, bu amallar til tizimi xususiyatlari bilan bog'liq holda kechadi"⁵.

Konseptlar, S.G.Vorkachevning fikricha, o'zida millatning ma'naviy boyligini mujassam etadi, ular xalqning ruhini aks ettiradi, bu ularning antropotsentrikligini – ma'naviyat, subyektivlik, ijtimoiylik va etnik tafakkur sohibining "shaxsiy sohasi"ga qaratilganligini belgilaydi⁶.

Har qanday lisoniy birlikning ijtimoiy-madaniy mazmunining shakllanishi, albatta, mantiqiy-mental jarayonni bosib o'tadi. Shuningdek, ma'noning konseptual qismini inkor etib bo'lmaydi. Konsept esa dastlabki o'rinda shaxsning lisoniy-mantiqiy faoliyati samarasidir⁷.

Konsept lingvistik vositalar hamkorligida voqelanadi. Bunga konseptning o'z nomi, shuningdek, konseptning mazmunini bevosita yoki bilvosita anglatadigan, aniqlashtiradigan va rivojlantiradigan til vositalari kiradi. Shuning uchun ham tadqiqot ishlarida konseptual tahlil usuliga murojaat etiladi, bundan maqsad: 1) madaniy ahamiyatga ega konseptlar paradigmasini aniqlash va ularning konseptosferasini tavsiflash, ya'ni ularning mental sohasini tashkil etuvchi komponentlar; 2) konseptning mazmunini: so'zning sinonimlari va ta'riflari, frazeologik birliklar, maqollar, aforizmlar, jumalarning

tarkibiy va semantik modellari, iboralar va nihoyat, konsept ishtirok etgan matnlarni aniqlash. Bularning barchasi alohida olingan konseptning mazmuni haqidagi bilim manbai hisoblanadi⁸.

"Menimcha, - deb yozadi professor Sh.Safarov, - botiniy strukturani konseptual jarayon, ya'ni borliq – predmet voqealarning idrok etilish va ularning ongli hazm etilishi jarayonida yuzaga keladigan hodisa sifatida talqin qilmoq kerak. Bu jarayonda yuzaga kelgan birlik - konsept haqiqiy ma'no birligiga aylanishi uchun u lisoniy qobiq olmog'i darkor, faqatgina lisoniy "libos" kiygan konseptgina lisoniy faoliyat vositasiga aylanadi, ma'lum mazmun ifodalovchi belgi sifatiga ega bo'ladi. Shu sababli ma'no yoki semantikani lingvokognitiv hodisa sifatida qabul qilgan ma'qulroq"⁹.

Y.S.Stepanov o'z tadqiqot ishlarida alohida olingan konseptlarning tarixini o'rganish muhimligini ta'kidlaydi. Konseptning mazmuni, garchi u ko'p asrlik rivojlanish tarixiga ega bo'lsa-da, ancha barqarordir. Shu munosabat bilan tilshunoslikda konseptlarni sinxron va diaxronik tavsiflash usullari qo'llaniladi. Aynan tarixiy o'zgarishlar konseptning "qatlamlil" tuzilishini belgilaydi, chunki har bir tarixiy bosqichda konseptning ko'plab ma'nolaridan biri dolzarb bo'lib qoladi¹⁰.

So'z konseptni voqelantiradigan rasmiy vosita hisoblanadi, so'z borliqdagi reallikning o'zini aks ettirmaydi, balki inson ongidagi ilgari joy olgan tasavvur va tushunchani "jonlantiradi". Leksikaning asosiy obyekti so'z ekan, so'zlar jamiyat hayotining barcha sohalari bilan bog'langan bo'ladi. Shuning uchun leksika, birinchidan, lingvistik tushuncha sifatida tilning lug'at boyligi sanalsa, ikkinchidan, barcha so'zlar va ularning ma'nolari o'rtasidagi semantik munosabatni ifoda etadi, uchinchidan, leksika "fan, san'at, madaniyat, tarix va shu kabi lingvistik bo'lmagan sohalari bilan bevosita bog'lanadi"¹¹. Shu munosabat bilan konsept va uning tarkibiy qismlarini tahlil qilish har doim so'zning tuzilishini tahlil qilish, ya'ni, uning tarkibiy tahlilidan boshlanadi.

4 Пименова М.В. Введение в концептуальные исследования. – Серия «Концептуальные исследования». – Вып.5. – Кемерово, 2006. – 150с.

5 Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008. – 320 б.

6 Воркачев С.Г. Сопоставительная этносемантика телеономных концептов «любовь» и «счастье». – Волгоград: Перемена, 2003. – 163 с.

7 Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008. – 320 б.

8 Катаева Н.М. Русский концепт «воля» (от словаря к тексту): дис. ... канд. филол. наук. – Екатеринбург, 2004. – 180 с.

9 Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008. – 320 б.

10 Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры: Изд. 3-е, испр. и доп. – М.: Академический Проект, 2004. – 992 с.

11 Уфимцева А.А. Опыт изучения лексики как системы. – Москва, Наука, 1962. – С. 17.

Konseptlarni o'rganishning tilshunoslik fanida ma'lum bo'lgan boshqa usullarini ham ta'kidlash lozim. S.E.Nikitina va Y.Bartminskiy madaniy matnlardagi konseptlarni o'rganishda "bo'laklarga bo'lib aniqlash usuli" (S.Nikitina terminologiyasiga ko'ra)¹² va "kognitiv ta'rif usuli" (Y.Bartminskiy terminologiyasiga ko'ra)dan foydalanganlar¹³. "Leksikaga xos lingvistik va nolingvistik belgilar badiiy matn tili leksikasiga ham tegishlidir. Uni sistema sifatida o'rganish hozirgi tilshunosligimizning dolzarb muammosidir"¹⁴.

Tadqiqot ishimizda "qarindoshlik" konseptining voqelanishi ingliz va o'zbek tillari misolida lingvomadaniy aspektda qiyosiy tahlilga tortilgan, zero, lingvomadaniy tushuncha sifatida "qarindoshlik" konsepti tilshunoslikda yetarlicha o'rganilmagan. V.I.Karasikning ilmiy tadqiqot ishlarida "qarindoshlik" konsepti eslatib o'tilgan, u ushbu konseptni "ta'sir", "mustaqillik", "bo'ysunish" kabi konseptlar bilan birga ko'rib chiqqan¹⁵.

Tilshunoslikda "qarindoshlik" tushunchasiga yaqin bo'lgan boshqa lingvomadaniy yoki oddiy konseptlarning verballashuvi o'rganilgan ishlar ham mavjud, bunday konseptlardan biri "oila" konsepti bo'lib, Y.V.Kamenskayaning fikriga ko'ra, "oila" konsepti tilning asosiy konseptlaridan biri hisoblanadi¹⁶. "Oila jamiyatning birinchi va birlamchi zarrasidir. Jamiyat ana shu kichik zarralardan tashkil topadi. Lekin u shunchaki zarra emas, tirik vujudlar ittifoqidir. Darhaqiqat, oila faqat er va xotinning o'zidan iborat emas. Oila er-xotin, ularning bola-chaqalari, eng yaqin tug'ishganlaridan iborat kishilar guruhi, boshqacha aytganda, xonadondir..."¹⁷.

M.A.Terpak leksik va frazeologik birliklar materialida "qarindoshlik munosabatlari" ingliz semantik maydonining konnotativ birliklari mazmunini o'rganadi. Qarindoshlik munosabatlarini u konseptosfera sifatida belgilaydi, va ingliz semantik maydonida "qarindoshlik munosabatlari" qarindoshlik atamaları, uy, oila, qon-qarindoshlik

munosabatlari va oilaviy qarindoshlik haqidagi jamoaviy g'oyalar bilan bog'liq nomlarda o'z ifodasini topadi¹⁸.

M.V.Matvyeva "oila" konseptini rus idiomatik tizimi asosida o'rganadi va uning tarkibida "qondosh qarindoshlar"dan tashqari "qondosh bo'lmagan qarindoshlar" munosabatlari mavjudligini ta'kidlaydi¹⁹. Tilshunoslikda "qarindoshlik" lingvomadaniy konseptiga yaqin bo'lgan "oila" konsepti bilan bir qatorda, "shaxs" va "bola" konseptlari o'rganilgan²⁰.

Konseptni tadqiq qilish haqida gapirganda, konseptni ko'p jihatli hodisa sifatida tavsiflash bir qancha usullar to'plami yordamida amalga oshirilishi mumkinligini ta'kidlash joiz. Buning uchun komponent tahlil usuli; ta'riflash; kontekst tahlil; qiyosiy tahlil (turli tillardagi ma'lumotlarni taqqoslash); freym tahlili; psixologiya va sotsiologiyada qo'llaniladigan ochiq intervyular; til sohiblari eng muhim manba hisoblangan eksperimental-kognitiv tilshunoslik texnikasi; frazeologik va paremiologik tahlil; matnni lingvomadaniy tahlil qilish va milliy falsafiy kontekstni tahlil qilish kabi usullarni o'z ichiga olgan lisoniy, psixolingvistik, lingvomadaniy kabi usullar qo'llaniladi²¹.

"Konsept" atamasi bir qancha ilmiy yo'nalishlar: birinchi navbatda, fikrlash va bilish, axborotni saqlash va qayta ishlash muammolari bilan shug'ullanadigan kognitiv psixologiya va kognitiv tilshunoslik, shuningdek, asosiy kategoriyalari orqali shakllangan nazariya chegaralarida aniqlanadigan va takomillashtiriladigan lingvomadaniyatshunoslikning mavzu sohalari qamrab oladi. Rus mutafakkiri S.A.Askoldov (1870-1945), birinchilardan bo'lib "konsept" so'zini zamonaviy gumanitar bilimlar sohasiga kiritgan. S.A.Askoldov uchun konsept fikrlash jarayonida bir xil turdagi obyektlarning noaniq to'plamini anglatadigan tafakkur shakllanishidir²². Inson tafakkur qilish jarayonida yangi sinflarni shakllantirib,

12 Никитина С.Е. О концептуальном анализе в народной культуре // Культурные концепты. – М.: Наука, 1991. – С. 109-117.

13 Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001. – 208 с.

14 Матвеева М.В. Концепт «семья» и его репрезентация в русском языке: дис...канд. филол. наук. – Тамбов, 2007. – 249 с.

15 Карасик В.И. Здравый смысл как лингвокультурный концепт // Концептуальное простр. языка: сб. науч. тр. – Тамбов, 2005. – С. 184-203.

16 Каменская Ю.В. Фрейд «семья» в диалектной картине мира // Альманах современной науки и образования. – Тамбов, 2008. – № 8 [15]. – С.79-82.

17 Ibrohimov A., Sul'tonov X., Jo'raev N. Vatan tuyg'usi. – T., 1996. – В. 81-82.

18 Терпак М.А. Английский лингвокультурный концепт «семья» и способы отражения его коннотативного содержания в языке: на материале семантического поля «Родственные отношения»: дис. ... канд. филол. наук. – Самара 2006. – 204 с.

19 Матвеева М.В. Концепт «семья» и его репрезентация в русском языке: дис...канд. филол. наук. – Тамбов, 2007. – 249 с.

20 Джамбаева Ж.А. Коцепты «человек», «семья» «ребенок» в языковом сознании русских казахстанцев. – Polska: Nauka I studia, 2009 - С. 74-82.

21 Чернейко Л.О., Долинский В.А. Имя СУДЬБА как объект концептуального и ассоциативного анализа // Вестник МГУ Сер.9: Филология. – 1996. – №6. – С. 20-41.

22 Зусман В.Г. Концепт в системе гуманитарного знания: понятие и концепт // Вопросы литературы. – 2003. – №2. – С. 3-29.

konseptlar orqali fikr yuritadi. Fikrlash esa, o'z navbatida, "konseptlar bilimlarning tuzilishida global birliklar vazifasini o'taydi"²³. Til esa, Z.D.Popova, I.A.Sterninlar ta'rifi bilan aytganda, "inson tafakkurida konseptlarni shakllantirish vositalaridan biridir"²⁴.

"Konsept – insonning mental olamidagi madaniyatning asosiy yacheykasi bo'lib hisoblanadi. Konsept tuzilishiga ko'ra uch qatlamdan iborat: birinchi qatlamini" asosiy, faol xususiyatlar; ikkinchisini qo'shimcha, ayni paytda nafaol bo'lgan, tarixiy, ya'ni "passiv" xususiyatlar, uchinchi qatlamini esa ichki shakl tashkil qiladi. "A.Vejbiskaya qo'llagan "semantik primitiv" tushunchasi

voqea-predmetlar idrokining ibtidosi bo'lib (shu sababli bu atamani o'zbek tiliga "ibtidoiy ma'no bo'laklari" deb tarjima qilish mumkin – Sh.Safarov), ularning birikishi natijasida elementar (oddiy) va murakkab konseptlar hosil bo'ladi²⁵. Umumiylik asosan shu oddiy, dastlabki konseptual birliklarga xosdir. Ularning turli birikishlaridan hosil bo'ladigan murakkab konseptlar esa umumiylikdan ancha uzoqlashib, xususiylikka intiladilar. Bunday xususiylik idioetnik, ya'ni milliy-madaniy mazmun oladi. Konseptual faoliyatga xos bo'lgan ushbu milliy- madaniy mazmun muloqot tizimida o'z aksini topmay qolmaydi.

TELEVIZION OBRAZLAR EVOLUTSIYASI

Nilufar Umirzakova - mustaqil tadqiqotchi, O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotasiya: Maqolada mamlakat o'z siyosatini mustahkamlash uchun televizion obrazlardan qanday foydalanganligi va foydalanayotgani haqida so'z boradi. Obraz ko'rsatuv jarayonida yuzaga kelishi misollar asosida tahlili qilinib, evolyusiyasi qanday o'zgarishlarga yuz tutganligi borasida so'z boradi.

АННОТАЦИЯ: В статье рассказывается о том, как страна использовала и использует телевизионные образы для усиления своей политики. На основе примеров анализируется возникновение образа в процессе презентации, обсуждается эволюция образа.

Abstract: The article talks about how the country has used and is using television images to strengthen its politics. On the basis of examples, the emergence of an image during the presentation is analyzed, and the evolution of the image is discussed.

Kalit so'zlar: televizion obraz, televideniya, evolyutsiya, tomoshabin, qahramon, boshlovchi, ko'rsatuv.

Ключевые слова: телеперсонаж, телевидение, эволюция, зритель, герой, ведущий, шоу.

Keywords: television character, television, evolution, spectator, hero, presenter, show.

Televizion obrazlar – jamiyatdagi o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lib, o'sha davr siyosatini teleloyihalarda aks etuvchi qahramonlar va ishtirokchilar orqali namoyon etib, insonlar ongiga kirib boradi. Obrazning ta'sir kuchi ichki dunyomiz va hayot tarzimizni o'zgartirish qudratiga ega.

Masalan, ba'zi vizual obrazlar omma ongiga ta'sir qilib, millionlab odamlar xotirasiga singdirilib, ular uchun ma'budga aylangan¹. Mamlakat o'z siyosatini mustahkamlash uchun televizion obrazlardan oqilona foydalanadi. Sobiq Sho'ro, qayta qurish va mustaqillik davrlarini tahlil qilsak, har birida davr qahramoni bir–birini takrorlamaydigan

va o'ziga xos. Televizion obrazlar ham shunga asosan yaratilgan.

Televizion obrazlar evolyutsiyasini uch bosqichda ko'rib chiqamiz:

1. Sobiq Ittifoq davri 1956–1985-yillar;
2. Qayta qurish yillari 1985-1991-yillar;
3. Mustaqillik davri 1991-yildan

hozirgacha.

O'zbekiston televideniya – o'sha davr mafkurasiga ko'ra, 15 ta respublika qatorida sobiq Ittifoq bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Oflayn rejimida ishga tushgan har bir respublika televideniya yagona tizimda faoliyat olib borayotganligini his qilgan va shunday yo'l tutgan.

Tadqiqotchi V.V.Yegorovni ta'kidlashicha, "Sovet televideniya negizi kommunistik partiya tomonidan televideniya oldiga qo'yilgan vazifalar bilan belgilangan"². Bu hozirgi MDH davlatlarining barchasiga tegishli bo'lgan. 1956–yil 5–noyabrda vatanimizda oq–qora tasvirda oynai jahon o'z ishini boshlagan bo'lsa, efir vaqti 2 soat bo'lib, badiiy yoki hujjatli filmlar va yozib olingan konsertlar namoyish etilar edi. 1960–yillardan boshlab, asta–sekinlik bilan teleloyihalar tayyorlana boshlandi. Qolip (takror bo'lsa ham aytamiz) sobiq Ittifoq respublikalari uchun deyarli bir xil bo'lgan. Televideniya dunyoda va o'z hududida bo'layotgan voqea–hodisalar haqida real ma'lumot berish bilan emas, balki mamlakat siyosatini targ'ib qilish bilan shug'ullangan. Televizion obrazlar ham shu siyosat asnosida yaratilgan va taqdim etilgan.

Teleboshlovchi sifatida avvaliga radiodan diktorlar taklif qilinib, maxsus tanlovdan o'tib efirga chiqishgan. Zangori ekran xonadonlarga kirib borgan yillari bu tarzdagi tanlov hozirgi MDH mamlakatlarining barchasida kuzatilgan. Teleboshlovchi obrazi ham deyarli bir xil qolipda bo'lib, mumtoz uslub yozilmagan qoida sifatida ko'rilgan. Nutqda adabiy til normalariga, harflar va so'zlar dona–dona talaffuziga, ifoda vositalarining barchasiga qat'iy rioya qilingan. Har bir diktor telekanalning "yuzi" bo'libgina qolmay, balki mamlakat imiji sifatida ekranda namoyon bo'lgan. Chunki qayta qurish davrigacha deyarli har qanday teleloyiha, axborot dasturlaridan tortib ijtimoiy–siyosiy, badiiy–dramatik, ko'ngilochar dasturlargacha diktorlar tomonidan taqdim etilgan.

– Men kosmonavlardan intervyu olganman, Shostakovich, Pliseskaya, Vishnevskaya, Muxtor Ashrafiy, Tamaraxonim, O'zbekistonning mashhur yozuvchilari va shoirlari bilan suhbatlashganman³.

Oliy toifali suxandon, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, ko'pchilik diktorlarning ustoz Galina Melnikovaning bu xotiralari sobiq Ittifoq davri bilan bog'liq. Yana olimlar va ishchi–xizmatchilar, paxtakorlar bilan bo'lgan davra suhbatlarini yodga oladi. Tabiiyki, aynan shu ro'yxat ko'rsatuvlardagi "qahramon" lar obrazidir. Teleloyihada ko'rsatuv qahramoni – hamisha ham qaysidir sohadagi g'olibga nisbatan emas, balki o'sha kontent ishtirokchisiga nisbatan ishlatiladi.

1973-1974-yillarda televideniya radioda efirga uzatilgan qator turkum loyihalar Chirchiq

elektrokimyo zavodi kollektiviga bag'ishlangan bo'lib, ijtimoiy faoliyati, kommunistik ruhda mehnatga raqobatbardoshlikni oshirishga bo'lgan munosabati yoritilgan⁴. O'zbekiston televideniya keltirilgan shu misol bilan sobiq Ittifoq respublikalarining teleefirlarini tasavvur qilishimiz mumkin. Zangori ekranda dasturlar, ko'rsatuv ishtirokchilarining obrazi ham farmon va buyruq asosida yuqoridan ya'ni Moskvadan kelgan. Bir necha o'n yilliklar davomida televideniya maqomi jihatidan davlat xavfsizligi kabi tuzilma bilan bir qatorda bo'lgan.

1970-yillarning oxirida rangli televideniya tomoshabinlar uchun loyihalarini taqdim eta boshladi. O'zbekiston televideniya dasturidagi ilk katta teleloyihalardan biri telespektakldir. Ulardan maqsad – aholini ya'ni ko'p sonli tomoshabinni adabiyot bilan yanada uzviy bog'lash. Haftaning har dushanba kuni jonli telepostanovka namoyish etilgan. Telesardagi ijobiy yoki salbiy obraz orqali vafo–sadoqat, vatanparvarlik va mehnatkashlikka targ'ib qilish asosiy maqsadlardan biri bo'lgan. Chunki ekran orqali asardagi qahramonlar obrazini gavdalantirayotgan aktyor o'z imkoniyatlarini ishga solib, kitob sahifalaridagi yashirin "sir" ni tomoshabin qalbiga olib kiradiki, bu televideniyaning o'ziga xos imkoniyatlaridan yana bir dalolatdir⁵. So'ng telespektakllar o'rnini Televizion miniatyuralar teatri, "O'talar so'zi – aqlning ko'zi" kabi loyihalar, "Bahor qaytmaydi", "Girdob" kabi ko'p qismli videofilmlar egallay boshladi. Televideniya mahsuloti bo'lgan bu asarlardagi ijobiy qahramonlar tomoshabin ongiga shunday singdirilganki, ko'cha–ko'ya, hatto, o'z oila davrasida ham ijobiy obrazga taqlid qilish urfga kirgan. Shu tarzda televizion obrazlar jamiyatdagi insonlar hayotiga ta'sir qilib, odamlar o'zlaridagi kamchiliklardan uyalib, bu qusurlardan qutilishga harakat qilishgan.

"Oq oltin" deb ta'rif berilgan, mamlakat qishloq xo'jaligining asosiy "yuzi" hisoblangan paxta, paxtakorlar haqida ko'rsatuvlar tayyorlangan. Televideniya paxta obrazini ideallashtirib, "Paxtaoy" nomli ansambllar, g'oz va paxta ekinlari birinchi planga olib chiqilgan ko'rsatuv va videofilmlar tayyorlangan.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbekiston televideniya 1960-1970-yillardan boshlab teleloyihalar sonini ko'paytirib bordi. Televizion obraz sifatida ilm–fan fidoiylari,

1 Тофлер Э. Третья волна. – М., 2004 // Электронная публикация: Центр гуманитарных технологий, 2011. <https://gtmarket.ru/library/basis/4821/4824>.

23 Зусман В.Г. Концепт в системе гуманитарного знания: понятие и концепт // Вопросы литературы. – 2003. – №2. – С. 3-29.

24 Попова З.Д., Стернин И.А. Очерки по когнитивной лингвистике. – Воронеж: Истоки, 2001. – 252 с

25 Danieva M.Dj. Ingliz tilida otli so'z birikmalarining matn shakllantirish imkoniyatlari. – Toshkent: Mehridayo, 2018. – 72 b

2 Егоров В.В. Теория и практика советского телевидения. М.: Высшая школа, 1980. – с. 10.

3 Мельникова Г.В. Галина Мельникова: независимость дала Узбекистану большие возможности. Т.: Спутник, 2016.

4 Есин А. Радио и телевидение Узбекистана: рост, достижения, проблемы. – Т.: "Узбекистан" 1975. – с. 94.

5 Утаев У. Телевидение – табаррук маскан. – Т.: "Узбекистон", 2010. – б. 11–12.

turli sohadagi ishchi-xizmatchilar ham birinchi planga chiqarildi. XX asrning 60-yillari Tursunoy Oxunova paxta terish mashinasiga o'tirgan birinchi o'zbek mexanizator ayoli teleekran qahramoni sifatida yillar davomida ulug'langan. Shu obraz orqali mamlakatdagi boshqa xotin – qizlar ham mexanizatorlikka da'vat qilingan va natijada minglab ayollar paxtani mashinada tera boshlaganlar. Birinchi mexanizator ayolning obrazi shu qadar ideallashtirilganki, o'shanda "Tursunoychilar" umumittifoq harakati shakllangan. Sobiq Ittifoq mafkurasining targ'ibotiga ko'ra, ikki karra Ittifoq bo'yicha Mehnat Qahramoni, 1960-yilda 322 tonna "oq oltin" tergan Tursunoy Oxunova hamisha baxtli, sog'lom qiyofada ko'rsatilgan. Shifokorlarning xulosasiga ko'ra, 47 yoshida paxta dalalaridagi kimyolangan changdan zaharlanish natijasida o'pka kasallanishi tufayli olamdan o'tgan bu "qahramon" haqidagi haqiqatlar keyin oshkor bo'ldi. O'sha davr siyosatiga ko'ra, davlat darajasida namuna sifatida namoyish etilgan va targ'ib qilingan bu obraz mutloq idealga yaqin va sog'lom bo'lishi kerak edi. Endi tuzum o'zgardi, davr o'zgardi, jamiyat o'zgardi, muxbirning ko'z qarashi, nigohi o'zgardi⁶.

1980-yillar oxiriga kelib sobiq Ittifoq respublikalarida global siyosiy o'zgarishlar boshlanib, tabiiyki, televideniya ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Televideniya ko'rsatuvlarga yangi "havo" kirib, tijoriy loyihalar ham sekin-asta o'z ishini boshladi. Tabiiyki, ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar telekontentdagi obrazi orqali ommaga tanila boshladi. Yoshlar mavzulariga keng o'rin berildi.

Televideniye nodavlat iqtisodiyotning eng jozibador va jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylandi⁷. Reklama dasturlari sekin-asta shakllana bordi. Endi, moddiy mablag'i ko'p inson obrazi salbiy emas, maqtoqli qarashlarga sazovor bo'lib, targ'ibot mavzusiga aylana bordi.

Ittifoq parchalangach, barcha sobiq Sho'ro respublikalari uchun xorij telekanallarini tomosha qilish, o'rganish uchun yo'l ochildi. Qayta qurish 1985-yildan boshlangan bo'lsa, yaqin tarixda sodir bo'lgan manbalarni o'rgansak, ommaviy axborot vositalardagi o'zgarishlar, avvalo, matbuotdan boshlangan. Qadam ba qadam radio va televideniya keskin islohotlar boshlandi.

Nafaqat teledasturlar, balki boshlovchilari ham afsonalarga aylanishgan⁸. Yangi teleloyihalar tufayli odamlarning dunyoqarashi o'zgarib bordi. Ko'rsatuv ishtirokchilari turli sohadagi oddiy odamlardan iborat bo'la boshladi. Jonli efirlar boshlanib, tomoshabinlar bilan interaktiv muloqotga kirishish, har sohada ularni fikrini eshitib, muhokama qilish dolzarb tus ola boshladi.

Oliy majlisning 15 dan ortiq sessiyalari to'g'ridan to'g'ri yoritilib, tomoshabin ko'z o'ngida siyosiy arbobning jonli obrazi namoyon bo'la boshlagan. Ommaviy axborot vositalari to'rtinchi hokimiyat darajasiga ko'tarilib, jurnalistlar jamiyatning ilg'or sinfiga aylanib bordi⁹.

O'zbekiston televideniya tarixida ilk bor 1990-yil 21-martda 24 soatlik jonli "Navro'z" xayriya telemarafoni o'tkaziladi. 24 soat deb e'lon qilingan bo'lsa-da, 25 soat 9 daqiqa davom etdi. Aynan shu davrda, yoshlarning televideniya obrazi ommaga chiqib boshladi. Teleboshlovchi obrazida mualliflik ko'rsatuvlari bilan yosh jurnalistlar chiqib boshladi. Yangi informatsion dasturlar shakllanib, Said Hidoyatov, Furqat Zokirov kabi jurnalistlar muallif va boshlovchi sifatida lavhalar tayyorlashganini hozirgacha tomoshabinlar yodga olishadi.

Dinga bo'lgan munosabat ijobiy tomonga o'zgardi: sobiq sovet tizimining dinga ateistik hujumkorlik siyosatiga barham berildi, vijdon erkinligi qonun orqali kafolatlandi¹⁰. E'tiqod erkinligi sabab, din vakillari telekanallarda ham boshlovchi, ham qahramon obrazlarida namoyon bo'la boshladilar. O'tish davridan bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida "O'zbek modeli" rivojlanishni boshlagan bir vaqtda xalq televizorga ko'z tikib, islohotlar burilishini kuzata boshladi. Ko'ppartiyaviylikka yo'l ochilib, siyosiy arboblarning qiyofasi shakllana boshladi. Mulkdorlar, ishlab chiqaruvchilarga erkinlik berilib tadbirkor obrazi paydo bo'la boshladi.

Mustaqillik pallasida mamlakat ayollarining ijtimoiy hayotda erishayotgan muvaffaqiyatlari va siyosatga tutayotgan o'rnini haqida hikoya qiluvchi xotin-qizlar haqida dasturlar orqali O'zbekiston ayollarining televideniya obrazi yuzaga chiqib boshladi. Masalan, jurnalist Nafisa Zohidova muallif va boshlovchiligidagi "Ajab saodat erur", Umida Usmonovaning "Azizim", Nilufar Umrzoqovaning "Begoyim" nomli ko'rsatuvlari bunga misol. Teleloyihalarda ayollar obrazi

6 Махамедов М. Умр лаҳзалари. Режиссёрнинг ҳаёт кечинмалари. – Т.: Адабиёт учқунлари. 2018. – б. 30.

7 Васильев С.А. Отечественный телевизионный рынок: возникновение, становление и тенденции развития. Мир России, 1997. – с. 4.

8 Алиева А.Г. Телевидение СССР в период перестройки: легенды и уроки. Санкт-Петербург, 2016. – с. 28.

9 Асадуллаев М. Телевидение на заре и в амаль асослари. – Т.: Мумтоз сўз. 2021. – б. 458.

10 Тошкент Ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти "Диншунослик" фанидан ўқув қўлланма. – Т.: 2019. – б. 6.

turli ravishda taqdim etilgan. Bosh vazir o'rinbosaridan boshlab, farrosh ayolgacha ko'rsatuv qahramoni sifatida yoritilgan.

Yangi avlod bilimdonlarining televideniya obrazi vujudga kelishida "Zakovat" intellektual teleloyihasi o'rnini beqiyos. Ko'rsatuv muallifi va boshlovchisi Rasul Abdullayev Rossiya telekanallarida efirda ketadigan "Что? Где? Когда" ko'rsatuvidan ruxsat olib, dasturni boshlagan. "Что? Где? Когда" 1975-yildan hozirgacha tomoshabinlarga taqdim etilayotgan bo'lsa, "Zakovat" intellektual o'yini 2001-yildan beri auditoriyasini kengaytirmoqda. Televideniya obrazlar evolutsiyasining ikkinchi va uchinchi guruhlariga kiruvchi bu interaktiv dastur bilimdon va iqtidorli yoshlar obrazini ommaga olib chiqib, hozirgacha targ'ib qilayapti. Bilimdonlar obrazi hech qachon "eskimasligi" va urfdan qolmasligiga "Zakovat" misol bo'la oladi.

2016-yil Shavkat Mirziyoyev prezidentlikka saylangach, O'zbekiston yana bir yangi davrni boshdan kechira boshladi. O'zbekiston aholisi uchun yurt rahbari obrazi ijobiy tus ola boshladi. Prezident Mirziyoyev o'z fuqarolarini 2017-yil kirib kelishi arafasida televideniya orqali tabrikladi. Bu holat 1992-yildan buyon zangori ekranda kuzatilmagan, yangi yil kirib kelishiga sanoqli daqiqalar qolganida prezident nomidan matnni diktorlar rus va o'zbek tilida o'qib berar edilar. Prezident ommaviy axborot vositalariga, shuningdek ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyatga ham erkinlik berdiki, blogerlar obrazi paydo bo'ldi.

COVID-19 butun dunyo odamlarini hayotini o'zgartirgan bo'lsa, ommaviy axborot vositalariga ham bevosita, ham bilvosita

ta'sir qildi. Jahon televideniya qayta isloh qilinganidek, faqat tibbiyotga aloqador chiqishlar qila boshladi, shu jumladan, O'zbekistondagi televideniya ham. Ko'rsatuv boshlovchilari, ishtirokchilari va qahramonlar ham salomatlik bilan bog'liq kontentlarda so'zlay boshladilar. Jonli efirlar ham asosan savol-javoblar asosida bo'lib, asosiy qahramon shifokorlardan iborat bo'ldi. Onlayn dars orqali pedagog teleobraz qiyofasida har kuni zangori ekran orqali dars o'ta boshladi. Telekanallar o'z dasturlarini o'zgartirdilar. Keyingi avlod televideniya bu davrni teleobrazlar niqoblarda deb eslasa, ajab emas.

Odamlar ongini manipulyatsiya qilishning eng samarali usullaridan biri televideniya¹¹. Ko'rsatuvda namoyish etilgan obraz-ta'siri nuqtayi nazaridan inson taqdirini o'zgartirish qudratiga ega. Chunki zangori ekrandagi vizual va audiovizual loyihalar inson fikri va xulqi atvori, hatto, e'tiqodiga ta'sir qiladi.

Televideniya obrazlar tomoshabiniga ta'sir qilib, uni hayotini o'zgartirish qudratiga ega bo'lishi bilan birga, mamlakat imiji haqida ham so'zlaydi. O'zbekiston haqida tasavvurga ega bo'lishni istaydigan mamlakat tashqarisidagi tomoshabin zangori ekrandagi ko'rsatuvlar, teleseriallar, ulardagi obrazlarga qarab mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy holati haqida xulosaga kelishi mumkin.

Televideniya obrazlar evolutsiyasi shuni ko'rsatayotgani, insonlarni mulohazaga chorlovchi, real hayotdan so'zlovchi intellektual dasturlarning umri uzoq bo'ladi. Xuddi, informatsion ko'rsatuvlar, "Zakovat" bilimdonlar teleloyihasi kabi. Ammo ma'lumot oqimi inson ongini egallayvergach, ehtiyojga qarab janrlar ham o'zgacha tus olib, obrazlarga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

11 Попова А. Манипуляции на телевидении как фактор формирования общественного мнения. Science Time. Журнал, 2016. – с. 38.

CHET TILINI O'QITISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

Aziza Botirovna Musoyeva - o'qituvchi, Samarqand davlat chet tillar instituti

Annotatsiya: Ushbu maqola mamlakatimizda chet tilini o'qitishdagi mavjud muammolar va ularning yechimlariga qaratilgan bo'lib, so'nggi yillarda chet tilini o'qitishda yuzaga kelayotgan muammolarga yechim izlashga harakat qilingan. Maqolada chet tillar bo'yicha umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi loyihasi ishlab chiqilganligiga alohida urg'u berilgan. Shuningdek, maqolada Milliy o'quv dasturi yaratuvchilarining olib borgan izlanishlari, o'tgan yillar mobaynida mamlakatimizda chet tili fanlarini o'qitishda bir qancha muammolar va ularning yechimlari haqida to'xtalib o'tilgan va takliflar berilgan.

Аннотация: Данная статья посвящена существующим проблемам преподавания иностранных языков в нашей стране и их решениям, а также предпринята попытка поиска решений проблем, возникших в преподавании иностранных языков в последние годы. В статье особый акцент сделан на разработку проекта Национальной учебной программы общего среднего образования на иностранных языках. Также в статье были рассмотрены исследования, проведенные создателями Национальной учебной программы, ряд проблем в преподавании иностранных языков в нашей стране за последние годы и пути их решения, а также внесены предложения.

Abstract: This essay is dedicated to current issues and solutions in foreign language teaching in our country, and an attempt is made to search out barriers that have been dealt with in recent years with foreign language teaching. The attempt to design the National Curriculum for General Secondary Education and Foreign Languages is emphasized in the article. In addition, it discusses research assessments, the implementation of a national educational program, a number of problems, and the teaching of foreign languages in our country throughout the previous year. Decisions and suggestions were made in each of these categories.

Kalit so'zlar: Motivatsion xususiyatli muammolar; Mazmun-mundarija bilan bog'liq muammolar; Til bilish darajasi bilan bog'liq muammolar; Metodik xarakterdagi muammolar; Kadrlar bilan bog'liq muammolar.

Ключевые слова: мотивационные проблемы; проблемы с контентом; языковые проблемы; Методологические проблемы; Кадровые вопросы.

Keywords: Motivational problems; Content issues; Language problems; Methodological problems; Staffing issues.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar natijasida ta'lim tizimini tubdan isloh qilindi, ta'lim jarayonini umumjahon ta'lim standartlari va milliy qadriyatlarimizga mos tarzda tashkil etish hamda ta'limning uzviyligiga yo'naltirilgan davlat ta'lim standartlari qabul qilinib, amaliyotga tatbiq qilindi. Xususan, Respublikamizda ta'lim sohasida o'tkazilayotgan islohotlar tufayli uzluksiz ta'limning bo'g'inlarida barcha fanlarni o'qitishda kompetensiyaviy yondashuvning tatbiq etilishi o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim bosqichlarida kasbiy kompetentlikka e'tiborni kuchaytirdi. Ingliz tilini xalqaro standartlar darajasida zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalar yordamida o'rganish dunyoning yetakchi universitetlari, til markazlari va

ilmiy-izlanish muassasalarida tatbiq qilinib kelinmoqda. Yurtimizda ham ingliz tilini o'qitishda juda katta e'tibor berilgan bo'lib, so'nggi yillarda uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish maqsadida bir qator islohotlar amalga oshirildi¹.

Bilamizki, chet tillari fanini o'qitishni rivojlantirish kontsepsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son farmoni asosida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga murojaatnomasida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan. Mazkur konsepsiya o'z oldiga juda ko'p maqsad va vazifalarni qo'yadi, shuningdek,

muammolarga amaliy yordam berishga zamin yaratadi².

Yuqorida keltirilgan kontsepsiya doirasida chet tillar bo'yicha umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi loyihasi ishlab chiqildi. Milliy o'quv dasturi yaratuvchilarining ta'kidlashicha, qilingan sa'y-harakatlar natijasi sifatida ko'plab yutuqlarni sanash mumkin, ammo tizimda bir qator qayta ko'rinishga ehtiyoj sezilgan muammoli vaziyatlar ham mavjud.

Birinchidan, uslubchi mutaxassislar va olimlarning yetishmasligi bo'lib, bu talabalar va kurs tinglovchilarining metodik tayyorgarligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Amaldagi uslubchi mutaxassislar e'tiborini esa o'qituvchilarga mentorlik qilishdan ko'ra, ko'proq normativ hujjatlarga vaqt va energiya sarflash qiziqtiradi va bu o'z-o'zidan ta'lim sifatiga juda katta ta'sir ko'rsatmoqda.

Ikkinchidan, xalq ta'limida chet tillarni o'qitishda nomukamalliklar tufayli oliy ta'lim bitiruvchilarining nazariy tayyorgarligi hamda amaliy kompetensiyalari o'rtasidagi bog'lanishlarida bo'shliqlar yuzaga kelgan. Buning oqibatida, ta'lim tizimida raqobatdoshlik talablariga javob bermaydigan kadrlar sonining oshishiga sabab bo'lmoqda.

Uchinchidan, masofadan o'qitish hamda pedagog xodimlarning o'z ustida davomli va samarali ishlash tizimi yo'lga qo'yilmagan. Viloyat, tuman va shahar xalq ta'limi muassasalarida bevosita o'qituvchilar bilan ishlaydigan metodist (mentor)larning ilmiy saviyasi, metodik salohiyati va tashkilotchiligi borasida ham katta muammolar kuzatiladi.

Chet tillar bo'yicha umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi yaratuvchilarining olib borgan izlanishlari natijasida o'tgan yillar mobaynida mamlakatimizda chet tili fanlarini o'qitishda quyidagi muammolar kuzatilgani ma'lum bo'ldi:

- Motivatsion xususiyatli muammolar;
- Mazmun-mundarija bilan bog'liq muammolar;
- Til bilish darajasi bilan bog'liq muammolar;
- Metodik xarakterdagi muammolar;
- Kadrlar bilan bog'liq muammolar.

Ushbu loyiha bilan tanishgan holda, yuqorida sanab o'tilgan muammolarni jadval ko'rinishiga keltirdik va mavjud muammolarni tahlil qilgan holda ularga o'z yechimlarimizni taklif qildik (1-jadvalga qarang):

1-jadval
Chet tili fanlarini o'qitishdagi mavjud muammolar va ularning yechimlari

Mazmun	Mazmuni	Ularining yechimlari
Motivatsion xususiyatli muammolar	boshlang'ich va yuqori sinflarda ni o'rganishga bo'lgan qiziqchilikning kamligi;	u'larda motivatsiyani shakllan- tirishda shaxsiy-kasbiy hayoti va shahar muvaffaqiyatiga erishgan muvaffaqiyatlarini nazarda tutib ko'rib berish;
	yuqori sinflarda asosan o'qituvchi tomonidan faol usulda (teacher centered method) dastur olib borilishi;	o'quvchiga markazlashtirilgan (learner-centered method) yondashuvni joriy etish;
	Kommunikativ kompetensiyani o'zlashtirish uchun o'qituvchi uchun badek oson emasligi;	kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga doir ma'lumotlarni (ko'pdarajali) o'qitish texnikalarini o'zlashtirish;
	o'z ustida ishlash (muntazil ishlash) qobiliyatining yetishmasligi;	o'z ustida ishlash (muntazil ishlash) qobiliyatini turli virtual ta'lim vositalari (courses, OOOK, pol'yot expert) orqali shakllantirishni ta'kid etish;
	universitetga kirish imtihon topdirlarida faqat grammatik bilim katta bilim va ko'nikmalar talab etilishi;	chet til fanini o'qitish metodik muammolar ta'lim standartlari, o'qituvchilarning ta'lim dasturlari va o'qituvchilarning ta'lim dasturlari bilan integratsiya ko'rib chiqilishi (o'qituvchi, yozuvchi, gapiruvchi) asosida takomillashtirish;
Mazmun-mundarija bilan bog'liq muammolar	darajalar yaratishda sifato-sifatning yetishmasligi;	darajalar yaratishda yangi texnologiyalardan foydalanish va sifato-sifatda o'zgarishni ta'kid etish; milliy kollektor bilan uyg'unlashtirish;
	yaratilgan darajalar bir-biri bilan moslashmaydigan darajalar bo'lmishi, shuningdek, darajalar yaratishda sifato-sifatning yetishmasligi;	Darajalar yaratishda sifato-sifat darajasi ko'ra mutabiq sifatlanish uchun ularga darajaga ko'ra bosqichlarga qaratish (start, beginner, pre-intermediate, intermediate, upper-intermediate, advanced);
	yuqori sinf darajalarida kreativ va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga asoslangan ko'nikmalar qayri sinf darajalariga yetarli darajada keltirilmaganligi;	O'qituvchilarning tayyorgarligini o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi tahlil (needs analysis) o'tkazib materiallarni mazkur tahlilga asosan ta'kid qilish;
	yuqori sinflarda darajalarida yangi so'zlar mgir tilda o'rganilganligi va bu ko'nikmalar qayri sinflar bo'lib o'tkazilishi bilan kuzatilganligi;	so'zlar o'qituvchilarning qo'lida yoki maqbul o'qituvchi materiallari sifatida qo'llash amaliyotini yo'lga qo'yish hamda darajalar sifatini oshirish;
	darajalar va boshqa o'qituvchi materiallarning asosini yaratish va bayon qilishga qaratilganligi;	O'qituvchi materiallari bir tili (monolingual) itoli lug'atlar, mavzulashtirilgan adabiyotlar hamda autentik materiallar bilan boyitish;
	asbortu maqtalish, ta'kid qilish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilmaganligi;	Ko'nikmalar rivojlantirishda asbortu maqtalish va tanqidiy fikrlash uchun maqtalish berishga yordam beruvchi onlayn platformalar, maqtalish ham (sketch engine, H5P)dan maqtalish foydalanish yo'lga qo'yish;
sinflar kechirilgan bilim, ko'nikma va maqtalish darajalarini talabkor bo'lmishi o'qituvchi uchun o'qituvchi qiyinchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish chora-tadbirlarini tuzishdagi muammolar;	Mavjud qiyinchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etishda psixolog-metaxassislar va o'qituvchi bilan hamkorlikda ishlash, ta'lim tizimiga, davra olib o'tishni ta'kid etish [5].	

2 O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligi va Respublika Ta'limi markazining "Umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturi: chet tillar (ingliz, fransuz, nemis)". Toshkent, 2020. -48 b.
3 Riskulova, K.J. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari sotsiologik kompetentligini shakllantirish tizimi. Avtoref.diss. ... ped.fan.fan.dok. - Toshkent.: - 2017, 14 b.
4 Алмазова Н.И. Формирование межкультурной компетенции при обучении иностранному языку в экономическом вузе. Автореф.дiss. ... док. пед. наук. - Санкт-Петербург.: -2003. 43-б.

resurslaridan foydalanish (resurs ta'minlash moduli), shakllantirish jarayonining mazmuni va uning texnologik ta'minoti (zarur bilimlarni o'zlashtirishning o'ziga xos-kontentli usullarini aks ettiruvchi funksional-mazmuniy moduli) (nazariy va texnologik blok), OTMning o'quv va darsdan tashqari ish imkoniyatlari (kasbiy-tarbiyaviy bloki), uning ilmiy faoliyatini tashkil etish (ilmiy-pedagogik ta'minot bloki) va oraliq va yakuniy attestatsiya (kvalimetrik blok), pedagogik monitoringni tashkil etish va amalga oshirish bo'yicha faoliyat (natijamonitoring moduli) talabalar orasida mos kompetensiyalarni shakllanish darajasini aks ettiradi⁶.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida o'quvchilarning oilalari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarni shakllantirish bo'yicha maxsus tashkil etilgan tadbirlardan maqsad bu jarayonning samarali bo'lishiga sharoit yaratishdan iborat. Bunday sharoitlarni yaratish quyidagi aniq vazifalarni hal qilishni o'z ichiga oladi:

- ishlab chiqilishi bizni qiziqtirgan kompetensiyani shakllantirish vositasi bo'lgan o'quv fanlari bo'yicha o'quv rejalari va dasturlari mazmunini aniqlashtirish;

- bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida o'quvchilarning oilalari bilan hamkorlik munosabatlarini o'rnatishda kompetensiyaning mazmunli elementlari sifatida qobiliyatlarni rivojlantirish;

- turli toifadagi kattalar bilan psixologik aloqa o'rnatishga imkon beruvchi o'quvchilarning shaxsiy fazilatlarini shakllantirish

- o'quvchilarning psixologik savodxonligini oshirish uchun sharoit yaratish;

- OTM o'qituvchilarini tegishli tadbirlarga tayyorlash.

Tashkiliy-protsessual modul OTMda bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining o'quvchilarning oilalari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish uchun kasbiy tayyorgarligini tashkil etish jarayonining ramziy tavsifini o'z ichiga oladi. Tashkilot jarayoni bir nechta tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi.

1. OTM (fakultet) faoliyatini rejalashtirish va boshqarish orqali amalga oshiriladigan talabalarning nazariy tayyorgarligini tashkil

etish jarayoni. O'quv jarayonini rejalashtirishda OTMning o'quv faoliyatini tartibga soluvchi barcha huquqiy hujjatlarga muvofiq o'quv fanlari bo'yicha o'quv rejasini va ish dasturlari hisobga olinadi va ko'rsatiladi: fakultetlar, talabalarning tanlovi bo'yicha fanlar rejaga muvofiq. kasbiy tayyorgarlikning mintaqaviy xususiyatlarini o'z ichiga olgan va hisobga olgan holda OTMning akademik erkinliklariga va o'qituvchining kasbiy standarti talablariga rioya qilish.

2. Bo'lajak o'qituvchilarning amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish jarayoni o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning oilalari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish muammosini aks ettiruvchi amaliyot dasturlari va amaliy mashg'ulotlarni ishlab chiqish bilan bir qatorda tegishli amaliyot bazasini yaratishni o'z ichiga oladi. O'quvchilarning amaliy mashg'ulotlarini bunday yo'naltirish bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining shakllanish darajasini obyektiv baholashga imkon beradigan aniq topshiriqlar, mashqlar, amaliyot davomida bajariladigan individual topshiriqlar, nazorat va baholash materiallari, diagnostika vositalari va attestatsiya tartiblarini ishlab chiqishni belgilaydi.

3. Talabalarning ilmiy-tadqiqot va o'quv va loyiha faoliyatini tashkil etish jarayoni. Bu jarayon o'quv fanlari, talabalar ilmiy to'garaklari, ilmiy-amaliy konferensiyalar, laboratoriyalar, shuningdek, amaliyot o'tashlari doirasida ishlab chiqilgan talabalarning loyiha menejerlari - o'qituvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bilan parallel ravishda amalga oshiriladi.

Resurs bilan ta'minlash moduli quyidagilarni ta'minlaydi:

- o'quv rejasining asosiy va ixtiyoriy qismlarining fanlarini o'rganishda fanlararo aloqa resurslaridan foydalanish orqali o'quvchilarning oilalari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatishda talabalarning kompetensiyasini shakllantirish, bunda o'quv vazifalarini rivojlantirishga qaratilgan o'quv vazifalari qo'llaniladi. analitik qobiliyat, axborot madaniyati, maktab va oila o'rtasidagi o'zaro munosabatlar sohasidagi kognitiv ehtiyojlar;

- oilaviy tarbiya masalalari u yoki bu tarzda ko'rib chiqiladigan psixologik-pedagogik fanlar resurslaridan foydalangan

⁶ Карпенко А.В. Модель формирования у будущих учителей начальных классов компетентности в построении сотруднических отношений с семьями обучающихся. Человеческий капитал. – 2019. – № 9 (129). – С. 103–111.

holda o'quvchilarning oilalari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatishda talabalarning kompetensiyasini shakllantirish ("Ta'lim nazariyasi"), asosiy uni o'rganishga metodologik yondashuvlar ("Pedagogika tarixi"), bola shaxsini rivojlantirish ("Rivojlanish psixologiyasi"), shaxslararo munosabatlarni shakllantirish qonuniyatlari ("Ijtimoiy psixologiya") va boshqalar; kasbiy fanlar bo'yicha darslarda amaliyotga yo'naltirilgan vazifalar qo'llaniladi, ularning yechimi talabalardan maktab-oila munosabatlari sohasida ilmiy asoslangan psixologik-pedagogik bilimlarga ega bo'lishni talab qiladi;

OTMda nafaqat talabalarning fuqarolik, axloqiy fazilatlarini shakllantirishga, balki ularning kasbiy rivojlanishiga qaratilgan o'quv (sinfdan tashqari) ishlarni tashkil etishning barcha resurslaridan foydalangan holda o'quvchilarning oilalari bilan hamkorlik munosabatlarini o'rnatish kompetensiyasini rivojlantirish jarayoni; bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida o'quvchilarning shaxsiy resurslari, ularning o'quv va kognitiv faoliyatga bo'lgan ehtiyojlari va motivlari, ijodiy qobiliyatlari va shaxsiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'quvchilarning oilalari bilan hamkorlik munosabatlarini o'rnatishda kompetensiyani shakllantirish.

Funksional mazmunli moduli bir nechta bloklarni o'z ichiga oladi.

1. Birinchi blok – nazariy-texnologik – talabalarni faqat maxsus o'quv fanlari bo'yicha emas, balki umumiy blokdagi falsafa, tarix, pedagogika, psixologiya, pedagogik etika va boshqa fanlarda ham o'quv materialini o'zlashtirish jarayonida ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar jarayonida shakllantirilgan zarur bilim, ko'nikmalar bilan qurollantirish, ularni o'qitish shaklidagi maqsadli pedagogik jarayon mazmunini ochib beradi.

2. Kasbiy tarbiyaviy blok OTMda ta'limning an'anaviy yo'nalishlari (axloqiy, mafkuraviy, fuqarolik, vatanparvarlik) bilan bir qatorda, kasbiy jihatdan muhim shaxs fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan o'quvchilarning ota-onalari bilan samarali muloqot qilishiga, pedagogik nizolarning oldini olishga, kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining oilalarini yagona o'quv jarayoniga jalb qilishga qaratilgan tadbirlarni samarali amalga oshirishga hissa

qo'shadigan talabalar ta'lim-tarbiya ishlarining shunday tizimini yaratish zarurligini aks ettiradi⁷.

3. Talabalarning o'quv, ilmiy-tadqiqot va ilmiy-tadqiqot faoliyatini ilmiy-pedagogik ta'minlash bloki bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi jarayonida eng yangi ilmiy va ilmiy tadqiqotlar natijalariga asoslangan pedagogik texnologiyalardan foydalanishning analogidir. Talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini ilmiy-pedagogik qo'llab-quvvatlash nafaqat tarbiyalanuvchilarning turli toifalari bilan ishlaydigan o'qituvchilarning harakatlarini aks ettiruvchi talabalar ilmiy jamoalari doirasida talabalar tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishda amaliyot bazalari vakillarining yordamini ham o'z ichiga oladi.

4. Diagnostika va baholash vositalari modelning kvalimetrik blokida pedagogik monitoringni amalga oshirish zarurati va usullarini aks ettiruvchi taqdim etiladi, bunda o'quvchilarni bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari sifatida kompetensiyaga tayyorlash jarayoni ustidan oraliq va yakuniy nazorat amalga oshiriladi.

Natijaviy monitoring moduli barcha tarkibiy qismlarning individual elementlari (kompetensiyalari) va o'quvchilarning oilalari bilan hamkorlik munosabatlarini o'rnatishda kompetensiyalarni shakllantirishning umumiy darajasini yaxlit pedagogik monitoringni o'tkazish zarurati va texnologiyasini aks ettiradi. Bunday monitoring biz tomonimizdan ishlab chiqilgan ekspert baholash shakllari boshlang'ich ta'lim o'qituvchilariga, test topshiriqlari, shuningdek, shaxsning kognitiv, kommunikativ, motivatsion, hissiy va qiymat sohalarini rivojlantirish xususiyatlarini aniqlashga imkon beradigan ba'zi diagnostika usullaridan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining o'quvchilarning oilalari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatishda kompetensiyalarini shakllantirish darajasining mezonlari quyidagilardan iborat:

- talabalarning nazariy va tarbiyaviy, ilmiy tayyorgarligi jarayonida shakllanadigan bilimlar hajmidan iborat kognitiv mezon;

- amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish

⁷ Карпенко А.В. Модель формирования у будущих учителей начальных классов компетентности в построении сотруднических отношений с семьями обучающихся. Человеческий капитал. – 2019. – № 9 (129). – С. 103–111.

xususiyatlari va darajalarini, bo'lajak o'qituvchilarning o'quvchilarning oilalari bilan hamkorlik munosabatlarini o'rnatish ko'nikmalarini o'zlashtirish darajasini baholashga imkon beruvchi xulq-atvor mezon (mehr-oqibat muhitini yaratish, empatik tinglash qobiliyatlari, psixologik aloqa o'rnatish usullari, o'zaro munosabatlarda hissiy stressni bartaraf etish usullari, ishonch va samimiylikka erishish usullari, o'qituvchining otalik va yordam berish funksiyalarini bajarish usullari, maslahat suhbatini o'tkazish, ishontirish, tushuntirish, rag'batlantirish, ota-onalarning faoliyatini faollashtirish va boshqalar)⁸;

- bo'lajak o'qituvchilarning individual va shaxsiy rivojlanish darajasini aks ettiruvchi shaxsiy mezon (bag'rikenglik, yashirin tajovuzkorlik va hissiy barqarorlik, o'z faoliyatini tartibga solish qobiliyati, ijodiy va tahliliy qobiliyatlar, vaziyatdan yuqoriga ko'tarilish qobiliyati va mavjud muammolarni ko'rish, kognitiv ehtiyoj), ijtimoiy-psixologik (hissiy intellektning rivojlanish darajasi, aloqa sheriklarining his-tuyg'ularini tan olish, his-tuyg'ularini boshqarish, boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatlarda o'zini rag'batlantirish, interaktiv yo'nalishlar - hamkorlikka yo'naltirish) hamda kasbiy va shaxsiy (bo'lajak o'qituvchilarning o'quvchilarning ota-onalari

bilan o'zaro munosabatlarining turli holatlarida xulq-atvor uslubi, o'quvchilarning oilalari bilan munosabatlarda o'qituvchining pozitsiyasi) xususiyatlari.

Ishlash-monitoring moduli bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning o'quvchilarning oilalari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatishda kompetensiyalarini shakllantirish darajasini pedagogik nazorat qilish jarayonining ramziy tavsifini o'z ichiga oladi⁹.

Ishlab chiqilgan modelning barcha modullari o'zaro bog'liq bo'lib, ular birgalikda bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning o'quvchilarning oilalari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatishda kompetensiyalarini shakllantirish uchun OTM faoliyati tizimini tashkil qiladi.

Ishlab chiqilgan model yaxlitligi bilan ajralib turadi, chunki u nafaqat talabalarni ma'lum bir tor kasbiy fanlar bo'yicha o'qitish jarayoni bilan cheklanib qolmaydi, balki OTMdagi butun o'quv jarayonini, bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini o'quvchilarning oilalari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish kompetensiyasini shakllantirish bo'yicha maqsadli va kompleks faoliyatni tashkil qilishni aks ettiradi.

MULOQOT MOTIVATSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA TALABALAR HAMKORLIGINING ROLI

Nilufar Omonova - tayanch doktorant, Termiz davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim olayotgan yoshlarda muloqot motivatsiyasi, uning mazmun mohiyati bugungi kundagi afzalligi o'rganiladi. Hamkorlik munosabatini o'rnatishda o'qituvchining va o'quvchining faoliyati zaruriyat ekanligi aytib o'tiladi. Bugungi kunda hamkorlik asosida muloqot motivatsiyasini rivojlantirishda uzluksiz ta'limning har bir bo'g'inini bee'tibor qoldirmaslik, muloqot turlari va muloqot muhitini to'g'ri tashkil etishni mukammal bilishimiz zarurdir. Buning uchun esa pedagog o'quvchi bilan muloqot muhitini yarata olishi, so'zlashishi, muloqotni samarali usullaridan foydalana olishni doimo o'rganib borishi ahamiyatlidir. Chunki bu pedagogga darsni samarali tashkillashtirish imkonini beradi. Shunga ko'ra maqolada pedagogik muloqot turlari, usullaridan unumli foydalanish asosida ta'lim-tarbiya jarayoniga muloqot motivatsiyasini rivojlantirish omillarining olib kirishning ahamiyatlilik darajasi ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Аннотация: В данной статье исследуется мотивация общения образованной молодежи, его содержание, сущность и преимущества на сегодняшний день. Упомянуто, что деятельность учителя и ученика необходима в установлении отношений сотрудничества. Сегодня в развитии коммуникативной мотивации на основе сотрудничества необходимо не пренебрегать каждым звеном непрерывного образования, в совершенстве знать виды общения и правильную организацию коммуникативной среды. Для этого педагогу важно уметь создать атмосферу общения с учеником, наладить общение, научиться использовать эффективные методы общения. В свою очередь, это позволяет педагогу эффективно организовать урок. Соответственно, в статье научно анализируется значение факторов развития коммуникативной мотивации в образовательном процессе на основе эффективного использования видов и методов педагогического общения.

Abstract: In this article, the motivation of communication among educated youth, its content and its advantages today are studied. It is mentioned that the activity of the teacher and the student is necessary in establishing a cooperative relationship. Today, in the development of communication motivation on the basis of cooperation, it is necessary not to neglect every link of continuous education, to know perfectly the types of communication and the proper organization of the communication environment. For this purpose, it is important for the pedagogue to be able to create an atmosphere of communication with the student, to communicate, and to learn to use effective methods of communication. Because it allows the pedagogue to effectively organize the lesson. Accordingly, the article scientifically analyzes the importance of the factors of development of communication motivation in the educational process based on the effective use of the types and methods of pedagogical communication.

Kalit so'zlar: talaba, yoshlar, motivatsiya, o'quvchi, o'qituvchi, odob, axloq, muloqot, bilim, tarbiya, ta'lim, shakllantirish, rivojlantirish.

Ключевые слова: студент, молодежь, мотивация, ученик, преподаватель, манеры, этика, общение, познание, воспитание, образование, формирование, развитие.

Keywords: student, youth, motivation, student, teacher, manners, ethics, communication, knowledge, upbringing, education, formation, development.

Mustaqil ona yurtimizda bugungi kunda ijtimoiy hayotning barcha sohalarini demokratlashtirish jarayonini yanada rivojlantirish, iqtisodiy o'sish sur'atlarini taraqqiy ettirish va uning samaradorligini oshirish, xalqimiz ma'naviy-ma'rifiy salohiyatini yuksaltirish borasida ulkan ishlar olib borilmoqda. Ma'naviyat va ma'rifat bugun o'zining taraqqiyot yo'lidan buyuk kelajak sari oldinlab borayotgan xalqimizga o'z ezgu maqsadlariga erishishi uchun ulkan quvvat manbai bo'lib xizmat qilayotgani shubhasizdir. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ma'naviyat, ma'rifat, fan, ta'lim bilan bo'g'liq ishlar yurtimizda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Buning natijasi o'laroq O'zbekiston butun dunyoga o'zining demokratik qadriyatlariga

⁸ Карпенко А.В. Модель формирования у будущих учителей начальных классов компетентности в построении сотруднических отношений с семьями обучающихся. Человеческий капитал. – 2019. – № 9 (129). – С. 103–111.

⁹ Xamidova B.M. O'quvchilarga ta'lim tarbiya berishda o'quvchilarning ota-onalari bilan o'qituvchilar o'rtasidagi hamkorlik-ning ahamiyati. Tafakkur ziyosi ilmiy – uslubiy jurnal. 2022-yil, № 3

sodiq, tinchliksevar va bunyodkor mamlakat ekanligini allaqachon ko'rsata oldi. Shu sababli biz islohotlarimiz ko'lami va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azmu shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayanamiz.

Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim¹kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu esa hamkorlikda o'qitish ta'lim vositasida talabalarda muloqot motivatsiyasini rivojlantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlarini aniqlashtirish, bo'lajak o'qituvchining muloqot motivatsiyasi modelini talab etadi.

Bugun ta'lim dargohlarida amalga oshirilayotgan hamkorlik asosida muloqot motivatsiyasining rivojlanishi talaba-yoshlarda ong, g'urur, ma'naviyatning shakllanishida birlamchi rol o'ynaydi. Shu bois hamkorlikda muloqot tarbiyasi pedagogikaning turkumi fanlarining muhim yo'nalishi sifatida o'rganiladi. Mustaqillik yillaridan buyon motivatsiya, muloqot kabi tushunchalarning ma'no-mohiyatini yoshlar ongiga singdirish uchun ko'plab ma'naviy, axloqiy tadbirlar o'tkazilib ular orqali tarbiya muloqot motivatsiyasining muhim tamoyili ekanligiga e'tibor qaralilib kelinmoqda.

Insonning ma'naviy qiyofasi uning muloqot motivatsiyasida ifodalanadi. U o'zining his-tuyg'usini, ichki tug'yoni, orzu umidlarini muloqot jarayonida bayon etadi. Shuning uchun ham jamiyat taraqqiyoti, insonlarning yaxlit holda shakllanishi, ularning bir-birlari bilan o'zaro muloqotsiz, hamkorliksiz, o'zaro ta'sirsiz vujudga kelmaydi.

Muloqot – uchrashish, ko'rishish; qabul qilish, eski turkiy tildagi ko'rinishi: uchrashuv; musohaba².

Muloqot motivatsiyasi – Kommunikativ motivatsiya.

Kommunikativ motivatsiya – yuksak

darajadagi muloqot ko'nikmalariga egalik³.

Muloqot – kishining ichki kivatashqi olamini namoyon etuvchi o'zaro munosabatlarning muhim shakli. Muloqot jarayonida kishi o'zining tashqi olam, jamiyatning turmush tarzi, uning ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy hayoti haqidagi qarashlari, tasavvuri va hissiyatini ifodalaydi.

Jamiyat a'zolarining o'zaro ijtimoiy munosabatlari, turmush sharoitlari o'zgarishi bilan ularning moddiy olam haqidagi tasavvuri, tushunchalari, dunyoqarashlari, odob va axloq me'yorlari ham o'zgaradi. Bunday o'zgarish kishilarning umumiy manfaatlari, xayrixohligi asosida ro'y beradi.

Kishilik jamiyati paydo bo'lishi bilan odamlar o'rtasida muloqotga ham ehtiyoj sezildi. Jamiyat a'zolarining bir-birlari bilan o'zaro muloqotlari shu jamiyatning har tomonlama taraqqiyotiga zamin bo'ldi. Har bir tarixiy davrning o'ziga xos muomala odobi, qonun-qoida me'yorlari mavjud bo'lganidek, erkaklar va ayollar, ota-onalar hamda farzandlar, yigit-qizlar o'rtasidagi muloqotga ham ehtiyoj paydo bo'ldi.

Bizning jamiyatimiz a'zolari o'rtasida qanday muloqot turlari mavjud?

Ular jamiyatimizning kichik bo'g'ini hisoblangan oiladagi ota-ona, katta kishilarning o'zaro muloqotlari, ota-ona va farzandlarning, qiz bolalar va o'g'il bolalarning, oila a'zolarining, qo'ni-qo'shni, qarindosh-urug'lar, do'sti-o'rtoqlar bilan muloqoti, o'qish jarayonida jamoat joylarida, turli to'y tantanalarida, madaniy hordiq chiqarish maskanlarida, transportda kishilarning o'zaro muloqotidan iborat. Bizning sharqona odobimizda ulug' allomalarimiz, fozil-u fozilalarimiz muloqot motivatsiyasi, qonun-qoidalari va o'g'itlarni yaxshi bilganlar, xalqni xushmuomalalikka, o'zaro mehr-muruvvatga, axloq-odobga chaqirganlar.

Bizning mutlaq motivatsiyasimizda xalqimizning asrlar davomida saqlanib kelgan urf-odatlar, an'analar, axloq me'yorlari mujassam bo'lib, maqollar, hadislar, hikmatli so'zlar, pand-nasihatlar, axloq-odob durdonalari shakllaridan xalqni ma'naviy yetuklikka boshlab keladi.

Axloq-odob haqidagi hadislardan birida "Hamma ishlaringizda to'g'ri bo'ling, odamlarga muomalada xulqingiz chiroyli bo'lsin"⁴, - deyilib, barcha toifadagi odamlar xushxulq, samimiy,

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Lex.uz

² «O'zbekiston ensiklopediyasi» 4 jild T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 102 b.

³ Pedagogik atamalar lug'ati T.: Fan nashriyoti 2008. – 124 b

⁴ Imom G'azzoliy "Ihyou ulumid-din" (Din ilmlarini jonlantirish) T.: «Movarounnahr» nashriyoti, 2007. 144 b

to'g'ri bo'lishga da'vat etiladi.

Muloqot – pedagog faoliyatini eng muhim professional qurolidir. Pedagogik muloqot-qulay psixologik muhit yaratish maqsadida o'qituvchining o'quvchi bilan dars va undan tashqaridagi haqiqiy muloqotidir. Noto'g'ri pedagogik muloqot o'quvchida qo'rquv, ishonchsizlik tug'diradi, diqqati, xotirasi va ish qobiliyatini susaytiradi, nutq me'yorini buzadi. Natijada, o'quvchilarda stereotip fikrlar vujudga keladi. Ularni o'qishga va mustaqil o'rganishga, fikrlashga bo'lgan qiziqishlar susayadi. Oqibat natijada, o'quvchilarda o'qituvchiga, uning faniga nisbatan muayyan salbiy munosabatlar uzoq vaqt shakllanib qoladi.

Hamkorlikda fikrlash uchun sharoitlar yaratish zarur. Rollar almashinishi yordamida muloqot o'rnatish ularda u yoki bu ijtimoiy shakllanib qolgan xatti-harakatni dasturlaydi (o'qituvchi-o'quvchi).

Ijtimoiy rollar almashinuvi shaxsni har tomonlama namoyon bo'lishini ta'minlaydi, niqobni olib tashlab boshqa kishi rolga kirish va shu bilan insonni inson orqali idrok qilish jarayoniga ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchilar o'quv-tarbiyaviy jarayonda shaxs-rol shaklidan foydalanadilar, darsning ayrim elementlarini bajarishga o'quvchilarni taklif qiladilar, har bir o'quvchini o'qituvchi rolini bajarishga imkon beradilar. O'z shaxsi qimmatini namoyon qilish ham muloqot funksiyasi sifatida namoyon bo'ladi. Bunda o'quvchilar tomonidan o'z shaxsi (men)ni, qadr-qimmatini, shaxsini munosib baholash va kelajagini tasavvur eta olish uchun intilishlarini ta'minlash o'qituvchining asosiy vazifasidir.

Muloqotning eng muhim funksiyalaridan biri-hamdard bo'lishdir. U boshqa kishi hissiyatlarini tushunish, boshqalar nuqtayi nazarini ma'qullash qobiliyatini shakllantirish jarayonida amalga oshadi va jamoadagi munosabatlarni me'yorga keltiradi. Bunda o'quvchini, uning istaklarini tushunish va bular asosida o'quvchiga ta'sir etish zarurligi anglash o'qituvchi uchun juda muhimdir.

Muloqot funksiyalarini bilish o'qituvchilar uchun dars va undan tashqarida o'quvchilar bilan bo'ladigan muloqotlarni yaxlit jarayon sifatida tashkil etishga yordam beradi.

Darsga tayyorgarlik ko'rayotganda muloqotning barcha funksiyalaridan kompleks foydalanishga erishish zarur. Darsni rejalashtirayotganda faqat axborot berish haqida emas, balki o'quvchilarning o'z shaxsini

namoyon qilishlarini va o'z shaxsiy qobiliyatini ham ko'rsata olishga sharoit yaratishni ham rejalashtirishi zarur.

Bunda ayniqsa, o'qituvchi yordamiga muhtoj bo'lgan o'quvchilarga alohida e'tibor berish, har bir o'quvchini qiziqtirish usullarini, hamkorlik va ijodkorlikka asoslangan mehnatni tashkil etishni oldindan o'ylab qo'yish lozim. Muloqot bo'yicha yirik mutaxassis olim Kan-Kalik fikricha, professional pedagogik muloqot tarkibi quyidagilardan iborat: sinf-guruh bilan bo'ladigan muloqotni pedagog tomonidan modellash (loyihalash); o'zaro ta'sir ettirishning dastlabki onlarida bevosita faol muloqot olib borish (kommunikativ hujum); pedagogik jarayon davomida muloqotni boshqarish; amalga oshirilgan tahlil qilish va uni kelgusi faoliyat uchun modellash.

Muloqotning har bir elementlarini muvaffaqiyatli bajarish uchun quyidagilarga e'tibor berish zarur. Modellash bosqichi–sinf (guruh) o'quvchilarning o'ziga xos quyidagi xususiyatlarini, ularni bilish qobiliyatlarini xarakterini, qiyinchiliklar ehtimolligi, ish sur'atini bilishni talab etadi⁵.

Darsga tayyorgarlik ko'rishda uning mazmunini oldingi dars mazmuni bilan bog'lash va u faqat o'qituvchi nuqtayi nazaridan emas, balki o'quvchi shaxsi tomonidan ham o'ylanib, turli variantlarda tayyorlanishi zarur. Bu haqda pedagogik texnologiyada batafsil ma'lumot beriladi. «Kommunikativ hujum» – o'z-o'zidan ma'lum bunda o'qituvchi o'quvchilarni tezda jalb qilish texnikasini bilishi, dinamik ta'sir va o'zini salobatli qilib ko'rsatish usullarini egallashi zarur.

Muloqotni boshqarish bosqichida o'quvchilar tashabbusini ma'qullash, dialogik muloqot olib borish, haqiqiy sharoitga moslab o'z fikrlariga tuzatishlar kiritish zarur. Muloqotni tahlil qilish uning maqsadi, mazmuni va natijasini taqqoslashdir.

Tabiiyki, o'qituvchi muloqotni, o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashabbuskori va yetakchisi bo'lishi zarur. Buning uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

- "Biz" sezgisini vujudga keltirish;
- O'quvchilarga ta'sir etishda shaxs aspektlarini kiritish;
- O'zini sinf (guruh) haqida ijobiy fikrga ega ekanligini his ettirish;
- Faoliyatning aniq maqsadlarini ko'rsatish;
- O'quvchilarning ichki hissiyatlarini

⁵ Pirimov T "O'qituvchi nutq motivatsiyasi" Ilmiy-o'quv qo'llanma Q.: 2000. -56 b

tushunish va ularga buni sezdirishi;

- Ayrim o'quvchilarga nisbatan shakllanib borayotgan stereotip fikrlarni o'zgartirish.

Bularning hammasi yosh o'qituvchi faoliyatida samarali muloqot o'rnatishda to'siqlarga barham beradi.

Pedagoglar tomonidan turli tipdagi rahbarlarning aniq ijtimoiy-psixologik qiyofasi yaratilgan. Ularning jamoa bilan muloqot texnikasi doimo tahlil qilib boriladi. O'qituvchi ham rahbar sifatida tarbiyalanuvchilar faoliyatini boshqaradi, ular bilan turli xil muloqotda bo'ladi.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib pedagogik muloqotni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

-o'zaro ijodiy faoliyatga qiziqtirishiga asoslangan muloqot;

-o'zaro do'stlikka asoslangan muloqot;

-muloqot-masofa;

-muloqot-qo'rqitish;

-muloqot-hazil-mutoyiba.

Muloqot motivatsiyasi–boshqalarni tushunishga bo'lgan ehtiyoj va qobiliyatni shakllantirish, o'zini tushunishga ehtiyoj tug'dirishdir. Muloqotdagi kamchiliklar:

-ehtiyotsizlik, shaxsiyatparastlik, suhbatdoshini ortiqcha majburlash;

-passivlik, o'zini juda yuqori va past qo'yish;

-haddan tashqari jonbozlik ko'rsatish⁶.

Bir so'z bilan aytganda pedagogning muloqot motivatsiyasi doimo ishlov berilishini talab qiladi.

Muloqot – insonlarning ma'lum bir jamoda yoki guruhda hamkorlikdagi faoliyatlari jarayonida vujudga keladigan ehtiyojlaridan bo'lib, faoliyatlari davomida o'zaro munosabatlarga kirishishi jarayoni hisoblanadi.

Muloqot motivatsiyasi hamma joyda kerak. Ish joyda, transportda, uyda umuman shaxs bo'lib o'z meniga ega insonlarda mavjud, shuning uchun ham biz kim bilan qanday muloqot (muomala) qilishni bilishimiz kerak. Insonning qanchalik bilimli, aql-zakovatli ekanligi uning muloqoti orqali namoyon bo'ladi.

Odamlar butun ichki dunyosini, maqsadini, muomala va munosabatlarini bir-birlariga so'z yordamida yetkazadi, amalga oshiradi. Shu tufayli muloqotda kishilarning muomalalari yoqimli bo'lishi zarur. Bundaylarni odamlar yoqtiradi, hurmat qiladi. Muloqot ham o'ziga xos san'atdir. Bu san'atni mukammal

o'rganish har bir insonga zarur. Shu bilan birga, ona tilini mukammal o'rganmoq har bir insoning muqaddas burchidir. Tilni bilgach: uni ishlata bilish san'atini egallamoq inson uchun zarurdir.

Muloqot jarayonida shirinso'zlik va go'zal nutq hech qachon, hech qayerda sotilmaydi. Bunga erishmoqlikning birgina yo'li bor, bu ham bo'lsa tinimsiz shirin so'zlash mashq qilmoqlikdir. Bu esa asosan ko'p kitob o'qish yo'li bilan amalga oshiriladi. Muomala insonning kimligini ko'rsatuvchi yuzidir.

Izlanishlarning ko'rsatishicha, pedagogning o'quvchilarga nisbatan bo'lgan ijobiy munosabati, ularga tiniq, bosiq tonda murojaat qilishi o'quvchilarda erkinlikni his qilishda yordam beradi. O'quvchilarga noto'g'ri munosabatda bo'lish ularda ishonchsizlik kam gap bo'lishiga, o'quvchilarda laganbardorlik kabi yomon fazilatlar shakllanishiga olib keladi. Muloqotga ta'rif bersak, bu so'zlashuv, suhbatlashuv, shaxslararo suhbat va fikr olishuv, og'zaki nutq shakli bo'lib, ikki yoki undan ortiq shaxslarni so'zlashuvidir.

Muloqot faqat insonlarga xos bo'lgan jarayondir. Kishilarda faoliyat jarayonida bir-birlariga nimanidir aytish istagi tug'iladi. Muloqot-odamlar o'rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog'lanishlar rivojlanishining ko'p qirrali jarayonidir. Muloqot (munosabat) birgalikda faoliyat ko'rsatuvchilar o'rtasida axborot ayirboshlashni o'z ichiga oladi. Bunda munosabatning kommunikativ jihati hisobga olinadi. Kishilar munosabatga kirishishda avvalo tilga murojaat qiladilar. Muloqotning yana bir jihati munosabatga kirishuvchilarning o'zaro birgalikdagi harakati - nutq jarayonida faqat so'zlar bilan emas, balki harakatlar bilan ham ayirboshlashdan iborat. Masalan, munosabatga kirishar ekanmiz, u bizni qoniqtirsa imo-ishora bilan muloqotda bo'lamiz.

Munosabatning keyingi jihati muloqotga kirishuvchilarning bir-birlarini idrok eta olishlaridir. Masalan, biz bir kishi bilan muloqotga kirishishdan avval uni hurmat qilib yoki mensimasdan munosabatda bo'lamiz. Aynan muloqot davomida uning xatti-harakatlarini kuzatamiz, uning o'zini tutishi va hokozolar tufayli, muloqotdoshimizga qaysidir ma'noda fikrimiz o'zgaradi. Demak muloqot insonning muhim jihatlaridan biri sanalib insonning muloqot ma'daniyati kishilarda



salbiy va ijobiy fikrlarni paydo bo'lishini ta'minlaydi⁷.

Muloqot odobi insonni ma'naviy kamolotga yetkazuvchi jarayondir. Muloqot odobi bolalikdan shakllanadi. Bola ulg'ayishi bilan muloqot odobi darajasi kengayib boradi. Muloqot odobi kishi faoliyatini belgilovchi jarayon bo'lib, uni barcha xatolardan saqlaydi. Natijada uning xulqiy go'zalligi ortadi.

Islom dinida belgilangan muloqot odobi mezonlari umuminsoniy muloqot odobi mezonlari bilan chambarchas bog'liqdir. Chunonchi, «Qur'oni Karim» inson kamolotining asosiy dasturidir. Unda insonni yuqori cho'qqiga ko'tarishga ahamiyat berilgan. «Qur'oni Karim»ning har bir oyatida kishining kundalik hayotida muloqot odobi mezonlariga og'ishmay amal qilishini ko'rsatadi.

Adab so'zi arabcha bo'lib, hayotimizga singib ketgan, muloqot odobi odamning ma'naviy yetukligi, ma'naviy mezonidir. Muloqot odobi deganda biz tarbiyali degan tushunchani anglaymiz. Muomalali kishi el o'rtasida e'zozlidir. Muloqot odobi insoniy fazilat kishi qadrini baland qiluvchi qimmatli sifatidir. U ta'lim-tarbiyaning asl mevasidir. Aqlning suyanchig'i hisoblangan muloqot odobi barcha fazilatlarining sha'ni va hikmatidir. Dono xalqimizning "Adab bozorda sotilmas", "Muloqot odobi kishi uchun ulug'lik va fazilatdir", "Muloqot odobi yo'qning aqli ham yo'q" kabi naqlari bejiz aytilmagan⁸. Shunday ekan, aql va muloqot odobi bir-biriga bog'liq, insonda har ikkovi mavjud bo'lsagina o'sha inson kamol topadi.

O'zbekistonning mustaqilligi tufayli ota bobolarimiz axloq-muloqot odobi haqidagi hikoyatlari, naql va rivoyatlari yosh avlodda qadriyatlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, muloqot odobi va axloqiy ezgulik, insoniylik kabi ma'naviy qadriyatlar shaxs kamolotida dasturamal bo'lib kelmoqda.

Axloq – ijtimoiy ong shakllaridan biri hisoblanib, har bir kishining jamiyat va oiladagi yurish–turishi, tartib qoidalarining yig'indisi sifatida gavdalanadi. Demak, jamiyatga, oilaga, mehnatga bo'lgan munosabatda axloq namoyon bo'ladi. Inson xatti-harakatidagi, xulqidagi yo'nalishlar, eng muhim belgilar mujassamlanib, shaxs faoliyatida, uning kamol topishida xulq qoidasining asosi bo'lib qoladi. Axloq faqat tartib intizom o'zini tutishi bilan

chegaralanmasdan inson muloqoti o'zgaralar bilan munosabatni qay tarzda olib borish jarayonida namoyon bo'ladi. Shunday ekan o'quvchilarda muloqot odobini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu o'rinda o'quvchilar bilan muloqot qilishning o'ziga xos xususiyatlarini keltirib o'tmoqchimiz:

1.O'quvchilar bilan muloqot qilish motivatsiyasining individual shaxsiy xususiyatlarini o'rganishi:

- o'quvchilar shaxsiy xususiyatlarini mustaqil tahlil qilish;

- o'quvchilar ichki imkoniyatlariga har tomonlama tavsif berish;

- o'qituvchining muloqot motivatsiyasini to'g'ri tashkil etishi.

2.Shaxsiy muloqotda ro'y beradigan kamchiliklarni darhol bartaraf etishi:

- kamchiliklarga barham berish choralarini darhol izlab topish;

- har qanday vaziyatda o'quvchilarga qo'pollik qilmaslik;

- o'quvchi shaxsini mensimaslik kabi salbiy holatlarni bartaraf etish.

3.O'qituvchi o'zi uchun muloqot motivatsiyasining eng qulay bo'lgan uslublarini tanlab olishi:

- pedagogik faoliyatiga monand muloqot motivatsiyasi modelini ishlab chiqishi;

- o'z-o'zini kuzatish bilan muloqotdagi yutuq va kamchiliklarini muntazam taqqoslab borishi;

- muloqotda ma'naviyatimiz, urf-odat va an'alarimiz imkoniyatlaridan doimiy foydalanish.

4.Muloqot motivatsiyasida pedagogik faoliyat qonuniyatlaridan chetga chiqmaslik:

- har bir o'quvchining individual xususiyatlariga mos muloqot tizimini ishlab chiqishi;

- muloqotning tarbiyaviy ta'sirini va samarasini e'tirof etish;

muloqot motivatsiyasi asosida pedagogik mahoratni namoyish etish⁹.

Yuqorida keltirilgan xususiyatlar ta'lim jarayonida hozirgi zamon o'quvchilarida muloqot odobini tarbiyalashning asosiy shart-sharoitlarining birlamchisi deb bildik negaki yoshlarimizning individual xususiyatlariga mos holda muloqotni tashkil etish ta'limiy va tarbiyaviy tamonlama berilayotgan bilimlarning samaradorligida muhim ahamiyat kasb etadi.

7 M. Maxsudova "Muloqot psixologiyasi" T: "Turon-iqbol" nashryoti. 2006-y-76 b.

8 Husanov. B, G'ulomov. B "Muomala motivatsiyasi" T: Ta'lim nashriyoti 2009 y -80 b

9 A. Xoliqov "Pedagogik mahorat" T: "Iqtisod-moliya" 2010 y 82 b

Talabalarni hamkorlik asosida muloqot motivatsiyasini rivojlantirish, avvalo, ularning muloqot motivatsiyasining o'zgarishi natijasida namoyon bo'ladi. Bunda hamkorlikda o'qitish har bir o'quvchini kunlik qizg'in aqliy mehnatga o'rgatish, shaxs sifatida onglilik, mustaqillikni tarbiyalash, har bir o'quvchida shaxsiy qadrigimmat tuyg'usini vujudga keltirish, o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, tahsil olishda ma'suliyat hissini shakllantirishni ko'zda tutadi. Buning uchun hamkorlik asosida muloqot motivatsiyasini rivojlantirish talab etiladi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi har bir o'quvchining ta'lim olishidagi muvaffaqiyati guruh muvaffaqiyatiga olib kelishini anglagan holda mustaqil va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, o'quv topshiriqlarini to'liq va sifatli bajarishga o'quv materialini to'liq o'zlashtirishga yordam beradi.

Muloqot faqat insonlarga xos bo'lgan jarayondir. Kishilarda faoliyat jarayonida bir-birlari bilan muloqotda bo'lish ehtiyoji tug'iladi. O'zaro muloqot esa, tabiiyki, kishilik jamiyati vujudga kelishining eng asosiy unsuri hisoblanadi.

Talabalarda hamkorlik texnologiyasi va muloqot motivatsiyasini rivojlantirish uni rivojlanishiga ta'sir etuvchi turli omillardan xalos etib, talaba o'qituvchi o'rtasida do'stona, erkin muloqot yaratish shart-sharoitlarning amalga oshirilishi zarurdir.

O'qituvchilarning—ta'lim jarayonidagi tarbiya beruvchilarning samarali metodik yondashuv asosida ish ko'rishlari ya'ni hamkorlik texnologiyasini to'g'ri qo'llay olish yoshlarda tushunchani o'stirish barobarida ta'limning har bir bo'ginida tizimlilikka asoslangan holda nutqini o'stirib muloqot motivatsiyasini oshirish imkonini beradi.

Bunday shart-sharoitlar o'quv dasturlari va qo'llanmalarda berilgan mavzular mazmunini

o'quvchilarga yetkazish asosida amalga oshiriladi. Bu imkoniyatlardan foydalanishda zamonaviy metod va vositalarga murojaat qilinsagina o'z samarasini berishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan muloqot haqidagi ma'lumotlardan xulosa shuki yoshlardagi sog'lom muhit—sog'lom muloqotni shakllantirish manbaidir. Jamiyatda har bir yoshning motivatsiyasimizga bo'lgan bilimni, tafakkurini shakllantirish, hurmat e'tiborni takomillashtirish muloqot motivatsiyasini amalga oshirishda tayanch bo'ladi.

Tahlillardan foydalanib muloqot motivatsiyasini bugungi davrda jonlantirish va muloqot faolligini oshirishda quyidagi taklif va talablar tizimiga duch keldik:

-Yoshlarni erkin muloqot motivatsiyasini rivojlantirish bilan birgalikda fikrlarini erkin ayta olish layoqatini oshirish;

-Yosh kadrlarni tayyorlash va so'z boyligini oshirishda turli zaruriy adabiyotlarni o'qib o'rganish va o'z ustida ishlash motivatsiyasini tarbiyalash;

-So'zning qudrati va ta'sir etish zaruriyatini anglab uni ishlatishning ahamiyatlilik darajasini yoshlarning rivojlantirish, ularning amaliy hayotida tashkil etish;

-Darslar jarayonida to'g'ri tashkil etilgan hamkorlik va muloqot motivatsiyasini shakllantirish orqali o'quvchida so'zlash muloqatchanlik qobiliyatini rivojlantirish;

Davr yoshlarimizga tarbiyani to'g'ri berish asosida nutqni, tafakkurni, dunyoqarashni va muloqotchanlikni rivojlantirishni talab qilmoqda. Demak o'qituvchilarning ya'ni ta'lim jarayonidagi tarbiya beruvchilarning samarali metodik yondashuv asosida ish ko'rishlari yoshlarda tushunchani o'stirish barobarida ta'limning har bir bo'ginida tizimlilikka asoslangan holda tarbiyani berish va nutqini o'stirib muloqot motivatsiyasini oshirish imkonini beradi.

THE SIGNIFICANCE OF NEW INNOVATIVE METHODS OF TEACHING ENGLISH FOR ESP STUDENTS

Nigora Yuldoshali kizi Mirzoyokubova - teacher, Tashkent branch of Samarkand State University of Veterinary Medicine Livestock and Biotechnologies

Abstract: In modern educational establishments the study of English occupies the important place and is an important component in training specialist for different branches of our country. The introduction of the innovative methods of teaching English becomes currently and has big practical importance. In article there is given synopsis and analysis of modern information-communication technology (ICT) in the field of teaching of English for special purposes.

Annotatsiya: Zamonaviy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'rganish muhim o'rin tutadi va mamlakatimizning turli tarmoqlari uchun mutaxassis tayyorlashda muhim tarkibiy qism hisoblanadi. Ingliz tilini o'qitishning innovatsion usullarini joriy etish hozirgi kunda katta amaliy ahamiyatga ega. Maqolada ingliz tilini maxsus maqsadlarda o'qitish sohasidagi zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ning konspektlari va tahlillari berilgan.

Аннотация: В современных учебных заведениях изучение английского языка занимает важное место и является важной составляющей в подготовке специалистов для различных отраслей нашей страны. Внедрение инновационных методов преподавания английского языка становится актуальным в настоящее время и имеет большое практическое значение. В статье дается краткий обзор и анализ современных информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в области преподавания английского языка для специальных целей.

Keywords: english for specific purposes, information-communication technologies (ICT), multimedia technologies, web-quest, Wiki, high vocational training.

Kalit so'zlar: aniq maqsadlar uchun ingliz tili, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), multimedia texnologiyalari, veb-kvest, Viki, yuqori kasbiy tayyorgarlik.

Ключевые слова: английский язык для специальных целей, информационно-коммуникационные технологии (ИКТ), мультимедийные технологии, веб-квест, Wiki, высшее профессиональное образование.

Currently, English for Specific Purposes (ESP) is taught all over the world in different directions. Since the 60s of the last century, when it first started being talked about ESP as a separate direction in teaching English as a foreign language, this aspect of English language teaching has developed considerably and has taken a leading position in teaching English for professional purposes. In the context of the dynamic development process of international integration and exchange of information professionals in any industry, in addition to traditional training, you need a tool that allows you to effectively and efficiently exchange professional information. That tool is a professionally oriented special purpose language or a language.

Today there are lots of monographs on the theory of ESP, ESP has developed special teaching methodology, conducted

a variety of studies. But among them, unfortunately, only a small portion of authors and developers. It is necessary to note the fact that in our country, officials at all levels say that university graduates today must surely know English. However, the level of English proficiency of students in philological universities is very different, and often leaves much to be desired. Thus, the vital was the question of a single program in foreign language to language high schools, which would take into account requirements for the level of foreign language graduates today. Today, such a program recommended by the scientific and methodological advice in foreign languages professor S.G.Ter — Minasova exist. It is based on the following provisions recorded in contemporary documents for the modernization of higher education: -Possession of a foreign language is an integral part of the training

of experts in high school. -Foreign language course is multi-level and developed in the context of lifelong learning. -Learning a foreign language is based on an integrated multidisciplinary basis. -Learning a foreign language is aimed at comprehensive development of communicative, cognitive, informational, socio-cultural, professional and general cultural competence of students. But, even with a single program, you must always take into account the specificity of each institution or its departments, customer demand and the students themselves¹.

An important role in vocational education plays ESP teachers. They are often asked to develop programs and training for ESP plans to organize a special English language courses for students, etc. As with any other form of training here, there are many methods and approaches used depending on the objectives of courses and resources available. Based on the philosophy of ESP, they can be divided into three main groups as follows: problem-based learning (PBL), an autonomous entity (AL) and training with the help of information and communication technologies (ICT). It is worthy that all of them are student-oriented methodology².

Today, when placed new emphasis on the interpretation of language education goals and made some changes in the process of educational interaction of the teacher and the student, the teacher must be clearer idea of what is required of him in the classroom of a foreign language. In the development of foreign language programs should take into account the potential of knowledge and language skills of students, as well as the motivation of the students in gaining knowledge. Apparent at first glance, a simple procedure to determine the content of teaching and the organization of training should include theoretical positions. The main objectives are the ESP teacher selection and organization of educational materials, preparation of effective training programs and plans aimed at obtaining the desired learning outcomes, support students' motivation, their efforts and endeavors. Another important element of the work in the

ESP group is to provide feedback to students with a teacher as for the organization of the control of the learning process, as well as for the organization of advice to students. When the ESP teacher comes into the audience, he is, above all, sets specific targets activities that help to create there conducive learning environment, a friendly atmosphere of mutual understanding and mutual support. By choosing certain teaching materials for foreign language to the course content, instructors or course developers thus express their ideas, views on the teaching of foreign languages and teaching methods. Goal setting exercises increasingly influences the choice of educational and methodological materials. If the teacher in the class aims to strengthening communication skills, it includes a variety of exercises, exercise simulating practice communicating in the language: business games; thematic dialogues; compilation instruction; reports; presentations and discussions. In drawing up the course should be borne in mind that the concept of «communicative competence» of students is not seen as the sum of their knowledge and skills, but also as a set of personal qualities of students (value-semantic orientations, knowledge, skills and abilities). Evaluation criteria is signed according to their ability to solve problems and find their own answers to the questions that arise in the course of professional, educational and social, cultural and everyday communication in a foreign language. The form of organization of the course program can be synthetic, when the language is segmented into separate language elements that are presented at one time, or analysis, when the language does not seem crushed, and one piece at a time and without linguistic contro³. The important element in ESP teaching is the ability of the teacher to create a classroom atmosphere for live communication and constructive debate. Students acquire stable communication skills only when they have the opportunity to use them to communicate with others. Too often, unfortunately, the teacher may be the only person to speak English, which students

¹ Teaching ESP: Best Practices / IBM PC CD – ROM: Published by «Repetitor Multi Media» for the English Language Office of the US Embassy. – Moscow, 2012. Ter-Minasova S. G., Language – only accompaniment to the specialty / Interview magazine, «The area of science». – Yaroslavl State University, 2012. – № 1.

² Alyavdina N. G., Margaryan T. D., Innovative techniques of English language for specific purposes in technical colleges. Humanitarian journal 2013, № 7.

³ Alyavdina N. G., Margaryan T. D., Innovative techniques of English language for specific purposes in technical colleges. Humanitarian journal 2013, № 7.

can talk and time to communicate with each student the teacher in the classroom is limited. Therefore, the teacher should develop and use effective techniques for the development of communication skills in their groups, as well as to involve in its work other resources, including the online resources of the Internet to encourage communication outside the classroom walls. People are easier to learn a foreign language when they are highly motivated and have the ability to use their knowledge and skills in the language environment that they understand and that are interested. From this perspective, ESP is a powerful tool for the realization of such a possibility. Students master the English language as they work with the materials that they find interesting and relevant, and that they can use in their professional work or further studies. Keep in mind that the more often students communicate in a language that they hear or where they read, the more they will succeed in mastering them. On the other hand, the more they will be forced to focus their attention on the purely linguistic, grammatical and other aspects of the language or its individual structures, which

seems difficult to them, the less willing they are to attend classes. As for the students of ESP, they are especially predisposed to concentrate on the material is closely related to their specialization in particular students of engineering specialties.

ESP training mechanisms more and more rapidly evolving and it is absolutely clear that to reach all the modern trends is impossible in this article. Thus, despite the fact that the teaching of ESP focuses on professionally oriented practical application, as well as any other aspect of English language teaching, it is based on the knowledge of the nature of language, to the knowledge of the basic methods and forms of teaching and learning. A blend of traditional teaching methods and new technologies, including the use of a virtual environment to support the motivation of the students, is becoming one of the productive approaches in the field of ESP training. Critical understanding of the material studied by students contributes to the formation required for their skills and abilities, forms the linguistic, socio-cultural, communicative and professional competence.

PRAGMALINGVISTIKA TILSHUNOSLIKNING OBYEKTI SIFATIDA

Maftuna Shokirovna Yunusova - stajyor-tadqiqotchi, Buxoro davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Biz ushbu maqolada pragmalingsvistika atamasi va uning o'rganilish metodologiyasi haqida so'z yuritdik. Maqolada pragmatika va uning lingvistikada tilshunoslikning alohida yo'nalish sifatida kirib kelishi haqida batafsil to'xtalib o'tildi.

Maqolada pragmalingsvistika va yashirin pragmatikaning farqlanish tamoyillari ochib berilgan. Shifokor nutqida yashirin pragmalingsvistika oid misollar keltirilgan. Pragmalingsvistika bevosita semiotika sifatida o'rganilgani va alohida yo'nalish sifatida kirib kelinganligi misollar orqali maqolada yoritilgan.

Аннотация: В этой статье мы рассказали о термине прагмалингвистика и методологии ее изучения. В статье подробно рассмотрена прагматика и ее вхождение в языкознание как отдельный раздел языкознания. В статье раскрываются принципы разграничения прагмалингвистики и скрытой прагматики. Приведены примеры скрытой прагмалингвистики в речи врача. В статье подчеркивается тот факт, что прагмалингвистика непосредственно изучается как качество семиотики и вводится как отдельное направление.

Abstract: In this article, we talked about the term pragmalinguistics and the methodology for studying it. The article considers in detail pragmatics and its entry into linguistics as a separate section of linguistics. The article reveals the principles of differentiation between pragmalinguistics and hidden pragmatics. Examples of hidden pragmalinguistics in the doctor's speech are given. The article emphasizes the fact that pragmalinguistics is directly studied as a quality of semiotics and introduced as a separate direction.

Kalit so'zlar: pragmalingsvistika, tilshunoslik, tilshunoslik nazariyasi, lingvistik - pragmatika, nutqiy faoliyat, sotsiolingsvistika, psixolingsvistika, etnolingsvistika

Ключевые слова: прагмалингвистика, языкознание, теория языкознания, лингвопрагматика, речевая деятельность, социолingsvistika, психолingsvistika, этнолингвистика.

Keywords: pragmalinguistics, linguistics, theory of linguistics, linguopragmatics, speech activity, sociolinguistics, psycholinguistics, ethnolinguistics.

Tilshunoslik yoki lingvistika tillarni o'rganuvchi fandır. Ushbu fanning amaliy va nazariy turlari mavjud bo'lib, tarkibida nazariy tilshunoslik tilning strukturasi (grammatikasi) va uning ma'nosi (semantikasini) o'rganadi. Grammatika – morfologiya (so'zlarning tuzilishi va o'zgarishi), sintaksis (so'zlarning iboralarga va gaplarga biriktirilish qoidalari) va fonologiya (tilni abstrakt tovushlar yordamida o'rganish) fanlarini qamrab oladi. Amaliy tilshunoslik, asosan, tilshunoslikda o'rganilgan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash bilan shug'ullanadi. Bu yo'nalishlar borasida ko'pgina tadqiqotlar, nazariy va amaliy ishlar o'zbek olim va olimlari tomonidan o'rganilgan. O'tgan asrning 70-80-yillaridan boshlab tilshunoslikda paragmatik yo'nalish kirib keldi. Hozirgi kunda ham bu yo'nalish ko'pgina qiziqishlarga sabab bo'lmoqda. Xo'sh,

bu qanday yo'nalish?¹Pragmatika – yunoncha "ish", "harakat" kabi ma'no anglatib, nutqdagi til birliklarining funktsionalligini o'rganuvchi semiotika va tilshunoslikning yo'nalishidir. Bu soha Sokratdan oldingi davrlarda ham qo'llanilgan va keyinchalik uni J.Lokk, E.Kant singari faylasuflar Aristoteldan o'zlashtirganlar. Shu yo'sinda "Pragmatika" oqimi vujudga keldi. Yillar o'tib bu fan sohasi zamonaviy tilshunoslik yo'nalishiga aylanib bordi. Bugungi kunda "Pragmatika" – "Pragmalingsvistika" nomli yangi soha sifatida rivojlanib, o'rganilmoqda va tadqiqotlar olib borilmoqda².

Keyingi yillarda «pragmatika» atamasini qo'llamaydigan tilshunos qolmadi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Shu o'rinda «Pragmalingsvistika nima bilan shug'ullanadi?», «Uning tadqiqot obyekti va predmeti nimadan iborat?», «Pragmatikaning asosiy

tushunchalari, tamoyillari qaysilar?» kabi savollar tug'iladi.

Dunyo tilshunosligida pragmalingsvistikaning predmetini aniqlashda ilk bor asos solgan olimlardan biri G.Klaus edi. U o'z asarida pragmatikani «belgilar (Z) va ushbu lisoniy belgilarni yaratuvchi, uzatuvchi hamda qabul qiluvchi shaxslar (M) o'rtasidagi munosabatlarni o'rganuvchi» fan sifatida ta'riflaydi³. Ushbu ta'rifdan ko'rinib turibdiki, pragmatikaning predmetini aniqlashda G.Klaus ham boshqa semiotiklar (Ch.Pirs, Ch.Morris, Y.S.Stepanov) kabi belgi va uni idrok etuvchi – interpretator munosabatidan uzoqlashmaydi. Hatto uning «pragmatika dastlabki o'rinda lisoniy belgilarning psixologik va sotsiologik tomonlarini o'rganuvchi nazariyadir» degan xulosasi ham pragmatika tushunchasini tor mazmunda tavsiflashdan boshqa narsa emas⁴.

To'g'ri, belgining munosabatlarga kirishish imkoniyatlarini inobatga olish semiotik tizim qismlarini ajratish va ularning o'zaro aloqalarini aniqlash uchun muhim. Busiz pragmatikaning semiotik jarayondagi o'rnini bilib bo'lmaydi. Lekin ushbu jarayon ishtirokchilari o'rtasidagi munosabat ikki tomonlama munosabat (belgi - interpretator) sifatida qaralganda, pragmatikaning ta'rifi faqat formal ko'rinish oladi. Unda beixtiyor lisoniy belgining vazifasini faqatgina ma'lumot yetkazish vositasidan iborat, degan fikr ustuvor bo'lib qoladi.

So'zsiz, muloqot jarayonining asosiy maqsadi axborot uzatish va qabul qilishdir. Shu sababli bo'lsa kerakki, kommunikatsiya hodisasiga turli mualliflar tomonidan berilayotgan barcha ta'riflar asosida ijtimoiy kommunikatsiyani insonlarning belgilar vositasida bajaradigan o'zaro «axborot – ma'no hamkorligi» sifatidagi talqini yotadi. Lekin muloqot maqsadi oddiygina axborot almashish bilan chegaralanib qolmaydi, axborot uzatishdan «hamkor»ga ta'sir o'tkazish, uni biror narsaga ishonitirish, bo'sundirish, harakatga undash maqsadi kutiladi. Bundan tashqari, semiotiklarning o'zlari e'tirof etganlaridek, aloqa vositasi bo'lmish belgilar so'zlovchi tomonidan o'z maylini, birovni yoki biror narsani yoqtirishini, noroziligini, hayratini va boshqa ruhiy tuyg'ularini izhor etish uchun ham qo'llanishini bilamiz. Lisoniy muloqotning xuddi shu jihatlari e'tiborga olingandagina semiotik tizimning qismlari o'zaro dinamik, harakatchan munosabatda bo'lishini tasavvur

qilish mumkin bo'ladi.

Lisoniy muloqot jarayonida ijro etiladigan vazifalarning turli-tumanligi ko'pchilik tomonidan e'tirof etib kelinmoqda. Bajarilishi mumkin bo'lgan vazifalar miqdori haqida bildirilayotgan fikrlar ham turlicha⁵. Binobarin, V.Robinson lisoniy tizimni muloqot jarayonida o'n to'rt xil vazifani bajarish qobiliyatiga ega deb hisoblaydi. Ammo muallif ajratayotgan vazifalarning barchasini bir qatorga qo'yib tasniflash qiyinchilik tug'diradi, chunki bu vazifalar turli bosqichlarda amalga oshiriladigan harakatlar natijasidir. Masalan, V.Robinson ajratgan «affektni (his-hayajonni) ifodalash» va «emotsional holat, shaxsiyatni yuzaga keltiruvchi manbani belgilash» vazifalarini qiyoslasak, ularni tamoman yagona bir tasnifiy qatorga joylashtirishning imkoni yo'qligiga ishonamiz. Lisoniy belgilarni muloqotda qo'llayotgan shaxs qandaydir bir emotsional ruhiy holatda bo'ladi, uning xatti-harakatlarida ijtimoiy kelib chiqishi, madaniyati o'z aksini topadi. Muloqot ishtirokchilarining bu turdagi xususiyatlarini lisoniy tizim bajaradigan vazifalar qatoriga kiritish ushbu qatorni cheksizlikka olib keladi va ilmiy tahlilning samarasiz bo'lishiga sabab bo'ladi.

Bunday oqibatdan qochish uchun dastavval «vazifa» (funktsiya) tushunchasining ilmiy qo'llanishdagi mazmunini aniqlashtirib olish lozim. Tushunchani izohlash uchun tibbiyot tiliga murojaat qilmoqchimiz. Ma'lumki, yurak urib turganda ovoz chiqaradi va qonni harakatlantiradi (ya'ni nasos vazifasini bajaradi). Xo'sh, bu ikkala faoliyatda ham biror bir vazifa ijrosini ko'rish mumkinmi? So'zsiz, yo'q. Vazifa faqatgina qonning harakatga keltirilishida namoyon bo'ladi, ovoz chiqarilishi («duk-duk») esa qon (nasos) harakatga kelishining qo'shimcha natijasidir. Albatta, yurakning urishi uning bajarayotgan vazifasidan darak beradi, shuning uchun ham shifokor bemor yuragi o'z vazifasini (qonni harakatga keltirishini) qanday bajarayotganini aniqlashda uning urishini tekshirishdan boshlaydi. Xuddi shuningdek, xurak otish nafas organlari faoliyatidan, chaynash (ovozi) ovqat iste'molidan darak beradi. Bunday qo'shimcha natijalarni biologik organlarning tabiatiga xos bo'lgan vazifalardan farqlash muhimdir.

Tilshunoslik tarixida inson nutqiy faoliyati bilan bog'liq masalalarni o'rganish muhim ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etib kelmoqda. Lingvistik-pragmatika falsafiy g'oyalar ta'sirida

¹ Safarov Shaxriyor (2008) "Pragmalingsvistika" 6-7-betlar

² Кузубоева, Г. С. Руhiy holat fe'llarining pragmalingsvistik tadqiqi / Г. С. Кузубоева. – Текст : непосредственный // Молодой ученый. – 2021. – № 46 (388). – С. 385-387. – URL: <https://moluch.ru/archive/388/85491/>.

³ Маслова В.А. Когнитив тилшunoslik. – Самарқанд, 2011. – Б. 8

⁴ Susov Ivan Pavlovich (1990) "Semiotika i lingvisticskaya pragmatika" 125-126-betlar

⁵ Safarov Sh. Pragmalingsvistika. Monografiya. Toshkent. nashriyoti, 2008-yil, 318-bet.

shakllana boshladi. Inson tildagi barcha semantik ilmlarni bilish bilan birga ularni o'z maqsadi yo'lida tanlay olishi va ifodalash imkoniga ega bo'lishi lozim. Tildagi ayni mana shu jihatlarni lingvistik pragmatika o'rganadi. Lingvistik pragmatikaning shakllanishi o'z-o'zidan semantika va pragmatika muammolari farqlanishidan boshlandi.

Buyo'nalishjahontilshunoslaritomonidan o'rganilgan. Jumladan: O.V Aleksandrova⁶, N.D Arutyunova⁷, I.A. Bezmenova, V.I.⁸, G.P.Grays⁹, M.A.Yegorova¹⁰, M.L.Makarov¹¹, Dj.R Ostin¹², A.G Pospelova,¹³N.I. Serkova¹⁴, K, Serl¹⁵, D.Frank¹⁶va boshqalar .

XX asr o'rtalarigacha "pragmatika" atamasi fanning turli sohalarida (masalan, semiotika, falsafa, sotsiologiya, psixologiya) qo'llanilgan, natijada uning mazmuni juda keng va noaniq bo'lib ketgan. Binobarin, lingvistik yo'naltirilgan pragmatikaning paydo bo'lishi va rivojlanishi jarayonida pragmatikaning tilshunoslikka tutgan o'rnini aniqlash va uning vazifalari doirasini cheklash zarurati tug'ildi. Pragmatika va tilshunoslik o'rtasidagi munosabatni uch xilda izohlash mumkin:

- 1) pragmatika tilshunoslik bilan chambarchas bog'liq bo'lgan alohida fan;
- 2) pragmatika tilshunoslikning bir qismi;
- 3) pragmatika tilshunoslikning bir qismini nazarda tutadi.

Ushbu uchta imkoniyat maqolada mavjud lingvistik adabiyotlar asosida muhokama qilinadi. Qoidaga ko'ra, pragmatika, agar nazariy yo'nalish sifatida ikki yoki undan ortiq fanlar kesishmasida paydo bo'lsa, mustaqil fan sifatida qabul qilinadi. Agar pragmatika tilshunoslikka uning boshqa bo'limlari qatori kiritilgan bo'lsa, u pragmalingsvistika yoki lingvistik pragmatika deb belgilanadi. Bu nuqtayi nazar hozirgi kunda eng keng

tarqalgan bo'lib, u ko'pincha, tilshunoslik bo'yicha lingvistik lug'atlarda, darsliklarda va qo'llanmalarda keltirilgan.

Agar pragmatika tilshunoslikning ma'lum bir bo'limi sifatida qaralsa, u ko'pincha matn lingvistikasi yoki semantikasining bir jihati hisoblanadi¹⁷. Xulosa qilib aytganda, yangicha talqin, taklif etiladi: tizimli tilshunoslik, amaliy tilshunoslik, fanlararo tilshunoslik va mumkin bo'lgan boshqa bo'limlardan tashqari, kommunikativ tilshunoslikni ham ajratib ko'rsatish kerak; pragmatika fonetika bilan bir qatorda kommunikativ tilshunoslikka ham tegishli.

XX asrning ikkinchi yarmida lingvistik pragmatikaning paydo bo'lishi va rivojlanishi uchun ikkita ilmiy yo'nalishning rivojlanishi natijalari alohida ahamiyatga ega edi. Birinchidan, bu faylasuflar va semiotika asoschilari C.Morris va C.Pirsning pragmatika tushunchasini belgi va uning talqinchisi, ya'ni yaratuvchi (ishlab chiqaruvchi) va tushunuvchi o'rtasidagi munosabat sifatida belgilash mumkin, degan g'oyalari edi¹⁸. Ikkinchidan, bu J. Ostin va J. Searl tomonidan nutq aktlari nazariyasi bo'lib, ular birinchi bo'lib gapni harakat sifatida va shunga mos ravishda muloqot jarayonini o'zaro ta'sirning faol jarayoni sifatida aniqladilar.

Pragmatikaning ilmiy yo'nalish sifatida rivojlanish tarixidan ma'lumki, uni turli fan sohalarining tarkibiy qismi sifatida qarash mumkin edi. Vaqt davriga va ma'lum bir nazariya mualliflariga qarab pragmatikani quyidagicha tushunish mumkin:

- 1) semiozning uchta komponentidan biri, uning doirasida belgilarning ularni hosil qiluvchi va izohlovchi subyektlarga munosabati o'rganiladi¹⁹;
- 2) shaxslarning o'zaro munosabatlaridagi

6 Aleksandrova O.V. Единство прагматики и лингвистики в изучении

текста художественной литературы / О.В. Александрова // Проблемы семантики и прагматики: Сб. науч. тр. – Калининград, 1996. – С. 3-7.

7 Арутюнова Н.Д. Истоки, проблемы и категории прагматики. / Н.Д. Арутюнова, Е.В. Падучева // Новое в зарубежной лингвистике. – М., 1985. – Вып. 16: Лингвистическая прагматика. – С. 5-30

8 Безменова И.А. Некоторые проблемы теории речевых актов / И.А. Безменова, В.И. Герасимов // Языковая деятельность в аспекте лингвистической прагматики: Сб. обзор. Сер. Теория и история языкознания / Отв. ред. В.И. Герасимов. – М., 1984. – С. 146-222.

9 Грайс Г.П. Логика и речевое общение / Г.П. Грайс // Новое в зарубежной лингвистике. – М., 1985. – Вып. 16: Лингвистическая прагматика. – С. 217- 237.

10 Егорова М.А. Контрастивно-прагматический анализ способов реализации просьбы (британская, американская, русская традиции): Дис. ... канд. филол. наук / М.А.Егорова. – Воронеж, 1995. – 181 с.

11 Макаров М.Л. Основы теории дискурса / М.Л. Макаров. – М.: ИТДГК«Гнозис» 2003. – 280 с.

12 Остин Дж. Р. Слово как действие / Дж. Р. Остин // Новое в зарубежной лингвистике. – М., 1986. – Вып. 17: Теория речевых актов. – С. 20-129.

13 Пospelova А.Г. Косвенные высказывания / А.Г. Пospelova // Спорные вопросы английской грамматики. – Л., 1988. – С. 141-153

14 Серкова Н.И. К истории понятия "прагматика" / Н.И. Серкова // Методы

лингвистических исследований: Межвузовский сборник научных трудов. –Хабаровск, 2000. – Ч.2. – С. 4-12

15 Серль Дж. Р. Классификация иллокутивных актов / Дж. Р. Серль //Зарубежная лингвистика: Пер. с англ. / Общ. ред. В.А.Звегинцева, Б.А.Успенского, Б.Ю.Городицкого. – М., 1999. – Вып.2. – С.229-253.

16 Д. Франк // Зарубежная лингвистика: Пер. с англ. / Общ. ред. В.А.Звегинцева, Б.А.Успенского,

Б.Ю.Городицкого. – М., 1999. – Вып.2. – С.254-264.

17 Lyons 2003, Heinemann und Viehweger 1991

18 Morris "Semiotik pragmatikas"1938: 6-7; Noth 1990: 50

19 Charlz Morrisning "Semiotik pragmatikas"1 (1938, 1939)

naqshlar, patologiyalar va paradokslarni o'rganish²⁰;

3) tilni turli maqsadlarga erishishi uchun harakat quroli sifatida o'rganish²¹

4) ijtimoiy o'zaro ta'sirning universal nazariyasi²²

5) nutqiy xulq-atvorning o'ziga xos (institutsonal) nazariyasi²³

Yuqoridagilar bilan bir qatorda, atamaning boshqa talqinlari ham mavjud. Asl atamaning bunday xilma-xil talqinlari tufayli lingvistik yo'naltirilgan pragmatikaning paydo bo'lishi va rivojlanishi jarayonida quyidagi vazifalarni hal qilish zarurati paydo bo'ldi:

1) pragmatikaning tilshunoslikka nisbatan tutgan o'rnini aniqlash;

2) yangi atamaga til nazariyasi doirasida ta'rif berish.

Bir qator nashrlarda tilshunoslar ushbu muammolarni hal qilish imkoniyatlari haqida o'z fikrlarini bildirdilar, ammo hozirgacha mavjud lingvistik yo'naltirilgan pragmatikaning o'ziga xos xususiyatlarini nimadan tashkil etishi va uning boshqa pragmatik sohalariga qanday aloqasi borligi borasida ular o'rtasida yakdillik yo'q.

Ushbu yangi fanning o'ziga xos xususiyatlarini ta'kidlash uchun "sotsiolingsvistika", "psixolingsvistika", "etnolingsvistika" va boshqa atamalariga parallel ravishda "pragmalingsvistika" lingvopragmatika" va "lingvistik pragmatika" atamasi qo'llanila boshlandi. Olimlar tomonidan turlicha talqinlar qayd etila boshlandi.

Lingvistik adabiyotda "pragmalingsvistika" tushunchasiga ikkita ta'rif berilganligi sababli, so'zlovchining ongli-ongsiz ravishda lingvistik birliklarni tanlashiga qarab nutq ta'sirining ikkita ko'rinishi mavjud, chunki pragmalingsvistikaning obyekt va predmeti tahlil qilinadi. Yuqoridagi mezonlarga ko'ra bir-biridan farq qiladigan pragmalingsvistikaning ikki turini ajratish maqsadga muvofiq ko'rinadi. Bir tomondan, hali o'zining zamonaviy nomini olmagan pragmalingsvistika "pragmatika" deb atalib, "nutqdagi til belgilarining ishlashi o'rganiladigan semiotika va tilshunoslikning tadqiqot sohasi" deb ta'riflangan. Biz bu ta'rifni 1990-yilda nashr etilgan asarda topamiz, o'shanda olimlar nutq belgilari haqidagi fanni alohida fan sifatida ajratib ko'rsatishmagan edi. Aynan o'shanda pragmatikaning fan sifatida hali aniq konturlari yo'qligi va uning doirasida

o'rganilayotgan masalalarga so'zlashuvchi subyekt, adresat, ularning muloqotdagi o'zaro ta'siri va muloqot holati bilan bog'liq masalalar kiritilganligi qayd etildi.

Pragmalingsvistikada funksional pragmalingsvistika va yashirin pragmalingsvistikani farqlash kerak. Funksional pragmalingsvistika doirasida matnni jo'natuvchining nutqiy faoliyati o'ylangan, qasddan tanlab olish bilan o'rganiladi, yashirin pragmalingsvistikada esa yuboruvchining nutq xatti-harakatining aktuallashuvi nutq signallarining intuitiv odatiy tanlovi-matn o'rganiladi. Bunday bo'linish, albatta, faqat tadqiqot maqsadlari uchun mantiqiy bo'ladi va shunga qaramay u foydalidir, chunki u muhim amaliy natijalarga olib keladi.

Fikrimiz dalili uchun Sharq tabobatida yashirin pragmalingsvistika haqida yetarli tasavvur beruvchi bir rivoyatni keltirish kifoyadir.

Bir kuni Luqmoni Hakim ko'chada ketayotib, oldinda borayotgan bir qizning dam-badam qon tupurayotganligini ko'ribdi. Hakim qiz uyiga kirib ketgach, uning orqasidan kiribdi va qizning otasiga: "Qizingiz bedavo dardga uchrabdi, afsuski, muolajaning iloji yo'q", – debdi. Uning bu so'zlarini haligi qiz eshik orqasida eshitib turgan ekan. Birdan yuragi duk-duk urib, qaltirab yiqilibdi, hushidan ketibdi. Xullas, shu bir og'iz so'z oqibatida qiz ruhiy dardga giriftor bo'lib, olamdan o'tibdi.

Kunlarning birida qizning otasi Luqmoni Hakimni uchratib qolibdi. Shunda ota: "Taqsir, qizim bedavo dardga chalinganini qanday bilib edingiz?" – deb so'rabdi. Luqmoni Hakim debdi: "Qizingiz ko'chada kela turib, bot-bot qon tuflaganini ko'rgan edim". Bu javobni eshitgan chol shart etib, o'z peshanasiga uribdi. Keyin sal o'ziga kelgach: "E, attang, qizim o'sha kuni shotut yeb edi, siz ko'rgan tupuk shotut sharbati edi-ku!" – debdi. Hakim chol oldida tiz cho'kib, uzr so'rabdi: "Siz menga va bizdan so'nggi avlodlarga unutilmas saboq berdingiz. Bir so'z bilan soppa-sog' odamni o'ldirish yoki bemorni oyoqqa turg'izib yuborish mumkin ekan".

Ko'rinadiki, shifokor xavfli kasallik bilan bog'liq axborotni bemor va uning yaqinlariga yetkazayotganda nihoyatda ehtiyotkorona yo'l tutishi lozim, aks holda, bu bemorning psixikasi va salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Professor A.Omonturdiyevning ta'kidlashicha, ko'pincha, voqelikni aynan oshkor bayon

20 Pavel Vatslavikning psixoterapevtik pragmatikasi. Vaclavik, Bivin, Jekson 2000

21 (J. Ostin va J. Searlning nutq aktlari nazariyasiga asoslangan lingvofalsafiy pragmatika) (qarang: Ostin 1962; Searle 1969, 1979; Searle, Vanderveken 1985)

22 J.Habermasning sotsiofalsafiy pragmatikasi. Habermas 1971, 1981, 1984, Habermas 2003;

23 Konrad Elich va Jochen Rehbeinning funksional pragmatikasi) (qarang, masalan, Ehlich, Rehbein 1986; Rehbein, Loning 1995).

the content of education and its content, in particular, including not only knowledge, skills and qualifications, but also the experience of creative activity, relationships with the environment, creative approach, and logical thinking, which make up universal human culture. placed transversely to the order.

Analysis of literature on the topic. The development of the future teacher's logical competence is a continuous process consisting of successively improving stages, and the quality of this process depends on certain pedagogical psychological conditions and situations. In higher educational institutions, it is important to increase the interest of future teachers in science during the educational process, to ensure their independence and activity, and to form a cognitive process aimed at forming critical thinking¹. The development of independent creative thinking encourages the student to search during the learning process. It shows the most important aspects of a person's thinking activity. In this process, the student is actively searching together with the teacher. In order to study the level of creative and critical thinking of future teachers in higher educational institutions, it is important to observe their communication processes. The observation method is widely used to compare students' thinking and communication skills [2]. When creating a pedagogical system aimed at forming students' creative and critical thinking skills, special attention should be paid to the following:

- Creating pedagogical and psychological conditions for the formation of creative and logical thinking in students;

- Determining the requirements for creative and logical thinking of students;

- Determining the specific pedagogical technology aspects of the process of forming creative and logical thinking skills in students².

Educational games are of great importance in developing the creative and critical thinking of future physicists in higher educational institutions. In this process, students work hard, analyzing books, reference books and maps related to the subject. It is known that every person has a certain creative power³. The basis of this creative power is the creation of new things. Students' imaginations will be creative and creative. In the process of reading educational or fiction literature,

students are required to relive in their memories the reality described in these books. Creative imaginations are distinguished from creative imaginations by the independent creation of new patterns. They are reflected in specific results of student activity. The value of the human personality depends on what ways of imagination exist in it. If creative imagination is manifested in a certain activity, this indicates a high level of development of the student's personality. It is necessary to develop personal imagination. Creative, plot-role games of a cognitive nature are of particular importance in personal development. Because it is the basis for expanding the imagination of students. The teacher pays attention to the content and quality of the lessons to increase the interest of the students. For this, he tries to make children think and activate them. Guides the discussion to make the student not a ready recipient of knowledge, but an active participant in the learning process in the classroom. Problem-based teaching methods give effective results in the formation of creative and logical thinking in students, problem-based approach to education is reflected in educational programs, in the presentation of teacher's knowledge, and in independent work of students.

The three-stage teaching model for developing critical thinking in the educational process consists of the stages of prompting, perceiving and thinking:

At the invitation stage, it is possible to get students interested in the lesson, to gather new knowledge on the subject, and to familiarize them with information.

At the stage of perception, he connects his knowledge on the subject with new information, compares and tries to determine its essence.

After the topic is fully understood by the students, the immediate thinking process begins. New ideas and information obtained at this stage are analyzed and synthesized by students and they speak the content of the text based on their understanding. Methods such as «Working with groups», «Discussion», «Problem teaching», «Brainstorming»⁴, as well as working with tables, written works expressing independent opinion, laboratory test works, problem solving, logical case assignments are used in the teaching of sciences. increases the activity of young people. Lessons conducted on the basis of

¹ Nafasov G. Model of Developing Cognitive Competence at Learning Process Elementary Mathematics //Eastern European Scientific Journal. – 2019. – №. 1.

² Karimova V.M. Sunnatova R. and others. Independent thinking. Do not help study for academic lyceums and vocational colleges. - T.: «Sharq», 2000. - p. 112.

³ Ishmuhamedov R., Abduqadirov A., Pardaev A. Innovative technologies in education. - T.: «Science and technology», 2008. - p. 27, 28

⁴ Ibragimova G. Creating student activities based on interactive reading methods and technologies. - T.: «Science and Technology», 2016. - p. 150.

these methods save time and deliver new knowledge to the student, therefore, at the same time, they are able to get out of the situation with the right conclusions in the problem situations, debates, which encourage them to think, deep observation, attract all their attention. will be able to connect and generalize their knowledge with other subjects⁵.

One of the teaching methods that increase student activity in the learning process is the «Working in small groups» method. In this, students work in small groups, and in this process, each group is given the opportunity to learn from each other, to evaluate what they have learned within their own potential, to appreciate knowledge in different situations and draw conclusions. This method can be used as follows:

1. The direction of activity is defined. Interrelated issues are identified from the problem.

2. The necessary foundation is created. Students should have an understanding of this problem (in this method of education, color, film photos, 5-6 minute screened documentaries on the topic are shown, and in difficult situations, they ask «What could I do in this situation?», «What would be the right thing to do?» is asked a question).

3. Groups are defined. Students are divided into groups of 5-6 people. Work is started according to clear instructions and assignments.

4. The teacher supports and directs the activities of each group.

5. The end of the lesson is discussed, students are evaluated, encouraged.

Skillful use of methods such as research, working games, and «Group discussion» in accordance with the principles of humanism in teaching students studying in the pedagogy of the higher education system is effective.

The teacher invites students to creative observation through a heuristic conversation, the reproductive method creates problematic situations in conveying the teacher's information and knowledge to students, and gives a high result in directing them to creativity and independent thinking. In this case, students are guided by the inductive and deductive method of information analysis, i.e. from simple to complex and vice versa, from complex to simple situations. One of the effective ways to develop students' creative and critical thinking is free thinking

classes. Free thinking lessons are devoted to discussions of popular scientific literature, articles and articles published in the press. Based on the results of the research of the authors of the article, it was concluded that the success of discussion lessons depends on the correct solution of the following issues:

- for students to actively prepare for the lesson;
- organization of cooperation and assistance between them;

- for students to fully express their opinions and logically prove them;

- that students develop the skills of patiently and patiently listening to the opinions of others;

- ability of the teacher, faith, ability to activate the knowledge activity of students depends on the level of acquisition of skills and qualifications. The method of «logical thinking» is based on the ability of the student to express his opinion on a given issue or problem, to critically re-perceive the opinions of others, to justify and maintain his point of view. Usually, such a need arises when solving issues of a debate nature. This method gives the teacher the opportunity to improve students' listening and communication skills, to develop the ability to understand from different points of view, to solve controversial issues, to increase their analytical observation and thinking skills, and to strengthen their ability to form their own opinion. «Critical thinking» methodology.

1. Students are given a problematic task and the following questions are asked: «What do you think?», «What is your opinion?», «What do you think?» Such questions are aimed at students forming their own point of view.

2. Students are given the opportunity to develop their point of view and opinion.

3. The student justifies his opinion, in order to clarify his point of view, the following questions can be asked: «Why do you think so?», «On what basis did you come to such a conclusion?»

4. The teacher gives an opportunity to speak to students who have a different opinion on the issue under consideration, in which the following questions can be asked: Who does not approve of the expressed opinion, why?

5. Together with the students, the teacher will analyze all the opinions by means of discussion of different opinions, in which the following questions can be asked: «Why do you not approve the point of view of others?»

⁵ Nafasova G., Abdullayeva B. S. DEVELOPMENT OF LOGICAL COMPETENCE OF FUTURE PHYSICS TEACHERS BASED ON STEAM AND SMART EDUCATIONAL TECHNOLOGIES //Eurasian Journal of Academic Research. – 2023. – T. 3. – №. 1 Part 2. – C. 138-140.

«Can you give reasons that support your point of view?». In our opinion, the problem assignment, the decision made on the issue is reached by the students accepting or re-evaluating their own points of view, in which the following questions can be asked: «Whose point of view is the most appropriate in your opinion?». It is important for the teacher to be able to choose the methods and methods that serve to form the creative and critical thinking of students and use them in the educational process, to take into account the young characteristics of students in the development

of creative activity in students.

Conclusion, we can say that problem-based learning of educational materials increases students activity in learning, teaches independent creative thinking. In developing the logical competence of a future physics teacher, it is important to form a creative worldview along with scientific knowledge. This will create an important basis for his future career. In higher educational institutions, it is appropriate to organize a lesson following the «student-creator-expert» system.

ERKIN VOHIDOV SHE'RIYATIDA FALSAFIY TAFAKKUR VA YUMOR

Nigora Zubaydulla qizi Kiryigitova - stajyor-o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xalqimizning sevimli shoiri, O'zbekiston qahramoni Erkin Vohidov ijodida yengil kulgi hisoblangan yumordan foydalanib yaratilgan ijod namunalari yaratilish tarixiga e'tibor qaratilgan. Undagi milliy hajvchilik, mahalliy kolorit belgilaridan foydalanish mahorati tasvirlangan. Shoir poetikasiga mansub "Yashavor" nomli to'rtlikning falsafiy mohiyati, "Karashma" she'ri orqali yigit-qizlar o'rtasidagi suhbatlarning asl ma'nosi, "Hazrat Xizr va zamona ayoli" she'ri orqali esa ayollarning oilaviy, hayotiy muammolari oldida Xizrning ham gangib qolishi hazilomuz kulgi ostiga olingani badiiy ifodalarda yoritishga harakat qilingan.

Аннотация: Данная статья посвящена истории создания примеров произведений, созданных с использованием юмора, которым считается легкий смех в творчестве Эркина Вахидова, любимого поэта нашего народа, героя Узбекистана. Описывается национальный юмор и мастерство использования местных цветочных символов. Философская сущность четверостишия «Яшавор», относящаяся к поэтике поэта, изначальный смысл бесед юношей и девушек через поэму «Карашма», смятение Хизра перед семейными и жизненными проблемами женщин через стихотворение «Хазрат Хизр ва замона аёли» пытались в художественных выражениях объяснить, что оно снято под юмористический смех.

Abstract: This article focuses on the history of the creation of examples of works created using humor, which is considered a light laugh in the work of Erkin Vahidov, the beloved poet of our people, the hero of Uzbekistan. It describes national humor and the skill of using local color symbols. The philosophical essence of the quatrain "Yashavor" belonging to the poetics of the poet, the original meaning of the conversations between young men and women through the poem "Karashma", and the confusion of Khizr in front of the family and life problems of women through the poem "Hazrat Khizr va zamona ayoli" it has been tried to explain in artistic expressions that it was taken under humorous laughter.

Kalit so'zlar: Erkin Vohidov, hajvchilik, yumor, mutoyiba, she'riyatda yumorning qo'llanilishi

Ключевые слова: Эркин Вахидов, юмор, поэзия, использование юмора в поэзии.

Keywords: Erkin Vahidov, humor, poetry, use of humor in poetry

Mutoyiba yoki yumor odamlar, obyektlar yoki vaziyatlarning kuzatuvchilarda kulgu hissini keltirib chiqara olish sifati yoki qobiliyatidir. Mutoyibani ijtimoiy aloqaning bir ko'rinishi deb hisoblash mumkin.

Badiiy adabiyotga mansub yumoristik asarda ijodkor ijtimoiy hayotdagi, shaxsiy turmushdagi, xususan, ayrim kishilardagi

ba'zi kamchilik, nuqsonlardan kulib, uni tanqid qiladi. Bunda ijodkor tanqid qilinayotgan obyektning yo'qotilishiga tarafdor emas, unga achinadi, undagi mavjud kamchilikning tuzalishini istaydi.

Odamlar go'daklikdan tom ma'noda kulish qobiliyatiga ega. Ko'pchiligimiz kulgili komediyalar, hajvchilar va hazillarni



yaxshi ko'ramiz. Kulgi hayotdagi eng yaxshi voqealarning, bayramlarning ajralmas qismidir. Biroq biror bir insonni yuziga tabassum hadya etish anchayin murakkab jarayon.

Qiziqarli, kulgiga boy latifa va voqeahodisalarni aytib berish orqali insonlarni kuldirish birmuncha osondek, ammo bunday hodisalarni badiiyatda she'riy misralarga ko'chirib, lablarga yengil tabassum ulashish esa amri mahol. Mana shunday mashaqqatli ishni barchamizning sevimli shoirimiz, O'zbekiston qahramoni Erkin Vohidov poetikasida uchratishimiz mumkin. Erkin Vohidov o'z davri ijodkorlari orasida yumor, mutoyibaga alohida e'tibor qaratgan ijodkor sanaladi. Buni uning hamkasblari, maslakdosh o'rtoqlari keltirgan xotiralardan ham bilib olish mumkin¹. Buning sababi, uni yurtimizni kulgi-mutoyibaga, hazilga moyil o'lkalaridan hisoblangan so'lim Farg'ona vodiysidan, vodiyning yana-da kulgisevar maskani Oltiariqda tug'ilganligi bilan bog'liq deyish mumkin. Shuning uchun ham shoir ijodida mashhur "Donishqishloq hangomalari", "Matmusaning boshidan kechirganlari" kabi turkum hangomalar o'rin olgan. Shuning uchun biz bu maqolada shoir ijodidagi kulgi va yumorga moyillikni biografik metod orqali tekshirishga qaror qildik.

Shoir xalqimizning turmush tarzi, urf-odatlar va kundalik oddiy voqealarini yumor qo'shilgan shoirona misralarda ifoda etadi. Masalan, o'zbek xalqi azaldan mehmondostligi bilan boshqa millatlardan ajralib turadi. Ana shu ajoyib xislati sabab yurtimiz odamlari boshqa xalqlar oldida yuksak hurmat va e'tirofqa loyiq. Shoirning "Yashavor" nomli to'rtligida o'zbekchilikka xos bo'lgan mana shunday oliyanob fazilatlarimizning "ikkinchi tomoni" haqidagi hayotiy haqiqat yumorga boyitilganini ko'rishimiz mumkin:

Meva berma bolangga,
Asra mehmon xolangga.
Mahkam berkit, yashavor,
Qoraytirib tashavor²
Xayrlashmay ketar ingliz
Mezbonini notinch etmaydi.
Donishqishloq ahli, bilingiz
Xayrlashadiyu ketmaydi³.

Misralarida o'zbekona mehmondostlikning yakunini holat kulgisiga

ko'chiradi. She'rni o'qigan o'quvchi borki, uyiga kelgan mehmonning "ana ketaman, mana ketaman" deya ketishi cho'zilgan vaziyatni eslab yuziga tabassum olmay iloji yo'q.

O'zbek tilida erkaklar tilga olmaydigan, faqat ayollarga xos so'zlar bor. Bular asosan, nozu karashma, erkalik bilan bog'liq so'zlar. Olam yaralibdiki, muhabbat tuyg'usi, bu xislat bilan bog'liq vaziyatlar davom etib kelmoqda. Barchaning boshida bor savdo deya ta'rif etiladigan muhabbat voqealariga e'tibor bersak, yigit va qiz o'rtasida aksariyat hollarda juda o'xshash, bir-biriga yaqin suhbatlar mavjud. Ayniqsa, qizlarning "tegmang menga", "nari turing", "qurib keting", "yomon ekansiz" kabi birikmalar aslida qanday mazmun kasb etishini shoir "karashma" nomli she'rida hazil-mutoyiba orqali ochib beradi:

Qiz bolaning rost gapi ozdir,
Yolg'onlari bisyor adashma,
Tegmang menga degani - nozdir,
"nari turing" desa karashma.
Ishva bilan "qurib keting" der,
Ko'ngilga hech qattiq olmagin,
"O'ling" desa yashnab yuraver,
"Qoching" desa qochib qolmagin.
Hech gul bormi axir tikonsiz,
Tikoniga fido qilgil jon,
Bir kun aytar: yomon ekansiz,
Ma'nosi siz eng yaxshi inson⁴

Ayollar mavzusini davom ettirib shuni aytish joizki, har qanday zamon ayolining "dunyo tashvishi-yu, dunyo arz-dodi" bor.

Bunday "arz-dod"ga oddiy inson uyoqda tursin, hatto Xizr alayhissalom ham quloq tuta olmaganini badiiy ifodalar ila ziynatlangan "Hazrat Xizr va zamona ayoli" she'rida guvoh bo'lamiz:

Bu ertak emas yo shoir xayoli,
Hangoma ham emas suhbat qizirga.
Shu kunlarda bizning zamon ayoli
Uchradi nogahon Hazrat Xizruga.
Ul alayhissalom odatga ko'ra
Tila tilagingni, deb qildi xitob,
Xizrman, xohlagan narsangni so'ra,
Muhayyo qilurman borini shitob.
Ertak haqiqatga aylangan davron,
Hayratni unutgan bizning ayollar.
Ayniqsa ularga xush kelar har on

¹ Ahmadjon Meliboyev. Yumor tuyg'usi. \ to quyosh sochgayki nur. Erkin Vohidov ijodi zamondoshlar nigohida. Toshkent: O'zbekiston, 234-256.

² Erkin Vohidov. Asarlar. To'rtinchi jild. Qish halovati. - Toshkent: sharq, 2016. - 415 b.

³ Erkin Vohidov. Tanlangan asarlar. - Toshkent: sharq, 2016. - 683 b.

⁴ Erkin vohidov. Asarlar. To'rtinchi jild. Qish halovati. - Toshkent: sharq, 2016. - 415 b.

Tila tilagingni, deb tursa chollar.
 Juvon lol qolmadi, arz qila ketdi,
 Ro'yxat ayta ketdi behadu poyon.
 Hazrat charchab o'lar holatga etdi,
 Xizr bo'lganidan yuz ming pushaymon.
 Sho'rlik ko'kka qarab hasratda, dog'da,
 Dedi: ishingni ol, yo parvardigor.
 Yo'q esa, ey tangrim, yorug' dunyoda
 Meni ayollarga duch qilma zinhor⁵.

O'zbek tilida erkaklar tilga olmaydigan, faqat ayollarga xos so'zlar bor. Bular asosan, nozu karashma, erkalik bilan bog'liq so'zlar.

Odamsot yashar ekan hayoti davomida barcha narsalarni eslab qololmaydi. Hatto shunday insonlar borki, oddiy narsalar uning parishonxotirligidan dalolat berib turadi. O'rni kelganda doimo eslab qolish uchun nimadir choralar topishi, ammo ana shu topilgan "najot" ham o'z xotirasidan ko'tarilib qolishi quyidagi misralarda o'z badiiy ifodasini topgan:

Yoddan chiqmasin deb, xayol aralash,
 Har kech unga odat reja qoralash.
 Ro'yxatni batafsil yozar-u, ammo
 Tongda esdan chiqar qog'ozga qarash⁶

Bu keltirilgan ijod namunalari Erkin Vohidov yaratgan ijod ummonining bir tomchisi xolos. Bu tomchilarning har qatrasida insoniyat uchun suv va havodek zarur ehtiyojlari gavhar misol ipga terilgan. Sho'irga berilgan "O'zbekiston xalq shoiri" degan unvon

uning chinakamiga xalq shoiri ekanligini isbotlaydi. Erkin Vohidov hayot haqiqatlarini marjondek misralarda jilovlar ekan, har bir so'zni shunchaki so'z deb emas, balki "... So'zni tirik jon deb biladi va so'z bilan so'zlashadi"⁷. Va bu yo'lda unga hamisha yengil kulgi – yumor hamroh bo'ldi.

O'zbek nasrida yumorga boy bo'lgan asar namunalarni yaratgan ijodkorlar anchayin salmoqli. Ammo nazmda nasrchalik ko'p va xo'p yozilgan deb aytolmaymiz. Mana shunday nasr va nazm orasidagi tafovutni Erkin Vohidov o'z hajvga boy she'riy misralari bilan tenglashtirishga harakat qilgan haqiqiy so'z san'atkor edi. Shoir poetikasidagi har bir misrada o'zbek xalqiga xos bo'lgan mentalitet namunalari, insonlarning psixologiyasi bilan bog'liq jarayonlar, davrning yorqin manzarasi o'z chizgilarida xalqona so'zlar ila o'quvchi ongu shuuriga soddalik va o'rni kelganda ko'chimlar bilan taqdim etadi.

Kulgi ijtimoiy munosabatlarning ajoyib elementidir. Kulgi yordamida o'z-o'zimizni himoya qilishimiz, ma'qullash kabi hislarni bildirishimiz mumkin. Bu hislar, ayniqsa, she'riy misralarda hayotiy misollar bilan dalillansa yanada zalvorli va yanada ishonarli bo'lishi shubhasizdir. Kulish orqali suhbatdoshda o'zimizga nisbatan mehrni uyg'otamiz va jamiyat bilan munosabatlarni yo'lga qo'yamiz.

ONA TILI TA'LIMIDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING NAZARIY ASOSLARI

Ruqiya Qahhorovna Ashurbayeva - assistent, Buxoro davlat tibbiyot instituti.

Annotatsiya: Mazkur maqolada "innovatsiya" atamasi va uning ta'lim tizimidagi ahamiyati haqida so'z yuritilgan bo'lib, bunda ona tili ta'limi jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llash haqidagi mulohazalar o'z ifodasini topgan. Shuningdek, ushbu maqolada innovatsion texnologiyalarni amalga oshirish jarayonida o'qituvchiga qo'yiladigan talablar va maktab ona tili darslarida o'quvchilarga innovatsion texnologiyalar vositasida integratsiyalashgan ta'lim berishning nazariy asoslari haqidagi ma'lumotlar o'rin olgan.

Аннотация: В данной статье говорится о термине «инновация» и его значении в системе образования, а также высказываются замечания по поводу эффективного использования инновационных педагогических технологий в процессе обучения родному языку. Также в данной статье содержится информация о требованиях к учителю при внедрении инновационных технологий и теоретические основы обеспечения интегрированного обучения учащихся с помощью инновационных технологий на уроках родного языка в школе.

Abstract: This article is explained about the term "innovation" and its importance in the educational system, and comments on the effective use of innovative pedagogical technology in the process of mother tongue education are expressed. In the course of additional actions in the implementation of these innovative technologies, the teacher received information about the theoretical foundations of integrated education for students based on innovative technologies.

Kalit so'zlari: ona tili, innovatsiya, texnologiya, integratsiya, pedagogik jarayon, ta'lim, ma'lumot, tarbiya, o'qituvchi, o'quvchi.

Ключевые слова: родной язык, инновация, технология, интеграция, педагогический процесс, образование, информация, образование, учитель, ученик.

Keywords: mother tongue, innovation, technology, integration, pedagogical process, education, information, education, teacher, student.

Bugungi kunda taraqqiyotning yuqori darajasi faqatgina sifatli ta'lim bilan amalga oshishi sir emas. Shu nuqtayi nazardan jahonning rivojlangan davlatlarida ta'lim sohasiga alohida e'tibor berilib, ko'pgina yutuqlarga erishilganligi ilm-fanda o'z tasdig'ini topgan. O'zbekistonda ham davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan ta'lim tizimini sifatli tashkil qilish islohotlari diqqatga sazovorligini aytib o'tish joiz. Bunda ta'lim tizimining barcha bosqichlarida ta'lim jarayonini innovatsion zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan tashkil qilish muhim sanaladi. Zero, zamon bilan hamnafas ta'lim jarayonini amalga oshirish jahon andozalariga mos, raqobatbardosh kadrlar tayyorlab berish imkonini beradi. Avvalo "innovatsiya" tushunchasi haqida to'xtalsak. Innovatsiya–inglizcha so'z bo'lib, "yangilik kiritish" degan ma'noni anglatadi. U ham zamonaviy pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismlaridandir. (Innovatsiya so'zining o'ziga xos atama sifatida fanga kirib kelishi

amerikalik iqtisodchi olim, siyosatshunos Yozef Shumpeter (1912) nomi bilan bog'liq. U dastlab innovatsion rivojlanish tahlilida asosiy e'tiborni yangiliklarni tatbiq qilishga sabab bo'luvchi o'zaro harakatlanuvchi omillarga qaratish zarur, degan g'oyani ilgari surgan)¹.

Innovatsiya – ijtimoiy madaniy obyekt sifatlarini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy subyektlarning harakat tizimi bo'lib, kutilayotgan natijalarga olib keladigan yangiliklar tizimini tashkil etadi. Demak, innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish nazarda tutiladi. Ta'limda innovatsiya yangi texnika va texnologiya, pedagogik jarayon va boshqaruvni tashkil etishning yangi shakllariga o'tish orqali erishilgan natijani namoyon etadi.

Zamonaviy o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion usullardan foydalana bilishi va amalga oshira olishi lozim. Innovatsion texnologiyalar jarayonida

⁵ Erkin Vohidov. Inson. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 316 b.

⁶ Erkin Vohidov. So'z latofati. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. – 215 b.

⁷ Ahmadjon Melliboyev. Yumor tuyg'usi. \ to quyosh sochgayki nur. Erkin Vohidov ijodi zamondoshlar nigohida. Toshkent: O'zbekiston, 234-256.

¹ Антипина Е.В. Инновационная концепция предпринимательства Й.Шумпетера: теоретические аспекты // Экономическая теория. Вестник РЭУ журнал, 2014. № 10. 30-39-с.

o'qituvchiga qo'yiladigan talablar quyidagilar:

- innovatsion texnologiya tushunchasini, uning mazmun-mohiyatini bilishi;
- innovatsion texnologiyalarning ta'lim maqsadini amalga oshirishdagi o'rni va rolini bilishi;
- innovatsion texnologiyalarni fanlar bo'yicha qo'llash prinsip(tamoyil)larini bilishi;
- ta'limiy va ishchanlik o'yinlarini bilishi;
- muammoli rivojlantiruvchi ta'lim metodlarini egallagan bo'lishi;
- o'quvchilarning mustaqil faoliyatlarini tashkil qilish va ta'minlash yo'llarini chuqur o'rganishi;
- o'quvchilarning o'z ustida mustaqil ishlash mahoratini oshirish usullarini egallashi;
- ko'rgazmali o'qitish usullarini bilishi va egallashi;
- ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llab, namunaviy imitatsiya o'quv mashg'ulotlarini o'tishi;
- ta'lim-tarbiyaning faollashtiruvchi usullarini bilishi va egallashi kerak².

Ta'kidlash joizki, innovatsion texnologiyalardan majburan foydalanish mumkin emas. Bunda, eng avvalo, til ta'limining mazmuni va maqsadini nazardan qochirmaslik zarur. Boshqacha qilib aytganda, asosiy diqqat-e'tibor ta'lim mazmunidan o'quv materialini berish usuliga tamoman o'tib ketmasligi shart. Ta'lim berish vositasi, usuli bo'lmish axborot-kommunikatsion texnologiyalarning ulkan imkoniyatlariga tamoman mahliyo bo'lib, ularni o'qitishning yagona qolipi, andazasi sifatida qarash ham to'g'ri bo'lmaydi. G'arblik yirik mutaxassis K.Shennon ogohlantirganidek, "bu sohada juda hushyor bo'lmoq talab etiladi, chunki barcha eshiklarni bitta kalit bilan ochib bo'lmaydi. Ona tili ta'limida bu borada juda ham ziyalik bilan ish tutish maqsadga muvofiq"³.

Demak, ona tili mashg'ulotlarida tajribali pedagoglar tomonidan asoslangan yoki ular tomonidan qo'llanilayotgan ilg'or texnologiyalardan ona tili ta'limi maqsadi ro'yobi uchun o'rinli va samarali foydalanish, shuningdek, ularni ijodiy rivojlantirish ham o'ta muhim.

A.Y.Danilyuk: "Ta'lim integratsiyasi birligi tarkibidagi har ikkala so'zni sinonim sifatida qabul qilish kerak. Chunki ta'limning o'zi integratsiyadir. Integratsiya nafaqat ta'lim,

balki u individual tafakkurdan tortib, fan, san'at, falsafagacha bo'lgan barcha samarali ma'naviy faoliyat jarayonlarining asosi"⁴, deb yozgan edi.

Soha adabiyotlari ma'lumotlariga tayangan holda maktab ona tili darslarida o'quvchilarga innovatsion texnologiyalar vositasida integratsiyalashgan ta'lim berishning nazariy asoslarini quyidagicha belgilashni o'rinli deb hisobladik:

1) ona tili darslarida o'quvchilarga innovatsion texnologiyalar vositasida integratsiyalashgan ta'lim berish o'qitishning tashkiliy shakli, ayni paytda o'quvchida ijodiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qila oladigan bilim, ma'lumot va amaliyotlar bilan ishlash usuli hamdir;

2) ona tili darslarida o'quvchilarga innovatsion texnologiyalar vositasida integratsiyalashgan ta'lim berish jarayoni hamisha o'zgaruvchan, barqaror emas;

3) ona tili darslarida o'quvchilarga innovatsion texnologiyalar vositasida integratsiyalashgan ta'lim berish jarayoni o'qitish samaradorligining yuqori bo'lishi ko'zlangan holatda oldindan aniq va pishiq loyihalashtirilishi (o'zaro mos faktlar tanlanishi, tizimlashtirilishi, tahlil etilishi, ular orasidagi uyg'unlikka urg'u berilishi va h.) muhim;

4) integratsiyalashgan ta'lim berish jarayonida ona tilidan o'tilishi rejalashtirilgan mavzuga tanlangan boshqa o'quv predmetlari mavzulari aynan teng kelishi, o'quvchilarda bitta mavzu doirasida ma'lumot, xabar va axborotlar almashinuvining ta'minlanishiga erishish zarur;

5) o'quvchilarga integratsiyalashgan ta'lim berish jarayonida, imkon qadar, reproduktiv (tayyor) bilim berishni chegaralash va kognitivlikka (o'zi izlab topishiga) ko'proq imkon berish kerak;

6) integratsiyalashgan ta'lim berish jarayoni uchun fan o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan (2-3 yoki 4-5 o'quv predmeti doirasida loyihalashtirilgan) "katta ilmiy matn"ni dars oxirigacha o'quvchi o'z so'zi bilan aytib bera oladigan "sodda matn"ga aylantira olishi zarurki, bu dars jarayonida integrativlikka erishilganligini dalillaydi;

7) ona tili darslarida o'quvchilarga innovatsion texnologiyalar vositasida

² Yuldasheva D., Cho'liyeva G. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar (maktab ona tili ta'limi misolida). Metodik qo'llanma. Germaniya: Globe Edit. – 2020. –172 b. 82-83-b.

³ Гордон Л.Г. Информационные технологии в образовании для общества знаний: существуют ли универсальный ключ? / confifap.cpic.ru/upload/conf2005/reports/doklad_577/doc

⁴ Данилюк А.Я. Теория интеграции образования. Монография. Ростов н/Д.: Изд-во Рост. пед. ун-та, 2000. 440 с. 10-11-с.

integratsiyalashgan ta'lim berish jarayoni o'quvchilarni faktlar asosida mantiqiy tafakkur qilishga yo'llagandagina ahamiyatli sanaladi;

8) ona tili darslarida o'quvchilarga innovatsion texnologiyalar vositasida integratsiyalashgan ta'lim berish jarayoni nazariya va amaliyot uyg'unligi, soddadan murakkabga qarab borish, tushunarlilik, izchillik va uzviylikni ta'minlash, o'quvchining yosh xususiyatlarini inobatga olish kabi umumdidaktik tamoyillarga qat'iy rioya qilishni taqozo etadi;

9) ona tili darslarida o'quvchilarga innovatsion texnologiyalar vositasida integratsiyalashgan ta'lim berish serqirra jarayon bo'lib, u

a) ona tili ta'limining umumiy hamda xususiy maqsadlari bilan;

b) ona tili ta'limining bosh maqsadga bo'ysundirilgan mazmuni, usuli, vositalari hamda o'qituvchi-o'quvchi munosabatlari bilan;

v) quyi sinf dasturida ko'rsatilgan mazmun va amaliyot bilan;

g) o'quvchining turmush tarzida ishlatilish zarurati mavjudligi bilan;

d) o'quvchiga o'quv predmetlari aloqadorlik asosida taqdim etilayotgan ma'lumot, xabar va axborotlar o'zining qiymatini yo'qotmasligi bilan ham integrativlik hosil qilishi zarur;

10) ona tili darslarida o'quvchilarga innovatsion texnologiyalar vositasida integratsiyalashgan ta'lim berish jarayoni kelgusida o'quvchining iqtisodiy, ijtimoiy va maishiy, madaniy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qila olishi kerak;

11) integratsiyalashgan ta'lim berish jarayonining hamisha o'rinli, foydali va qulay innovatsion texnologiyalar vositasida amalga oshirilishi ta'minlanishini nazardan qochirmaslik.

Shuni ta'kidlash joizki, innovatsion texnologiyalardan foydalanishda me'yorni unutmazlik kerak. "...ilgari o'qituvchi turli hajm va miqdorlarda, ibtidoiy shakl-shamoyillarda, turli materiallar va rang-bo'yoqlardan foydalanib o'zi yoki kimningdir ko'magida ming bir mashaqqat bilan tayyorlashi lozim bo'lgan ko'rgazmali qurollar zahmatini bugun axborot-kommunikatsion texnologiyalar, xususan, kompyuterlar, multimedia mahsulotlari beminnat o'z bo'yniga oldi"⁵. Bunda o'qituvchi uchun mashaqqat emas, balki mahorat o'lchoviga aylandi. Albatta, kompyuter savodxonligiga yetarli darajada ega ona tili o'qituvchisi qaysi mavzuni o'tishda bu imkoniyatlardan qay yo'sinda foydalanishni bilishi, buni oldindan rejalashtira olishi zarur. Axborot-kommunikatsion texnologiyalarni qo'llashda o'tiladigan mavzuning, sinfda olib boriladigan ishning xarakteri inobatga olinsagina o'qituvchi ham, o'quvchi ham o'qitishning mazkur zamonaviy vositalaridan aniq foyda ko'radi, taqdim etilayotgan o'quv materialini ortiqcha zo'riqishsiz o'zlashtirish imkoniyati kengayadi, asosiysi, ta'lim beruvchi ham, ta'lim oluvchi ham ona tili ta'limi jarayonidan zavq, huzur tuyadi.

Unutmazlik kerakki, ona tili darslarida o'quvchilarga innovatsion texnologiyalar vositasida integratsiyalashgan ta'lim berish g'oyasini pedagogik amaliyotga tatbiq etishning o'ziga xos murakkabliklari mavjud bo'lib, u muayyan pedagogik tayyorgarlik bilan birga, qulay shart-sharoitni ham taqozo etadi. Shuning uchun ham innovatsion pedagogik texnologiyalarni amalga qo'llash uchun uning joriylanish aspektlarini mukammal o'rganib, qulay va optimal ko'rinishlarini ta'limda aks ettirish lozim. Zero, ona tili ta'lim tizimi jarayoni innovatsion pedagogik texnologiyalarni amalga oshirishda o'ziga xos yonadashuvlarni talab qiladi.

⁵ Mahmudov N. Ona tili ta'limi va zamon taqozosi// "O'zbek tili" doimiy anjumanining XII yig'ini materiallari. Toshkent: RTM, 2013. 204 b. 11-b.

Asar bilan tanishar ekanmiz, shoir turkiy tildagi bir so'zning ko'p ma'noda kelishi (shakli bir ma'nosi har xil) mumtoz adabiyotda "tajnis" san'atini vujudga keltirishini bunday "tajnis" yoki "tajnisi tomm" lar nafis tuyuqlarga poydevor bo'lishligini aytadi. "Ayniqsa she'riyatda barcha iste'dod egalari qoshida ravshan va jami fasohat ahli nazarida aniqdirki tajnis va iyhom san'atlari eng yuksak usullardir"⁷.

*Chun pari-yu hurdur oting, begim
Sur'at ichra dev erur oting, begim
Har bir o'qkim, el-ulus andin qochar
Notavon jonim sari oting, begim*

Bundan tashqari asarda Muhammad (s.a.v), Iso Masih, Nuh, Yofas, Som, Hom kabi payg'ambar va aziz avliyolar nomlari, Xalil binni Ahmad, Hazrat Ali, Nasiri Tusiy, Amir Xusrav Dehlaviy, Xoja Hofiz Sheroziy, Muslihiddin Sa'diy Sheroziy, Avhadiddin Anvari, Salmon Sovajiy, Mir Shohiy, Mavlono Kotibiy, Nizomiy Ganjaviy, Maxdumiy Nuran (Abdurahmon Jomiy), Xoja Kalmiddin Salmon, Hasson Sobit, Laqit, Xoqoniy Shervoniy, Kamol Ismoil, Zahir Foryobiy, Abulqosim Firdavsiy, Shayx Nizomiy Ganjaviy, Sakkokiy, Haydar Xorazmiy, Atoiy, Muqimiy, Yaqiniy, Amiriy, Gadoyi, Lutfiy kabi shoir va adiblar, Ibrohim Mahdi, Ma'mun Xalifa, Sulton To'g'rulbek, Shoh Shujo', Amir Temur Ko'ragon, Shohrux Sulton, Sulton Abulqosim Bobur, Abul G'ozii Sulton Husayn Bahodirxon, Sulton Husayn Mirzo kabi shoh-sultonlarga

alohida to'xtalib, ularning har biriga tasannolar aytadi. Navoiy shunchaki turkiy so'zlarning boshqa tillardagi so'zlar (ko'proq fors tili) bilan muqoyasa qilib qo'ymay, bir so'zning turli ma'nolari, qarindosh nomlari, ov qilish odobi, predmet otlari, harakat ifodalovchi fe'llar, shaxs nomlari, turli xil faoliyat bildiruvchi so'zlar bilan dalillab o'tgan.

Xulosa qilib aytsak, XV asrning so'ngida adabiy, lingvistik, tasavvufiy nuqtayi-nazardan puxta, pishiq, mukammal yaratilgan ushbu asarning hozirgi kunga kelib o'zbek tiliga tabdil qilinishi bugungi kun o'quvchisi uchun Navoiy ijodini o'rganishdagi qadamlardan biri bo'lsa, asarni har taraflama tahlilga tortish esa kitob mutolaasini faqatgina ilmiy doiralarda emas keng jamoatchilikka yetib borishligiga dasturi amal bo'ladi. Shoir turkiy til poeziyasining qonun qoidalarini asoslab berishda, poetik uslublardan foydalangani, ularga nisbat berganligi, baytlarda tasavvufiy qarashlarini badiiy asar shaklining mazmuniga singdirganligi, o'z davrining nafaqat tilshunos yoki adabiyotshunosi, balki yetuk tarixchisi sifatida ham kamolga yetgani, Yaqin va O'rta Sharq shoirlarining badiiy ijod na'munalariga alohida ehtirom ko'rsatganligi, mumtoz poetikaning barcha unsurlarini mukammal bilganligi nasriy asarlarida nazmiy parchalardan mohirona foydalanganligi shoir dahosining naqadar ulug'ligidan dalolat beradi.

KASBIY TAYYORGARLIK JARAYONIDA O'QITUVCHILARNING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH

Qobuljon Toshtemirovich Isroilov - mustaqil tadqiqotchi, Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurtimizda ta'lim tizimini yangi sifat bosqichiga olib chiqishdagi islohotlar, "kasbiy tayyorgarlik" tushunchasi, uning maqsadi, bo'lajak tarix fani o'qituvchisi ijodiy faoliyatining turli ko'rinishlarida o'zini namoyon qila olish ehtiyojlari bilan bog'liq shaxsiy o'z-o'zini amalda namoyon etish motivlari, kasbga moslashishi, bilish-kasbiy faoliyatida bo'lajak o'qituvchining faolligi talabalarda kasbiy-pedagogik faoliyatning shakllanishi hamda yuzaga kelishi haqida so'z boradi.

Аннотация: В данной статье рассмотрены реформы по выводу системы образования на новый качественный уровень в нашей стране, понятие «профессиональная подготовка», ее назначение, личностные потребности, связанные с возможностью самовыражения в различных формах творческой деятельности учащегося. Мотивы самовыражения будущего учителя истории на практике, адаптация к профессии, активность будущего учителя в познавательной-профессиональной деятельности, становление и зарождение профессионально-педагогической деятельности студентов.

Abstract: In this article, the reforms in bringing the education system to a new quality level in our country, the concept of "professional training", its purpose, personal needs related to the ability to express oneself in various forms of the creative activity of the future history teacher motives of self-expression in practice, adaptation to the profession, activity of the future teacher in cognitive-professional activities, the formation and emergence of professional-pedagogical activities in students are described.

Kalit so'zlar: "kasbiy tayyorgarlik", "tayyorgarlik", "tayyorlik", "aqliy hujum", "Kreativ", "anglash" "kasbiy-pedagogik faollik"

Ключевые слова: "профессиональная подготовка", "тренировка", "брейнсторминг", "творческий", "понимание", "профессиональная деятельность"

Keywords: "vocational training", "training", "brainstorming", "creative", "understanding", "professional activity"

Yurtimizda ta'lim tizimini yangi sifat oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, bosqichiga olib chiqishdagi islohotlar har tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, bir bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining o'z tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv fanlari bo'yicha ilmiy bilim va salohiyatini jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyojini, asosiy milliy va qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy umumbashariy qadriyatlarimizga asoslangan, etish, o'quv jarayonida amaliy ko'nikmalarni ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, mehnat hamda shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga zarur shart-sharoitlarni yaratish, talabalar ilmiy asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, va ijodiy faoliyatini tashkil etishning pedagogik o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni yondashuvlarini takomillashtirish zaruratini keng joriy etish¹ kabi muhim vazifalar yuzaga keltirmoqda. O'zbekiston Respublikasi belgilangan. "Ta'lim sifatini oshirish, asosan, Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi o'qituvchilar va talabalar bilim va ijodiy "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini salohiyatini oshirish, intellektual darajasini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini ko'tarish bilan bog'liq"². "Kasbiy tayyorgarlik" tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son tushunchasining maqsadi shaxsning kasbiy Farmonida «mustaqil ta'lim soatlari ulushini jihatlarini uyg'unligini shakllantirish hisoblanib,

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni.

² Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: O'zbekiston, 2017. 49-bet

biz unga kasbni egallashning tayyorlov bosqichi sifatida emas, balki uni bevosita egallashda maqsadga yo'naltirilgan jarayon sifatida qarashimiz zarur.

Pedagogik ta'lim nazariyasi rivojlanishida kasbiy tayyorgarlik va pedagog shaxsning shakllanish qonuniyatlarini ochib beruvchi qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Shu o'rinda F.N.Gonobolin, M.I.Dyachenko, N.V.Kuzmina, V.A.Ponomarenko, V.A.Slastenin va boshqalarning ilmiy tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari borasida (I.A.Kolesnikov, V. A. Slastenin); o'qituvchi kasbiy mehnatini o'rganishning yangi istiqbollari borasida (T.A.Kovalev, K.A.Markova, A.B.Orlov); o'qituvchining kasbiy rivojlanishi konsepsiyalari to'g'risida (L.M.Mitina) fikr bildirishgan.

Yuqorida qayd qilingan ilmiy tadqiqot ishlarining tahlili izchillik tamoyili asosida kasbiy tayyorgarlikni amalga oshirish g'oyasini ajratish imkonini beradi. Shuningdek, kadrlarni izchil kasbga tayyorlash deganda ta'lim hamda shaxsiy mehnat faoliyatining maqsadga yo'naltirilgan bosqichma-bosqich almashinuvi va o'zaro bir-birini boyitishi asosida shaxsning moyilligi va qobiliyatiga muvofiq tarzda kasbiy bilim, ko'nikma, mahoratlarni doimiy egallash, qo'llash va takomillashtirish kabi jihatlari nazardatutiladi. Olibborilgan ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, kasbiy tayyorgarlik tushunchasi bir necha ma'nolarda qo'llaniladi, ba'zan kasbiy tayyorgarlik bilan uyg'unlashtiriladi. Leksik belgilarni umumlashtiruvchi ma'lumot "tayyorgarlik" termini "tayyorlik" tushunchasini boyitadi degan xulosani beradi, ya'ni kasbga tayyorgarlik unga tayyorlikni shakllantirish demakdir. Kasbiy tayyorlik-nafaqat natija, balki kasbiy tayyorgarlik maqsadi, har bir shaxs imkoniyatlari samarali amalga oshirilishining boshlang'ich va asosiy shart-sharoiti hamdir.

Pedagogik faoliyatga kasbiy tayyorlik turli mualliflar (A.A.Derkach, K.M.Duray-Novakova, S.A.Nikolayenko, T.F.Sadchikova, V.A.Slastenin, R.G.Shakirova va boshqalar) tomonidan kasbiy ahamiyatli sifatlar va ruhiy holatlar tizimini o'zida aks ettiruvchi murakkab shaxsiy ta'limni nazarda tutadi, u o'z navbatida pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishni belgilovchi uyg'unlikni o'zida mujassam etadi. K.M.Duray-Novakova

o'z tadqiqotida kasbiy-pedagogik faoliyatga nisbatan ruhiy tayyorlik strukturasi sezilarli darajada kengaytiradi va motivatsion hamda tezkor-amaliy natija beradigan tarkibiy qismlardan tashqari boshqa mohiyatlarni ham ajratib ko'rsatadi:³

- aniqlash-tushunish-baholash (kasb mazmuni va kasbiy rollar talablari, kasbiy vazifalarni hal qilish usullari, kasbiy tayyorgarlikni baholash borasidagi bilim va tasavvurlar),

- hissiy-irodali (faoliyat natijalari ustidan javobgarlik hissi, o'z-o'zini nazorat qilish, harakatlarni boshqara olish kabilar orqali kasbiy majburiyatlarni amalga oshirish shakllanadi)

- yo'l-yo'riqli va xulqiy (pedagogning halol ishlash kayfiyati) tarkibiy qismlar.

K.M.Duray-Novakovaning istiqboldagi o'qituvchining kasbiy faoliyatga tayyorlik strukturasi nisbatan aytilgan fikriga S.A.Nikolayenko ham qo'shiladi va u motivatsion, bilish-aniqlash, amaliy natija beradigan, hissiy-irodali hamda baholash tarkibiy qismlarini ajratadi. Pedagogik tadqiqotlarda ta'lim olish asoslari B.I.Adaskin, M.F.Belyayev, A.M.Vasilevskaya, Y.D.Varnakova, O.S.Grebenyuk, V.S.Ilin, Y.V.Sharov va boshqalarning monografiyalarida batafsil yoritilgan. O'qituvchining innovatsion faoliyati motivatsiyasini tadqiq qilib, B.A.Slastyonin, L.S.Podimova va boshqa olimlar dalillarning quyidagi guruhlarini ajratib ko'rsatadilar:

- ijodiy faoliyatning turli ko'rinishlarida o'zini namoyon qila olish ehtiyojlari bilan bog'liq shaxsiy o'z-o'zini amalda ko'rsatish motivlari;

- talabalarni o'qitish va tarbiyalashga intilish kabi umumiy ko'rinishdagi kasbiy motivlar;

- atrofdagilarning tashqi ijobiy bahosi orqali o'zini namoyon qilish bilan bog'liq jamiyatdagi mavqeyini belgilab olish motivlari;

- ijodiy faoliyat natijalari ustidan moddiy yoki ma'naviy rag'batlantirishga erishish bilan bog'liq tashqi rag'batlantirish motivlari shular jumlasidandir.

Kasbiy tayyorgarlik ko'pgina ichki va tashqi omillar bilan terminlashtirilgan holatdir. Shuning uchun uning mohiyati va ko'rsatkichlarini belgilashda ko'pgina

qiyinchiliklar yuzaga keladi. Tizimli- strukturali tahlil va faoliyatli yondashuv kasbiy tayyorgarlikni quyidagi bosqichlar orqali ta'riflash imkonini beradi:

1) kasbga moslashish;
2) bilish-kasbiy faoliyatida talabning faolligi;

3) talabalarda kasbiy-pedagogik faoliyatning shakllanishi anglash-faoliyatli yondashuvda yuzaga keladi;

4) ijodiy pedagogik faoliyatning barcha qadamlarini bajarish zaruriyatini his qilishni nazarda tutuvchi pedagogik tadqiqotni amalga oshirishda shaxsiy qayta o'zgarishlar, ijodiy ilhomlanish bosqichi. Shunday qilib, kasbiy tayyorgarlik jarayonini - ko'p qatlamli ta'lim deb tasdiqlay olamiz, uning barcha tarkibiy qismlari o'zaro bir-biri bilan uzviy bog'liq va bir-birini taqazo qiladi, shuningdek, bo'lajak pedagogda qayd qilinganlardan birining mavjud bo'lmasligi mutaxassis shaxsiyati strukturasi albatta nomutanosiblikning vujudga kelishiga olib keladi. A.A.Verbitskiy bitiruvchilarning kasbga nisbatan yetarlicha tayyor emasligi sabablarini tadqiq qilib, qator ziddiyatlarni aniqladi:

- o'quv predmetining mavhum jihati va kasbiy faoliyatning aniq predmeti o'rtasida;

- ko'pgina o'quv fanlari bo'yicha bilimlarning tarqoqligi va ulardan tizimli foydalanish zaruriyati orasida;

- ta'limda talabning ijrochilik holati va pedagogning tashabbuskorlik vaziyati o'rtasida;

- talaba o'quv ishlarining alohida jihati va guruh ishlariga qo'yilgan talablar orasidagi qarshiliklar. Ko'p yillik kuzatishni umumlashtirgan holda shuni ta'kidlash joizki, "mustaqil, ijodkor o'qituvchi-tadqiqotchi"ni rivojlantirishga qaramasdan, amaliyotda asosan yetarlicha ijodkor, tashabbuskor bo'lmagan, "o'rta" mutaxassisni bir qolipda takror ishlab chiqarish amalga oshirilmoqda⁴. Bu esa talabalarning talab doirasidagi ijodkorlikka, ishning turi va shakllariga nisbatan mustaqillikka qiziqishining yo'qolishi, ta'lim ijobiy motivatsiyasining pasayishiga olib keladi. Hozirgi kunda pedagogik ta'lim jiddiy o'zgarishlarga duch kelmoqda: ta'lim vazifalari, mazmuni, usullari qayta ko'rib

chiqilmoqda. Kasbiy faoliyatni ijodiy amalga oshirishga qodir mutaxassisni pedagogik o'quv muassasasida tayyorlashning asosli tizimini yaratish zaruriyati borasidagi fikr tobora baralla yangramoqda. Shunga ko'ra, pedagogik o'quv muassasalarida talabalar ijodiy faoliyati shart-sharoitlarini tashkillashtirish bo'yicha pedagogik zahirada to'plangan tajribani tadqiq qilish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Pedagogika tamoyilini Y.A.Ponomarev, V.I.Andreyevlar tomonidan ishlab chiqilgan ijodiy pedagogika tamoyillari bilan qiyoslab, biz ijodkorlikka yo'naltirilgan jarayonda amalga oshirilishi talab qilinadigan uch tamoyilini ajratdik:

1) o'quvchi shaxsiga nisbatan hurmat;

2) optimistik munosabat;

3) hamkorlik (birgalikda ijod qilish).

Ushbu tamoyillarni amalga oshirish talabalar ijodiy faoliyatini tashkillashtirishning quyidagi usullariga ko'maklashadi. P.Torrans tomonidan asoslangan ijodiy qobiliyatni tadqiq qilish yo'nalishi keng qamrovli bo'ldi. Testlarni ishlab chiqish bilan S.Rimm, G.Devis, T.Beltcher, B.Uaytin, D.Xolm va boshqalar shug'ullanishdi. Barcha metodiklar u yoki bu shaxsiy tavsiflarni namoyon qilish va ularning ijodiy imkoniyatlari bilan aloqasini belgilashga e'tibor qaratdilar⁵. Ijodiy qobiliyatni belgilash testi tahlil qilinarkan ekan, N.F.Talzina ularning qobiliyatga nisbatan mexanik yondashuv ekanligini adolatli tanqid qiladi, unda miqdoriy farqlargina tan olinadi va sifat jihatidan o'ziga xoslik e'tiborsiz qoldirilishini ta'kidlaydi. D.B.Bogoyavlenskaya testlarning qadr-qimmatini noaniq rag'batlantiruvchi omil, vazifalarning ochiqligi, javoblarning ko'p ma'noliligi, jiddiy vaqtinchalik cheklovlardan xoli sifatida qayd qiladi. Biroq testlarning ijodiy qobiliyat tashxisi muammosini samarali hal qilish imkoniga ega emasligi borasida gapiradi, uning fikricha, ijodkorlikning har qanday tadqiqi bir necha bor olib borilishi zarur. Testlarning kamchiligi, D.B.Bogoyavlenskayaning fikricha, sinaluvchidan vazifa talab qilgan aqliy qobiliyatnigina namoyon qila oladi, test ijodiy imkoniyatning namoyon bo'lishini cheklaydi. D.B.Bogoyavlenskaya tomonidan ishlab chiqilgan "Kreativ maydon" metodi tashxisiy usulning deyarli yangi modeli hisoblanadi. Uning asosiga "rag'batlantirmaslik" tamoyili

⁴ Ernazarova G.O, Isroilov Q.T. Bo'lg'usi tarix o'qituvchilarida kreativlikni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari.

ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, 2021. 1613-1621 betlar. <https://doi.org/10.24411/2181-1385-2021-00780>

⁵ Ахмедова М. Т. Педагогик компетентлик. Услуги кулланма. -Т.: BROK CLASSSERVIS, 2016. 67-bet

qo'yilgan, ya'ni har qanday ichki va tashqi rag'batlantirish bo'lmaydi. Intellectual faollikni namoyon qilish uchun "Kreativ maydon" metodi belgilangan. Hozirgi kunda tobora keng tarqalgan metod "aqliy hujum" usulidir⁶. V.I.Andreyev ushbu metodni pedagogikaga xos-ajoyib g'oyalarni jamoa bo'lib izlash deb nomlashni taklif qiladi. Uning mohiyati g'oyaning paydo bo'lishi jarayonini baholashdan ajratib olishdir. Aqliy hujum metodi (breynstorming) amerikalik psixolog A.Osborn tomonidan 30-yillarda asos solingan. Qo'llash natijalari yuqori bo'lgan va bu metodga katta umid bog'lashgan. Ma'lum bo'lishicha, shaxs ijodiy qobiliyatlari namoyon bo'lishiga asosiy to'siq bo'lib psixologik (ruhiy), ham ichki, ham tashqi to'siqlar hisoblanadi. Ushbu to'siqlarni bartaraf qilish uchun ham qoidalar ishlab chiqilgan, ular aqliy hujum asosida yotadi: tanqid qilmaslik, fantaziyani (xayol) rag'batlantirish, keng miqdordagi g'oyalarga intilish kabilar shular jumlasidandir.

Aqliy hujumning bir necha turlari mavjud: to'g'ridan-to'g'ri aqliy hujum, teskari aqliy hujum, "g'oyalar anjumani" va boshqalar. Shuningdek, individual aqliy hujum metodi ham mavjud bo'lib, unda inson navbatma-navbat "yaratuvchilik" va "tanqidchi" rolini o'ziga oladi. Biroq g'oyani guruh bilan muhokama qilish ancha samarali.

Adabiyotlar tahlili talabalar ijodiy faoliyatini tashkillashtirish shakllarini ajratish imkonini berdi: muammoli ma'ruza, seminar, laboratoriya-amaliy mashg'ulotlar, rasmiy o'yinlar, muammoli laboratoriyalar, maxsus kurslar va maxsus seminarlar,

treninglar. Muammoli ma'ruza ta'limni tashkillashtirishning shakli sifatida A.A.Verbitskiy, B.P.Bitinas, L.M.Luzina, N.M.Yakovleva va boshqalarning ishlarida uchraydi. Muammoli ma'ruza jarayonida har bir talabani fikrlash faoliyati faollashadi, anglash jarayoni tadqiqot faoliyati bilan yaqinlashadi. Muammoli bayon qilish uchun fanning muhim bo'limlari tanlab olinadi, ular birgalikda o'quv fanining asosiy mazmunini tashkil qiladi va kelgusidagi kasbiy faoliyat uchun o'ta muhim hisoblanadi hamda talabalar tomonidan o'zlashtirilishi ancha murakkab sanaladi. Barcha davrlardagi buyuk ma'ruzachilar tushunilishi oson bo'lishi, g'oyaviy va hissiy ta'siri ortishi uchun ma'ruzalarni muammoli amalga oshirishdan foydalanganlar. Muammoli ma'ruza ustalari K.A.Timiryazev, D.I.Mendeleyev, P.F.Lesgaftlar bo'lganlar. Ta'limning eng keng tarqalgan shakllaridan biri seminar sanaladi. Uning asosiy maqsadi talabalarga ilmiy xodimlar faoliyatining modellashgan shakllari sharoitida nazariy bilimlardan amaliy foydalanish imkoniyatini yaratishdir. (A.A.Verbitskiy, A.M.Matyushkin)

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ta'lim muassasasi o'zining doimiy murakkab ijtimoiy rolini ushbu muassasada doimiy ijodiy izlanishga nisbatan o'z qobiliyati bilan ajralib turuvchi, yuqori kasbiy mahoratga ega, axloqiy-insonparvar sifatlar mavjud bo'lgan, dadil mustaqil qarorlar qabul qilishga qodir o'qituvchilar ishlagandagina muvaffaqiyatli amalga oshirishi mumkin.

IS'HOQXON IBRAT ASARLARIDA QO'LLANGAN UZUAL VA OKKAZIONAL YASALMALARNING DERIVATSION XUSUSIYATLARI

Murotali Latipov - mustaqil izlanuvchi, Gulliston davlat universiteti

Annotatsiya: Maqolada ma'rifatparvar jadid adibi Is'hoqxon Ibratning nasriy va nazmiy asarlari matnida qo'llangan uzual va okkazional yasalma leksemalarning derevatsion xususiyatlari o'rganilgan. Bunda adib asarlaridagi uzual va okkazional so'z yasalishining mohiyati, yaratilish sabablari, modellari, tiplari hamda ularning uslubiy vazifalari ilmiy tahlil qilingan.

Аннотация: В статье исследуются деривационные особенности узуальных и окказиональных искусственных лексем, используемых в тексте прозаических и научных произведений просветленного джадидского литератора Исхахана Ибрата. При этом был проведен научный анализ сущности узуального и окказионального словообразования в произведениях писателя, причин создания, моделей, типов, а также их методологических задач.

Abstract: The article examines the derivational features of the usual and occasional artificial lexemes used in the text of prose and scientific works of the enlightened Jadid writer Iskhak Khan Ibrat. At the same time, a scientific analysis was carried out of the essence of the usual and occasional word formation in the writer's works, the reasons for creation, models, types, as well as their methodological tasks.

Kalit so'zlar: uzual ma'no, okkazional ma'no, muvaqqat ma'no, derevatsiya, semantika, semantik qurshov, so'z yasash qolipi, so'z yasash modeli, neologizm, transformatsiya, affiksatsiya, kompozitsiya.

Ключевые слова: узуальное значение, окказиональное значение, временное значение, деривация, семантика, семантическое окружение, словообразовательный шаблон, словообразовательная модель, неологизм, трансформация, аффиксация, композиция.

Keywords: usual meaning, occasional meaning, temporal meaning, derivation, semantics, semantic environment, word-building pattern, word-building model, neologism, transformation, affixation, composition.

Ma'lumki, leksemalarning semantik tabiatidagi uzual va okkazional ma'nolar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular o'zaro farqlanadi. So'zda hosila ma'noning yuzaga kelishi leksik ma'no denotativning obyektiv borliqdagi narsa, voqeylik, harakat, holat va belgi kabilar bilan munosabatiga ko'ra sodir bo'ladi¹.

Dastlab ushbu ma'nolarning xususiyatiga qisqacha to'xtalib o'tsak. Tilshunoslik atamalarining izohli lug'atida uzual va okkazional ma'noga quyidagicha ta'rif beriladi: uzual ma'no so'zda lug'aviy birlik sifatida mavjud bo'lgan, umum tomonidan qabul etilgan, umum qo'llanishdagi ma'no. Masalan, bosh so'zining "tananing bo'yindan yuqori qismi", "boshliq", "rahbar" ma'nolari; katta so'zining "hajm, o'lchami nisbatan ortiq, ulkan", "yosh jihatdan ortiq" ma'nolari uzual ma'nolardir². Uzual ma'no so'zning

semantik tarkibiga kirib, nutqdan tashqarida ham anglashiladi³. Tilshunos M.Mirtojiyev uzual ma'noni quyidagicha ta'riflaydi: "So'z leksemasi "yigit so'zidan qaytmas..." (maqol) gapida "va'da" uzual ma'nosida qo'llangan. U so'z so'zining semantik tarkibiga kiradi. Shuning uchun bu so'zni shu uzual ma'nosi bilan boshqa gap tarkibida ham qo'llash mumkin: Xudo bitta - so'z bitta (maqol). Agar so'z ma'nosi okkazional bo'lganda edi, u o'zi oid gapdan tashqarida ifoda bermas va boshqa gap tarkibida shu ma'nosi bilan namoyon bo'lmasdi. Chunki okkazional ma'no ma'lum nutqiy sharoitdan kelib chiqib ma'lum nutqdagi so'zda hosil bo'ladi. U shu nutqdan tashqarida yashamaydi⁴. Okkazional yoki muvaqqat ma'no esa so'zning ma'no tuzilishida shakllanib yetmagan, ma'lum individual qo'llanishda favqulodda yuzaga chiqadigan ma'nodir: Fan, san'atning gullari

¹ Реформатский А. Введение в языковедение. – Москва: Просвещение, 1967. – С. 5.

² Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 1998. –B. 113

³ Mirtojiyev M. O'zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Muztoz so'z, 2010. –B. 46.

⁴ Shu manba. –B. 49.

butun, to'plangandi suhbat uchun (Oybek). Ushbu ikki tushunchaning farqini M.Mirtojiyev quyidagicha batafsil izohlaydi: "Uzual ma'no okkazonal ma'nodan farqli holda, faqat bir so'zning semantik tarkibiga kiradi. Masalan, "suyukli bola" birikmasining okkazonal ma'nosining ijobiy emotsional komponenti bilan qo'zichoq, bo'taloq, toychoq, shunqor, do'mboq kabi so'zlarni ifodalash mumkin. Uzual ma'noni bir so'z ifodalaydi, ya'ni uni yana ikkinchi bir so'zda ifodalab bo'lmaydi"⁴. Anglashiladiki, uzual ma'noni til hodisasi sifatida, okkazonal ma'noni esa mohiyati bilan faqat kontekstual holatda o'z ifodasini topadigan nutq hodisasi sifatida baholash lozim bo'ladi.

O'zbek tilshunosligida uzual va okkazonal yasalmalarning mohiyati, yaratilish sabablari, tiplari, ularning uslubiy vazifalari qoniqarli yoritilgan. Ammo tilimizda bunday semantik tabiatli leksemalarning xarakterli materiallari hali yetarli darajada to'plangan va tadqiq qilingan deb bo'lmaydi. Bunday material turli adiblarning badiiy asarlari, publitsistik, satirik-yumoristik asarlari matnida mavjud. Mana shunday manbalar qatoriga Is'hoqxon Ibrat asarlarini ham qo'shish mumkin.

Is'hoqxon Ibrat asarlarida o'zbek tili so'z yasalihi qoliplariga mos keladigan yasama so'zlar ham, shuningdek, o'ziga xos yasalihi qolipiga ega yasama so'zlar ham uchraydi. Jumladan, uzual yasalihi qolipi asosida – xona affiksoidi bilan yasalihi ning o'ziga xos usulini yuzaga keltirgan chopmaxona, e'timodxonona, chopxonona, g'ussaxonona, ilojxonona yasalmalari ham e'tiborni tortadi. Ibrat uslubiga xos ushbu yasalmalar o'zbek tilida keng tarqalgan yasovchi vosita asosida yasalgan bo'lib, bu so'zlarning ba'zisi uzual, ba'zisi okkazonal ma'no kasb etgan:

Minguchyuzuyigirma oltida chopmaxona
Ochmoqqa bo'ldi ruxsat va so'z berib
zamonam⁵.

Mazkur parchadagi ajratib ko'rsatilgan yasama so'z o'zbek tili uchun uzual yasalihi sanaladi, garchi, chopmaxona va chopxonona so'zlaridan ikkinchisi kam uchraydigan so'z bo'lib, Ibrat uslubiga xos qo'llanish hisoblanadi.

Yilu oyi g'am bo'ldi bu yil g'ussaxonada,
Ko'rmay ko'zi aylandi bo'lub dom-donada.
Bu misolda qo'llangan g'ussaxonona so'zi "so'z yasalihi asosidan anglashilgan ish, harakat, narsa amalga oshiriladigan joy" ma'noli ot yasashga xizmat qilgan. Ammo bu so'z "O'zbek tilining izohli lug'ati"da uchramaydi,

demak, bu okkazonal yasalihi hisoblanadi. Xuddi shunday okkazonal so'z yasalihi hodisasi adibning nasriy asarlari matnida ham uchraydi: Vaqti zobidlar urg'uchini olib borib, hibs qilib, so'ngra xonni ilojxonaga olib borib, so'ngra chiqarib, istintoq qilganda, bu urg'uchi Namangonda fuqarosidan to'raqo'rg'onlik Solih sarkor degan Ortuq sarkorni(ng) o'g'li ekan.

-garchilik murakkab qo'shimchasi yordamida yasalgan otlar asosdan anglashilgan belgi, holat, harakat-hodisa bilan aloqador bo'lgan umumiy tushunchani bildiradi: loygarchilik, odamgarchilik, yog'ingarchilik, namgarchilik, ovoragarchilik, rasvogarchilik, xafagarchilik, sharmandagarchilik⁶. Adib asarlarida bunday qolip bilan yasalihi holati kuzatiladi: Atoliq odam yuborub, qancha uzurlar aytib: "Man har chand beadablik qildim, sipohgarchilikdur, man eski qul bul xonadonga", deb ko'b tavbalar qilsa ham, amirni(ng) odami deb, Xo'qandga olub borub, Abdulali o'g'li ilan ikkisini so'yurdurdi (TA,74-b). Ko'rinadiki, ushbu yasama so'z uzual ma'no kasb etgan. Chunki, bu ma'no so'zning semantik tarkibida bor bo'lgan ma'no bo'lsa-da, bunday yasalihi har gal nutqda yaratilmaydi. Til birligi sifatida ushbu kontekstda, boshqa leksik birliklar qurshovida namoyon bo'lmoqda.

O'zbek tilida inkor ma'nosiga ega leksemalari yasovchi-sizvabe-oldqo'shimchlari asosan otlardan sifat yasaydi. Bular yordamida sifatlardan yangi so'zlar yasalihi hodisasi yo'q. no- affiksi esa, aksincha, asosan, sifat yasaydi. Uning yordamida otlardan yasalgan sifatlarda juda kam miqdorda bo'lib, ular ham aslida fors-tojik tillaridan o'zlashma so'zlardir. Demak, qaysi asosdan sifat yasashiga ko'ra -siz, be- affikslari bilan no- affiksi tamomila farqli (chunki vazifasi boshqa-boshda) affikslardir. Shunga ko'ra, ya'ni o'zbek tilida ot va sifatlardan yangi leksema (sifat) yasalihi jarayoni bor ekan, bu jarayonda ulardan har biri mustaqil amal qilishi tabiiy. Shuningdek, -siz, be- va no- affikslari inkor ifodalashi bilan umumiylikka ega bo'lsa ham, lekin ma'nosidagi o'ziga xosliklari bilan ham o'zaro farqlanadi. Ibrat ijodida be- old qo'shimchasi bilan yasalihi fors-tojikcha o'zlashma so'zlar qo'llanishida ko'proq kuzatiladi:

Farg'onada bu vaqtda beqarz kimsa yo'q,
Ming so'm aqalli qarz bo'lib, bo'lsa qorni
to'q
Mardum bari benamoz bo'ldi,
Beajzu beniyoz bo'ldi.

5 Is'hoqxon Ibrat. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2020. – B.110. Keyingi misollar ham shu manbadan olindi, qavs ichida sahifasi ko'rsatildi.
6 Hojiyev A. O'zbek tilida so'z yasalihi. – Toshkent: O'qituvchi, 1989. – B.49.

Har kasb pesha qilg'il, bo'lmas amal
senga qut,
Bekasb o'tsang, Ibrat, muhtoji non
o'lursan.

Mazkur parchadagi beqarz, benamoz, beajz, beniyoz leksemalari uzual yasalihi sanalib, yuqorida ta'kidlaganidek, o'zlashma so'zlar tarkibida kelmoqda. Bekasb so'zi anglatgan ma'no esa ramziy ma'no hisoblanib, yasalma favqulodda va original bo'lgani uchun, okkazonal yasalihi hisoblanadi, qarz bo'lmoq tarzida sintaktik usulda yasalgan qo'shma so'z uzual ma'no kasb etgan va buni adib uslubiga xos yasalihi deb baholash mumkin. Chunki, odatda, o'zbek tilida ushbu so'z qarz bo'lmoq tarzida emas, balki qarzidor bo'lmoq shaklida uchraydi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "birovning yaxshiligi, xizmati, yoki umuman, kimlardir oldida burchli bo'lganlik" ma'nosi qarz bo'lmoq leksemasi bilan emas, qarzidor bo'lmoq leksemasi orqali ifodalanishi aytilgan⁷.

Is'hoqxon Ibrat ijodida no- qo'shimchasi bilan yasalihi ham fors-tojikcha o'zlashmalar qo'llanishida ko'proq kuzatiladi:

Biri der, maydonga suv sep, toza qil,
Biri der, nosog'durmiz uch kishi.

Yoki:

Dedi bir kishi menga: "Bid'at gazet",
Dedim: "Qayda qoldiki, eski zamon?"
Ajib so'filar, ajib so'filar,
Gazet onlarga bid'at, nodurust.

Ko'rinadiki, Ibrat ijodida sifat yasovchi affikslardan yasalgan so'zlar, asosan, uzual, ba'zan okkazonal yasalihi xususiyatiga ega. Shu o'rinda adibning nega aynan nosog' yoki nodurust so'zlarini qo'llaganligiga e'tibor qaratsak. Nosog' leksemasi kasal, bemor so'zlariga sinonim sifatida tushunilsa-da, bu so'zlar bilan aynan bir xil semaga ega emas: sog'lom emas mazmuni yuqoridagi parchada ko'chma ma'noni ifodalash uchun xizmat qilgan. Ushbu kontekstda kasal, bemor so'zlari qo'llansa, ta'sirchanlik kamayishi aniq. Keyingi misralarda ajratib ko'rsatilgan nodurust so'zi noto'g'ri leksemasi bilan sinonim bo'lishi mumkin, ammo bu o'rinda noto'g'ri leksemasidan foydalanish hissiy bo'yoqdorlikni yo'qotgan bo'lardi. Demak, Ibrat ijodida o'ziga xos yasama so'zlarning qo'llanishi muallif idiostilini, ya'ni gaplardagi ekspressiv bo'yoqdorlikni ta'minlashga xizmat qilgan.

O'zbek tilida -lik affiksi -li affiksidan farqli holda ot yasovchi deb ko'rsatilsa-da, lekin dalillar uning yordamida belgi bildiruvchi

so'zlar ham yasalihi ni ko'rsatadi. Bu affiks yordamida quyidagi ma'noli sifatlari yasaladi: 1) Aniqlanmish vazifasidagi so'z bildirgan narsaning yasovchi asosdan anglashilgan narsa-predmet, vaqt uchun mo'ljalanganligini bildiruvchi sifat yasaydi: urug'lik chigit, ko'ylaklik mato, qishlik kiyim, tushlik ovqat; 2) Aniqlanmish vazifasidagi so'z bildirgan predmetning yasovchi asosdan anglashilgan vaqt bilan xarakterlanuvchi (shu vaqt birligiga oid) belgisini bildiruvchi sifat yasaydi: kunlik norma, oylik maosh, yillik plan⁸. Ibrat asarlari matnida qo'llangan -lik qo'shimchasi bilan yasalgan sifatlari o'rinli qo'llangan. Hozirgi o'zbek tilida qo'llaniladigan o'smali so'zi asarlar matnida vo'smalik shaklida istifoda etilgan:

Vo'smalik qoshingmudur yoki qon to'kub
usru,

Zang bog'lamishdurlar ikki tig'i burronlar.

Bizning Ibrat asarlari matni yuzasidan olib borgan kuzatishlarimiz ularda bir qator xarakterli okkazonal so'zlar ham mavjudligini ko'rsatdi. Yuqorida ta'kidlaganidek, okkazonal yasama so'zlar kamunum model asosida yasalgan, faqat ma'lum nutqiy matnning o'zida qo'llanadigan so'z, individual-uslubiy neologizmdir:

Bir necha yillar ichinda shahrimiz jannat
bo'lar,

Bul tariqa boshchilar qilsa tashabbuslar
agar.

Bu misrada qo'llangan boshchi so'zi boshliq, rahbar ma'nosida kelgan, ushbu okkazonal yasalma boshliq, rahbar leksemalari bilan sinonimlik hosil qilib, matn tarkibida ma'noni kuchaytirishga xizmat qilgan.

Adib asarlari matnida qo'llangan okkazonal yasalmalarda o'zbekcha va forscha so'zlarning transformatsiyaga uchrashi holatlari ham kuzatiladi. Jumladan, fors-tojikcha bekor so'zi asarlar matnida bekora tarzida qo'llangan:

Hama o'z ishi birla ovora,
Ko'chada yo'qki xalq bekora.

Ushbu matnda qo'llangan bekora leksemasi o'zbek adabiy tilida iste'molda bo'lgan bekorchi so'ziga sinonim bo'la oladi. Demak, bekora so'zi o'zbek tilidagi boshqa bir leksemani ifodalashga xizmat qilgan okkazonalizmdir.

Hozirgi o'zbek tilida dilogoh degan so'z uchramaydi. "Navoiy asarlari qisqacha izohli lug'ati"da ham bu so'zga duch kelmadik. Bu holat asarlar matnida qo'llangan dilogoh so'zini okkazonal yasalma sifatida qayd etishga asos

7 O'zbek tilining izohli lug'ati. 5-jildlik. 5-jild. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020. – B.247.
8 Hojiyev A. O'zbek tilida so'z yasalihi. – Toshkent: O'qituvchi, 1989. – B.71.

bo'ladi:

So'z ko'b desam man, ey dilogoh,
Qildim oxiri qissani ko'tah.

Tilshunos olim A.Hojiyev kompozitsiya usulida obod komponentli yasama otlar yasalishi haqida shunday deydi: "Kompozitsiya usuli bilan yasalgan, yasovchi asos va formant kabi komponentga ega bo'lgan qo'shma otlarning uch xil tipi bor. Bular obod, tepa, poya so'zlari formant vazifasida qo'llanadi. -obod joy nomlari (atoqli otlar) yasaydi: Xalqobod, Yangiobod kabi"⁹. Ko'rinadiki, obod shakli, odatda, atoqli ot yasaydi. Ammo Ibrat asarlari matnida bu shaklning turdosh ot yasalishida ishtirok etgani kuzatiladi: Aning keyingi islomobod bo'lishi Imom Qutayba bin Muslim taraflaridan bo'lg'on. Bu zoti sharif marqadlari Marg'inonda Gulj qishlog'idadir. Bu o'rinda muallif "islom tarqalgan, islom bilan obod bo'lgan yer" degan ma'noli so'z yasagani ma'lum bo'ladi. Shu sababli islomobod so'zini favqulodda hosil qilingan okkazonal yasalma deb baholash mumkin bo'ladi.

Is'hoqxon Ibrat asarlari matnida o'rin-joy, urug'-qabila, elat nomlarining yasalishiga oid tipik modellar ham ko'zga tashlanadi: Munda bir oz ilovai kalom bo'ldi. Xayr ul-kalom, Farg'ona bir mamlakati qadim va aholiyi nadim o'lib, avvali vaqtlarda mo'g'uliyadan so'ng ediki, har sanada necha ming so'mlik mansuhot ifak, atlas va adras va beqasab va shohi atrof-aknofga torqolmoqda edi; Ammoki, jamoai sardiya va o'zbekiyalar bu ishdan xursand bo'lmay, besaranjom edilar. Sirran ittifoq qilib, qipchoqiya va qirg'iziyani surub, Bilqillama degan joygacha quvub, shahardan chiqardilar Keltirilgan misollarda -iya qo'shimchasi bilan yasalgan so'zlar ajratib ko'rsatilgan. Hozirgi o'zbek tilida bu qo'shimcha bilan so'z yasalishi hodisasi tavsiflangan manba uchratmadik. Ammo bu so'zlarning millat va elat nomini bildirgan so'zlarga -iya qo'shimchasini qo'shish bilan hosil qilinganligi ko'rinib turibdi: musulmon+iya, mo'g'ul+iya, qirg'iz+iya,

mang'it+iya, sard+iya, o'zbek+iya, qipchoq+iya, qirg'iz+iya.

Asarlar matnida kompozitsion usuldagi yasalmalarga frazeologik birliklar transformatsiyasining asos bo'lganligi ham kuzatiladi. Masalan:

Pirlari: "Mandin nima gunoh o'tdiki, ta'zir berding" deganda, "Avliyog'a karomat satri vojib edi, siz karomatni oshkor qildingiz. Tarki vojib jazosi yetmish qamchi ekan, o'z qavlingizda binobarin yetmish qamchi yedingiz", - degan ekan. Mazkur misolda ajratib ko'rsatilgan birlik hozirgi o'zbek tilidagi ta'zirini bermoq iborasining transformatsiyasi asosidagi qo'shma so'z sanaladi. Lekin bunday yasalish modelining adabiy me'yor sifatida amalda mavjud emasligi va muallif tomonidan favqulodda hosil qilinganligi mazkur birlikning okkazonal yasalma ekanligini isbotlaydi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Is'hoqxon Ibrat yashab ijod qilgan davrda o'zbek tili murakkab bir jarayonni - yangi o'zbek tilining me'yorlarini shakllantirish holatini boshidan kechirayotgan edi. Ushbu jarayonga, bir tomondan, eski o'zbek tili, she'riyatdagi eski mumtoz o'zbek adabiy tili an'analari, ikkinchi tomondan, umumturkiy til yaratish harakati, uchinchi esa, Chor Rossiyasining mahalliy tillarga to'sqinlik qilishga oid choralari ta'sir ko'rsatar edi. Shu sababli, adib asarlari matnida mumtoz adabiyot tiliga xos an'anaviy leksemalar - so'z birikmalari, quyma ibora va trafaretlar mavjud, lekin ularning aksariyatidan yangi uzual ko'chma ma'nolarni ifodalashda foydalanilgan. Is'hoqxon Ibrat shoir, nosir, publitsist sifatida o'z ijodida tilda avvaldan mavjud so'zlardangina foydalanmagan, balki ba'zi hollarda aytmoqchi bo'lgan fikrni, tushunchani aniqroq, yaxshiroq, kuchliroq, ta'sirchan ifodalaydigan so'zlarni topishga, lozim o'rinlarda ularni o'zi yasashga, original tarzda qo'llashga intilgan. Bu hol adibning uslubiy mahoratidan, til boyligiga ijodiy yondashganidan dalolat beradi.

"O'G'UZNOMA"NING O'RGANILISHI VA UNDAGI SHOMONLIK MIFOLOGIYASI MOTIVLARI

Shohsanam Abdurashidovna Qarshiyeva -doktorant, Guliston davlat universiteti

Annotatsiya: Maqolada "O'g'uznoma"ning xalqimiz badiiy tafakkuri tarixi, uning taraqqiyotida tutgan o'rni haqida so'z bordi va unda asarning qadimgi turkiy yozma adabiyotdagi genezezi, yozilish jarayoni, obrazlar tizimi, badiiy xususiyatlarini tadqiq etish alohida bir yo'nalish ekanligi asoslab beriladi. Shuningdek, dostonning qadimgi turkiy yozma adabiyotimiz tarixidagi tutgan o'rni va badiiy qiymatiga munosib baho bergan olimlarning adabiy-ilmiiy qarashlari haqida ilmiy-nazariy ma'lumotlar berilgan.

Аннотация: В статье говорится о месте эпоса «Огузнома» в истории художественного мышления нашего народа и пути развития. При изучении древнетюркской письменной литературы было отмечено, что изучение генезиса произведения, процесса письма, системы образов, художественных особенностей является отдельным направлением. Обсуждались роль эпоса в истории нашей древнетюркской письменной литературы и литературоведческие взгляды ученых, оценивших его художественную ценность.

Abstract: The article talks about the importance of "Oguznoma" in the history of the artistic thinking of our nation and the progress of development. In the study of ancient Turkish written literature, it was noted that the study of the genesis of the work, the writing process, the system of characters, and artistic features are specific directions. The role of the epic in the history of our ancient Turkish written literature and the literary-scientific views of the scholars who appraised its artistic value were discussed.

Kalit so'zlar: Qadimi turkiy adabiyot, "O'g'uznoma" dostoni, Botir tangriqut, qadimgi turkiy adabiyot tadqiqotchilari, fon Dits, X.Ko'ro'g'li, Abdurauf Fitrat, Nasimxon Rahmonov, mifologik motiv, shomonlik mifologiyasi.

Ключевые слова: Древнетюркская литература, эпос «Огузнома», Ботир тангриут, исследователи древнетюркской литературы, фон Дитц, Х. Корогли, Абдурауф Фитрат, Насимхан Рахмонов, мифологический мотив, шаманская мифология.

Keywords: Ancient Turkish literature, "Oguznoma" epic, Botirtangriqut, researchers of ancient Turkic literature, fon Dits, Kh. Ko'ro'g'li, Abdurauf Fitrat, Nasimkhan Rahmonov, mythological motives, Shamanic mythology.

Qadimgi turkiy adabiyotda ikkita kitobiy doston bor. Bular "Dada qo'rquq kitobi" va "O'g'uznoma"dir. Turkiy xalqlar tarixida har ikkala asarning ham ahamiyati katta. "O'g'uznoma" dostonining o'rganilishi bizga tilshunoslik, mifologiya va elshunoslik sohasiga oid qimmatli ma'lumotlarni taqdim etish bilan birgalikda bu sohalar hal etilishi kutilayotgan muammoli savollarga javob bo'lishi muqarrar. Doston eski uyg'ur-turk yozuvida bitilgan bo'lib, uning asl matni Parij milliy kutubxonasida saqlanmoqda. Dostondagi mifologik qatlam, O'g'uzning aniq bir geografik muhitdagi faoliyatidan dalolat beradi. Bu esa doston yaralishida urug'chilik jamiyatidagi mif va afsonalar asos bo'lganligidan dalolat beradi. Tuzilish jihatidan "O'g'uznoma" Kul tigin yodgorligini esga soladi. "O'g'uznoma"ning boshlanmasida ham xuddi shunday xususiyat mavjud bo'lib, urug'larning hamda turkiy

urug'lardan bo'lmish Ashin urug'ining paydo bo'lishiga oid afsona o'rtasidagi uyg'unlik, qadimgi turk davridagi kultlar - daraxt, bo'ri, osmon kultlarining qadimgi turkiy yodnomalar va "O'g'uznoma"dagi umumiylik ham mazkur dostonning taraqqiyot yo'lini belgilaydi. "O'g'uznoma" ikki qismdan iborat bo'lib, uning birinchi qismi mifologik qatlamdir. Unga O'g'uzning g'ayritabiiy tug'ilishi va g'ayritabiiy ulg'ayishi, yovuzlikka qarshi kurashishi va yirtqichni o'ldirishi kabi voqealar kiradi. Ikkinchi qismi esa tarixiy dostonlarga xos voqealardan iboratdir. Bu qismga O'g'uzning uylanishi, farzandlarining tug'ulishi, jang lavhalari va turli mamlakatlarni bosib olishi, o'g'illariga o'z qo'l ostidagi yurtlarni bo'lib berishi lavhalari kiradi.

"O'g'uznoma"ning o'rganilishi dastlab nemis olimi fon Dits nomi bilan bog'lanadi. Olim dostonni 1815-yilda nemis tiliga tarjima qiladi. Shuningdek, "O'g'uznoma" dostoni yuzasidan

⁹ Hojiyev A. O'zbek tilida so'z yasalishi. - Toshkent: O'qituvchi, 1989. -B.71.

V.Radlov, Rizo Nur, V.Bang, A.M.Shcherbak, X.Ko'ro'g'li, Q.O'miraliyev, F.Bayat, A.Shomil singari taniqli olimlar tadqiqot ishlari olib borishgan. Turkiy xalqlar madaniy hayoti va adabiy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etuvchi qadimiy bitiklardan biri bo'lgan "O'g'uznoma"ning "O'g'uznomalar" orasida tutgan o'rnini haqida olim X.Ko'ro'g'li shunday yozadi: "O'g'uznoma" atamasi... dastlab Abu Bakr Abdulloh Oybek ad Davadari (XIV) asarida uchraydi. Rashididdinda qayd etilgan, lekin bizgacha yetib kelmagan nusxa hamda Parij milliy kutubxonasida saqlanayotgan uyg'ur yozuvidagi "O'g'uznoma" ham taxminan o'sha davrga xosdir"¹.

"O'g'uznoma"ning yaratilishi xalqimiz badiiy tafakkuri tarixidagi beqiyos hodisalardan biri hisoblanadi. Shu bois ham asarning genezisi, yozilish jarayoni, obrazlar tizimi, badiiy xususiyatlarini ilmiy jihatdan tadqiq etish qadimgi turkiy yozma adabiyotni o'rganishning alohida yo'nalishini tashkil etadi. Abdurauf Fitrat, Alibek Rustamov, Aziz Qayumov, Baxtiyor Isabekov, Abdurashid Abdurahmonov, Muzaffar Mamatqulov singari o'nlab atoqli olimlar qatori Nasimxon Rahmonov ham bu dostonning o'rganilishiga ulkan hissa qo'shgan. "O'g'uznoma"ga qayta-qayta murojaat etib, uning turli xil jihatlarini tadqiq etgan va dostonning qadimgi turkiy yozma adabiyotimiz tarixidagi tutgan o'rnini va badiiy qiymatiga munosib baho bergan. Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar bilimdoni bo'lmish Nasimxon Rahmonov "O'g'uznoma"ning dastlab og'zaki shaklda bo'lganligini aytadi. U Rashididdin Fazlulloh Hamadoniy va uning "Jome ut-tavorix" asari haqida yozar ekan, unda kitobning birinchi jildida berilgan turkiy qabilalarning kelib chiqishi haqidagi rivoyatlar "O'g'uznoma"dagi rivoyatlar bilan bir xil ekanligini ham qayd etib o'tadi. Garchi "O'g'uznoma" XV asrda uyg'ur yozuvida ko'chirilib kitobat qilingan bo'lsa-da, Rashididdin Fazlulloh Hamadoniy davrigacha og'zaki shaklda ijro etilib kelinganligini oydinlashtiradi. Olim Rashididdin Fazlulloh Hamadoniyning tarix va adabiyot oldidagi xizmatlariga to'xtalar ekan, uni turkiy qavmlar tarixini ochib bergan va bu qavmlarning O'g'uzxondan tarqalganligini ilmiy asoslab bergan olim sifatida e'tirof etadi. Olimning

o'zi "O'g'uzxonni mil.ol. III asrda Xun tangri qutligini qudratli davlatga aylantirgan Botir tangriqutning prototipi"² deb qarashini yozadi. Nasimxon Rahmonov birinchi bo'lib "O'g'uznoma" dostonini qadimgi uyg'ur tilidan o'zbek tiliga tarjima qilgan. Tarjimon bu mas'uliyatli ishni bajarishda, ya'ni uni hozirgi o'zbek adabiy tiliga o'girishda, qadimgi turkiy tilning grammatik qurilishini saqlashga harakat qilgan. Shu boisdan ham unda takror so'z va jumlar nuqson sifatida ko'rinmaydi. Ayrim o'rinlarda muallif so'zning aslini qoldirib qo'ya qoladi. Bu ritmni buzmaslik uchun qilinganligi aniq. Doston matni "O'g'uznoma yoxud O'g'uzxon haqida doston" nomi bilan 1989-yil "Sharq yulduzi" jurnalining 4-sonida bosilib chiqqan. Shunday ekan, olim tomonidan bildirilgan quyidagi fikrlarga diqqat qilaylik: "Turkiy xalqlarning mushtarak yozma obidalarini bo'lgan O'rxun Yenisey yodnomalariga oid (eramizning VI-VII asrlari), Mahmud Qoshg'ariyning (Devon-u lug'atit turk) (XI asr), Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" (XI asr) asarlarda ham ezgulik odamzodga hamisha hamroh degan g'oya ilgari surilgan. "O'g'uznoma" ham shu ruhdagi eng yorqin asarlardan biridir"³.

Shuningdek, olim asardagi obrazlar, voqealar tizimi, motivlar qadimgi turkiy adabiyotga ishora qilishini ta'kidlaydi va qadimgi turk davridan oldin yaratilgan afsonalarni o'rganib, keyingi yozma adabiyotdagi obrazlar bilan "O'g'uznoma"lar o'rtasida faqat o'xshashlik emas, balki uzviy mushtaraklik borligini isbotlaydi. Olim o'z fikrlarida O'g'uzxoqonning urug'iga boshchilik qilgan muqaddas bo'ri haqida ma'lumot beradi va turkiy xalqlardagi ayrim afsonalarga ko'ra qadimgi turk davrida ulkan nufuzga ega bo'lgan Ashin urug'i avlodlari o'zlarini bo'ridan tarqalgan deb hisoblashlari voqeasini keltirish bilan bu haqidagi o'z fikrlarini dalillaydi. "O'g'uznoma"dagi Tangri obrazi Irq bitigidagi Tangri obrazi bilan o'xshash. Irq bitigida Odam emaklab borib Tangriga uchraydi va undan baxt so'raydi, Tangri baxt bergan va "og'ilingda yilqing bo'lsin, umring uzoq bo'lsin" degan. Bu epizod har ikki asarda ham bir xil.

Nasimxon Rahmonov "O'zbek adabiyoti tarixi" (Eng qadimgi davrlardan XV asrning birinchi yarmigacha) darsligida

1 Baxtiyor Isabek "O'g'uznoma" Toshkent. "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2007.3-b.

2 Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent. "Sano-standart". 2017. 114-b.

3 "Sharq yulduzi" jurnalining 4-soni. Toshkent. 1989. 68-b

"O'g'uznoma"ning o'rganilishi, asardagi mifologik motivlar, uch qavatli odam modeli, tush motivi, rang va inonch- e'tiqod kabi mavzularga batafsil to'xtalib o'tadi va O'g'uzxoqon haqidagi dostonlarni qiyosiy jihatdan tahlil qiladi. O'g'uzxoqonni Sharq adabiyoti tarixida ko'p uchraydigan, ko'p tilga olinadigan tarixiy shaxs va adabiy obraz sifatida talqin etadi. "Jome' ut-tavorix" (Rashididdin Fazlulloh Hamadoniy), "To'rt ulus tarixi" (Mirzo Ulug'bek), "Abdullanoma" (Hofiz Tanish Buxoriy), "Shajarai turk" (Abulg'oz Bahodirxon) asarlarida O'g'uzxoqon bilan bog'liq afsonalar uchrashini va bu afsonalar bilan "O'g'uznoma" dostoni o'rtasidagi umumiy va farqli jihatlarini yaxshi idrok etgan olim bu haqida aniq xulosalar beradi. Yuqorida nomlari sanalgan tarixiy asarlar va "O'g'uznoma" dostonidagi syujet tafovutlari birgina qang urug'ining kelib chiqishi haqidagi rivoyatni solishtirish misolida oydinlashtiriladi. Tarixiy asarlardagi etnologik miflar bilan doston o'rtasidagi solishtirishlar natijasida olim "...u qadar katta farqlar ko'zga tashlanmaydi. Faqatgina syujetida biroz farqlar mavjudligi ko'rinadi"⁴ degan xulosaga keladi. U Eski-uyg'ur turk yozuvidagi "O'g'uznoma" dostonidan Rashididdin Fazlulloh Hamadoniyning "Jome' ut-tavorix" asarida bayon qilingan va O'g'uzxon haqida keltirilgan afsona – voqealari bir-biridan mutlaqo farq qilishini ta'kidlaydi va "Rashididdin Fazlulloh Hamadoniy" mavzusida bunga alohida to'xtalib o'tadi. Tadqiqotchining teran tafakkuri orqali anglangan syujet silsilasi keltiriladi va muqoyasa o'z nihoyasiga yetqaziladi.

Nasimxon Rahmonovning "O'g'uznoma"dagi geografik nomlar Buyuk ipak yo'li madaniyati qamrovida" nomli maqolasi "Badiiy adabiyotda nutq va uslub muammolari: Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami"da 2020-yil 25-sentabrda e'lon qilindi. Shuningdek, "Огузنامه" в контексте культурного наследия великого шёлкового пути" (Международный Казахско-Турецкий университет имени Х.А. Ясавий материалы II-ой Международной конференции. Сентябрь 2020. "Великий шелковый путь – Дорога мира, согласия и стабильности" . – С. 226-231) xuddi shu yili nashr etildi. Olim maqolada toponimika va

4 Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent. "Sano-standart". 2017. 122-b.

5 Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent. "Sano-standart". 2017. 115-b.

6 Baxtiyor Isabek "O'g'uznoma" Toshkent. "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2007.3-b.

onomastikaga murojaat qiladi, doston tili va adabiy manbalariga chuqurruq to'xtaladi.

"O'g'uznoma" dostoni "Sharq mash'ali" nashriyoti tomonidan 1998-yilda Qosimjon Sodiqov tomonidan ham nashrga tayyorlangan. "O'g'uznoma"ning omma e'tiboriga havola etilishi asar yuzasidan tadqiqotlarning jadallashuviga sabab bo'ldi. Asarni keng kitobxonlar jamoasi ham katta qiziqish bilan mutoala qila boshlagan.

2007-yilda filologiya fanlari nomzodi Baxtiyor Isabekov dostonning tabdilini tayyorlab, alohida kitob holida nashr ettirishga erishdi. Bu esa albatta, tilshunos, adabiyotshunos, tarixshunoslarimiz uchun quvonarli hodisa bo'ldi. "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi tomonidan bosilib chiqqan ushbu kitob bugungi kunga qadar turkiy xalqlar tarixi, madaniyati va adabiyotini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Kitobda "O'g'uzxon"ning dunyoga kelishi uyg'ur tilida shunday tasvirlanadi: "2. Taqi mundan so'ng sevinch toptilar. 3. Kene kunlardan bir kun Ay qag'annung ko'zi yarip budadi? 4. Erkak o'g'ul tug'urdi". Ma'nosi: "Kunlardan bir kun Oy xoqonning ko'zi yorib bolaladi, o'g'il tug'di"⁵. Parchadan anglashilganidek, O'g'uzning tug'ilishi va uni dunyoga keltirgan Oy xoqon timsolida shomonlik adabiyoti ta'sirini sezishimiz mumkin. Oy xoqon timsolida akkad va shumerlar tangrilarining onasi Ishtarni ko'rish mumkin. Bu tangri timsolida onalik urug'idan otalik urug'iga o'tish davri aks etganligini ta'kidlash lozim. Qadimgi turkiylar tasavvuriga ko'ra, Quyosh – erkaklik ibtidosi, Oy – ayollik ibtidosidir. Yoqut tilida "Oy (Ay)" so'zi yaratmoq, borliqqa keltirmoq ma'nolarini bildiradi. Shunga muvofiq Oy xoqonni "yaratuvchi" sifatida ham talqin qilish mumkin. Dostonidagi quyidagi parchaga diqqat qilaylik: "1. Bu chakda bu yerda bir ulug' o'rmon bor edi. 2. Ko'p muranlar, ko'p o'kuzlar bar erdi. 3. Bunda kelganlar ko'p-ko'p, bunda uchqanlar qush ko'p-ko'p erdi. 4. O'shul o'rmon ichinda beduk bir kiat bar erdi. 5. Yilqilarni, el-kunlarni yer erdi. 6. Bedik yaman bir kik erdi. 7. Berka emgak birla el-kunni basip erdi. 8. O'g'uz qag'an bir eriz, qag'an kishi erdi. 9. Bu qiatni avlamaq tiladi. Kunlardan bir kun avg'a chiqti"⁶.

1. "Yida birla, ya, o'q birla, taqi qilich

birla 2. Qalqan birla atladi. Bir bug'uni aldi. 3. Shu bug'uni talnung chubuqi birla 4. Ig'achqa bog'ladi ketdi. Andan so'ng erta bo'ldi. 5. Tang erta chaqda keldi. Ko'rdikim qiat 6. Bug'uni alip turar. Kena bir adug' addi 7. Altuntug' belbag'i birla yig'achg'a bog'ladi, ketdi 8. Mundun so'ng erta bo'ldi, tang erta chag'da keldi 9. Ko'rdikim qiat adug'ni alup turar"⁷

Parchada anglashilganidek, O'g'uz yirtqichni qo'lga tushurish uchun birinchi kuni bug'uni, ikkinchi kuni ayiqni daraxtga bog'lab ketadi. Shundan so'ng bahaybat yirtqichning ulardan kuchli ekanligi ma'lum bo'ladi. Uchinchi kuni esa O'g'uz yolg'iz o'zi bir daraxtning tagiga o'tirib oladi va olamga yovuzlik urug'ini sochgan ramziy obraz – bahaybat yirtqichni o'ldiradi. O'g'uzning o'rmonda yirtqich bilan kurashuvi ertaklardagi qahramonlarning turli bahaybat hayvonlar, sehrgarlar, dev va ajdarholar bilan kurashi motivini yodga soladi. O'g'uzning o'rmondagi yirtqich bilan kurashuvi shomonlik motiviga borib taqaladi. Bu mifologik motiv sanalib, "Avesto"dagi yovuzlik timsoli bo'lgan Axriman bilan ezgulik timsoli Xurmuzdning kurashini eslatadi. Shuningdek, bu kabi mifologik motivlarni moniylik adabiyotida ham uchramiz. "Xuastuanift" asarining ibtidosida Xo'rmuzd va Shmnu o'rtasidagi ziddiyat fikrimiz isbotidir. Shu boisdan O'g'uzning o'zi ezgulik timsoli hisoblanadi.

Olim Baxtiyor Isabekov taqdim etgan asar matni 1992-yili uyg'ur yozuvidagi nusxasidan krill yozuviga o'girilgan holda, shuningdek, tilimiz tarixi nuqtayi nazaridan tanqidiy qarashlari bilan nashrga tayyorlandi. Baxtiyor Isabekovning turkshunos olim V.V.Radlovning "Qadimgi turki lug'ati"da keltirilgan matn qismi bilan qiyoslanganda tafovutlar kuzatiladi. Shu bois olim bu holatni quyidagicha izohlaydi: "3/3: "Bunda kelganlar ko'p-ko'p" (Radlovda "ko'k" yo'q). 1/8: Ko'klugrak (Radlovda: ko'rukluqrak). 3/5: El ko'plarni (Radlovda: El-kunlarni). 6/5: Tangrini yalbareuda erdi. (Radlovda: Tangri Yalbareuda erdi) 9/2: Ko'rukluqrak bir qiz erdi (Radlovda: Ko'rukluqrak qiz erdi). 6/6: Yernig el-kuni ani ko'rsa (Radlovda: Yernig yel kuni ko'rsa). 12/1: Yerda yurusun kulan (Radlovda:

av yerda yo'rusun kulan). 12/2: Ko'k kurixon (Radlovda: ko'k qo'rig'an) 16/4: Ko'k tulug'guk (Radlovda: ko'k tulukluk) 17/6: Ko'k yallug' (Radlovda: ko'k challug'). 18/4: lashunda ltil (Radlovda: O'shanda ltil). 20/8: Baluxni benga saqlan (Radlovda: beluqni bizga saqlan 24/5: Yett, kechdi (Radlovda: Yetti, kesti). 27/9: Qag'ardin sarulmish erdi (Radlovda: Saunmish erdi). 30/7: Yuryit qog'onni bosdi (Radlovda: Chur-chit fog'onni basti). 31/5: Ishay bir chevar (Radlovda: yoqshi/yashqi bir chebar). Biz qaysi birini to'g'riroq deb hisoblasak, o'sha shaklni matnga kiritdik"⁸. Bundan tashqari B.Isabekov nusxasida V.V.Radlov foydalangan nusxadagi "ch/j" o'rniga "y" ishlatilishi, -din o'rnida –dan qo'llangan. Olim "O'g'uznoma"ni o'rganish jarayonida ba'zi bir achchiq haqiqatlarga ham to'xtalib o'tadiki, bu bizning ham diqqatimizni tortadi: "Afsuski, turkiy mifologiya bilan bizning mutaxassislarimiz jiddiy shug'ullanmaganligi, mazkur asarni ham tahlil nimarsasiga aylantira olmagan bo'lsa kerak, aynan mana shu yodgorlik guvohligidan kelib chiqib, bizning idrokimiz – dunyoqarashimiz boshqa qavmlarning (bu o'rinda xitoycha fikrlash haqida gap ketmoqda) qavmlarning dunyoni anglashidan andozalar olgandan ko'ra turk ertaklari o'z xalqining ijodiy qubbasi mahsulidan ko'ra, begonalardan o'zlashtirilgan (asosan, forslardan) xossalari ko'proq namoyon bo'ladi degan iddaoga chidashimizga to'g'ri kelmoqda"⁹. Shuningdek, olim masalaning ikkinchi bir tomoniga ham nazar tashlab "Yuqorida Ko'k, quyida Yer" degan xitoycha dunyoqarashning O'rxun-Enasoy bitiklaridagi ifodasiga chuqurroq e'tibor qilinsa, "yoy", "o'q" kabi ramzlarga turkiylar dunyoqarashi asosida yondashilsa, xitoycha emas, turkiy qarash mavjudligi namoyon bo'ladi.

Tadqiqotchilar bu asarga shunchaki bir yuksak adabiy obida emas, balki qadimgi turkiy tilning ifoda imkoniyatlarini yaqqol ko'rsatib bera olgan omil sifatida baho beradilar. Dostonning barcha turkiy xalqlar yozma adabiyotining keyingi rivojida muhim o'rin tutganini misollar asosida isbot qiladilar

⁷ Baxtiyor Isabek "O'g'uznoma" Toshkent. "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2007. 3-b.
⁸ Baxtiyor Isabek "O'g'uznoma" Toshkent. "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2007. 3-b.
⁹ Baxtiyor Isabek "O'g'uznoma" Toshkent. "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2007. 3-b.

TALABALARNING KASBIY MOBILIGINI RIVOJLANTIRISH JARAYONIDA XORIJIY TILNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Gulchexra Xolmamatovna Suyunova - tadqiqotchi, Jizzax politexnika instituti

Annotatsiya: Til o'rgatish o'zgaruvchan sharoitlarga tezda moslashish va qarorlar qabul qilish, turli xil o'zaro ta'sirlarni amalga oshirishda "muloqot to'sig'i" ni boshdan kechirmasdan, xorijiy kompaniyalar vakillari, xorijiy tilda so'zlashuvchilar bilan aloqa o'rnatish imkonini beradi. Shu bilan birga grammatika, lug'at va yozma amaliyot talabalarning faol nutqiy xulq-atvorini shakllantirish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Аннотация: Языковое обучение позволяет быстро адаптироваться к изменяющимся условиям и принимать решения, устанавливать контакт с представителями иностранных компаний, носителями иностранного языка, не испытывая "коммуникативного барьера" при осуществлении различных взаимодействий. В то же время грамматика, лексика и письменная практика служат средством формирования активного речевого поведения учащихся.

Abstract: Language training allows you to quickly adapt to changing conditions and make decisions, establish contact with representatives of foreign companies, native speakers of a foreign language, without experiencing a "communication barrier" in the implementation of various interactions. At the same time, grammar, vocabulary and written practice serve as a means of forming active speech behavior of students.

Kalit so'zlar: kasbiy mobillik, komponent, muhandislik, xorijiy til.

Ключевые слова: профессиональная мобильность, компонент, инженерия, иностранный язык.

Keywords: professional mobility, component, engineering, foreign language.

Kasbiy mobillikka tayyorgarlik murakkab va dolzarb hodisadir. Biroq bugungi kunda pedagogika fanida uning mohiyati va tuzilishini ochib beruvchi tadqiqotlar mavjud emas.

Mutaxassis psixikasining kasbiy tayyorgarligining asosiy komponentlari V.A.Slasasnin tomonidan aniqlangan. Uning fikricha, bular:

- yo'naltiruvchi, intellektual-bilish;

- rag'batlantirish, ehtiyoj-motivatsiya, shaxsning kasbiy yo'nalishini va uning harakatlarining kuchini, faoliyatdagi tirishqoqlik darajasini belgilaydi;

- kasbiy mahorat, kasbiy muhim qobiliyatlarni rivojlantirishning zaruriy darajasi va mutaxassisning tayyorgarligi, uning xatti-harakati va faoliyatini o'z-o'zini tartibga solish qobiliyatini o'z ichiga olgan ijro etuvchi.

Kasbiy harakatchanlikka tayyorlikning quyidagi komponentlarini ajratib ko'rsatish mumkin deb hisobladik.

1) Kasbiy mobillikka tayyorlikning qadriyatli-motivatsion komponenti. Kasbiy mobillikka tayyor mutaxassislar sonining ko'payishi zamonaviy jamiyatning ijtimoiy-

iqtisodiy rivojlanishining muhim omilidir. Boshqa tomondan, xorijiy tildan ta'lim jarayonida talabani kasbiy mobilligiga tayyorligini rivojlantirish uning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi va hayotini muvaffaqiyatli amalga oshirish omili hisoblanadi. Bundan kelib chiqadiki, kasbiy mobil bo'lish mustaqil, barkamol, ijodiy shaxs sifatida ta'limning dolzarb vazifasi bo'lib, bugungi kunda shaxsning o'zini o'zi belgilashini ta'minlash va uning o'zini o'zi amalga oshirish uchun sharoit yaratishga qaratilgan. Shu munosabat bilan, kasbiy mobillikka tayyorlikning muhim komponenti bu shaxsda shakllangan o'ziga xos motivlar va qadriyatlaridir¹.

a) Kasbiy mobillikka tayyorlikni rivojlantirishning zarur sabablari, bizning fikrimizcha:

- egallagan kasbga qiziqish;

- kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish istagi;

- qabul qilingan kasbiy qarorlar, amalga oshirilgan harakatlarning ahamiyatini tushunish;

- ijtimoiy-iqtisodiy hayotda faol ishtirok

¹ Меркулова Л. П. Формирование профессиональной мобильности специалистов технического профиля средствами иностранного языка : автореф. дис. ... докт. педаг. наук : 13.00.08 / Л. П. Меркулова ; Самарский гос. ун-т ; науч. рук. А. А. Вербицкий. - Самара, 2008. - 40 с.

etishga undash va hokazo.

Shaxsning motivatsiyasini belgilashning raqobatbardoshlik qobiliyatini kuchaytirish, hayotiy faollikni ko'rsatishni anglatadi. Yosh mutaxassislar, qoida tariqasida, yangi ishga joylashish, yangi lavozimga o'tish va hokazolarda muayyan qiyinchiliklarni boshdan kechiradilar. Ularning kasbiy mobillikka tayyorgarligini rivojlantirishga ko'maklashish ularning kasbiy faoliyatining boshidayoq ularning boshlang'ich kapitalini oshirish demakdir. Texnika OTMda o'qish davrida talabalar shaxsiyatning individual-shaxsiy va kasbiy komponentlarini, o'zlarining chidamliligini rivojlantirish orqali hayotni ro'yobga chiqarish uchun ijodiy salohiyatini oshirish uchun real imkoniyatga ega².

b) Kasbiy mobillikka tayyorlikning qadriyatli-motivatsion komponenti quyidagi asosiy kasbiy qadriyatlarni o'z ichiga oladi:

- professionallik. Bu malaka, yuqori kommunikativ madaniyat, tashabbuskorlik, kasbda qadriyat yo'nalishlarining mavjudligi orqali namoyon bo'ladi, bu unga erishish vositasi emas, balki afzal qilingan, orzu qilingan turmush tarzining muhim qismidir³;

- doimiy kasbiy o'sish va hayot sifatini yaxshilash: maqsadlar va qadriyat yo'nalishlarining ravshanligi, qarorlar qabul qilishning oqilonaligi, o'z oldiga qo'yilgan vazifalar uchun o'zini-o'zi tashkil qilish qobiliyati, mehnatsevarlik, yetakchi bo'lish qobiliyati;

- o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini rivojlantirish. Bu mehnat bozorining bo'lajak mutaxassislaridan intellektual, ijtimoiy va boshqa kompetensiyalarni doimiy ravishda yangilab turish, faoliyat turini o'zgartirishga tayyor bo'lishni talab qiladi. Zamonaviy odamning hayoti davomida kasb yoki malakani o'zgartirish istagi yoki ehtiyoji bo'lishi mumkin. Shuning uchun OTMda xorijiy tillarni o'qish davrida olingan kasbiy bilim va ko'nikmalar butun mehnat faoliyati uchun yetarli bo'lishi kerak. Inson hayoti davomida bir necha marta qayta o'rganishi, o'z-o'zini tarbiyalash, takomillashirish, o'z-o'zini tarbiyalash bilan shug'ullanishi kerak⁴. Shaxsning birgalikdagi faoliyat va muloqot mavzusiga munosabatini tavsiflovchi o'z fazilatlarini ustida ishlash kerak: vijdonlilik, tashabbuskorlik, hissiy barqarorlik, xushmuomalalik va boshqalar;

- ijodkorlik (kreativlik). Muammoli vaziyatdan chiqish yo'lini topish uchun insonga

yangi bilimlar, ilgari noma'lum bo'lgan hal qilish usullari, mavjud kasbiy ko'nikmalar va shaxsiy fazilatlarini yangi usulda qo'llash qobiliyati kerak, bu esa ijodiy faoliyatni talab qiladi;

- shaxsning muloqot qobiliyatlari;
- doimiy o'zgaruvchan sharoitlarga muvaffaqiyatli moslashish, hayot yo'lidagi ijobiy metamorfozlar sifatida kasbiy rivojlanishdagi o'zgarishlar zarurligini baholash⁴;

- zamonaviy hayotning turli holatlarida intellektual va hissiy moslashuvchanlik.

2) Kasbiy harakatchanlikka tayyorlikning kognitiv komponenti quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- insonga xos bo'lgan zarur bilimlar, ko'nikmalar, malakalar natijasida u muayyan turdagi mehnat funksiyalarini bajarishga qodir.

Texnika sohasida xorijiy tillarni biladigan texnologlarga bo'lgan ehtiyoj ortib borayotgani ushbu fan bo'yicha bilimlarni kasbiy mobillikka tayyorlikni rivojlantirishda asosiylikdan biriga aylantiradi⁵. Kasbiy yo'naltirilgan xorijiy tillarni, madaniyatlararo muloqotni, mamlakatshunoslik sohasidagi keng dunyoqarashni bilish boshqa mamlakatlar mutaxassislari tilida muloqot olib borish, kasbiy sohada xorijiy tajriba bilan tanishish imkonini beradi;

- kasbiy vazifalarni tushunish, ularning ahamiyatini baholash va boshqalar. Muammoning mohiyatiga kirib borish, ilgari taklif qilingan yechimlarni tahlil qilish, kasbiy va iqtisodiy muammolarni loyihalash va samarali hal qilish qobiliyati mobillikka tayyorlikni rivojlantirishga yordam beradi. Texnologik muammolarni hal qilish bo'yicha mualliflik dasturini tuzish va amalga oshirish qobiliyati muhim, shu jumladan muammoni tashxislash, uni bartaraf etish bo'yicha mobil dasturlarni ishlab chiqish va rivojlanish va natijalarni kuzatish, shuningdek ularni tuzatish qobiliyati;

- shaxsiy va kasbiy o'z-o'zini tarbiyalash dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish qobiliyati - insonning fazilatlarini va uning kasbiy faoliyatdagi qobiliyatlariga mos keladigan talabdir. Ta'lim va o'z-o'zini tarbiyalash bugungi kunda alohida ahamiyatga ega. Ularning takomillashuvi nafaqat jamiyatning rivojlanish sur'atlariga bog'liq, balki bu jarayonga ham ta'sir qiladi. Kasbiy hayotiylik ko'p jihatdan xorijiy tillardagi interaktiv muloqotda murakkab va faol ishtirok etish darajasi, uni madaniyatlararo muloqotga qo'shishning foydaliligi bilan belgilanganligi sababli, bugungi kunda eng ko'p

² Hamidov J. A. Using Multimedia Technology Problems in Professional Education // Eastern European Scientific Journal /Auris – Verlag.de 2019, №1. 187- 190 str.

³ Максимова М.Л. Образование как фактор социальной мобильности в современной России (хттп://www.унн.ру/рус/фл 4/к2/студентс/хопес/10.хтм) (24.06.2009)

⁴ Хамидов Ж.А. Использование мультимедийных технологий в профессиональном образовании // Среднее профессиональное образование, 68-69 11 2011

⁵ Максимова М.Л. Образование как фактор социальной мобильности в современной России (хттп://www.унн.ру/рус/фл 4/к2/студентс/хопес/10.хтм) (24.06.2009)

talab qilinadigan narsa shaxsining mobilligini rivojlantirishdir.

- shaxsiy va kasbiy rivojlanish dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish, uni mehnat bozoridagi o'zgaruvchan sharoitlarga muvofiq tuzatish qobiliyati. Mamlakatimizdagi va dunyodagi hozirgi iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy vaziyat samarali kasbiy faoliyatga qodir, zarur darajadagi umumiy va kasbiy madaniyatga ega bo'lgan, tez o'zgaruvchan sharoitda murakkab muammolarni hal qilishga tayyor bo'lgan mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojni belgilaydi.

3) Kasbiy mobillikka tayyorlikning faoliyatli komponenti quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ma'lum bir vaziyatga reaksiya tezligini, axborot oqimidagi yo'nalishni, zamonaviy aloqa usullari va vositalariga ega bo'lishni belgilaydigan axborotni tahlil qilishning ko'nikmalari va qobiliyatlari majmui;

- jamiyatda muloqot qilishning amaliy ko'nikmalari (tanishuv, taqdimot qilish, muzokaralar olib borish, nizolardan chiqish), samarali muloqot qilish, hamkorlik qilish, moslashish, ijtimoiy jasorat;

- ijodiyot. O'z tashabbusi bilan OTM va undan tashqarida o'tkaziladigan seminarlar, konferensiyalar, boshqa kasbiy yo'naltirilgan tadbirlarda faol ishtirok etish;

- o'zini ko'rsatish va o'z fikrini bildirish qobiliyati.

- o'z ishini tashkil qilish qobiliyati;

4) Kasbiy mobillikka tayyorlikning refleksiv komponenti. Mutaxassisning kasbiy mobillikka tayyorligi uning ijtimoiy moslashuvining muvaffaqiyati - shaxs va jamiyatning o'zaro ta'siri bilan belgilanadi, bunda ijtimoiy muhit, ijtimoiy guruh talablari o'z-o'zini hurmat qilishdadir. Jamiyatda munosabatlarni o'rnatish muvaffaqiyati har bir shaxsning o'zini o'zi aniqlash, o'zini o'zi anglash muammolarini hal qilish natijasi bilan belgilanadi.

Barcha aqliy va jismoniy qobiliyatlarni ma'lum bir vaqt oralig'ida qo'yilgan vazifalarni sifatli hal qilishga intensiv ravishda jamlash - xotira, fikrlash, mehnat qobiliyati - kasbiy mobillikka tayyorlikni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan psixofiziologik xususiyatlar. Shunday qilib, kasbiy mobillikka tayyorlikning refleksiv komponenti quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- motivlarning ahamiyatini va maqsadlarga erishishni tahlil qilish;

- kasbiy faoliyat sharoitidagi o'zgarishlarni tahlil qilish;

- mutaxassis imkoniyatlari va tashqi sharoitlar nisbatini tahlil qilish;

- o'z-o'zini baholash va o'z harakatlarini baholashning adekvatligi;

- o'z-o'zini tarbiyalash, tegishli ko'nikmalar va kasbiy mobillik mazmunini tahlil qilish;

- stressga chidamlilik kasbiy faoliyat har bir inson hayotida muhim rol o'ynashi va uning ahvoli va farovonligiga katta ta'sir ko'rsatishi haqidagi bilimni anglatadi⁶.

Shaxsning dinamik o'zgaruvchan muhit sharoitlariga tayyorligi, kasbiy mobilligi oliy ta'lim sohasidagi natijalarning muvofiqligi va mutaxassis shaxsining hayotiy muvaffaqiyati uchun shartlardan biridir. Mamlakatimizning jahon iqtisodiyotiga faol integratsiyalashuvi xorijiy tillarni biladigan mutaxassislarga bo'lgan talabni shakllantirishga yordam beradi. Xorijiy tillarni bilishning professional darajasi makroiqtisodiy va muhim ijtimoiy omilga aylanadi. Integratsiyalashuv madaniy va ilmiy an'analar kontekstida mutaxassislarning kasbiy mobilligiga tayyorligiga bo'lgan talab muammosini yanada kuchaytiradi. Bundan tashqari, talabalarning kasbiy mobillikka tayyorligini rivojlantirishda turli o'quv fanlarining imkoniyatlariga, xususan, kasbiy sohaga moslashishni ta'minlaydigan xususiyatlarni rivojlantirish uchun xorijiy tillardan foydalanishga e'tibor qaratiladi⁷.

"Xorijiy til" o'quv fanining shaxsni rivojlantirish salohiyati, uning didaktik imkoniyatlari va ushbu fanni talabalarga o'qitishning didaktik ta'minotni rivojlanish darajasi ularning kasbiy mobillikka tayyorligini oshirishda muhim omil bo'lishi mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, hozirgi vaqtda texnika OTMda muhandislar tayyorlash gumanitar sohadan orqada qolmoqda, pedagogik nuqtayi nazardan shakllar, metodlar va didaktik ta'minot jihatidan ancha konservativ bo'lib qolmoqda. O'qitishning innovatsion texnologiyalari va faol o'qitish shakllari kam qo'llaniladi. Xorijiy tillarni amaliy bilish bugungi kunda ta'lim va kasbiy faoliyatni davom ettirishni, ona tilida so'zlashuvchilar bilan bevosita aloqada bo'lgan kundalik muloqotning umumiy holatlarida kommunikativ va lingvomadaniy kompetensiyalarni ta'minlaydigan madaniyatlararo muloqot vositasi sifatida qaraladi. Bundan tashqari, gazeta va jurnal maqolalarini, televideniya va radio dasturlarini ravon o'qish va tushunish qobiliyati, biznes yozish qobiliyati, muzokaralar olib borish va shartnomalar tuzish qobiliyati

⁶ Максимова М.Л. Образование как фактор социальной мобильности в современной России (хттп://www.унн.ру/рус/фл 4/к2/студентс/хопес/10.хтм) (24.06.2009)

⁷ Меркулова Л. П. Формирование профессиональной мобильности специалистов технического профиля средствами иностранного языка : автореф. дис. ... докт. педаг. наук : 13.00.08 / Л. П. Меркулова ; Самарский гос. ун-т ; науч. рук. А. А. Вербицкий. - Самара, 2008. - 40 с.

ham muhimdir.

Xorijiy tilni bilish katta shaxsiy-ijodiy salohiyatga ega, chunki u shaxs ongini va uning dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi va bu erkin shaxs, uning subyekti shakllanishining eng muhim omilidir. O'zaro ta'sir, o'zbek va xorijiy tillarni o'zaro boyitish, shubhasiz, shaxsning umumiy madaniyatini boyitadi. Bundan tashqari, yangi materialni o'zlashtirishning qulayligi o'rganishda kuchli rag'batdir.

Xorijiy tilni o'zlashtirishda insonning aqliy va jismoniy imkoniyatlarining konsentratsiyasi muqarrar ravishda yuzaga keladi, bu esa kasbiy mobillikka tayyorlikning psixofiziologik xususiyatlarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir qiladi: diqqat, xotira, fikrlash, nutq, tasavvur, aql-zakovat rivojlanadi. Talaba tilni o'zlashtirish uchun oqilona individual strategiyani shakllantiradi, shaxsiy muqobillikni rivojlantiradi, u kasbiy mobillikda qo'llashi mumkin.

Xorijiy tilni o'rganish jarayonida kasbiy mobillikni rivojlantirish potentsiali dasturdagi o'quv soatlari soni, amaliy mashg'ulotlar, munozaralar, rolli o'yinlar shaklida o'qitish shakli orqali ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, mavjud cheksiz internet-resurslarni ta'kidlash kerak, ularning katta qismi ingliz tilida taqdim etiladi.

Ta'lim mazmuni modullarga tuzilgan, masalan, tinglash uchun modullar – "Matnni quloq bilan tushunish"; joriy nazorat uchun – "Tinglangan matnning tezislarni tuzish"; so'zlash uchun – "Ma'ruza va muhokama", joriy nazorat uchun – taklif qilingan mavzu bo'yicha ma'ruza bilan taqdimot qilish va muhokamada ishtirok etish; o'qish va tarjimai rivojlantirish uchun – "Har xil turdagi o'qish

texnikasi", joriy nazorat shakli ma'lumotlarning to'liqligi; yozishni o'rgatishda – "Axborotni qayta ishlash turlari" moduli, joriy nazorat shakli - hisobotlar, ish xatlari, hisobotlarni yozish. Kompetensiyaga asoslangan modullar xorijiy tilni mustaqil o'rganishga yordam beradi. Talaba o'zini tanishtirish, xat, ariza yozish, anketa to'ldirish, savol berish, muhokamada qatnashish va hokazolarni bilishi kerak.

Kasbiy jihatdan ahamiyatli ko'nikmalar shakllanadi – texnik xususiyatdagi muammoni ko'rish va uni vazifa shaklida shakllantirish; loyihalar va biznes-rejalarni ishlab chiqish; biznes aloqalarini o'rnatish va qo'llab-quvvatlash; standart va o'zgartirilgan sharoitlarda oqilona harakat qilish; ish yozishmalar va telefon suhbatlarini o'tkazish; xorijiy tildagi muloqotda boshqasining o'rnini tushunish va hokazo.

Albatta, chet tilini o'rganish so'zlarni yodlash bilan chegaralanmaydi. Ehtimol, eng muhimi, jonli muloqotda ularning ulanish usulini o'zlashtirishdir. Bizning zamonamizda uning imkoniyatlari turli xil kompyuter texnologiyalaridan foydalanish orqali sezilarli darajada kengaytirildi. Xorijiy tili yordamida kasbiy vazifalar hal qilinadi va kasbiy o'zini o'zi anglash zarurati rivojlanadi, subyektlarning moslashuv-transformativ munosabatlari kuchayadi, ularning predmet-psixologik muvofiqligini ta'minlaydi.

Shunday qilib, xorijiy til darslarini o'tkazish jarayonida maxsus metodlar, pedagogik texnologiyalar, yo'naltirilgan darslar maxsus matnlar yordamida kasbiy mobillik bo'yicha lug'atni kengaytiradi, boshqa ijtimoiy-madaniy guruhlar vakillari bilan samarali hamkorlik qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

RAQAMLASHTIRISH – YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING MUHIM OMILI SIFATIDA

Samariddin Qurbonovich Absobirov - tayanch doktorant, Navoiy davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda elektron hukumatni rivojlantirish, davlat organlarining fuqarolar bilan muloqotini ta'minlash uchun axborot texnologiyalardan foydalanish, jamiyatni raqamlashtirish va bu borada amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida so'z yuritilgan.

Аннотация: В данной статье рассматривается о развитии электронного правительства в Узбекистане, использовании информационных технологий для обеспечения связи государственных органов с гражданами, цифровизации общества, а также о работе, которую предстоит провести в этом направлении.

Abstract: This article is devoted to the development of electronic government, the use of information technologies to ensure the communication of state bodies with citizens, digitization of society in Uzbekistan, and the work to be done regarding these spheres.

Kalit so'zlar: raqamlashtirish, sivilizatsiya, dasturlashtirilgan jamiyat, raqamli jamiyat, elektron hukumat, IT industrial, raqamli struktura.

Ключевые слова: цифровизация, цивилизация, запрограммированное общество, цифровое общество, электронное правительство, ИТ-индустрия, цифровая структура.

Keywords: digitization, civilization, informational community, digital society, electronic government, IT industry, digital structure.

Bugungi kunda butun dunyo bo'ylab tarqalgan COVID-19 pandemiyasi sababli raqamli texnologiyalarga bo'lgan ehtiyoj sezilarli darajada oshgani hech kimga sir emas, bu esa o'z navbatida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, jamiyatning barcha sohalarini raqamlashtirish, rivojlanish yo'lidan borayotgan davlatlar, jumladan O'zbekiston uchun ham juda muhimligini ko'rsatmoqda.

Mamlakatimizda ham raqamlashtirishga muhim e'tibor qaratilmoqda. Axborotlashgan jamiyat bu tushuncha zamirida innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va ishlanmalarni joriy etish, barcha soha va tarmoqlarda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni raqamli texnologiyalar bilan qamrab olish, zamonaviy bilimlarni chuqur egallagan intellektual salohiyatli kadrlarni yetishtirish masalalari aks etadi. Shu bois mamlakatimizda raqamli texnologiyalarni jadal rivojlantirish, milliy iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirishga katta e'tibor berilmoqda.

Jamiyatni raqamlashtirish, raqamli texnologiyalarni tarmoqning barcha sohalariga joriy qilish bo'yicha xorijlik olimlardan A.Turen "Yangi jamiyatni, dasturlashtiriladigan" deb ataydi. Bunday jamiyat, tadqiqotchining fikriga ko'ra, sivilizatsiya evolyutsiyasining hozirgi bosqichining ijtimoiy talabiga javob bo'lib, uning o'zini o'zi tashkil qilish rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, uning "boshqaruv va ishlab

chiqarish modellarini yaratish, tarqatish, iste'mol qilish, ishlab chiqarishni tashkil etish qobiliyati deb ta'kidlaydi¹.

2000-yillarning boshidayoq O'zbekiston Respublikasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanda rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevraldagi "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5349-sonli qarori, "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" va "Raqamli O'zbekiston – 2030" hamda "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi"da milliy iqtisodiyot, sanoat va umuman jamiyatda raqamli texnologiyalardan keng foydalanishni amalga oshirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar ko'zda tutilgan².

Davlatimiz rahbari tomonidan imzolangan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmoni bu yo'nalishda olib borilayotgan islohotlarga jadallik baxsh etishi bilan ahamiyatlidir.

"Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirishning eng muhim shartlari sohaning

¹ Emelyanov N. A. Mintaqaviy kadrlar siyosati: ayol va boshqaruv // Mintaqaviy ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.
² <https://lex.uz/ru/docs/-3564970>

moliyaviy ta'minoti va aholining raqamli savodxonligini oshirishdan iborat. Shunday qilib, mazkur Famonga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi boshqa tegishli davlat organlari bilan birgalikda 2022-yil oxiriga qadar maktabgacha ta'lim, sog'liqni saqlash va umumta'lim maktablarini raqamlashtirishni yakunlash choralari ko'radi³.

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalardan foydalanish holda masofadan turib ishlash, onlayn xizmatlardan foydalanish vaqtni va resursni tejash imkoniyati paydo bo'ldi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Bularning barchasi bugungi dunyoda shiddat bilan taraqqiy etayotgan raqamli texnologiyalarning samarasi deb hisoblashimiz mumkin. BMT tomonidan 2020-yilda 193 ta mamlakat orasida o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra O'zbekiston elektron hukumatni rivojlantirish bo'yicha 87-o'rinni, davlat organlarining fuqarolar bilan muloqatini ta'minlash uchun axborot texnologiyalardan foydalanish bo'yicha 46-o'rinni egallaganini qayd etilgan.

O'zbekiston Respublikasida mazkur Farmonning qabul qilinishi bugungi kunda juda muhim ahamiyat kasb etdi. Bunga asos sifatida shuni aytishimiz mumkinki, pandemiya sharoitida raqamli texnologiyalarning qanchalik hayotimizga kirib kelishining muhimligi va bu borada aholining qanchalik tayyorligi va savodxonligini belgilash mezonlari ma'lum bo'lmoqda.

Mazkur strategiya mamlakatimizda axborot kommunikatsiya texnologiyalarni so'nggi o'n yil davomida asosiy ustuvor yo'nalish va vazifalarni belgilab berilgan.

Xususan, elektron hukumat, IT industrial va raqamli struktura va raqamli ta'limni rivojlantirish yo'nalishlarini qamrab olgan.

Bundan tashqari "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasida erishish ko'zda tutilgan maqsadli ko'rsatkichlar belgilab berilgan.

Jumladan:

-Optik tolali aloqa tarmog'ini 41 ming kilometrdan 250 klometrga yetkazish;

-Keng polasali mobil aloqa bilan qamrab olish darajasini 78% dan 100% ga olib chiqish;

-Elektron hukumatni rivojlantirish bo'yicha 87-o'ringdan eng yuqori 30 talik ro'yxatga kirish;

-Elektron davlatlari xizmatlari ulushini amaldagi 34% dan 90% ga olib chiqish;

-Davlat xizmatlari partalidan foydalanuvchilar sonini hozirgi 276 mingdan 2,5 mlnga yetkazish.

Prezidentimiz tomonidan 2022-yil

28-yanvar kuni imzolangan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi" PF-60-son Farmoniga asosan – inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish; mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish; milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash; adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish; ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish; milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish; mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish kabi 7 ta ustuvor yo'nalishlar doirasida keyingi besh yilda erishish kerak bo'lgan yuzta strategik maqsadlarni o'z ichiga oladi⁴.

Taraqqiyot strategiyasida ham muhim sohalarni raqamlashtirilishga alohida e'tibor qaralib, davlat xizmatlari, sud tizimi, huquqni muhofaza qilish organlari, yo'l harakati boshqaruvi tizimi, sog'liqni saqlash tizimi, ijtimoiy xizmatlar, bank va qishloq xo'jaligi tarmoqlari va milliy iqtisodiyotning boshqa asosiy sohalariga yangi texnologiyalarni joriy qilish belgilangan.

Umuman olganda, raqamli texnologiyalar pandemiyadan keyingi tiklanishda, shuningdek, barqaror iqtisodiyotni qurishda asosiy rol o'ynaydi. Shu bois, raqamli texnologiyalardan keng foydalanish va jamiyatni raqamlashtirish rivojlanish yo'lidan borayotgan mamlakatlar uchun asosiy ustuvor vazifa bo'lmog'igi lozim.

Xulosa qilib aytganda, so'nggi yillarda mamlakatimizda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish va jamiyatni raqamlashtirish va elektron davlat xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha samarali natijalarga erishildi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Shu bilan birga, raqamli texnika va texnologiyalar, raqamlashtirish bo'yicha rivojlangan xorijiy davlatlar bilan xalqaro hamkorlik aloqalarini yanada kengaytirish va mazkur davlatlar tajribasidan foydalanish,

IT-sektoriga xorijiy mutaxassislarni jalb qilish muhim ahamiyat kasb etadi deb hisoblayman. Raqamli ekotizimga, IT infratuzilmasiga va elektron xizmatlarga investitsiyalar kiritish milliy iqtisodiyotni yanada modernizatsiya qilish va jamiyatning barcha sohalarida raqamli texnologiyalarni foydalanish ko'rsatkichini oshishiga xizmat qiladi.

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni;
4 <http://e-gov.uz/news/raqamlashtirish-yangi-ozbekiston-tar...g-muhim-drayveri-404?>

ENG KO'P MUROJAAT QILINADIGAN QUR'ON TERMINLARIGA NISBATAN BERILADIGAN TARJIMAVIY MUQOBILLARNING TEOLINGVISTIK ADEKVATLIGI TAHLILI

Shamsiddin Abduraimovich Yodgorov - tayanch doktorant, Termiz davlat universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada, aksariyat holatlarda tarjimon, sharqshunos va g'arb jurnalistik mediya tomonidan mohiyatan yangilash, ma'naviy jihatdan g'aliz va mavhum talqin qilinib kelinadigan ko'plab diniy atamalar inglizcha muqobillarning Qur'onga ko'ra asl istilohiy mohiyatga diniy – liturgik jihatdan qay darajada muqobil ekanligini tahlil qildik.

Аннотация: В настоящей статье исследован проанализирован религиозно-литургическую адекватность англоязычных альтернатив общеупотребительных коранических религиозных терминов, которые в большинстве случаев неверно интерпретируются переводчиками, востоковедами и западными журналистскими СМИ, оригинальной коранической лексической сущности.

Abstract: In the current article, the researcher analyzed the religious – liturgical adequacy of the English alternatives of the common Quranic religious terms, which in most cases are wrongly interpreted by translators, orientologists, and western journalistic media, to the original Quranic lexical essence.

Kalit so'zlar: Quran, translation method, liturgical adequacy, religiousness, expressiveness.

Ключевые слова: Коран, метод перевода, литургическая адекватность, религиозность, выразительность.

Keywords: Quran, translation method, liturgical adequacy, religiousness, expressiveness.

Mazkur tahlilimiz aksariyat hollarda so'z ishlatiladigan bo'lib qolgan. «Nabiy» Qur'oni Karimning ma'naviy tarjimalarida ham «payg'ambar» deyilaveradi, «Rasul» mohiyatan aniq sharhlanmasligi sababli, ham «payg'ambar» deyilaveradi. Ehtimol, bu ikki ma'no bir – biriga o'ta yaqinligi uchun , نُبُوَّة (nubuvvat) va رِسَالَة (risolat) so'zlari shunday bo'lgandir. Aslida Alloh taolo Qur'oni bilan mazmunan o'xshash deb hisoblanib Karim uchun ixtiyor qilgan arab tilidagi bu ikki kelinadigan وَحْي (vahiy) istilohi va uning so'zning o'ziga xos daqiq ma'nolari bor¹.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf tomonlaridan bildirilgan mazkur ilmiy mulohazalarga tayanib, dastavval ushbu tahlilimizda وَحْي (vahiy) istilohiga nisbatan berilgan tarjima muqobillarini, bundan keyingi tahlilimizda esa نُبُوَّة (nubuvvat) va رِسَالَة (risolat) istilohlariga nisbatan berilgan tarjimaviy muqobillarini ilmiy tahqiq qildik.

وَحْي (vahiy) so'zining lug'aviy va istilohiy ma'nolari

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufga ko'ra lug'atda "tezkor va maxfiy xabar yo'llash" degan ma'no ifodalaydigan (vahiy)²so'zir وَحْي Qur'oni Karimga ko'ra istilohiy ma'nolari bilan tanishib chiqish uchun esa o'rniga bir so'z, ya'ni «payg'ambarlik» degan tadqiqotimiz davomida, Qur'oni Karimdagi

1 Шайх Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Mukammal Saodat йўли – Toshkent.: "Хилол Нашр", 2021 – 78 бет
2 Шайх Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Курьон иллари – Toshkent.: "Хилол Нашр", 2022. – 504 бет

وحي (vahiy) so'zi ishtirok etgan quyidagi oyatlarni o'rganib chiqdik:

Baqara 2:76; Niso 4:163; Moida 5:111; An'om 6:19,50,93,106,145; A'rof 7:117, 160, 143, 203; Anfol 8:12; Yunus 10:2, 15, 87, 109; Hud 11:12, 36; Yusuf 12:3,15,109; Ra'd 13:30; Nahl 16:43, 68, 123; Isro 17:39, 73, 86; Kahf 18:27, 110; Maryam 19:11; Toha 20:13, 38, 48, 77; Anbiyo 21:7,25,73,108; Mo'minun 23:27; Shu'aro 26:52, 63; Qasos 28:7; Ankabut 29:45; Ahzob 33:2; Fotir 35:31; Sod 38:70; Zumar 39:65; Fussilot 41:6,12; Shuuro 42:7, 13, 52; Zuxruf 43:43; Ahqof 46:9; Najm 53:4,10; Jin 72:1; va Zalzala 99:5.

O'rganib chiqilgan oyatlar va bu xususdagi ilmiy adabiyotlardan kelib chiqib, وحي

(vahiy) so'zini istilohiy jihatdan quyidagi ikki turi mavjud ekanligiga guvoh bo'ldik:

1) Payg'ambarlarga beriladigan «vahiy» (ilohiy shariat);

2) Payg'ambar bo'lmaganlarga beriladigan «vahiy» (g'oyibona ilhom);

Manbalarga qaraganda, payg'ambarlarga beriladigan «vahiy» va payg'ambar bo'lmaganlarga beriladigan «vahiy» orasida ko'plab farqlar mavjud bo'lib³, payg'ambarlarga beriladigan «vahiy» – Alloh taolo insonlar orasidan tanlab olgan elchisi yoki payg'ambariga O'zi iroda qilgan hukmlardan iborat xabarni ya'ni shariatni o'ta tez va boshqalardan maxfiy ravishda yetkazishi⁴ bo'lsa, payg'ambar bo'lmaganlarga beriladigan vahiy esa, payg'ambarlarga beriladigan «shariat» maqomidagi «vahiy» dan tamomila farqli o'laroq «g'aybiy ilhom» hisoblanar ekan.

Bu xususda, Sahihul Buxoriyda, Abu Hurayra r.a.dan rivoyat qilingan quyidagi hadis ham mavjud bo'lib, unda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam Bani Isroil qavmida payg'ambarlardan bo'lmasalarda, ularga so'zlanadigan, gapiriladigan insonlar mavjud bo'lganligi haqida aytganlar:

3689 - زكرياء بن ابي زائدة، عن سعد، عن ابي سلمة، عن ابي هريرة، قال: قال النبي صلى الله عليه وسلم: «انك كل من كان قبلكم من بني اسرائيل رجال، يظنون من غير ان يكونوا انبياء، فان يكن من

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi. Nabiy ﷺ sollallohu alayhi vasallam: «Haqiqatki, sizdan oldingi, Banu Isroil qavmida payg'ambarlardan bo'lmasalarda, ularga So'zlanadigan, Gapiriladigan kishilar bor edi. Agar mening ummatimda ham birorta o'shandiq odam bo'lsa, u Umardir» - dedilar». Hadisshunoslar, Qur'oni Karimdagi quyidagi Qasos surasi 7 – oyatiga tayanib Rasululloh s.a.v. ning: «Bani Isroilda payg'ambarlardan bo'lmasalarda, ularga So'zlangan, Gapirilgan insonlar mavjud bo'lgan» degan so'zlari Muso a.s. ning nasiga ishora qilgan bo'lishlari mumkinligiga ittifoq qilishgan: Qasos 28:7

واوحينا الى ام موسى ان ارضعها لبدا، ففعلت عليه قلبه في التيم ولا تخفي ولا تعزبي (ا راقوه بيده

«Va Musoning onasiga: «Uni emizaver. Bas, qo'rqqan وجاعطوة من المرسلين chog'ingda uni daryoga tashla, qo'rqma, mahzun bo'lma, albatta, Biz uni senga qaytaruvchimiz va uni rasullardan qiluvchimiz», deya vahiy qildik» Bir so'z bilan aytganda, Payg'ambar bo'lmagan inson toifalariga «vahiy berilishi», Qur'on istilohiga ko'ra «bildirib qo'yish», «qalbiga ilhom solish», «buyurish» va «ishora qilish» degan ma'nolarda kelar ekan. Shuningdek, Rasululloh s.a.v.ning musulmonlar orasida bunday sifatga ega insonning Umar r.a. ekanliklari haqidagi fikrlarida ham tegishli asos mavjud. Zero, Umar r.a.ning musulmonlarni namozga chaqirish uchun inson ovozi bilan azon aytish taklifi ham, maqomi Ibrohimda namoz o'qish tashabbusi ham unga berilgan g'oyibona ilhom orqali sodir bo'lganligi aytiladi. Endi esa Qasos 28:7 oyatdagi واولحينا الى ام موسى jumlisi tarjimalarda qanday ifodalanganligiga e'tibor qaratamiz: Aleksandr Ross tarjimasi: "We said to the mother of Moses give suck to your child; If thou fear that they will mischief him, cast him upon Nile, fear not, neither afflict thy self, I will reftore him to thee between thine armes, and place him in the number of Prophets" Jorj Seyl tarjimasi: "And we directed the mother of Moses by revelation, saying, give him suck: and if thou fearest for him, cast him into the river; and fear not, neither be afflicted; for we will restore him unto thee, and will appoint him one of our apostles." Jon Rodvell tarjimasi:

3 Leirvik O. (2015). Wahy and tanzil: Modern Islamic approaches to divine inspiration, progressive revelation, and human text. Studia Theologica-Nordic Journal of Theology, 69(2), 101-125.

4 Zaki, Y. (1983). The concept of revelation in Islam. Islamic Quarterly, 27(2), 72.

5 Bukhārī, Muhammad ibn Ismā'īl; بطرس، محمد بن اسماعيل (1997). Sahih al-Bukhari: the translation of the meanings of Sahih al-Bukhari : Arabic-English. Muhammad Muhsin Khan, Riyadh-Saudi Arabia: Darussalam Pub. & Distr. (https://sunnah.com/bukhari:3689)

“And we said by revelation to the mother of Moses, “Give him suck; and if thou fearest for him, launch him on the sea; and fear not, neither fret; for we will restore him to thee, and make him one of the apostles. Edvard Genri Palmer tarjimasi: “And we inspired the mother of Moses, “Suckle him” and when your art afraid of for him then throw him into the river, and fear not and grieve not; Verily, We are going to restore him to thee and to make of the apostols”. Richard Bell tarjimasi: So, We suggested to Moses’ mother: Suckle him and when thou fearest for him, cast him into the sea, neither fearing nor grieving; for We are going to restore him to thee and to make him one of the envoys. Ko'rib turganimizdek, “ilhom orqali xabarlantirdik” ma'nosidagi واولحينا Aleksandr Ross “We said to”, Jorj Seyl “We directed by revelation”, Jon Rodvell “We said by revelation”, Edvard Genri Palmer “We inspired”, Richard Bell esa “We suggested to” shaklida tarjima qilishgan. Tarjimonlar orasidan oyatda “tabiiy ilhom” ma'nosida kelgan واولحينا asosli jumlasini Edvard Genri Palmerning “We inspired” (Biz ilhomlantirdik) ma'nosidagi tarjimasi muqobillik jihatdan anchayin yaqin tarjima qilingan deyish mumkin. Shu o'rinda qolgan tarjimalar nima uchun asliy jumlagi ma'noviy muqobil bo'la olmasligining bir qator sabablari bor. Aleksandr Ross va Jon Rodvellarning “Biz dedik” yoki “Biz aytdik” ma'nolarida berilgan “We said” va “We said by revelation” tarjimalari, Alloh taolo biror inson zotiga to'g'ridan – to'g'ri verbal shaklda xitob qilmasligi, so'zlamasligi aytilgan Sho'ro surasi 51 – oyatida kelgan Alloh taoloning zotiy sifatlariga xilofdir.

Jorj Seylning “We directed by revelation” tarjima muqobili ham, asliy jumlagi mutlaqo mos kelmaydi. Zamonaviy Bibliya matnlarining teologik semantikasiga ko'ra “direct revelation” so'zi “Xudo har qanday insonning to'g'ridan – to'g'ri tushiga o'z qiyofasida ko'rinish berishi va u bilan bevosita muloqot qilishi” degan ma'no⁶ Qur'oni Karimga ziddir. Richard Bellning “biz taklif berdik” mazmunidagi “We suggest” tarjimasi ham bundan oldingi tarjimalarda uchragan teologik nomantiqiy holatni takroriy yuzaga keltirgan desak adashmagan bo'lamiz.

Oldingi tahlillarimizda ta'kidlaganimiz kabi Alloh taolo payg'ambarlaridan tashqarida

bo'lgan insonlarga taklif berish tugul xitob qilmaydigan, ular bilan to'g'ridan – to'g'ri so'zlashmaydigan Zot ekanligi Qur'oni Karimning bir qator oyatlarida marhamat qilingan. Oyatdan chiqadigan ma'no «g'aybiy ilhom» so'ziga kelsak, shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf o'zining «Qur'on ilmlari» asarida Qur'oni Karimga ko'ra «vahiy» so'zi bilan ifodalanib kelgan «ilhom» faqatgina inson toifalariga emas, balki undan boshqa mavjudotlarga ham berilganligini quyidagicha tasniflagan:

- 1) Hayvonlarga berilgan g'ariziy ilhom – instinkt;
- 2) Alloh taoloning farishtalarga buyrug'i;
- 3) Alloh taoloning Yerga guvohlik berishi uchun hukm qilishi;
- 4) Alloh taoloning butun Koinotning har bir qatlamini ma'lum bir vazifa uchun mas'ullantirishi;

Bundantashqari, shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf vahiydan ko'zlanadigan asl istilohiy mohiyati Sho'ro surasining 51 – oyatida yaqqol ochib berilganligini qayd etgan. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusufning tafsiriga ko'ra oyatda, inson zoti Alloh taolo bilan yuzma – yuz gaplashishga muayassar bo'lmaganligi, Alloh taolo O'z bandalariga biror bir Xabarni oyatda kelgan uch uslubdan biri orqaligina yuborishi haqida marhamat qilingan:

- 1) واولحينا (...vahiy orqali...)
- 2) او من وراء حجاب (...yoki parda ortidan...)
- 3) او يرسل رسولا فيوحى بآياته ما يشاء (...elchi yuborib u orqali vahiy qilur).

Ma'lumki, Qur'oni Karim Alloh taolo tomonidan insonlar orasidan tanlab olinib, xalq va millatlarga Alloh taoloning xabarlarini orqali beriladigan elchilarga nisbatan «nabiy» va «rasul» deya xitob qiladi. Ushbu ikki so'zni leksik nuqtai nazardan tahlillaydigan bo'lsak, نبي (nabiy) – «maxfiy bo'lgan ilohiy sirlarni bildirmoq», «g'aybiyotdan xabardor qilmoq» yoki «ilohiy ilm bermoq» ma'nolar ifodalaydigan⁷ sulosiy vazndagi نبي illatli fe'lidani yasalgan «ilohiy sir – sinoat va bilimlardan voqif qilingan», «g'aybdan xabar berilgan», «ilohiy ilm berilgan» ma'nolaridagi ismi fo'il (harakat bajaruvchisi) bo'lsa, رسول (rasul) – «yubormoq» yoki «yetkazmoq» ma'nolarida keladigan رسول fe'lidani yasalgan

6 Givens, Terry L. (2001), “The Book of Mormon and Dialogic Revelation”, Journal of Book of Mormon Studies, 10 (2): 16–27, 69–70

7 Ўзбек тилининг изоҳли луғати Н ҳарфи. Тошкент.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» давлат илмий нашриёти, Тошкент.: “Ҳиллол Нашр”, 2021. – бет 78

«Allohdan bandalariga ilohiy xabar yetkazuvchi» degan ma'nosidagi ismi foil ya'ni harakat bajaruvchisidir⁸.

Turk ilohiyotshunosi Ihsan Shenojakk ko'ra «nubuvvat» (نُبُوَّة) istilohiy ma'noda dunyo va oxirat hayotining insoniyatga maxfiy bo'lgan sir – sinoatlari va g'aybiyot olamiga tegishli bo'lgan ilohiy bilim va hikmatdan iborat bo'lgan xabarlarining Alloh taolo tarafidan elchi yoki payg'ambarga vahiy yo'li orqali bildirishi bo'lsa, «risolat» (رِسَالَة) esa ayni shu ilohiy bilimning kimgadir yetkazilishi amr qilingan hukmiy xabarlar to'plamidir⁹. Shuningdek, u tasnifiga quyidagicha qo'shimcha qilgan: «Alloh tarafidan ilohiy bilim berilgan inson «nabiy»dir. Ilohiy bilim olgan nabiyga uni boshqalarga yetkazish amr qilinsa, u «rasul» maqomida ham bo'ladi.» Ihsan Shenojakkning ta'rifiga o'xshash ta'rifni shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusufning "Mukammal saodat yo'li" asarida ham uchratish mumkin. Ammo, tadqiqotimiz davomida guvoh bo'ldikki, Qur'oni Karimning bir qator ingliz tilidagi tarjimalarida mazkur ikki atama bir xilda, "prophet" deya tarjima qilingan. Garchi lug'aviy – semantik jihatdan "prophet" so'zi نَبِي (nabiy) va رَسُول (rasul) istilohlariga nisbatan tarjimaviy muqobil sifatida ishlatilinsa – da, "prophet" so'zi نَبِي (nabiy) va رَسُول (rasul) istilohlariga nisbatan ma'noviy o'zgaruvchanligi sabab, nomuqobildir. Quyida "prophet" so'zining

davriy jihatdan qanday ma'nolarda o'zgarib borganligiga e'tibor beramiz.

- 1) Bashoratchi ma'nosida
• a person who foretells or predicts what is to come¹⁰.
- 2) Yangi qonun qoidalar tashkil etuvchi shaxs inson ma'nosida
• a person who supports a new system of beliefs and principles;¹¹
- 3) Ruhoniy motivator ma'nosida
• a spiritual seer;¹²
- 4) Allohning elchisi, payg'ambar ma'nosida
• a man in the Christianity, luadism, or Islam that is believed to has been sent by God with divine message to lead them into truthful way;¹³

Xulosa o'rnida, ta'kidlashimiz lozimki, "prophet" so'zining «payg'ambar» ma'nosiga kelgunga qadar qay darajada mazmunan o'zgarib kelganligiga guvoh bo'lmoqdasiz. Shu sababli bo'lsa kerak, o'zlarining shaxsiy e'tiqodiy qarashlari asosida iegova shohidlari, saintologiya, masih havoriylari, guruji yoki gurudev bir qator radikal missioner sektalarga asos solgan Rassell. M. Nelson L. Ron Hubbard, Charlz Taz Rasll va Shri Shri Ravi Shankar kabi shaxslar bugungi kunda ularga ergashgan insonlar tomonidan «payg'ambar» deya e'tirof etilmoqda.

⁸ Esposito, J. L. (Ed.). (2004). *The oxford dictionary of Islam*. Oxford University Press. p 21

⁹ Recep, Ö. N. A. L. *Kur'an'daki Nebi-Resul Kavramlarını Teolojik Yaklaşım*. KADER Kelam Araştırmaları Dergisi, 11(1), 329-350

¹⁰ Stevenson, A. (Ed.). (2010). *Oxford dictionary of English*. Oxford University Press, USA.

¹¹ Audi, R. (1999). *The Cambridge dictionary of philosophy*. Cambridge university press. p 32

¹² Culpepper, J. C. (2000). *Merriam-Webster Online: The Language Center. Electronic Resources Review*, 4(1/2), 9-11.

¹³ Hanks, P. (1979). *Collins dictionary of the English language*. Collins university press p 23

BO'LAJAK EKOLOGIK MUHANDISLARDA "HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI VA MEHNAT MUHOFAZASI" FAOLIYATIGA OID BARQAROR QIZIQISHNI SHAKLLANTIRISH

Muxayyo Otaqulovna Xoldarova - tayanch doktorant, Jizzax politexnika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada texnika yo'nalishi oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanadigan bo'lajak ekologik muhandislarda hayot faoliyati xavfsizligi va mehnat muhofazasi faoliyatiga oid barqaror qiziqishni shakllantirish masalalari qaralgan.

Аннотация: В данной статье рассмотрены вопросы формирования устойчивого интереса к безопасности жизнедеятельности и охране труда у будущих инженеров-экологов, обучающихся в технических вузах.

Abstract: In this article, the issues of forming a stable interest in life safety and labor protection activities among future environmental engineers trained in technical higher education institutions were considered.

Kalit so'zlar: hayot faoliyati xavfsizligi, mehnat muhofazasi, mutaxassis, qiziqish, talaba.

Ключевые слова: безопасность жизнедеятельности, охрана труда, специалист, интерес, студент.

Keywords: life safety, labor protection, specialist, interest, student.

XXI asrning boshlariga kelib jahonda xavfsiz hayotni ta'minlash eng dolzarb muammoga aylanib qoldi. Chunki, ishlab chiqarish jarayonlarining misli ko'rilmagan yuksak taraqqiy etgan texnologiyalar bilan ta'minlanishi, tabiiy rivojlanishdagi ayrim noxush vaziyatlarning murakkablashuvi aholi salomatligi, atrof muhit ozodaligi va tozaligi hamda iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga tahdid solib turadi.

BMT ning "Xalqaro fuqaro muhofazasi tashkiloti" hujjatlarida: "Dunyoda taraqqiyot shiddat bilan rivojlanib borishi bilan yonma-yon xavf-xatar ham ortib boradi, shu bois barqaror rivojlanish kafolati bu fuqoralar muhofazasi" dir deb yozib qo'yilgan. Shuning uchun ham bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan bo'lajak mutaxassislar, shu jumladan "Ekologiya va atrof-muhitni muhofazasi" ta'lim yo'nalishi talabalarini hayot faoliyati xavfsizligi va mehnatni muhofaza qilish faoliyatiga tayyorlashga alohida e'tibor berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda oxirgi yillarda mehnat jarayonida insonning xavfsizligi, hayoti va sog'lig'i, ish qobiliyati saqlanishini ta'minlash borasida keng ko'lamlı islohatlar amalga oshirilmoqda. Xususan, mehnatni muhofaza qilish sohasidagi asosiy vakolatlarini amalga oshirish, mehnatni muhofaza qilish

sohasidagi xizmatlar bozorining professional ishtirokchilariga o'tkazib berilishi, mehnatni muhofaza qilish bo'yicha davlat va jamoat nazorati kuchaytilishi borasidagi barcha amalga oshirilayotgan tadbirlar, eng avvalo, korxonalar va tashkilotlarda, ish o'rinlarida mehnat sharoitlarini yaxshilashga, ishlab chiqarishdagi jarohatlanishni oldini olishga qaratilgan. Respublika miqyosida olib borilayotgan keng qamrovli bunyodkorlik ishlari yildan yilga oshishi natijasida bugungi kunda ekologiya sohasida faoliyat yuritayotgan tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish talablariga e'tiborsizlik va xodimlarga xavfsiz mehnat sharoitlari yaratilmaganligi natijasida ishlab chiqarish bilan bog'liq holdagi baxtsiz hodisalar soni ko'payotganligi kuzatilmoqda. Baxtsiz hodisalar sabablari xilma-xil bo'lishiga qaramay, ularni sodir bo'lishining umumiy sharoitlari bo'lib, bozor iqtisodiyotiga utish davrida daromad orqasidan quvish yo'lida ko'plab tashkilotlar ish beruvchilari va xodimlari xavfsizlik qoidalariga amal qilmasligi hisoblanadi. Ekologiya tarmog'ida xalqaro standartlarni va ilg'or xorij tajribalarini keng joriy etish, xodimlarning, hayoti va sog'lig'ini shu bilan birga mehnat huquqlari kafolatlarini hamda xavfsiz mehnat sharoitlari tashkil qilishni yanada kuchaytirish, ishlab chiqarishdagi avariya va zararlarni bartaraf

etish, shu jumladan kasb kasalliklarini oldini olish, uchta yo'nalishni ya'ni, xavfsizlik, mehnat gigiyenasi va xodimlar farovonligini birlashtiruvchi profilaktik tadbirlarni qurilish ishlarining barcha bosqichlarida tashkil etishning yangicha yondashuvini yaratishni taqozo etadi.

Texnika yo'nalishi oliy ta'lim muassasalarida talabalarining hayot faoliyati xavfsizligi va mehnat muhofazasiga oid faoliyatga yo'nalganligining tizim tashkil etuvchi komponentlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi: ishlab chiqarishda hayot faoliyat xavfsizligi va mehnat muhofazasini ta'minlash zaruriyatini anglash; hayot faoliyat xavfsizligi va mehnat muhofazasiga qiziqish; hayot faoliyat xavfsizligi va mehnat muhofazasi standartlari talablarini bajarishga o'rganish.

Talabaning hayot faoliyat xavfsizligi va mehnat muhofazasiga oid faoliyatga yo'nalganligining tizim tashkil etuvchi komponenti sifatida ishlab chiqarishda hayot faoliyat xavfsizligi va mehnat muhofazasini ta'minlash zaruriyatini anglash quyidagilarni ko'zda tutadi: mehnat jarayonida insonning xavfsizligini ta'minlashga, uning sog'ligini muhofaza qilishga, ishchanligini ta'minlashga yo'naltirilgan talablar, me'yorlar va qoidalarni, ishlab chiqarish jihozlarni ekspluatatsiya qilishga yo'riqnomalarni (ko'rsatmalarni) bilish; ishlab chiqarish jarayonlari, texnologik jarayonlarning alohida guruhlarini xavfsizligiga talablar buzilishi oqibatlarini anglash; xavfni aniqlash, og'irlik darajasini va mehnat kuchlanishini tavsiflash, ish joylarida xavfli ishlab chiqarish omillarining darajasini mumkin bo'lgan konsentratsiyasini aniqlash, imkonini beruvchi korxonaning sanitariya texnik pasportlash mazmunini tushunish ishlab chiqarish jarayonida mehnat xavfsizligini ta'minlash va vujudga keladigan xavfni o'z vaqtida bartaraf etish imkonini beradi.

Masalan, ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishdagi xatolik ishni xavfsiz olib borishni ta'minlamaydigan metodlar yoki usullardan foydalanish natijasida, xavfsizlikning alohida talablarini chetlab o'tish, ish joyida yuqori darajada xatarli bo'lgan xavfli va zararli ishlab chiqarish omillarining mavjudligi, himoya qurilmalari yoki individual himoya vositalarini mavjud emasligi yoki ulardan foydalanmaslik, yaroqsiz instrumentlardan foydalanish natijasida ro'y beradi.

Bunday turdagi xatolik mehnat xarajatini tejash hisobiga ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida ongli ravishda, shuningdek mutaxassisning

malakasi yetishmasligi natijasida ongli ravishda ro'y berishi mumkin.

Avariya holatining vujudga kelishi bilan shartlashilgan texnik xatolik jihozning nosozligini va atrof muhitning qoniqsiz sharoitini (temperaturaning o'ta yuqoriligi va juda pastligi, shovqin, vibratsiya, chang, yetarlicha yoritilmaganlik) ni o'z ichiga oladi. Texnik xatoliklar avtomatik rejimda va avtomatik bo'lmagan yoki muammoli rejimlarda uchratish mumkin. Aksincha, inson xavfsizligini ta'minlashga, sog'ligini muhofaza qilishga, ishchanligini taxminlashga yo'naltirilgan talablar, me'yorlar va qoidalarni, ishlab chiqarish jihozlarni ekspluatatsiya qilishga yo'riqnomani bilish; ishlab chiqarish jarayonlariga, texnologik jarayonlarning alohida guruhlarini xavfsizligiga talablar buzilishi oqibatlarini anglash; xavfni aniqlash, og'irlik darajasini va mehnat kuchlanishini tavsiflash, ish joylarida xavfli ishlab chiqarish omillarining darajasini mumkin bo'lgan konsentratsiyasini aniqlash, imkonini beruvchi korxonaning sanitariya texnik pasportlash mazmunini tushunish ishlab chiqarish jarayonida mehnat xavfsizligini ta'minlash va vujudga keladigan xavfni o'z vaqtida bartaraf etish imkonini beradi.

Talabaning hayot faoliyat xavfsizligi va mehnat muhofazasiga oid faoliyatga yo'nalganligining tizim tashkil etuvchi navbatdagi komponent bu hayot faoliyat xavfsizligi va mehnat muhofazasiga qiziqishdir.

Adabiyotlar tahlili qiziqishning mohiyatiga nisbatan quyidagi bir necha nuqtai nazar mavjudligini ko'rsatdi.

Birinchi nuqtayi nazar tarafdorlari qiziqishni munosabat sifatida qarab chiqqanlar. Masalan, S.L.Rubinshteyn qiziqish insonning borliqqa, tasviriy, emotsional bezalgan munosabati ekanligini qayd etgan. Uning fikriga ko'ra, qiziqish ehtiyojni, ehtiyoj esa o'z navbatida zaruriyatni aks ettiradi, qiziqish esa borliq obyektiga shaxsiy bog'langanlikni ifodalaydi. Shu bilan bir vaqtda, chuqurlashgan qiziqish qandaydir faoliyat, bilish sohasini o'zlashtirishda ehtiyojga aylanishi mumkin¹.

Ikkinchi nuqtayi nazar tarafdorlari esa qiziqishni ehtiyoj sifatida qarab chiqqanlar.

A.V.Petrovskiy qiziqish – bu insonning bilish ehtiyojining emotsional namoyon bo'lishi ekanligi qayd etgan².

A.N.Leontev qiziqish qiziquvchanlik predmet haqidagi bilimlarni to'planishiga

olib keladigan borliqdagi predmetlar va hodisalarning umumkasbiy bilishi yo'nalishi deb ta'kidlagan³.

V.N.Myasishev va V.G.Ivanovlar esa ehtiyoj predmetga egalik qilishga, qiziqish esa uni bilishga yo'nalganligiga asoslanib qiziqish va ehtiyojlarni bir - biridan farqlashgan va qiziqishni keng tushinishdan bir oz yiroqlashgan⁴.

Uchinchi nuqtayi nazar tarafdorlari esa qiziqishni inson faolligini qo'zg'atuvchi sifatida ko'rib chiqqan. B.I.Dodonov fikriga ko'ra, qiziqish – bu umumkasbiy psixik mexanizm bo'lib, u insonni emotsional to'yinishiga olib keladigan faoliyatga undaydi⁵.

L.S.Vigotskiy qiziqish - deganda inson reaksiyasi ta'siri yo'nalishning tuzilmasini aniqlaydigan yaxlik dinamik tendensiyani tushungan⁶. U qiziqishlarni shunday tarzda tushinib shaxsning organik, biologik asosida chuqur ildiz otgan hayotiy, organik ammo, butun shaxs bilan birga rivojlanuvchi jarayon sifatida ko'rib chiqqan: Aynan qiziqishlarning shaxsning biologik asosi bilan chambarchas bog'liqligi tufayli u qiziqishlar o'zlashtirilmaydi, balki rivojlanadi deb hisoblangan.

To'rtinchi nuqtayi nazar tarafdorlari qiziqishni qiziquvchanlik yoki diqqat sifatida ko'rib chiqqan. Masalan, N.D.Levitov, A.G.Kovalev qiziquvchanlikni qisqa muddatli qiziqishning namoyon bo'lishi sifatida talqin qilishga harakat qilganlar⁷.

Ye.P.Il'inning fikriga ko'ra, qaysi nuqtayi nazar haqida gap bormasin albatta quyidagi ikkita holat yuz beradi: ehtiyojning mavjud bo'lishi va uni ijobiy boshdan kechirish. Unisi ham bunisi ham deb yozadi u turli mualliflar tomonidan berilgan ta'riflarda o'z aksini topgan. Bunda qiziqishni tor va keng ma'noda tushinish mavjud. Tor ma'noda qiziqishni faqat bilish ehtiyoji bilan bog'lashgan va shu tufayli ular faqat bilish qiziqishlarini tan olishgan. Keng ma'noda esa qiziqishlar nafaqat bilish ehtiyojlari, balki boshqa ehtiyojlar bilan ham bog'liq holda qaralgan⁸.

Bizning fikrimizcha, qiziqish – bu motivatsion tuzilmalardan biri, shaxs yo'nalganligining tuzilma hosil qiluvchi komponenti texnika yo'nalish oliy ta'lim muassasalarida talabalarida hayot faoliyati xavfsizligi va mehnat muhofazasi faoliyatiga nisbatan qiziqishni uyg'otish esa obyektiv va subyektiv omillar bilan shartlanadi.

Obyektiv sabablarga biz quyidagilarni kiritamiz:

- xalqaro, milliy hayot faoliyat xavfsizligi va mehnat muhofazasi standartlari;

- hayot faoliyat xavfsizligi va mehnat muhofazasini boshqarish tizimining asoslarini o'rganish;

- hayot faoliyat xavfsizligi va mehnat muhofazasi qilish bo'yicha volontyorlik tadbirlarini qo'llashni targ'ib etish;

- ish beruvchilarning ishlab chiqarishda hayot faoliyat xavfsizligi va mehnat muhofazasini ta'minlash bo'yicha faoliyatga hamda mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimini tashkil etishga qiziqishi;

- hayot faoliyat xavfsizligi va mehnat muhofazasi bo'yicha o'quv materiallari mazmuni va uni o'zlashtirish usullari.

Subyektiv sabablarga biz quyidagilarni kiritdik:

- o'qituvchining kasbiy-shaxsiy sifatleri;

- talabalarining xavfsizlikka ehtiyoji, tezkor va to'g'ri qarorlarni qabul qilish uchun xavflilik va xatarlilik darajasini aniqlash hamda baholash ko'nikmasini egallashga ehtiyoji;

- talabalarining xavfli va zararli ishlab chiqarish omillari va xatarlarining shaxs va atrofdagilarning sog'ligi va xavfsizligiga ta'siri haqidagi bilimlarni jamlashi;

- o'quv va ishlab chiqarish amaliyotini o'tash davrida xavfli va zararli ishlab chiqarish omillar va xatarlardan himoyalaniish tizimini yaratishga talabalarining ijobiy emotsional munosabati;

talabalarining sanitariya-gigenik mehnat sharoitlariga qiziqishi, ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalar paydo bo'lishi mumkin bo'lgan sabablar va oqibatlar, ishlovchining surunkali kasalliklar yoki sog'ligining kutilmaganda keskin yomonlashish sabablari bo'lishi mumkin bo'lgan muhit va mehnat jarayoni omili, me'yordan chetlanishni aniqlash uchun ishlovchilarning sog'lig'i holatini kuzatish jarayoniga qiziquvchanligi;

- talabalarining diqqatini ish beruvchilarning hayot faoliyat xavfsizligi va mehnatni muhofaza qilish sohasidagi majburiyat va javobgarliklariga qaratish, xodimlarning ishlab chiqarishda mehnatni muhofaza qilishning boshqarish tizimida ishtirok etishini ta'minlash.

Talabalarni hayot faoliyat xavfsizligi va mehnat muhofazasi qilish faoliyatiga

1 Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – СПб.: Издательство «Питер», – 2000. – 594 с

2 Петровский А.В. Личность. Деятельность. Коллектив – М.: Просвещение, 1982. – 24 с

3 Леонтьев А.Н. Потребности, мотивы и эмоции. – М. Изд-во. Москва. ун-та, 1971. – 40 с

4 Мясинцев В.Н. Психология отношений. – Воронеж: НПО «МОДЭК», 1995. – 356 с.

5 Додонов Б.И. Структура и динамика мотивов деятельности // Вопросы психологии. – 1984. – № 4. – С. 67-78.

6 Выготский Л.С. Педагогическая психология / под ред. – М.: Педагогика, 1991. – 480 с.

7 Ковалев А.Г. Психология личности. – М.: Просвещение, 1970. – 392 с.

8 Ильин Е.П. Мотивация и мотивы. – СПб.: Издательский дом «Питер», 2013. – 508 с.

yo'naltirishning yana bir tuzilma tashkil etuvchi komponenti – bu ularni hayot faoliyat xavfsizligi va mehnatni muhofaza qilish standartlari talablarini bajarishga yo'nalganligidir.

Yo'nalganlik "o'zi uchun" rejalashtirilgan, ammo ortga surilgan yoki kerakli vaziyat namoyon bo'lganda amalga oshadigan maqsad sifatida qaralgan⁹.

Shuning uchun, hayot faoliyati xavfsizligi va mehnat xavfsizligi standartlari talablarini bajarishga yo'nalganlik mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimiga talablarning bajarilishiga barqaror yo'nalganlik, xavfli va zararli ishlab chiqarish omillari va xatarlilik ta'sirini pasaytirish imkonini beradigan, xodimlar xavfsizligi va sog'lig'ini ta'minlashga yo'nalganlik sifatida ko'rib chiqilish mumkin.

Hayot faoliyat xavfsizligi va mehnat xavfsizligi standartlari talablarini bajarishga yo'nalganlikni yuqorida qayd etilgan tarzda, tushunishidan kelib chiqib, uning tuzilma tashkil etuvchi komponentlarini (kognitiv, emotsional, xulqiy) quyidagicha tavsiflaymiz:

Kognitiv:

- zararli yoki xavfli ishlab chiqarish omillarining xodimlarga ishlovchilarga ta'siri yo'q yoki ularning ta'sir darajasi belgilangan me'yorlardan oshmaydigan mehnatning xavfsiz sharoiti haqida tasavvur;

- hayot faoliyati xavfsizligi va mehnat muhofazasi qonunchilik asoslari va standartlarini bilish;

- ishlab chiqarishda hayot faoliyat xavfsizligini ta'minlash va mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimi samaradorligini oshirish zaruriyatini anglash;

Emotsional (hissiy):

- xavfli va zararli ishlab chiqarish omillari ta'siridan xodimlarni va ishlovchilarni ximoyalashga ijobiy munosabat, baxtsiz hodisalar, shu jumladan ishlab chiqarishda kasbiy kasalliklarning oldini olish;

- ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasbiy kasalliklar oldini olishdan manfaatdorlik;

- xodimlarning hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlash, shuningdek mehnatni muhofaza

qilishni boshqarish tizimi ustidan davlat nazorati xizmatlarini qo'llab-quvvatlash;

- mehnat xavfsizligi va sog'liqni saqlash talablarini ta'minlash hamda bajarish bo'yicha xodimlar va ishlovchilarning kompetentligi va malakasini takomillashtirish;

Xulqiy:

- ishlab chiqarishdagi xodimlarning hayoti va sog'ligi xavfsizligini ta'minlovchi huquqiy ijtimoiy-ijodiy, tashkiliy-texnik, sanitariya-gigienik, davolash-profilaktik, reabilitatsion va boshqa tadbirlarni amalga oshirish ko'nikma va malakalari;

- xodimlarning sog'lig'ini saqlash imkon beruvchi xatarlarni bartaraf etish yoki cheklash bo'yicha samarali tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishga yordam berish;

- kasalliklarni oldini olish va xodimlarni sog'lomlashtirish dasturlarini ishlab chiqish;

- mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimi subyektlarining majburiyatlari va javobgarlikni, hayot faoliyat xavfsizligi va mehnatni muhofaza qilish va sharoitlarni yaxshilash bo'yicha tadbirlarning maqsadi, muddatlari va mezonlarini o'z vaqtida tuzatish;

- xavf-xatarlarning manbaidan texnik jamoaviy himoya vositalari yoki tashkiliy choralaridan foydalanish yo'li bilan cheklashga intilish, shuningdek o'z ichiga zararli va xavfli ishlab chiqarish omillari bilan ishlash vaqtini ma'muriy cheklash choralarini olgan xavfsiz ishlab chiqarish tizimlarini loyihalash yo'li bilan ularni minimallashtirish,

- ishlab chiqarishda mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimi asoslarini ishlab chiqish vakolatlariga ega bo'lgan kompetentli muasasalar bilan hamkorlik qilish va mos standartlarni shakllantirish.

Qayd etilganlardan, ko'rinib turibdiki, talabalarning hayot faoliyati xavfsizligi va mehnat muhofazasiga oid faoliyatga barqaror yo'nalganligini shakllantirish, bu hayot faoliyati xavfsizligi va mehnat muhofazasi bo'yicha multimediali elektron ta'lim resurslarini loyihalashning zaruriy pedagogik shartlaridan biridir.

⁹ Мясщев В.Н. Психология отношений. – Воронеж: НПО «МОДЭК», 1995. – 356 с



Jurnalning xalqaro ISSN raqami : 2181-6131
Jurnalning Index raqami: 3535